Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi

“MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA GLOBAL INNOVATSIYALAR VA MILLIY TA’LIM STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGINI TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI”

Respublika ilmiy -amaliy konferensiya materiallari

TO‘PLAMI

5-dekabr 2025-yil

“Maktabgacha ta’lim tizimida global innovatsiyalar va milliy ta’lim strategiyalari uyg‘unligini ta’minlashning dolzarb masalalari” Respublika ilmiy-amaliy Konferensiya materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PMM nashri, 2025. 588b.

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilgan “Maktabgacha ta’lim tizimida global innovatsiyalar va milliy ta’lim strategiyalari uyg‘unligini ta’minlashning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy Konferensiya materiallari to‘plamida uzluksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbiqlari keltirilgan. Jumladan, maktabgacha ta’lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni muhokama qilish; zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari imkoniyatlarini tahlil etish; bolalarning ijodiy, ma’naviy va intellektual salohiyatini oshirish usullarini belgilash; davlat va jamiyat hamkorligini kuchaytirish, inklyuziv ta’lim masalalarini yoritish hamda xalqaro tajribalarni o‘rganish va milliy amaliyotga tatbiq qilish yo‘llarini belgilash kabi tadqiqot natijalari yoritilgan. Shuningdek, asosiy yo‘nalishlar sifatida,

- ✓ barqaror rivojlanish sharoitida maktabgacha ta’limda innovatsion pedagogik menejment va samarali ta’lim texnologiyalarini joriy etish;
- ✓ ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion yondashuvlar va davlat-jamiyat hamkorligi istiqbollari;
- ✓ xalqaro tajriba va hamkorlik istiqbollari, ta’limda raqamli muhit va media ta’lim etib belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag‘ishlangan. Konferensiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor o‘qituvchilari, professional ta’lim, umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

TAHRIR HAY’ATI

1. Mardanov U.R. - Navoiy viloyati PMM direktori.
2. Safarov D.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor.
3. Astanaqulov K.M. - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor.
4. Pulotov A.M. - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
5. Mansurova S.R.- pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
6. Djurayeva D.N - “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikasi” kafedrasi v.b.dotsent.
7. Quldosheva D.Q. – Aniq va tabiiy fanlar metodikasi katta o‘qituvchisi

Texnik muharrir: Z.U.Toshqulova.

Maqolalar mazmuni va ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’ul. Konferensiya materiallari to‘plami Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 29-dekabr, 7-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, aziz hamkasblar va Konferensiya ishtirokchilari!

Avvalo, barchangizni yaqinlashib kelayotgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33 yilligi munosabati bilan hamda yangi 2026 yil bilan samimiy tabriklayman. Siz azizlarning barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, ezgu faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman. Ta’lim har qanday jamiyatning rivojlanishi va jahon bozoriga kirib borishida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimi yanada katta qamrovdagi o‘zgarishlar hamda islohotlarni talab etmoqda. Bu strategiya mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga asos bo‘lib xizmat qiladi Bugungi **“Maktabgacha ta’lim tizimida global innovatsiyalar va milliy ta’lim strategiyalari uyg‘unligini ta’minlashning dolzarb masalalari”** mavzusidagi Respublika ilmiy - amaliy konferensiyadan ko‘zlangan maqsad ham shu mazmunni aks ettiradi.

Bugungi tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda milliy ta’lim strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, **O‘zbekiston – 2030 strategiyasida** belgilangan ustuvor vazifalar maktabgacha ta’limning yangi bosqichga ko‘tarilishini taqozo etadi. O‘zbekiston – 2030 strategiyasida maktabgacha ta’limning asosiy maqsadlari qilib, maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrovni yanada oshirish, ayniqsa, 3–7 yoshli bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish hamda olis hududlarda ham sifatli bog‘cha xizmatlarini ta’minlash maqsad qilib qo‘yilgan.

Yangi O‘zbekiston ta’lim strategiyasining asosiy maqsadi – xalqaro miqyosda raqobatbardosh, keng qamrovli bilim, ko‘nikmalarga, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashdir. Innovatsion va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga joriy etilib, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. O‘qituvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yangi bosqichda tashkil etilmoqda. Bunda bolalarni ijodiy fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar asosida o‘qitishning ustuvor vazifalari belgilandi. Maktabgacha ta’limning qamrovini kengaytirish va sifatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Xususan, joriy yilda Navoiy viloyatida maktabgacha ta’limning qamrovini 90%ga yetkazish rejalashtirilgan. Metodik mahorat kuni, metodik mahorat soatlari doirasida kaskad usulida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglari o‘z bilim va tajribalarini oshirib bormoqda.

Ta’lim sifatini zamonaviy standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha, Strategiyada:kompetensiyaga asoslangan o‘quv dasturlarini joriy etish, tarbiyachi-pedagoglar malakasini oshirishning yangi mexanizmlarini yaratish, STEAM, media savodxonlik, kreativ fikrlashni erta yoshdan rivojlantirish alohida yo‘nalish sifatida belgilangan. Shunigdek, Inkluziv maktabgacha ta’limni kengaytirish borasida**,** 2030 yilga qadar: imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashtirilgan muhit yaratish, maxsus pedagoglar tayyorlash, oilaviy inkluziv ta’lim dasturlarini qo‘llab-quvvatlash rejalashtirilgan.

Milliy o‘quv dasturlari Finlandiya va Singapur tajribalari bilan uyg‘un bo‘lib, bolalarda: kreativ fikrlash, muammolarni mantiqiy usulda yechish, kommunikativ, tanqidiy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ekanligi, bu borada o‘quv dasturlarini o‘rganilmoq va amaliyotga joriy etilmoqda.

Xulosa, sifatida shuni aytish mumkinki, ayni damda Pedagogik mahorat markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuqoridagi maqsad va vazifalarni bajarishda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Bugungi tashkil etilgan Koferensiya aynan maktabgacha ta’lim sohasini yanada rivojlantirishga va kelgusidagi istiqboli strategiyalarni tuzish hamda ilmiy tadqiqot ishlari yosh avlodni har tomonlama rivojlanishida o‘z hissasini qo‘shadi.

U.R.Mardanov

Navoiy viloyati PMM direktori

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Nafisa Shavkatovna,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektori,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hurmatli professor o‘quvchilar, tadqiqotchilar va maktabgacha ta’lim sohasidagi amaliyotchilar!

Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida maktabgacha ta’limning ahamiyati strategik jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMTning 80-sessiyasidagi “Eng asosiysi – o‘qituvchi va ustozlik kasbining obro‘yi va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaramoqdamiz” degan bayonoti chuqur konseptual ahamiyatga ega. Ushbu bayonotga asosan, ta’llim tizimida pedagoglarni professional salohiyatini to‘liq namoyon etishi va o‘z potentsialini ro‘yobga chiqarish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning markaziy strategiyasiga aylantirildi.

Dunyoda isbot talab qilmaydigan haqiqat shundaki, har qanday mamlakat taraqqiyoti sog‘lom, bilimli va barkamol avlodga bog‘liq. Shu bois, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida sog‘lom, bilimdon, teran fikrli va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish dolzarbligi ortib bormoqda. Respublikamiz rahbari tomonidan belgilangan ustuvor vazifalar fonida maktabgacha ta’lim tizimining ahamiyati beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-sonli qarori mamlakatimizdagi pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi tizimini tubdan yangilaydi. Joriy etilayotgan “Virtual kasbiy rivojlantirish” dasturi, tabaqalashgan ta’lim modeli va mentorlik tizimi orqali pedagoglar zamonaviy bilim va metodlarni egallashda qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu islohotlar nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki O‘zbekistonni xalqaro ta’lim standartlari darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Mazkur qaror pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tizimli va murakkab jarayonga aylantirib, mentor-o‘qituvchilarni jalb qilish va ularning faoliyatini

moddiy rag‘batlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, xorijiy malaka oshirish va chet ellik mutaxassislarning hududiy markazlarga jalb etilishi orqali jahonning ilg‘or pedagogik amaliyotlari o‘rganilmoqda. Bu yangiliklar ta’lim sohasidagi izlanishlarni yangi bosqichga ko‘taradi va har bir o‘qituvchiga shaxsiy o‘sish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi kunda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. 2024-yil dekabr oyi ma’lumotlariga ko‘ra, reja 4411 nafarni nazarda tutgan bo‘lsa, amalda 4441 nafar mutaxassis malaka oshirdi, bu rejaning 100,6% ni tashkil etdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish, ularga menejerlik sertifikatini berish va nomzodlarni lavozimga tayinlash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 531-sonli qarori muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarini zamonaviy boshqaruv usullariga o‘rgatish va sertifikatlash tizimi joriy etildi. Bu rahbarlarning professional salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish jarayonining muhim tashkiliy mexanizmidir. Sertifikatlash tizimi nafaqat rasmiy malaka ko‘rsatkichlarini, balki rahbarning o‘zini boshqarish va pedagogik kompetensiyalarini ham baholashga qaratilgan.

Ushbu mexanizm rahbarlik lavozimlarini to‘ldirishda imkoniyatlar tengligi tamoyilini amalga oshiradi. Qarorda belgilanganidek, “menejerlik sertifikati – tashkilot direktori lavozimida ishlash huquqini beruvchi hujjat” hisoblanib, bu har bir shaxsning qobiliyati va mehnati evaziga yuqori natijalarga erishish imkoniyatini ta’minlaydi. Har besh yilda bir marta sertifikatni yangilash talabi esa doimiy o‘rganish va o‘zini rivojlantirishni talab qiladi, bu professional o‘sishning asosiy shartidir.

Hozirda mazkur qaror ijrosi doirasida institutimizda bir qator samarali ishlar amalga oshirilmokda. 2025-yil dekabriga qadar maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaldagi direktori rejasi 100,9% bajarildi. Shuningdek, direktorlikka nomzodlar uchun mo‘ljallangan menejerlik kurslari ham rejadan ortig‘i bilan – 110,9%ga yaqin natijalar bilan amalga oshirildi.

Ta’lim dasturlarini milliy ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqish, ularning uzviyligi va zamonaviyligini ta’minlash, shuningdek, ta’lim mazmunini zamonaviy andragogik yondashuvlarga moslashtirish – barcha malaka oshirish institutlari va hududiy markazlar oldidagi asosiy vazifalardandir. Hozirgi kunda malaka oshirish kurslarida natijaga yo‘naltirilgan malaka oshirish kurslarining muqobil shakllar joriy etilmoqda. Shulardan masofaviy ta’lim,

mustaqil ta’lim, ish joyidan ajralmagan holda o‘qish, webinar va master-klasslar kabi innovatsion formatlar keng qo‘llanilmoqda.

Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishini qo‘llab-quvvatlash sharoitlari yaratilganligi, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimining faol ishlashi, xorijda malaka oshirgan professor-o‘qituvchilarning o‘quv jarayoniga jalb etilishi muhim ahamiyatga ega. Ularning tajribasi asosida yangi darslik, qo‘llanma va metodik materiallar yaratilmoqda, bu esa ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, bizning asosiy vazifamiz – maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirish, har bir bolaga teng va sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishdir. Buning uchun nafaqat moddiy-texnik bazani, balki kadrlar tayyorlash tizimini ham tubdan isloh qilish, pedagoglarning kasbiy mahoratini doimiy ravishda oshirib borish zarur.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tizimi kelajagini qurish – bu faqat “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti balki, hududiy malaka oshirish markazlarimizning birgalikdagi mehnati va mas’uliyatidir. Keling, har birimiz o‘z vazifalarimizni anglash, o‘z hududimizdagi har bir pedagog va rahbarni qo‘llab-quvvatlash, ularda yangi g’oyalar uchun intilish va o‘sish istagini uyg‘otish orqali yagona maqsadga – barkamol avlod tarbiyasiga xizmat qilaylik.

Ishonamizki, sizning bilimingiz va sadoqatingiz har bir bolaning tabassumi va mamlakatimizning yorqin kelajagi uchun eng ishonchli poydevordir !

1-SHO‘BA: BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA MAKTABGACHA TA’LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK MENEJMENT VA SAMARALI TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ERTISH

ZAMONAVIY GADJETLARNING O‘QUVCHILARNING HISSIY-IRODAVIY SOHASIGA TA’SIRINI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

D.X.Safarov Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Z.H.Davlatova NavDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining, xususan gadjetlarning, o‘quvchilar hissiy-irodaviy sohasiga ta’siri psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘quvchilarda gadjetlardan foydalanish darajasi va hissiy holat, irodaviy barqarorlik hamda diqqat kontsentratsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: gadjet, hissiy-irodaviy soha, psixologik ta’sir, diqqat, motivatsiya, emotsional barqarorlik.

Kirish. XXI asrda insoniyat taraqqiyotining eng muhim belgilaridan biri bu — raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishidir. Zamonaviy gadjetlar — smartfon, planshet, noutbuk, kompyuter va boshqa raqamli qurilmalar — bugungi kunda nafaqat kundalik turmush, balki ta’lim-tarbiya jarayonining ham ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu holat yosh avlod, ayniqsa o‘quvchilar shaxsining psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Gadjetlar yordamida o‘quvchilar tezkor axborot olish, onlayn ta’lim platformalarida o‘qish, muloqot qilish va ijodiy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shu bilan birga, ularning psixologik holati, hissiy barqarorligi va irodaviy xatti-harakatlariga texnologik vositalar qanchalik ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani dolzarb ilmiy masalaga aylandi.

So‘nggi yillarda olib borilgan psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gadjetlardan haddan tashqari foydalanish o‘quvchilarda **diqqatning tarqoqligi, hissiy beqarorlik, tashvish, charchoq, ijtimoiy izolyatsiya** kabi salbiy holatlarni kuchaytirdi [2]. Boshqa tomondan esa, ularni **ta’limiy maqsadlarda, ijodiy rivojlanish va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish** yo‘lida to‘g‘ri ishlatish o‘quvchilarning emotsional ijobiy tajribasini oshiradi [5].

O‘quvchilar shaxsida hissiy-irodaviy jarayonlar (his-tuyg‘ularni boshqarish, motivatsiya, o‘zini tuta bilish, diqqatni jamlash, sabr-toqat va iroda) maktab davrida faol shakllanadi. Shu sababli bu jarayonlarga tashqi axborot muhiti, xususan, **raqamli muhitning psixologik ta’siri**ni o‘rganish muhim ilmiy-amaliy

ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro munosabati nafaqat o‘qish samaradorligini, balki **uning hissiy muvozanati va irodaviy barqarorligini** ham belgilab beradi[1].

Shuningdek, raqamli vositalarning haddan tashqari ko‘payishi natijasida “raqamli qaramlik” tushunchasi paydo bo‘lib, bu o‘quvchilarning psixik holatida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu holat o‘zini nazorat qilish qobiliyatining pasayishi, diqqatning tez chalg‘ishi va hissiy zo‘riqish bilan kechadi. Shu sababli, o‘quvchilarda **raqamli gigiyena madaniyati**ni shakllantirish, ularni texnologiyalardan ongli va me’yorli foydalanishga o‘rgatish psixologik tarbiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Inson psixikasining murakkab tizimida hissiy va irodaviy jarayonlar markaziy o‘rin tutadi. **Hissiy-irodaviy soha** — bu shaxsning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, motivatsiyasi, qaror qabul qilishdagi qat’iyligi va o‘zini boshqarish qobiliyatini birlashtiruvchi psixik tizimdir. Bu soha insonning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqasini boshqaradi, uning o‘qish, mehnat, muloqot va ijodiy faoliyatida barqarorlikni ta’minlaydi.

Hissiy soha (emotsional soha) — bu shaxsning turli tashqi va ichki ta’sirlarga javoban paydo bo‘ladigan kechinmalar tizimidir. U quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

- **Hissiyotlar (emotsiyalar)** — voqealarga, insonlar yoki narsalarga nisbatan tezkor psixik javob. Masalan, quvonch, qo‘rquv, hafsalasi pir bo‘lish, hayrat.
- **Kayfiyat** — nisbatan barqaror hissiy fon, u shaxsning butun faoliyatiga ta’sir etadi.
- **Affekt** — qisqa, lekin kuchli hissiy portlash (masalan, g‘azab, vahima).
- **Hissiy barqarorlik** — shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish, stressga bardosh bera olish qobiliyati.

Psixologiyada hissiy barqarorlik o‘quvchilarda ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatning muhim omili sifatida qaraladi [4]. Emotsional jihatdan muvozanatli o‘quvchi o‘qishga ko‘proq e’tibor beradi, o‘z motivatsiyasini saqlay oladi va stress holatlarida o‘zini boshqarishga qodir bo‘ladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalardan ortiqcha foydalanish o‘quvchilarda emotsional charchoqni kuchaytiradi, bu esa diqqatni jamlash va o‘rganish samaradorligini pasaytiradi [2]. Shu bilan birga, interfaol o‘yinlar yoki ta’limiy ilovalar orqali ijobiy hissiyotlarni uyg‘otish hissiy muvozanatni qo‘llab-quvvatlaydi[5].

Iroda — bu shaxsning ongli ravishda maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarini boshqarish va to‘siqlarga qaramasdan natijaga erishish qobiliyatidir. Irodaviy soha quyidagi komponentlardan iborat:

- **Maqsadni belgilash** – shaxsning ongli harakat yo‘nalishini aniqlashi.
- **Motivatsiya** – faoliyatni davom ettirishga undovchi ichki kuch.
- **Qaror qabul qilish** – muayyan vaziyatda yo‘l tanlash.
- **O‘zini boshqarish va o‘zini tuta bilish** – hissiy impulslarni nazorat qilish, mas’uliyatli xulq ko‘rsatish.

O‘quvchilar uchun irodaviy barqarorlik o‘qishdagi qiyinchiliklarga bardosh berish, diqqatni uzoq vaqt davomida saqlash, mustaqil fikrlash va mas’uliyatni his qilishni ta’minlaydi. Psixologik tadqiqotlar ko‘rsatadiki, gadjetlardan doimiy foydalanish bu qobiliyatlarni susaytirishi mumkin, chunki diqqatni chalg‘ituvchi omillar (masalan, bildirishnomalar, o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar) o‘zini tuta bilish jarayonlarini zaiflashtiradi [1].

Biroq, raqamli texnologiyalarni nazoratli va maqsadga muvofiq ishlatish o‘quvchilarning irodaviy sohasini rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, vaqtni boshqarish ilovalari, ta’limiy o‘yinlar yoki motivatsion dasturlar shaxsda maqsad sari qat’iylik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini kuchaytiradi[3].

Hissiy va irodaviy jarayonlar bir-biridan ajralmas tizimni tashkil etadi. Kuchli irodaviy nazorat shaxsga hissiyotlarini boshqarish imkonini beradi, hissiy muvozanat esa irodaviy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, o‘quvchi salbiy hissiyotlar (zerikish, qo‘rquv, tashvish)ni boshqara olmasa, uning motivatsiyasi pasayadi; aksincha, ijobiy hissiyotlar (qiziqish, ishonch, qoniqish) irodaviy faoliyatni rag‘batlantiradi [6].

Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan smartfon, planshet, kompyuter kabi gadjetlar o‘quvchilarning kundalik hayotiga chuqur kirib borgan. Bugungi kunda ularning aksariyati o‘qish, muloqot qilish, o‘yin o‘ynash va ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish jarayonlarini aynan raqamli muhit orqali amalga oshiradi. Bu holat o‘quvchilarning emotsional holatiga, ya’ni his-tuyg‘ular, kayfiyat, stress darajasi va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Gadjetlardan oqilona foydalanish o‘quvchilarda ijobiy hissiy holatni shakllantirishi mumkin. Masalan:

- **Motivatsiyani oshirish:** ta’limiy o‘yinlar, interfaol dasturlar va vizual darsliklar o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish va ichki motivatsiyani kuchaytiradi.
- **Ijtimoiy aloqadorlik hissi:** onlayn muloqot vositalari (chat, videoaloqa, guruhli suhbatlar) orqali o‘quvchilar o‘zini jamoaning bir qismi sifatida his etadi. Bu esa ijtimoiy-emotsional rivojlanish uchun muhimdir.
- **Ijodiy ifoda imkoniyati:** multimedia ilovalari orqali bolalar o‘z g‘oyalarini ifodalash, videolar, rasmlar, loyihalar yaratish orqali o‘zini namoyon etish hissidan zavq oladilar.

Aksincha, gadjetlardan **ortiqcha yoki nazoratsiz foydalanish** o‘quvchilarning emotsional sohasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ladi:

- **Stress va tashvishning ortishi.** Smartfon yoki internetga qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini solishtirish, “yoqtirishlar” soniga bog‘liqlik bolalarda o‘zini past baholash, tashvish va depressiv kayfiyatni kuchaytiradi.
- **Emotsional charchoq.** Doimiy vizual va axborot oqimi miyaning dam olish imkonini cheklaydi, bu esa charchoq, befarqlik, diqqatning tarqoqligi kabi belgilarni keltirib chiqaradi.
- **Ijtimoiy izolyatsiya.** Paradoxal tarzda, onlayn muloqotning ortishi real hayotdagi muloqotni kamaytiradi, bu esa yolg‘izlik hissi, empatiyaning pasayishi va hissiy sovuqlikka olib keladi.

Bundan tashqari, ekran orqali doimiy stimulyatsiya miyadagi dopamin tizimini haddan tashqari faollashtirib, “tez zavqlanish” odatini shakllantiradi. Bu esa real hayotdagi oddiy o‘quv yoki ijtimoiy faoliyatlardan zavqlanish qobiliyatini kamaytiradi. Tadqiqotchilar buni “raqamli hissiy toliqish” (digital emotional fatigue) deb atashadi[6].

O‘quvchilarning emotsional barqarorligini saqlashda quyidagi psixologik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. **Vaqt cheklovi va raqamli intizom.** Gadjetlardan foydalanish uchun aniq vaqt chegaralari belgilash hissiy barqarorlikni saqlaydi.
2. **Raqamli detoks.** Haftasiga kamida bir kun ekranlardan voz kechish miya va his-tuyg‘ularni tiklaydi.
3. **Jismoniy va ijtimoiy faoliyat.** Sport, tabiat qo‘ynida vaqt o‘tkazish va jonli muloqot raqamli muhitning salbiy ta’sirini kamaytiradi.
4. **Emotsional tarbiya.** Stressni boshqarish, empatiya, o‘zini tinchlantirish texnikalarini o‘rgatish o‘quvchilarda raqamli muhitga nisbatan psixologik immunitetni kuchaytiradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, raqamli farovonlik (digital wellbeing) dasturlari o‘quvchilarning stressini kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va ijtimoiy hissiyotlarni barqarorlashtiradi.

Iroda inson psixikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning maqsad sari yo‘naltirilgan harakatlarini boshqarish, to‘siqlarga qaramay natijaga erishish va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyatini anglatadi. Irodaviy jarayonlar — bu **motivatsiya, qaror qabul qilish, sabr-toqat, o‘zini boshqarish va diqqatni jamlash** kabi psixik funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

Irodaviy jarayonlar shaxsning ongli harakatlarini tartibga soluvchi psixik tizimdir. U quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Maqsadni aniqlash – inson faoliyatining yo‘nalishini belgilaydi.
2. Motivni shakllantirish – harakatga ichki turtki beradi.
3. Qaror qabul qilish – harakat usulini tanlashni bildiradi.
4. Harakatni amalga oshirish – irodaviy harakatning amaliy bosqichi.
5. O‘zini nazorat qilish – shaxsning harakatlarini baholash va tuzatish jarayoni.

O‘quvchilar hayotida bu bosqichlar o‘qishdagi qat’iyat, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish, diqqatni jamlab ishlash va o‘zini rag‘batlantirish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jarayonlarga gadjetlardan foydalanish bevosita ta’sir etadi.

So‘nggi yillardagi psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, gadjetlardan haddan tashqari foydalanish yoki ularning noto‘g‘ri qo‘llanilishi irodaviy jarayonlarni susaytiradi. Quyidagi asosiy salbiy jihatlar aniqlangan:

- **Diqqatning tarqoqligi.** Doimiy bildirishnomalar, o‘yinlar va ijtimoiy tarmoqlar diqqatni tez-tez chalg‘itadi. Bu esa o‘quvchilarda sistematik fikrlash va uzoq muddatli diqqatni saqlash qobiliyatini pasaytiradi.
- **O‘zini boshqarishning zaiflashuvi.** Gadjetlardan tez-tez foydalanish miya mukofot tizimini (dopamin tizimi) faollashtiradi. Bu “tez zavq olish” odatini shakllantirib, sabr-toqat va uzoq muddatli motivatsiyani kamaytiradi.
- **Prokrastinatsiya (ishlarni kechiktirish).** Ijtimoiy tarmoqlar yoki o‘yinlar o‘quvchining diqqatini asosiy vazifalardan chalg‘itib, vaqtni samarasiz o‘tkazish odatini kuchaytiradi. Shu bilan irodaviy faollik sustlashadi.
- **Raqamli qaramlik sindromi.** Smartfon yoki o‘yinlardan uzoqlashganda bezovtalik, charchoq yoki emotsional tushkunlik yuzaga keladi. Bu holat psixologik mustaqillikni pasaytiradi va shaxsning irodaviy nazoratini zaiflashtiradi.

Biroq gadjetlar irodaviy jarayonlarga faqat salbiy emas, balki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki undan qanday va qanchalik maqsadli foydalanilishidadir. Quyidagi holatlar irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi:

- **Vaqtni boshqarish ilovalari (Time-management apps).** O‘quvchilar kunlik rejalashtirish, topshiriqlarni belgilash va bajarilgan ishni nazorat qilish orqali o‘zini boshqarish va mas’uliyat hissini rivojlantiradi.
- **Ma’lumot izlash va tahlil qilish vositalari.** Mustaqil izlanish, o‘z fikrini asoslash va maqsad sari harakat qilish irodaviy faollikni oshiradi.
- **Ta’limiy o‘yinlar va raqamli baholash tizimlari.** Bu vositalar o‘quvchilarda raqobat ruhini, o‘zini sinab ko‘rish istagini va irodaviy qat’iyatni kuchaytiradi.

Zamonaviy texnologiyalar ta’sirida o‘quvchilarning hissiy va irodaviy sohasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar ularning psixologik salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, bu sohada **psixologik profilaktika** chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ya’ni salbiy ta’sirlarni kamaytirish va sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish dolzarb masaladir. Profilaktika nafaqat salbiy oqibatlarni bartaraf etish, balki o‘quvchilarda **raqamli madaniyat, o‘zini boshqarish va emotsional intellekt**ni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

4.1. Psixologik profilaktikaning asosiy yo‘nalishlari

1. Raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirish

2. Emotsional intellektni rivojlantirish

3. Irodaviy ko‘nikmalarni mustahkamlash

4. O‘qituvchi va ota-onalar bilan hamkorlik

Quyida o‘quvchilar va pedagoglar uchun ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar keltirilgan:

Yo‘nalish	Muammo	Psixologik tavsiya
Hissiy holat	Stress, tashvish, charchoq	“Mindfulness”, chuqur nafas mashqlari, dam olish texnikalari
Iroda	Diqqatni jamlay olmaslik, sustlik	Pomodoro metodi, maqsadlar ro‘yxati, o‘zini baholash kundaligi
Raqamli foydalanish	Gadjetlarga qaramlik	Kunlik vaqt chegarasi (maksimal 3 soat), ekran detoks kuni
Ijtimoiy aloqalar	Yolg‘izlik, empatiya yetishmasligi	Guruhli muloqot o‘yinlari, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish
Motivatsiya	O‘qishga befarqlik	Gamifikatsiya (rag‘bat tizimi), o‘z yutuqlarini qayd etish

Bu tavsiyalar psixologik muvozanatni saqlash, hissiy-irodaviy sohani barqarorlashtirish va o‘quvchilarning raqamli muhitda sog‘lom rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. Shuningdek, psixologik profilaktika samarali bo‘lishi uchun quyidagi **uch bosqichli model**ni qo‘llash tavsiya etiladi:

1. **Diagnostika bosqichi** – o‘quvchilarning hissiy-irodaviy holatini aniqlash (so‘rovnoma, kuzatish, suhbat).
2. **Korreksiya bosqichi** – emotsional tarbiya, motivatsion trening, raqamli madaniyat bo‘yicha mashg‘ulotlar.
3. **Monitoring bosqichi** – psixologik o‘zgarishlarni qayd etish, individual maslahatlar berish.

Bu tizim maktab psixologlari, o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligida amalga oshirilganda eng samarali natijani beradi.

Xullas, zamonaviy gadjetlar o‘quvchilarning hissiy-irodaviy sohasiga ikkiyoqlama ta’sir ko‘rsatadi: ular o‘quv motivatsiyasini oshirishi mumkin, biroq

nazoratsiz foydalanish stress, diqqat tarqoqligi va irodaviy zaiflikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun psixologik tadqiqotlarda asosiy e’tibor o‘quvchilarda raqamli madaniyat va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chen, L., Wang, X., & Hu, J. (2022). *Smartphone use and self-control among students: A psychological perspective.* Journal of Educational Psychology and Technology.
2. Kim, S., & Lee, H. (2020). *Smartphone addiction and its relationship with anxiety and depression among students.* International Journal of Mental Health Studies.
3. Liu, Y., & Zhao, Q. (2020). *Self-regulation and digital media use in children: The role of parental guidance and emotional balance.* Journal of Child Psychology and Education.
4. Markova, O. (2021). *The relationship between emotional intelligence and Internet addiction among adolescents.* Journal of Psychology and Behavioral Sciences.
5. Park, J., Kim, M., & Choi, S. (2019). *Positive and negative effects of smartphone use among children and adolescents.* Child Development and Digital Media Journal.
6. Zhou, T., Li, P., & Sun, R. (2023). *Effectiveness of digital wellbeing interventions for adolescents: A meta-analytic review.* Journal of Adolescent Digital Behavior Studies.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH VA TA’LIM-TARBIYA BERISH

Parpiyeva Gulbahor Mirzavaliyevna,
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,
Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i
E-mail: gulbahorparpieva96@gmail.com,
Telefon:+998903498020

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yin faoliyatining o‘rni, o‘yin orqali ta’lim-tarbiya berishning pedagogik va psixologik asoslari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Bolalarning intellektual, kognitiv, kreativ, ijtimoiy, emotsional va jismoniy rivojlanishida o‘yinlarning ta’siri tahlil qilingan, milliy an’anaviy o‘yinlar hamda zamonaviy innovatsion o‘yin texnologiyalarining afzalliklari ayoritilgan. Maqolada pedagog xodimlar uchun amaliy tavsiyalar, metodik yondashuvlar va xalqaro tajribalarga oid tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yinga asoslangan ta’lim, maktabgacha ta’lim, rivojlanish, innovatsion o‘yinlar, an’anaviy o‘yinlar, kognitiv rivojlanish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, STEAM, Reggio Emilia, Montessori, raqamlashtirish.

Abstract: This article scientifically illuminates the role of play activity in the development of preschool children, the pedagogical and psychological foundations of education through play.

The influence of games on the intellectual, cognitive, creative, social, emotional, and physical development of children was analyzed, and the advantages of traditional national games and modern innovative game technologies were highlighted. The article provides practical recommendations for teaching staff, methodological approaches, and analysis of international experience.

Keywords: game-based learning, preschool education, development, innovative games, traditional games, cognitive development, modern pedagogical and information technologies, STEAM, Reggio Emilia, Montessori, digitalization.

O‘yinga asoslangan ta’lim (Play-Based Learning) maktabgacha ta’limda bolani faol mantiqiy va tanqidiy fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, muammolarni aniqlash va uning samarali yechimlarini topishga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga va jamoa bilan ishlashga o‘rgatadi.

Bugungi kunda tanqidiy va mantiqiy fikrlash bu bolaning intellektual salohiyatini belgilab beruvchi asosiy kompetensiyalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, jamoada ishlash ko‘nikmasi bolaning ijtimoiylashuvida, muloqot madaniyatini shakllantirishda va barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Dunyoda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi va ta’lim tizimining yangi bosqichga ko‘tarilishi maktabgacha ta’lim sohasida ham tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli ta’lim trayektoriyasini belgilashda innovatsion pedagogik yondashuvlar va o‘yinga asoslangan ta’lim muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish, jumladan, maktabgacha ta’limni qamrab olish darajasini oshirish, sifatni yaxshilash va pedagoglarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda o‘yinga asoslangan ta’lim texnologiyalari bolaning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari bilan uyg‘un bo‘lgan, samarali pedagogik vosita sifatida o‘rganilmoqda.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish nafaqat pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, balki o‘qitishning innovatsion shakl va usullarini joriy etishni ham talab etmoqda.

O‘yinga asoslangan ta’lim bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvini ta’minlash, ijodiy fikrlash hamda muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilmoqda.

Xususan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan ta’lim (play-based learning) bolalar ongini faollashtirish, tasavurlarini kengaytirish, tabiiy bilish jarayonlari bilan uyg‘un yo‘nalishda tashkil etilishi bilan ajralib turadi.

O‘yinga asoslangan ta’lim bu bolaning psixologik, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini bir vaqtning o‘zida rag‘batlantiradigan innovatsion pedagogik texnologiyadir.

Uning samaradorligi quyidagi omillar bilan asoslanadi:

Bilish jarayonlarini (kognitiv) faollashtiradi: diqqat, xotira, tafakkur, tanqidiy va mantiqiy fikrlash jarayonlari tabiiy tarzda rivojlanadi.

Ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi: hamkorlik (kollaboratsiya), muloqot (kommunikativlik), hissiy barqarorlik munosabatlari mustahkamlanadi.

Ijodkorlik (kreativlik) va tashabbuskorlikni oshiradi: bolalar yangi g‘oyalar yaratadi, turli vaziyatlarda mustaqil yechimlar topadi.

Motivatsiyani kuchaytiradi: o‘yin jarayoni bilimni majburiy emas, balki bolaning mustaqil tanlovi bo‘lib, qiziqarli jarayon sifatida qabul qilishga imkon beradi.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish imkonini beradi: rangli, interaktiv, multimedia elementlari orqali samaradorlik oshadi.

Bu borada ilg‘or xorijiy tajribalar, ya’ni Singapur, Yaponiya, Koreya, Finlyandiya, Italiya (Reggio Emilia), Montecsori, STEAM o‘quv modellari tahlil qilinib, ularning o‘yin texnologiyalari orqali bolalar rivojlanishiga ta’siri o‘rganilganda o‘xshashliklar kuzatildi.

Masalan, Reggio Emilia metodikasini amaliyotga joriy etish orqali bolani faol, mustaqil fikrlaydigan, o‘rganishga qiziquvchan va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida rivojlantirishga erishilmoqda.

Amaliy tadqiqotga asoslangan ushbu faoliyat bolalarni qiziquvchanlik va ijodkorlikni rag‘batlantiradigan materiallar bilan muloqot qilishga undaydi. Bolalar teginish, eshitish, ko‘rish va harakat qilish orqali muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, mayda motorikasi rivojlanadi va atrof-tevarak bilan kengroq muloqot qilishga imkoniyat yaratadi.

Bu metodika orqali birinchi navbatda bolaning huquqlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hurmat qilishga e’tibor qaratiladi.

Mazkur yondashuv bolalarda qat’iyatlilik, qiziquvchanlik, ijodkorlik va mustaqillik, jamoa bo‘lib ishlashni rivojlantirishga qaratiladi.

Montessori metodikasida esa bolaning tabiiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, bola o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun o‘zini o‘zi tayyorlagan muhitdan foydalaniladi.

Metodikaning asosiy g‘oyasi “Bolani o‘rgatish emas, balki unga o‘zi o‘rganishi uchun sharoit yaratib berish” yoki "Menga buni o‘zim qilishga yordam bering"dir, bunda tarbiyachilarimiz nazorat qiluvchi emas, balki bolaning yordamchisi hisoblanadi.

Bolaning faoliyati uning mustaqil tanlovi asosida amalga oshiriladi.

Montessori muhitida bola hissiyotlarini, tafakkurini, motorikasini rivojlantiradigan maxsus o‘yinlar va o‘yin to‘plamlari, didaktik materiallar bo‘ladi.

Bunda, tarbiyachi bolaga emas, muhitga ta’sir qiladi ya’ni uning erkin va xavfsiz o‘rganishi uchun zarur sharoit yaratadi.

Har bir bola o‘ziga xos individual tarzda hayotiy ko‘nikmalarni (tartib, tozalik, mustaqil kiyinish, yig‘ishtirish) o‘rganadi, uni shoshtirilmaydi yoki ortda qolgan deb hisoblanmaydi.

O‘yinga asoslangan ta’limda bolani tanqidiy va mantiqiy fikrlashga, jamoa bilan ishlashga o‘rgatishda pedagog hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Pedagog bunda, o‘yin muhitini to‘g‘ri tashkil etadi, savol berish orqali bola tafakkurini faollashtiradi, muammoli vaziyatlar yaratadi, jamoaviy o‘yinlarni tashkil qiladi, bolalarni muloqot va hamkorlikka o‘rgatadi, “fikrlash jarayoni”ni qo‘llab-quvvatlaydi.

Natijada bola o‘z fikrini mustaqil bildiruvchi, mantiqiy yechim topuvchi, jamoaviy ishda faol qatnashuvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Jamoada ishlashda bolaning kommunikativ va ijtimoiy salohiyatini belgilaydigan muhim ko‘nikmalar shakllanadi.

O‘yin texnologiyalaridan foydalanish bolada quyidagi jarayonlarni faollashtiradi:

1. Kognitiv rivojlanish — obrazli va mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat va tafakkurning kuchayishi. Ramziy o‘yinlar bolada abstrakt fikrlashga asos soladi.

2. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish — hamkorlik, navbat kutish, his-tuyg‘ularni boshqarish, empatiya va muloqot madaniyati shakllanadi.

3. Nutq rivoji — o‘yinli muloqot nutqning faollashuviga, lug‘at boyligi ortishi va grammatik tuzilmalarning tabiiy o‘zlashuviga olib keladi.

4. Qo‘l va harakat motorikasi — mayda va yirik motorikani rivojlantiruvchi o‘yinlar bolaning tanani idora qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, bu esa keyinchalik yozish va texnik amallarni o‘zlashtirishda muhim omildir.

5. Kreativlik va tasavvur — rolli va konstruktiv o‘yinlar bolaning ijodiy fikrlashi, yangi yechimlar topishi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘yinga asoslangan ta’lim-tarbiya bolaning tabiiy rivojlanish mexanizmiga mos keladi va ta’lim faoliyatiga nisbatan uning ichki motivatsiyasini yuqori darajada qo‘llab-quvvatlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, o‘yinga asoslangan ta’lim bolaning yoshiga to‘g‘ri kelmaydigan formal o‘qitish usullariga qaraganda samaraliroq, chunki bola o‘yin jarayonida bilimni majburiy emas, balki tabiiy ehtiyoj sifatida o‘zlashtiradi. Bu esa ta’lim jarayonini stresssiz, qiziqarli va uzoq muddatli xotirada saqlanadigan qilib beradi.

Shuningdek, o‘yinga asoslangan yondashuv individual yondashuvni ta’minlaydi. Bunda, har bir bola o‘z qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish sur’atiga mos tempda faoliyat olib boradi. Bu inklyuziv muhitda ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini sezilarli oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaga o‘yinga asoslangan ta’lim-tarbiya berish ilmiy asoslangan, psixologik-pedagogik jihatdan eng to‘g‘ri va tabiiy usul hisoblanadi. U bolaning har tomonlama, aqliy, ijtimoiy, emotsional, jismoniy va nutqi rivojlanishini ta’minlaydi, shu bilan birga, kelgusida boshlang‘ich ta’limning muvaffaqiyatli boshlanishi uchun poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘RQ-595, 2019-yil

2. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312, 2019-yil.

3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi //Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022.

4. “Maktabgacha pedagogika” F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova, R.Ergashev-2019, “Tafakkur” nashriyoti

5. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga o‘yin orqali tarbiya berish” N.Quchqorova, o‘quv –uslubiy qo‘llanma-2022.

TECHNOLOGY FOR COMBINING CORRECTIVE EDUCATION AND SOCIAL ADAPTATION IN AUXILIARY SCHOOL LESSONS

Khusnora Turayeva Istyorovna is a II st-year Master's student at the Faculty of Economics and Pedagogy of the International University of Asia

The scientific supervisor is Kamalitdin Makhkamovich Astanakulov, Doctor of Philology (PhD), Associate Professor.

Abstract:This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the technology for integrating correctional education and social adaptation processes for students with special educational needs studying in specialized auxiliary schools. The necessity of integrating elements of social activities into the educational process to enhance the effectiveness of correctional intervention is substantiated.

Key words: Corrective education, social adaptation, educational technology, students with special needs.

Introduction. The modern educational system pays special attention to the issue of the comprehensive development of the human personality, especially the successful integration of children with special needs into society. The developmental characteristics of students studying in auxiliary schools create certain limitations in their intellectual, emotional and social activities. Therefore, in teaching this category of students, it is important not only to give knowledge, but also to form their personal qualities, culture of treatment and adaptation to society. This approach assumes that the processes of Correctional upbringing and social adaptation are carried out harmoniously.

In practice, the targeted and systematic use of educational technologies in the harmonization of these two directions increases efficiency. Integrating the elements of correctional education into the content of the lesson in an auxiliary school setting, in addition to ensuring that students are prepared for everyday life, also increases the level of their social adaptation. This is achieved through the combined use of an individual approach, differential learning styles, and pedagogical innovation. In this regard, the integration of correctional and pedagogical activities with educational technologies is an important factor in providing effective education and upbringing in auxiliary schools.

Methods. Correctional education technology includes the creation of an educational environment adapted to children with disabilities, the implementation of the principles of inclusive education and the legal and methodological foundations of Correctional pedagogy. In this process, the individual characteristics, needs and capabilities of the students are taken into account. Over the years, the issue of raising the younger generation has been studied by a number of scientists. Eastern thinkers Abu Ali ibn Sina, Abu Nasr al-Farabi and al-Biruniy also made valuable remarks on the cognitive functioning of children with developmental disabilities. Ibn Sina was the first to propose that mental functions are dependent on the activities of certain centers.

Foreign scientists have also made significant contributions to the study of the effectiveness of correctional education technology. For Example, L. Foreign scientists have also made significant contributions to the study of the effectiveness of correctional education technology. For Example, L.S. In his work “defect and sverkhkompensat Foreign scientists have also made significant contributions to the study of the effectiveness of correctional education technology. For Example, L.S. In his work “defect and sverkhkompensation”, Vygotsky analyzed what pedagogical approaches should be used to maximize the potential of children with limitations in mental development. Also, L.M. In her work "Psychological Correction in Inclusive Education," Krijanovskaya studied psychological correction methods in inclusive education and demonstrated their effectiveness.

Russian teacher and psychologist L. Russian teacher and psychologist L. S. Vygotsky focused heavily on issues of Correctional upbringing, and his theories were of great importance in child psychology, especially in dealing with children with developmental disabilities. His work in the field of correctional education was carried out mainly in several directions:

For example: the role of psychological development and communication: in this direction, Vygotsky studied the influence of social communication on the psychological development of children with developmental disabilities, showing

that in the process, children can develop cognitive and mental abilities with the help of adults or peers who accompany them. He argued, in particular, that children's thinking and understanding skills are formed through social interactions. One of the next main areas is the theory of” Territorial Development “(ZPD): one of the most important concepts developed by Vygotsky is the theory of” territorial development " (zpd – Zone of Proximal Development). According to this theory, there is a difference between the tasks that children perform independently and the tasks that they perform with help. In the process of correctional education, it is necessary to identify this zone and provide appropriate assistance to children.ne of the next main areas is the theory of” Territorial Development “(ZPD): one of the most important concepts developed by Vygotsky is the theory of” territorial development " (zpd – Zone of Proximal Development). According to this theory, there is a difference between the tasks that children perform independently and the tasks that they perform with help. In the process of correctional education, it is necessary to identify this zone and provide appropriate assistance to children. This theory is especially important in raising children with developmental disabilities.

Results and discussion. The results presented in this article showed that the use of the technology for organizing Correctional educational work in specialized auxiliary schools significantly increases the effectiveness of the educational process. First, with the help of an individual approach and special techniques, the difficulties of students in the learning process are significantly reduced, and their motivation for acquiring knowledge increases. Secondly, the adaptation of classrooms and the educational environment increases children's interest in education, enhancing their social activism. This alleviates the process of social adaptation and contributes to their successful integration into society.

The Theory Of The Zone of intimate development (ZPD), developed by Lev Semyonovich Vygotsky (1896-1934), emphasizes the importance of the socio-cultural environment in the processes of education and upbringing and shows the importance of the learning process in realizing the potential capabilities of an individual. According to the concept of ZPD, the difference between the tasks that students perform independently with the level of their existing development and the tasks that they can perform with assistance is determined. The Theory Of The Zone of intimate development (ZPD), developed by Lev Semyonovich Vygotsky (1896-1934), emphasizes the importance of the socio-cultural environment in the processes of education and upbringing and shows the importance of the learning process in realizing the potential capabilities of an individual. According to the concept of ZPD, the difference between the tasks that students perform independently with the level of their existing development and the tasks that they

can perform with assistance is determined. This difference constitutes their potential development area. As a result, educators can identify students ' true potential and develop personalized educational strategies. Modern educational technologies and diagnostic methods are developed based on zpd. This allows individual needs to be taken into account in the educational process and to effectively develop students ' abilities.

This article once again confirms the effectiveness of the technology for organizing Correctional educational work in specialized auxiliary schools in the educational process. The Individual approach and specific methodologies are important in reducing children's learning difficulties as well as increasing their motivation. These results confirm the opinions of local scientists, who also emphasize the effectiveness of the educational environment adapted to the individual characteristics of students. Also, based on Vygotsky's theory of ZPD, correctional education technology allows students to identify potential development zones as well as apply appropriate educational strategies. This will help students to independently form their knowledge and develop their social skills. However, some limitations were also identified during the study. For example, there are problems with the variability in the level of knowledge and competence of educators, as well as the lack of resources, in the implementation of existing Correctional technologies in practice. This situation requires further in-depth research and the development of complex solutions in the future. In general, the practical importance and effectiveness of the technology for organizing Correctional educational work in specialized auxiliary schools has shown that it is important not only to improve the quality of the educational process, but also to improve the social adaptation of children with disabilities.

Conclusion. As noted in the article, the technology of organizing Correctional educational work is of great importance in the educational process of children with developmental disabilities in specialized auxiliary schools, taking into account the individual characteristics, needs and capabilities of students, reducing their difficulties in obtaining education and increasing their motivation. Methodological approaches developed by domestic scientists, as well as modern pedagogical concepts such as Vygotsky's theory of ZPD, serve as the main scientific foundation in ensuring the practical effectiveness of correctional education technology. It was found that the quality of education could be further improved by improving the skills of educators and adapting the educational environment. At the same time, the results of the study confirm the essence of political and legal initiatives aimed at the development of education carried out by the Republic of Uzbekistan and have a positive effect on the development of

specialized educational institutions. In the future, in order to more effectively organize the work of correctional education, it is necessary to improve the skills of educators, introduce modern educational technologies and pay more attention to the individual development of students.

Literature used

1.Decision of the president of the Republic of Uzbekistan. PQ-4860 on 13.10.2020. On measures to further improve the educational system for children in need of separate education.

2.Special pedagogypeSpecial pedagogy. K.M.Astanaqulov. Methodolog 2024.

3.Methodology of corrective education of students in a specialized school. Khudoyberganova, N.etethodology of correctivet.

4.Sharon Vaughn va Michael F. Shinn – *Journal of Special Education*.

5.“Effective Strategies for Teaching Students with Disabilities in Inclusive Classrooms.” *Journal of Special Education*, 2016.

6.Thomas Hehir – *Disability & Society*. “Disability and Education Reform: Global Perspectives on Special Education.” *Disability & Society*, 2020.

DASTLABKI YILLARDA MATEMATIKA -SINGAPUR TAJRIBASI ASOSIDA KOGNITIV RIVOJLANTIRISH

Rizayeva Munisxon Maxkamovna
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd), v.b dotsent.
Tel: +998 97 720 54 62

Annotatsiya: Mazkur maqolada dastlabki yoshdagi bolalarda matematik tasavvur va kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida Singapur matematika metodikasining afzalliklari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Singapur tajribasiga xos bo‘lgan *“Beton–Piktorial–Abstrakt (CPA)”* modeli, muammo yechishga yo‘naltirilgan o‘qitish, vizual tasavvurni shakllantirish, mantiqiy fikrlashni kuchaytirish hamda o‘quvchining faol ishtirokiga asoslangan yondashuvlarning erta yoshdagi matematik ta’limga ta’siri tahlil etiladi. Shuningdek, Singapur metodikasini maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim jarayoniga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar, pedagogik sharoitlar hamda rivojlantiruvchi topshiriqlar namunasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari dastlabki yillarda matematik kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy kognitiv yondashuvlarning samarali ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Singapur matematika metodikasi; kognitiv rivojlanish; CPA modeli; erta yoshdagi ta’lim; matematik kompetensiya; muammo yechish; vizual tasavvur; mantiqiy fikrlash; innovatsion pedagogika; boshlang‘ich ta’lim.

Maktabgacha yoshda bolalarning elementar matematikani o‘rgatish asosida bolalarni kognitiv rivojlantirish ta’limni keyingi bosqichiga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bolalarga miqdor, son, shakllar, fazoviy tushunchalar va mantiqiy masalalarni o‘rgatish orqali elementar matematik tushunchalari shakllantiriladi. Bilish kompetensiyasi bilim olish, o‘qish va o‘rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Harakat va o‘zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrof-olamdagi yangi obyektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o‘yin va o‘zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o‘tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan, tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar. Bolalar muammoni hal qilishga e’tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo‘yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o‘rganishdan zavqlanishlari va o‘rganganlarini baham ko‘rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo‘lishishlari mumkin.

Kognitiv rivojlanish xususiyatlari: Faollik va qiziqishning kuchayishi – bola atrofdagi jarayonlarga faol qiziqadi, doimiy savollar beradi: ―Nega?, ―Qanday qilib?‖, ―Agar... bo‘lsa, nima bo‘ladi?. Tafakkur jarayonining murakkablashuvi – mantiqiy fikrlash, solishtirish, ketma-ketlikni tushunish, sabab-oqibat munosabatlarini anglash boshlanadi. Umumlashtirish va xulosa chiqarish – predmetlar va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni topa oladi, oddiy xulosalarni shakllantira boshlaydi. Kuzatish va xotira faolligi – diqqatni muayyan vazifaga jamlash muddati uzayadi, eslab qolish, taqqoslash va eslatishga urinishlar kuchayadi. Nutqiy faoliyatning kengayishi – bolalar o‘z fikrlarini izchil, mantiqan asoslangan holda ifodalashga intiladi. Lug‘at boyligi tez ortadi, gap qurilishi murakkablashadi Maktabgacha ta’lim sohasida bolalarning individual imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ularda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, muammoni hal qilish va ijodiy ifoda qilish kompetensiyalarini shakllantirish uchun an’anaviy o‘qitish metodlari yetarli emas. Shu sababli

zamonaviy ta’limda faol, integratsiyalashgan va bolani markazga qo‘yuvchi metodik yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Quyida kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy etishda eng samarali hisoblangan ilg‘or pedagogik yondashuvlar yoritiladi:

1. Faoliyatga asoslangan yondashuv: Bu yondashuvga ko‘ra, bola o‘rganuvchi emas, faol ishtirokchi hisoblanadi. Bilimlar bevosita o‘z tajribasi, harakati, sinashi, kuzatuvi orqali shakllanadi. Har bir ta’limiy faoliyat bolaga amaliy harakat qilish, fikr yuritish va muammoni hal qilish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlar: ―Nimani farqlading?‖, ―Ketma-ketlikni joylashtir‖, ―Kim topadi?

2. **Multimodal yondashuv (ko‘rish-eshitish-harakat integratsiyasi):** Bolalarning bilimni o‘zlashtirishi uchun turli sezgi kanallari orqali axborot olish muhim. Multimodal o‘qitish – ko‘rish (vizual), eshitish (auditiv), teginish-harakat (kinestetik) vositalar yordamida o‘rganishni anglatadi. Masalan: Shaklni nomlashda: rasmni ko‘radi, nomini eshitadi, plastilindan yasaladi.

3**. STEAM yondashuvi elementlari**: STEAM – Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Arts (san’at), Mathematics (matematika) integratsiyasiga asoslangan ta’lim modelidir. Bu yondashuv orqali bolalarda tahlil qilish, modellashtirish, sinov va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Misollar: Loyiha faoliyati: ―Men uy qurdim‖ – qurilish bloklari bilan, rasmini chizish, vazifasini aytish va

4. **Refleksiya (fikrga qaytish va tahlil qilish):** Bolaning o‘z tajribasiga, faoliyatiga natijaga nisbatan munosabat bildirish ko‘nikmasi – kompetensiyalarning shakllanishi uchun muhimdir. Refleksiya jarayoni ta’limiy faoliyat oxirida, faoliyatdan keyin o‘tkaziladi. Refleksiya usullari: ―Qanday his qilding? ―Nimaga erishding? ―Yana qanday qilgan bo‘larding? ―Senga nima yoqdi, nima qiyin bo‘ldi? Rangli kartochkalar: yashil (o‘xshadi), sariq (urindim), qizil (yana sinab ko‘raman).

5**. Differensial va individual yondashuv**: Har bir bola noyobdir: bilimni o‘zlashtirish sur’ati, qiziqishlari, qiyinchiliklari turlicha. Shuning uchun ta’limiy faoliyatlar bir xil uslubda barcha uchun emas, balki har bir bolaning rivojlanish darajasiga moslab taklif qilinishi kerak. Kam faol bolalar uchun: vizual vositalar, ko‘rsatib berish, erkin vaqt. Faol bolalar uchun: murakkabroq topshiriqlar, muammo yechish, erkin javob imkoniyati.

Maktabgacha yoshda bolalarga elementar matematik tushunchalarni shakllantirishda pedagoglar quyidagilarga e’tibor qaratishlari zarur:

• Kundalik tajribalarda elementar matematik tushunchalari va ko‘nikmalarini o‘rganish va ulardan foydalanishdan zavqlaning.

• Munosabatlar va mosliklarni tushunish.

• Hisoblash ko‘nikmalarini va miqdorni his qilishni rivojlantirish.

• Asosiy shakllar va fazoviy tushunchalarni tushunish. Maktabgacha yoshda bolalarga elementar matematik tushunchalarni shakllantirishda o‘yin orqali o‘rgatish kognitiv jarayonni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bolalarga hisoblash kundalik hayotida qanday foydali va dolzarb ekanligini ko‘rishga imkon beradigan imkoniyatlardan ochib berish lozim. Bolalarning turli o‘quv faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun ularning o‘rganish jarayonlarini qo‘llash kerak. Bolalarni quyidagilarga jalb qiling:

• Rivojlanish markazlarida resurslarni tayyorlashda(masalan, rangli qog‘oz, rangli qalam / bo‘yoq / markerlar, qurilish bloklari, ko‘p havolalik kublar / zanjirlar / hisoblagichlar) rang, o‘lcham yoki shaklga qarab saralash faoliyatida;

• Do‘stlari va oila a’zolariga berish uchun sovg‘a ko‘rinishidagi buyumlariga bezash uchun naqshlar chizish yoki shakllarni kesish yoki ikkilamchi buyumlarni qayta ishlash orqali rivojlantiruvchi faoliyatlarda;

• Har kuni davomatda bolalar sonini hisoblash orqali kundalik tashrif jarayonlarida;

• Faoliyatlardagi navbatchilik jarayonlarida elementar tasavvurlarni shakllantirishda amaliy jarayon sifatida qo‘llang. matematik Shakl va fazoviy tushunchalarni tushunish bolalar dunyoni tushunishlari uchun juda muhimdir, chunki barcha jismoniy obyektlar uch o‘lchovli shakllarga ega va bizning atrofimizdagi fazoviy muhitda joylashgan. Shakllarni aniqlash va nomlash bolalarga atrof-muhitdagi narsalarni farqlash va tasvirlashga yordam beradi. Oddiy fazoviy tushunchalarni tushunish bolalar ular va odamlar yoki atrofidagi narsalar o‘rtasidagi fazoviy munosabatlarni bilishlarini va ularni tasvirlash uchun fazoviy holatga (masalan, yuqori, past, oldinda, orqada), yo‘nalish (masalan, yuqori, past, chap, o‘ng) va masofa (masalan, uzoq va yaqin) tilidan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Asosiy shakllarni o‘rganish va oddiy fazoviy tushunchalarni tushunish geometriyani kelajakda o‘rganish uchun asos bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, shakl va fazoviy tushunchalarni tushunadigan bolalar keyingi yillarda arifmetikada va geometriyada bilimlari puxta bo‘ladi.Bolalar atrof muhitda turli xil narsalarga kuzatadilar, ularning har biri o‘z

shakliga egaligini bilib oladilar. Ushbu narsalarga qarash, teginish va ushlab turish bilan ba’zi shakllarning doira, uchburchak, kvadrat va to‘rtburchak kabi o‘ziga xos nomlarga ega ekanligini va har bir shaklning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishni boshlaydilar. Bolalarga shakllarni va ularni turlicha o‘lcham va yo‘nalishlarda taqqoslash imkoniyati berilishi kerak. Masalan, uchburchaklarni burchaklari turlicha, ranglarida farq bor. Bu ularga ushbu shakllarning o‘xshashliklari va farqlarini aniqlash va gapirish uchun shaklning xususiyatlari va moslashuvchan fikrlash qobiliyatlaridan foydalanishga imkon beradi. **Masalan,** *Nodiraning uchburchagi kichkina va sariq rangda, Komiljonniki katta ko‘k ,Muxlisani uchburchagi katta va qizil rangda.* Bolalar shakllarning asosiy xususiyatlari haqida bilimga ega bo‘lgach, ular shakllarni turli yo‘llar bilan o‘zgartirishni o‘rganishlari mumkin. **Masalan,** *ular ikkita to‘g‘ri burchakli uchburchakni to‘rtburchak hosil qilish yoki kvadratni ikkita bo‘lish orqali ikkita uchburchak hosil qilish mumkin. Bolalar uchun fazoviy yoki yo‘nalishni anglashni rivojlantirish atrofdagi narsalarga nisbatan qayerda ekanligini, yo‘nalish va masofani bilishdan boshlanadi. Haqiqiy dunyoda hisoblash tajribasi orqali bolalar ko‘rgan, eshitgan yoki tasavvur qilgan narsalaridan qat’i nazar, har qanday narsani hisoblaydi*. Shuningdek, ular hisoblash tamoyillari hisoblash bilan bog‘liq har qanday raqamlar va vaziyatlarga qo‘llanilishi mumkin. Bolalar ishonchli hisoblashni o‘rganishlari bilanoq, ular raqamli ketma-ketlik haqidagi bilimlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va teskari sanash asosida berilgan har qanday raqamdan hisoblaydilar. Bolalar hisoblashni o‘rganar ekan, miqdorni aniqlashning turli usullarini modellashtirish muhim ahamiyatga ega. Bolalarga bir qator narsalarni hisoblashdan oldin taxmin qilish imkoniyatini berish ularga raqamlarni o‘rganish va ishlatishda ishonchni qozonishga yordam beradi.

Bolalar ishonchni qozonganda kichik miqdorlarni hisoblab, ularni taxmin qilish uchun ko‘proq miqdorlar bilan ta’minlash mumkin.Bunda berilgan javobini hisoblash va tekshirish imkoniyati-ularga taxmin qilish ekanligini tushunishga yordam beradi.Tasodifiy taxmin emas, balki raqamlar haqida bilgan narsalariga asoslangan ma’lumotli taxmin. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlariga borganlarida, ular o‘zlari bilan oila va mamlakatdagi hisoblash tushunchalariga asoslangan raqamlar, shakllar va fazoviy munosabatlar haqidagi o‘zlarida bor bilimlarga tayangan hisoblash tushunchalari va ko‘nikmalari bilan keladilar. Pedagoglar ushbu bor bilimlarga asoslangan holda tegishli ravishda belgilangan o‘quv faoliyatini loyihalash orqali bolalarga o‘rganish imkon beradigan haqiqiy ma’lumotlarni, ular bilgan narsalar bilan bog‘lagan holda tizimli rejalashtirishadi. Bolalarning motivatsiyasi va hisoblashga qiziqishi ular o‘rganganlarida barqaror bo‘lishi mumkin.


Hisoblash tushunchalari va ko‘nikmalari ularning mazmunli qismi ekanligini kundalik faoliyatlarda ham o‘rgatish, tartiblash va rivojlantirish kerak. O‘rganishni qiziqarli va mazmunli qilish: - Hisoblash tushunchalari va ko‘nikmalarini o‘rganishga undash uchun bolalarning qiziqishlaridan boshlang. - Ularga yordam berish uchun bolalarning kundalik tajribalari va atroflaridagi misollaridan foydalaning ,hisoblashning kundalik hayotidagi ahamiyatini ko‘rsating Aniq va haqiqiy tajribalarni taqdim etish : - Bolalarga yangi tushunchalarni o‘rganish, o‘rganilgan narsalarni qayta ko‘rib chiqish uchun muayyan narsalarni boshqarishga ruxsat bering -Bolalarga atrofdagi dunyoni tushunishga yordam beradigan vazifalar negizida hisoblash tushunchalari va ko‘nikmalaridan foydalanishga imkon bering.

Ta’lim faoliyatining har xil turlari o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish:

- Bolalarning dastlabki bilimlaridan foydalanib, konseptual tushunishni rivojlantirish uchun ulardagi bor bilimlar asnosida o‘rgatish mumkin bo‘lgan o‘quv tadbirlarini ishlab chiqing,

- Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayanch kompetensiyalarini shakllantirish uchun kognitiv rivojlanish va boshqa ta’lim sohalari o‘rtasida aloqalarni o‘rnating.

Bolalarga raqamlar ketma-ketligi va tartibini tushunishga yordam berish uchun raqamlar chizig‘idan foydalanish kerak.



Hisoblash qobiliyatlari va raqamni tanish
-Mexanik hisoblash va ratsional hisoblash
-Raqamlarni tanish
Raqamlar va miqdorlar o‘rtasidagi munosabatni tushunish: yozish, miqdorni saqlash, raqamlarni taqqoslash, qism-butun munosabati.Hisoblash va raqam hissi

Elementar matematika asoslaridan foydalanish: - Ta’limiy jarayonlarda hisoblash tushunchalari va ko‘nikmalarini muntazam va izchil foydalanishni modellashtirish - Bolalardagi muammolarni hal qilishda paydo bo‘lgan g‘oyalar, yechimlar va dalillar bilan bo‘lishishga undash, o‘z bilimlarini hayotiy tajribalarini o‘yin va ta’limiy faoliyatlarda rivojlantirish Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshda kognitiv bilimlari yaxshi rivojlangan bolalar boshlang‘ich maktabda matematikani o‘rganishda katta yutuqlarga erishmoqda.

Raqam hissi: Raqam hissi raqamlar yoki hisob nomlarini bilishdan tashqariga chiqadi. Bu tushunish haqida raqamlar va miqdorlar o‘rtasidagi munosabatlar. Bunga tushunish kabi asosiy ko‘nikmalar kiradi **Miqdoriy raqamlar** bizga miqdor

haqida gapirib beradi.Har qanday narsa (ya’ni qancha) ishlatiladi hisoblash uchun (ya’ni, bir, ikki, uch, to‘rt va boshqalar). Masalan, Bizning ikki oyog‘imiz bor. **Tartibli raqamlar** bizga to‘plamdagi narsalarning tartibini yoki joylashishini ko‘rsatadi (masalan, birinchi, ikkinchi, uchinchi va boshqalar). **Masalan**, *Murod oilaning uchinchi farzandi Nominal raqamlar- biror narsani aniqlash uchun yorliq sifatida ishlatiladigan raqamlar, masalan telefon raqamlari, avtobus va pochta indeksi tartibi misolida tartiblanadi.* Masalan, 2-sonli avtobusda maktabga boramiz.

Hisoblash qobiliyatlari va raqamni tanish; -Mexanik hisoblash va ratsional hisoblash; -Raqamlarni tanish.

Raqamlar va miqdorlar o‘rtasidagi munosabatni tushunish: yozish, miqdorni saqlash, raqamlarni taqqoslash, qism-butun munosabati.Hisoblash va raqam hissi har qanday erta bolalikni hisoblash o‘quv dasturining asosiy tarkibiy qismidir. Hisoblash ko‘nikmalarini egallash va raqam hissini rivojlantirish bolalarga miqdoriy o‘zgarishlarni tushunishga yordam beradi. Bolalarga turli xil narsalarni his qilish va tushunishlari uchun raqamning jihatlarini tushunish imkoniyatini berish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda quyidagi ta’limiy vositalardan foydalanishni taklif etamiz:



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Harvard University Press.
2. Ng, C. & Lee, K. (2019). *Singapore Math: Teaching Methods and Learning Outcomes*. Singapore Ministry of Education.
3. Fan, L., Wong, N. (2008). *Teaching School Mathematics: Methods and Strategies*. McGraw-Hill Education.
4. Fuson, K. (2012). *Mathematical Development in Early Childhood*. National Research Council.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’lim vazirligi. (2022). *Maktabgacha ta’lim uchun Davlat o‘quv dasturi*.

6. Yeap, B. H. (2015). *Visible Thinking in Singapore Mathematics*. World Scientific Publishing.
7. Polya, G. (2004). *How to Solve It*. Princeton University Press.
8. Karimova, G., Tursunova, N. (2021). *Boshlang‘ich ta’limda matematik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi*. Toshkent.

❁❁❁❁❁

ZAMONAVIY SHAROITLARDA USLUBIY XIZMATNING O‘RNI VA UNING FAOLIYATINI TAHLIL QILISH

Rahmonberdiyev Sirojiddin Abdulla o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi Vazirligining bosh mutaxassisi, Toshkent shahridagi Puchon universitetining 2-bosqich magistratura talabasi
siroziddinramonberdiev@gmail.com Tel:+998 90 680-10-03

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida uslubiy xizmatning o‘rni va vazifalari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar va yangi pedagogik yondashuvlar uslubiy xizmat funksiyalarining kengayishiga sabab bo‘layotgani ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan. Uslubiy xizmatning asosiy yo‘nalishlari metodik qo‘llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kuzatuv va tahlil, raqamli platformalar bilan ishlash hamda pedagogik hamkorlikni rivojlantirish batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, uslubiy xizmat, pedagogik kompetensiya, innovatsion texnologiya, raqamli ta’lim, metodik qo‘llab-quvvatlash, pedagogik monitoring, MELQO, STEAM, hamkorlik muhiti, professional rivojlanish, interfaol metodlar, loyiha asosida ta’lim, pedagogik tahlil.

Abstract: This article analyzes the role and tasks of methodological services in the preschool education system in modern conditions. It is scientifically and practically substantiated that digital transformation, innovative technologies, and new pedagogical approaches lead to the expansion of the functions of methodological services. The main areas of methodological support, the introduction of innovative technologies, monitoring and analysis, work with digital platforms, and the development of pedagogical cooperation are covered in detail.

Keywords: Preschool education, methodological service, pedagogical competence, innovative technology, digital education, methodological support,

pedagogical monitoring, MELQO, STEAM, collaborative environment, professional development, interactive methods, project-based learning, pedagogical analysis.

Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion pedagogik yondashuvlarning jadal kirib kelishi bilan ajralib turadi. Ushbu jarayon maktabgacha ta’lim sohasida ham yangicha yondashuv, ilmiy asoslangan metodlar va pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini talab etmoqda. Ayniqsa, inson kapitali shakllanishining boshlang‘ich bosqichi bo‘lgan maktabgacha ta’limda metodik jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etish alohida dolzarb masaladir. Shu bois uslubiy xizmatning o‘rni va samarali faoliyatini ta’minlash zamonaviy ta’limning muhim talabiga aylandi.

Uslubiy xizmat – bu pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan, ularni zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or tajribalar bilan ta’minlaydigan tizimli metodik mexanizmdir. U faqat tavsiya beruvchi bo‘lim emas, balki pedagogning kasbiy rivojida hamroh, maslahatchi va metodik yo‘lboshchi sifatida faoliyat yuritadi. Ta’lim sifati pedagog malakasiga bevosita bog‘liq bo‘lgani sababli, uslubiy xizmatning vazifalari ham kengayib, uning samaradorligiga qo‘yilgan talablar ortib bormoqda.

Maktabgacha ta’lim jarayoni hozirda nafaqat dasturiy talablarni bajarish, balki bolalarning yosh xususiyatlarini tahlil qilish, mashg‘ulotlarni differensial yondashuv asosida rejalashtirish, interfaol va innovatsion metodlarni qo‘llashni ham talab qiladi. Bu jarayonni to‘g‘ri boshqarishda uslubiy xizmatning metodik yo‘naltiruvchi roli alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, pedagoglar yangilanib borayotgan dasturlar, baholash tizimi va normativ-huquqiy hujjatlarni o‘zlashtirish jarayonida metodik ko‘makka ehtiyoj sezadi. Uslubiy xizmat esa pedagoglarning ehtiyojlarini aniqlab, ularning kasbiy rivojlanish strategiyasini belgilash, seminar-treninglar tashkil etish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, raqamli resurslardan foydalanishni o‘rgatish kabi vazifalarni bajaradi.

Bugungi talablar nuqtai nazaridan uslubiy xizmat nazariy tavsiyalar beruvchi bo‘lim emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, tahlil qiluvchi va innovatsion rivojlanishga yo‘naltiruvchi metodik markaz sifatida talqin etilmoqda. Uning samarali faoliyati pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish va maktabgacha ta’lim sifati yuksalishining muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitlarda uslubiy xizmat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sifatli faoliyatni ta’minlash, pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish va ta’lim jarayonini innovatsion mazmunda tashkil etishda asosiy tizim hisoblanadi. Uslubiy xizmat pedagoglarni metodik qo‘llab-quvvatlash, o‘quv dasturlarini amaliyotga

samarali tatbiq etish hamda direktor o‘rinbosarlar va tarbiyachilar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi.

Pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish seminar-treninglar, mahorat darslari, ochiq mashg‘ulotlar va ustoz-shogird tizimi orqali amalga oshiriladi. Masalan, STEAM yondashuvi bo‘yicha mahorat darslari pedagoglarga muammoli vaziyatlar yaratish, tajribalar o‘tkazish va bolalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi. Singapur davlatining “Kinder Thinkers”, “Primary Mathematics” kabi dasturlar asosida “Favqulodda to‘qqson kunlik” tadbirlari doirasida tashkil etilgan qisqa muddatli kurslar pedagoglarda loyiha asosida ishlash, tahliliy fikrlash va ijodkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantiradi.

Uslubiy xizmat pedagoglar uchun metodik yordam markazi bo‘lib, ta’lim jarayonini rejalashtirish, ish rejalarini takomillashtirish, mashg‘ulot ishlanmalari bilan ta’minlash va yangi o‘quv-metodik majmualarni amaliyotga moslashtirish bilan shug‘ullanadi. Masalan, pedagoglarga “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining 4-ilovasi (Namunaviy yillik mavzuli reja) asosida mavzuviy faoliyatlarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berilishi metodik yordamning muhim tarkibiy qismidir.

Innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash uning samaradorligini oshiradi, jumladan: interfaol ta’lim metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, STEAM ta’limi, syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish, loyihaviy faoliyat texnologiyalari tatbiq etiladi.

Shuningdek, uslubiy xizmat pedagoglarning faoliyatini tahlil qiladi va innovatsion metodlarning ta’sirini baholaydi. Erta yoshdagi bolalar ta’lim sifati va natijalarini baholash bo‘yicha xalqaro MELQO baholash tizimi asosida kuzatuvlar pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagoglar o‘rtasida professional hamkorlikni rivojlantirish uslubiy xizmatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Metodik klublar, ijodiy guruhlar, elektron platformalar, tajriba almashish seminar va konferensiyalari pedagoglarning metodik tafakkurini boyitadi hamda ta’limning innovatsion rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

XXI asrda maktabgacha ta’limda uslubiy xizmat raqamli rivojlanish, global axborot makoni va innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali sifatli faoliyatni yangi bosqichga olib chiqmoqda. U nafaqat an’anaviy seminar va ko‘rsatma-tavsiyalar bilan cheklanib qolmay, balki raqamli transformatsiya, ilmiy-metodik monitoring, innovatsion metodlarni tatbiq etish va pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish tizimini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Metodik qo‘llab-quvvatlash onlayn seminar va vebinarlar, elektron o‘quv-resurslar, multimedia platformalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga,

pedagoglarni STEAM ta’limi, loyiha asosida o‘qitish, syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish, muammoli va o‘yin orqali o‘qitish metodlari bilan tanishtirish va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash ustuvor vazifadir.

Uslubiy xizmat pedagoglarning individual ehtiyojlariga mos metodik yordam ko‘rsatadi, yangi pedagoglar uchun mentorlik tizimini, tajribali pedagoglar uchun innovatsion loyihalar va metodik klublarda ishtirok imkoniyatlarini taqdim etadi. Kuzatish va tahliliy faoliyat esa bolalarning rivojlanishi, pedagoglarning ish sifati va mashg‘ulotlar samaradorligini baholashni o‘z ichiga oladi. Erta yoshdagi bolalar ta’lim sifati va natijalarini baholash bo‘yicha xalqaro MELQO baholash tizimi asosida olib boriladigan baholash metodik qarorlar qabul qilish va malaka oshirish rejalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, uslubiy xizmat pedagoglar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantiradi: ijodiy guruhlar, metodik klublar, ustoz-shogird loyihalari va onlayn hamjamiyatlar orqali tajriba almashish pedagoglarning kasbiy o‘sishini rag‘batlantiradi va ta’lim jarayonining innovatsion rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Zamonaviy sharoitlarda uslubiy xizmatning samaradorligi bir nechta tizimli omillar bilan belgilanadi: pedagogik jarayon sifati, innovatsion metodlarning tatbiqi, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va ta’lim monitoringi. Uslubiy xizmat faoliyatida muntazam muloqot, hamkorlik va tajriba almashish pedagoglarning faoliyatini rag‘batlantiradi, ilg‘or tajribalarni tarqatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagoglar ko‘pincha an’anaviy metodlarga tayanadi, shu bois STEAM, loyiha asosida o‘qitish, syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish hamda interaktiv o‘yinlar kabi innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta’lim sifatini oshiradi. Samarali treninglar pedagoglarning malakasini tez oshirishga yordam beradi.

Uslubiy xizmatning kuzatish va tahlil jarayoni pedagogik faoliyatni muntazam monitoring qilish, tavsiyalar ishlab chiqish va MELQO kabi baholash tizimlari orqali ilmiy asoslashni o‘z ichiga oladi. Pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik metodik ish samaradorligini oshiradi. Metodik klublar, ijodiy guruhlar va elektron platformalarda tajriba almashish bunda muhim rol o‘ynaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

– moddiy-texnik bazani mustahkamlash va interaktiv vositalar bilan ta’minlash;

– elektron metodik resurslar bazasini kengaytirish;

– uslubiy xizmat xodimlari malakasini muntazam oshirish;

– zamonaviy pedagogik metodlarni keng tatbiq etish;

– pedagog faoliyatini tizimli monitoring qilish;

– kasbiy hamkorlik va tajriba almashuvni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitlarda uslubiy xizmat maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. U pedagoglarning kasbiy malakasini rivojlantiradi, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etadi, ta’lim jarayonini samarali tashkil qiladi, kuzatuv va tahlilni yo‘lga qo‘yadi hamda pedagogik hamkorlikni shakllantiradi. Samaradorligi esa interaktiv muloqot, zamonaviy texnologiyalar, muntazam monitoring va metodik hamkorlik bilan belgilanadi, bu esa sifatli va innovatsion ta’lim muhitini yaratishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonuni // 2019-yil 16-dekabr O‘RQ-595-son // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son qarori // www.lex.uz

3. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022-yil.

4. Belaya K.Y. Maktabgacha ta’lim muassasalarida uslubiy ishlar. Tahlil, rejalashtirish, shakl va usullar. – Moskva., Sfera, 2007-yil.

5. Muslimov N.A. va boshkalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. / Monografiya. – Toshkent., Fan va texnologiya nashriyoti, 2013-yil.

6. Qodirova F.R. va boshk. Maktabgacha pedagogika. Toshkent., Tafakkur, 2019-yil.

7. Jonathan Seiden & Tamara Arnold. International Consultants. Measuring Early Learning Quality and Outcomes in Public Preschools in Uzbekistan / World Bank report – 2024.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Ataboyev Zafarjon Raxmatullayevich
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi yetakchi mutaxassisi,
Toshkent shahridagi Puchon universiteti
1-bosqich magistranti
e-mail: zataboyev@umail.uz
Tel.: +998 90 115-17-20

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi, ilmiy-nazariy asoslari hamda boshqaruv jarayonining amaliy samaradorlik omillari yoritiladi. Tizimli boshqaruv, strategik rejalashtirish, monitoring, inson resurslarini rivojlantirish va raqamli boshqaruvning o‘rni ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim boshqaruvi, inson resurslari, ta’lim muhiti, strategik rejalashtirish, innovatsion texnologiyalar, inklyuziv ta’lim, oila va mahalla hamkorligi, rivojlantiruvchi muhit, pedagoglar kasbiy kompetensiyasi, STEAM va o‘yin texnologiyalari.

Abstract: This article covers the essence, structure, scientific and theoretical foundations of preschool education management, as well as factors of practical effectiveness of the management process. The role of systemic management, strategic planning, monitoring, human resource development, and digital management is analyzed on a scientific basis.

Keywords: preschool education management, human resources, educational environment, strategic planning, innovative technologies, inclusive education, family and mahalla cooperation, developmental environment, professional competence of teachers, STEAM and game technologies.

Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarish – bu pedagogik, tashkiliy, ijtimoiy, psixologik va innovatsion jarayonlarni yagona tizim sifatida uyg‘unlashtirib boshqarish faoliyatidir. Mazkur jarayon bolalarning yoshga doir rivojlanish xususiyatlarini, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti yaratishni, ota-onalar bilan hamkorlikni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali boshqaruv tizimini anglatadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, maktabgacha ta’lim tizimida barqaror rivojlanishni ta’minlash avvalo boshqaruvning strategik yondashuvlarga asoslangan holda tashkil etilishiga bog‘liqdir. Rivojlangan davlatlar tajribasida maktabgacha ta’limni boshqarishning asosiy tamoyili sifatida tizimlilik, ilmiylik,

monitoringga asoslangan qarorlar, kadrlar salohiyatini doimiy rivojlantirish, bolalarning rivojlanishini muntazam kuzatish orqali monitoringi va raqamli boshqaruv elementlari ustuvor hisoblanadi. Bunday yondashuvlar bolalarning ijtimoiy-hissiy, kognitiv, nutqiy va jismoniy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi hamda ta’lim sifatining barqarorligini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishda ijtimoiy sheriklik, maktab va mahalla bilan hamkorlik, ota-onalar pedagogik madaniyatini oshirish, bolalarning rivojlanishini kuzatib borish, inklyuziv ta’lim talablarini hisobga olish, sanitariya-gigiyena va xavfsizlik me’yorlariga rioya qilish kabi omillar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillarning to‘g‘ri boshqarilishi maktabgacha ta’lim tashkilotining samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshishiga olib keladi.

Shu bois, maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishning ilmiy jihatdan asoslangan mexanizmlarini o‘rganish, tahlil qilish va takomillashtirish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bu nafaqat ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, balki bolalarning kelgusidagi maktabga tayyorgarlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishning mohiyati – bu davlat ta’lim siyosati, pedagogik jarayonlar, inson resurslari, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti, oilaviy hamkorlik va zamonaviy innovatsion yondashuvlarni yagona yaxlit tizimga integratsiya qilgan holda, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan samarali boshqaruv mexanizmini shakllantirishdan iboratdir. Mazkur mohiyat boshqaruv jarayonining strategik, tashkiliy, tahliliy, motivatsion va monitoringga asoslangan funksiyalarini o‘z ichiga olgan murakkab pedagogik-ijtimoiy jarayon bo‘lib, u maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyati, resurslari va rivojlanish imkoniyatlarini ilmiy asosda boshqarishni talab etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqaruv tizimi nafaqat pedagogik jarayonlarni tartibga solish, balki ta’lim muhitining xavfsizligi, psixologik iqlimning barqarorligi, rivojlantiruvchi o‘yin va ta’lim makonlarini yaratish, bolalarning individual rivojlanish trayektoriyalarini qo‘llab-quvvatlash, pedagoglar kasbiy salohiyatini oshirish, ota-onalar bilan hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yish kabi ko‘plab omillarni qamrab oladi. Shu jihatdan, boshqaruvning mohiyati bolalarning ijtimoiy-hissiy, nutqiy, kognitiv, harakat va ijodiy rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks boshqaruv texnologiyalarini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvning mohiyati innovatsion yondashuvlar bilan uzviy bog‘liqdir. Raqamli texnologiyalar, elektron monitoring, STEAM yondashuvi, inklyuziv ta’lim metodlari, rivojlantiruvchi

muhitni modernizatsiya qilish kabi amaliyotlar boshqaruv jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa boshqaruvning zamonaviy modelini shakllantirib, ta’lim sifatining oshishi, pedagoglar kasbiy kompetensiyasining rivojlanishi va maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatining shaffofligi hamda samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishning mazmuni – bu ta’lim tashkilotining barqaror faoliyat yuritishi, sifatli rivojlanishi va doimiy innovatsion yangilanishini ta’minlaydigan tashkiliy, pedagogik, psixologik, metodik va ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro uyg‘unlashgan majmuasidir. Mazkur mazmun maktabgacha ta’lim tashkilotining mavjud imkoniyatlari, davlat ta’lim standartlari, bolalar rivojlanish xususiyatlari va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi.

Maktabgacha ta’limni boshqarish mazmuni, avvalo, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, pedagoglar kasbiy mahoratini uzluksiz oshirib borish, rivojlantiruvchi ta’lim muhitini samarali tashkil etish hamda oila, maktab va mahalla bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni qamrab oladi. Bu jarayonda boshqaruvning strategik rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat, motivatsiya va rivojlantirish kabi funksiyalari bir-birini to‘ldirib, ta’lim sifatining barqarorligiga xizmat qiladi.

Mazmunning innovatsion komponenti esa ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish, elektron monitoring, bolalar portfoliolari, raqamli diagnostika metodlari, o‘yin asosidagi o‘qitish va STEAM yondashuvlarini joriy etishni qamrab oladi. Innovatsion mazmun pedagoglar ijodkorligini oshiradi, bolalar rivojlanishining individual trayektoriyalarini yaratish imkonini beradi va maktabgacha ta’lim tashkilotining raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarish mazmuni – bu ta’lim tashkilotining tashkiliy tuzilmasi, pedagogik jarayonlar, inson resurslari, ta’lim muhiti, oila, maktab va mahalla hamkorligi, raqamli texnologiyalar va sifat monitoringini yagona tizimga birlashtiruvchi kompleks boshqaruv modeli bo‘lib, uning asosiy maqsadi bolalar rivojlanishining yuqori sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlashdan iboratdir.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarish bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan pedagogik, tashkiliy, psixologik va innovatsion jarayonlarni yagona mexanizm sifatida uyg‘unlashtirishni talab etadi. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari ta’lim tashkilotlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish,

raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim sifati monitoringi va strategik rejalashtirishni takomillashtirish orqali ta’limning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Inson resurslarini rivojlantirish, rivojlantiruvchi ta’lim muhitini modernizatsiya qilish, ota-ona va mahalla bilan hamkorlikni mustahkamlash kabi yo‘nalishlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarining samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, boshqaruvning ilmiy asoslanganligi, innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanilishi va sifat monitoringi tizimining izchil yuritilishi maktabgacha ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshiradi hamda ta’lim jarayonining yuqori samaradorlik bilan amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tashbayev N.S. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida ta’lim sifati monitoring samaradorligini oshirish – Toshkent. 2022. 134-136 b. https://inlibrary.uz/index.php/ilm-fan-va-innovatsiya/article/view/32938

2. Valiyeva F.R. “Ta’lim sifati monitoringi. O‘quv-uslubiy majmuasi.” Toshkent. 2022. 43 b. https://videouroki.net/razrabotki/ta-lim-sifati-monitoringi-o-um.html

3. Ziyavitdinova N., O‘rinov Y., Xayitov Sh. Menejment. – Toshkent: “Tafakkur–Bo‘stoni”, 2012. 207-208-bet.

4. Toshboyev Sh. Innovatsion ta’lim boshqaruvi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021. 56-58-bet.

5. Islamova D.D. Ta’lim menejmentida samarali boshqaruv tamoyillari: zamonaviy yondashuvlar va amaliyot – Toshkent: “Maktab ta’limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar”, 2025. 28-34 bet.

(https://journal.avloniy.uz/uz/jurnal/maktab-talimi-muammolar-izlanishlar-yechimlar-2025-yil3-son)

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH TAMOYILLARI

Usmonov Abrorjon Baxtiyorovich
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi bosh mutaxassisi, Toshkent shahridagi Puchon universiteti 1-bosqich magistratura talabasi
abo2352480@mail.ru Tel:+998 99 883-64-49

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, mazkur jarayonning o‘ziga xosligi, tamoyillari va amaliy joriy etish mexanizmlari keng qamrovda tahlil etilgan. Maktabgacha ta’lim muassasalarida kadrlar bilan ishlash jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, tizimlilik, adolat va shaffoflik, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsionlik, motivatsiya, hamkorlik va monitoring kabi tamoyillarning mohiyati chuqur bayon qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlari, pedagogik jarayonning murakkabligi va tarbiyachilarning kasbiy-ma’naviy fazilatlari inson resurslarini boshqarishni yanada nozik, mas’uliyatli va ilmiy yondashuvga asoslangan holda amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada shuningdek, kadrlar tanlash, malaka oshirish, raqamli boshqaruv va pedagoglarning psixologik farovonligini ta’minlash kabi amaliy jihatlar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, inson resurslarini boshqarish, boshqaruv tamoyillari, pedagogik kompetensiya, motivatsiya, innovatsion yondashuv, monitoring, kadrlar siyosati, raqamlashtirish, psixologik farovonlik.

Abstract: This article comprehensively analyzes the theoretical and methodological foundations of human resource management in the preschool education system, the specifics, principles, and mechanisms of practical implementation of this process. The essence of such principles as a personality-oriented approach, systematic approach, fairness and transparency, competency-based approach, innovation, motivation, cooperation and monitoring in the process of working with personnel in preschool educational institutions is deeply described. The psychophysiological characteristics of preschool children, the complexity of the pedagogical process, and the professional and moral qualities of educators indicate the need to implement human resource management based on a more subtle, responsible, and scientific approach. The article also covers practical aspects such as personnel selection, professional development, digital governance, and ensuring the psychological well-being of educators.

Keywords: Preschool education, human resource management, management principles, pedagogical competence, motivation, innovative approach, monitoring, personnel policy, digitalization, psychological well-being.

Maktabgacha ta’lim tizimi ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida jamiyat taraqqiyotining strategik poydevorini tashkil etadi. Bolaning ilk rivojlanish bosqichlari uning keyingi intellektual, emotsional va ijtimoiy shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois mazkur tizimda inson resurslarini boshqarish samaradorligi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining kasbiy salohiyati, pedagogik madaniyati, shaxsiy fazilatlari, bolalar bilan muloqot olib borish qobiliyati va emotsional barqarorligi nafaqat ta’lim jarayonining sifati, balki bolalarning psixologik holati va rivojlanish dinamikasiga ham ta’sir qiladi. Shu ma’noda, maktabgacha ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarish jarayoni chuqur ilmiy asosga ega bo‘lishi zarur.

Ushbu jarayonning asosiy tamoyillaridan biri tizimlilik bo‘lib, u kadrlar bilan ishlashning barcha bosqichlarini bir butun mexanizm sifatida qarashni talab etadi. Tarbiyachini tanlash, unga o‘qitish jarayonini tashkil etish, kasbiy faoliyatini baholash, rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda olib borilishi jarayonni samarali qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning o‘ziga xosligi sababli tarbiyachining kasbiy faoliyati muntazam monitoring va tahlil asosida takomillashtiriladi. Tizimli yondashuv pedagogning kasbiy o‘sishini izchil ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa inson resurslarini boshqarishda eng muhim tamoyillardan biridir. Maktabgacha ta’lim xodimlarining har biri turlicha kasbiy tajribaga, shaxsiy sifatlar va pedagogik imkoniyatlarga ega. Ularning psixologik holati, motivatsiyasi, qiziqishlari va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual rivojlanish rejalarini tuzish, yangi ish boshlagan tarbiyachilar uchun mentorlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish bunday yondashuvning amaliy ko‘rinishlaridan biridir. Bu esa xodimlarning ishga bo‘lgan munosabati, kasbiy o‘sishi va jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini rag‘batlantiradi.

Adolat va shaffoflik tamoyili maktabgacha ta’lim tizimida sog‘lom psixologik iqlim yaratishda muhim o‘rin tutadi. Baholash mezonlarining aniq va oshkora bo‘lishi, attestatsiya jarayonlarining shaffof o‘tkazilishi, lavozimga tayinlashda ob’ektiv mezonlarga asoslanish xodimlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlaydi. Bunday muhitda pedagoglar o‘z kasbiy salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi, norozilik, raqobatning salbiy shakllari va psixologik tanglik holatlarining oldi olinadi.

Kompetensiyaviy yondashuv tamoyili inson resurslarini boshqarishning zamonaviy modelini tashkil etadi. Maktabgacha ta’lim tizimida kompetensiyalar faqat bilim va ko‘nikmalar bilan chegaralanmay, balki tarbiyachining kommunikativ mahorati, emotsional intellekti, pedagogik jarayonni loyihalash qobiliyati, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasi, ijodiy yondashuvi kabi ko‘plab sifatlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda pedagoglarning raqamli kompetensiyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta’lim jarayonida elektron resurslar, onlayn platformalar, raqamli baholash tizimlarini qo‘llash imkonini beradi.

Innovatsionlik tamoyili maktabgacha ta’limda pedagogik jarayonni yangicha yondashuvlar bilan boyitishni talab qiladi. Montessori, Reggio Emilia, STEAM kabi zamonaviy metodikalar, interfaol ta’lim texnologiyalari, tajriba-sinov faoliyatiga asoslangan yondashuvlar pedagogdan kreativlik, izlanish va yangilikka ochiqlikni talab qiladi. Innovatsion faoliyatning joriy etilishi bolalarning rivojlanish jarayonini jonlantiradi, mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradi va pedagogik jarayonni samarali qiladi.

Motivatsiya tamoyili inson resurslarini boshqarishning emosional-psixologik jihatini tashkil etadi. Pedagogning ishga bo‘lgan munosabati, ijodiy faolligi va kasbiy o‘sishga intilishi ko‘p jihatdan motivatsiya tizimiga bog‘liq. Moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish, ijtimoiy e’tirof, kasbiy o‘sish imkoniyatlarining mavjudligi xodim faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim tizimi kabi mas’uliyatli sohada motivatsiya xodimning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Hamkorlik tamoyili maktabgacha ta’lim tizimi uchun eng muhim shartlardan biridir. Tarbiyachi, psixolog, metodist, ota-ona, boshqaruv xodimlari hamkorlikda ishlagan taqdirda ta’lim-tarbiya jarayoni samarali bo‘ladi. O‘zaro fikr almashish, tajriba bo‘lishish, pedagogik konsiliumlar o‘tkazish bolalar rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Monitoring tamoyili boshqaruv jarayonining ilmiy asosini tashkil etadi. Pedagogik faoliyat, bolalar rivojlanish dinamikasi, sanitariya-gigiyena talablari, hujjatlar yuritilishi muntazam ravishda nazorat qilinadi va natijalar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Monitoring maktabgacha ta’lim tizimida sifatni boshqarishning asosiy vositasidir. Amaliy jihatdan qaralganda, maktabgacha ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarishning muhim yo‘nalishlari xodimlarni tanlash va joylashtirish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish, raqamli boshqaruvni joriy etish, pedagoglarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Xodimlarni tanlash jarayonida kompetensiya asosida suhbat, psixologik test, amaliy mashg‘ulot kabi usullar qo‘llanilgani maqsadga muvofiqdir. Malaka

oshirishning kredit-modul tizimiga o‘tilishi, onlayn ta’limning kengayishi kadrlar salohiyatini oshiradi. Raqamli texnologiyalar asosidagi boshqaruv tizimi esa jarayonlarni tezkor, aniq va shaffof qiladi. Pedagoglarning psixologik farovonligini ta’minlash bo‘yicha psixologik treninglar, dam olish kunlari, jamoaviy tadbirlar o‘tkazilishi ular faoliyatining barqarorligini oshiradi.

Natijada, maktabgacha ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarish-bu ilmiy asoslangan, uzluksiz rivojlantirishga yo‘naltirilgan, innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, ta’lim sifatining oshishi, bolalar rivojining yaxshilanishi va tizimning raqobatbardoshligi uchun muhim shart hisoblanadi.

Maqolada maktabgacha ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarishning tamoyillari va ularning ta’lim sifatiga ta’siri tahlil qilindi. Ta’kidlanganidek, bolalarning ilk rivojlanish bosqichlari ularning intellektual, emotsional va ijtimoiy shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lib, shuning uchun pedagoglarning kasbiy salohiyati, shaxsiy fazilatlari va emotsional barqarorligi ta’lim jarayonining sifatini bevosita belgilaydi.

Maqolada inson resurslarini boshqarish jarayonida tizimlilik, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, adolat va shaffoflik, kompetensiyaviy va innovatsion tamoyillar, motivatsiya, hamkorlik va monitoringning muhimligi ko‘rsatildi. Bu tamoyillar xodimlarni tanlash, tayyorlash, rag‘batlantirish, psixologik farovonligini ta’minlash va raqamli boshqaruv tizimini joriy etish orqali samarali boshqaruvni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tizimida inson resurslarini ilmiy asoslangan, uzluksiz rivojlantiriladigan va innovatsion tamoyillar asosida boshqarish ta’lim sifatini oshirish, bolalar rivojini yaxshilash va tizimning raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonuni // 2019-yil 16-dekabr O‘RQ-595-son // www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son qarori // www.lex.uz

3. Abdullayeva R.M., Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 248-b.

4. Boymurodov A. Ta‘lim tizimida boshqaruvning innovatsion modellari. – Toshkent, 2019. – 192-b.

5. Xodjayeva D. Inson resurslarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. – Samarqand, 2020. – 205-b.

6. Spencer L., Spencer S. Competence at Work. – New York: John Wiley & Sons, 1993. – 234 p.
7. Robbins S. Human Resource Management. – London: Pearson, 2015. – 416 p.

❁❁❁❁❁

TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA 6-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna NavDU
Maktabgacha ta’lim kafedrasi PhD, v.b prof.
Toshqulova Zuhra Ulug‘bek qizi NavDU, 70110201-
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi maktabgacha ta’limni
muvofiqlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi.
E-mail: ***Zuhra20010324@gmail.com***

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy tayyorlov guruhlarida tabaqalashtirilgan yondashuv asosida maktab ta’limiga tayyorlash mazmuni, differensial ta’limning vazifalari haqida so‘z boradi. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarning qobiliyatlari, qiziqishlari, imkoniyatlarini aniqlash va shu jihatlarini inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Differensial ta’lim, tabaqalashtirilgan yondashuv, qobiliyat, qiziqish, imkoniyat, vazifalari.

Аннотация: В этой статье обсуждается содержание подготовки детей дошкольного возраста в возрасте 6 - 7 лет к школьному образованию на основе дифференцированного подхода в группах обязательной подготовки к начальному образованию, а также задачи дифференцированного образования. Также изложена методика организации занятий на основе дифференцированного подхода с учетом способностей, интересов, возможностей воспитанников.

Ключевые слова: Дифференцированное образование, дифференцированный подход, способности, интересы, возможности, задачи.

Abstract: This article discusses the content of preparing preschool children aged 6-7 years for school education on the basis of a differentiated approach in

groups of compulsory preparation for primary education, as well as the task of differentiated education. The methodology of organizing classes on the basis of a differentiated approach, taking into account the abilities, interests, opportunities of pupils, is also outlined.

Key words: Differentiated education, differentiated approach, abilities, interests, opportunities, tasks.

Differensial yondashuv ya’ni tabaqalashtirilgan yondashuv DIFFERENTSIATSIYA (Fransuzcha differentiation, lotincha differentia — farqlanish, farq), ixtisoslashish — dastlab bir xil elementlardan iborat bo‘lgan sistemaning sifat jihatidan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajralib ketishi.

Tabaqalashtirilgan yondashuv qanday yondashuv deyilsa aytishimiz mumkunki, bu har bir bolaning individual qobiliyatlarini, o‘zlashtirish tezligini, bilim darajasini va qiziqishlarini hisobga olgan holda, bitta guruh ichida turli darajadagi (quyi, o‘rta, yuqori) guruhchalar yaratib mana shu guruhlarga moslab topshiriq va mashqlarni taklif qilishdir. Bu hammaga bir xil dars berish emas, balki har bir bolaga uning ehtiyojiga mos keladigan bilim, mazmun va usullarni yaratishdir.

Barcha pedagoglar jumladan har bir tarbiyachi guruhidagi tarbiyalanuvchilarning o‘tiladigan turli mashg‘ulotlarda berilgan ma’lumotlarni qay darajada o‘zlashtirayotganligini, qiziqishlarini, qobiliyatlarini yaxshi biladi. Tajribali pedagog esa ish faoliayatida ya’ni tashkil etayotgan mashg‘ulotlarida tarbiyalanuvchilar erishishlari kerak bo‘lgan natijalarga erishishlari uchun differensial ya’ni tabaqalashtirilgan yondashuvni, har bir tarbiyalanuvchining individual-shaxsiy qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulotlat tashkil etilsa maktabga tayyorlash va ta’lim samaradorligi oshadi. Tabaqalashtirilgan yondashuv – bu har bir bolaning qobiliyati, ehtiyoji, rivojlanish sur’atlariga moslashtirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish metodikasidir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda tabaqalashtirilgan yondashuv qo‘llanilganda, ular o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta oladi, qiziqishlari va intellektual faolliklari oshadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim dasturlarida tabaqalashtirilgan yondashuvning samaradorligini o‘rganish va uni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabaqalashtirilgan yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning turli rivojlanish sur’atlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini inobatga olib, ularning ta’lim jarayoniga faol va samarali ishtirok etishini, maktab ta’limiga sifatli tayyorlashni

ta’minlaydi. Bu metodika bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish orqali ularni rag‘batlantirish va motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tabaqalashtirilgan yondashuv bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’limda sifatni oshirish, bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta’minlash, ularni maktab ta’limiga samarali tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu boisdan, pedagoglar ta’lim jarayonini har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtirish usullarini izlashmoqda. Differensial yondashuvning afzalliklari va samaradorligini tadqiq qilish maktabgacha ta’limning rivojlanishida yangi bosqichni boshlab beradi. [1]

Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyasiga ko‘ra maktabgacha ta’lim tashkilotlarida belgilangan frontal mashg‘ulotlarda, markazlardagi faoliyatlarda, mental arifmetika va turli xil to‘garaklarda, xorijiy til, musiqa, jismoniy tarbiya pedagoglari mashg‘ulotlar davomida tarbiyalanuvchilarni guruhlarga bo‘lib ya’ni individual xususiyatlari, bilim darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagog pastroq darajada o‘zlashtirayotgan tarbiyalanuvchilarga differentsial yordam berishi va bilim saviyasi kuchliroq tarbiyalanuvchilarga e’tibor berishda yanada samarali ishlashlari kerak. Bilimga chanqoq, qiziquvchan kuchli tarbiyalanuvchilar tezroq oldinga va chuqurroq harakat qilish istagini faol ravishda amalga oshiradilar. O‘yinqaroq, bilim olishga u qadar qiziqishi yo‘q, zaifroq tarbiyalanuvchilar kuchli tarbiyalanuvchilar bilan orqada qolishlarini kamroq his qiladilar.

Differensial ta’limning vazifalari: o‘quvchining o‘ziga xosligi (individualligini) ko‘rish, o‘z kuchiga ishonishga yordam berish. Differensial ta’lim o‘qituvchilardan o‘quvchilarning individual qobiliyatlari va o‘qish imkoniyatlarini (diqqat, fikrlash, xotira va boshqalarning rivojlanish darajasi), aniq fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalar darajasini tashkil etishni o‘rganishni talab qiladi, bu esa korrektsion samaraga erishish maqsadida kelgusi individuallashtirishni amalga oshirish imkonini beradi.

Mashg‘ulotlar jarayonida tabaqalashtirishning maqsadi deb ayta olamizki bu har bir tarbiyalanuvchiga umumiy ta’lim mazmunini o‘zlashtirish jarayonida uning qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish uchun sharoit yaratish deb va yuqoridagi grafikdagi kabi maktab dasturlarini o‘rganishga turli tayyorgarlik darajasi me’yor hisoblangan foizlarni yuksaltirishdir.

[1] “Maktabgacha ta’lim dasturlarida differensial yondashuvning samaradorligi” Tuychiyeva Zulfizar Boxodir qizi Chirchiq davlat pedagogika universiteti, maktabgacha talim fakulteti talabasi.

Mashg‘ulotlar davomida tarbiyalanuvchilarga tabaqalashtirilgan yondashuv asosida mashg‘ulotni tashkil etish uchun avvalambor pedagog har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlari alohida o‘rganib, tahlil qilib, ularga to‘g‘ri keladigan, mos metodlar tanlaydi. Tarbiyalanuvchilarni tabaqaqalashtirishda pedagoglar quyidagi usullardan foydalansalar bo‘ladi:

Qiziqishlarini aniqlash.

- Kuzatish – bu bolalarni erkin faoliyatlarida, o‘yinlarida, rivojlantiruvchi markazlarda qaysi faoliyatni tez-tez tanlayotganlarini kuzatishi va aniqlashi. Bu faoliyatlar bo‘lishi mumkun qo‘shiq aytish, rasm chizish, rolli o‘yinlarni rolga kirib bajarishi, konstruktor yig‘ish, qog‘ozdan, plastilin yoki loydan turli xildagi narsalar yasash va h.k.
- Suhbat – bunda bolalar bilan ko‘roq muloqot qilish “Senga nima yoqadi?”, “Senga nima yoqmaydi?” “Nimani ko‘proq o‘ynaysan?” kabi savollar berib suhbatlashish.

Qobiliyatlarini aniqlash.

- Amaliy mashqlar – pedagog tarbiyalanuvchilarni mashg‘ulotlarda masalan, tasviriy san’at mashg‘ulotida rasm chizishda predmetlarni to‘liq tasvirlay olishi yoki rang berishda uyg‘un ranglardan foydalana olishlarini, hikoya tuzish, rasmga qarab hikoya tuzishdagi ijodiyligini, konstruktorni tez yoki sekin yig‘ishi, qog‘ozdan aplikatsiyalar, origami usullarida turli xildagi chiroyli narsalar yasashi, plastilin yoki loydan haykalchalar, predmetlarni yasashlari kabi qobiliyatlarini aniqlab oladilar.
- Psixologik testlar va didaktik o‘yinlar – Kern-Yirasekning maktabga tayyorlikni aniqlash testi, “Grafik diktant” metodikasi, “Uycha” metodikasi, “9 Shakl” metodikasi kabi psixologik testlardan bolalarning psixologiyasini, temperamentini, maktabga tayyorgarlik holatini aniqlashda pedagoglar foydalanishlari mumkun. Bundan tashqari “Bir xilini qo‘sh”, “Soyasidan top”, “Xotira mashqi”, “Oldin nima keyin nima” “Ortiqchasini top”, “Matematik topishmoqlar”, “Farqini top”, “Sabab nima”, “Kim topqir” kabi didaktik o‘yinlar, “Vizualizatsiya” mashqlari ya’ni ko‘z oldida tasavvur qilish mashqlari orqali ham bolalarning eslab qolish darajasi va mantiqiy tafakkuri o‘lchanadi.
- Ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini aniqlash – she’rni chiroyli ifodali o‘qishga, raqs tushushga, qo‘shiq kuylashga qiziqishi, ertak va hikoyalarni sahnalashtirishda ishtirok etishlari orqali bolalarning qiziqshlari va badiiy qobiliyatlar yuzaga chiqadi. Bunday tarbiyalanuvchilar tashkilotda tashkil etildigan tadbirlarda, bayram ertaliklarida ajralib turadi va yaqqol ko‘zga tashlanadi

Imkoniyatlarini aniqlash.

- Yoshiga xos bo‘lgan rivojlanish mezonlari bilan taqqoslash – Majburiy bir yillik tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari aynan teng yoshlilar ya’ni 6-7 yoshli bolalardir, bu ham pedagogga yaxshi imkoniyat hisoblanadi. Kuzatilayotgan bolaning tengqurlaridan o‘zib ketganmi yoki ortda qolganmi imkoniyati aniqlanadi.
- Individual topshiriqlar orqali – murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar va mashqlar beriladi, bola qaysi darajagacha qiynalmasdan bajara olishi aniqlanadi.
- Sog‘lig‘i va psixofiziologik xususiyatlari o‘rganiladi – tarbiyalanuvchilarning ko‘rish yoki eshitishdagi qiyinchiliklarini, tez charchab qolishi, surunkali kasalligi bo‘lgan bolalar bor, yo‘qligi ham imkoniyat darajasini belgilaydi.

Amaliy metodlar

- Kuzatish varaqalari (diagnostika jadvallari) tuzish va yana bolalarning rivojlanish xaritalari – pedagogningi ish hujjatlaridan biri ya’ni 05-04 bo‘lib bolalarni doimiy amaliy bajarganliklarini kuzatib – tarbiyalanuvchilar faoliyati, qiziqish va yutuqlarini muntazam qayd etib borishlari.
- Ijodiy topshiriqlar va kichik testlar – bunda bolalar bilimlarini qay darajada qo‘llay olishlarini ko‘rsatadilar.
- Bolalar portfoliolari – bolalarning chizgan rasmlari, yasagan aplikatsiyalari, insho yoki kichik ishlari jamlab boriladi, bu tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini tahlil qilishda pedagoglarga zarur vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Tabaqalashtirilgan yondashuvda bolaga nima yoqishi va nima yoqmaslini aniqlab bolaning qiziqishini, qaysi sohada iqtidori borlini aniqlash orqali qobiliyatini, imkoniyatini aniqlashda esa nimani bajara oladi degan mezonlar asosida aniqlanadi. Pedagog tarbiyalanuvchilar bilan suhbatida, mashg‘ulotlardagi faol ishtirokida va muntazam kuzatishi orqali har bir bolaga mos ta’limiy yondashuvni tanlaydi. Shubhasiz, bu pedagogning mohir bo‘lishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Дифференциальный подход к системе образования. Ярманова Юлдуз Буриевна, Қарши ДУ Мактабгача ва бошланғич таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси.

2. Maktabgacha ta’lim dasturlarida differensial yondashuvning samaradorligi” Tuychiyeva Zulfizar Boxodir qizi Chirchiq davlat pedagogika universiteti, maktabgacha talim fakulteti talabasi.
3. Differensial ta’lim yoki individual shaxsiy yondashuv, Ta’lim olishni optimallashtirish usuli sifatida Chdpu “maktabgacha ta’lim” fakulteti dotsenti, P,f,f,d(phd) Teshabayeva Zamira Sobirovna.
4. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. Darslik. N.T.Tosheva “Kamolot” nashriyoti. Buxoro – 2022

INKLYUZIV TA’LIM – BARCHA UCHUN TENG VA MUNOSIB TA’LIM TAMOYILI DOIRASIDA

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: shaxloxaydarova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’limning nazariy mazmuni, uning jamiyat rivojidagi o‘rni, imkoniyati cheklangan bolalarni qo‘llab-quvvatlashning dolzarb jihatlari hamda ta’limda tenglikni ta’minlash yo‘llari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, tenglik, imkoniyati cheklangan bolalar, nogiron bola, maxsus pedagogika, inklyuziv muhit, ijtimoiy integratsiya, alternativ, individual o‘quv rejalar, audiokitoblar, braille alifbosidagi materiallar, adaptiv texnologiyalar.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретическое содержание инклюзивного образования, его роль в развитии общества, современные аспекты поддержки детей с ограниченными возможностями здоровья и пути обеспечения равенства в образовании.

Ключевые слова: инклюзивное образование, равенство, дети с ограниченными возможностями здоровья, ребенок-инвалид, специальная педагогика, инклюзивная среда, социальная интеграция, альтернатива, индивидуальные учебные программы, аудиокниги, материалы, напечатанные шрифтом Брайля, адаптивные технологии.

Abstract: This article discusses the theoretical content of inclusive education, its role in the development of society, current aspects of supporting children with disabilities, and ways to ensure equality in education.

Keywords: Inclusive education, equality, children with disabilities, disabled child, special pedagogy, inclusive environment, social integration, alternative, individual curricula, audiobooks, materials in Braille, adaptive technologies.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning har bir a’zosi uchun teng imkoniyat yaratish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimi bu jarayonning markazida turadi. Ta’limning asosiy vazifasi — har bir bola, uning jismoniy, ruhiy yoki ijtimoiy holatidan qat’iy nazar, sifatli, munosib va teng ta’lim olishini ta’minlashdir. Shuning uchun ham inklyuziv ta’lim nafaqat pedagogika sohasining, balki butun jamiyatning muhim g‘oyasiga aylandi.

Hozirgi murakkab sharoitda zamonaviy ta’lim tizimining muhim masalalaridan biri – inklyuziv ta’limni rivojlantirishdan iborat. Bu borada eng avvalo, ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi ham muhim o‘ringa ega bo‘lib, ularni o‘rganish hamda ulardan samarali foydalanish juda muhim hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikamizda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Ilmiy hamjamiyat jiddiy e’tibor qaratishi zarur bo‘lgan muammoga doir tadqiqot ishlarini o‘rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma’lum bo‘ldiki, imkoniyati cheklanganlarni teng, munosib ta’lim-tarbiya olishi hamma vaqt yaxshi, risoladagidek bo‘lishi, alohida e’tiborda tutilishi, nazardan chetda qolmasligi lozim. Ushbu muammo haqida Sharq mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Yusuf Xos Hojib, Imom G‘azzoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar o‘z zamonlarida oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasi va uning kamolotiga pedagogik-psixologik yondashuv muammosi to‘g‘risida yozilgan ilmiy-pedagogik mushohadalari bizgacha yetib kelgan noyob asarlarida o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sino asarlarida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda, alohida e’tiborga muhtoj bolalar tarbiyasiga oid tavsiyalar ham beriladi. Alloma nogiron bola tengqurlari qatori ta’lim-tarbiya olishga haqli ekanini aytib, ularda ilm olishga, kasb-hunar o‘rganishga intilish kuchliligini ta’kidlaydi. Sharq allomalarining bola shaxsini tarbiyalash, ularning rivojlanishida ta’lim-tarbiyaning ta’siri haqidagi qarashlari ilmiy tahlili tadqiqotchilar uchun asosiy manba bo‘lishi shubhasiz.

Inklyuziv ta’limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik, psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish, ushbu yo‘nalish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, inklyuziv ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylandi. Chunki inklyuziv ta’lim texnologiyalari barcha bolalarning ruhiy-jismoniy holatidan qat’iy nazar ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, alohida e’tiborga, yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo‘lib ulg‘ayishi, o‘z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko‘nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, ta’lim muassasalarida sog‘lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o‘qiy olishi, ular bilan o‘zaro do‘stona munosabatga kirishishi, darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishi, topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar yaratadi. Bizning fikrimizcha, inklyuziv ta’lim – barcha ta’lim oluvchilar uchun ularning ehtiyojlari, imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda teng imkoniyatlarni ta’minlashdir.

Inklyuziv ta’limning asosiy mazmuni shundan iboratki, ta’lim jarayonida har bir bola o‘zining qobiliyatiga ko‘ra rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi shaxsini qo‘llab-quvvatlovchi, uning ichki salohiyatini ochishga yordam beruvchi maslahatchi, yo‘lboshchi vazifasini bajaradi. O‘quvchilar esa o‘zaro hamkorlikda ishlashni, bir-birini tushunishni, farqlarga hurmat bilan qarashni o‘rganadilar. Natijada jamiyatda ijtimoiy bag‘rikenglik kuchayadi.

Inklyuziv ta’limning joriy etilishi nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki barcha o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bunday sinfda individual ta’lim metodlari keng qo‘llanadi, har bir o‘quvchining mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, o‘zini ifoda etish darajasi ortadi. Turli imkoniyatga ega bolalarning bir muhitda bo‘lishi esa o‘zaro o‘rganish jarayonini kuchaytiradi: kimdir sabrni, kimdir liderlikni, yana kimdir murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topishni o‘rganadi.

Shuningdek, inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ta’lim muassasalarida yaratilgan sharoitlarga bog‘liq. Bu sharoitlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Jismoniy muhitning mosligi**: panduslar, maxsus jihozlangan sinflar, ko‘rsatkich belgilar, xavfsizlik tizimlari;
- **O‘quv dasturlarining moslashtirilganligi**: darsliklarning soddalashtirilgan yoki alternativ variantlari, individual o‘quv rejalari;

- **Texnik vositalar**: audiokitoblar, braille alifbosidagi materiallar, eshitish moslamalari, adaptiv texnologiyalar;
- **Maxsus pedagogik yordam**: logoped, defektolog, psixolog, ijtimoiy pedagog xizmatlari;
- **O‘qituvchilarning inklyuziv yondashuvga tayyorligi**: malaka oshirish, metodik qo‘llanmalar, treninglar.

Bundan tashqari, inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ota-onalar bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Ota-onalarning farzandi rivojlanishidagi ishtiroki kuchaysa, bola o‘zini yanada ishonchli his qiladi. Ota-ona, pedagog va mutaxassislarning hamkorligi bolaning ijtimoiylashuvi va ta’limga moslashish jarayonini tezlashtiradi.

Inklyuziv ta’limning asosiy g‘oyalaridan yana biri — bola markazida turuvchi ta’lim modelini shakllantirishdir. Bu modelda bola faqat bilim olish subyekti emas, balki o‘zining ta’lim jarayoni, rivojlanish sur’ati va ehtiyojlarini belgilovchi faol ishtirokchidir. Shuning uchun pedagoglar har bir bola uchun individual rivojlantiruvchi maqsadlar belgilaydi, uning qiziqishlarini, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada bola o‘zining imkoniyatlari borasida yanada ongli, o‘z-o‘zini boshqara oladigan shaxsga aylanadi.

Inklyuziv ta’limning keng joriy etilishi jamiyatning madaniy rivojlanishini ham belgilab beradi. Chunki ijtimoiy hayotda teng imkoniyat yaratilgan joyda adolat, barqarorlik, totuvlik va hamjihatlik mustahkam bo‘ladi. Farqlarga bag‘rikeng qarash, har kimni inson sifatida qadrlash madaniyati esa jamiyatning kelajakdagi salohiyatini oshiradi.

Xulosa qilganda, inklyuziv ta’lim — bu bugungi kun talabi emas, balki kelajak avlod uchun yaratilayotgan poydevordir. Barcha bolalar bir muhitda ta’lim olib, o‘zaro munosabatga kirishganida ular ertangi jamiyatni yanada adolatli, mehrli va taraqqiy etgan holga ko‘ra oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Bola huquqlari to‘g’risida”gi Konvensiya. BMT 1989 yil 20 noyabr.
2. Sh.Sh.Mirziyoyeva, I.V Goroshova, U.TMikailova “ Maktabgacha ta’limda individuallashtirish alohida ehtiyojli bolalar inklyuziyasi. –T.: 2020,
3. I.Yu.Madatov. “Inklyuziv ta’lim” Darslik, “BEST-PUBLIST” nashriyoti, Toshkent-2024.
4. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika (darslik). Chirchiq – 2022-yil.

5. R.Shomaxmudova, D.Tulaganova, A.Berdieva. Jismoniy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan inklyuziv va maxsus ta’lim tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. Toshkent: 2007 y.
6. Sh.N.Xaydarova Inklyuziv ta’lim sharoitida pedagoglarning kasbiy tendensiyalari. NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2025-5-son. 1399-b

MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNING MAYDA QO‘L MATORIKALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xalqaro Nordik Universiteti,
Psixologiya va maktabgacha ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi, p.f.f.d (PhD)
D.A.Sharafutdinova
Nordik Xalqaro Universiteti
2-bosqich magistranti
Amanova Albina Dexqon qizi

Anotatsiya: Maktabgacha yosh davrida bolalar rivojlanishining har tomonlama shakllanishi, ularning keyingi hayotida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muhimdir. Ayniqsa, mayda qo‘l motorikasining rivojlanishi bolalarning intellektual, ijodiy va lingvistik ko‘nikmalarini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada mayda motorika, uning rivojlanishidagi metodik yondashuvlar va innovatsion o‘yinlar tahlil qilinadi. Pedagogik metodlar, Montessori yondashuvi, didaktik o‘yinlar va zamonaviy texnologiyalar orqali bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishning samaradorligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning amaliyotga tatbiq etilishi bo‘yicha tahlil beriladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv rivojlanish, maktabgacha ta’lim, Montessori metodikasi, didaktik o‘yinlar, innovatsion texnologiyalar, jismoniy rivojlanish, intellektual ko‘nikmalar, pedagogik metodlar

Insonning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatdagi muvaffaqiyati uning dastlabki yillarda shakllangan asosiy ko‘nikmalari bilan chambarchas bog’liqdir. Maktabgacha yosh davri esa nafaqat bola shaxsining psixologik, balki jismoniy rivojlanishida ham muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, mayda qo‘l motorikasining rivoji bolalar faoliyatining ko‘plab jihatlariga, jumladan, intellektual, ijodiy va lingvistik ko‘nikmalarning shakllanishiga bevosita ta’sir

ko‘rsatadi. Mayda motorikaning rivojlanishi nafaqat kundalik hayotda zarur bo‘lgan amaliy harakatlarni shakllantirishni, balki bolalarning miyasida murakkab neyron aloqalarning paydo bo‘lishini rag’batlantiradi. Ushbu jarayon nafaqat bolalarning mustaqilligi va o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularning bilim olishga tayyorligini ta’minlaydi. Pedagogik yondashuvlar, didaktik o‘yinlar, innovatsion usullar va bolalarning yosh xususiyatlariga moslashtirilgan mashqlar tizimi, ushbu yo‘nalishning ilmiy va amaliy ahamiyati tashkil etadi. Maktabgacha ta’limda bolalarning mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish masalasi davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilayotgan sohalardan biridir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi PQ-4312-son qarorida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar bilan ta’minlash, bolalarning sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”da bolalarning jismoniy rivojlanishi, jumladan, mayda motorika ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha aniq talablar belgilangan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning mayda qo‘l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish uchun mustahkam asos yaratadi.

Xorij tajribasida ham Italiyalik pedagog Mariya Montessori o‘zining ta’lim tizimida bolalarning qo‘l motorikasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Montessori metodikasining asosiy tamoyillaridan biri – bolalarning tabiiy rivojlanish ehtiyojlarini inobatga olib, ularga mustaqil faoliyat uchun shart-sharoit yaratishdir. Uning fikriga ko‘ra, mayda motorika rivoji bolaning umumiy psixofizik rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va bu, ayniqsa, maktabgacha yosh davrida dolzarb hisoblanadi. Montessori materiallaridan foydalanish orqali bolalar qo‘l va barmoqlarni mustahkamlovchi, harakatlarni nozik boshqarishga yordam beruvchi mashqlarni bajaradilar. Masalan, tugmalarni ulash, qumni elash, mozaikalar bilan ishlash va ipga munchoqlar tizish kabi faoliyatlar bolaning diqqatni jamlash, o‘z-o‘zini boshqarish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Montessori metodining asosiy vositalari:

Sensor materiallar: Mayda motorika va sezgi organlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan maxsus qurilmalar.

Qo‘l ishlari: Tugmalarni mahkamlash, tugmalarni yechish va bog’lash, ip o‘rash, munchoq tizish va boshqa mashg’ulotlar.

Ijodiy faoliyat: Chizish, bo‘yash, qirqish kabi amaliy mashg’ulotlar.

Tabiat elementlari bilan ishlash: Tabiiy materiallarni (masalan, qum yoki suv) o‘rganish va ularni boshqarish orqali bolalarning sezgi va harakatlarini muvofiqlashtirish.

Montessori metodining ahamiyati shundaki, u bolaga o‘z rivojlanishining subyekti sifatida qaraydi va uning o‘ziga xos qobiliyatlarini ochib berishga yordam beradi Uning metodikasi bolalarning tabiiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan, shuningdek, ularning o‘z-o‘zini boshqarish va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa Montessori yondashuvini yanada boyitib, uni milliy pedagogik tizim bilan uyg’unlashtiradi. Shu bilan birga, har ikkala yondashuv bolalarning umumiy intellektual va psixologik rivojlanishiga mustahkam asos yaratadi.

O‘zbekistonlik olimlar orasida bolalarning qo‘l motorikasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar e’tiborga loyiqdir. Misol uchun, Karimova Nafisa Rahimovna tomonidan bolalar psixologiyasi va rivojlanishiga bag’ishlangan ilmiy tadqiqot ishida bolalarni mayda qo’l motorikasini shakllantirish jarayonida didaktik o‘yinlarning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Karimovaning fikriga ko‘ra, bolalarning qo‘l motorikasini rivojlantirish faqatgina jismoniy mashqlarga emas, balki ular orqali kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirishga ham qaratilgan bo‘lishi kerak.

Uning yondashuvi quyidagilarga asoslangan:

Didaktik o‘yinlar: Masalan, kubiklarni joylashtirish, geometrik shakllarni to‘g’ri joylarga qo‘yish orqali bolaning analitik fikrlashi va mayda motorikasi bir vaqtda rivojlanadi.

Amaliy mashqlar: Qo‘l va barmoqlarni harakatlantiruvchi maxsus jismoniy faoliyatlar, masalan, plastilin yoki loy bilan ishlash.

Innovatsion texnologiyalar: Interaktiv ta’lim materiallari yordamida bolaning diqqatini jamlash va nozik harakatlarini rivojlantirish.

Mayda qo‘l motorikasini rivojlantirishda o‘yinlar va metodik yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’limda mayda motorikani rivojlantirishda qo‘llaniladigan o‘yinlar nafaqat bolalar uchun qiziqarli bo‘lishi, balki ularning aqliy, psixologik va jismoniy rivojlanishiga ham hissa qo‘shishi kerak. Bugungi kunda turli pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida mayda motorikaning rivojlanishiga ta’sir o‘tkazadigan samarali metodlar va o‘yinlar ishlab chiqilgan.

1.Montessori metodidan foydalanish

Mariya Montessori metodikasi bolalarda mayda motorikani rivojlantirish uchun keng qo‘llaniladi. Montessori metodida bolalar uchun maxsus materiallar va

mashqlar ishlab chiqilgan. Ushbu metodikada boshliqlik qiluvchi mashqlar barmoq va qo‘l mushaklarini o‘zaro ishlatishga asoslangan. Misol uchun:

Tugmalarni bog’lash va yechish: Bu mashqlar bolalarning qo‘l va barmoq mushaklarini, koordinatsiyasini va diqqatini rivojlantirishga yordam beradi.

Plastilin yoki loy bilan ishlash: Ushbu mashqlar bolalarga qattiq va yumshoq materiallar bilan ishlashni o‘rgatadi, bu esa motorikani rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

2. Sensor-fizik faoliyatlar

Qum bilan ishlash: Qumda o‘ynash, qumdan shakllar yasash, qumni qo‘l bilan tarqatish orqali bolalar mayda motorikani rivojlantiradilar.

Suv bilan o‘ynash: Suvda qoliplarni ishlatish, suyuqliklarni to‘kish, aralashtirish va boshqa faoliyatlar bolalar uchun nafaqat qiziqarli, balki foydali hamdir.

Xom-ashyo materiallari: Qog’oz, to‘qimachilik materiallari bilan ishlash ham qo‘l motorikasini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Koordinatsiya va diqqatni jamlash o‘yinlari

Shakllarni yig’ish va joylashtirish: Bolalarga geometrik shakllarni to‘g’ri joylashtirish, moslashtirish yoki kichik jismonlarni yig’ish kabi mashqlar bolaning qo‘l mushaklari va koordinatsiyasini rivojlantiradi.

Munchoqlar bilan o‘ynash: Bonchuklarni ipga tortish yoki boshqa harakatlar orqali bolalar nozik motorikani rivojlantiradilar.

Labirintlar va shakllarni to‘ldirish: Kichik yoshdagi bolalar uchun labirintlarni o‘tkazish yoki qalam bilan shakllarni to‘ldirish mashqlari diqqatni jamlash va qo‘l harakatlarini aniq bajarishni o‘rgatadi.

4.Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash

Interaktiv ekranda o‘ynash: Ekranda shakllarni, ranglarni, harakatlarni aniqlash va interaktiv ilovalar orqali bolalar motorikani rivojlantiradilar.

Sensorli ekranli o‘yinlar: Sensorli ekranlarda turli interaktiv o‘yinlarni o‘ynash orqali bolalar nafaqat motorikani, balki kognitiv ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish bolalarning jismoniy, kognitiv va emotsional rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida bu ko‘nikmalarni shakllantirish bolalar uchun eng muhim o‘quv va rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi bolaning diqqatini, tafakkurini va o‘zini ifodalash qobiliyatini oshiradi, shuningdek, uning ijodiy va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Montessori metodikasi, sensor-fizik faoliyatlar, innovatsion texnologiyalar va boshqa zamonaviy metodlar yordamida bolaning motorikasi samarali tarzda rivojlantirilishi mumkin. Shu bilan

birga, o‘yinlar va interaktiv mashqlar bolalar uchun eng qiziqarli va samarali usul bo‘lib, ular yordamida bolalar o‘quv jarayoniga faollik bilan jalb qilinadi. Tarbiyalanuvchilarning mayda motorikasi rivojlanishi nafaqat ta’lim tizimining asosiy qismi, balki bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga ham tayanadigan poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida"gi PQ-4312-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti".
3. Montessori, M. "The Montessori Method". Cambridge: Cambridge University Press, 1912
4. Karimova N.R. "Bolalarning psixologik rivojlanishida didaktik o‘yinlarning ahamiyati". Toshkent: Fan, 2020.
5. Smith, A., & White, J. "Fine Motor Skills Development in Early Childhood Education". Early Childhood Research Quarterly, 2017.
6. http://kopilkaurokov.ru - O‘qituvchilar uchun sayt.
7. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ziyonet.uz

FAOLIYATLI YONDASHUV VA UNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna
Maktabgacha ta’lim kafedrasi professori v.b., PhD
Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi
NavDU, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida faoliyatli yondashuvning mazmuni, uning nazariy-metodik asoslari hamda rivojlanish psixologiyasi bilan bog’liq ilmiy manbalari tahlil etiladi. Faoliyatli yondashuv bolaning ta’lim jarayonida passiv emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlab, bilimlarni o‘yin, tajriba, mushohada, harakat va ijodiy faoliyatlar orqali mustaqil o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: faoliyatli yondashuv, maktabgacha ta’lim, bolaning rivojlanishi, yaqin rivojlanish zonasi, skaffolding, yetakchi faoliyat, Montessori metodi, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, jismoniy rivojlanish, ijodiy faoliyat, interaktiv **o‘**qitish, innovatsion pedagogika.

Abstract. This article analyzes the content of the active approach in the preschool educational process, its theoretical and methodological foundations, and scientific sources related to developmental psychology. The active approach ensures the child’s participation in the educational process not as a passive, but as an active subject, allowing him to independently master knowledge through play, experience, observation, movement, and creative activities.

Key words: activity-based approach, preschool education, child development, zone of proximal development, scaffolding, leading activity, Montessori method, cognitive development, socio-emotional development, physical development, creative activity, interactive learning, innovative pedagogy.

Maktabgacha ta’lim tizimida faoliyatli yondashuvning joriy etilishi bolalarning bilish jarayonlari, ijodkorligi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ushbu yondashuvni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim sohasida qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda bolalarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va faol kognitiv ishtirokini ta’minlaydigan interaktiv va innovatsion metodlarni joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va zamonaviy ta’lim resurslari asosida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar ham izchil davom etmoqda.

Faoliyatli yondashuvning mazkur tizimga tatbiqi bolalarning tafakkurini, tasavvurini va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali mexanizm sifatida qaralmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faol o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, guruhli mashg‘ulotlar va interaktiv metodlar bolaning nutq rivoji, emotsional-intellektual salohiyati va irodaviy sifatlarini kuchaytiradi. Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan metodikalar joriy etilayotgani bolalarning boshlang‘ich maktabga tayyorgarlik darajasini yuqori sifatli shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu omillar faoliyatli yondashuvning respublikamizda ta’lim sifatini oshirishdagi dolzarbligi va amaliy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Faoliyatli yondashuv – bu bolani ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki **faol ishtirokchisi** sifatida ko‘radigan yondashuvdir. Bu modelda bola

turli **faoliyatlar orqali** (o‘yin, tajriba, mushohada, harakat, san’at va boshqalar) bilimlarni o‘zi mustaqil ravishda o‘zlashtiradi. Ya’ni, bola “tayyor bilim” ni eslab qolmaydi, balki **faoliyat davomida uni kashf qiladi, tushunadi va amalda qo‘llaydi.**

Faoliyat – bu insonning ongli, maqsadga yo‘naltirilgan, ehtiyojlarini qondirishga, atrof-muhitni o‘zgartirishga yoki uni o‘rganishga qaratilgan tashqi va ichki harakatlar majmuidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, ushbu davr bola shaxsining kognitiv, ijtimoiy-emotsional va ijodiy salohiyati shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi [12]. Shu nuqtayi nazardan faoliyatli yondashuv (A. N. Leontev, L. S. Vygotskiy, P. Ya. Galperin ta’limotlari asosida) maktabgacha ta’ lim uchun eng samarali pedagogik konsepsiyalardan biri sifatida e’tirof etiladi [22]. Faoliyatli yondashuvning asosiy g‘oyasi bolani ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rish, ta’limni esa bolaning o‘z faoliyati orqali bilish jarayonining tabiiy shakli sifatida tashkil etishdan iboratdir [9].

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimida so‘nggi yillarda faoliyatli yondashuv konsepsiyasi keng qo‘llanilayotgani bejiz emas. Bu yondashuv bolaning mustaqil tajriba orttirishiga, kuzatish, solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish kabi intellektual ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi [14]. Ta’lim jarayonining “faoliyat” markaziga qurilishi bolaning tabiiy rivojlanish mexanizmlariga to‘la mos keladi. Chunki bolalar o‘yin, konstruktiv faoliyat, tajriba, muloqot va harakat jarayonida eng samarali bilim oladilar [3].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faoliyatga asoslangan o‘qitish bolaning bilish faolligini oshiradi, uning tafakkur jarayonlarini jadallashtiradi, shaxslararo muloqotini kuchaytiradi va ijodkorlikni rivojlantiradi.[23]. Shuningdek, faoliyatli yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, bola rivojining individual sur’atini, qiziqishlarini, psixologik ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi [5].

Faoliyatli yondashuv bolalarda bilimning tayyor shaklini qabul qilish emas, balki uni o‘z faoliyati davomida egallashni taqozo etadi [26]. Bu jarayonda ta’limning maqsadi nafaqat bilim berish, balki bilimni hosil qiladigan usullarni o‘rgatishdan iborat bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun faoliyatning quyidagi turlari ayniqsa muhim: o‘yin faoliyati, konstruktiv faoliyat, mehnat elementlari, tasviriy san’at, sensor faoliyat, nutqiy muloqot, musiqiy ritmik faoliyat va tabiiy kuzatishlar [17].

Faoliyatli yondashuv asosida bola quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi:

- **kognitiv ko‘nikmalar**: kuzatish, solishtirish, tasniflash, sabab–oqibat aloqalarini aniqlash, modellashtirish [15];
- **ijtimoiy ko‘nikmalar**: hamkorlik, navbat kutish, muloqot, jamoada faoliyat yuritish [19];
- **ijodiy ko‘nikmalar**: yangi yechimlar topish, obraz yaratish, mustaqil tasavvur qilish [20];
- **emotsional-intellektual rivoj**: hissiyotlarni boshqarish, qiyinchiliklarni yengish, motivatsiya [7].

Shu tariqa faoliyatli yondashuv bolalarning umumiy rivojlanishida integrativ ta’sir ko‘rsatadi. Bu yondashuvni qo‘llagan ta’lim muassasalarida bolalarning tafakkuri faollashgani, nutqi tezroq rivojlangani, ijtimoiy munosabatlari mustahkamlangani ilmiy kuzatishlarda isbotlangan [6].

Faoliyatli yondashuvning pedagogik shakllari

1. **O‘yin faoliyati.** O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi bo‘lib, u orqali bola ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi, fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi [21].
2. **O‘quv faoliyatiga tayyorgarlik mashg‘ulotlari.** Topshiriqlar muloqot, muammo yechish va amaliy harakatlar orqali bajariladi [4].
3. **Konstruktiv faoliyat.** Lego, qurilish kubiklari va tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning fazoviy tasavvuri va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [2].
4. **Sensor va tajriba-sinov faoliyati.** Tabiat hodisalarini kuzatish, suv va qum bilan tajribalar o‘tkazish bolalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi [8].
5. **Ijodiy faoliyatlar.** Rasm, haykaltaroshlik, musiqa va dramatizatsiya mashg‘ulotlari estetik did va obrazli tafakkurni rivojlantiradi [24].

Faoliyatli yondashuv metodlari

Muammoli vaziyat yaratish metodi – bolaning fikrlashini faollashtiradi [10].

Loyihaviy ta’lim metodi – hamkorlik, mas’uliyat, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi[16].

Konstruktiv-amaliy metod – bola amaliy harakat orqali bilim hosil qiladi [18].

O‘yinli didaktik metodlar – topishmoq va qoidali o‘yinlar motivatsiyani oshiradi [1].

Raqamli didaktik metodlar – interaktiv texnologiyalar orqali diqqat va xotirani kuchaytiradi [13].

Faoliyatli yondashuv vositalari:

Didaktik materiallar, o‘yinchoqlar, konstruktiv vositalar, texnik vositalar, sensor materiallar va tabiiy muhit resurslari bolaning bilim olishining turli kanallarini – vizual, kinestetik, audial va sensor kanallarni faollashtiradi [11].

Faoliyatli yondashuvning ta’lim sifatiga ta’siri. Faoliyatli yondashuvni amaliyotda qo‘llash natijasida bolalarning kognitiv rivojlanishi tezlashadi, nutq va muloqot ko‘nikmalari yaxshilanadi, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlik shakllanadi, ijodkorlik rivojlanadi va maktabga psixologik tayyorgarlik ortadi [25].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, faoliyatli yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasida samaradorlikni oshiruvchi eng muhim pedagogik tamoyillardan biridir. Ushbu yondashuv bolaning shaxs sifatida rivojlanishini, uning qiziqishlari, ehtiyojlari va faol ishtirokiga tayangan holda, tabiiy va ongli o‘rganish jarayonini shakllantiradi. Bola atrof-muhit bilan faol muloqotga kirishgan sari unda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, nutq va ijtimoiy ko‘nikmalar yanada tez va barqaror rivojlanadi.

Faoliyat jarayoniga asoslangan mashg‘ulotlar – o‘yin, amaliy ishlar, kuzatishlar, tajribalar va loyihalar – bolalarda bilimning hayotiy, amaliy va tushunarli shaklda shakllanishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv pedagogdan nafaqat bilim berishni, balki bolalarni faoliyatga jalb eta oladigan qulay muhit yaratishni, ularni rag‘batlantirishni va individual rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Demak, faoliyatli yondashuv maktabgacha ta’limning zamonaviy talablari bilan uyg‘un bo‘lib, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, bilimlarni ongli egallashiga va kelajakdagi o‘quv faoliyatiga mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva, O. Didaktik o‘yinlar metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Bruner, J. O‘qitish nazariyasi. – Boston: Harvard University Press, 1977.
3. Elkonin, D. B. Bolalik psixologiyasi. – Moskva: Intellekt, 2004.
4. G‘afforova, D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki o‘quv faoliyatini shakllantirish. – Toshkent: TDPU, 2020.
5. Galperin, P. Ya. Aqliy harakatlarning shakllanishi nazariyasi. – Moskva: Nauka, 1985.
6. Hasanov, K. Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish yo‘llari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
7. Izotova, N. M. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional rivoji. – Moskva: Akademiya, 2015.
8. Kolesnikova, I. A. Sensor tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Moskva: Akademiya, 2011.

9. Leontev, A. N. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva: Smysl, 2005.
10. Matyushkin, A. M. Muammoli ta’lim psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1996.
11. Montessori, M. Montessori pedagogikasi. – Rim: Montessori Press, 2002.
12. Muxamedov, M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati, 2020.
13. Nazarova, M. Maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.
14. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.
15. Piaget, J. Bolalar tafakkuri va nutqi. – Moskva: Pedagogika, 1997.
16. Polat, E. S. Loyihaviy ta’lim texnologiyasi. – Moskva: Akademiya, 2008.
17. Sayfullaeva, R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
18. Shodmonova, S. Amaliy faoliyat orqali ta’lim berish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021.
19. Smirnova, E. O. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi. – Moskva: MGU, 2012.
20. Torrance, E. P. Ijodkorlikni rivojlantirish psixologiyasi. – Nyu-York: Scholastic Press, 2009.
21. Ushinskij, K. D. Inson — tarbiya predmeti. – Moskva: Pedagogika, 1988.
22. Vygotskiy, L. S. Psixologiya va pedagogika bo‘yicha tanlangan asarlar. – Moskva: Pedagogika, 1991.
23. Xoldarova, G. Sh. Maktabgacha ta’limda faoliyatli yondashuvning qo‘llanilishi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023.
24. Xolmatova, D. Maktabgacha ta’limda ijodiy faoliyatni rivojlantirish. – Samarqand: SamDU, 2022.
25. Yusupova, N. Maktabgacha ta’lim sifat ko‘rsatkichlari va baholash tizimi. – Toshkent: Fan, 2021.
26. Zaporojets, A. V. Bolalar faoliyati va rivojlanish. – Moskva: Pedagogika, 1986.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA O‘ZBEK MILLIY TARBIYASINING OILADA TUTGAN O‘RNI.

Xaydarova Shahlo Narzullayevna NavDU,
Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b dotsenti
Raxmonova Diyora O‘tkir qizi
Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)magistranti
***raxmonovadiyora8@gmail.com*+998936619918**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar, shu jumladan sharq mamlakatlarida xususan o’zbek oilasidagi milliy tarbiyaning ahamiyati, jamiyatda va oilada tutgan o’rni ,o’zbek oilasidagi vatanga bo’lgan muhabbat tushunchalari yotritilib o’tilgan. Shuningdek maqolada o’zbek oilalaridagi ota-onaga va oilaning katta yoshli a’zolariga bo’lgan xurmat tushunchalari alohida yoritilib, farzandning oiladagi roli, va uni kelajakda komil inson bo’lib yetishida ota-onadan talab etiladigan burch va vazifalari yoritib berilgan. Farzand tarbiyasida mehr, shirinso’zlik, ijobiy muomala va sog’lom oilaviy muhitning bola kamolotiga ta’siri yoritilib, diniy-axloqiy qadriyatlar va ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiyaning asosiy omillari sifatida ko’rsatib o’tiladi. Yakuniy xulosalarda esa o’zbek milliy tarbiyasi, qadiryatlari yuksak baholanadi va kelgusida milliy tarbiyaning kelaj avlod uchun istiqbolli bo’lishi keltirib o’tiladi.

Kalit so’zlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar, oila, tarbiya, farzand kamoloti, sharq, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, ota-ona mas’uliyati, oilaviy muhit, mahalla, ta’lim-tarbiya hamkorligi, sog’lom avlod, diniy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, yoshlar ma’naviyati, ota-ona namunasi, embrion, tayanch, dravmatizm, fojia, rag’bat

Аннотация: В этой статье рассматривается значение национального образования для детей дошкольного возраста, в том числе в восточных странах, в частности в узбекской семье, его роль в обществе и семье, а также концепции любви к Родине в узбекской семье. В статье также освещаются концепции уважения к родителям и взрослым членам семьи в узбекских семьях, роль ребенка в семье, а также обязанности и ответственность, требуемые от родителей в его будущем развитии как совершенной личности. Подчеркивается влияние ласки, доброты, позитивного поведения и здоровой семейной среды на развитие ребенка в детском образовании, а также указываются религиозные и моральные ценности и личный пример родителей в качестве основных факторов воспитания. В заключительных

выводах высоко оценивается узбекское национальное образование и его возможности, а также освещаются будущие перспективы национального образования для будущего поколения.

Ключевые слова: Дети дошкольного возраста, семья, воспитание, развитие ребёнка, Восток, духовность, нравственные ценности, родительская ответственность, социальная среда, соседство, образовательное сотрудничество, здоровое поколение, религиозно-нравственное воспитание, социальное воспитание, духовность молодёжи, родительский пример, эмбрион, поддержка, драматизм, трагедия, стимул

Abstract: This article discusses the importance of national education for preschool children, including in the eastern countries, in particular in the Uzbek family, its role in society and the family, and the concepts of love for the homeland in the Uzbek family. The article also highlights the concepts of respect for parents and adult family members in Uzbek families, the role of the child in the family, and the duties and responsibilities required of parents in their future development as a perfect person. The influence of affection, kindness, positive behavior and a healthy family environment on the development of the child in child education is highlighted, and religious and moral values and the personal example of parents are indicated as the main factors of education. In the final conclusions, the Uzbek national education and its capabilities are highly appreciated, and the future prospects of national education for the future generation are highlighted.

Key words: Children of preschool age, family, upbringing, child development, east, spirituality, moral values, parental responsibility, social environment, neighborhood, educational cooperation, healthy generation, religious and moral upbringing, social upbringing, youth spirituality, parental example, embryo, support, dramatism, tragedy, incentive

Kirish: Sharqda azaldan oila ijtimoiy mohiyati bilan o’ziga xos qadriyat hisoblanadi. U avlodlar davomiyligining, shajaralar uzviyligining o’ziga xos ko’rinishidir. Ayni paytda erkak va ayolning birgalikdagi hayotiy taqdiri, saodatli turmushi, hayot farog’ati va orzu-umidlarning mo’tabar maskani hamdir. Ana shu maskan qanchalik mehrli, muhabbatli,ezguliklarga yondosh, yaxshiliklar, muruvvat va saxovatlarga asoslansa, u sog’lom va mustahkam oila muhitini vujudga keltiradi. Bu muhit o’zining ma’naviy-axloqiy yetukligi bilan erkak va ayolning o’zaro munosabatlaridagi holatdan kelib chiqib, oilani muqaddas maskanga–avlodlar va sulolalar qo’rg’oniga aylantiradi. Albatta, ikki yoshning qovushishidan iborat holat bu hali to’laqonli oila emas. Muhabbatli hayotning, birgalikdagi turmushning dastlabki ko’rinishi, xolos. Farzand tug’ilgach tom

ma’nodagi oila vujudga keladi. Farzand–oilaning mustahkam tayanchi.Maktabgacha yoshdagi bolalari bor oilalarda bola tarbiyasida milliy tarbiya, qadriyatlar orqali bolani tarbiyalash muhim o’rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning butun og’irligi-yu zavqli tomonlarini uyg’unlashtirib turadigan, ota-onani kelajakka qat’iy ishonch bilan qarashga da’vat etadigan qudratli kuchdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar kichkinaligida torgina makonning zavqi,ota-onaning kelajagi, saodatli hayotining mahsuligina, xolos. U yura boshlab, ostona hatlab ko’chaga chiqqanidan keyin ijtmoiylasha boshlaydi. Bolalarga qo’shilib, ulkan jamiyatning kichik a’zosi bo’lib qoladi. Ana shunda oilaning tarbiyaviy roli, ma’naviy-axloqiy roli oshadi.



Sharq turmush tarzi, asosan, axloqqa tayanganligi va yuksak ma’naviy ehtiyojlarni qadriyat darajasida ko’targanligi bilan alohida ajralib turadi. Oila mas’uliyati, uning ijtimoiy mohiyati xuddi ana shu bilan belgilanadi. Oila katta bo’ladimi, kichik bo’ladimi, baribir, u sonidan qat’i nazar mustaqil ijtimoiy makon sifatida o’z muhitiga, iqlimiga, ma’naviy, axloqiy ob-havosiga ega. Har bir oilaning o’z aqidalari, turmush tarzi, hayotiy ehtiyojlari mavjud. Ana shu ehtiyojlar va aqidalar turmush tarzidagi an’analar, urf-odatlar va qadriyatlarni qay darajada qabul qilgani va uning asosida o’z hayotini qurganligini ko’rsatadi. Farzand–oila tayanchi. Demak, farzand sog’lom, durkun,jismoniy biologik jihatdan benuqson tug’ilishi zarur. Ota-ona bunga intilishi shart. Zotan, oilaning fayzi, tarovati, zavqli va mehr-muhabbatli jihatlari ayni ana shu bilan o’lchanadi.Atoqli adib Chingiz Aytmatovning xulosalariga ko’ra, ikki haftalik embrion tashqi muhitni his qilar ekan. Hali odam shakliga kirmagan hujayra oila muhiti, hayot murakkabliklari, ziddiyatga to’la olam, ayniqsa, inson degan nodir, shu bilan birga, ayanchli jonzot taqdiri, hayoti haqida fikr yuritar ekan. Ayrim holatlarda o’n besh kunlik murtak odam o’lib tug’ilsammikan yoki tug’ilmasammikan, degan fikrga borar ekan. Bu–dramatizm. Bu–inson degan mubham olamning fojiaviy qismati. Oila esa ana shudardli qismatni ezgulikka yo’naltiruvchi mo’jizaviy makon. Darhaqiqat, inson hayoti hech qachon tugal bo’lmagan, bo’lmaydi ham. Shuning uchun donishmandlar bu dunyoni biri kam deb atashgan. Lekin ana shu biri kam, hech qachon tugal bo’lmaydigan, muammolarga, kelishmovchiliklarga, iztiroblarga to’la bu dunyoda hayotini mazmunli o’tkazishga, o’tayotgan kunidan rozi bo’lib, hayot zavqi, shavqi va mehr-muhabbatli jihatlarini chuqur his qilgan oila baxtli oila hisoblanadi. Ana

shu holatning butun mohiyati, ko’lami va mazmunini anglashning o’zi kishini saodatga eltguvchi buyuk qudrat, ma’rifiy kuch, ma’naviy rag’batdir.

Sharq mamlakatlarida oila vatanga tenglashtirilib, muqaddas dargoh sanalgan. Shu sababli o’zbek oilasida ham milliy tarbiya berish jarayonida vatanning va ota-onaga bo’lgan xurmatning o’rni beqiyos hisoblanadi. O’zbek oilasida Yoshi ulug’ bobo va buvilarning pand nasihatlari alohida ahamiyatga ega va qadriyat tuyg’usiga aylangan. Shuning bilan birgalikda o’zbek oilasida onaga bo’lgan mehr muhabbat farzandlar qalbidan chuqur joy oladi. Otaning so’zi va nasihatlarini ikki qilmaslik, oilada to’ng’ich farzandning na’muna qilib ko’rsatilishi, oiladagi keying farzanlarning esa o’zidan katta bo’lgan aka-opalariga xurmatda bo’lishi ham muhim hisoblanib kelinadi. O’zbek milliy tarbiyasida mahalla, qo’ni-qo’shnichilik, qarindoshlik rishtalarini mustahkam qilish milliy tarbiyaning muhim qismi sanaladi. O’zbek milliy tarbiyasiga ko’ra: inson oila muhitidan chiqib jamoaga qo’shiladi, qo’ni-qo’shnilar orasida, ya’ni mahallada unib-o’sadi. Bu o’z navbatida, tarbiyalanuvchilarda vatanparvarlik, milliy g’urur, iftixor tuyg’ularining shakillanishiga xizmat qiladi, ularni yagona ezgu g’oya va mafkura asosida birlashishga undaydi.

Xulosa va takliflar: Maktabgacha yoshdagi bolalari bo’lgan o’zbek oilalaridagi milliy tarbiy aynan vatan uchun kerakli,fidokor insonlarni tarbiyalash kerakli ota-ona uchun eng muhim jarayon etib begilanganligini ko’rishimiz mumkin. Farzand tarbiyasida qadriyatlarni o’rni beqiyos ekanligi va bu qadriyatlar avloddan avlodga o’tib kelayotganligi esa tahsinga sazovor deb hisoblayman.Nafaqat maktagacha yoshdagi bolalar balki o’smir yoshdagi bolalarning ham tarbiyasida ham milliy tarbiyaning o’rni beqiyosdir. Milliy tarbiyaning qadimdan bizlarga ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan andozasi sayqallanib go’zallashib borishi biz ota-onalarning qo’lida ekanligiga amin bo’lamiz.Milliy tarbiya nafaqat o’zbek oilasida balki butun jahon bolalariga ijobiy qadiriyat sifatida yetkizib berilsa hech bir inson o’z yo’lidan adashmaydi deb hisoblayman Buning uchun ota-onalardan bilim, salohiyat , mehr-muhabbat talab etiladi xalos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta’lim to’g’risida. O’zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O’zbekiston, 2020.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O’zbekiston, 2017.

3. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishlari bo’yicha harakatlar strategiyasi// https://www.lex.uz.

4. 2022 — 2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// https://www.lex.uz.

5. Vohidova N.X., Mirzayeva F.O. Ijtimoiy predagogika. Darslik.–T.: Sanostandard 2022

6. Курбанова В. (2023). O‘zbek oilasidagi milliy tarbiya mazmuni . *Цифровизация современного образования: проблема и решение*, *1*(1), 204–206. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24753

7. Ишқуватов В, Толипов Ф. Маҳалла: ўтмишда ва бугун.- Т., 2014. - б.20.

8. Толипов Ф.Нурота воҳаси аҳолиси оилавий турмиш тарзида жамоа анъаналари (хIх—асрохири—хх аср бошлари) Тарих фан. Номз.—диссертация. -Тошкент, 2006.-б 54.

❁❁❁❁❁

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA MADANIY GIGIYENA QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qarshiyeva Muhayyo Abduxalil qizi
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarda madaniy gigiyena qoidalarini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Gigiyena, madaniy-gigiyena ko‘nikmalar, madaniy xulq-atvor, o‘z-o‘ziga xizmat, o‘quv-didaktik, hissiy munosabat.

Аннотация: В данной статье научно обоснованы теоретические и практические основы совершенствования правил культурной гигиены у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Гигиена, культурно-гигиенические навыки, культурное поведение, самообслуживание, учебно-дидактические, эмоциональный настрой.

Abstract: In this article, the theoretical and practical foundations of improving the rules of cultural hygiene in children of preschool age are scientifically justified.

Key words: Hygiene, cultural-hygienic skills, cultural behavior, self-service, educational and didactic, emotional attitude.

Sog‘lom va bilimli yosh avlod tarbiyasi - davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanganligini ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘sib kelayotgan yosh avlodning barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishishlarini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda madaniy-gigiyena ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish – bu sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biridir.

Hayotning dastlabki kunlaridan boshlab madaniy va gigiyena mahoratini shakllantirishda nafaqat qoidalar va normalarni o‘rganish, balki juda katta ijtimoiylashuv jarayoni, bolaning kattalar dunyosiga kirishidir. Ushbu jarayonni keyinroq boshlash mumkin emas, erta va maktabgacha yoshdagi bolalik davrida madaniy va gigiyena malakalarini shakllantirish uchun eng maqbul bo‘ladi. Keyinchalik, ularga asoslangan boshqa funksiyalar va fazilatlar ishlab chiqilgan [1]. Maktabgacha yoshdagi bolalar orasida o‘zini-o‘zi ta’minlash va madaniy xulq-atvorni rivojlantirish jamiyatdagi muvaffaqiyatga moslashuv va sog‘liklarini himoyalash vazifalaridan biridir.

Madaniy-gigiyena malakalarini muvaffaqiyatli shakllantirish quyidagi vazifalar bilan hal etiladi:

- madaniy gigienik mahorat va o‘z-o‘ziga xizmat qilish mahoratini oshirish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- bolalarni mustaqil bo‘lishga rag‘batlantirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarda madaniy va gigiyena ko‘nikmalarini tarbiyalash uchun o‘quv-didaktik yordam kompleksi bilan mavzuni rivojlanayotgan muhitni ta’minlash;

- maktabgacha yoshdagi bolalarda gigiyena va o‘zini o‘zi parvarish qilish ko‘nikmalarini tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik mahoratini oshirish [2].

Bolalar bilan kundalik ish jarayonida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish ular uchun tabiiy bo‘lib qolishi va gigiyenik ko‘nikmalar takomillashtirilishini ta’minlashga intilish kerak.

Ko‘nikmalar - bu bolaning erishgan bilimlari asosida muayyan harakatlar qilish qobiliyatidir. Qobiliyat - ko‘p takrorlash va mashqlar natijasida shakllangan avtomatlashtirilgan harakat. Odatning odatiy holga o‘tishiga ma’lum bir xil yoki o‘xshash sharoitlarda muntazam ravishda takrorlash orqali erishiladi.

Ko‘nikmalarni farqli o‘laroq, odatdagi xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini emas, balki uni amalga oshirishning haqiqatini ta’minlaydi. Majburiyatga aylangan ko‘nikma odatdir. Farzandlar tomonidan sotib olingan odatlar, uzoq vaqtdan beri davom etmoqda va xalqning hikmati, ikkinchi turdagi kabi, aylanib boradi. Qabul qilingan odatlar mohiyatli va qayta o‘qitish uchun qiyin bo‘ladi [1].

Bolalarni madaniy-gigiyena malakasini shakllantirish tamoyillariga quyidagilar kiradi: tizim yondashuvi; muntazamlik va uzluksizlik; bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganishning rivojlanish xarakteri; tarbiyachi va ota-onalarning madaniy va gigiyena malakalarini shakllantirishga yondashuvining yaxlitligi. Odatlar va ko‘nikmalarning shakllanishi kattalar va butun atrof-muhitning bevosita pedagogik ta’siri ostida amalga oshiriladi. Ko‘nikma va odatlarning mustahkamligi, moslashuvchanligi bir qator omillarga bog‘liq: shartlar, bu ishni o‘z vaqtida bajarish, bajarilgan harakatlarga bolaning hissiy munosabati, muayyan harakatlarda bolalarni muntazam ravishda amalga oshirish [2].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning yangi mas’uliyatlari, yangi narsalar, bolalarning yangi turlarini egallashi kerak bo‘lgan yangi mahorat, odatlarning shakllanishiga alohida e’tibor beriladi. Shu bilan birga, bolalar nafaqat o‘zlari xohlagan narsani emas, balki zarur bo‘lgan narsalarni ham bajarishadi, turli tabiatdagi qiyinchiliklarni yengishadi [3]. Madaniy-gigiyena ko‘nikmalari odatda maktabgacha yoshda shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni madaniy gigiyena qoidalariga o‘rgatib borishda quyidagi omillarga e’tibor qaratiladi:

Shaxsiy gigiena. Qo‘llarni ovqatlanishdan oldin, hojatxonaga borgandan keyin va ifloslanganda yuvish. Faqat individual (o‘zining) taroqdan foydalangan holda taranib yurishni bilish. Uyqudan oldin va keyin tishni mustaqil ravishda tozalash. Ovqatdan keyin og‘iz va tomoqni chayish. Qattiq jismlarni tishlamaslik.

Ovqatlanish gigiyenasi. To‘g‘ri ovqatlanish tartibiga rioya qilish. Sanchqi, qoshiqdan foydalana bilish. Tartibli ovqat yeyish, sochiqdan foydalanish. Oshxona jihozlari, sochiqdan to‘g‘ri foydalana olish, tartibli ovqatlanish, ovqat vaqtida gavdani to‘g‘ri tutish. Tayyorlov va katta guruh bolalari idish-tovoqlarni stoldan yig‘ishtirib olishda tarbiyachiga yordam berish.

Mustaqillikni namoyon qila bilish. Batartiblik, hamisha chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lish ishtiyoqi. Kiyimlarni tartibli ravishda yechib, ularni joyiga osib qo‘yish. O‘ng va chap oyoq poyabzallarini farqlay bilish, ularni to‘g‘ri kiyish. Ko‘zguga qarab kiyimlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, dastro‘moldan to‘g‘ri

foydalana olish. Xonada tartib va ozodalikni saqlash, kiyimlarni toza va tartibli kiyish. y

O‘ziga xos gigiyena. Shamollatilgan xonada toza o‘rin – ko‘rpada uxlash. Ertalab badantarbiya mashqlarini bajarish, suv muolajalari bilan shug‘ullanish. Uyqu chog‘ida qo‘llarni ko‘rpa ustiga chiqarib yotish. Ichaklarni va qovuqni o‘z vaqtida bo‘shatib, hojatxonadan batartib ravishda foydalanish. Burunni toza saqlash. Qo‘l, oyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarni farqlashga odatlantirish.

Tirnoqlarni tishlamaslik, qalam va boshqa buyumlarni og‘ziga solmaslik. Barmoqlar, til, soch tolalarni so‘rmaslik [4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshidagi bolalarda madaniy gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirishda ota-ona va tarbiyachilardan katta ma’suliyatni talab qiladi. Biz bolalarni go‘dakligidan boshlab madaniy gigiyena va sog‘lom turmush tarziga o ‘rgatib borishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно-оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях. Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112).

2. Громбах С.М. Гигиеническое обоснование норм температури воздуха в учреждениуах для детей раннего возраста. М., 2014.

3. O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi, T- 2022 y.

Sanayeva S.B., Xaydarova Sh.N. “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish”. Toshkent.:-2023. “Bookman print” nashriyoti. Darslik.

KOUCHING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

O‘zbekiston.Xaydarova Shaxlo Narzullayevna,
Navoiy davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b. dotsenti
Turdiyeva Ra’no Qulmurod qizi
NavDU,Ta’lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kouchingning tarixiy ildizlari, shakllanish jarayoni va uning zamonaviy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Kouching tushunchasining kelib chiqishi, psixologiya va pedagogika yo‘nalishlari bilan integratsiyalashuvi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqolada kouchingning inson salohiyatini ochishda samarali vosita sifatida shakllanib, mustaqil ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida rivojlanib borayotgani yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: kouching, kouching tarixi, rivojlanish bosqichlari, kouching metodlari, shaxsiy rivojlanish, pedagogik kouching, kouching nazariyasi, psixologik yordam.

Abstract: This article analyzes the historical roots, formation process, and modern development stages of coaching. The origin of the concept of coaching, as well as its integration with the fields of psychology and pedagogy, is explained based on scientific sources. The article highlights how coaching has evolved into an effective tool for unlocking human potential and is increasingly developing as an independent scientific-practical discipline.

Keywords: Coaching, history of coaching, stages of development, coaching methods, personal development, pedagogical coaching, coaching theory, psychological support.

Kouching tarixi va rivojlanish bosqichlari ilmiy manbalarga ko‘ra qadimgi yunonlardan kelib chiqqan, ammo bu atamaning o‘zi 19-asr oxirida Angliyada sportchilar faoliyati ya’ni murabbiyligi bilan bog‘liq tarzda paydo bo‘lgan. O‘tgan asrning 80-yillarida bu atama shaxsiy rivojlanish sohasiga asta-sekinlik bilan kirib keldi va hozirda biznes, pedagogik faoliyat hamda shaxsiy hayotda ham muhim o‘rin tutmoqda. Kouching tushunchasi tarixan uzoq yillar davomida shakllangan bo‘lib, uning mazmuni va qo‘llanish sohalari vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada rivojlangan. Etimologik manbalarda qayd etilishicha, “coach” atamasi dastlab XV asrda Yevropada paydo bo‘lgan bo‘lib, ot qo‘shilgan arava nomi sifatida ishlatilgan. Mazkur arava Vengriyaning Budapesht shahridan taxminan 70 km uzoqlikdagi Kocs qishlog‘ida ishlab chiqarilganligi sababli ushbu nom bilan atalgan. Keyinchalik bu atama shaharlararo yo‘lovchi tashiydigan transport

vositalarining umumiy nomiga aylangan.[2] Hozirgi ingliz tilida ham uzoq masofali avtobuslar “coach” deb yuritilishi aynan tarixiy mazkur qo‘llanma bilan bog‘liq. “Coach” so‘zining zamonaviy ma’noda ilk bora oldinga rivojlanishi XIX asrga to‘g‘ri keladi. Etimologik lug‘atlarga ko‘ra, 1830-yilda Oksford universitetida talabalarga imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rishda yordam beruvchi o‘qituvchilarga metaforik ravishda “coach” deb murojaat qila boshlangan. Bu yerda arava singari “talabani bir darajadan boshqasiga yetkazuvchi shaxs” ma’nosi nazarda tutilgan. 1861-yildan boshlab atama sport sohasi uchun ham qo‘llanila boshlagan va murabbiyning o‘yinchi rivojiga yo‘naltirilgan faoliyatini bildirgan.

Kouchingga oid dastlabki ilmiy kuzatishlardan biri sifatida Gorbyning 1937-yilda olib borgan tadqiqoti ko‘rsatiladi. Unda tajribali ishchilar tomonidan yangi xodimlarga samaradorlikni oshirish, resurslar isrofini kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonini tartibga solishga doir ko‘rsatmalar berilgani tasvirlangan.[3] Bu olib borilgan ilmiy ish esa kouchingning dastlabki amaliy shaklini tashkil etadi.

Kouching hali rasmiy ta’rifga ega bo‘lmagan bir davrlarda rahbarlar turli maktab va treninglarda muloqot madaniyati, boshqaruv psixologiyasi va xulq-atvorni boshqarish bo‘yicha turli bilimlar olgan. Ilmiy manbalarda keltirilishicha 1970-yillarga kelib rahbarlar uchun intensiv ta’lim dasturlari kengaya boshladi. 1980-yillar esa yirik korporatsiyalarning, xususan General Electricning, rahbarlar kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar bilan ajralib turadi. Shu davrda 360 darajali qayta aloqa modeli keng ommalashgan bo‘lsa-da, rivojlanish jarayonini tizimli kuzatishga oid metodologiya hali shakllanmagan edi. 1971-yildan e’tiboran kouchingni o‘qitish va uning tamoyillarini ishlab chiqishga doir dastlabki ilmiy ishlar boshlangan. Kouching atamasini bugungi zamonaviy talqinda qo‘llagan shaxs sifatida Tomas Leonard tilga olinadi. U keyinchalik jahonning eng yirik kouching tashkilotlaridan biri Xalqaro Kouching Federatsiyasi (ICF)ni tashkil etgan.

Kouching g‘oyasining keng tarqalishida Tim Gallweyning 1974-yilda chop etilgan “The Inner Game of Tennis” (“Tennisning ichki o‘yini”) nomli asari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda sportchilar o‘z ichki potensialini ro‘yobga chiqarishning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Kitobning biznesga moslashtirilgan varianti — “The Inner Game of Work” — kouching yondashuvlarining ish jarayonlariga tatbiq etilishiga katta turtki bergan.[4]

[2] https:\\wisefull.org Kaynak: U. Ahmet Tarakçı “Örgütlerde Öz-Yeterlilik Algısı ve Bunun Performans ile İlişkisi: Kişisel Profilin Düzenleyici Rolü ve Koçluk Hizmeti Alan Çalışanlar Üzerine Bir Araştırma”

[3] Yuqoridagi manba

[4] https:\\google.com

Kouchingning akademik darajada rivojlanishi nuqtayi nazaridan, Turkiyada birinchi bor 2017-yilda Altınbaş universiteti “Rahbarlik kouchingi va mentorlik” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura dasturini taqdim etdi. Shuningdek, turli universitetlarning doimiy ta’lim markazlari tomonidan kouching bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yilgan.[5]

Qadimgi yunonlar “Sokrat” uslubi orqali savol-javob orqali shogirdlariga bilim berishgan, bu kouchingning ilk ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.

Kouching tarixi va rivojlanish bosqichlari:

Kouching rivojlanish bosqichlari 4ta davrni o‘z ichiga oladi.

1. Boshlang‘ich davr (Qadimgi Yunoniston):

Qadimgi yunonlar Sokrat uslubi orqali savol-javob yordamida o‘z shogirdlariga bilim berishgan. Bu bilimlar ularning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Shu sababli kouchingning ilk ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

2. Sport murabbiyligi (19-asr oxiri):

Kouching so‘zi dastlab Angliyada sport murabbiyligida qo‘llanilgan.

Bu davrda sportchilarning natijalarini yaxshilash maqsadida murabbiylar qo‘llagan usullar tizimi sifatida shakllana boshlagan.

3. Shaxsiy rivojlanishga o‘tish (20-asr o‘rtalari – 80-yillar):

Kouching “shaxsiy rivojlanish” sohasi sifatida paydo bo‘la boshladi.

Bu davrda shaxsiy salohiyatni ochish, maqsadlarga erishish va muvaffaqiyatga yetish uchun murabbiylik usullaridan foydalanila boshlandi.

4. Hozirgi davr kouchingi (20-asr 80-yillari va hozirgacha):

Kouching dunyo miqyosda keng yoyildi. Bunga sabab shundaki kouching insonlarni pedagogik faoliyatda, beznisda,sportda hamda shaxsiy hayotda rivojlanishlari uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kouchingning tarixiy taraqqiyoti uning dastlabki amaliy ko‘nikmadan murakkab, ilmiy asoslangan va malaka talab etuvchi kasbiy faoliyatga aylanganini ko‘rsatadi. Zamonaviy kouching o‘z mazmun-mohiyatini turli sohalar — psixologiya, menejment, ta’lim, sport va biznesning integratsiyasi orqali boyitib kelmoqda. Kouching endilikda faqat “qanday bo‘lish kerak”, “nima qilish kerak” degan savollarga javob bo‘libgina qolmay, balki shaxsning ichki salohiyatini rivojlantirish orqali o‘ziga manfaatli bo‘lgan yo‘lni tanlashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Nurumbekova Yarkinoy Anarmatovna. Kouching tayyorlash va kouching o‘tkazish istiqbollari. Monografiya. Toshkent “NIF MSH” -2023

[5] https:\\ Wisefull.org

Internit saytlari

1. https:\\wisefull.org Kaynak: U. Ahmet Tarakçı “Örgütlerde Öz-Yeterlilik Algısı ve Bunun Performans ile İlişkisi: Kişisel Profilin Düzenleyici Rolu ve Koçluk Hizmeti Alan Çalışanlar Üzerine Bir Araştırma”
2. https:\\google.com
3. https:\\ blog.milliyet.com

BOLALARNING JAMOAVIY FAOLIYATINING XUSUSIYATLARINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATDAN ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi "Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarning jamoaviy faoliyatining xususiyatlarini pedagogik-psixologik jihatdan aniqlashning nazariy asoslari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, jamoada ishlash, pedagogik-psixologik, jamoaviy faoliyat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega bo’lib, bunda jamoa tushunchasi, jamoada ishlash ko‘nikmalari mazmuni, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarining jamoaviy faoliyatining xususiyatlarini pedagogik-psixologik jihatdan aniqlashtirish hamda tahlil etishni lozim deb hisoblaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jamoaviy munosabatlar bolalar jamoasi sharoitida rivojlanadi, bu esa ushbu kontseptsiyani o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Pedagogika va psixologiyada jamoa muammosining fundamental nazariy va amaliy ishlanmalari A.S.Makarenkoga tomonidan o'rganilgan.

“Jamoa” tushunchasi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda o’ziga xos xususiyatga ega bo’lib, bu yoshda jamoaga har doim kattalar rahbarlik qiladi. Bunda u bolalarning harakatlarini ma’lum tomonga yo’naltiradi, boshqaradi, faoliyatda umumiy natijalarga erishishda har bir bolaning jamoadagi roli to’g’risidagi tasavvurlarini shakllantiradi, bolalarning birgalikdagi faoliyati va umumiy kechinmalari bolalar jamoasining tashkil topishida asosiy shart-sharoit hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jamoaviy munosabatlarining rivojlanishi yoshga bog'liq rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolaning muloqoti va faoliyatining rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq. Chegaralari uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan yoshni qamrab oladigan maktabgacha yosh - bu erta bolalik davrida shakllangan shart-sharoitlarga asoslangan psixikaning intensiv shakllanish davri hamdir. Aqliy rivojlanishning barcha yo'nalishlarida turli xil zo'ravonlikdagi neoplazmalar yuzaga kelib, ular ko'plab omillar tufayli rivojlanib boradigan yangi va tizimli xususiyatlar bilan tavsiflanadi: nutq – kattalar va tengdoshlar bilan muloqot, bilishning turli shakllari va turli xil faoliyat turlariga qo'shilish - o'yin va uy xo'jaligida yordamlashishga intilish. Psixofiziologik funksiyalarning rivojlanishidagi neoplazmalar bilan bir qatorda, individual tashkilot asosida psixikaning murakkab ijtimoiy shakllari paydo bo'ladi, masalan, shaxs va uning tarkibiy elementlari, aloqa, bilish va faoliyat subyekti va ularning asosiy tarkibiy qismlari - qobiliyatlar va moyilliklar.

Tarbiyalanuvchilarning jamoaviy faoliyati mazmuni, uning o’ziga xos xususiyatlarini tahlil etish jamoaning shakllanish bosqichlariga e’tibor qaratishni ham talab etadi. Sh.Sodiqovaning “Maktabgacha pedagogika” nomli darsligida maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar jamoasini shakllantirish uch bosqichdan iborat ekanligi ta’kidlanadi: avvaliga birgalikdagi faoliyat ko’pincha o’yin bilan bog’liq bo’lgan faoliyatga birlashadi. Bu birlashish beqaror, qisqa vaqtli bo’lib, bunday dastlabki birlashish tashkilotchisi tarbiyachidir; ikkinchi bosqich - bolalar guruhining barqaror bo’lishini taminlashni nazarda tutib, tarbiyalanuvchilarning ancha mustaqil hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi bilan xususiyatlanadi. Birgalikdagi faoliyatni murakkab maqsadlari oldindan suriladi – o’yin va mehnatga o’rgatib boriladi. Bu bosqichda tarbiyachining vazifasi bolalarda tashkilotchilik qobiliyatini shakllaktirishdan iborat; bolalar jamoasining yuqori bosqichi ularda mustaqillik sifatlarining ortishi bilan belgilanadi: o’zlari birlashadilar, o’zaro munosabatlarni boshqaradilar, ayrim jamoa a’zolari xulqini o’zlari to’g’rilashda ishtirok etadilar. Bu bosqichda o’zini jamoa a’zosi sifatida anglab olish yuzaga keladi. Bolalar vaqti-vaqti bilan hamma uchun kerak bo’lgan topshiriq va vazifalarni bajarishadi (navbatchilik, jonivor va o’simliklarni parvarish qilish, bayramga guruh xonasini bezatish), tarbiyachining tutgan yo’li ham o’zgaradi, u bevosita ta’sir ko’rsatishdan bilvosita ta’sir ko’rsatishga o’tadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar jamoasini shakllantirish bosqichlarida tarbiyalanuvchilarning yosh davrlari xususiyatlari, ulardagi borliqni anglashning yetakchi faoliyati hamda individual psixologik xususiyatarini hisobga olish jamoaviy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “MAKTABGACHA TA’LIM VA TARBIYANING DAVLAT STANDARTINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA”gi 802-son Qarori. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari (1-ilova) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda.

3. Хонхожаева M.R. МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ИЖТИМОИЙЛАШУВИДА ЖАМОАНИНГ ЎРНИ // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. 2022. №5. 443 б. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalar-izhtimoiylashuvida-zhamoaning-rni (дата обращения: 01.03.2023).

4. Davletshin M.G., Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyeva .Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O'quv metodik qo’llanma. T.: 2004. 118 b.

❁❁❁❁❁

MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING KOMPYUTER SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA O`YINLARDAN FOYDALANISH

Ostanaqulova Nozima Vohid qizi
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta`lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining elementar kompyuter savodxonligini shakllantirishda kompyuter o`yinlardan foydalanish mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Maktabgacha ta`lim, kompyuter texnologiyasi, kompyuter savodxonligi, analogiya, modellashtirish, sichqoncha, klaviatura qurilmasi, printer qurilmasi, multimedia texnologiyalari.

Аннотация: В статье рассматриваются механизмы использования компьютерных игр в формировании элементарной компьютерной грамотности детей в дошкольном образовании.

Ключевые слова: Дошкольное образование, компьютерные технологии, компьютерная грамотность, аналогия, моделирование, мышь, клавиатура, принтер, мультимедийные технологии.

Annotation: This article discusses the mechanisms of the use of computer games in the formation of elementary computer literacy of children in preschool education.

Keywords: Preschool education, computer technology, computer literacy, analogy, modeling, mouse, keyboard, printer, multimedia technology.

XXI asr-aql va zakovat, fan va texnika asri, inson faoliyatining barcha jihatlarini jadallik bilan qamrab olmoqda. Xususan, bugungi kunda kompyuter texnologiyasi barcha ta’lim muassasalariga, shu jumladan maktabgacha ta`lim tashkilotlariga ham kirib keldi. Ta’lim tizimida o’z dolzarbligini yo’qotayotgan hozirgi an’anaviy ta’lim shaklini yangi shakllar, jumladan kompyuterli ta’lim egallamoqda. Shuning uchun ham Respublikamiz kelajagi bo’lgan maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonliklarini shakllantirishga katta e`tibor qaratilgan.

Bu borada Respublikamizdagi ko’pgina MTTlarda olib borilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarida kompyuterlardan foydalanish yaxshi samara berishini isbotlamoqda. Kompyuterlardan faqat ta’lim vositasi sifatida emas, balki tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashini, fikrlashini va xotirasini rivojlantiradigan mantiqiy o’yin vositasi sifatida ham foydalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

MTT tarbiyalanuvchilariga elementar kompyuter savodxonliklarini shakllantirishda turli usullaridan, masalan analogiya va modellashtirish usulidan foydalanish mumkin. Bu usullardan foydalanilganda kompyuterning tashqi qurilmalarini o’rganish va ulardan foydalanib amaliy ishlarni bajarish oson kechadi. O’rganish jarayoni esa, bosqichma-bosqich amalga oshirilib, oddiy usullardan boshlanadi, so’ngra murakkablariga o’tiladi.

Analogiya – kompyuterlarni televizor bilan taqqoslash asosida olib boriladi (hozirgi davrda barcha MTTlarda va har bir oilada televizorlar mavjud).

Tashqi o’xshashlik:

1. Tarbiyalanuvchilarga kompyuterda televizor ekraniga o’xshash ekran borligi ta’kidlanadi.

2. Televizor ham, kompyuter ham ishlatish oldidan elektr tarmog’iga ulanadi (tarbiyachi yoki pedagog bir vaqtning o’zida ko’rsatib boradi).

3. Televizor antenna yordamida telemarkazdan yuborilayotgan tasvirlarni (ma’lumotlarni) qabul qiladi. Kompyuter esa, uning xotirasiga kirgiziladigan ma’lumotlar va axborotlarni qabul qiladi.

4. Televizor maxsus pultlar orqali boshqariladi (kanallar va tovush o’zgartiriladi). Kompyuter esa, maxsus tugmachalar va «Sichqoncha» orqali boshqariladi. Bularni ham tarbiyachi bir vaqtning o’zida ko’rsatib boradi.

5. Televizorda DVD qurilmasi vositasida kompakt disklardagi tasvirlarni qayta ko’rsatish mumkin. Kompyuterlarda esa, kompakt disklardan tashqari, xotirasiga kiritilgan tasvirlarni qayta ko’rsatish mumkin.

6. Televizorda yozuv ishlarini bajarib bo’lmaydi, kompyuterda esa, klaviatura yordamida yozuvlarni yozish mumkin (tarbiyalanuvchilarga klaviatura qurilmasi ko’rsatiladi). Printer qurilmasi esa, uni chop etib beradi (printer qurilmasi ham ko’rsatiladi). Televizor ekranida tasvir yuboruvchi markaz yuborayotgan turli xil o’yinlarni, masalan, stadiondan futbol o’yinini ko’rish mumkin.

Ma’lumki, MTT tarbiyalanuvchilariga elementar kompyuter savodxonligini shakllantirish deganda, yuqoridagilardan tashqari, ularning amaliy faoliyatlari va kompyuterda ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda amaliy malakalarini shakllantirish ko’zda tutilgan. Tabiiyki, ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda tarbiyalanuvchilarni klaviaturadan yoki «Sichqoncha” qurilmasi yordamida ishlab dastlabki ko`nikmalarni shakllantirish kerak. Bu esa quyidagicha amalga oshiriladi:

MTT sharoitida klaviaturaning kattalashtirilgan modeli va «Sichqoncha»ning o’ziga o’xshash modeli tayyorlanadi. Tarbiyachi dastavval tarbiyalanuvchilarni klaviatura modelida mashq qildiradi. Jumladan, harflarni va kompyuterni boshqarishga tegishli tugmachalarni birin-ketin bostirib chiqadi va tushuntirib boradi. So’ngra, tarbiyalanuvchilar «Sichqoncha» modeli bilan mashq qiladilar. Bunda «Sichqoncha» modeliga ulangan ko’rsatkichlar kompyuter ekraniga o’xshash va vertikal joylashtirilgan taxtaning tarbiyachi belgilab bergan nuqtalariga olib boriladi. Shundan keyin, tarbiyalanuvchilar tarbiyachi yoki pedagog nazorati ostida haqiqiy klaviaturada va «Sichqoncha» bilan ishlashga o’tadilar. Dastlab klaviaturada biron-bir harfni, masalan „A” harfiga mos tugmani bosib, uni kompyuter ekranida hosil qilish bo’yicha mashqni bajaradilar va ekrandagi harflarni printerdan chiqarib oladilar.

MTT tarbiyalanuvchilarida kompyuter savodxonliklarini shakllantirishning yana bir qulay tomoni shundan iboratki, multimedia texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilimlarini baholash ham kompyuterga kiritilgan test savollari, rasmlar, o’yinlar, mashqlar, taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Bu

holda tarbiyalanuvchilar ularga qo’yilgan savollarga to’g’ri javob topishlari shart. MTTlarda masofali ta’lim texnologiyasidan foydalanish jarayonida ham kompyuterdan foydalanish qo’l keladi. Internetdan foydalanish tarbiyachining bevosita nazorati va ko’rgazmasi asosida o’tkaziladi.

Kompyuterli mashg’ulotlar an’anaviy mashg’ulotlarga nisbatan qiziqarli o’tadi, hatto faol bo’lmagan tarbiyalanuvchilar ham kompyuterli mashg’ulotlarga faol qatnashadilar.

MTTlarda multimedia texnologiyalari asosida kompyuterli ta’limiy va rivojlantiruvchi o’yinlardan ham foydalanish mumkin. Bu o’rinda shuni ta’kidlash kerakki, kompyuterli ta’limiy va rivojlantiruvchi o’yinlar didaktikaning barcha qonun va qoidalariga rioya qilgan holda o’tkaziladi.

Hozirgi davrda kompyuterlar turli xil o’yin dasturlari bilan ta’minlangan. Kompyuter o’yinlarini esa, kattalar ham, bolalar ham o’ynamoqdalar. Kompyuterli o’yinlarni bir necha turlarga ajratish mumkin, jumladan:

1. Kompyuterli ta’lim o’yinlari.
2. Kompyuterli rivojlantiruvchi o’yinlar.
3. Boshqotirma o’yinlari.
4. Dam olish o’yinlari.
5. Stol ustida o’ynaladigan o’yinlar (shaxmat, shashka).
6. Harbiy mashqlarni ko’rsatadigan o’yinlar.
8. Yakka kurash, ta’qib, qochish o’yinlari
9. Avantyura o’yinlari.
10. Konveyrli o’yinlar.
11. Konstruksiya (yig’ish) – harakat o’yinlari.
12. Muloqotli-anglash o’yinlari.
13. O’quv-texnologik o’yinlar.
14. Sport o’yinlari.
15. Boshqaruv-iqtisod o’yinlari va boshqalar…

Quyida, MTTlarda qo’llaniladigan ta’limiy, rivojlantiruvchi va dam olish kompyuter o’yinlarining psixologik-pedagogik jihatlaridan ba’zi birlarini ko’rib chiqamiz:

Kompyuterli didaktik o`yinlar. Ta`lim – tarbiya jarayonida AKTni kiritish zamonaviy maktabgacha pedagogika sohasidagi dolzarb muammolardan biridir. Axborotlashtirish texnologiyalarini doimiy takomillashtirish sharoitida ta`lim sohasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, elektron shaklda ko`proq ma`lumot bolalarning hayotiga kirib boradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida kompyuterdan foydalanish nafaqat ushbu texnologiyalarning maqsadga muvofiqligi, balki bolaning intellektual va shaxsini

rivojlantirishda kompyuterning alohida roli katta hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim tashkilotida AKTdan foydalanish bolaning maktabga tayyorgarligini ta`minlaydigan psixofiziologik funksiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Ta`lim motivatsiyasini shakillanishi, kognitiv faoliyat tarkibiy qismlarining rivojlanishi (mustaqillik, kognitiv faoliyat); yoshga mos keladigan qobiliyatlarni shakillantirish; ijtimoiy va mavzu – makon muhitini rivojlantirish uchun qulay.

Kompyuterli o`yinlarning pedagogik- psixologik jihatlari. Kompyuterli didaktik o`yinlarning pedagogik jihatlaridan biri ularning ta`limiyligidir. Tarbiyalanuvchi o`yin davomida bir vaqtning o`zida ham o`yinda ishtirok etadi, ham ma`lum bir darajada ta`lim oladi. Ayrim o`yinlarda bilimlar mashqlar orqali namoyish qilinadi. Masalan, shakllarni ustma-ust qo`yish o`yinida, birinchidan, o`yin vazifasi bo`yicha bola shakllarni ustma -ust qo`yish natijasida qanday shakl hosil bo`lishini topsa, ikkinchidan, tarbiyachining topshirig`i bo`yicha shakllar sonini sanab berishni, shakllar qanday ko`rinishda ekanligini va ularning nomlarini aytishni, ranglarni ajratib berish vazifalarini bajaradi (ta`limiy jihati). Bundan tashqari, tarbiyalanuvchi “sichqoncha”dan foydalanib kompyuterda ishlash malakasini hosil qiladi va kompyuter savodxonligini oshiradi. Demak, kompyuterli didaktik o`yinlar ta`lim bilan bevosita bog`liq bo`lib, ta`lim jarayonini amalga oshirishga yordam qiladi.

Kompyuterli ta`limiy va rivojlantiruvchi o`yinlarning pedagogik jihatlaridan yana biri - tarbiyalanuvchilar tomonidan har 15 daqiqadan so`ng, relaksatsiya vaqtini o`tab, o`yinni davom ettirish lozimligidir. Bolalar kompyuterdan foydalanishni o`rganib olganlaridan so`ng, bunday o`yinlardan mustaqil ravishda foydalanishlari mumkin.

Xulosa qilganda kompyuter texnologiyalaridan faqat ta’lim va tarbiya vositasi sifatida emas, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning dunyoqarashini, fikrlashini va xotirasini rivojlantiradigan o’yinlar vositasi sifatida ham foydalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. –T.: “O`zbekiston”– 2017.

2. Boboyorova G.A. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta'lim jurnali, 2007. 6-son. -14 b.

3. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. “Modulli ta`lim texnologiyalari”– T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007. – 97 b.

4. Begimqulov U.Sh. “Pedagogik ta`limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari” Monografiya-T.: Fan, 2007.

5. Musimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To`rayev A.B., “Innovatsion ta`lim texnologiyalari” -Toshkent: 2015. –208 b.

❁❁❁❁❁

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA’LIMGA JALB ETILGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING SHAKL VA METODLARI

Ismatova Shodiya Ne’matilla qizi,
Navoiy davlat universiteti 2-kurs magistranti
E-mail:ismatovashodiya429@gmail.com.
+998937516727

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limga jalb etilgan imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning asosiy shakl va metodlari tahlil qilingan. Inklyuziv muhitni tashkil etish jarayonida individual, kichik guruhli, integratsiyalashgan ta’lim shakllaridan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, korreksion-pedagogik metodlar, o‘yin texnologiyalari, multisensor yondashuv, kommunikativ metodlar va ko‘rgazmali vositalardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Maqolada pedagog, psixolog, logoped va defektologlarning hamkorligi, ota-ona bilan samarali muloqotning tashkil etilishi hamda bolalar uchun moslashgan ta’lim muhitini yaratishning zarurligi asoslangan. O‘rganish natijalari inklyuziv ta’limning to‘g‘ri va tizimli qo‘llanilishi imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, korreksion metodlar, multisensor yondashuv, o‘yin texnologiyalari, pedagogik hamkorlik, ijtimoiy moslashuv, individual ta’lim, integratsiyalashgan guruhlar.

Аннотация: В данной статье проанализированы основные формы и методы работы с детьми с ограниченными возможностями, включёнными в инклюзивное обучение в дошкольных образовательных учреждениях. Показаны преимущества использования индивидуальных, малых групповых и интегрированных форм обучения при создании инклюзивной среды. Также раскрыта научно-практическая значимость применения коррекционно-педагогических методов, игровых технологий, мультисенсорного подхода,

коммуникативных методов и наглядных средств. В статье обоснована необходимость сотрудничества воспитателей, психологов, логопедов и дефектологов, налаживания эффективного взаимодействия с родителями, а также создания адаптированной образовательной среды для детей. Результаты исследования показывают, что правильное и системное применение инклюзивного образования положительно влияет на социальную адаптацию и развитие детей с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, дошкольное образование, дети с ограниченными возможностями, коррекционные методы, мультисенсорный подход, игровые технологии, педагогическое сотрудничество, социальная адаптация, индивидуальное обучение, интегрированные группы.

Abstract: In this article, the main forms and methods of working with children with disabilities involved in inclusive education in preschool educational institutions are analyzed. The advantages of using individual, small-group, and integrated forms of education in creating an inclusive environment are highlighted. In addition, the scientific and practical significance of using correctional-pedagogical methods, play technologies, multisensory approaches, communicative methods, and visual aids is discussed. The article substantiates the importance of cooperation among teachers, psychologists, speech therapists, and defectologists, as well as establishing effective communication with parents and creating an adapted educational environment for children. The findings show that the proper and systematic application of inclusive education positively affects the social adaptation and development of children with disabilities.

Key words: Inclusive education, preschool education, children with disabilities, correctional methods, multisensory approach, play technologies, pedagogical collaboration, social adaptation, individualized education, integrated groups.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha belgilangan vazifalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Inklyuziv ta’limning bosh maqsadi – jismoniy, sensor, intellektual yoki ijtimoiy rivojlanishida turli xil cheklovlarga ega bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda tarbiyalash, ularning to‘laqonli ijtimoiylashuvini ta’minlashdir.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash o‘ziga xos metodlar, individual yondashuv, maxsus pedagogik sharoitlar hamda turli ko‘makchi texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni tashkil etishning samaradorligi pedagoglarning bilim va ko‘nikmalariga,

ta’lim muhitining moslashtirilganligiga hamda qo‘llanilayotgan metodlarning ilmiy asoslanganligiga bog‘liqdir.

Inklyuziv ta’limning mazmuni va ahamiyati

Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatini yaratishga qaratilgan pedagogik tizim bo‘lib, unda har bir bola o‘z xususiyatlari va ehtiyojlariga ko‘ra rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalar bir nechta toifalarga ajratiladi:

- eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar;
- ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishida sekinlashuv kuzatilgan bolalar;
- jismoniy harakat faoliyati cheklangan bolalar;
- nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar;
- autistik spektrdagi bolalar.

Ular bilan ishlashda maxsus pedagogika (defektologiya), logopediya, psixologiya va zamonaviy inklyuziv metodlar uyg‘un holda qo‘llaniladi.

Inklyuziv ta’limda qo‘llaniladigan asosiy shakllar

Individual ta’lim shakli. Bu shaklda pedagog har bir bolaning rivojlanish darajasi, qobiliyati, psixologik holati, sensor va motorik imkoniyatlarini inobatga olgan holda individual dastur tuzadi. Individual ta’lim quyidagilarni o`z ichiga oladi:

- ✓ yakka logopedik mashg‘ulotlar;
- ✓ psixologik korreksiya mashg‘ulotlari;
- ✓ defektolog bilan alohida ishlash;
- ✓ individual reabilitatsiya mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi.

Kichik guruhli ta’lim shakli. Imkoniyati cheklangan bola kichik (3–5 nafar) bolalar guruhida qatnashadi. Bu shakldagi ta’lim – ijtimoiylashuvni yengillashtiradi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘yin orqali ta’limni kuchaytiradi.

Aralash (integratsiyalashgan) guruhlar. Bunda imkoniyati cheklangan bola sog‘lom tengdoshlari bilan bir guruhda ta’lim oladi, ammo pedagog va assistent-defektologning doimiy ko‘magi ta’minlanadi. Ushbu shakl bolaning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘nikmalari, ijtimoiy moslashuvi, nutq va fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Oilaviy va muassasa bilan hamkorlik shakli. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishida ota-ona bilan hamkorlik juda muhim. Pedagog ota-onalar bilan quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

- o ota-onalar uchun treninglar o‘tkazishi;
- o uy sharoitida qo‘llaniladigan metodlar bo‘yicha tavsiya berishi;

- ota-ona–bola–pedagog uchburchagini shakllantirishi.

Inklyuziv ta’limda qo‘llaniladigan metodlar

1. O‘yin metodlari

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin – yetakchi faoliyat hisoblanadi. Shu sababli korreksion ta’limning asosiy qismi o‘yin metodlari orqali amalga oshiriladi. Korreksion ta’limning o‘yin metodlariga quyidagilar kiradi:

- ❖ sensor rivojlantiruvchi o‘yinlar;
- ❖ konstruktiv o‘yinlar;
- ❖ rolli o‘yinlar;
- ❖ psixomotor o‘yinlar;
- ❖ muloqotga yo‘naltirilgan o‘yinlar.

O‘yin metodlari bola emotsional holatini barqarorlashtiradi va guruhga moslashishini yengillashtiradi.

2. Ko‘rgazmali metodlar

Bu metodlar maxsus texnik vositalar (rasmlar, piktogrammalar, vizual kartochkalar, qo‘lqop teatrlar, maketlar) yordamida bilim berishni nazarda tutadi. Nutqida muammosi bor bolalar uchun vizual tayanch vositalar juda muhim.

3. Amaliy mashg‘ulotlar metodi

Bolalar mustaqil faoliyatga jalb qilinadi. Masalan: rasm chizish, loydan yasash, konstruksiyalar qurish, musiqa ritmlarini bajarish, mayda motorik mashqlar bajarish. Bu metodlar bolaning qo‘l harakatlari, koordinatsiya, tasavvur va tafakkur faoliyatini kuchaytiradi.

4. Kommunikativ metodlar

Nutqida yoki ijtimoiy muloqotida muammosi bor bolalar uchun qo‘llaniladi. Bu metodlar:

- ➢ “alternativ kommunikatsiya kartochkalari” (PECS);
- ➢ imo-ishora elementi;
- ➢ soddalashtirilgan nutq modeli;
- ➢ jamoaviy suhbatlar shakllarini o‘z ichiga oladi.

5. Korreksion-pedagogik metodlar

Bu metodlar maxsus pedagoglar tomonidan qo‘llaniladi: logopedik til mashqlari, fonematik eshitishni rivojlantirish, diqqat, xotira va tafakkur bilan bog‘liq mashqlar, ko‘rish, eshitish, harakat faoliyatini kompensatsiyalovchi mashqlar.

6. Multisensor yondashuv

Yagona vaqtning o‘zida bir nechta sezgi kanallarini ishga soluvchi metodlar:

- musiqiy-terapiya;
- qum terapiyasi;
- art-terapiya;
- ranglar bilan davolash;
- sensor xonalar faoliyati.

Bu metodlar autistik spektrdagi yoki sezgi buzilishi bor bolalarda yaxshi natija beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida maxsus sharoitlar tashkil etish

Inklyuziv ta’lim samarali bo‘lishi uchun quyidagi sharoitlar yaratilishi lozim. Moslashtirilgan ta’lim muhiti, pandus-tutqichlar, xavfsiz mebel;
yorug‘lik va akustikaning to‘g‘ri tashkil qilinishi, alohida sensor va dam olish burchaklari.

Pedagog va mutaxassislar hamkorligi
Defektolog, logoped, psixolog, tibbiy xodim va guruh tarbiyachisi hamkorlikda ish olib borishi kerak. Ularning soni va sifati bolaning ehtiyojiga mos bo‘lishi zarur.

Innovatsion texnologiyalar
interaktiv doskalar, audio kitoblar, nutqni rivojlantiruvchi mobil ilovalar, elektron ko‘makchi qurilmalar.

Inklyuziv ta’limning natijalari va samaradorlik mezonlari

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan to‘g‘ri tashkil etilgan metodlar asosida ishlash quyidagi natijalarga olib keladi:

- ✓ bolaning o‘z-o‘ziga ishonchi oshadi;
- ✓ muhitga moslashuvi yengillashadi;
- ✓ nutqiy rivojlanish tezlashadi;
- ✓ intellektual faoliyat yaxshilanadi;
- ✓ jismoniy harakat ko‘nikmalari shakllanadi;
- ✓ ijtimoiylashuv darajasi ortadi;
- ✓ ota-onalar bilan hamkorlik mustahkamlanadi.

Bu natijalar imkoniyati cheklangan bolaning hayotiy qarashlari va hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limga bo‘lgan teng huquqi va imkoniyatlarini ta’minlaydi. Mazkur jarayonda pedagogning individual yondashuvi, maxsus metodlar, turli shakldagi mashg‘ulotlar, korreksion yondashuvlar va ota-ona bilan hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Integratsiyalashgan o‘quv jarayoni, o‘yin metodlari, multisensor yondashuv hamda psixologik-pedagogik ko‘mak orqali har bir bola jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllanadi. Shunday qilib, inklyuziv ta’lim – nafaqat pedagogik jarayon,

balki insonparvarlik g‘oyalariga tayanadigan, har bir bolaga imkoniyat eshigini ochib beruvchi eng muhim ta’lim tamoyillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

2. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida Nizom. – Toshkent: MTTV, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2021.

4. Vygotskiy L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1996.

5 Sherqulova F. Logopediya asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.. R.

6. O.M. Xolmatova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishidagi nuqsonlar va korreksion ishlar”. – Pedagogika jurnali, 2020.

7. Axmedova. Maktabgacha ta’limda inklyuziv muhitni shakllantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

8. G.K. Mammadova. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2022.

MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA GURUH TARBIYALANUVCHILARI, TARBIYACHILAR VA OTA-ONALAR O‘RTASIDAGI NIZOLI HOLATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH OMILLARI

Hayitmurodova Marjona Husanjon qizi
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, tarbiyachi hamda ota-ona o‘rtasida yuzaga keladigan nizoli holatlarning sabablari va ularni bartaraf etish omilllari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Nizoli holatlar, muloqot yetishmasligi, muloqot, zamonaviy fikrlaydigan pedagoglar, individual xususiyat, to‘laqonli rivojlantirish, ilg‘or xorijiy tajriba.

Аннотация: В статье анализируются причины возникновения конфликтных ситуаций между дошкольными образовательными организациями, воспитателями и родителями, а также факторы их устранения.

Ключевые слова: Конфликтные ситуации, дефицит общения, коммуникация, современно мыслящие воспитатели, индивидуальные особенности, всестороннее развитие, передовой зарубежный опыт.

Abstract: This article analyzes the causes of conflict situations that arise between preschool educational organizations, educators and parents, and factors for their elimination

Keywords: Conflict situations, lack of communication, communication, modern-thinking educators, individual characteristics, comprehensive development, advanced foreign experience

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan pedagoglar bilan ta’minlash, ta’lim va tarbiya jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha talim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni to‘laqonli rivojlantirish tarbiyachi va ota-onalar hamkorligiga bevosita bog’liq. Bundan asosiy maqsad - bolani har tomonlama rivojlantirish hamda manfaatlarini himoya

qilish hisoblanadi. Ammo ayrim holatlarda bu uch tomon o‘rtasida qarama-qarshi fikrlar, tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Bu esa jiddiy nizolarni keltirib chiqaradi. Nizolarning sabablari shundan iboratki, muloqot yetishmasligi ya’ni tarbiyachi va ota-onalar o‘rtasidagi aloqa sust bo‘lsa, bola haqidagi axborot to‘liq almashmaydi. Ikkinchidan, tarbiya usullaridagi tafovut, ya’ni ota-onalar ko‘pincha yumshoqikni afzal ko‘rishsa, tarbiyachilar intizomni muhim deb biladi. Uchinchidan, bolaning individual xususiyati, ya’ni har bir bolaning fe’l-atvori va ehtiyoji turlicha bo‘lganligi sababli kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Yana bir sabablardan biri shuki, ota-onaning farzandiga nisatan befarqligi yoki tarbiyachining faoliyatiga ortiqcha aralashuvi.

“Har muammoning bir yechimi bor” deganlaridek, nizolarni hal etish yo‘llari ham bor. Ular quyidagilar:

1). O‘zaro hurmatga asoslangan muloqot. Buyuk pedagog S.M.Makarenko bu borada quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tgan: “Bola tarbiyasida eng avvalo kattalar o‘zaro madaniyatli bo‘lishi zarur”;

2). Hamkorlik muhitini yaratish. Tarbiyachi, ota-ona va bola “Uchlik tizimida” hamjihatlikni saqlashi kerak;

3). Psixologik yondashuv. D.Kamegi ta’kidlaganidek: “Insonni tanqid emas, tushunish uzartiradi”. Shu bois muammolarni hamjihatlikda hal etish darkor.

4). Ochiq muloqot. Bu yo‘l ham eng samarali usullardan biri bo‘lib, bunda har oyda ota-onalar bilan suxbatlar, yig’ilishlar tashkil etilshi kerak. Shu orqaligina kelishmovchiliklarni oldini olishimiz mumkin. Agarda bu usullarni qo‘llamasak, quyidagi oqibatlarga olib keladi.

1). Bola ruhiy bosim ostida qoladi.

2). Tarbiyachining ish samaradorligi pasayadi.

3). Ota-ona bilan tarbiyachi o‘rtasida ishonchsizlik paydo bo‘ladi.

Bular esa albatta, kelajak avlodning rivojiga salbiy ta’sir qiladi. Bola manfaatini ustuvor qo‘yish, ya’ni har qanday qaror bolaning ruhiy holati va kelajagi uchun foydali bo‘lishi kerak. Bu borada taniqli olimlarning ham fikrlari bor:

L.S.Vigotskiy: “Bola rivojlanishining kaliti –kattalar bilan muloqotidadir”.

A.S.Makarenko: “Tarbiyaning muvafaqqiyati – ota-ona va pedagogning bir maqsadda harakat qilishidir.

O‘zbek olimlaridan T.Qodirov: “Ota-ona va tarbiyachi o‘rtasida ochiqlik va ishonch bo‘lmasa, tarbiya natijasi sustlashadi”.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bolalarni tarbiyalashda har bir pedagog barcha faoliyatlarni ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etsa bolalar juda katta

yutuqlarni qo‘lga kiritadilar, tezda yaxshi natijalarga erishadilar, shuningdek, tarbiyachi va ota-ona o‘rtasidagi nizoli holatlar paydo bo‘lmasligiga kafolat beriladi. Shu sababli ham MTTlarda ota-onalar bilan hamkorlikning samarali yo‘llarini tinimsiz izlash va qo‘llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turg’unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni boshqarish va tashkil etish. – T., Fan, 2009. – 168 b.
2. Umurzoqov D.X. “ Psixologik konfliktologiya” O‘quv uslubiy majmua.
3. Eshmetov Sh.A. Ustoz-shogird munosabatlarining ijtimoiy-psixologik fenomenlari. Psixol. fanl. nomz. dissertatsiyasi.- T.: 2004.-144 b.

❁❁❁❁❁

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TOMONIDAN OTA-ONA MAS’ULIYATINI OSHIRISH VA ULARNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLAR BILAN TA’MINLASH

Ermatova Gulnoz Pirimovna
NavDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi v.b dotsenti
Bobojonova Nazira Merganboy qizi
Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)magistranti
***bobojonovanazira6@gmail.com*+998948921002**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston jamiyatida oila institutining ahamiyati, uning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni keng yoritilgan. Oilaning davlat himoyasidagi asosiy ijtimoiy bo‘g‘in sifatida barkamol avlodni tarbiyalash jarayonidagi mas’uliyati, ota-onalarning pedagogik, ma’naviy va psixologik bilimga ega bo‘lish zarurati, shuningdek, mahalla va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada farzand tarbiyasining bosqichlari, mehr, shirinso‘zlik, ijobiy muomala va sog‘lom oilaviy muhitning bola kamolotiga ta’siri yoritilib, zamonaviy axborot vositalaridan

oqilona foydalanish, diniy-axloqiy qadriyatlar va ota-onaning shaxsiy namunasi tarbiyaning asosiy omillari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Yakuniy xulosalarda esa farzand tarbiyasi jamiyat kelajagi uchun muhim omil ekani, ota-onalarning mas’uliyati va fidoyiligi yuksak baholanadi.

Kalit so‘zlar: oila, tarbiya, farzand kamoloti, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, ota-ona mas’uliyati, oilaviy muhit, mahalla, ta’lim-tarbiya hamkorligi, sog‘lom avlod, pedagogik bilim, diniy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, yoshlar ma’naviyati, ota-ona namunasi, zamonaviy axborot texnologiyalari, bola huquqlari, oilaparvarlik, ma’naviy immunitet.

Аннотация: В данной статье широко освещено значение института семьи в обществе Узбекистана, его роль в обеспечении духовной, нравственной и социальной стабильности. Анализируется ответственность семьи как главного социального звена защиты государства в процессе воспитания зрелого поколения, необходимость владения родителями педагогическими, духовными и психологическими знаниями, а также важность сотрудничества с соседством и образовательными учреждениями. В статье освещены этапы воспитания ребенка, влияние доброты, ласки, позитивного обращения и здоровой семейной обстановки на развитие ребенка, показано рациональное использование современных средств массовой информации, религиозно-нравственных ценностей и личного примера родителей как основных факторов воспитания. В заключительных выводах образование детей является важным фактором для будущего общества, а ответственность и преданность делу родителей высоко ценятся.

Ключевые слова: семья, образование, развитие ребенка, духовность, нравственные ценности, ответственность родителей, семейная среда, соседство, образовательно-воспитательное сотрудничество, здоровое поколение, педагогические знания, религиозно-нравственное воспитание, социальное воспитание, духовность молодежи, пример родителей,

современные информационные технологии, права детей, семейная забота, моральный иммунитет.

Abstract: In this article, the importance of the family institution in the society of Uzbekistan, its role in ensuring spiritual, moral and social stability is widely covered. Analyzes the responsibility of the family as the main social link in the protection of the state in the process of raising a mature generation, the need for parents to have pedagogical, spiritual and psychological knowledge, as well as the importance of cooperation with the neighborhood and educational institutions. The article highlights the stages of child upbringing, the influence of kindness, sweetness, positive treatment and a healthy family environment on the development of a child, and shows the rational use of modern media, religious and moral values and the personal example of parents as the main factors of upbringing. In the final conclusions, child education is an important factor for the future of the society, and the responsibility and dedication of parents is highly appreciated.

Key words: family, education, child development, spirituality, moral values, parental responsibility, family environment, neighborhood, educational-educational cooperation, healthy generation, pedagogical knowledge, religious and moral education, social education, youth spirituality, parental example, modern information technologies, children's rights, family care, moral immunity.

Kirish: Rivojlanib borayotgan O‘zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat e’tibori va himoyasida bo‘lib qolmoqda. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat hisoblangan Qomusimiz – Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”, deb belgilab qo’yilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bu – oiladir».

Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz ham barkamol avlodni tarbiyalashdir. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Bolalar tarbiyasiga nafaqat oila, ta’lim-tarbiya muassasalari balki mahalla ham ma’suldir. Chunki, farzand tarbiyasi ko‘p omillarga, avvalo, axloqiy-ma’naviy muhitga ham bog‘liq. Ta’lim-tarbiyasi muassasalari bilan oila hamkorligi bunda muhim ahamiyatga ega. Kishining jamiyatda tutgan mavqeiga bog‘liq bo‘lmagan bir kasb borki, u onalik va otalik kasbidar. Ota-onalar o‘z bolalarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar.

Oila mustahkamligi, ma’naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma’naviy yetuklikning garovidir. Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham o‘g‘il uylantirish, kelin tanlash, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko‘targanligi ham bejiz emas. Oila, oila a’zolarining, ayniqsa ota-onaning axloqiy-ma’naviy yetukligi va ma’rifiy qarashlari farzand tarbiyasi va kamolida eng zarur va muhim omillaridan biri hisoblanadi. Har bir ota-ona o‘z farzandini dunyodagi eng toleyi baland, ma’rifatli va saodatli bo‘lishini istaydi hamda bunga erishish yo‘lida harakat qiladi. Shunday ekan, biz maktabgacha ta’lim tizimi xodimlari, ota-onalar mahalla bilan hamkorlikda bolalar tarbiyasiga hech qachon befarq bo‘lmaylik. Farzandlarimiz ta’lim-tarbiyasiga bo‘lgan e’tiborni o‘zligimiz va kelajakka bo‘lgan e’tibor deb bilib, yosh avlodga g‘amxo‘rlik



ko‘rsatish, ularning sog‘lom o‘sishi, to‘g‘ri tarbiya hamda ta’lim olishini ta’minlash barchamizning burchimizdir. Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg‘ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo‘lga qo‘yilar ekan, o‘sha oila, o‘sha mahalla gullab-yashnaydi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak, degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Ko‘pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug‘ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta’lim-tarbiyaga e’tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. «Bir bolaga yetti qo‘shni ota-ona» degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko‘chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o‘tib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib to‘g‘ri yo‘lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go‘zal xulqli bo‘lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o‘zaro munosabatida oliyjanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o‘z odatlari bilan ba’zan o‘zlari sezmagan holda ularga ta’sir qiladilar. Albatta bola tarbiyasi o‘ta murakkab va ma’suliyatlidir. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani ko‘rishga shoshmaslik kerak. Masalan ikki yoshgacha faqat shirin so‘z bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni o‘rganadi, asosiy ma’lumotni shu yosh oralig‘ida egallaydi. Bu davrda biz ko‘proq amaliy jihatdan namuna bo‘lishga urinishimiz, sog‘lom oilaviy muhitni yaratishimiz zarur bo‘ladi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichda o‘rganadi. Bu davrda farzand to‘g‘ri yo‘lga solinsa, tarbiyali do‘stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo‘lib, yaxshi inson bo‘lishi uchun muhim qadam qo‘yiladi. Odatda onalar o‘z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aytsam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo‘l qo‘ygan xatolari, qo‘l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o‘z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo‘rqmasdan qilaverishi mumkin.

Bolalik chog‘ida farzandning qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Shu bois diniy ta’limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning

bolalik davrini xursand o‘tkazishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko‘ngli nozik bo‘lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko‘rsatishga chaqiriladi. Diniy ta’limotlarda otaona o‘z farzandlariga ta’lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): “Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ilganlar”, deb har bir ota-onani bolaning o‘z zamonasi ilm-fani, ta’limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso‘zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo‘lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta’limni ham g‘azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma’qul. Zero, zo‘rlab berilgan ta’lim bola xotirasidan tezda o‘chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so‘nishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ta’limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligida voyaga yetmagan bolalarning bir qator shaxsiy nomulkiy huquqlari ko‘rsatilgan, ya’ni har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o‘z ota-onasini bilish, ularning g‘amho‘rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bolaning oldida o‘z huquqlarini bajarish ota-ona uchun faqat axloqiy qoida bo‘lib qolmay, balki konstitutsiyaviy huquq va burchlaridan biridir.

Xulosa va takliflar: Insonlar farzandli bo‘lishdek baxtga erishish bilan birga ota-onalik vazifasini va mas’uliyatini ham to‘la anglab yetishlari lozim deb o‘ylayman. Chunki jamiyatimizning baxtli kelajagi uchun barchamiz mas’ulmiz. “Odobli bilimdon, aqlli, mehnatsevar, iymon –e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir”. Bolalar- oila va jamiyatning ko‘zgusidir. Bolalarning yosh qalbiga hamma narsadan ko‘ra o‘rnak ko‘rsatish kuchli ta’sir etadi, ota-onalarning ko‘rsatadigan o‘rnagi (ibrati) esa ularning qalbida boshqa hamma kishilarning o‘rnagiga qaraganda chuqurroq va mustahkamrok iz qoldiradi. Oilaviy tarbiya doimo mavjudligi, ko‘rsatmaliligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda odobga doir tadbirlarni bolaga to‘g‘ri o‘rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti,

ota-onalarning kasb hunari, oila a’zolarining ma’naviy- ruhiy munosabatlari katta rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.

3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi// https://www.lex.uz.

4. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// https://www.lex.uz.

5. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.

6. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.

7. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi. ”Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya . Toshkent-2009.

MAKTAB HAMDA MAJBURIY BIR YILLIK TAYYORLOV GURUHI HAMKORLIGIDA 6–7 YOSHLI BOLALARNI MAKTABGA MOSLASHUVINI TARBIYAVIY TADBIRLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Mansurova Surayyo Ravshanovna
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Toshqulova Zuhra Ulug‘bek qizi
NavDU, 2-kurs magistranti, Navoiy viloyati
pedagogik mahorat markazi maktabgacha
ta’limni muvofiqlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi.
E-mail: ***Zuhra20010324@gmail.com***

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab va majburiy bir yillik tayyorlov guruhi o‘rtasidagi uzviy hamkorlik asosida 6–7 yoshli bolalarning maktabga moslashuv jarayonini samarali tashkil etishga doir pedagogik, psixologik va tashkiliy texnologiyalar yoritiladi. Tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni, ularning bolalar moslashuviga ta’siri, zamonaviy yondashuvlar hamda amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: hamkorlik, moslashuv, tadbirlar, psixologik moslashuv, pedagogik moslashuv, ijtimoiy moslashuv, jismoniy moslashuv.

Аннотация: В данной статье освещаются педагогические, психологические и организационные технологии эффективной организации процесса адаптации детей в возрасте 6-7 лет на основе тесного сотрудничества между школой и обязательной годичной подготовительной группой. Приводится содержание воспитательных мероприятий, их влияние на адаптацию детей, современные подходы и практические рекомендации.

Ключевые слова: сотрудничество, адаптация, мероприятия, психологическая адаптация, педагогическая адаптация, социальная адаптация, физическая адаптация.

Abstract: This article highlights pedagogical, psychological and organizational technologies for effectively organizing the process of adaptation of children aged 6-7 years through close cooperation between the school and the mandatory one-year preparatory group. The content of educational measures, their

impact on the adaptation of children, modern approaches and practical recommendations are given.

Key words: cooperation, adaptation, activities, psychological adaptation, pedagogical adaptation, social adaptation, physical adaptation.

Maktabga tayyorlovning majburiy bir yillik bosqichi O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimi rivojida muhim o‘rin egallaydi. Zero, 6–7 yosh oralig‘i bolaning aqliy, ijtimoiy-hissiy, jismoniy va nutqiy rivojlanishi keskin faollashadigan davrdir. Bu davrda bola o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga bosqichma-bosqich o‘tadi, muloqot shakllari murakkablashadi, o‘qish intizomi, maqsadlilik, mustaqillik singari sifatlar shakllanadi.

Maktabga moslashuv murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u faqat bolaga bog‘liq bo‘lmay, balki maktab, tayyorlov guruhi, ota-ona va pedagoglarning tizimli hamkorligiga asoslanadi. Aynan tarbiyaviy tadbirlar mazkur jarayonning ijtimoiy-psixologik poydevorini yaratib, bolalarda motivatsiya, ijtimoiy moslashuv, o‘qishga ijobiy munosabat hosil qiladi.

Shu sababli maktab va tayyorlov guruhi hamkorligida yo‘lga qo‘yiladigan pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqish juda muhimdir.

Moslashuv (adaptatsiya) — bolaning yangi faoliyat turi, yangi talablar, yangi muhitga moslashish jarayonidir. Maktabga kelgan bola quyidagi o‘zgarishlarga duch keladi:

- o‘yin emas, o‘quv faoliyati etakchi faoliyatga aylanadi;
- kattalar bilan muloqot tizimi o‘zgaradi;
- jamoada o‘z o‘rnini topishi kerak;
- intellektual yuklama oshadi;
- emotsional barqarorlikka bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi.

Psixologik moslashuv – o‘qituvchi ko‘rsatmalariga amal qilish, sinfdoshlar bilan muloqot, o‘zini tutish madaniyati.

Pedagogik moslashuv – dars jarayonida faol ishtirok etish, topshiriqlarni bajarish, diqqatning barqarorligi.

Ijtimoiy moslashuv – maktab jamoasida o‘zini erkin his qilish, nizolardan qochish, hamkorlik qila olish.

Jismoniy moslashuv – yangi kun tartibiga moslashish, charchoqqa qarshi bardoshlilik.

Tayyorlov guruhlari va maktab hamkorligi aynan shu to‘rt yo‘nalish bo‘yicha kompleks ta’sir ko‘rsatishi lozim.

Majburiy bir yillik tayyorlov guruhining asosiy maqsadi — bolani maktab talablariga bosqichma-bosqich tayyorlash. Biroq maktabning haqiqiy talablari,

o‘qituvchi kutgan kompetensiyalar, yangi o‘quv muhitining xususiyatlari haqida faqat maktab pedagoglari to‘liq ma’lumotga ega. Shu bois, hamkorlikda ishlash quyidagilarni ta’minlaydi:

- ✓ tayyorlov guruhlari ish mazmunining maktab talablari bilan uyg‘unlashtirilishi;
- ✓ o‘qituvchi va tarbiyachining bola haqidagi ma’lumotlarni almashishi;
- ✓ metodik birdamlik yuzaga kelishi;
- ✓ ota-onalar bilan uyg‘un ishlash tizimi shakllanishi.

Maktab hamda majburiy bir yillik tayyorlov guruhlari 6–7 yoshli bolalarni maktabga moslashuvini tarbiyaviy tadbirlar asosida shakllantirishda quyidagi hamkorlik usullarini qo‘llashlari mumkun.

Pedagogik maslahatlar – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va tarbiyachilarning metodik uchrashuvlari.

Integratsiyalashgan mashg‘ulotlar – tayyorlov guruhida maktab o‘qituvchisi ishtirokida darslar.

Bolalarning maktabga ekskursiyalari – sinflar, kutubxona, sport zali bilan tanishtirish.

Umumiy tarbiyaviy tadbirlar – “Maktabga qadam”, “Kitob haftaligi”, “Do‘stlik kuni”.

Monitoring tizimi – bolalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish.

Tarbiyaviy tadbirlar bolalarning quyidagi sifatlarini rivojlantiradi:

- ➢ jamoada o‘zini tutish;
- ➢ muloqot madaniyati;
- ➢ o‘z fikrini ifodalash;
- ➢ qoidalarga bo‘ysunish;
- ➢ navbat kutish, ishlarda mas’uliyat;
- ➢ ijobiy motivatsiya.

Maktabga borish jarayoni bolada qo‘rquv, hayajon, ishonchsizlik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar esa bu holatlarni kamaytiradi, bolada maktabga nisbatan iliq munosabat shakllantiradi.

Ushbu jarayonda quyidagi hamkorlik tadbirlarini misol qilib keltirishimiz mumkun.

“Maktab – men uchun yangi olam” tadbiri. Maktabga qiziqish va ijobiy munosabat shakllantirishda, sinf xonasi bilan tanishtirishda, o‘qituvchi bilan suhbat, bolalarga maktabni tanishtirish yordam beradi.

“Birinchi kitobim bilan tanishaman” bolalarda o‘qishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Bunda maktab kutubxonasiga sayohat, kitob o‘qish marosimi, rasm chizish jarayonlari nutq, tafakkur, tasavvur, kitobga mehrni uyg‘otadi.

Sport musobaqalari, estafeta, jamoaviy o‘yinlar, koordinatsiya mashqlari. Jismoniy moslashuvni kuchaytiradi, chidamlilik, harakat madaniyati oshadi.

Maktabga moslashuv jarayoni — murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, tizimli yondashuvni talab qiladi. Maktab va majburiy tayyorlov guruhi hamkorligi mazkur jarayonni yengillashtiruvchi eng samarali omil sanaladi. Tarbiyaviy tadbirlar orqali bola ijtimoiy, emotsional, aqliy jihatdan maktabga tayyorlanadi, yangi muhitga moslashish tezlashadi. Mazkur maqolada taqdim etilgan texnologiyalar, metodlar va tadbirlar pedagoglar amaliyotida qo‘llash uchun samarali metodik yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. S.X.Jalilova, S.M.Aripova
2. Ilm yo‘li variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) 2022.
3. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022.
4. . Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. Darslik. N.T.Tosheva “Kamolot” nashriyoti. Buxoro – 2022

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA XALQARO TAJRIBA VA HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Adizova Nilufar Quvondiq qizi
Maktabgacha ta’lim metodisti
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi
Adizovanilufar331@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklar, O‘zbekistonda xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.Ayniqsa, Singapur tajribasiga asoslangan “Marshall Cavendish” dasturi asosida yaratilgan “Quvnoq matematika” mashq daftarlari katta va tayyorlov guruhlariga tatbiq etilganligi misolida xalqaro hamkorlikning amaliy natijalari yoritiladi.Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish maqsadida tashkil qilingan “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” shakllari haqida ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Islohot, yagilik, hamkorlik, Marshall Cavendish, uzluksiz, quvnoq matematika, tayanch, tanqidiy fikrlash, Singapur tajribasi

Annotation.This article analyzes the innovations being implemented in the preschool education system and the reforms carried out in Uzbekistan based on international cooperation. In particular, it highlights the practical outcomes of international collaboration through the example of the *“Fun Mathematics”* workbooks, developed under the *“Marshall Cavendish”* program inspired by Singapore’s educational experience, and introduced to senior and preparatory groups. The article also provides information about the *“Methodological Mastery Day”* and *“Methodological Mastery Hour”* formats, which are organized to enhance the continuous professional skills of preschool education teachers.

Keywords: Reform, innovation, cooperation, Marshall Cavendish, continuous, Fun Mathematics, foundation, critical thinking, Singapore experience

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos sifatli ta’lim-tarbiya muhitini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.Prezidentimizning 2024-yil 30- sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzolangan.Ushbu farmonda maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan.Masalan:

-maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish;

-maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich ta’lim o‘quv dasturlarining o‘zaro uzviyligi va muvofiqligini ta’minlash;

-barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat soati”, tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa “Metodik mahorat kuni” kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etish; Bu farmonda maktabgacha ta’lim tizimi uchun juda katta islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi keltirib o‘tilgan.Ushbu farmon asosida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi yangilandi, unda bolalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, axborot savodxonligi va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor kuchaytirildi.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni”

va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 362-sonli buyrug‘i asosida barcha maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarini uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish maqsadida “Metodik mahorat soati” va tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Metodik mahorat kuni” tadbirlari tashkil etildi.Bunday o‘quvlar pedagoglarning yangi zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishlariga hamda o‘zaro tajriba almashishlariga imkon yaratmoqda.Ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda xalqaro tajriba va hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erta bolalik davridagi ta’lim bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda hal qiluvchi bosqichdir.Singapur tajribasida “Marshall Cavendish Education” dasturi orqali bolalarda matematik, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu dastur asosida o‘quv materiallari, mashq daftarlari va raqamli platformalar ishlab chiqilgan bo‘lib, bolalarda abstrakt tushunchalarni amaliy o‘yinlar orqali shakllantirishga xizmat qiladi.Mazkur tajribalar maktabgacha ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, interfaol va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishning samarali modellarini namoyon etadi.

O‘zbekistonda xalqaro hamkorlikning rivojlanishi

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish yo‘lida xalqaro tashkilotlar bilan keng hamkorlik o‘rnatildi. UNICEF, UNESCO, KOICA kabi tashkilotlar bilan birgalikda tarbiyachilar malakasini oshirish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda o‘quv muhitini raqamlashtirish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.Xususan, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 20-avgustdagi 298-sonli buyrug‘i asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor o‘rinbosarlar hamda direktorlari uchun onlayn o‘quvlar tashkil qilinmoqda.Quyida o‘quv mashg‘ulot mavzularining ba’zilari keltirilgan:

-“Quvnoq matematika” 18-soat

-“Bilag‘on bolajon” 18-soat

-“Maktabgacha ta’limda matematika bo‘yicha samarali o‘qitish strategiyalari va pedagogik yondashuvlar” 12-soat

-“Matematika fanida o‘zlashtirishni kuzatib borish” 12-soat shu kabi mavzularda singapurlik mutaxassislar tomonidan zoom platformasi orqali darslar olib borilmoqda.Singapurdagi “Marshall Cavendish Education” kompaniyasi bilan

hamkorlik natijasida O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun **“Quvnoq matematika”** nomli mashq daftarlari ishlab chiqildi va katta hamda tayyorlov guruhlariga tarqatildi. Ushbu mashq daftarlari bolalarda matematik fikrlashni, muammoli vaziyatlarni hal etish, shakl, o‘lchov, son va miqdor tushunchalarini amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rganish imkonini beradi.“Quvnoq matematika” dasturi o‘yinli ta’lim tamoyiliga asoslanib, bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kuzatuvchanlikni kuchaytirish va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash malakasini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu dastur xalqaro miqyosda o‘zini oqlagan metodik yondashuv bo‘lib, O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion bosqichni boshlab berdi. Xulosa. Xalqaro tajriba va hamkorlik maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy bosqichda rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Singapur “Marshall Cavendish” dasturi asosida yaratilgan “Quvnoq matematika” mashq daftarlari amaliyotda yuqori natija ko‘rsatib, bolalarning matematik tafakkurini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.Bu kabi loyihalar O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi, pedagoglar malakasini oshiradi va eng muhimi — har bir bolaning ijodiy, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–152-son farmoni, 2024-yil 30-sentyabr.
2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 362-sonli buyrug‘i.
3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 20-avgustdagi 298-sonli buyrug‘i
4. Marshall Cavendish Education. *Early Mathematics Programme: Singapore Approach*. Singapore, 2020.
5. UNESCO. *Early Childhood Education: Global Frameworks and Best Practices*. Paris, 2022.
6. KOICA Uzbekistan Office. *Education Cooperation Report*, 2024

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BAHO MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH

Nabiyeva Negina Dilshod qizi (Navoiy, O‘zbekiston)
Ibragimova Gulsanam Dilmurod qizi
Normurodova Gulnoza Sunnatillayevna
Navoiy davlat universiteti, maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2 kurs talabalari

Anotatsiya: Shaxsning aqliy rivojlanishi, uning shaxs sifatida shakllanishi o‘z-o‘zini anglash – o‘zini jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy mavjudot sifatida anglash va munosabatni shakllantirish bilan bog‘liq. Maktabgacha yoshda nafaqat dunyo tasvirining faol rivojlanishi, balki bolaning shaxsiyatining keyingi xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan va shaxsiy o‘sishga ta’sir qiladigan “men” ning shaxsiy rasmini, o‘z-o‘zini tasavvurini, o‘zini o‘zi anglashini yaratish ham mavjud.

Kalit so‘zlar: Baho, bolalarda baho munosabati, shaxs, o‘z-o‘zini anglash, o‘yin faoliyati, axloqiy munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar.

Аннотация: Психическое развитие человека, его становление как личности связано с самосознанием – пониманием себя как физического, духовного и социального существа и формированием установок. В дошкольном возрасте происходит не только активное развитие мировоззрения, но и формирование личностного образа «Я», образа Я, самопонимания, что проявляется в последующем поведении личности ребёнка и влияет на личностный рост.

Ключевые слова: Оценка, отношение к оценке у детей, личность, самосознание, игровая деятельность, нравственные установки, социальные отношения.

Annotation The mental development of a person, his formation as a person is associated with self-awareness - understanding himself as a physical, spiritual and social being and the formation of attitudes. In preschool age, there is not only an active development of the worldview, but also the creation of a personal image of the “I”, self-image, self-understanding, which is manifested in the subsequent behavior of the child’s personality and affects personal growth.

Key words: Grade, attitude to grade in children, personality, self-awareness, play activity, moral attitudes, social relations.

Shaxs rivojlanishining eng yuqori nuqtasi bo‘lgan individuallik uning sub’ektiv salohiyatida namoyon bo‘ladi (V. I. Slobodchikov, E. I. Isaev). O‘zini

faoliyat sub’ekti sifatida anglash taxminan uch yoshdan boshlanadi; bu davrda “men”ning boshlang‘ich ijtimoiy tizimi shakllanadi va o‘zini tasdiqlash istagi (mashhur bolalik “men o‘zim!”) paydo bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda baho munosabatini shakllantirish - bu bolaning dunyoqarashini, atrof-muhitga va o‘ziga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. *Baho munosabati* - bu bolaning ob’ektlar, hodisalar, xatti-harakatlar va shaxslarga nisbatan ijobiy yoki salbiy bahosini (fikrini) bildirish qobiliyatidir.

Asosiy tushunchalar:

• Baho nima? Baho - bu narsa yoki hodisaning ahamiyatini, foydaliligini yoki sifatini aniqlash. Bolalar uchun bu yaxshi/yomon, yoqimli/yoqimsiz, kerakli/keraksiz kabi oddiy baholardan iborat bo‘lishi mumkin.

• Baho munosabati nima? Bu bolaning o‘z bahosini ifoda etish, o‘z fikrini bildirish va boshqalarning fikrlarini qabul qilishga tayyorligi.

• Nega muhim? Baho munosabati bolaga mustaqil fikrlashga, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga, o‘z fikrini himoya qilishga va boshqalar bilan munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi.

Shakllantirish jarayoni:

1. Kuzatish va taqlid: Bolalar kattalarning (ota-onalar, o‘qituvchilar, tengdoshlar) baho berish usullarini kuzatadilar va ularga taqlid qiladilar. Kattalar o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashlari, bolalarning fikrlarini hurmat qilishlari kerak.

2. Tajriba orttirish: Bolalar o‘z tajribalari (o‘yinlar, muvaffaqiyatlar, xatoliklar) orqali o‘rganadilar. Kattalar bolalarga o‘z tajribalarini tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga va o‘z baholarini shakllantirishga yordam berishlari kerak.

3. Suhbat va muhokama: Kattalar bolalar bilan turli xil mavzularda suhbatlashishlari, ularning fikrlarini so‘rashlari va o‘z fikrlarini bildirishlari kerak. Muhokama jarayonida bolalar turli nuqtai nazarlar bilan tanishadilar, o‘z fikrlarini asoslashni o‘rganadilar va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishni o‘rganadilar.

4. O‘yin faoliyati: O‘yinlar bolalarga turli xil vaziyatlarni sinovdan o‘tkazish, o‘z rolini bajarish va baho berish imkoniyatini beradi. Rol o‘yinlari, didaktik o‘yinlar va ijodiy o‘yinlar baho munosabatini shakllantirish uchun juda foydali.

5. Adabiyot va san’at: Ertaklar, hikoyalar, she’rlar, rasmlar va musiqalar bolalarga turli xil his-tuyg'ularni boshdan kechirishga, xarakterlarni baholashga va o‘z baholarini ifoda etishga yordam beradi.

Kattalarning roli:

• Namuna bo‘lish: Kattalar o‘z xatti-harakatlari, gaplari va munosabatlari bilan bolalarga o‘rnak bo‘lishlari kerak.

• Qo‘llab-quvvatlash: Kattalar bolalarning o‘z fikrlarini bildirishlariga rag‘bat berishlari, ularning fikrlarini hurmat qilishlari va ularni qo‘llab-quvvatlashlari kerak.

• To‘g‘ri yo‘naltirish: Kattalar bolalarga to‘g‘ri baho berishga, adolatli bo‘lishga va boshqalarning fikrlarini hisobga olishga yordam berishlari kerak.

• Sabr-toqat: Baho munosabatini shakllantirish - bu uzoq va murakkab jarayon, shuning uchun kattalar sabrli va tushunuvchan bo‘lishlari kerak.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda baho munosabatini shakllantirishda ijodiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyasi mazmuni va mohiyati.

Darhaqiqat, kattalar tobora ko‘proq aloqa sohasidagi huquqbuzarliklarga, shuningdek, bolalarning axloqiy va hissiy sohasining yetarli darajada rivojlanmaganligiga duch kela boshladilar. Bu ta’limning haddan tashqari “intellektuallashuvi”, hayotimizning “texnologiyalanishi” bilan bog‘liq. Hech kimga sir emaski, zamonaviy bolaning eng yaxshi do‘sti televizor yoki kompyuter, sevimli mashg‘uloti esa multfilmlarni tomosha qilish yoki kompyuter o‘yinlarini o‘ynashdir. Bolalar nafaqat kattalar bilan, balki bir-birlari bilan ham kamroq muloqot qilishni boshladilar. Ammo jonli insoniy muloqot bolalar hayotini sezilarli darajada boyitadi, ularning his-tuyg‘ulari doirasini yorqin ranglar bilan bo‘yaydi. Ko‘pincha bolani kuzatish muloqotda ma’lum buzilishlar mavjudligini ko‘rsatadi - tengdoshlar bilan aloqa qilishdan, nizolardan, janjallardan, boshqa birovning fikri yoki xohishi bilan hisoblashishni istamaslik, o‘qituvchiga shikoyat qilish. Bu bolalarning xulq-atvor qoidalarini bilmagani uchun emas, balki hatto kattaroq maktabgacha yoshdagi bola ham nimani boshdan kechirayotganini his qilish qiyin bo‘lganligi sababli sodir bo‘ladi. Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadi o‘z-o‘zini anglash va o‘zini baholash. bolada o‘z timsolini shakllantirishda, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarda o‘z o‘rnini anglashda, o‘z imkoniyatlarini baholashda, hali ko‘p o‘qish kerakligini tushunishda namoyon bo‘ladi. Bu shaxsning asosiy tavsiflari tizimi - maktab yoshigacha bolaning asosiy rivojlanish dasturi konsepsiyasida taqdim etilgan. Maktabgacha ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi tashqi muhit omillariga ijtimoiy buyurtmali maqsadlardan tashqari maktabgacha ta’limga davlat me’yorlari (talablari), shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasasida bolalarga ta’lim berish uchun zarur bo‘lgan tashqi resurslar (kadrlar, axborot, moddiy va hokozo) kiradi.6

[6] https://tiu-edu.uz/media/books/2025/01/15/Maktabgacha-talim-yoshidagi-bolalarga-talim-tarbiya-berishning.pdf

Maktabgacha yoshdagi bolalarda baho munosabatini shakllantirish - bu bolaning atrofidagi dunyoga, odamlarga va o‘ziga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarini, fikrini rivojlantirish demakdir. Bu jarayon bolaning nimani yaxshi, nimani yomon, nimani to‘g'ri, nimani noto‘g'ri deb hisoblashini shakllantirishga qaratilgan.

Nima uchun baho munosabatini shakllantirish muhim?

• Mustaqil fikrlash: Bolalar o‘z fikrlariga ega bo‘lishni o‘rganadilar, bu ularga mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

• Axloqiy rivojlanish: Bolalar yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlashni o‘rganadilar, bu ularning axloqiy me'yorlarini shakllantiradi.

• Ijtimoiy moslashuv: Bolalar o‘z fikrlarini bildirishni va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishni o‘rganadilar, bu ularga ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi.

• O‘zini anglash: Bolalar o‘z qobiliyatlarini, kuchli va zaif tomonlarini baholashni o‘rganadilar, bu ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Baho munosabatini shakllantirish usullari:

1. Oila muhiti: Ota-onalar bolalarga o‘z fikrlarini bildirishlariga ruxsat berishlari, ularning fikrlarini hurmat qilishlari va muhokamalarda ishtirok etishlariga imkon berishlari kerak.

2. Bolalar bog‘chasidagi faoliyat: O‘qituvchilar bolalarga o‘yinlar, suhbatlar, adabiyot va san’at orqali o‘z fikrlarini ifoda etishga yordam berishlari kerak.

3. Hikoyalar va ertaklar: Yaxshi va yomon qahramonlar haqidagi hikoyalar bolalarga axloqiy me’yorlarni o‘rganishga va o‘z baholarini shakllantirishga yordam beradi.

4. Rolli o‘yinlar: Bolalar turli xil vaziyatlarni o‘ynash orqali o‘z fikrlarini ifoda etishni va boshqa odamlarning nuqtai nazarlarini tushunishni o‘rganadilar.

5. Savol-javoblar: O‘qituvchilar va ota-onalar bolalarga ochiq savollar berishlari, ularning fikrlarini so‘rashlari va muhokamalarda ishtirok etishlariga imkon berishlari kerak.

6. Ijodiy faoliyat: Rasm chizish, qo‘shiq aytish, raqsga tushish kabi ijodiy faoliyatlar bolalarga o‘z his-tuyg'ularini va fikrlarini ifoda etishga yordam beradi.

Kattalarning roli:

• O‘rnak bo‘lish: Kattalar o‘z xatti-harakatlari va gaplari bilan bolalarga o‘rnak bo‘lishlari kerak.

• Qo‘llab-quvvatlash: Bolalarning o‘z fikrlarini bildirishlarini rag'batlantirish va ularning fikrlarini hurmat qilish.

• To‘g‘ri yo‘naltirish: Bolalarga adolatli baho berishga va boshqalarning fikrlarini hisobga olishga yordam berish.

• Sabr-toqatli bo‘lish: Bolaning baho munosabatini shakllantirish uzoq vaqt talab etadi, shuning uchun kattalar sabrli bo‘lishlari kerak.

Misollar:

• O‘qituvchi bolalardan ertakdagi qaysi qahramon ularga ko‘proq yoqishini va nima uchun yoqishini so‘raydi.

• Ota-ona bolasi bilan multfilm tomosha qiladi va undan multfilmdagi xatti-harakatlarni qanday baholashini so‘raydi.

• Bolalar o‘yin o‘ynaydilar va o‘yin qoidalarini muhokama qiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda baho munosabatini shakllantirish - bu bolaning shaxsiy rivojlanishining muhim qismi. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolalarga o‘z fikrlarini bildirishga, to‘g'ri baho berishga va boshqalarning fikrlarini hurmat qilishga yordam berishlari kerak. Bu bolalarga mustaqil fikrlashga, to‘g'ri qarorlar qabul qilishga va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo‘lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://tiu-edu.uz/media/books/2025/01/15/Maktabgacha-talim-yoshidagi-bolalarga-talim-tarbiya-berishning.pdf

2. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari o‘zbekiston respublikasi xalq ta’limi vazirligi t.n.qori niyoziy nomidagi o‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqioot instituti. toshkent-2015 y

3. Gaynazarova, G. A. (2017). Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilarida pedagogik mahoratni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari. Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan), (10), 47-53.

4. Zaporozhets A.V., Maktabgacha yoshdagi fikrlashni rivojlantirish.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA “USTOZ-SHOGIRD” AN’ANALARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdullayeva Sabohat G’ayratullayevna
NDU Pedagogika nazariyasi.
Pedagogik ta’limotlar tarixi tayanch doktoranti.
Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya . Mazkur maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida “ustoz-shogird” an’anasini joriy etishning pedagogik asoslari, uning maqsad va ustuvor vazifalari yoritilgan. Maqolada MTTlarda “ustoz-shogird” an`analarini qanday usullarda tashkil etish usullari haqida ham nazariy ma`lumotlar va tavsiyalar berib o`tilgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta`lim tashkiloti (MTT), ustoz-shogird, tajribali pedagog, yosh mutaxassis, ta`lim-tarbiya, ta`limiy faoliyatlar.

Bugungi kunda yosh kadrlarni har tomonlama shakllantirishga e’tibor har qachongidan ham tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylangan. Tarixiy sharoitlarining o‘zgarishi borasida to‘plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o‘zgarib bormoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an’analarini yanada rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishga asos bo‘ladigan yangi ta’lim tizimining tashkil etilishidir. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham asosiy prinsiplar etib, ta’lim ustuvorligining tan olinishi; ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati belgilangan. Uzluksiz ta`limda bu tamoyillar asosida ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ustoz-shogird an’analarining o‘rni alohida ahamyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida uzluksiz ta`lim tizimi etib quyidagilar belgilangan:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- qo‘shimcha ta’lim

Zamonaviy jamiyatda inson kapitalini rivojlantirish, barkamol shaxsni shakllantirish va bilimli avlodni tarbiyalash uzluksiz ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lgan

maktabgacha ta’lim esa bolaning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Ilk bolalik – inson psixik, jismoniy, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishining eng sezgir davri bo‘lib, aynan shu bosqichda shakllangan ko‘nikmalar keyingi yillarda ta’lim sifatini belgilab beradi.

Maktabgacha ta’lim nafaqat bolalarning maktabga tayyorgarligini ta’minlaydi, balki ularni mustaqil fikrlashga, atrof-muhitni idrok etishga, muloqotga kirisha olishga o‘rgatadi. Shu sababli mazkur bosqich uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan qismidir. Bugungi kunda davlat siyosatida maktabgacha ta’limni takomillashtirish, sifatini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish hamda sohada malakali kadrlarni tayyorlash, maktabgacha ta`lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan pedagoglarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash alohida e’tiborda turibdi.

Maktabgacha ta’lim bosqichi — bola rivojlanishining eng muhim davri bo‘lgani sababli, tarbiyachilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki nozik psixologik yondashuvlar, metodik mahorat va bolalar bilan ishlash tajribasini chuqur o‘zlashtirishi zarur. Shu nuqtai nazardan, ustoz-shogird tizimi tarbiyachi kadrlarni tayyorlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va mahoratini oshirishning samarali shakli hisoblanadi. Demak, uzluksiz ta’lim tizimida “ustoz-shogird” an’analaridan foydalanish ko‘zlangan samarani beradi. Pedagogik ta’limot g‘oyalariga ko‘ra amaliy ko‘nikma va malakalar bevosita tinimsiz o‘z ustida ishlash orqali shakllanadi.

Ustoz-shogird an’anasi xalqimizning ko‘hna pedagogik merosiga asoslangan tarbiyaviy tizim bo‘lib, u bilim, tajriba va mahoratning avloddan-avlodga uzluksiz o‘tishini ta’minlaydi. mazkur an’ana maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida ham alohida ahamiyat kasb etadi, chunki pedagogik jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan tarbiyachilarning malakasi va amaliy kompetensiyalariga bog‘liq.

“Yaxshi tarbiyachi bo‘lish – bu katta san’at.”-deydi A.S.Makarenko. U tarbiyachilikni san’at deb atagan. Chunki tarbiyachi bolaning ruhiyatini his qilishi, har bir holatga ijodkorona yondashishi kerak. Maktabgacha ta`lim sohasida yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun bilimli bo‘lishning o‘zi yetarli emas, balki buning bolalar bilan oson til topishib keta olishi, bolalarni sevishi, ijodkor bo‘lish ham talab etiladi. Faoliyatini endi boshlagan yosh mutaxassislar uchun maktabgacha ta`lim-tashkilotida tashkil etilgan “ustoz-shogird” an’analari yosh kadrlarni o‘z sohasi sir asrorlaridan tez egallashlariga yordam beradi. Maktabgacha ta`lim tashkilotida uzoq yillar davomida ish faoliyatini olib borayotgan tajribali tarbiyachilar yosh kadrlarga nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonidagi munosabatlarni to‘g`ri tashkil etishga balki ularga hayotiy tajribalar ham berib boradi.

Ustoz-shogird an’anasi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida quyidagi yo‘nalishlarda muhim rol o‘ynaydi:

1. Tajribaning uzluksiz almashinuvi

Tajribali tarbiyachilar yosh pedagoglarga metodik qo‘llanmalar, dars jarayonini tashkil etish, o‘yin faoliyatini boshqarish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi ko‘nikmalarni amaliy misollar bilan o‘rgatadi. Bu esa ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2. Kasbiy o‘sish va mahoratni rivojlantirish

Shogirdlar ustoz kuzatuvi ostida mashg‘ulot o‘tkazadi, kuzatadi, tahlil qiladi va o‘z ustida ishlaydi. Ustoz esa metodik tavsiyalar, tahliliy fikrlar va yo‘l-yo‘riqlar berib, shogirdning kasbiy shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Pedagogik madaniyatni shakllantirish

Ustoz-shogird munosabatlari jarayonida yosh tarbiyachilar xulq-atvor madaniyati, mehr-oqibat, muloqot odobi, mas’uliyat, hamkorlik, bolalarga mehr bilan yondashish kabi fazilatlarni o‘rganadi. Bu esa kasb etikasining mustahkamlanishida muhim omildir.

4. Jamoa ichida sog‘lom muhit yaratish

Ustoz va shogird o‘rtasida shakllangan o‘zaro hurmat, yordam, hamkorlik muhitini butun jamoa his qiladi. Bu pedagogik muassasada iliq va samarali ish muhitini yaratadi.

5. Innovatsion tajribalarni joriy etish

Yosh tarbiyachilar zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar va kreativ yondashuvlarni yaxshi biladi; ustozlar esa tajriba va amaliy ko‘nikmalarga ega. Ularning hamkorligi innovatsion g‘oyalarni amaliyotga samarali joriy qilishga yordam beradi.

6. Ustoz-shogird tizimi orqali sifatli kadrlar zaxirasini yaratish

Maktabgacha ta`lim tashkilotida tizimli yo‘lga qo‘yilgan ustoz-shogird faoliyatining asosiy maqsadi tashkilotda malakali, tajribali va mas’uliyatli tarbiyachilar zaxirasini shakllantirish, ta’lim jarayonining barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Ustoz–shogird an’anasi — tajribali pedagog va kamroq tajribaga ega yoki yangi shogird o‘rtasida maqsadli, tizimli hamkorlikning maqsadlari:

- yangi yoki kamroq tajribali pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini tez va barqaror rivojlantirish;
- sifatli pedagogik amaliyotni ommalashtirish (eng yaxshi ish tajribalarini tarqatish);
- ta’lim jarayonida izchil pedagogik madaniyatni shakllantirish;

- xodimlarni motivatsiyalash, saqlab qolish va professional o‘sishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida “ustoz-shogird” an’analarining tashkil etishning bir necha usullaridan foydalansa bo‘ladi.

1. **Ko‘p yillik tajribaga ega pedagoglar yosh kadrlar uchun master klasslar tashkil etishi**

Bu jarayonda Master-klassning asosiy vazifasi — tajribali pedagogning eng yaxshi metodikasi, dars olib borish usullari yoki muayyan faoliyat bo‘yicha ko‘nikmalarni yosh kadrga **amaliy tarzda** ko‘rsatishdan iborat. Master-klass quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin: rivojlantiruvchi o‘yinlar (didaktik, ijodiy, sensorika o‘yinlari), STEAM faoliyati, nutq o‘stirish mashg‘ulotlari, musiqiy yoki jismoniy tarbiya faoliyati, inklyuziv bolalar bilan ishlash metodlari bo‘lishi mumkin.

Master-klassdan so‘ng yosh kadrlarga **qisqa yozma metodik qo‘llanma** yoki tavsiyalar beriladi. Yosh pedagoglar keyingi haftada ko‘rgan usullarini o‘z mashg`ulotlarida qo‘llab ko‘rishadi.

2. **Kuzatish va tahlil qilish**

Ustoz-shogird tizimida ustoz mashg‘ulotlarini kuzatish jarayoni. Kuzatuvning asosiy maqsadi bu jarayonda yangi mutaxassislar tajribali tarbiyachilarning kun davomidagi faoliyatini, ta`lim jarayoniga metodik yondashuvini, bolalar bilan ishlash usullarini, mashg’ulotlarni rejalashtirishni jonli tarzda kuzatib, o‘z malakasini tez va samarali oshiradi. Kuzatuv — ustoz-shogird an’anasining eng asosiy va samarali bosqichidir.

Kuzatuvni tashkil etish bosqichlari:

- Ustoz va shogird juftligini aniqlash. Bu jarayonda har bir tajribali pedagogga yangi ish boshlagan yosh mutaxassislar biriktiriladi.
- Kuzatuv o‘tadigan mashg‘ulotning mavzu, sanasi, vaqti belgilanadi.

Kuzatuv davomida shogird quyidagi jihatlarni diqqat bilan ko‘radi: mashg‘ulotning boshlanishi, ustozning bolalarni mashg`ulotga jalb etish usuli, mashg`ulotda tashkil etilgan o‘yinlar, bolalarni rag`batlantirish usullari, bolalarga uy ishlarini berish usullari kuzatiladi va qayd etib boriladi. Kuzatuvning natijasida shogird o‘z ishida yo‘l qo‘yayotgan xatolarni ko‘ra boshlaydi. Ustozning amaliy tajribasini o‘rganadi. Pedagogik madaniyat ham shakllanib boradi. Ustoz mashg‘ulotlarini kuzatish — ustoz-shogird tizimining eng kuchli vositasidir. Bu jarayon yosh pedagogga tayyor bilim emas, balki real pedagogik amaliyotni beradi. Kuzatuv rejalashtirilgan, tizimli, tahlilga asoslangan bo‘lsa, maktabgacha ta’lim tashkilotining umumiy sifatiga ijobiy ta’sir qiladi.

3. Maktabgacha ta’limda ustoz-shogird an’anasini rivojlantirishda “Metodik kun”larni tashkil etish.

Metodik kunning asosiy maqsadi: tajribali pedagoglar faoliyatini yosh mutaxassislarga namoyish qilish, ta`limiy faoliyatlar jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or metodlar bilan tanishtirishdan iborat. Metodik kunni rejalashtirishda oyida kamida 1 marta metodik kun o‘tkazish tavsiya etiladi. Metodik kun mavzusi tashkilotning umumiy yillik rejasiga mos bo‘lishi kerak. Har bir metodik kun uchun mas’ul ustoz pedagog, shogirdlar ro‘yxati, va ko‘riladigan mashg‘ulotlar oldindan belgilanadi. Metodik kunning ustoz-shogird an’anasiga qo‘shadigan hissasi yosh pedagog o‘z faoliyatida ishonch va kompetensiyaga ega bo‘ladi. Tajribali ustozlar metodlarini amaliy ko‘rinishda o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Kasbiy muloqot kuchayadi, pedagoglar o‘rtasida doimiy hamkorlik shakllanadi. Pedagogik jamoada tarbiyachi madaniyati, ijodiy muhit va kasbiy o‘sish tiklanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ustoz–shogird an’anasini yo‘lga qo‘yish ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiruvchi eng muhim mexanizmlardan biridir. Ustozning ko‘p yillik tajribasi va yosh pedagogning zamonaviy yondashuvi uyg‘unlashgani holda ta’lim jarayonida izchil yangilanish, ijodkorlik hamda pedagogik mahoratning uzluksiz rivoji ta’minlanadi.

Ustoz–shogird hamkorligi jarayonida nafaqat pedagogning metodik salohiyati kuchayadi, balki butun jamoada sog‘lom muhit, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va ta’limga mas’uliyat bilan yondashish tamoyili ham sezilarli darajada o`zgaradi. Buning natijasida mashg‘ulotlar mazmuni boyiydi, o‘yin va o‘quv faoliyati samaradorligi ortadi, eng muhimi, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-son
3. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. Darslik. N.T.Tosheva “Kamolot” nashriyoti. Buxoro – 2022
4. Sharq mamlakatlarida “ustoz-shogird”lik an’analarining shakllanishi va rivojlanishi. D. Malikova.Maqola.Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022
5. Kasbiy mahorat. / O‘quv qo‘llanma. Mahkamov U., Tilyaboeva N. - T.: TDIU, 2007.

BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA O‘YINLARNING O‘RNI

Qiziltepa tumanidagi 7- davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor o‘rinbosari
Rajabova Feruza Raximovna
Tel.91.308-33-29

Annotatsiya. Maktabgacha yosh — bu bolaning hayotiy odatlari, qiziqishlari va xulq-atvorini shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Shu yoshda egallangan sog‘lom turmush odatlari bolalar kelajakdagi hayotida ularning jismoniy chidamliligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini belgilaydi. O‘yinlar bolalarda sog‘lom turmush odatlarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘yin orqali bola jismoniy faoliyatni qiziqarli tarzda amalga oshiradi, me’yorida dam oladi, raqobatni o‘rganadi, sog‘lom ovqatlanish va gigiyena qoidalariga rioya qilishni tabiiy ravishda o‘zlashtiradi

Kalit so‘zlar: Sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom ovqatlantirish, gigena qoidalari, sog‘lom va ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘yin.

Zamonaviy jamiyatda bolalar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Global miqyosda bolalar orasida surunkali kasalliklar, semizlik, jismoniy faollikning pasayishi kabi muammolar ko‘payib bormoqda. Shu bilan birga, texnologiyalar rivojlanishi bilan bolalar kompyuter, planshet va televizor oldida ko‘proq vaqt o‘tkazadi, bu esa ularning harakatsiz hayot tarziga olib keladi. Natijada, bolalarda jismoniy va ruhiy rivojlanishning muvozanati buziladi, sog‘lom turmush odatlari shakllanishi qiyinlashadi.

Sog‘lom turmush tarzi — bu nafaqat jismoniy salomatlikni, balki ruhiy va ijtimoiy farovonlikni ham ta’minlaydigan hayotiy konsepsiya hisoblanadi. Bugungi kunda bolalar orasida harakatsizlik, noto‘g‘ri ovqatlanish, ekran vaqti ortishi, stress va ijtimoiy faollikning pasayishi kabi muammolar ko‘paymoqda. Shu sababli bolalik davrida sog‘lom turmush odatlarini shakllantirish nafaqat muhim, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy omilga aylanib bormoqda.

Maktabgacha yosh — bu bolaning jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan shakllanishining eng muhim davri hisoblanadi. Shu yoshda egallangan odatlar va qobiliyatlar kelajakda bolaning hayot sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Ayniqsa, sog‘lom turmush tarzini o‘rganish va amalda qo‘llashdagi asosiy vositalardan biri — o‘yinlardir. O‘yin — bu bolaning tabiiy faoliyati bo‘lib, u nafaqat qiziqarli vaqt o‘tkazadi, balki o‘z tanasi, aqlini va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O‘yinlar orqali bola:

- Harakat va koordinatsiyani rivojlantiradi;
- Sog‘lom ovqatlanish, gigiyena qoidalariga rioya qilishni o‘rganadi;

- Ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi, hamkorlik va raqobatni tushunadi;
- Ruhiy barqarorlik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Shu bois, maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bu nafaqat bolalarning jismoniy rivojlanishi, balki ularning ruhiy va ijtimoiy farovonligi, shuningdek, kelajakda jamiyatning sog‘lom va faol avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mutaxassislar ta’kidlashicha, bolalar o‘yin orqali o‘rganadigan odatlarni hayotining keyingi bosqichlarida osonroq va samaraliroq qo‘llaydilar. Shu sababli pedagoglar va ota-onalar o‘yinlarni faqat o‘tkazish vositasi sifatida emas, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning strategik vositasi sifatida ko‘rishi zarur.

Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini o‘yinlar orqali shakllantirish dolzarbdir, chunki:

1. Bu bolaning jismoniy sog‘lig‘ini mustahkamlashga xizmat qiladi.
2. Ularning ruhiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi.
3. Jamiyatda sog‘lom va faol avlodni tarbiyalashning strategik yo‘li hisoblanadi.

Dolzarlilik shundan iboratki, bolalarning sog‘lom turmush odatlarini erta yoshdan shakllantirish ularning kelajakdagi hayot sifatini belgilaydi, jismoniy va ruhiy barqaror, faol va ijtimoiy jihatdan moslashgan shaxslar sifatida yetishishiga yordam beradi. Shu bois, maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yinlarni sog‘lom turmush tarzini shakllantirish vositasi sifatida tizimli ravishda joriy etish eng muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi.

Men, tarbiyachi sifatida, har kuni bolalar bilan olib borayotgan faoliyatimda shuni chuqur his qilamanki, o‘yin — bu bolaning hayoti, rivojlanishi va tarbiyasining eng muhim shaklidir. Aynan o‘yin orqali bola nafaqat atrof-muhitni o‘rganadi, balki sog‘lom hayot tarzining asoslarini ham o‘zlashtiradi. Shu boisdan, o‘yin faoliyati sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning tabiiy va samarali vositasi hisoblanadi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda o‘yinlar bolani faol harakatga, sog‘lom raqobatga, tozalik va gigiyenaga, to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik va ijobiy hissiyotlarga o‘rgatadi. O‘yin jarayonida bola o‘rganayotgan bilimlarini bevosita amalda qo‘llaydi, bu esa sog‘lom odatlarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Masalan, men mashg‘ulotlarda “Kimning qo‘li toza?”, “Gigiyena qahramonlari”, “Sog‘lom nonushta”, “Vitaminlar mamlakati”, “Quvnoq yuguruvchilar”, “Sog‘lom bola – baxtli bola” kabi o‘yinlardan foydalanaman.

Bunday o‘yinlar orqali bolalar gigiyenaning ahamiyatini, to‘g‘ri ovqatlanishning foydasini, harakatning sog‘liq uchun zarurligini o‘z tajribasida his etishadi.

O‘yinlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni shundaki, ular bola ongiga sog‘lomlik haqidagi tushunchalarni majburiy emas, balki tabiiy va zavqli tarzda singdiradi. Bola harakat jarayonida sog‘lom odatlarni o‘rganadi: yuguradi, sakraydi, muvozanatni saqlaydi, jamoada hamkorlik qiladi, gigiyena qoidalariga amal qiladi. Shu orqali u o‘z sog‘lig‘i uchun mas’uliyatni his etadi.

O‘yin faoliyatining afzalliklari sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- O‘yin bolalarda jismoniy faollikni oshiradi, yurak-qon tomir va mushak tizimini mustahkamlaydi;
- Gigiyenik odatlar (qo‘l yuvish, tish tozalash, kiyimni parvarish qilish) o‘yin orqali mustahkamlanadi;
- O‘yin davomida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom mahsulotlarni tanlash ko‘nikmalari shakllanadi;
- Bolalar jamoada o‘ynash orqali o‘zaro yordam, birdamlik, tartib-intizom va sog‘lom raqobatni o‘rganadilar;
- O‘yinlar bola psixikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, hissiy holatini barqarorlashtiradi va ijobiy kayfiyatni ta’minlaydi;
- O‘yin orqali bola harakat madaniyatini egallaydi, harakat koordinatsiyasi, chaqqonlik, epchillik, tezkorlik kabi sifatlar rivojlanadi.

O‘yin faoliyatining yana bir muhim jihati shundaki, u bolaning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini bir butun tarzda rivojlantiradi. Harakatli o‘yinlar bolalarning asab tizimini mustahkamlaydi, stressni kamaytiradi, diqqat va xotirani faollashtiradi. Shu orqali bola nafaqat sog‘lom tana, balki sog‘lom tafakkur egasiga aylanadi.

Tarbiyachi sifatida men har bir o‘yinni bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlayman. Har bir o‘yindan so‘ng bolalar bilan suhbat o‘tkazib, “Nima uchun gigiyena muhim?”, “Sog‘lom ovqatlanish bizga nima beradi?” kabi savollar orqali ularning fikrlash doirasini kengaytiraman. Shu tariqa, o‘yinlar nafaqat jismoniy, balki tarbiyaviy va ta’limiy vosita sifatida ham xizmat qiladi.

O‘yinlar yordamida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning yana bir afzalligi shundaki, bola sog‘lom hayotga oid qadriyatlarni ongli ravishda emas, amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Bu esa bilimlarning mustahkam va uzoq muddatli bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Shuni aytish mumkinki, o‘yinlar sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda eng tabiiy, samarali va bola uchun eng qulay vositadir. Ular bolaning jismoniy faolligini oshirib, gigiyenik, ovqatlanish, dam olish, ijtimoiy va emotsional

madaniyatini rivojlantiradi. O‘yin orqali bola sog‘lom hayot falsafasini o‘zlashtiradi, bu esa uning kelajakdagi sog‘lom, faol va baxtli shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Maqsad. Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish, gigiyena va to‘g‘ri ovqatlanish odatlarini egallash.

Vazifalar:

Bolalarda harakatni rivojlantirish va koordinatsiyani mustahkamlash.

Sog‘lom ovqatlanish va gigiyena qoidalarini o‘yin orqali o‘rgatish.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni, jamoada ishlashni va raqobatni rivojlantirish.

Kerakli vositalar:

Sport anjomlari: to‘p, halqa, konuslar, yostiqlar.

Gigiyena vositalari: sabun, qo‘l yuvish rasmlari, qog‘oz sochiqlar.

O‘yin kartochkalari: sog‘lom ovqatlar, meva va sabzavot rasmlari.

Chiroqlar, musiqiy qo‘shimchalar (motivatsiya uchun).

Mashg‘ulot rejasi:

1. Tayyorlov qismi (5–7 daqiqa)

Bolalar bilan salomlashish, dam olish mashqlari.

“Cho‘zilish va sakrash” o‘yini: bolalar qo‘l va oyoqlarini cho‘zib, o‘rindiqlar atrofida sakrashadi.

Maqsad: mushaklarni isitish va jismoniy faollikka tayyorlash.

2. Asosiy qism (20–25 daqiqa)

O‘yin 1: **“Topni tut”**

Bolalar maydonda to‘p bilan ishlashadi: topni uzatish, ushlash va yugurish.

Maqsad: koordinatsiya, tezkorlik va jismoniy chidamlilikni rivojlantirish.

O‘yin 2: **“Vitaminlar mamlakati”**

Rasmlar orqali meva va sabzavotlarni tanlash o‘yini.

Tarbiyachi savollar beradi: “Qaysi meva sog‘lom?” yoki “Qaysi ovqat kuch beradi?”

Maqsad: sog‘lom ovqatlanish odatlarini o‘rgatish.

O‘yin 3: **“Toza qo‘l – sog‘lom bola”**

Bolalar qo‘l yuvish qoidalarini o‘rganadilar.

Tarbiyachi qo‘l yuvish tartibini ko‘rsatadi, bolalar o‘z navbatida takrorlaydi.

Maqsad: gigiyena madaniyatini shakllantirish.

O‘yin 4: **“Sportchilar bellashuvi”**

Guruhlar bo‘lib, mini sport relslari, sakrash, yugurish va o‘yin topshiriqlarini bajarish.

Maqsad: jamoada ishlash, raqobatni sog‘lom qabul qilish va jismoniy faoliyatni rag‘batlantirish.

3. Yakuniy qism (5–7 daqiqa)

“Sog‘lom dam olish”: bolalar yostiq yoki gilam ustida tinchlanadi, chuqur nafas oladi.

Mashg‘ulot haqida qisqacha suhbat: bolalar nima o‘rgandi, qaysi o‘yin eng yoqdi, sog‘lom turmushning ahamiyati haqida fikr almashadi.

Tarbiyachi bolalarni rag‘batlantiradi, “Sog‘lom bola” diplomlari yoki stikerlar bilan taqdirlaydi.

Xulosa. Maktabgacha yosh — bu bolaning hayotiy odatlari, qiziqishlari va xulq-atvorini shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Shu yoshda egallangan sog‘lom turmush odatlari bolalar kelajakdagi hayotida ularning jismoniy chidamliligi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi maktabgacha ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylanadi.

O‘yinlar bolalarda sog‘lom turmush odatlarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘yin orqali bola jismoniy faoliyatni qiziqarli tarzda amalga oshiradi, me’yorida dam oladi, raqobatni o‘rganadi, sog‘lom ovqatlanish va gigiyena qoidalariga rioya qilishni tabiiy ravishda o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, o‘yinlar bolalarning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradi: jamoada ishlash, o‘zini tutish, me’yoriy xulq-atvorni egallash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jo‘rayeva M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda gigiyena madaniyatini shakllantirish metodikasi. — Toshkent, 2019-yil.
2. G‘afurova D., Qodirova N. Bolalar o‘yin faoliyatining nazariy asoslari. — Toshkent: “Ilm nuri”, 2022-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Bolalar sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha gigiyenik tavsiyalar to‘plami. — Toshkent, 2020-yil.
4. World Health Organization (WHO). Global Strategy on Diet, Physical Activity and Health. — Geneva, 2018.
5. UNICEF. Early Childhood Development and Healthy Lifestyle Education Toolkit. — New York, 2021

5–6 YOSHLI BOLALARDA SOG‘LOM OVQATLANISH HAQIDAGI BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH

Qizltepa tuman 17-DMTT direktor o‘rinbosari
Kamolova Shozoda Hamidovna
Tel.90.11-11-71

Annotatsiya. Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda bola organizmining jadal o‘sishi, aqliy, jismoniy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi sodir bo‘ladi. Aynan shu bosqichda bola turli odatlar, xulq-atvor me’yorlari hamda sog‘lom turmush tarziga oid bilimlarni o‘zlashtiradi. Shu sababli, bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, o‘sish, aqliy, jismoniy, hissiy va ijtimoiy rivojlanish, xulq-atvor me’yorlari, odatlar,

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”, shuningdek, Prezident qarorlari va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga qaratilgan dasturlar — barchasi bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini singdirish, ularning har tomonlama kamol topishiga yo‘naltirilgan.

So‘nggi yillarda bolalar orasida noto‘g‘ri ovqatlanish bilan bog‘liq muammolar — ortiqcha vazn, vitamin yetishmovchiligi, ovqat hazm qilish tizimi buzilishlari, shirinlik va gazaklarga haddan ortiq qiziqish holatlari ko‘paymoqda. Bularning sababi ko‘p jihatdan ota-onalarning va pedagoglarning bolalarga ovqatlanish madaniyatini to‘g‘ri singdirmasligiga bog‘liq. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish nafaqat gigiyenik, balki ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

5–6 yoshli bolalar faol, qiziquvchan va taqlidchan bo‘ladilar. Ular kattalar xatti-harakatini kuzatib, o‘z hayotiga tatbiq etadilar. Demak, sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish jarayonida tarbiyachilar va ota-onalar shaxsiy namuna ko‘rsatishlari, foydali ovqatlanish odatlarini bolalar bilan birgalikda bajarishlari, bu jarayonni o‘yin, tajriba va kuzatuvlar orqali tashkil etishlari zarur.

Sog‘lom ovqatlanish haqidagi bilimlar bolalarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- foydali mahsulotlarni tanlay olish;
- to‘g‘ri ovqatlanish tartibiga rioya qilish;

- gigiyena qoidalarini bilish va amal qilish;
- sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatda bo‘lish;
- mehnatsevarlik va mas’uliyat hissini rivojlantirish.

Sog‘lom ovqatlanish — bu faqatgina to‘g‘ri taom tanlash emas, balki ovqatlanish tartibini bilish, foydali va zararli mahsulotlarni farqlay olish, gigiyena qoidalariga rioya etish va tananing ehtiyojlariga ongli ravishda yondashishni anglatadi. Bolalarda bu tushunchani erta yoshdan shakllantirish ularning kelajakdagi hayot tarziga, sog‘lig‘iga va hatto aqliy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom ovqatlanish — bu bolaning to‘g‘ri jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ovqatlanish tartibi va madaniyatidir. Sog‘lom ovqatlanish deganda faqat ovqat iste’mol qilish emas, balki to‘g‘ri tanlangan, sifatli, foydali va muvozanatli mahsulotlar orqali bolaning organizmiga zarur energiya va ozuqa moddalarning yetkazilishini tushunamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sog‘lom ovqatlanishning asosiy maqsadi:

Bolaning sog‘lig‘ini mustahkamlash, immunitetini oshirish;

To‘g‘ri ovqatlanish odatlarini erta yoshdan shakllantirish;

Bolaning faol o‘yin, o‘qish va o‘sish jarayonlari uchun energiya bilan ta’minlash;

Sog‘lom ovqatlanishning asosiy tamoyillari: Muvozanatli ovqatlanish. Bola organizmi uchun oqsil, yog‘, uglevod, vitamin va mineral moddalarning me’yorda bo‘lishi zarur.

Oqsillar (go‘sht, sut, baliq, tuxum) – o‘sish va to‘qimalar tiklanishiga yordam beradi.

Vitaminlar (meva va sabzavotlar) – immunitetni mustahkamlaydi.

Uglevodlar (bo‘tqa, non, kartoshka) – energiya manbai.

Bolalar kuniga kamida 4 mahal (nonushta, tushlik, peshindan keyin ovqat va kechki ovqat) to‘liq ovqatlanishlari lozim. Bu tartib ularning hazm tizimini barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Bola iste’mol qiladigan taomlar toza, tabiiy, zararli qo‘shimchalarsiz bo‘lishi kerak. Saqlash muddati o‘tgan yoki gazli, rangli mahsulotlar sog‘liqqa zarar yetkazadi.

Bolalar ko‘rgan narsasini tez o‘zlashtiradi. Shuning uchun tarbiyachi va oshpazlar ovqatlanish vaqtida madaniyatli harakatlar, toza dasturxon, to‘g‘ri o‘tirish va ovqatni qadrlashni namoyish etishlari kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida sog‘lom ovqatlanishning o‘rni:

Maktabgacha ta’lim muassasalari bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning eng muhim bosqichidir. Aynan shu davrda bola foydali va zararli ovqatni ajrata olishni, gigiyena qoidalariga amal qilishni o‘rganadi.

Mashg‘ulotlarda sog‘lom ovqatlanish mavzusi turli faoliyatlar orqali o‘rgatiladi:

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida “Foydali mahsulotlar”, “Mevalar do‘koni” kabi mavzularda suhbatlar o‘tkaziladi;

Tasviriy faoliyatda bolalar sabzavot va mevalarning rasmini chizadilar;

O‘yin faoliyatida “Oshpaz bo‘laylik”, “Vitaminlar dunyosi”, “Foydali va zararli mahsulotlar” kabi didaktik o‘yinlar tashkil etiladi;

Amaliy mashg‘ulotlarda bolalar salat tayyorlash, mevalarni to‘g‘ri tanlash va yuvish qoidalarini o‘rganadilar.

Bu mashg‘ulotlar nafaqat bolalarga foydali bilim beradi, balki ularda mustaqillik, mas’uliyat, estetik did va gigiyenik madaniyatni ham rivojlantiradi.

Tarbiyachi bolaga sog‘lom ovqatlanishning mohiyatini oddiy, hayotiy misollar orqali tushuntirishi lozim. Masalan:

“Sabzi yeygan bola ko‘rishi yaxshi bo‘ladi”,

“Sut ichgan bola suyaklari mustahkam bo‘ladi”,

“Gazli ichimlik tishlarni buzadi” kabi izohlar orqali bolalar ongida amaliy bog‘lanish shakllanadi.

Tarbiyachi bolaning kundalik ovqatlanish odatlariga e’tibor qaratib, sog‘lom tanlov qilishni maqtov va rag‘bat orqali mustahkamlab borishi kerak.

5–6 yoshli bola – bu faol harakatda bo‘ladigan, qiziquvchan, o‘rganishga chanqoq davrda turgan kichik insondir. Shu yoshda bolaning organizmi jadal o‘sadi, suyaklari mustahkamlanadi, mushaklari rivojlanadi, miya faoliyati faollashadi. Shuning uchun bu davrda bolalarning to‘g‘ri ovqatlanishi, yetarli dam olishi, harakatlanishi va gigiyena qoidalariga amal qilishi juda muhimdir.

Fiziologik ehtiyoj deganda — bolaning sog‘lom yashashi, o‘sishi va rivojlanishi uchun tanasiga kerak bo‘lgan tabiiy zaruratlar tushuniladi. Ular quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Oziqlanish ehtiyoji - 5–6 yoshli bolalar juda ko‘p energiya sarflaydilar: yuguradilar, o‘ynaydilar, o‘rganadilar. Shuning uchun ularning tanasi energiyani tezda yo‘qotadi va uni to‘ldirish uchun to‘yimli, foydali ovqat kerak bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar kuniga kamida 4 mahal to‘liq ovqatlanishlari zarur:

Nonushta – organizmni uyg‘otadi, kun davomida faol bo‘lishga yordam beradi;

Tushlik – asosiy ovqat, unda sho‘rva, go‘sht, sabzavot bo‘lishi kerak;

Peshindan keyin ovqat (gazak) – meva, sut, qatiq yoki yogurt kabi yengil taomlar;

Kechki ovqat – yengil, ammo to‘yimli bo‘lishi lozim.

Bolaning ovqatida oqsil, yog‘, uglevod, vitamin va minerallar yetarli bo‘lishi kerak. Go‘sht, sut, sabzavot, meva, donli mahsulotlar – bola tanasiga kerakli barcha moddalarning manbaidir. Shirinliklar, chips, gazli ichimliklarni esa iloji boricha cheklash lozim.

2. Suvga bo‘lgan ehtiyoj - Bola tanasining katta qismi suvdan iborat. 5–6 yoshdagi bola faol harakatda bo‘lgani uchun suvga bo‘lgan ehtiyoji kattalarnikidan ham ko‘proq bo‘ladi. Bola kun davomida kamida 1–1,5 litr suv ichishi kerak. Shirin ichimliklar, gazli suvlar yoki rangli sharbatlar tanani tozalamaydi, aksincha zarar yetkazishi mumkin. Eng foydalisi — oddiy toza suv yoki tabiiy meva sharbatidir. Suv ichish odatini bola bog‘chada ham, uyda ham shakllantirib borish kerak.

3. Uyqu va dam olish ehtiyoji - 5–6 yoshli bola kun davomida juda faol bo‘ladi, shuning uchun uning tanasi dam olishga ehtiyoj sezadi. Bu yoshda bolalar kechasi o‘rtacha 10–11 soat, kunduzi esa 1–1,5 soat uxlashlari kerak. Uyqu bola tanasini tiklaydi, nerv tizimini tinchlantiradi, o‘qish va o‘rganish jarayonini yaxshilaydi. Bola yetarli uxlamasa, u injiq, diqqatini jamlay olmaydigan bo‘lib qoladi. Shu sababli, tarbiyachi va ota-onalar bola uchun tinch, qulay, toza muhit yaratishlari kerak.

4. Harakat (faollik) ehtiyoji - Bu yoshdagi bolalar o‘tirib o‘rganishdan ko‘ra harakatda o‘rganadilar. Yugurish, sakrash, o‘yinlar, jismoniy mashqlar orqali ularning suyaklari, mushaklari va yurak tizimi mustahkamlanadi. Shu sababli har kuni jismoniy mashg‘ulotlar, ochiq havoda sayr va harakatli o‘yinlar tashkil etish zarur. Harakat bolaga nafaqat sog‘lomlik, balki quvnoqlik, ijobiy kayfiyat ham beradi.

Harakat yetishmasa, bola sustlashadi, ishtahasi pasayadi va diqqatini jamlay olmaydi. Shuning uchun “harakat – bu sog‘lomlik” degan tamoyil doimo esda bo‘lishi kerak.

5. Tozalik va gigiyena ehtiyoji - 5–6 yoshli bolalar gigiyena qoidalarini endigina o‘rganayotgan davrda bo‘ladilar. Shu sababli ularni qo‘l yuvish, tish tozalash, tirnoqlarni parvarish qilish, toza kiyinish, toza suvdan foydalanish odatlariga asta-sekin o‘rgatish kerak. Har kuni ovqatdan oldin va keyin, hojatxonadan chiqqach qo‘l yuvish odatiga rioya qilish bola sog‘lig‘ini asraydi. Tarbiyachi har kuni o‘zi namuna bo‘lib ko‘rsatishi lozim, chunki bolalar kattalarga taqlid qilib o‘rganadilar.

6. Muhabbat va e’tiborga ehtiyoj - Bu ham bola fiziologik ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Chunki mehr, iliq so‘z, maqtov, qo‘llab-quvvatlash bolaning ruhiy holatini yaxshilaydi, ishtahasini ochadi, uyqu va kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyachi bolaga mehr bilan yondashsa, bola o‘zini xavfsiz his qiladi, sog‘lom odatlarni tezroq o‘zlashtiradi.

AMALIY TAVSIYALAR

Mavzu: Sog‘lom ovqatlanish – sog‘lom hayot garovi

Yosh guruhi: 5–6 yoshli bolalar

Mashg‘ulot turi: Nutq o‘stirish bilan integratsiyalashgan ekologik va gigiyenik tarbiya mashg‘uloti

Mashg‘ulot shakli: Suhbat, o‘yin, kuzatuv, tajriba

Mashg‘ulot davomiyligi: 25–30 daqiqa

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: Bolalarda sog‘lom ovqatlanish haqida dastlabki bilimlarni shakllantirish; Foydali va zararli mahsulotlarni farqlash ko‘nikmasini rivojlantirish; Sog‘lom ovqatlanish tartibi haqida tasavvur berish.

Tarbiyaviy maqsad: Bolalarda to‘g‘ri ovqatlanishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; Tozalikka, gigiyenaga, mehnatsevarlikka o‘rgatish; Sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan mas’uliyatni oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Nutqni, tafakkurni, kuzatuvchanlikni, mustaqil fikrlashni rivojlantirish; Rang, shakl, ta’m va hidsiz farqlash qobiliyatini mustahkamlash; Guruhda hamkorlikda ishlashni o‘rgatish.

Jihozlar va ko‘rgazmali vositalar:

- “Foydali va zararli mahsulotlar” rasmlari;
- Sabzavot va mevalar (haqiqiy yoki sun’iy);
- “Vitaminlar mamlakati” xaritasi yoki plakati;
- “To‘g‘ri tanlov” o‘yini uchun savat va kartochkalar;
- Multimediali taqdimot yoki video lavha (“Sog‘lom ovqatlanamiz!”);
- Qo‘l yuvish uchun gigiyena vositalari (sovun, sochiq, suv).

Mashg‘ulotning borishi:

1-bosqich. Tashkiliy qism (3–5 daqiqa)

Tarbiyachi: Assalomu alaykum, bolajonlar! Bugun biz sog‘lom bo‘lish sirlarini o‘rganamiz. Sizlarga bir savolim bor: **“Sog‘lom bo‘lish uchun nima qilish kerak?”**

Bolalar javoblari:

— Toza yurish!

— Sport bilan shug‘ullanish!
— Meva yeyish!
— Qo‘l yuvish!

Tarbiyachi: Ajoyib! Demak, bugun biz sog‘lom bo‘lishning eng muhim yo‘li — **sog‘lom ovqatlanish** haqida suhbatlashamiz.

2-bosqich. Asosiy qism (15–20 daqiqa)

Tarbiyachi: Bolajonlar, sizlar bilasizmi, har bir ovqat bizning tanamizga kuch, sog‘liq va quvvat beradi. Ammo hamma ovqat ham foydali emas. Bugun biz “Vitaminlar mamlakati”ga sayohat qilamiz.

(Plakat yoki xarita ko‘rsatiladi)

— Mana bu mamlakatda mevalar, sabzavotlar, sut mahsulotlari yashaydi. Ular bizga vitamin, kuch, sog‘liq beradi. Kelinglar, ularni tanib olaylik.

1-o‘yin: “Vitaminlarni tanib olaylik”

Bolalar stol ustidagi meva va sabzavotlarni nomlaydi, ularning foydasini aytadi.

Masalan:

- **Olma** – yurak uchun foydali;
- **Sabzi** – ko‘zni mustahkamlaydi;
- **Sut** – suyaklarni mustahkamlaydi;
- **Non** – energiya beradi.

Tarbiyachi:

— Juda yaxshi! Endi boshqa mamlakat — **“Shirinliklar oroli”** ga qaraymiz. Bu yerda chips, gazli ichimlik, shokolad yashaydi. Ular ko‘p yeyilsa, tishlar og‘riyapti, qorin og‘riyapti. Shuning uchun ularni oz miqdorda yeyish kerak.

2-o‘yin:“To‘g‘ri tanlov”

Bolalar oldida ikkita savat turadi:

- “Foydali taomlar” savati
- “Zararli taomlar” savati

Bolalar kartochkalarni mos savatga joylashtiradilar (masalan: olma – foydali, chips – zararli).

Tarbiyachi: Ajoyib, sizlar to‘g‘ri tanlov qildingizlar! Endi men sizlarga kichik tajriba ko‘rsataman.

Tajriba: “Toza suv va shakarli ichimlik”
Ikki idishdagi suvdan biriga shakarli ichimlik qo‘shiladi.
Bolalar suv rangining o‘zgarishini kuzatadilar.

Tarbiyachi tushuntiradi: Ko‘rdingizmi, bolajonlar, shakarli ichimlik tanamizda ham shunday o‘zgarish qiladi, bizni charchatadi. Shuning uchun oddiy suv ichish eng foydalidir.

3-bosqich. Gigiyena mashg‘uloti (5 daqiqa)

Tarbiyachi: Ovqatdan oldin nima qilishimiz kerak?

Bolalar: Qo‘l yuvish!

Tarbiyachi: To‘g‘ri! Kelinglar, qo‘llarimizni to‘g‘ri yuvishni ko‘rsatamiz.

(Amaliy ko‘rsatma beriladi: qo‘l yuvish bosqichlari musiqali tarzda bajariladi.)

Tarbiyachi xulosa qiladi:

— Har kuni ovqatdan oldin qo‘lni yuvish, foydali taomlarni tanlash va shirinlikni me’yorda iste’mol qilish – sog‘lom bo‘lishning asosidir.

4-bosqich. Mustahkamlash va yakuniy bosqich (5 daqiqa)

Tarbiyachi: Endi sizlarga kichik topshiriq: Men aytgan mahsulot foydalimi yoki zararli, shuni ayting.

Masalan:

- ✓ **Olma** – foydali
- ✓ **Chips** – zararli
- ✓ **Sabzi** – foydali
- ✓ **Gazli ichimlik** – zararli

(Bolalar javob berishadi)

Tarbiyachi yakunlaydi: Sizlar bugun juda aqlli bolalar bo‘ldingizlar. Endi har safar ovqat tanlaganda “Bu foydalimi?” deb o‘ylab ko‘ring. Sog‘lom ovqat tanlagan bola – baxtli va sog‘lom bola!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismoilova, D., & Qosimova, M. Maktabgacha yoshdagi bolalar gigiyenasi va sog‘lom turmush tarzi asoslari. — Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2021.
2. To‘xtayeva, G. Bolalar fiziologiyasi va gigiyenasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
3. Madaminova, M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi va sog‘lom rivojlanish omillari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. Abduazizova, S. Sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda tarbiyachining roli. — Toshkent: Barkamol avlod, 2021.
5. Xolmatova, N. Maktabgacha ta’limda ekologik va sog‘lom turmush tarzi tarbiyasi. — Toshkent: TDPU, 2020.
6. Rahmonova, M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirishda ota-onalar bilan hamkorlikning o‘rni.” — Maktabgacha ta’lim jurnali, 2022, №4.
7. Jo‘rayeva, D. “Bolalarda to‘g‘ri ovqatlanish odatlarini shakllantirish metodlari.” — Pedagogik mahorat ilmiy-amaliy jurnal, 2023, №2.

8. Karimova, S. “Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar salomatligini mustahkamlash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar.” — Bolalar sog‘lomligi va tarbiyasi, 2021, №5.

9. Saidova, G. “O‘yin faoliyati orqali sog‘lom ovqatlanish tushunchasini shakllantirish.” — Ta’limda innovatsiyalar, 2023, №3.

MULTIFILIMLARNI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA SALBIY VA IJOBIY TA’SIRI

Navoiy innovatsiyalar universiteti
dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarga multfilmlarni bolalar hayotiga salbiy va ijobiy ta’siri tahlil qilingan va nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘z: bola, multfilmlar, animatsiya, maktabgacha yosh, bolaning intellektual va hissiy rivojlanishi.

Аннотация. В данной статье анализируется и теоретически обосновывается влияние современных мультфильмов на жизнь детей дошкольного возраста.

Ключевое слово: ребенок, мультфильмы, анимация, дошкольный возраст, интеллектуальное и эмоциональное развитие ребенка.

Annotation. This article analyzes and theoretically substantiates the influence of modern cartoons on children's lives on preschool children.

Keyword: child, cartoons, animation, preschool age, intellectual and emotional development of the child.

Jamiyatda keng iste’mol vositasiga aylangan gadjetlar bolalar tomonidan ma’lumot olish uchun faol foydalaniladi, ammo qabul qilinayotgan axborot sifati nazoratsiz qolmoqda. Ko‘p hollarda bola o‘zi uchun foydali va kerakli ma’lumotlarni mustaqil ravishda taqsimlay olmaydi, shuning uchun animatsiya, kinematografiya va tasviriy san’atning munosib asarlari ko‘pincha chetda qolib zamonaviy san’atning ayrim salbiy ta’sirga ega namunalari yosh tomoshabinlar qo‘liga tushib qolishi hech gap emas. Ba’zi animatsion filmlarda jismoniy, aqliy va salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’lumotlar mavjudligi to‘g‘risida ko‘p aytilib kelinmoqda. Zero, yosh tomoshabin katta dengiz kabi insoniyatni o‘z oqimida oqizayotgan ommaviy-axborot, virtual tizimdan o‘zi uchun qiziqarli, kerakli va eng

muhimi, foydali ma’lumotlarni tanlay olish uchun zarur bilimga, hayotiy tajribaga ega emas. Bolalarga ko‘makchi sifatida maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiyachi, ota-onalarning yordami juda zarurdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatining yomonlashuvi bugungi kunda jamiyatimizdagi eng keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Bolalarda tajovuzkor ko‘rinishlar tobora ko‘proq kuzatilayotgani, bundan bolalar, pedagoglar, ota-onalar va jamiyat ham azob chekayotgani ayniqsa tashvishlidir. Kundalik hayotdagi stresslar, an’anaviy oila tuzilmasining parchalanishi, tarbiyadagi xatolar, televizordagi zo‘ravonlikning ko‘pligi - bu va boshqa sabablar bolalarda tashvish va tajovuzkorlikning kuchayishiga va ularning hissiy holatining yomonlashishiga olib keladi. Bazi oilalarda ko‘pincha bolaning televizorda nima tomosha qilishiga, qanday kompyuter va telefon o‘yinlarini o‘ynashiga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Ko‘pincha bu paytlarda bola o‘zini o‘zi shu muhitga moslashtiradi, bolaning o‘zini o‘zi anglashi isloh qilinadi, shuning uchun bolalar eng ta’sirchan va tajribasiz tomoshabinlar sifatida eng katta ta’sirga ega bo‘lishadi. Shuningdek, har bir oiladagi tarbiya xususiyatlarini tahlil qilishdan ko‘ra, multfilmlarning salbiy ta’sirining oldini olish bo‘yicha har qanday chora-tadbirlarni muhokama qilish haqiqatga yaqinroq bo‘ladi, bu esa tadqiqotimizning dolzarbligini asoslaydi. Hozirgi kunda animatsiyani bola ruhiyatiga ta’sirining axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, shaxsni shakllantirish, mafkuraviy qarashlarni rivolantirish, o‘qitishda multfilmlardan foydalanish kabi jihatlari o‘rganilmoqda.

Multfilmlar bolaning intellektual va hissiy rivojlanishida faol rol o‘ynaydi. Bolalar multfilmlarni ko‘rish bilan birga, yaxshilik va go‘zallikni qadrlashni, yovuzlik va zo‘ravonlikni qoralashni, fantastikani haqiqatdan ajrata olishni va odamlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni boshqarishni o‘rgatadi. Biroq, multfilmlar bolaning oilasi va tengdoshlari bilan haqiqiy muloqotini almashtirmasligi kerak, bundan tashqari, uzoq vaqt tomosha qilish uning sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin.

A. Banduraning 20-asrning 60-yillarida hamkasblari bilan birgalikda olib borgan tadqiqotlari shuni isbotladiki, bolalar ko‘rgan televizion zo‘ravonlik sahnalari ularning tajovuzkorligini oshirib, xarakterdagi yaxshi fazilatlarini shakllantirmaydi. Bundan tashqari, 7 yoshli bolalar tomonidan tajovuzkor teledasturlarni muntazam ravishda ko‘rish ularning 30 yoshgacha bo‘lgan og‘ir jinoiy huquqbuzarliklarning ijrochisi ekanligi bildiradi.

Muxina V.S. ta’kidlaydi: maktabgacha yoshdagi ba’zi bolalar (ayniqsa, o‘g‘il bolalar) xatti-harakatlarning salbiy standartini ichga yo‘naltiradi. O‘zlarining haqiqiy harakatlarida ular ijtimoiy kutishlarga muvofiq harakat qilishadi, lekin ayni

paytda ular ko‘pincha odamlar (yoki qahramonlar) bilan hissiy jihatdan o‘xshashdirlar. Xatti-harakatlarning salbiy shakllari bilan ajralib turadi.[7]

Afsuski, bugungi kunda ko‘rsatilayotgan ko‘plab multfilmlar, ayniqsa, xorijiyda ishlab chiqarilgan ko‘pgina zamonaviy multiflimlar psixologik va pedagogik jihatlarga javob bermaydi bu esa bola uchun xavfli oqibatlarni olib kelishi mumkin. Yovuzlik ruxidagi multiflimlarda kimnidir xafa qilish qiziq, yomonlik hamma narsaga qodir bo‘lib, yaxshilik ustidan g‘alaba qozonadi, boshqalarga yordam berish va rahm-shafqatni his qilish qobiliyati yo‘qoladi. Afsuski ko‘pgina zamonaviy multfilmlar maqsadli ravishda shafqatsizlikni shakllantiradi va bolaning ruhiyatini buzadi.

Zamonaviy multfilmlarda bir qator kamchiliklarni ajratish mumkin, bu esa bola ruhiyatining noto‘g‘ri shakllanishi va rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

- ✓ **Ekranda tajovuzkorlik va zo‘ravonlik bo‘lishi**. Qon, qotillik, o‘lim sifatlarining namoyishi. Bosh qahramon odatda tajovuzkor va u boshqalarga zarar etkazishi mumkin. Bola o‘z hayotida multfilm shafqatsizliklariga taqlid qilishi mumkin.
- ✓ **To‘liq jazosizlik**. Yomon ish jazolanmaydi. Bola salbiy oqibatlarga olib keladigan ishlarga ruxsat berishning stereotipini shakllantirishi mumkin.
- ✓ **Yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlarning buzilishi.** Yaxshilik va yomonlik o‘rtasida aniq chegaralar yo‘q. Ba’zida hech qanday yuzi yo‘q va hamma narsa begunoh individualizmga o‘xshaydi. Xatto ijobiy belgi yaxshi maqsadlar uchun yomon ishlarni amalga oshirishi mumkin.

Hozir zamonaviy multfilmlarda hamma narsani kulgili va hamma narsani masxara qilinadi. Jiddiylik va mas’uliyatning yo‘qligi hayotga nisbatan bir xil munosabatni anglatadi. Albatta, boshqa ekstremal va hazilni butunlay tozalash shart emas. Bolaning normal rivojlanishi uchun, bizning fikrimizcha, multfilmlar quyidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- ➢ atrofdagi tabiatga nisbatan yaxshi, g‘amxo‘rlik: hayvonlar, o‘simliklar, boshqa odamlar.
- ➢ itoat kattalarga hurmat. Biz so‘zsiz itoat qilish haqida gapirmayapmiz, chunki kattalar ham yanglishganda va bolalar ularni tuzatishi mumkin.
- ➢ alkogol va sigaret va boshqa bog‘liqliksiz turmush tarzi. Sog‘lom va sog‘lom turmush tarzining jozibadorligi. Bu shuningdek, alkogol va sigaretlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan holatlarga ham tegishli, ammo u metaforativ yoki hazillar, maslahatlar bilan ko‘rsatilgan.

[7] l-gallery.ru/uz/shtukaturka/vliyanie-multiplikacionnyh-filmov-na-emocionalnoe-sostoyanie/

- kitoblar, bilimlar, o‘zini rivojlantirish va ularning insoniy xususiyatlarini yaxshilashga qiziqish. Ushbu bilimlar vaziyatni yaxshilash va hayot muammolarini hal qilishga olib keladiganligini ko‘rsatish kerak.
- uyat va vijdon. Vijdon tug‘ma diniy tuyg‘u. Uyatsiz va vijdonsiz sahnalarni man qilish.
- yaxshi va yomonlik, yaxshi va yomon xatti-harakatlarni aniqlash. Bolalar o‘zlarining ruhiyatiga kiradigan narsalarga juda sezgir. Multfilmlarda yomonlik jazolanishi kerak. Ijobiy tugatish. G‘alaba uchun eng yaxshi usul - bu yomonlarga chin dildan tavba qilishga yordam berish - harakatlarni va fikrlarni qayta ko‘rib chiqish va xatti-harakatlarni o‘zgartirish.
- qahramonlik. Zamonaviy multfilmlarda, qoida tariqasida, boshqalarni bo‘ysundiradigan va butun jamoani tepaga olib boradigan bitta “qahramon” (etakchi) mavjud.

Shuni aytishimiz mumkinki, multfilm tomosha qilish jarayonlarida qahramonlarning xususiyatlari bolalarga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ularni tomosha qilish vaqtini nazorat qilib, bolani tashqariga chiqish va o‘ynashga undash orqali siz farzandlaringizni sog‘lom va baxtliroq qilishingiz mumkin. Ushbu maslahatlarga amal qilish, albatta, multfilmlarning bolaning rivojlanishi va xulq-atvoriga salbiy ta’siridan qochishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гундарева И. О последствиях восприятия телевизионной информации //Восп. шк. - 2005. - №9. - С.45-54.
2. Куниченко, О.В. Мультипликационный фильм как средство нрав-ственного воспитания детей старшего дошкольного возраста / О.В. Куниче н-ко // Известия ВГСПУ. Серия «Педагогические науки». - № 7(82). – 2013.
3. Левшина, И.С. Воспитание школьников средствами художе-ственного кино: автореф.дис. канд. пед . наук: 13.00.01 / И.С. Левшина. –М, 1975.
4. Муниципальное общеобразовательное учреждение средняя общеобразовательная школа № 26 г.Рыбинска Научно-исследовательская работа на тему «Создание мультфильма». Рыбинск, 2017г.
5. Абраменкова В. Д., Богатырева А. С. Дети и телевизионный экран. // Восп. шк.- 2006.
6. Большой энциклопедический словарь. М.: науч. издание «Большая Российская энциклопедия», 1998.
7. Вавилова И. М. Развитие эмоций и нравственных чувств ребенка дошкольного возраста // APRIORI. Серия: Гуманитарные науки. – 2013.

8. Глушкова Е. Телевидение и здоровье детей. // Дошк. восп. - 1989. - №4.
9. Гришеева Н.П. Социально-психологические аспекты влияния телевидения на дошкольника. // Нач. шк. Плюс до и после. - 2001. - №8.
10. Гундарева И. О последствиях восприятия телевизионной информации //Восп. шк. - 2005. - №9. - С.45-54.
11. l-gallery.ru/uz/shtukaturka/vliyanie-multiplikacionnyh-filmov-na-emocionalnoe-sostoyanie/
12. l-gallery.ru/uz/shtukaturka/vliyanie-multiplikacionnyh-filmov-na-emocionalnoe-sostoyanie/
13. www.ziyo.uz.com.
14. www.pedagog.uz
15. www.arxiv.uz
16. www.ziyonet.uz
17. kun.uz.
18. O‘zbekiston milliy axborot agentligi

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAVSIYALAR BERISH

Namangan viloyati Davlatobod tumani 23-sonli Davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktori Nasiba Odilovna

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda pedagogik innovatsiyalar, raqamli vositalar va interaktiv metodlarning bolalar o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Mavjud tadqiqotlar ko'plab foydali natijalar berishga qaramasdan, innovatsion texnologiyalarning uzoq muddatli ta'sirini o'rganishga doir bilim bo'shlig‘i mavjud. Tadqiqot aralash metodlar yondashuvi asosida amalga oshirilgan bo'lib, o'qituvchilar bilan intervyular va o'quv jarayonidagi kuzatuvlar orqali ma'lumotlar to'plandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar o'qitish samaradorligini oshirib, bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil bo'lishi mumkin. Biroq, o'qituvchilarning texnologiyalarga tayyorgarlik darajasi va muassasalarda resurslar yetishmasligi kabi to'siqlar mavjud. Tadqiqot innovatsion

texnologiyalarning maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilishining zarurligini ta'kidlaydi va kelajakdagi tadqiqotlarni uzoq muddatli ta'sirlar va samaradorlikni o'rganishga yo'naltirishni tavsiya qiladi.

Kalit so’zlar: innovatsion texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy ko'nikmalar, pedagogik innovatsiyalar, bolalar rivojlanishi, o'qituvchilar tayyorligi.

Abstract

This study investigates the role of innovative technologies in developing social skills among children in preschool education. It analyzes the impact of pedagogical innovations, digital tools, and interactive methods in fostering communication and collaboration among children. Although previous studies have provided valuable insights, there is a knowledge gap regarding the long-term impact of these technologies. The research was conducted using a mixed-method approach, gathering data through teacher interviews and classroom observations. The findings indicate that innovative technologies can enhance teaching effectiveness and play a significant role in developing children's social skills. However, barriers such as teachers' preparedness and resource limitations in institutions remain challenges. The study emphasizes the need for the integration of innovative technologies into preschool education and suggests that future research should focus on the long-term effects and effectiveness of these methods.

Keywords: innovative technologies, preschool education, social skills, pedagogical innovations, child development, teacher preparedness.

Аннотация

Данное исследование посвящено роли инновационных технологий в развитии социальных навыков у детей в дошкольном образовании. Изучается влияние педагогических инноваций, цифровых инструментов и интерактивных методов на развитие коммуникации и сотрудничества между детьми. Несмотря на то, что предыдущие исследования дали полезные результаты, существует пробел в знаниях относительно долгосрочного воздействия этих технологий. Исследование проводилось с использованием смешанной методологии, сбор данных осуществлялся через интервью с педагогами и наблюдения в классе. Результаты показывают, что инновационные технологии могут повысить эффективность преподавания и сыграть важную роль в развитии социальных навыков детей. Однако остаются проблемы, такие как подготовленность педагогов и ограниченные ресурсы в учреждениях. Исследование подчеркивает необходимость интеграции инновационных технологий в дошкольное образование и рекомендует будущие исследования, направленные на изучение долгосрочных эффектов и эффективности этих методов.

Ключевые слова: инновационные технологии, дошкольное образование, социальные навыки, педагогические инновации, развитие детей, подготовка педагогов.

Kirish

Maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion usullari bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biridir. Maktabgacha ta'lim bolalar uchun kelajakdagi ijtimoiy hayotga tayyorlanishning asosiy bosqichi bo'lib, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi[1,17-b]. O'qituvchilar va tarbiyachilar o'z pedagogik faoliyatlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishni kun tartibiga olib chiqish orqali o'zlarining metodik yondashuvlarini rivojlantirishga harakat qilishadi. Zamonaviy pedagogika va ta'lim metodologiyasi, ayniqsa maktabgacha ta'lim tizimida, innovatsiyalarni qo'llash orqali bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini samarali shakllantirishga erishish mumkin[2,13-b]. .

Maktabgacha ta'limdagi innovatsiyalarni tahlil qilishda, birinchidan, bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini inobatga olish zarur. Ilgari maktabgacha ta'lim tizimida o'quv metodlari ko'pincha an'anaviy yondashuvlarga asoslangan bo'lsa, bugungi kunda yangi texnologiyalar va interaktiv o'quv metodikalari bu jarayonni sezilarli darajada o'zgartirishga yordam beradi[3,9-b]. . Ushbu o'zgarishlar, albatta, bolalarning o'zaro muloqotda bo'lish, jamiyatga integratsiya qilish va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning asosiy nazariy asoslari va yondashuvlari ijtimoiy o'qitish, bolalar psixologiyasi, va pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga oladi[4,15-b]. . Avvalgi tadqiqotlar, maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarning samaradorligini ko'rsatgan bo'lsa-da, bu usullarni barcha bolalar guruhlariga moslashtirishning qiyinchiliklari va imkoniyatlari haqida ma'lumotlar cheklangan. Shunday qilib, bu sohada yangi bilimlar va yondashuvlarga ehtiyoj bor[5,21-b]. .

Maqsadli metodologiya, asosan, tajriba asosida o‘tkazilgan so‘rovlar, kuzatuvlar va pedagogik tajriba orqali maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ta’sirini o‘rganishni nazarda tutadi. Bu tadqiqot, o‘quv jarayonida innovatsiyalarni qo‘llashning bolalar ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiladi va kelajakda pedagogik amaliyotlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalarni taqdim etadi[6,8-b]. .

Ushbu tadqiqot natijalari, pedagogik texnologiyalar va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun innovatsion usullarni qo'llashning ta'sirini namoyon etadi. Natijalar maktabgacha ta'lim tizimining innovatsion tizimlarga bo'lgan ehtiyojini va o'quv jarayonidagi yangi texnologiyalarning samarali

qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, ta'limning sifatini yaxshilash, bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi[7,18-b] .

Metodologiya

Ushbu tadqiqot maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologiyasi sifatida aralash metodlar yondashuvi tanlangan[8,22-b]. . Dastlabki bosqichda, maktabgacha ta'lim tizimida mavjud bo'lgan innovatsion texnologiyalar haqida ilgari o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliyotchilarning fikrlari tahlil qilindi. Bunda, mavjud metodikalar, pedagogik texnologiyalar, hamda innovatsion ta'lim dasturlari va ular tomonidan keltirilgan natijalar o'rganildi. Tadqiqotda keyingi bosqichda maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va tarbiyachilar bilan intervyular o‘tkazildi. Intervyular orqali o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga qo‘llash borasidagi tajribalari va qiyinchiliklari o'rganildi. Bundan tashqari, tajribali tarbiyachilar va o'qituvchilarning innovatsion usullarni qanday qo‘llashlari, ularning bolalar bilan ishlashdagi samaradorligi haqida ma'lumotlar yig‘ildi[9,11-b]. . So'rovlar yordamida, maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatishi o‘rganildi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda, mavjud amaliyotlar va yangi yondashuvlarning samaradorligi hamda bolalar rivojlanishiga ta'siri ko‘rsatilgan. Ushbu metodologiya, maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llashning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlashga yordam berdi.

Natijalar va Muhokama

Ushbu tadqiqot natijalari, maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv o‘rganish, raqamli vositalar va loyiha asosidagi faoliyatlar orqali maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar bolalarning muloqot, hamkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashga muvaffaq bo'lishdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion metodlar nafaqat bolalarning aqliy rivojlanishiga, balki ularning hissiy va ijtimoiy shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O‘quv jarayonida ta'lim o'yinlari va multimedia taqdimotlari kabi texnologiyalardan foydalanish bolalarning e'tiborini jalb qilish va yanada qiziqarli o‘rganish muhiti yaratishda samarali bo'ldi.

Tadqiqotda keltirilgan asosiy natijalardan biri, o'qituvchilarning tayyorgarligi va doimiy kasbiy rivojlanish zarurligidir. Innovatsion

texnologiyalarni o‘quv jarayonida samarali qo‘llashni o‘rgangan o'qituvchilar, bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda yanada muvaffaqiyatli bo'lishdi. Biroq, tadqiqotda ushbu texnologiyalarni keng miqyosda joriy etishga qaratilgan sezilarli to'siqlar ham aniqlangan. Ushbu to'siqlar orasida o'qituvchilarni etarli darajada tayyorlash, ba'zi maktabgacha ta'lim muassasalarida resurslarning yetishmasligi va an'anaviy o‘qitish usullariga odatlangan o'qituvchilarda innovatsion metodlarga qarshilik ko'rsatish muammolari mavjud. Bu natijalar, maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, o'qituvchilarning texnologik malakalarini va muassasa tomonidan ko'rsatiladigan qo‘llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotda aniqlangan bilim bo'shlig‘i, innovatsion metodlarning bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi uzoq muddatli ta'sirini o‘rganishni talab qiladi. Hozirda qisqa muddatli foydalar yaxshi hujjatlashtirilgan bo‘lsa-da, bu texnologiyalar bolalar o‘sib ulg‘aygan sari ijtimoiy xulq-atvorlariga qanday ta'sir ko‘rsatishini ko‘proq tadqiq qilish zarur. Bundan tashqari, pedagogik nazariyalar va amaliyotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqurroq o‘rganish zarur. Bu esa, turli madaniy va ta'lim muhitlariga mos innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Praktik jihatdan, ushbu tadqiqot maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasini yaxshilash zarurligini ko'rsatadi, bunda barcha o'qituvchilar zamonaviy texnologik vositalar va ularga oid o'qitish metodikalariga ega bo‘lishlari kerak. Ta'lim siyosatlari, o'qituvchilarni malakasini oshirishga yo'naltirilgan doimiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilishi lozim. Bundan tashqari, innovatsion o'qitish amaliyotlarini baholash uchun yanada tizimli yondashuvni ishlab chiqish zarur, shunda bu usullar ta'lim standartlariga javob beradi va bolalarning aniq ehtiyojlarini qondiradi.

Keyingi tadqiqotlar maktabgacha ta'lim muassasalarida qo‘llaniladigan texnologik vositalarning samaradorligini, ayniqsa bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan holda baholashni davom ettirishi kerak. Uzoq muddatli tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalarni qo'llashning bolalar ta'limi va rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o‘rganishga yordam beradi. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalarning pedagogik amaliyotga integratsiyasini o‘rganish, bu usullarni turli madaniy va ta'lim kontekstlarida qanday samarali qo‘llanilishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta'limda qo‘llashning imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilib, bu sohada kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlarni ko'rsatdi.

Xulosa.Ushbu tadqiqot maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv o'quv metodlari va raqamli vositalarning bolalarning muloqot, hamkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali bo'lganini tasdiqladi. Biroq, o'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni qo'llashda yuzaga keladigan to'siqlar, ayniqsa, tayyorlik va resurslarning yetishmasligi kabi masalalar, bu metodlarning keng tarqalishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, bu usullarni yanada samarali qo'llash uchun maktabgacha ta'lim tizimida doimiy kasbiy rivojlanish va o'qituvchilarning texnologik malakasini oshirish zarur. Tadqiqot natijalari, maktabgacha ta'limning sifatini oshirish uchun innovatsion texnologiyalarning roli katta ekanligini ko'rsatdi va bu metodlarning pedagogik amaliyotga yanada chuqurroq integratsiyasini ta'minlash zarurligini ta'kidlab o'tdi. Kelajakdagi tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalarning bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi uzoq muddatli ta'sirini o'rganish, shuningdek, ularni turli madaniy va ta'lim kontekstlarida qo'llashning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Altshuller, G. S., Zlotin, B. L., & others. (1989). *Yangi g‘oyalarni izlash: Tushunchadan texnologiyagacha (ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi va amaliyoti)*. Kishinyov: Kartya Moldoveneaske.
2. Azlarov, Y. (1992). *Bolalarni sevish san'ati*. Toshkent.
3. Akhmedov, M., & Shoumarov, O. (1992). *Vatan mahalladan boshlanadi: Ha’oyat va iqtisod*.
4. Axmedova, X., & Raximova, L. (2012). *Bolaga yo’naltirilgan ta'lim dasturini tashkil etish*. Toshkent.
5. Adhamjonov, A. (2016). *Qiziqarli matematika*. Toshkent: Adabiyot uchqunlari.
6. Bashayeva, T. (1997). *Bolalarda shakl, rang, tovushni qabul qilishning rivojlanishi*. Toshkent
7. Bikbaeva, N. U., & others. (1995). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish*. Toshkent.
8. Bikbaeva, N. U., & Ibragimova, Z. (1995). *Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun matematik o’yinlar*. Toshkent: O'zPFITI.

BOLALAR ADABIYOTINING JAMIYATDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Karomatova Diyora G‘iyos qizi
Navoiy davlat universiteti
70110201 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar adabiyotining yosh avlodning intellektual, axloqiy va estetik kamolotini shakllantirishdagi o‘rni hamda uning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati ilmiy asosda tahlil etiladi. Tadqiqotda bolalar adabiyotining tarbiyaviy, psixologik va madaniy funksiyalari, zamonaviy tendensiyalari va ta’lim jarayonidagi roli yoritilib, Prezident qarorlarida belgilangan vazifalar bilan bog‘liq holda baholangan. Maqola bolalar adabiyotini rivojlantirish bo‘yicha dolzarb yo‘nalishlar va takliflarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, ma’naviy tarbiya, intellektual rivojlanish, estetik idrok, axloqiy qadriyatlar, psixologik rivojlanish, tasavvur va tafakkur, nutq madaniyati, ijtimoiy kompetensiya, milliy qadriyatlar, zamonaviy adabiyot, tarbiyaviy funksiyalar, maktabgacha ta’lim, yosh avlod kamoloti.

Annotation. This article provides a scientific analysis of the role of children’s literature in shaping the intellectual, moral, and aesthetic development of the younger generation, as well as its socio-spiritual significance in the advancement of society. The research highlights the educational, psychological, and cultural functions of children’s literature, its modern trends, and its role in the educational process. Furthermore, it evaluates these aspects in connection with the tasks outlined in the Presidential decrees. The article also includes relevant directions and recommendations for the development of children’s literature.

Keywords: children’s literature, moral education, intellectual development, aesthetic perception, ethical values, psychological development, imagination and thinking, speech culture, social competence, national values, modern literature, educational functions, preschool education, development of the younger generation.

Bolalar adabiyoti – yosh avlodning intellektual, axloqiy va estetik rivojlanishini ta’minlaydigan badiiy, ilmiy-ommabop va tarbiyaviy xarakterdagi asarlar majmuasidir. Mazkur adabiyot turi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari va dunyoni idrok etish imkoniyatlariga mos holda yaratilishi bilan ajralib turadi. Bolalar adabiyotining mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, mehr-shafqat, halollik, bag‘rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar

badiiy obrazlar orqali ifodalanadi hamda bolaning ongida ijtimoiy tajribani shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois bolalar adabiyoti shaxsning ma'naviy poydevorini barvaqt shakllantirishning eng muhim vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida bolalar adabiyotining tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib, u yosh avlodda mustaqil fikrlash, tasavvur va nutq madaniyatini rivojlantirish orqali ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Adabiyot orqali bola milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishadi, jamiyat hayotining mohiyatini anglaydi, shuningdek, madaniy merosga hurmat bilan yondashishni o‘rganadi. Bugungi globallashuv davrida bolalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish, ma’naviy immunitetini mustahkamlash hamda ularni fikrli, madaniyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishda bolalar adabiyotining roli yanada ortib bormoqda[6].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, maktabgacha va umumiy ta’lim tashkilotlarida badiiy adabiyotdan samarali foydalanish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotgani bolalar adabiyotining jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi[1]. Shu sababli bolalar adabiyotining mazmuni, tarbiyaviy imkoniyatlari va jamiyat hayotidagi o‘rnini ilmiy jihatdan o‘rganish bugungi kunda juda muhimdir.

Bolalar adabiyoti bolaning shaxsiy kamolotida asosiy tarbiyaviy omillardan biridir. Adabiy asarlar orqali bola nafaqat yangi tasavvurlarni egallaydi, balki o‘zining axloqiy qarashlari, emotsional tajribasi va ijtimoiy xulq me’yorlarini shakllantira boshlaydi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda qayd etilishicha, badiiy matn bolalarning ruhiy olamiga bevosita ta’sir etib, ularning hissiy sezgirligini, estetik idrokini va ma’naviy qadriyatlarini rivojlantiradi.

Adabiyot bolalarda tasavvur va tafakkurning jadal shakllanishiga xizmat qiladi. Ertaklar, she’rlar va hikoyalar bolaning hayotiy tajribasini kengaytirib, abstrakt fikrlash, voqealar sabablarini tahlil qilish, qahramonlar obraziga kirish (empatiya) kabi muhim psixik jarayonlarni rivojlantiradi. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlariga doir tadqiqotlari ham badiiy matnning ramziy fikrlash va tasavvur faoliyatini shakllantirishda muhim vosita ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi[5]. Shuningdek, bolalar adabiyotida mavjud ijobiy obrazlar, voqealar va muammoli vaziyatlar bola ongida yaxshilik, adolat, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlarni mustahkamlaydi.

Badiiy asarlarning yana bir muhim vazifasi – **nutq madaniyatini shakllantirishdir**. Bolalar she’riyatidagi ritm, tovush takrorlari, obrazlilik, hikoya matnlaridagi mantiqiy izchillik bolalarning og‘zaki nutqini boyitadi va grammatik

tuzilmalarni o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi. A.S. Makarenko va K.D. Ushinskiylarning pedagogik qarashlarida ham adabiyot vositasida nutq, tafakkur va axloqiy dunyoni uyg‘un rivojlantirishning yuqori tarbiyaviy samaradorligi alohida ko‘rsatilgan[8].

Bolalar adabiyoti bolaning ruhiy rivojlanishida muhim psixologik omil hisoblanadi. Adabiy matnlar bolaning emotsional-intellektual olamini boyitib, unda empatiya, his-tuyg‘ularni anglash va boshqarish, tasavvur kabi jarayonlarning shakllanishiga yordam beradi.

L.S. Vygotskiy badiiy adabiyotning bola psixikasiga ta’siri haqida shunday deydi: “San’at – bolaning hissiy tajribalarini tartibga soluvchi eng kuchli vosita”[9]. Bu fikr bolalar adabiyotining emotsional rivojlanishdagi o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi. Shuningdek, J. Piaget tadqiqotlariga ko‘ra, ertak va hikoyalarda uchraydigan ramziy obrazlar bolalarda tasavvur, ramziy fikrlash va mantiqiy tahlil jarayonlarini kuchaytiradi[5]. Psixologlar bolalar ertaklardan nafaqat zavq olishini, balki ular orqali qo‘rquv, xavotir, ajablanish, mehr kabi emotsiyalarni boshdan kechirishni o‘rganishini ta’kidlashadi. Bunday “psixologik mashqlar” bolalarning emotsional barqarorligini oshiradi[2].

Bolalar adabiyoti jamiyatda avlodlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantiruvchi eng muhim madaniy vositalardan biridir. Ertak va hikoyalardagi ijobiy qahramonlar, vaziyatlar, me’yorlar bolalarga yaxshilik, adolat, halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni o‘rgatadi. K.D. Ushinskiy bolalar adabiyotini “tarbiyaning eng tabiiy va hayotiy quroli” deb baholagan[8]. Uning fikricha, bola adabiyot orqali xalqning dunyoqarashi, milliy an’analari, ijtimoiy ma’naviy tajribasi bilan tanishadi, bu esa shaxs sifatida shakllanishning poydevorini yaratadi.

A.S. Makarenko esa adabiy asarlarning tarbiyaviy kuchi haqida: “Bolaga beriladigan eng muhim tarbiyaviy ta’sirlarning biri – bu kitobdir” deya ta’kidlagan[3]. Adabiyot orqali bola axloqiy tanlov qilishga, ijtimoiy munosabatlarni anglashga, to‘g‘ri va noto‘g‘rini farqlashga o‘rganadi. Bolalar adabiyoti shuningdek, vatanga muhabbat, milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosga hurmat tuyg‘usini ham shakllantiradi.

Zamonaviy bolalar adabiyoti globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ta’limning yangicha talablaridan kelib chiqib, mazmun va shakl jihatdan sezilarli o‘zgarib bormoqda. Bugungi bolalar adabiyotida yangicha g‘oyalar, zamonaviy tarbiya ehtiyojlari, multimediya vositalari bilan uyg‘unlashgan matnlar, psixologik yondashuvlar va madaniyatlararo muloqot elementlari keng namoyon bo‘lmoqda[4].

Birinchidan, **mavzular ko‘lami kengaymoqda**. An’anaviy mavzular (do‘stlik, vatanparvarlik, ezgulik) bilan bir qatorda, hozirgi bolalar adabiyotida ekologiya, huquqiy madaniyat, raqamli dunyo, gender tenglik, inkluzivlik, emotsional intellekt kabi yangi mavzular yoritilmoqda. Bu tendensiya bolalarni XXI asr kompetensiyalariga mos ravishda tarbiyalash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, **psixologik yo‘naltirilgan asarlar soni ortmoqda**. Zamonaviy mualliflar bolalarning xavotir, qo‘rquv, yolg‘izlik, o‘z-o‘zini anglash, kommunikativ qiyinchiliklar kabi real psixologik muammolarini adabiyot vositasida yengillashtirishga e’tibor qaratmoqda. Xalqaro bolalar adabiyoti tadqiqotchisi M. Nikolayevaning fikricha, hozirgi bolalar adabiyoti “bola ichki dunyosini yoritishga qaratilgan terapevtik funktsiyaga” ega bo‘lib bormoqda.

Uchinchidan, zamonaviy adabiyotda **multimedialashuv va raqamli formatlar** sezilarli o‘rinda turadi. Elektron kitoblar, audio ertaklar, interaktiv ilovalar, komikslar, grafik romanlar bolalarning kitob o‘qish motivatsiyasini oshirmoqda. Raqamli adabiyotning o‘sishi, tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bolalarning vizual tafakkurini rivojlantiradi va matnni idrok etishning yangi kognitiv mexanizmlarini shakllantiradi.

To‘rtinchidan, **milliy bolalar adabiyoti ham yangilanmoqda**. O‘zbek bolalar adabiyotida Abu Ali, X. Jo‘raev, T. Qahramonov, S. Yo‘ldosheva, N. Qodirovlarning so‘nggi yillardagi ilmiy-uslubiy ishlari adabiyotning tarbiyaviy salohiyatini zamonaviy yondashuvlar asosida yangicha talqin etmoqda. Mustaqillik davridan boshlab vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ekologik madaniyat, ijtimoiy faollik mavzularida yangi badiiy asarlar paydo bo‘ldi.

Beshinchidan, bolalar adabiyotida **inklyuziv yondashuv** kuchaymoqda. Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar, turli millatlar vakillari, turli psixologik ehtiyojlarga ega qahramonlarning tasvirlanishi adabiyotning ijtimoiy tenglikni mustahkamlashdagi rolini kuchaytiradi. Bu yo‘nalish dunyo miqyosida kengayib, o‘zbek bolalar adabiyotida ham yangi oqim sifatida shakllanmoqda.

Bolalar adabiyoti jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida strategik ahamiyatga ega resurs bo‘lib, u yosh avlodning intellektual, axloqiy va estetik kamolotini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy asarlar orqali bolalar nafaqat bilim va tasavvurlarni egallaydilar, balki emotsional sezgirlik, tafakkur, nutq madaniyati, ijodkorlik va ijtimoiy moslashuv kabi shaxsiy sifatlarini rivojlantiradilar. Shu bois bolalar adabiyoti jamiyatning ma’naviy barqarorligi va madaniy merosining davomiyligini ta’minlovchi kuchli tarbiyaviy vosita sifatida e’tirof etiladi.

Umuman olganda, bolalar adabiyoti ta’lim jarayonida axborot manbai, tarbiya jarayonida axloqiy-me’yoriy yo‘riqnoma, madaniyatda estetik qadriyatlar

targ‘ibotchisi, ma’naviyatda esa milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish vositasi sifatida alohida o‘rin tutadi. Uning jamiyatdagi badiiy, tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalari uyg‘unlashib, bolalarda dunyoqarashning to‘g‘ri shakllanishiga, ijobiy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishga va zamonaviy kompetensiyalarning tarkib topishiga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyotini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy mavzularni kengaytirish, elektron va multimediali formatlarni qo‘llab-quvvatlash, muallif va nashriyotlar faoliyatini rag‘batlantirish, sifatli tarjimalarni ko‘paytirish, ta’lim muassasalarida badiiy kitobxonlikni tizimli yo‘lga qo‘yish kabi chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur. Shuningdek, pedagoglar, psixologlar va adabiyotshunoslar hamkorligida yoshga mos, tarbiyaviy va psixologik jihatdan asoslangan yangi avlod bolalar adabiyotini yaratish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini targ‘ib qilish va kitobxonlik madaniyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ–3271-son Qarori.
2. Bettelheim B. The Uses of Enchantment: The Meaning and Importance of Fairy Tales. 1976.
3. Makarenko A.S. Pedagogik asarlar to‘plami. 1987.
4. Nikolayeva M. Reading for Learning: Cognitive Approaches to Children's Literature. John Benjamins Publishing. 2014.
5. Piaget J. Play, Dreams and Imitation in Childhood. New York: Norton. 1962.
6. Qodirov A. Bolalar adabiyoti asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
7. Qodirov N., Yo‘ldosheva S. Bolalar adabiyoti. Toshkent: O‘qituvchi. 2012.
8. Ushinskiy K.D. Pedagogik antologiya. Moskva: Pedagogika. 1988.
9. Vygotsky L.S. Mind in Society. Harvard University Press. 1978.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ILMIY KUZATUVCHANLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI

Kaxarova Maftuna Alisher qizi
Navoiy davlat universiteti 70110201-
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
Mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Tayanch tushuncha: ilmiy usul, kuzatish, maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim standarti, ilmiy kuzatuvchanlikni rivojlantirish usullari

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ilmiy kuzatuvchanlik qobiliyatini oshirish, ularning qiziqishlarini rag‘batlantirish usullari, hamda ilmiy usul va kuzatuvchanlik tushunchalari haqida olimlarning ma’lumotlar keltirilgan

Аннотация: в этой статье представлена информация ученых о способах повышения научной наблюдательности дошкольников, стимулировании их интереса, а также о научном методе и концепциях наблюдательности

Annotation: this article provides information about the methods of increasing the scientific observability of preschool children, stimulating their interests, as well as the concepts of scientific method and observability of scientists

Ilmiy usul – bu kuzatishlarni o‘rganish va savollarga javob berish uchun ishlatiladigan tajriba jarayoni. Ilmiy usul hech kim tomonidan ixtiro qilinmagan, balki tabiat dunyosi qanday ishlashini eng yaxshi tarzda aniqlash bo‘yicha asrlar davomida olib borilgan munozaralarning natijasidir. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel tabiatning qanday ishlashini aniqlash uchun kuzatish va mulohazalarni qo‘llash kerakligini targ‘ib qilgan birinchi odamlardan biri edi. Arab musulmon matematigi va olimi Hasan Ibn al-Haysam (g‘arbiy dunyoda Alxazen nomi bilan mashhur) ko‘pincha tajribaning ahamiyati haqida yozgan birinchi shaxs sifatida tilga olinadi. O‘shandan beri ko‘plab olimlar fanni qanday qilib ideal tarzda olib borish kerakligi haqida yozdilar va ilmiy uslubni zamonaviy tushunishimizga hissa qo‘shdilar. Bu olimlar orasida Rojer Bekon, Tomas Akvinskiy, Galiley Galiley, Frensis Bekon, Isaak Nyuton, Jon Hum va Jon Styuart Mill bor. Olimlar bugungi kunda yangi texnikalar va fanning yangi sohalarini o‘rganishda ilmiy uslubni rivojlantirish va takomillashtirishda davom etmoqdalar[8].

Ilmiy-tadqiqot usuli beshta asosiy bosqich, shuningdek, fikr-mulohaza bildirish bosqichidan iborat:

[8] https://www.sciencebuddies.org/science-fair-projects/science-fair/steps-of-the-scientific-method#question

1. Kuzatish.
2. Ilmiy savolni o‘rtaga tashlash.
3. Gipoteza yoki tekshirish kerak bo‘lgan izohni ilgari surish.
4. Gipotezaga asoslanib taxmin qilish.
5. Taxminni tekshirib ko‘rish.
6. Takrorlash: natijalardan yangi gipoteza yoki taxmin qilish uchun foydalanish.

Ilmiy-tadqiqot usuli barcha fanlarda, jumladan, kimyo, fizika, geologiya va psixologiyada qo‘llanadi. Ushbu sohalardagi olimlar turli savollarni o‘rtaga tashlaydi va turli tekshiruvlarni o‘tkazib ko‘radi. Biroq mantiqiy va dalillar bilan tasdiqlangan javoblarni topish uchun ular bitta asosiy yondashuvdan foydalanadi[9].

Kuzatish bu tarihdan zamonamizgacha bo‘lgan fanlarning eng keng tarqalgan va fundamental amaliyotidir. Kuzatish amaliy tarzda boshlangan bo‘lib keyinchalik uni metod, usul sifatida qarab kelinmoqda. Bu shuningdek, kuzatilayotgan amaldagi narsa va hodisaning eng nozik va rang barang qirralarini ochib beruvchi usullardan biridir. Kuzatish hissiyotlarni tarbiyalaydi, mulohazalarni sozlaydi, ilmiy tadqiqot ob’ektlarini tanlaydi va jamoalarni shakllantiradi. Ilm fandagi eng katta yutuqlar kuzatish orqali kashf etilgan. Misol tariqarida mikroskopik mayda zarralar, ko‘rinmas bakterialar, Rentgen nurlari va boshqa. Asrlar davomida ilmiy kuzatuvchilar ushbu va boshqa ko‘plab jumboqlarga javob berish yo‘llarini o‘ylab topdilar va shu bilan tekshirilayotgan narsalarni tekshirish usuli bilan qayta belgilab oldilar. Kuzatish dunyoni yangidan kashf etadi[10].

Kuzatish metodi bu tadqiqotchi biror bir maqsadni ko‘zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: uzoq muddatli va qisqa muddatli kuzatish. Qisqa muddatli – kuzatish obyektning kundalik faoliyatidagi o‘zgarishlaridan ma’lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish – qo‘yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma’lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatish metodidan to‘g‘ri foydalanish o‘quv – tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi[11].

Insonda kuzatuvchanlik bolalikdan boshlab shakllanadi. Kuzatish qobiliyati rivojlangan bo‘lmasa amaliy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

[9] https://uz.khanacademy.org/science/biology/intro-to-biology/science-of-biology/a/the-science-of-biology
[10] https://www.mpiwg-berlin.mpg.de/research/projects/DeptII_Da_observation
[11] F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika” T-2019y 31-32b

Shu sababli kuzatuvni kasbiy muhim sifat ko‘rinishida rivojlantirish va shakllantirishga katta e’tibor berila boshlandi.

N.I.Isanov[12] o‘zining “Pedagogik kuzatish psixologik – pedagogik muammo sifatida” nomli maqolasida kuzatish tushunchasiga pedagogic olimlarning ilmiy qarashlarini keltirib o‘tgan. Xususan: o‘qituvchi va psixolog P.F.Kapterev o‘zining rahbarligida amaliy mashg‘ulotlar davomida bog‘chadagi bolalarni kuzatish va kuzatish natijalarini tahlil qilishni o‘rganadilar. “Bizning barcha faoliyatimizning asosida aniq va xolis kuzatish yotadi, biz doimo tashqi tabiatni, odamlarni va o‘zimizni kuzatamiz” deb ta’kidlab o‘tgan. Ushbu fikrda olim bolalarni kuzatish jarayonida ularning faoliyatini ko‘rib amin bo‘lgan. Haqiqatdan ham inson atrofidagi olamni kuzatar ekan unda ortiqcha manfaat bo‘lmaydi, shu sababli kuzatish jarayoni xolis kechadi. Bolaning ulg‘ayishi, tarbiya topishi uning bevosita atrofidagi insonlarni kuzatishi natijasida, taqlid qilish orqali amalga oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ilmiy kuzatuvchanlik tushunchasini shakllanishi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sekin – astalik bilan o‘rgatib boriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola yoshi 3 – 7 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda bolalarga ta’lim – tarbiya berish maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” 802 – sonli qaroriga muvofiq davlat standartining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari, quyidagi rivojlanish sohalari bo‘yicha belgilanadi:

Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
Ijtimoiy – hissiy rivojlanish;
Nutq, muloqot, o‘qish yozish malakalari;
Bilish jarayonining rivojlanishi;
Ijodiy rivojlanish[13].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ilmiy kuzatuvchanlik tushunchasi mohiyatini bolani ongida tushuncha hosil bo‘lishi maktabgacha ta’lim tashkilotida mashg‘ulot faoliyatida tarbiyachi, pedagog tomonidan hosil qilinadi. Rivojlanish sohalari bo‘yicha bolalarga ta’lim tarbiya berish, mashg‘ulotlarda ma’lumotlarni ilmiy jihatdan bolaning yoshiga mos tarzda bosqichma – bosqich berish zarur:

- Mashg‘ulot faoliyati jarayonida bolalarda qiziquvchanlikni o‘stirish va savol so‘rash: “Bu nima”, “nima uchun”, “qanday” kabi savollar so‘rashi uchun

[12] N.I.Isanov . “Pedagogik kuzatish psixologik -pedagogik muammo sifatida” 2024y
[13] https://lex.uz/docs/-5179335

zamin yaratish lozim. Bola savol so‘ragan vaqtida unga hurmat bilan javob berish kerak.

- Tarbiyachining o‘zi ham mavzuga mos holda savol berishi zarur. Masalan: “non qayerdan keladi”, “nonning qanday turlarini bilasiz” va h.k.
- Kuzatuvchanlikni oshirish maqsadida bolalar bilan turli didaktik o‘yinlar olib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: sezgi organlaridan foydalanish: ko‘zlaringni yum, nima eshitayapsan yoki buni tatib ko‘r bu qanday meva.
- Turli daraxtlarning barglarini olib lupada kuzatish va ularning farqli jihatlarini aytish.
- Gipoteza (faraz) yuritish: loyqa suvga tosh tashlasangiz nima bo‘ladi. Javob suv loyqalanadi.
- Suv va muzni olib bolaga tushuntiramiz. Suvni muzlatkichning muzxonasiga qo‘yilganda muzga aylanadi.

Faoliyat yakunida olingan bilimlar umumlashtirilib xulosa qilinadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolada ilmiy kuzatuvchanlikni shakllantirish bu uning tabiiy qiziquvchanligini yo‘qotmaslikka, uni rag‘batlantirishga va kichik “tadqiqotchiga” aylantirishga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802 – sonli Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘’latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika” T-2019y 31-32b
3. N.I.Isanov . “Pedagogik kuzatish psixologik -pedagogik muammo sifatida” 2024y
4. https://www.sciencebuddies.org/science-fair-projects/science-fair/steps-of-the-scientific-method#question
5. https://uz.khanacademy.org/science/biology/intro-to-biology/science-of-biology/a/the-science-of-biology
6. https://www.mpiwg-berlin.mpg.de/research/projects/DeptII_Da_observation
7. https://lex.uz/docs/-5179335

5-6 YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Komilova Sayyora Karim qizi
Navoiy davlat unversteti Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5–6 yoshdagi bolalar tafakkuri rivojlanishining nazariy asoslari ilmiy-psixologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Maktabgacha yosh davrida tafakkurning shakllanishi, uning psixologik xususiyatlari, amaliy va mantiqiy fikrlashning o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tafakkur, kognitiv rivojlanish, maktabgacha yosh, 5–6 yoshli bolalar, nazariy asoslar, Vigotskiy, Piaje, Leontyev, o‘yin faoliyati, nutq va tafakkur.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations of the development of thinking in children aged 5–6 based on major psychological and pedagogical theories. It explores the formation of cognitive processes in early childhood, the psychological characteristics of preschoolers’ thinking, and the developmental laws governing the transition from practical to logical thinking.

Key words: thinking, cognitive development, preschool age, children aged 5–6, theoretical foundations, Vygotsky, Piaget, Leontiev, play activity, speech and thinking.

Bugungi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim va bolalar erta intellektual rivojlanishini ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyati va jamiyatda faol fuqarolik roli uchun zarur bo‘lgan kognitiv ko‘nikmalar poydevorini tashkil etadi.

Ma’lumki, maktabgacha 5-6 yosh davrida bolaning mantiqiy fikrlashi, sabab-oqibat aloqalarini anglashi, tasniflash va umumlashtirish kabi muhim psixik funksiyalari shakllanadi. Shunday ekan, tafakkur rivojini nazariy jihatdan o‘rganish va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash respublikamizda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun ham juda dolzarbdir[14].

[14] O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni — O‘RQ-595, 2019-yil 16-dekabr.

Respublikamizda 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida har bir bolaga kamida bir yil maktabgacha ta’lim olish huquqi kafolatlangan hamda “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasida bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish strategik maqsad sifatida belgilangan. Bu yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar tarbiyalanuvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantirish, pedagog kadrlar malakasini oshirish, sifatli va teng huquqli maktabgacha ta’limni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, respublika ta’lim tizimidagi barqaror rivojlanish uchun poydevor yaratadi[15].

Tafakkur – bu voqelikni bilishning oliy shakli bo‘lib, unda bola predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikni umumlashtirilgan, mazmunli shaklda aks ettiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur avvalo amaliy faoliyatga tayanib, sezgi va tasavvurlar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Bolalar fikrlash jarayonida tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash kabi mantiqiy amallarni asta-sekin egallay boshlaydi. L.S. Vigotskiy ta’kidlaganidek, bolalar tafakkuri ijtimoiy tajriba, muloqot, nutq va hamkorlik orqali shakllanib boradi, chunki tafakkur insonning ijtimoiy tajribasini ichki ong jarayoniga aylantirishning markaziy omilidir [16].

Psixologiya fanida bola tafakkurining rivojlanish jarayoni bir necha qonuniyatlar asosida kechishi isbotlangan. Avvalo, tafakkur faoliyatning o‘zgarishi va murakkablashuvi bilan uyg‘un holda rivojlanadi[17]. Ikkinchidan, har qanday yangi intellektual ko‘nikma avval ijtimoiy faoliyat shaklida, kattalar rahbarligida namoyon bo‘ladi, so‘ng bola tomonidan mustaqil egallanadi — bu “yaqin rivojlanish zonasi” qonuniyati hisoblanadi. Uchinchidan, tafakkur rivoji nutq rivoji bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bola nutq orqali mantiqiy tuzilmalarni o‘zlashtiradi, tushunchalarni shakllantiradi va fikrlashni boshqaradi. To‘rtinchidan, o‘yin faoliyati tafakkur taraqqiyotining yetakchi omili bo‘lib, unda bola muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish, rolli muloqot qilish va ijodiy fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi[18].

5-6 yosh davri tafakkur rivojlanishidagi muhim bosqich bo‘lib, bunda bola tasavvurlardan mantiqiy fikrlashga o‘tishning dastlabki pog‘onasiga kiradi. J. Piajening ta’kidlashicha, bu yoshdagi bolalar preoperatsion (maktabgacha)

[15] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312 sonli qarori (08.05.2019) — “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish” Konsepsiyasi tasdiqlanishi.
[16] Vigotskiy, L.S. *Myshlenie i rech.* Moskva: Pedagogika, 1982.
[17] Vigotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika, 1984.
[18] Elkonin, D.B. Psixologiya igri. Moskva: Pedagogika, 1978.– Galperin, P.Ya. Psixologiya myshleniya. Moskva: MGU, 1985.

bosqichning so‘nggi fazasida bo‘lib, ular tasniflash, guruhlash, mavhum belgilarni tushunish, predmetlarning barqaror sifatlarini anglash kabi kognitiv ko‘nikmalarda sezilarli o‘sish namoyon etadi[19].

5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatni idrok etish, oddiy mantiqiy bog‘lanishlarni anglash, predmetlarni umumiy belgilariga qarab guruhlash, sabab-oqibatni tushuntirish, rejalashtirish kabi fikrlash shakllari shakllana boshlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu yoshda semantik fikrlashning dastlabki shakllari paydo bo‘ladi: bola tushunchalar o‘rtasidagi mazmuniy aloqalarni ajratadi, vazifaga yo‘naltirilgan fikrlashni qo‘llay oladi va ijodiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi.[20] Shu bilan birga, konstruktiv faoliyat, tasviriy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va muloqot mazkur jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Maktabgacha 5-6 yoshli bolalar tafakkurini o‘rganishda bir nechta nazariyalar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi: Vigotskiyga ko‘ra, tafakkur rivojining bosh omili – ijtimoiy muhit, muloqot va nutqdir. Bola kattalar bilan hamkorlik jarayonida yangi fikrlash usullarini o‘zlashtiradi, so‘ng ularni ichki fikr jarayoniga aylantiradi. “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi aynan 5–6 yoshda eng faol ishlaydi[21].

Piaget bolalar fikrlashini bosqichma-bosqich rivojlanadigan tizim deb qaraydi. 5–6 yosh preoperatsion bosqichning yakuniy qismi bo‘lib, unda bola egotsentrik fikrdan chiqishga, mantiqiy operatsiyalarni tushunishga tayyorgarlik ko‘rsatadi[22].

Leontyevga ko‘ra, tafakkur faoliyat jarayonida shakllanadi. Bu yoshda yetakchi faoliyat – o‘yin bo‘lib, bolalarning fikrlash operatsiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi[23].

Galperin fikricha, bola har qanday fikrlash amalini avval tashqi amaliy shaklda bajaradi, keyin esa uni ichki fikriy amalga aylantiradi. Ushbu jarayonni boshqarish tafakkur rivojining asosiy pedagogik mexanizmlaridan biri hisoblanadi[24].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur shakllanishi bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bunda, avvalo amaliy-harakat tafakkuri (1,5-3 yosh) shakllanib, bola predmetlar bilan bevosita harakatlar orqali muammoni hal qiladi; keyingi bosqichda ko‘rgazmali-obrazli tafakkur (3-6 yosh) rivojlanib, bola tasvir, obraz, tasavvur va o‘yin orqali fikrlay boshlaydi; maktabga tayyorlov davrida esa

[19] – Piaget, J. The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press, 1952.
[20] Smirnova, E.O. Razvitie myshleniya doshkolnika. Moskva: MGU, 1997.
[21] Vigotskiy, L.S. (1982). Myshlenie i rech [Tafakkur va nutq]. Moskva: Pedagogika.
Vigotskiy, L.S. (1984). Psixologiya razvitiya rebenka [Bola psixologik rivojlanishi]. Moskva: Pedagogika.
[22] Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.P.
[23] Leontyev, A.N. (2005). Deyatelnost. Soznanie. Lichnost [Faoliyat, ong, shaxs]. Moskva: Smysl.
[24] Galperin, P.Ya. (1985). Psixologiya myshleniya [Tafakkur psixologiyasi]. Moskva: MGU.

mantiqiy-og‘zaki tafakkur unsurlari (6-7 yosh) paydo bo‘lib, bola umumlashtirish, taqqoslash, sabab-natija munosabatlarini aniqlashga qodir bo‘ladi. Ushbu bosqichlar klassik rivojlanish psixologiyasi tadqiqotchilari tomonidan, xususan J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasida (preoperatsion bosqich – 2-7 yosh) hamda L. S. Vygotskiyning bilish jarayonlari ijtimoiy-madaniy rivojlanish modelida ilmiy asoslab berilgan[25].

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari sifatida psixik funksiyalarning ijtimoiy muhit va kattalar bilan hamkorlikda shakllanishi, “yaqin rivojlanish zonasi” orqali yangi intellektual ko‘nikmalarni egallash, nutqning tafakkurni boshqaruvchi vosita sifatida kuchayishi hamda faoliyatning yetakchi turi - o‘yin jarayonida kognitiv jarayonlarning faol ravishda takomillashuvi qayd etiladi. Bu qonuniyatlar bolada mantiqiy bog‘lanishlarni anglash, sabab–oqibatni tushunish va muammoli vaziyatlarni hal qila olish qobiliyatlarining shakllanishini ta’minlaydi[26].

Maktabgacha 5-6 yoshli bolalarda tafakkur rivojlanishi ko‘rgazmali-obrazli fikrlashdan asta-sekin mantiqiy-og‘zaki tafakkur unsurlariga o‘tish bilan tavsiflanadi. Bu davrda bola tasvir va amaliy harakatlarga tayanish bilan birga, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, sabab–natija bog‘lanishlarini anglash kabi aqliy amallarni mustaqil bajarishga qodir bo‘la boshlaydi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, 5-6 yoshda tilning jadal rivojlanishi mantiqiy fikrlashni shakllantiruvchi asosiy omil bo‘lib, bola tushunchalarni og‘zaki ifodalash, o‘z fikrini asoslash va mantiqiy ketma-ketlikni saqlash qobiliyatiga ega bo‘ladilar[27].

Bu yoshdagi bolalarning tafakkuridagi muhim o‘zgarishlardan biri – semantik aloqalarni aniqlash*, vazifaga yo‘naltirilgan fikrlashni shakllantirish hamda muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish qobiliyatining ortib borishidir. Shu bilan birga, o‘yin faoliyati, tasviriy faoliyat, konstruktorlik va amaliy mashg‘ulotlar kognitiv jarayonlarning kuchayishiga, mantiqiy bog‘lanishlarni anglash va fikrni rejalashtirish ko‘nikmalarining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi[2829].

5-6 yoshli bolalar tafakkuri rivojlanishiga doir ilmiy manbalar umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda bola fikrlash jarayonida sifat jihatdan muhim o‘zgarishlar yuz beradi: u semantik aloqalarni aniqlash, vazifaga yo‘naltirilgan fikrlashni shakllantirish, sabab–oqibatlarni tushunish hamda muammoli vaziyatlarga ijodiy yondasha olish qobiliyatini rivojlantiradi. Vigotskiy

[25] : Piaget, J. The Psychology of the Child, 1969; Vygotsky, L. S. Mind in Society, 1978).
[26] Vigotskiy, L.S. Myshlenie i rech (Tafakkur va nutq). — Moskva: Pedagogika, 1982.Vigotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebenka (Bola psixologik rivojlanishi). — Moskva: Pedagogika, 1984.
[27] Vygotsky, L. S. Mind in Society
[28] Piaget, J. The Language and Thought of the Child. — London: Routledge, 1959.

ta’kidlaganidek, tafakkurning asosiy harakatlantiruvchi kuchi - ijtimoiy muhit, hamkorlik va nutqning ichki tafakkurga aylanish jarayonidir; Piajening fikricha esa, bola bu yoshda preoperatsion bosqichning keyingi pog‘onasiga o‘tib, tasniflash, guruhlash va mantiqiy bog‘lanishlarni anglashda sezilarli taraqqiyot namoyon qiladi. Elkonin va Leontyev nazariyalarida qayd etilganidek, o‘yin, tasviriy faoliyat, konstruktorlik va amaliy mashg‘ulotlar kognitiv jarayonlarning faol rivojlanishini ta’minlaydi, fikrni rejalashtirish, sintez va tahlil ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu tariqa, mazkur davr bolalarda tafakkurning obrazlilikdan mazmunli-mantiqiy shaklga o‘tishida hal qiluvchi bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-595, 2019-yil 16-dekabr. Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312 sonli qarori (08.05.22)
3. Qalqampir.uz maqolasi: “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.
4. Vigotskiy, L.S. *Myshlenie i rech*. Moskva: Pedagogika, 1982.
5. Vigotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika, 1984.
6. Elkonin, D.B. Psixologiya igri. Moskva: Pedagogika, 1978.
7. Galperin, P.Ya. (1985). Psixologiya myshleniya [Tafakkur psixologiyasi]. Moskva: MGU.
8. Leontyev, A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost (Faoliyat, ong, shaxs). — Moskva: Smysl, 2005.
9. Piaget, J. The Psychology of the Child, 1969; Vygotsky, L. S. Mind in Society, 1978).
10. Vigotskiy, L.S. Myshlenie i rech (Tafakkur va nutq). — Moskva: Pedagogika, 1982.
11. Vigotskiy, L.S. Psixologiya razvitiya rebenka (Bola psixologik rivojlanishi). — Moskva: Pedagogika, 1984.
12. Smirnova, E.O. Razvitie myshleniya doshkolnika (Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkuri rivojlanishi). — Moskva: MGU nashriyoti, 1997.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHDAGI O‘ZGARISHLAR

Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) magistranti
Kudratova Gulnoza Shaxritdin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanish jarayoni va undagi bosqichma-bosqich o‘zgarishlar yoritilgan. Intellektual rivojlanish bolaning bilish faoliyati, tafakkuri, xotirasi, e’tibori, idroki va nutqining uzluksiz takomillashib borishidan iboratligi ko‘rsatib o‘tilgan. J. Piage, L. S. Vygotskiy, J. Bruner kabi olimlarning nazariyalari asosida bolaning aqliy salohiyati muhit, ta’lim va tarbiya jarayonida shakllanishi tahlil qilingan. Shuningdek, intellektual rivojlanishning asosiy bosqichlari, ularning psixologik xususiyatlari hamda bu jarayonga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Ishda maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash, eslab qolish, muammolarni hal qilish va o‘z fikrini ifoda etish ko‘nikmalari qanday rivojlanib borishi amaliy jihatdan ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual rivojlanish, senso-motor, preoperatsional, konkret, formal, abstrakt, taxmin, gepoteza, xotira, idrok, metakognitiv rivojlanish, genetik omillar, psixologik omil, texnologik omil, zamonaviy texnologiya, oila muhiti.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс интеллектуального развития человека и поэтапные изменения, происходящие в нём. Показано, что интеллектуальное развитие заключается в последовательном совершенствовании познавательной деятельности ребёнка, его мышления, памяти, внимания, восприятия и речи. На основе теорий таких учёных, как Ж. Пиаже, Л. С. Выготский и Дж. Брунер, проанализировано формирование умственного потенциала ребёнка в процессе взаимодействия с окружающей средой, обучения и воспитания. Также освещены основные этапы интеллектуального развития, их психологические особенности и факторы, влияющие на данный процесс. В работе практическим образом рассмотрено, как у детей дошкольного возраста развиваются навыки мышления, запоминания, решения проблем и выражения собственных мыслей.

Ключевые слова: Интеллектуальное развитие, сенсомоторный, предоперационный, конкретный, формальный, абстрактный, предположение,

гипотеза, память, восприятие, метакогнитивное развитие, генетические факторы, психологический фактор, технологический фактор, современные технологии, семейная среда.

Abstract: This article examines the process of human intellectual development and the gradual changes that occur within it. It is shown that intellectual development consists of the continuous improvement of a child’s cognitive activity, thinking, memory, attention, perception, and speech. Based on the theories of scholars such as J. Piaget, L. S. Vygotsky, and J. Bruner, the study analyzes how a child’s intellectual potential is formed through interaction with the environment, education, and upbringing. The main stages of intellectual development, their psychological characteristics, and the factors influencing this process are also discussed. The paper practically explores how preschool children develop skills in thinking, memorization, problem-solving, and expressing their own ideas.

Key words: Intellectual development, sensorimotor, preoperational, concrete, formal, abstract, assumption, hypothesis, memory, perception, metacognitive development, genetic factors, psychological factor, technological factor, modern technology, family environment.

Intellektual rivojlanish – bu bolaning bilish faoliyati, tafakkuri, xotirasi, idroki, e`tibori, tasavvuri va nutqining izchil takomillashib boorish jarayonidir. Insonning intellekti uning tajribasi, o‘qish, o‘rganish va muhit bilan o‘zaro ta’sirda shakllanadi.

Bola ulg‘aygani sayin uning atrof-muhitni idrok etish, sabab-oqibatni tushunish, muammolarni hal qilish, eslab qolish va fikrini ifoda etish qobiliyatlari kengayadi. Bu o‘zgarishlar biologik yetilish, ijtimoiy muhit va ta’lim jarayonining o‘zaro ta’siri natijasida yuz beradi.

Intellektual rivojlanish bosqichlari (J. Piage nazariyasiga ko‘ra):

1. Sensomotor bosqich (0–2 yosh):

Bola sezgi va harakatlar orqali dunyoni o‘rganadi. Harakatlar tajribasi orqali “sabablilik”ni anglay boshlaydi.

2. Preoperatsional bosqich (2–7 yosh):

Bola ramzlar, so‘zlar, tasavvurlar orqali fikr yurita boshlaydi. Biroq mantiqiy fikrlash hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.

3. Konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh):

Bola mantiqiy fikrlay oladi, ammo faqat real narsalar asosida. Tushunchalar, tasniflar va sababiy bog‘lanishlar hosil bo‘ladi.

4. Formal operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan yuqori):

Abstrakt, nazariy fikrlash rivojlanadi. Bola taxminlar, gipotezalar bilan ishlay oladi.

Intellektual rivojlanishdagi asosiy o‘zgarishlarga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, ular quyidagicha tasniflanadi:

- Idrokdan mantiqiy tafakkurga o‘tish;
- Xotira va e’tiborning ixtiyoriy shakllanishi;
- Tushuncha, mulohaza va xulosalar orqali fikrlashning paydo bo‘lishi;
- O‘z fikrini so‘z bilan ifodalash qobiliyatining o‘sishi;
- Muammoli vaziyatlarda tahlil va sintez qilish malakasining ortishi;
- Bilish jarayonlarining ixtiyoriy boshqarilishi (metakognitiv rivojlanish).

Intellekt rivojlanishi turli omillar ta’sirida shakllanadi va mazkur jarayonni tadqiq qilish ko‘plab fanlar, jumladan, psixologiya, pedagogika va biologiya sohalarining dolzarb masalalaridan biridir. intellekt rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilarni tashkil etadi:

✓ Genetik omillar - Genetik omillar intellekt rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, intellekt darajasining taxminan 50-60 foizi genetik meros orqali uzatiladi. Shu bilan birga, genetik omillar boshqa tashqi ta’sirlar bilan o‘zaro bog‘liq holdaishlaydi. Masalan, Flynn effekti deb nomlanuvchi hodisa shuni ko‘rsatadiki, intellektning o‘sishi tadqiqot, ijtimoiy muhit, nafaqat genetik omillar, balki atrof-muhitning ta’siriga ham bog‘liq.

Genetik tadqiqotlar, ayniqsa, egizaklar va oilaviy tadqiqotlar, intellekt rivojlanishida irsiyomillarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Bir xil tuxumdan tug‘ilgan egizaklarning IQ ko‘rsatkichlario‘xshash bo‘lishi ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, genlar bilan bog‘liq omillar faqat imkoniyatlarni belgilaydi, ammo ularning namoyon bo‘lishi tashqi ta’sirlar bilan aniqlanadi.

✓ Ijtimoiy muhit va ta’lim intellekt rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Oiladagi tarbiya, madaniy muhit, ta’lim sifati va muloqot imkoniyatlari intellectual qobiliyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, bolalik davrida oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati bolaning intellektual salohiyatiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Ta’lim intellekt rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich maktab davrida sifatli ta’lim olish IQ darajasinioshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvlar va metodlarning xilma-xilligio‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi.

✓ Atrof-muhit omillari jumladan, ekologik sharoit, oziqlanish vasog‘liq holati ham intellekt rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bola rivojlanishining dastlabkiyillarida yaxshi oziqlanish va sog‘lom muhit intellektual salohiyatning shakllanishiga ijobiy ta’sirqiladi. Masalan, anemiya yoki yod yetishmovchiligi

bolalarning intellektual rivojlanishiga salbiyta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ekologik ifloslanish ham intellekt rivojlanishiga zarar yetkazishimumkin. Qo‘rg‘oshin bilan ifloslangan hududlarda yashovchi bolalarda IQ darajasi past bo‘lishikuzatilgan. Shu sababli, ekologik muhitni yaxshilash intellektual salohiyatni oshirishning muhimshartidir.

✓ Psixologik omillar-Motivatsiya, o‘ziga bo‘lgan ishonch va stress darajasi kabi psixologikomillar intellekt rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Motivatsiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslaryangi bilimlarni o‘rganishga va murakkab muammolarni hal qilishga intiladi, bu esa ularningintellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi. Stress esa aksincha, intellekt rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, ijobiy psixologik holat, masalan, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va emotsional barqarorlik, intellekt rivojlanishiga yordam beradi.

✓ Texnologik omillar - zamonaviy texnologiyalar ham intellekt rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli vositalardan foydalanish bolalarning axborotni qayta ishlash, tahlil qilishva yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Masalan, o‘quv dasturlari va interaktiv texnologiyalar bolalarning intellektual rivojlanishida muhim vosita bo‘libxizmat qiladi.Biroq, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘p vaqtni ekran qarshisida o‘tkazish bolalarning ijtimoiy muloqot qobiliyatlari va ijodiy fikrlashini cheklashi mumkin. Shu sababli, texnologiyalardan maqsadli va muvozanatli foydalanish zarur.

Intellektual rivojlanish insonning aqliy salohiyatini oshiradi, uni mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlaydi. Ta’lim-tarbiya, oila muhiti va ijtimoiy tajriba bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Elkonin, D. B. (1989). Psixologiya razvitiya rebenka. Moskva: Pedagogika.
4. Bruner, J. (1990). Acts of Meaning. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Davydov, V. V. (1996). Nazvanie: Razvitiye psixologicheskogo myshleniya u detey. Moskva: Pedagogika.
6. G‘oziev, E. G‘. (2010). Ontogenez psixologiyasi. Toshkent: Fan..
7. Karimova, V. M. (2012). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi

8. Mavlonova, R. A., To‘raeva, M. M. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti.
9. Moliya, Sh. (2021). Maktabgacha ta’limda bolalarning intellektual rivojlanishini shakllantirish omillari. – Ilmiy maqola.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori — “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”.

“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY -AXLOQIY TARBIYALASHDA TARBIYACHINING ROLI”

Nurota tuman 10-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor o’rinbosari
Qo’chqarova Fazolat Baxtiyorovna

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to‘la-to‘kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta‘limni mukammal o‘zlashtirishga, mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo‘lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish.
2. Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
3. Bolalarni ma‘nan rivojlantirish.

Maktabgacha ta‘limning maqsad va vazifalariga tayangan holda maktabgacha ta‘lim tarbiyachilarini quyidagi metod va usullar bilan tanishtirish talab qilinadi:

- maktabgacha ta‘limning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari;
- bolalarning maktab ta‘limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi tushunchalarini bilishlari;
- bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashni aniqlash yo‘llari va metod, usullari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishlari lozim. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiyani pedagog-tarbiyachi amalga oshiradi. U pedagogik jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi o‘z sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik psixologik

tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo‘yicha fanlarni jumladan «maktabgacha ta’lim va tarbiyato’g’risida”gi Qonun, “Ilk qadam davlat o’quv dasturi”ni, Davlat ta‘lim standartlarini, “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” kabi mutaxassislik fanlari va boshqalarni puxta egallagan bo‘lishi lozim.

Bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy vazifalari esa:

- bolalarni jismoniy, aqliy, ma‘naviy jihatdan kamol toptirish ularning sog‘lomligini muxofaza qilish;
- bolalarning ijodkorlik mustaqillik erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, shart-sharoitlar yaratish vazifalarini qo‘yadi.



O‘sib borayotgan organizm tuzilishining va harakat qilish qonuniyatlarining asosiy printsiplarini olib boruvchi yosh fiziologiyasi ta‘lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega. Bu hususiyatlarni bilmay turib, tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarbiya vositalari va metodlarini, u yoki bu mashg‘ulotlarni, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishning tashkiliy shakllarini to‘g‘ri belgilab bo‘lmaydi. Fiziologiyaning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalar pedagogika o‘quv-tarbiya jarayonini metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatlari uchun yaxshiroq shart-sharoit yaratishga yordam beradi.

Maktabgacha ta‘lim bola sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta‘minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta‘lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta‘lim bola 6-7ga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga

oshiriladi. Maktabgacha ta‘limning maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda bo‘lajak tarbiyachilarni kasbga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Maktabgacha tarbiyani samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

1 O‘z kasbini sevuvchi малakali tarbiyachilarrni ustuvor ravishda tayyorlash;

2 Maktabgacha ta‘limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;

3 Bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta‘minlash;

4 Zamonaviy o’kuv-uslubiy qo‘llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;

5 Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

6 Maktabgacha ta’lim muassasalarining har-xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo‘yicha malakali konsultatsiya xizmati ko‘rsatish imkoniyatini yaratish;

Maktabgacha tarbiya va sog‘lomlashtirish muassasalari tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo‘yadi.

Maktabgacha ta‘lim, bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va nodavlat (davlatga karashli bo‘lmagan) maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta‘limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g‘urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta‘lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish.
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta‘minlash kabilarni o‘z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalarining yasli va maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar guruhlariga bir hil yoshdagi, shuningdek turli yoshdagi bolalar qabul qilinishi mumkin.

Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik hislari, milliy g‘urur, mustaqillik g‘oyasi hamda o‘z hududi, o‘lkasi, xalqiga mehr va sadoqatni bolani yoshiga mos ravishda shakllantirish maktabgacha ta‘limda ma‘naviy-madaniy ishlarning asosini tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob axloqli bo‘lishi va mehnatga muhabbat qo‘yishga katta e‘tibor beriladi. Bolalar ilk yoshdan boshlab uyda, ko‘chada, bog‘chada, mehmonda o‘zini tutish qoidalari, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, yechinish, saranjom-sarishta yurish, odobli, mexnatsevar bo‘lish, boshqalar mexnatini qadrlash kabi odatlarga o‘rgatiladi. Ana shu odatlar bolani odob-axloqli, mexnatga layoqatli qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi.

Bolalarning ma‘naviy jihatdan barkamol bo‘lishida nafosat tarbiyasi asosiy o‘rin tutadi.

Tasviriy san‘at asarlaridan zavqlana olish, musiqani tinglash va undan shodlana olish qobiliyatlari bolalarda ilk yoshdan rivojlantirib boriladi.

Nafosat tarbiyasi mazmunining asosini chiroyli rasmlarni xis etish, ulardan zavqlana olish, asosiy ranglarni bilish va farqlay olish, rangli qalamlardan foydalana olish, ular yordamida sodda narsalarni kog‘ozda tasvirlay olish, plastilin yoki loydan sodda shakldagi narsalarni yasay olish, musiqani tinglab zavqlana olish, ayrim milliy cholg‘u asboblarini bilish, musiqa ohangiga mos ravishda raqsga tushish va qo‘shiq ayta olish kabilarga o‘rgatishni tashkil etadi.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning ma‘naviy-madaniy jihatdan yetukligiga qo‘yiladigan

- Ona Vatan – O‘zbekiston haqida qisqacha so‘zlab berish;
- 8-dekabr O‘zbekiston konstitutsiyasi kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanishini bilish;
- O‘zbekiston bayrog‘i, gerbi xaqida fikr bildira olish;
- O‘zbekiston madhiyasini yoddan ayta olish;
- Vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik hislari va milliy g‘ururni yoshiga mos ravishda shakllanganligi;
- Xalqiga, Vataniga mehr va sadoqat hislarini shakllanganligi;
- Buyuk siymolar haqida ilk tasavvurlarga ega bo‘lish;
- Milliy bayramlar haqida qisqacha so‘zlab berish;
- O‘zidan kattalarga sizlab murojaat qilish;
- Yaxshilik va yomonlikni farqlash;
- Mehnat qilayotgan kattalarga ko‘maklashish;
- Tasviriy san‘at asarlaridan zavqlana olish;

- «Labbay», «Xo‘p bo‘ladi», «Xush kelibsiz», «Raxmat», «Salomat bo‘ling», «Osh bo‘lsin», «Mumkinmi», «Kechirasiz», «Shirin tushlar ko‘ring», «Yaxshi borib keling», «Marhamat» kabi so‘z va iboralarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish;
- Shirin so‘zli bo‘lish va mexribonlik qila bilish;
- Ovqatlanish qoidalarini bilish va unga rioya qilish;
- Musiqa tinglash va undan zavqlana olish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma‘naviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umum insoniy qqdriyatlar asosida muntazam ta‘lim olishga tayyorlashdan iborat.

Bolada kattalar bilan muloqot jarayonida axloqiy xulq atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo‘lgan ehtiyoj – muhim ijtimoiy ehtiyoj bo‘lib, katta yoshli kishi bu ijtimoiy ehtiyojni qondiruvchi manba hisoblanadi. Axloqiy his-tuyg‘ular va odatlarni tarbiyalash shunday zaruriy asos hisoblanadiki, usiz bola shaxsining murakkabroq xususiyatlarini, ma‘naviy kamolotini ta‘minlash, mamlakatning ijtimoiy xayot hodisalari haqidagi tasavvurlarini va ularga ijobiy munosabatni shakllantirib bo‘lmaydi.

Maktabgacha bolalikning dastlabki bosqichlarida tarkib toptirilgan insonparvarlik asoslari uning ijtimoiy yo‘nalganligi bolalarda asta-sekin shaxsning jamoatchilik belgilari: xulq-atvor odatlari, munosabatlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Avvalo bolalar muassasasida jamoaning katta yoshli a‘zolari o‘rtasida to‘g‘ri o‘zaro munosabat uslubini vujudga keltirish kerak. O‘zaro hurmat va g‘amxo‘rlik, ishga muhabbat, mamlakatning siyosiy va mehnat hayotida ishtirok etish – bularning barchasi zarur uslubni ta‘minlashi lozim. Pedagogik jamoa va ota-onalar jamoalarining to‘g‘ri munosabatlari uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Bu uslub esa bolalar bog‘chasining ota-onalar bilan muntazam ish olib borishi, oila tarbiyasi tajribalarini o‘rganish natijasida tarkib topadi.

Kattalar bilan bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yuksak darajasi – muvoffaqiyatli axloqiy tarbiyaning majburiy shartidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning mazmuni va metodlari bu yoshdagi bolalarning xususiyatlariga mos kelishi va u eng yaqin vaqtdagi axloqiy rivojlanish zonasini ko‘zda tutishi kerak. Masalan, agar 4 yoshli bolalar o‘z tengdoshlariga asosan tarbiyachining maslahati, ko‘rsatmasi ta‘sirida baholi-qudrat yordam ko‘rsatsalar, 5 yoshga to‘layotganda bunday yordamni o‘z hohishlariga ko‘ra ko‘rsatishlari lozim.

Oilaga xos bo‘lgan muhabbat, o‘zaro e‘tibor, g‘amxo‘rlik muhiti bola xis-tuyg‘usini shakllantirishga ta‘sir ko‘rsatadi. Oilada qaror toptiriladigan ijtimoiy xis-tuygular bolaning kichik yoshdan boshlab tug‘ri axloqiy rivojlanishining muhim asosi hisoblanadi.

«Salomatlik va xayrixohlikni tarbiyalashning chinakkam maktabi – bu oiladir; Otaga, onaga, buvaga, buviga, aka-ukalariga, opa-singillariga munosabat insoniylikning sinovi hisoblanadi»,-degan allomalarimiz.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining muhim vazifasi – otalarga bola shaxsini shakllantirishda ularning alohida rol o‘ynashlarini tushuntirishi, zarur pedagogik bilim va ko‘nikmalarini egallashlarida ularga yaqindan yordam berishdan iborat. Bolalarning ma‘naviy kamolotini ta‘minlashda mahallaning o‘rni ham kattadir. Mahalla, avvalo, sog‘lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta‘sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulk-atvori o‘zaro munosabatlarini adolat va ma‘naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.

Insonning oilada shakllangan iymon-e‘tiqodi, odobi, oriyati, vijdoni, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib xalq manfaatlari, uzaro inoqlik va hamkorlik his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashib, jamiyatda sog‘lom munosabatlarning shakllanishiga olib keladi.



RAQAMLI AUTIZMGA UCHRAGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIYLASHTIRISHNING ZARURATI

Shamuratova Shahnoza Tulkinovna
Navoiy davlat universiteti 70110201-
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
Mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi professori v.b., PhD

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli autizmga uchragan maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi bolalarning ijtimoiy faoliyatini rag‘batlantirish va pedagogik, psixologik vositalar orqali ularni ijtimoiylashtirishning samarali usullarini aniqlashdir. Maqolada amaliy tavsiyalar ham keltirilgan bo‘lib, ular pedagoglar va tarbiyachilar uchun foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: raqamli autizm, maktabgacha yosh, ijtimoiylashuv, pedagogik yondashuv, psixologik rivojlanish, ekran ta’siri, kommunikativ ko‘nikmalar, ijtimoiy muhit, bolalar psixologiyasi, rivojlantiruvchi o‘yinlar.

Аннотация: В данной статья анализируется процесс социализации детей дошкольного возраста с цифровым аутизмом. Основная цель исследования выявить эффективные методы стимулирования социальной активности детей через педагогические и психологические средства. В статье также представлены практические рекомендации, полезные для педагогов и воспитателей.

Ключевые слова: цифровой аутизм, дошкольный возраст, социализация, педагогический подход, психологическое развитие, влияние экранов, коммуникативные навыки, социальная среда, детская психология, развивающие игры

Annotation: this article study analyzes the socialization process of preschool children with digital autism. The main aim of the article is to identify effective methods for promoting children’s social activity through pedagogical and psychological approaches. Practical recommendations are also provided, which are useful for teachers and caregivers.

Keywords : digital autism, preschool children, socialization, pedagogical approach, psychological development, screen influence, communication skills, social environment, child psychology, developmental games.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi, elektron qurilmalardan foydalanishning keskin ortishi nafaqat kattalar, balki bolalarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Dunyoda so‘nggi yillarda bolalarning ekranli qurilmalarga ortiqcha bog‘lanib qolishi natijasida yuzaga keladigan **“raqamli autizm”*** hodisasi tez-tez uchrayotgani haqida ilmiy tadqiqotlar va tibbiy-psixologik kuzatuvlar ko‘paymoqda. Ushbu holat maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetensiyasiga, muloqotga kirishish qobiliyatiga, hissiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani bilan xavflidir.

***Raqamli autizm** - *raqamli texnologiyalar ta’siri ostida ijtimoiy muloqotdan uzoqlashish.*

Yurtimizda ham raqamli texnologiyalardan foydalanish miqdorining ortishi bilan bir qatorda, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning kechikishi, muloqotga qiziqishning pasayishi, tengdoshlar bilan o‘yin faoliyatidan chetlashish kabi muammolar ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, ayrim

holatlarda bolalarning telefon yoki planshetga kuchli qaramligi ularning tabiiy ijtimoiylashuv jarayonini izdan chiqarib, raqamli autizmga xos belgilar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa nafaqat ta’lim-tarbiya jarayoniga, balki jamiyatning kelajak taraqqiyotiga ham bevosita ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan jiddiy pedagogik va psixologik muammodir.

Bugungi O‘zbekistonda ushbu muammoning dolzarbligi shundaki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ko‘pchiligi axborot texnologiyalaridan erta yoshdan foydalanishni boshlaydi, biroq bu jarayon ko‘pincha nazorat va me’yor asosida tashkil etilmaydi. Natijada, bolalarning tabiiy ijtimoiy muhitda muloqotga kirishish, emotsional aloqalar o‘rnatish, ijtimoiy rollarni egallash kabi muhim kompetensiyalarining shakllanish jarayoni sustlashadi. Shunday ekan, raqamli autizmga uchragan maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiylashtirish bo‘yicha samarali pedagogik va psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish, amaliy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Ushbu maqola aynan mazkur muammoni chuqur o‘rganish, raqamli qurilmalarning bolalar rivojlanishiga ta’siri va ijtimoiylashuvdagi cheklanishlarni aniqlash, shuningdek, raqamli autizm alomatlariga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Raqamli autizm tushunchasi so‘nggi o‘n yilliklarda bolalarning ekranli qurilmalarga ortiqcha bog‘lanishi natijasida ijtimoiy faoliyatdan chetlashishi, muloqotga qiziqishining susayishi va autistikga o‘xshash belgilar paydo bo‘lishi tufayli ilmiy adabiyotlarda shakllangan atama hisoblanadi. Raqamli autizmning kelib chiqishiga bir nechta omillar ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi navbatda, bolalarning uch yoshgacha bo‘lgan davrda telefon, planshet yoki televizor bilan ortiqcha band bo‘lishi ularning nevrologik rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “Tadqiqotlarga ko‘ra, ushbu davrda ekran ta’siri nutq markazlari faoliyatini sekinlashtirishi, kuzatuv va eshituv idrokini bir yoqlama yuklashi mumkin”.[30] Shuningdek, ota-onaning bolaga yetarli emotsional e’tibor bermasligi, ota-ona muloqotining o‘rnini elektron qurilmalar egallashi ham raqamli autizmning shakllanishiga sabab bo‘ladi. “Ba’zi mutaxassislar fikricha, bola ekran bilan uzoq vaqt band bo‘lganda uning miyasida dopamin ajralishi oshadi, bu esa qurilmaga qaramlikni kuchaytiradi”[31].


Raqamli autizm bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. “Masalan, Fransiyalik pediatr Michel Desmurget bolalarda ekran oldida ortiqcha vaqt o‘tkazish nutqni 2–3 baravar kechiktirishi mumkinligini isbotlagan ”[32]. “Amerika

1.Desmurget, M. (2019). La fabrique du crétin digital. Paris: Seuil.
[31] Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2017). Social networking addiction. Journal of Behavioral Addictions.
[32]Desmurget, M. (2019). Digital dementia research

Pediatriya Akademiyasi (APA) esa bolalarning 2 yoshdan oldin ekran bilan band bo‘lishi miyaning frontal qismida rivojlanish sustlashuviga olib kelishini tasdiqlagan”[33]. Shuningdek, “Janubiy Koreya olimlarining tadqiqotida raqamli qurilmaga bog‘langan bolalarda ijtimoiy muloqotning keskin pasayishi aniqlangan ”[34]. Bu izlanishlar raqamli autizmning jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo ekanini tasdiqlaydi. Raqamli autizmga xos belgilar ko‘pincha klassik autizmga o‘xshash bo‘lib, ammo ular texnologik ortiqcha stimulyatsiya natijasida yuzaga keladi. Eng ko‘p uchraydigan belgilarga quyidagilar kiradi (1-rasm):

- **Muloqotga qiziqishning pasayishi** – bola ko‘z bilan aloqa qilmaydi, chaqirilganda javob bermaydi.
- **Nutqning kechikishi yoki yo‘qligi** – ekran oldida uzoq vaqt o‘tiradigan bolalarda nutq rivoji sezilarli darajada ortda qoladi [35].
- **Emotsional javoblarning sustligi** – bola tabassum qilmaydi, kulmaydi, his-tuyg‘ularini ifoda etmaydi.
- **Ijtimoiy o‘yinlarga qiziqmaslik** – tengdoshlar bilan (rol o‘ynash, qurilish, syujetli o‘yinlar) ishtirok etmaydi.
- **Bir xil harakatlar** – chayqalish, bir predmetni qayta-qayta aylantirish, tovushlarga haddan ortiq sezgirlik.
- **Ekranga kuchli bog‘lanish** – telefon yoki planshetsiz tinchimaydi, video o‘chsa, tajovuzkor yoki yig‘loqi bo‘lib qoladi.

1-rasm



[33] American Academy of Pediatrics. Screen time guidelines, 2020.

[34] Kim, H., et al. (2021). Digital addiction and social withdrawal in preschoolers. Korean Journal of Child Studies.

[35] Christakis, D. (2018). The effects of digital media on children’s development. Pediatrics.

Ushbu belgilar o‘z vaqtida aniqlansa, pedagogik va psixologik yordam yordamida bartaraf etilishi mumkin.

Raqamli autizmga uchragan bolalarni ijtimoiylashtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Birinchi navbatda, bolada ekran oldida o'tkazadigan vaqtni keskin emas, balki asta-sekin kamaytirish tavsiya etiladi. “Mutaxassislar kunlik ekran vaqtini 20-30 daqiqadan oshirmaslikni ta’kidlaydi ” [36]. Shu bilan birga, bolaning real hayotdagi emotsional va kommunikativ faoliyatini tiklashga qaratilgan mashg‘ulotlar muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik tavsiyalar:

1. Bolani real muloqotga jalb qiluvchi mashg‘ulotlarni ko‘paytirish.
2. Syujetli-rolli o‘yinlar orqali ijtimoiy rollarni o‘rgatish.
3. Kichik guruhli o‘yinlarda tengdoshlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.
4. Har kuni kamida 1– 2 soat ochiq havoda o‘yin va muloqot tashkil etish.
5. Multisensor muhit orqali emotsional aloqani kuchaytirish (qum terapiyasi, suv o‘yinlari).

Psixologik tavsiyalar:

1. Bola bilan ko‘z orqali aloqa o‘rnatish bo‘yicha maxsus mashqlar.
2. “Birgalikda o‘yin boshlash” texnikasi – bola nima bilan band bo‘lsa, kattalar o‘sha faoliyatga qo‘shiladi.
3. Nutqni rivojlantiruvchi logopedik mashqlar.
4. Pozitiv mustahkamlash – har bir to‘g‘ri harakat uchun maqtov va rag‘bat.
5. Sensor integratsiya mashqlari: muvozanat doskasi, taktil yo‘lakcha, yumshoq to‘plar.

Raqamli autizmga ega bolalarni ijtimoiy faoliyatga qaytarishning eng samarali yo‘llaridan biri – o‘yin texnologiyalaridir. Eng samarali o‘yinlar quyidagilar:

- **“Ko‘zga qaraymiz” o‘yini** – bir necha soniya ko‘z bilan aloqa o‘rnatish.
- **“Kim nima qilyapti?” syujetli o‘yini** – rollarni taqsimlash, masalan, “doktor–bemor”, “sotuvchi–xaridor”.
- **Qurilish o‘yinlari** – lego, konstruktorlar orqali birgalikda qurilish qilish.
- **Harakatli o‘yinlar** – “Topib kel”, “Poyga”, “Sharchani ushla”.
- **Qum va suv o‘yinlari** – sensor integratsiya kuchli bo‘lgan bolalarda juda samarali.

Bu o‘yinlar bolada emotsional javobni kuchaytiradi, ijtimoiy aloqalarni tiklaydi va muloqotga qiziqishni oshiradi.

[36] American Academy of Pediatrics (2016). Media and Young Minds. AAP Publications

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekranli qurilmalardan ortiqcha foydalanishi ularning ijtimoiy va nutqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, natijada raqamli autizmga xos belgilar paydo bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarni ijtimoiylashtirishda pedagogik va psixologik yondashuvlar, syujetli o‘yinlar va ochiq havodagi faoliyat samarali vositalardir. Shu bilan birga, ota-onalar va tarbiyachilar bilan hamkorlikda ekran vaqtini me’yorlash bolalarning muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, raqamli autizmga uchragan bolalarni ijtimoiylashtirish tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Desmurget, M. (2019). La fabrique du crétin digital. Paris: Seuil.
2. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2017). Social networking addiction. Journal of Behavioral Addictions.
3. Desmurget, M. (2019). Digital dementia research.
4. American Academy of Pediatrics. Screen time guidelines, 2020.
5. Kim, H., et al. (2021). Digital addiction and social withdrawal in preschoolers. Korean Journal of Child Studies.
6. Christakis, D. (2018). The effects of digital media on children’s development. Pediatrics.
7. American Academy of Pediatrics (2016). Media and Young Minds. AAP Publications

❁❁❁❁❁

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH SOHASI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI.

Marufova Munira Egamqulovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta'lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Bolalarning emotsional holatini anglash, ularni boshqarish, hamdardlik hissini rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarga moslashuvchanlik kabi kompetensiyalar zamonaviy ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada bu sohadagi milliy va xalqaro tajribalar, pedagogik yondashuvlar hamda ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan usullar tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan taklif etilgan ijtimoiy- hissiy

kompetensiyalarni rivojlantirish tizimi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va bolalarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-hissiy rivojlanish, maktabgacha ta’lim, kompetensiya, emotsional intellekt, pedagogik texnologiya, bolalar psixologiyasi, sotsializatsiya.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ayniqsa ularning ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish bolaning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar tuyg‘ulariga hamdard bo‘lish, ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyalar bolalar shaxs sifatida shakllanishida, maktabga tayyorgarligida, jamoada ishlash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’limning ilk bosqichida, ya’ni maktabgacha yosh davrida aynan ijtimoiy va hissiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar, pedagogik sharoitlar va samarali usullarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar kontekstida bolalar ijtimoiy-hissiy taraqqiyotining tizimli rivojlanishini ta’minlash dolzarb ilmiy-amaliy masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada aynan shu masalaning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari, mavjud muammolar va ularni hal qilish mexanizmlari yoritib beriladi.

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini o‘rganish uchun sifatli (kvalitativ) va qisman miqdoriy (kvantitativ) yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompleks va integrative tahlil asosida tashkil etildi. Asosiy e’tibor bolalarning emotsional holati, ijtimoiy o‘zaro munosabatlari va hissiy javob berish qobiliyatlarini baholovchi indikatorlar asosida ularning kompetensiyalar darajasini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotning empirik bosqichida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 5–6 yoshdagi bolalar bilan amaliy kuzatuvlar, ota-onalar va tarbiyachilar bilan yarim strukturalashtirilgan intervyular, shuningdek, psixologik-diagnostik testlar o‘tkazildi. Diagnostik vosita sifatida L. D. Stolin va R. S. Nemov tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-emotsional rivojlanishni baholovchi testlar adaptatsiya qilinib, mahalliy sharoitga moslashtirildi. Shuningdek, pedagogik eksperiment asosida ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening va o‘yin texnologiyalari joriy qilindi.

Olingan natijalar kontent tahlil, statistik tahlil va taqqoslash metodlari yordamida qayta ishlanib, ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasi aniqlandi. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar asosida bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar tizimlashtirildi hamda pedagogik jarayonga metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu yondashuv izchil nazariy tahlil va amaliy kuzatuv asosida mustahkamlangan bo‘lib, holatni chuqur anglashga imkon berdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini ta’minlashga doir ilmiy tadqiqotlar soni so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar bolalarda emotsional muvozanat, ijtimoiy moslashuv, hamdardlik, o‘zini anglash va boshqalar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini shakllantirishning zarurligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbek pedagogikasida bu borada A. A. Avazxo‘jayevning maktabgacha ta’lim psixologiyasiga oid asarlari (2021) muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Unda bolalar psixikasi va hissiy olamini tushunishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, N. U. Qodirova (2019) o‘z tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy barqarorlik va o‘zini tutish kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘yin metodlarining rolini asoslab bergan. Mahalliy tadqiqotchilardan G. M. Xo‘jaqulova (2020) ijtimoiy-hissiy rivojlanishning shaxs kamolotidagi o‘rnini chuqur tahlil qilgan bo‘lib, uning fikricha, ijtimoiy his-tuyg‘ularni erta yoshdan boshlab shakllantirish, bolalarni kelgusida ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim omilidir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining davlat standarti”da ham ijtimoiy-hissiy rivojlanish alohida yo‘nalish sifatida belgilanib, bu yo‘nalishdagi kompetensiyalar batafsil ko‘rsatilgan.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasi nafaqat psixologik, balki pedagogik yondashuvlar asosida ham yoritilishi lozim. Bu esa ushbu yo‘nalishda nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borish uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni tizimli, bosqichma-bosqich va tarbiyaviy yondashuvlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Amaliy kuzatuvlar va diagnostik tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, emotsional tushunchalarni anglash, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish qobiliyatlari bolalarning kelgusi ta’lim bosqichlaridagi ijtimoiy muvaffaqiyati uchun mustahkam asos yaratadi. Treninglar, rolli o‘yinlar

va interaktiv metodlar orqali olib borilgan pedagogic ishlar natijasida bolalarda ijtimoiy-hissiy refleksiya, hamdardlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining sezilarli darajada oshganligi kuzatildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan pedagogik eksperiment natijalarini ifodalovchi sodda va kichik jadval keltirilgan:

1-jadval. Eksperimentdan oldin va keyin bolalarning ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalar darajasi (%)

Eksperimentgacha (%) Eksperimentdan so‘ng (%)

Ko‘nikma turi O‘z hissiyotini anglash 48% 76%

Boshqalar hissiyotiga e’tibor 52% 81%

Hamkorlikda o‘ynash qobiliyati 45% 79%

Ijtimoiy muammolarni hal qilish 40% 70%

Izoh: Jadvalda maktabgacha yoshdagi 5–6 yoshli bolalar bilan olib borilgan maxsus trening va pedagogik ishlar asosida ularning asosiy ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarida qayd etilgan ijobiy o’sish aks ettirilgan. Bu natijalar pedagogik yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

qilib aytganda, maktabgacha yoshda ijtimoiy-hissiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik tizimlarni yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bolalarning emotsional salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘zaro hurmat, birdamlik va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini erta yoshdan rivojlantirish orqali ular jamiyatga moslashgan, ruhiy barqaror va faol shaxslar sifatida shakllanadi. Shu boisdan, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyaviy dasturlarni ijtimoiy-hissiy rivojlanishga yo‘naltirish, tarbiyachilar malakasini oshirish va metodik ta’minotni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avazxo‘jayev A. A. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.

2. Qodirova N. U. Bolalarda hissiy barqarorlikni rivojlantirish metodlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.

3. Xo‘jaqulova G. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy hissiy ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llari. – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining davlat standarti. – Toshkent, 2022.

5. Avazxo‘jayev A. A. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.

6. Qodirova N. U. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional rivojlanish va uni shakllantirish yo‘llari. – Samarqand: SamDU, 2019.
7. Xo‘jaqulova G. M. Ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda interaktiv metodlarning o‘rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Karimova D. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari. – Andijon: Pedagogika, 2022.
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining davlat standarti. – Toshkent, 2022.
10. Abdurahmonova N. S. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional tarbiyaning metodik asoslari. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2023.

NUTQ – AQLNING KO‘ZGUSI: MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR TAFAKKURINI TIL ORQALI RIVOJLANTIRISH

Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Meyliyeva Nafosat Gulomovna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi
Ilxomova Shaxnoza

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida nutqni rivojlantirishning dolzarbligini tahlil qiladi. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarning keyingi ta'lim bosqichiga tayyorligini ta'minlashda nutqiy ko'nikmalarning hal qiluvchi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasida soha bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, xususan, “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” va “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti”ga asoslanadi. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ibn Sino kabi Sharq mutafakkirlari hamda Behbudiy, Fitrat kabi ma'rifatparvarlarning nutq va tarbiyaga oid qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, nutq rivojlanishi, nutq madaniyati, kommunikativ yondashuv, vizualizatsiya, Sharq mutafakkirlari, huquqiy asoslar, pedagogik rahbarlik, bolalar nutqi, ta'lim sifati.

Аннотация: Данная статья анализирует актуальность развития речи как одного из ключевых факторов повышения качества и эффективности в системе дошкольного образования. В ней освещается решающее значение речевых навыков для обеспечения готовности детей дошкольного возраста к следующему этапу образования. Исследование опирается на нормативно-правовые акты, принятые в Республике Узбекистан в данной сфере, в частности на «Концепцию развития системы дошкольного образования до 2030 года» и «Государственный стандарт дошкольного образования и воспитания». Анализируются взгляды восточных мыслителей, таких как Юсуф Хас Хаджиб, Алишер Навои, Ибн Сина, а также просветителей Бехбуди, Фитрата на речь и воспитание.

Ключевые слова: Дошкольное образование, развитие речи, культура речи, коммуникативный подход, визуализация, восточные мыслители, правовые основы, педагогическое руководство, детская речь, качество образования.

Abstract: This article analyzes the urgency of speech development as one of the key factors in enhancing quality and effectiveness within the preschool education system. It highlights the crucial importance of speech skills in ensuring preschool-aged children's readiness for the next stage of education. The study is based on regulatory and legal documents adopted in the Republic of Uzbekistan concerning this field, specifically the "Concept for the Development of the Preschool Education System until 2030" and the "State Standard for Preschool Education and Upbringing." The views on speech and education by Eastern thinkers such as Yusuf Khos Hojib, Alisher Navoi, Ibn Sina, and enlighteners like Behbudiy and Fitrat are analyzed.

Keywords: Preschool education, speech development, speech culture, communicative approach, visualization, Eastern thinkers, legal foundations, pedagogical guidance, children's speech, quality of education.

Kirish: Maktabgacha ta’lim tizimida sifat va samaradorlikka erishish ta’limning ilk bo‘g‘ini – poydevori mustahkamligini ta’minlovchi omildir. Bu faktorning zaruriyati maktabgacha yoshdagi bolalarning keyingi ta’lim bosqichi – maktablarga tayyor holda borishini ta’minlaydi. Ko‘zlangan ushbu maqsadga erishish uchun sohada qator islohotlar olib borildi me’yoriy-huquqiy asos yaratildi. Xususan, 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802- son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti” hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun zaruriy ta’lim sharoitlarini yaratishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Assosiy qism: Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini rivojlantirish doimo dolzarb va muhimdir. Nutq o‘stirish muammosi har doim maktabgacha didaktikaning etakchi muammolaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi. Bolaning ona tilini egallashida o‘qitishning o‘rni maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida beqiyosdir. Nutq madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Imom atTermiziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Rudakiy kabi buyuk daholarning asarlarida nutq va uning inson hayoti va faoliyatidagi ahamiyati erkin misollarda ifoda etilgan. Behbudiy, Fitrat, Qori-Niyoziy, Munavvar Qori, Saidrasul Saidazizovlar ham o‘zlarining asarlarida bolalar nutqini rivojlantirishda nimalarga e‘tibor berish kerakligi to‘g‘risida o‘zlarining qimmatli fikrlarini bildirganlar. Ibn Sino bolalar bilan xotirjamlik bilan va uning kishi bilan baqirmasdan gaplashishni va suhbatni ertaklar va afsonalar bilan boshlash kerakligini o‘rgatdi. Alisher Navoiy so‘zlar, nutq va uning inson hayotidagi ahamiyatini tasvirlar orqali yuksak badiiy tarzda ifoda etgan. Bola nutq orqali o‘z fikrlarini ifoda etishi va atrofdagilar bilan muloqot qilishi sababli, nutqni o‘zlashtirib u atrofdagi dunyoni tushunadi va boshqa bolalar bilan muloqot qilish natijasida nutqi va fikrlashi rivojlanadi. Hozirgi vaqtda bolalarning aqliy va nutqiy rivojlanishining yuqori darajasini, ularning til qobiliyatini shakllantirishni ta‘minlaydigan bolalar ta‘limini tashkil etishning maqbul shaklini topish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularga badiiy asar namunalarini o‘rgatish sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarning tahlili bizni xulosa qilishga imkon beradi, nutqni rivojlantirish – bu bolada markaziy rol o‘ynaydigan ijtimoiytarixiy tajribani o‘zlashtirishning juda murakkab va ko‘p qirrali jarayoni, individual rivojlanish. Bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayondir. Bolaning nutqni rivojlantirish jarayonini boshqaradigan tarbiyachi-pedagog ushbu ta‘limiy sharoitning qonuniyatlari, mexanizmlari va xususiyatlarini bilishi va nutqiga ta‘sir ko‘rsatishning eng samarali usullarini tanlashi kerak. Bolaning nutqini rivojlantirish ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, ijtimoiylashuviga bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish – bu nafaqat bola eshitgan nutqga taqlid qilish, balki murakkab psixologik jarayondir. Ushbu jarayon umuman bolalarda aloqa faoliyatini rivojlantirish va avvalambor, muloqotga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq. Bolaning so‘z boyligini kengaytirish unga o‘z tajribalarini yanada kengroq va xilma-xil ifodalashni o‘zlashtirishga imkon beradi. Yurtimiz olimlaridan esa F.R. Qodirova, L.Muminova, D.R.Babaeva va

G.Turdialiyevalar o‘z ilmiy izlanishlarida bolalar nutqini o‘stirish muammosini tahlil qilganlar. Xorijiy olimlardan esa N.V. Gavrish, A.M. Borodich, V.V. Gerbova, E.V. Savushkina, O.S. Ushakova, E.M. Strunin, L.S. Vigotskiy, A.N. Gvozdev, P.Ya. Galperin, G. Davletshin, N.I. Jenkin, V.L. Zankov, I.I. Ilyasov, S.L. Rubinshteyn bolalar nutqini o‘stirishda ekspressiv yondashuv va nutqni shakllantirishda ta’limiy o‘yinlarning ahamiyati yuqori ekanligini tajribalar orqali asoslaganlar. shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni o‘qitish va o‘qitish uchun asos bo‘lgan izchil nutqni rivojlantirish uchun muhim ekanliginini o‘rganishgan. Shundan kelib chiqqan holda, biz tadqiqotimiz davomida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqini o‘stirishga zamonaviy yondashuvlar zaruriyatini tahlil qildik. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqladik: tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo nutq eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinroq egallaydi); aniq talaffuz hosil qilish (so‘z va so‘z birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish); so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish ustida ishlash; nutqning orfoepik jihatdan to‘g‘riligi ustida ishlash (bu namunaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami); nutq sur‘atini rivojlantirish; nutqning ifodaliligini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya‘ni nutqning ongli ifodalanishi); nutqiy aloqa ko‘nikmalarini tarbiyalash; nutqiy eshitish ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi uchun namunali nutqqa ega bo‘lish uning kasbiy tayyorgarligining ko‘rsatkichidir. Tayyorlov guruhlarida nutq o‘stirish ta‘limiy faoliyatlarida nutqini rivojlantirish masalasi badiiy so‘zni idrok qilishni yaxshilashga, asar mazmunini mustaqil ijodiy bayon qilish mahoratini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon sifatida qaraldi. So‘nggi o‘n yilliklarda maktabgacha yoshda va inson hayoti davomida nutqni o‘zlashtirish masalalarini o‘rganish ishlari jadallashgan. Chunki til odamlar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, ularning fikrlari, hissiyotlari va intilishlarini ifoda etish, fikrlarni shakllantirish vositasidir. Ushbu vosita qanchalik mukammal bo‘lsa, insonning o‘qitilishi va aqliy rivojlanishi yanada muvaffaqiyatli bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv muloqot va nutqni muvaffaqiyatli rivojlantirish – bu rivojlanishning qulay davrida bolalarning aqliy, badiiy va nutqiy tarbiyasi muammolarini hal qilishning zaruriy sharti. Bog‘lanishli nutq qanchalik faol rivojlangan bo‘lsa, bola undan erkin foydalanadi. Ravon nutqiy ko‘nikmaga ega tarbiyalanuvchilar erkin fikr yuritishga, savollar berishga, xulosalar chiqarishga, narsalar va hodisalar o‘rtasidagi turli xil aloqalarni aks ettirishga imkoniyati keng bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabda o‘qish uchun nutqqa

tayyorligini shakllantirishda aynan nutq o‘stirish ta‘limiy faoliyatlari davomida o‘rganiladigan bolalar adabiyoti namunalari, xalq ertak va rivoyatlari va she‘rlarning tizimli o‘rganilishi katta ahamiyatga ega. Nutqni rivojlantirish muammosi quyidagi faoliyat turlarida hal qilinadi: o‘yin, o‘quv va bilim. O‘yin faoliyati maktabgacha yoshda etakchi faoliyatdir. O‘yin paytida bola bilimlarni to‘playdi, ona tilini o‘rganadi, muloqot qiladi, fikrlaydi va tasavvurini rivojlantiradi, ammo ta‘limiy topshiriqlar o‘yin muhitida olib borilsa, bolaning bilish kompetensiyalari yanada rivojlanadi. Maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarning faol nutqiy ko‘nikmalari muvaffaqiyatli shakllantirilsa, bolalarning nutqiy kompetensiyalarini optimal vositalar orqali rivojlantirish bo‘yicha samarali usullarni yaratish ehtiyoji vujudga keladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning nutqiy faolligini oshirish alohida ahamiyatga ega. Sababi bir qator kompetensiyalar qatorida nutq va muloqot ko‘nikmalari rivojlangan bolagina maktab ta‘limiga tayyor hisoblanadi. Aynan mazkur kompetensiya O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti”, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida tarbiyalanuvchilarda faol rivojlantirilishi zarurligi belgilab berilgan. Bolalarning turli nutqiy qobiliyatlarini shakllantirishda ularga o‘zlarining ona tilidagi badiiy asarlar bilan tanishtirish bilan birga axloqiy-ma‘naviy sifatlari ham tarbiyalanadi. Ushbu vazifalarni amaliyotda to‘laqonli bajarish va innovatsion texnologiyalardan foydalanib badiiy adabiyotlardan foydalanish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy faolligini oshirishning dolzarbligi shundan iboratki, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tobora ko‘proq e‘tibor berilmoqda, ammo hamma amaliyotchilar ham ta‘limiy jarayonda undan to‘g‘ri foydalana olmaydilar. Bolalarning rivojlanishini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, nutqiy faollik noan‘anaviy ta‘lim sharoitida boshqa faoliyat turlariga qaraganda samaraliroq rivojlanadi, shuning uchun tarbiyalanuvchilarni keng nutqiy faoliyatga kirishishga undaydigan badiiy adabiyotlarni zamonaviy pedtexnologiyalar asosida o‘rgatish metodikasiga tayanish tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirishdagi eng muhim usul hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning izchil nutqini shakllantirish va faollashtirish uchun an‘anaviy usul va metodlar bilan bir qatorda quyidagi innovatsion texnologiyalar qo‘llaniladi: 1. Vizual modellashtirish texnologiyasi. 2. AKT texnologiyalari. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o‘rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o‘rgatishdir. Tarbiyachilar esa egallagan mahorati yordamida bolalarda zaruriy nutqiy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga

harakat qiladilar. Nutq o‘stirish metodikasi maqsadi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo‘lish malakasini shakllantirishdan iborat bo‘libgina qolmay, o‘z ichiga bir qancha maxsus xususiy vazifalarni ham qamrab olgan. Jumladan: 1. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish. 2. Bolalarni badiiy adabiyot namunalari bilan tanishtirish va lug‘at boyligini oshirish. 3. So‘zlashuv nutqini (dialog) shakllantirish. 4. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash. 5. Hikoya qilishga o‘rgatish (monologik nutqni shakllantirish). 6. Bolalarning eslab qolish ko‘nikmalarini shakllantirish va kichik she‘riy matnlarni yod olishga tayyorlash. “Skraybing” - (inglizcha “sribe” so‘zidan olingan bo‘lib, tasvirlar chizish) – asar mazmuniga mos ravishda sodda va qiziqarli tasvirlar ketma-ketligi jamlanadi. Skraybing texnikasida so‘zlash orqali oq doskaga (yoki qog‘ozga) flomaster bilan mavzuga oid rasmlar chizishni bolalardan so‘rash mumkin. Qoida tariqasida shuni aytish mumkinki, hikoyaning asosiy joylari va ular o‘rtasidagi munosabatlar tasvirlanadi. Jonli tasvirlarni yaratish tinglovchining og‘zaki nutq bilan vizual bog‘lanishiga olib keladi, bu esa tarbiyalanuvchilarda axborotni o‘zlashtirishning katta foizini ta‘minlaydi. “Infografika” – ushbu usul ham axborot, ma‘lumot va bilimlarni taqdim etishning grafik usulidir. Infografikaning asosiy maqsadi murakkab ma‘lumotlarni oddiy tasvir va belgilar bilan tushuntirish, shuningdek, ma‘lumotlarni ixcham va noodatiy tarzda yetkazishdir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida eng ko‘p foydalaniladigan infografika texnikasi – bu tasavvurlarni shakllantirish orqali ma‘lumotlarni tez eslab qolish va uni ko‘paytirish vositasi mnemo sanaladi. Mnemonik rasmlardan foydalanish orqali bolalarda o‘rganilayotgan asar bo‘yicha tasavvur va qiziqish uyg‘onadi, ularda yodlash jarayoni osonlashadi va bilimlarni o‘zlashtirish tezlashadi, xotira va fikrlash bilan ishlash usullari shakllanadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyachilar ko‘pincha mnemotexnikadan She‘rlarni yodlash va bilimlarni o‘zlashtirishga moslangan rasmlar va sxemalar yordamida izchil nutqni rivojlantirish uchun foydalanilishi maqsadga muvofiqdir. Hikoya qilishni o‘rgatish bo‘yicha innovatsion texnikalar “Birgalikda hikoyalar” o‘yini. Bu metod asosan, tayyorlov guruhlarida qo‘llaniladigan usul sifatida tavsiya etiladi. Bunda tarbiyachi o‘qib eshittirilgan matnga mos bo‘lgan plakat yoki slayd-shou tarzidagi videomaterialni namoyish qiladi va bolalar bunga asosan matn tuzishadi. Birgalikda hikoya qilish turli syujetlarni dramatizatsiya qilish bilan dapvom etadi. Asta-sekin, bolalar oddiy improvizatsiyalarga mos matn tuzishni o‘rganadilar. “O‘zing ertak yarat” o‘yini. Bolalarga bironta mavzu taqdim etiladi va ular bunga mos ravishda ertak yoki hikoya yaratishadi. Masalan, “Quyosh” mavzusida bolalardan matn yaratish so‘ralganda, ularga quyosh tasviri ko‘rsatiladi. Bolalar unga nisbatan tugallangan matnni yaratish topshiriq qilib beriladi. Bunda har bir

bolaning matni o‘ziga xos tarzda shakllanadi. Boisi, bolalar har biri o‘zicha tasavvur, xayol va fikrga ega hisoblanadi. Nima haqida gapiryapman? o‘yini. Maqsad: tarbiyalanuvchilarni topqirlikka, ijodkorlikka o‘rgatish, tahlil kila olish qobiliyatini rivojlantirish. Tarbiyachi o‘rganilgan matndagi qahramonning ismi va nomini aytmasdan, uningsh belgilarini aytadi. Tarbiyalanuvchilar esa tarbiyachining nutqidan gap nima yoki kim haqida ketayotganini bilib, nomini aytishi kerak. Masalan, u juda aqlli va mehnatkash, hayvonlarga mehribon, U hammaga yaxshilik qilishni istaydi. Ertalab turib hovliliarni supuradi, uning dangasa tanbal tengdoshi bor. U kim? (Tarbiyalanuvchilar bu “Zumrad va Qimmat” ertagidagi qahramon Qimmat ekanligini topishadi. Axborot va kompyuter texnologiyalari maktabgacha ta‘lim tizimiga qat‘iy kiritilgan bo‘lishi innovatsion ta‘lim metodlaridan foydalanishning muhim talabidir. Badiiy asarlar ma‘nosini tushunish uchun faqat og‘zaki tushuntirishni tinglash, keyinchalik mantiqiy fikrlashni bog‘lash kerak bo‘lgan usullardan farqli o‘laroq, "yuz marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rish yaxshiroq" degan so‘z bolalar uchun eng mos keladi. Bola vizual-majoziy fikrlash bilan faqat bir vaqtning o‘zida ko‘rish, eshitish, ob‘yekt bilan harakat qilish yoki ob‘yekt harakatini baholash mumkin bo‘lgan narsani tushunadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni kichik badiiy asarlar bilan tanishtirishda albatta ko‘rgazmali usulda o‘rgatish juda muhimdir. Biz elektron vositalarda quyidagi turdagi tasviriy va vizual materiallardan foydalanish samarador ekanligini aniqladik: 1. Tovush materiallari – bu ertaklarning ovozli yozuvi. 2. Multimedia resurslari, ya‘ni, ma‘lum bir mavzuga bag‘ishlangan individual tasvir va videolar seriyasi. Taqdimot dinamikani, tovushni, rang-barang tasvirni birlashtiradi, bu ma‘lumotni idrok etishni sezilarli darajada yaxshilaydi. 3. Taqdimotlar – bu o‘rganilgan matnni bolalarga aytib berishga yordam beradigan, chiroyli, jonli rasmlari bo‘lgan material. Mazkur metodlardan ta’limiy jarayonda foydalanish orqali maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga erishish mumkinligini tajriba-sinov obyektlarida aniqladik.

Xulosa: Maktabgacha ta'lim tizimida sifat va samaradorlikka erishish, avvalo, uning poydevori bo'lgan nutqiy rivojlanishning mustahkamligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishning dolzarbligini, uning keyingi ta'lim bosqichlariga tayyorlikdagi hal qiluvchi ahamiyatini har tomonlama yoritib beradi. O'zbekiston Respublikasida sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Prezident Qarorlari va Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Davlat standartlari kabi me'yoriy-huquqiy

hujjatlarning mavjudligi ushbu yo'nalishdagi islohotlarning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Maqolada Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Alisher Navoiy, Ibn Sino kabi Sharq mutafakkirlari hamda Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori kabi ma'rifatparvar ziyolilarning nutq, tarbiya va inson kamolotiga oid qimmatli fikrlari tahlil etildi. Bu manbalar nutqning nafaqat muloqot vositasi, balki insonning aqliy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omili ekanligini tarixiy va falsafiy nuqtai nazardan asoslaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020-y., 09/20/802/1658-son)
2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. T.: 2018
3. “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim muassasasining o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018. 4. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.T:.2019-yil.
5. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.–T.:“Fan va texnologiyalar” nashriyoti,2011.– 275 b.
6. Бабаева Т.И., Римашевская Л.С. “Как развивать взаимоотношения и сотрудничество дошкольников в детском саду. Игровые ситуации, игры, этюды: учебно-методическое пособие — СПБ.: ООО «ИЗДАТЕЛЬСТВО «ДЕТСТВОПРЕСС”, 2012.
7. Ермолаева М.Г. Игра в образовательном процессе: Методическое пособие/ М.Г. Ермолаева. – 2-е изд., доп. – СПб.: СПб АППО, 2015.
8. R.Ishmuxamedov va b. “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar”, Toshkent, 2010.
9. Ishmuxamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish yo‘llari (2 kitob). – T.: TDPU, 2010
10. Babayeva Dono Razzoqovna nutq ustirish metodikasi,Toshkent–“Fan va texnologiya”– 2009

INKLYUZIV TA’LIMNI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Mizayeva Hulkar
Navoiy viloyati Karmana tuman
23- davlat maktabgacha ta’lim direktor o‘rinbosari
Tel:93.314-33-27

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish jarayonida uchraydigan asosiy pedagogik muammolar va ularning amaliy yechimlari yoritilgan. Tadqiqotda pedagog kadrlarning professional tayyorgarligi yetarli emasligi, metodik ta’minotning kamligi, infratuzilmaning talab darajasida emasligi hamda ota-onalarning psixologik tayyorligidagi muammolar asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun pedagoglarning malakasini oshirish, maxsus metodik resurslarni yaratish, infratuzilmani yaxshilash va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish kabi yechimlar taklif etilgan. Maqola inklyuziv pedagogikani takomillashtirishda amaliyotchi pedagoglar va mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik muammolar, adaptatsiya, infratuzilma, defektologiya, korreksion rivojlantirish, individual ta’lim dasturi, sensor muhit, ota-ona hamkorligi, ijtimoiy moslashuv, logopedik yordam, pedagog malakasi, psixologiya.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning individual imkoniyatlarini rivojlantirish va barcha bolalar uchun teng ta’lim olish imkoniyatini yaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim — bu imkoniyati cheklangan bolalarning sog‘lom bolalar bilan birgalikda tarbiyalanishi va o‘qishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan pedagogik tizim bo‘lib, uning maqsadi har bir bolaning rivojlanish potensialini maksimal darajada ochib berishdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni amalga oshirish bir qator muammolarga duch keladi. Bu muammolarni chuqur o‘rganish va ularning ilmiy-amaliy yechimlarini takomillashtirish inklyuziv pedagogikaning samaradorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq, O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabr yildagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan “2020 — 2025 yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish” Konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, ularning ta’lim olish huquqini kafolatlash va ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya asosida mamlakatimizda ham inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish borasida qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlovchi pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ularga metodik yordam ko‘rsatish tizimi ham bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

Asosiy qismi. 1. Inklyuziv ta’limni amalga oshirishda uchraydigan asosiy pedagogik muammolar. **1.1. Pedagog kadrlarning tayyorgarlik darajasi pastligi.** Inklyuziv ta’limni tashkil etishda asosiy muammolardan biri — tarbiyachi va pedagoglarning maxsus pedagogika, defektologiya, logopediya va psixologiya sohasida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligidir. Ko‘plab tarbiyachilar imkoniyati cheklangan bolalar bilan individual ishlash, maxsus dasturlardan foydalanish yoki korreksion yondashuvlarni qo‘llashda qiyinchilikka duch keladi.

1.2. Metodik ta’minotning yetarli emasligi

Inklyuziv ta’lim uchun maxsus adaptatsiya qilingan darsliklar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, individual taqlim dasturlari (ITD) va rivojlantiruvchi o‘yinlar majmuasi ko‘p hollarda yetarli darajada emas. Bu esa pedagoglarga har bir bolaning ehtiyojiga moslashtirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazishda qiyinchilik tug‘diradi.

1.3. Material-texnik bazaning kamligi

Inklyuziv guruhlar uchun zarur bo‘lgan maxsus jihozlar, korreksion o‘quv qurollari, sensor xonalar, logoped va psixolog xonasi yetarli emas. Mahalliy o‘quv

muassasalarida Barqaror rivojlanish standartlariga mos inklyuziv infratuzilmani yaratishga ehtiyoj yuksak.

1.4. Ota-onalarning psixologik tayyor emasligi

Ba’zi ota-onalar imkoniyati cheklangan bolalarning guruhda bo‘lishiga nisbatan salbiy munosabat bildirishi mumkin. Boshqa ota-onalar esa farzandining maxsus ehtiyojga ega ekanligini tan olishni istamaydi, bu esa muassasa va oila o‘rtasidagi hamkorlikni qiyinlashtiradi.

1.5. Bolalarning ijtimoiy moslashuvidagi qiyinchiliklar

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim va tarbiya jarayoniga to‘liq qo‘shilishi uchun vaqt, individual yordam va moslashtirilgan muhit talab etiladi. Mos sharoit bo‘lmasa, bolalarda emotsional zo‘riqish, adaptatsiya muammolari va o‘z-o‘zini past baholash yuzaga kelishi mumkin.

2. Inklyuziv ta’limni takomillashtirish bo‘yicha yechimlar

2.1. Pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish

Inklyuziv pedagogika bo‘yicha maxsus kurslar, treninglar va seminarlarni muntazam tashkil etish zarur. Pedagoglar korreksion-pedagogik metodlar, individual tarbiya dasturlari, psixologik ko‘mak uslublarini chuqur o‘rganishi lozim.

2.2. Ilovaviy metodik materiallar yaratish

Mutaxassislar bilan hamkorlikda ta’lim dasturlarini adaptatsiya qilish, maxsus o‘quv qo‘llanmalar, sensor ishlar majmualari, logopedik kartalar va inklyuziv o‘yinlar to‘plamlarini ishlab chiqish muhim. Har bir bola uchun individual ta’lim yo‘nalishi tuzilishi kerak.

2.3. Infratuzilmani yaxshilash

Maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim uchun qulay muhit yaratish:

– panduslar, keng eshiklar, maxsus hojatxonalar;

– sensor xona, korreksiya markazi, logoped va psixolog xonalari;

– rivojlantiruvchi o‘yinlar va jihozlar bilan ta’minlash.

2.4. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish

Ota-onalar uchun seminarlar, maslahatlar va treninglar o‘tkazish orqali ularning inklyuziv ta’limga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish mumkin. “Ota-ona – pedagog – mutaxassis” uch tomonlama hamkorlik mexanizmi joriy etilishi tavsiya qilinadi.

2.5. Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash

Tarbiyachilar jamoa o‘yinlari, parvarish va hamkorlikka asoslangan metodlar orqali bolalarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashini ta’minlashlari zarur.

Psixologning doimiy ko‘magi, art-terapiya va sensor integratsiya mashg‘ulotlari ijobiy samara beradi. Masalan: Mashg‘ulot namunasi: “Rangli mehnat bog‘i”.

Maqsad: Bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash va hamkorlik qobiliyatini shakllantirish, sensor va motor ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Qatnashuvchilar: 5–6 yoshli bolalar (inklyuziv guruh). **Muddat:** 30–35 daqiqa. **Kirish (5 daqiqa).**

Tarbiyachi salomlashadi, bolalarni kichik doiraga yig‘adi

Har bir bola o‘zini bir so‘z bilan ifoda qiladi (“Men …man”)

Mashg‘ulot maqsadini qisqacha tushuntirish: “Bugun biz bog‘da ranglar bilan ishlaymiz va bir-birimizga yordam beramiz!”

2. Jamoaviy o‘yin (10 daqiqa).

- **O‘yin nomi:** “Rangli yulduzlar”
- Har bir bola turli rangdagi karton yulduzlarni oladi
- Maqsad: guruh bo‘yicha barcha yulduzlarni bitta katta rasmga jamlash
- Tarbiyachi bolalarga bir-biriga yordam berishini, materiallarni o‘rtoqlashishini iltimos qiladi
- Psixolog yordamida bolalarni hamkorlikka rag‘batlantirish

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Inklyuziv ta’limning maqsadi — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’limni amalga oshirish — jamiyatda barqaror rivojlanish, inson huquqlariga hurmat va teng imkoniyatlar prinsiplarini ta’minlashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan pedagogik muammolarni bartaraf etish uchun davlat, ta’lim muassasalari, pedagoglar, mutaxassislar va ota-onalarning birgalikdagi harakati zarur. Pedagoglarning malakasini oshirish, metodik bazani mustahkamlash, infratuzilmani yangilash va ota-onalar bilan samarali hamkorlik inklyuziv ta’limning asosiy poydevoridir. Natijada har bir bola – jismoniy, ruhiy yoki aqliy rivojlanishidan qat’i nazar – o‘z imkoniyatini to‘liq namoyon qilishga, jamiyatda munosib o‘rin egallashga erishadi.

Inklyuziv ta’lim bo‘yicha adabiyotlar (O‘zbekiston va jahon)

1. **Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Инклюзив таълим концепцияси”** — расмий ҳужжат, Инклюзив таълим концепцияси ҳақида. Ziyonet

2. **Fayzieva, U. Y.** — “Conditions and methods of implementation of inclusive education in Uzbekistan” — мактабда имконияти чекланган болалар учун инклюзив таълим жараёнларини, тўсиқни енгиш усулларини таҳлил қилиб, психологик, педагогик ёндашувлар, имкон яратиш масалаларини кўриб чиқади. zienjournals.com

3. **Umarova, Saboxon M.** — “Integration and inclusive education of children with disabilities into the general education system” — умумтаълим муассасаларида ногиронлиги бўлган болаларни инклюзив таълимга жалб қилиш, уларнинг талабларини қондириш масалалари. science-technology.uz

4. **Курбонова, Махтума Фазлиддиновна** — “Inclusive Education and New Pedagogical Approaches Used in Higher Education System in Uzbekistan” — олий таълимда инклюзив таълимни жорий қилиш, педагогик ёндашувлар ва муаммолар. scientifictrends.org

5. **Ibadullayeva, Sharofat N., Boqiyeva, Sevinch E., Ахмадалиева, Оғилча Ю.** — “Overcoming Barriers to Inclusive Education in New Uzbekistan: Challenges, Strategies, and Future Directions” — инфраструктура, мутахассислик, сиёсий ва ижтимоий тўсиқларни кўриб чиқади ва уларни енгиш стратегияларини таклиф этади. ejournal.bumipublikasinusantara.id

6. **Kobilova, Shakhnoza K., Safarova, Ferangiz A., ва бошқалар** — “Pedagogical and Psychological Factors for Ensuring the Sustainability of Inclusive Education in Uzbekistan” — устозларнинг психологияси, таълим муҳити ва ресурслар — инклюзивликни узоқ муддатда сақлаш учун муҳим факторлар. ejournal.bumipublikasinusantara.id

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Shomurodova Nozima Baxriddin qizi - Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Kamolova Munavvarxon Azamat qizi – Navoiy innovatsiyalar universiteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-kurs 1-guruh talabasi
raxmatovanozima278@gmail.com Tel. raqam +99888 796-12-08

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirish jarayonining pedagogik va psixologik asoslari, bu jarayonda qo‘llaniladigan samarali usullar va texnologiyalar haqida so‘z yuritiladi. Bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun o‘yin, san’at, tajriba, suhbat, muammoli vaziyatlar va innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, tarbiyachining ijodiy muhit yaratishdagi roli, bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish bosqichlari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy fikrlash, tafakkur, maktabgacha ta’lim, innovatsion texnologiya, mustaqil faoliyat, o‘yin, pedagogik jarayon, motivatsiya.

Abstract

This article discusses the pedagogical and psychological foundations of the process of forming creative thinking in preschool children, effective methods and technologies used in this process. The importance of using games, art, experiments, conversations, problem situations and innovative methods to develop creative thinking in children is analyzed. The article also discusses the role of the educator in creating a creative environment, the stages of teaching children to think independently.

Keywords: creative thinking, thinking, preschool education, innovative technology, independent activity, game, pedagogical process, motivation.

Bugungi globallashuv davrida har bir sohada yangilik yaratish, ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlash qobiliyati eng muhim kompetensiyalar sirasiga kiradi. Shuning uchun ijodiy fikrlashni rivojlantirish ta’limning barcha bosqichlarida dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshda bu jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim – bu inson tafakkurining poydevori yaratiladigan davrdir. Shu davrda bola atrof-muhitni o‘rganadi, kuzatadi, taqqoslaydi, tahlil qiladi va o‘ziga xos tarzda fikrlay boshlaydi. Ayni paytda bolaning tasavvuri keng,

his-tuyg‘ulari boy, o‘yin orqali o‘z dunyosini ifoda etishga moyil bo‘ladi. Demak, bu yoshda ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng tabiiy sharoit mavjud.

Ijodiy fikrlash — bu shaxsning yangi, original, noodatiy g‘oyalar yaratish, mavjud narsaga boshqacha yondashish, muammolarga yechim topish qobiliyatidir. Bolalarda bu jarayon tabiatdan mavjud, ammo uni to‘g‘ri yo‘naltirish tarbiyachi va ota-onalarning vazifasidir.

Psixologlarning fikricha (L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, A.N. Leontyev), ijodiy tafakkur o‘yinda, muloqotda, kuzatishda va amaliy faoliyatda rivojlanadi. Bola har bir yangi tajriba orqali o‘z dunyoqarashini boyitadi va shaxs sifatida shakllanadi.

Bolada ijodiy fikrni uyg‘otishda tarbiyachi eng muhim rol o‘ynaydi. Chunki u bolaga har kuni yo‘l ko‘rsatadi, savollar beradi, fikrini eshitadi. Tarbiyachi bolalarga:

“Senga bu rasmda nima yoqdi?” yoki “Agar bu ertakni sen yozgan bo‘lsang, nimani o‘zgartirarding?” kabi savollar berib, ularni o‘ylashga majbur qilishi kerak.

Masalan, bola “Bo‘g‘irsoq” ertagini eshitganidan so‘ng, “Agar bo‘g‘irsoq uchib qutulganida nima bo‘lardi?” deb so‘ralsa, u o‘zicha yangi hikoya o‘ylab topadi — bu ijodiy fikrlashning eng yaxshi mashqi hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun tarbiyachidan quyidagi tamoyillarga amal qilish talab etiladi: Erkinlik va mustaqillik tamoyili-bola o‘z fikrini bemalol bildira oladigan muhit bo‘lishi kerak.

Rag‘batlantirish tamoyili- har bir bola o‘z g‘oyasi uchun ijobiy baho eshitishi zarur.

Individual yondashuv- har bir bolaning qiziqishlari va ijodiy salohiyati turlicha bo‘lgani uchun, tarbiyachi shunga mos sharoit yaratishi lozim.

Ko‘p hollarda ijodiy fikrlash faqat bog‘chada emas, uyda ham davom etishi kerak. Ota-onalar bolaga har kuni yangi savollar berishi yoki kichik ijodiy mashg‘ulotlar tashkil qilishi mumkin.

Masalan: Birgalikda kichik pishiriq tayyorlash, lekin uni noodatiy shaklda qilish. Qog‘oz, tugma, yoki bo‘yoqdan yangi o‘yin o‘ylab topish. Biror rasmga qarab “Bu odam nima his qilayapti deb o‘ylaysan?” deb so‘rash. Bunday oddiy mashg‘ulotlar bolaning hayol dunyosini kengaytiradi va uni fikrini erkin ifodalashga o‘rgatadi.

O‘yin orqali o‘qitish: o‘yin – bu bolalikning asosiy vositasi bo‘lib, u orqali bola yangi bilim va tajribani egallaydi. O‘yin faoliyatining ijodiy tafakkurdagi o‘rni:

O‘yin – bolalarning hayotiy tajribasini boyituvchi, ijtimoiy rollarni o‘rgatuvchi va ijodiy fikrlashni shakllantiruvchi asosiy vositadir.

Misollar: “Nimalardan foydalanib yasash mumkin?” o‘yini orqali bola oddiy buyumlarni noodatiy maqsadda ishlatishni o‘rganadi. Rolli o‘yinlar (masalan, “Kasblar olami”, “Shifokor va bemor”) ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va ijodiy harakat qilishni rivojlantiradi. Muammoli o‘yinlar bolani mustaqil qaror qabul qilishga, turli yechimlarni topishga o‘rgatadi.

Shuningdek, konstruktiv o‘yinlar (lego, kublar bilan qurish, rasmli mozaikalar) bolaning mantiqiy va fazoviy tafakkurini, sabr va aniqligini oshiradi.

San’at va estetik faoliyatning ta’siri:

Rasm, haykalchalar yasash, qo‘shiq kuylash, raqs, she’r o‘qish kabi faoliyatlar bolalarning ichki dunyosini boyitadi, his-tuyg‘ularini ifoda etish, rang, shakl, tovush orqali fikrini yetkazish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Masalan, “Tabiat fasllari” mavzusida bolalarga har kim o‘z ko‘rgan tabiat manzarasini rasmga olish topshiriladi. Natijada bolalar har xil tasavvurlarda, turli ranglarda ifoda etishadi — bu esa ijodiy yondashuvning namunasidir.

Tarbiyachi bolalarga “to‘g‘ri chizmading” deb tanbeh bermasligi kerak, aksincha, “Sen buni boshqacharoq tasvirlabsan, juda qiziqarli!” kabi so‘zlar bilan rag‘batlantirishi zarur. Innovatsion texnologiyalar orqali ijodkorlikni rivojlantirish: Bugungi kunda ta’limda STEAM texnologiyasi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) bolalarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Masalan: Tajriba mashg‘ulotlari: suv, havo, yorug‘lik bilan oddiy tajribalar o‘tkazish bolalarda qiziqish va kashfiyot ruhini uyg‘otadi.

Raqamli texnologiyalar: multimediali taqdimotlar, interaktiv doskalar orqali o‘qitish bolalarning diqqatini jalb qiladi. Aqliy hujum, klaster, sinkveyn metodlari esa bolalarni guruhda fikr almashishga, noodatiy javoblar topishga o‘rgatadi.

Ijodiy muhit va tarbiyachining roli. Ijodkorlik rivojlanadigan joyda erkinlik, ishonch va mehr muhiti bo‘lishi kerak. Tarbiyachi bolalar bilan samimiy muloqot o‘rnatishi, ularning har bir fikrini tinglashi lozim.

Shuningdek, tarbiyachi: Mashg‘ulotlarda savol-javob usulidan keng foydalanishi; Bolalarni mustaqil tanlov qilishga o‘rgatishi; Har bir bolaning yutuqlarini e’tirof etishi kerak.

Masalan, “Qanday qilib yomg‘ir paydo bo‘ladi?” degan savolga turli javoblar olish, ularni muhokama qilish orqali bolalar tafakkurini faollashtirish mumkin.

Ota-onalar bilan hamkorlik: Ijodiy fikrlash faqat bog‘chada emas, uy sharoitida ham davom etishi zarur. Ota-onalar bolalar bilan birgalikda rasm chizish, ertak o‘qish, kichik tajribalar o‘tkazish, savol berish orqali ularning tafakkurini rag‘batlantirishi mumkin.

Masalan, kechqurun “Bugun nimani o‘ylab topding?” yoki “Ertakdagi qahramon o‘rnida sen bo‘lsang nima qilarding?” kabi savollar bolaning tasavvurini kengaytiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish — nafaqat san’at bilan shug‘ullanish yoki o‘yin o‘ynash emas, balki bolaning dunyoni yangicha ko‘ra olish qobiliyatini shakllantirishdir. O‘yin, san’at, fan tajribalari va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi savollar orqali bola ichidagi ijodiy potentsial ochiladi. Tarbiyachi va ta’lim muassasasi esa bu jarayonda sharoit yaratuvchi va yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lishi lozim. Shu tarzda maktabgacha ta’lim bosqichida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, bola hayotida keyingi ta’lim hamda hayotdagi kompetensiyalar uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish – bu ularning kelajakdagi intellektual, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishining asosi hisoblanadi. O‘yin, san’at, tajriba, interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni uyg‘un qo‘llash orqali har bir bola o‘z ichki salohiyatini ochib, mustaqil fikrlovchi, ixtirochi shaxs sifatida shakllanadi.

Tarbiyachi esa bu jarayonda yo‘lboshchi, ilhom manbai va rag‘batlantiruvchi shaxs bo‘lishi lozim.

Shunday qilib, bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri sifatida e’tirof etilishi kerak. Chunki bugungi kun bolasi — ertangi kunning ixtirochisi, ilm va texnologiya yaratuvchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
2. Hasanboeva O., Saidahmedova N. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Jalolova D. Maktabgacha ta’limda innovatsion metodlar. – Samarqand, 2022.
4. Zunnunov A. Bolalar tafakkurini rivojlantirishda ijodiy yondashuv. – Toshkent, 2020.
5. www.edu.uz, www.preschool.uz, www.pedagog.uz

STEAM-TA’LIM YONDASHUVI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ILMIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

NIU, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Izzatilloyeva Sabina Ilhomovna
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi
3-kurs talabasi Murodullayeva Sevinch Maxsud qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ilmiy tafakkurni rivojlantirishda STEAM-ta’lim yondashuvining o‘rni yoritiladi. STEAMning fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirgan holdagi ta’siri, bolalarda kuzatish, tajriba qilish, mantiqiy va ijodiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni tahlil etiladi. Maqolada amaliy tajribalar, muhandislik loyihalari, texnologiya va san’at bilan integratsiyalangan o‘yinlarning ilmiy tafakkurga ijobiy ta’siri ko‘rsatilib, STEAMning ta’lim jarayonida qo‘llanishi tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: STEAM-ta’lim, ilmiy tafakkur, maktabgacha yosh, ijodkorlik, tajriba, muhandislik, texnologiya, matematika, integratsiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль STEAM-образования в развитии научного мышления у детей дошкольного возраста. Анализируется влияние интеграции таких направлений, как наука, технологии, инженерия, искусство и математика, на формирование у детей навыков наблюдения, проведения экспериментов, логического и творческого мышления. В статье показано положительное воздействие практических опытов, инженерных проектов, а также игр, интегрированных с технологией и искусством, на развитие научного мышления, и рекомендуется применение STEAM-подхода в образовательном процессе.

Ключевые слова: STEAM-образование, научное мышление, дошкольный возраст, творчество, эксперимент, инженерия, технологии, математика, интеграция.

Annotation. This article discusses the role of STEAM education in developing scientific thinking among preschool children. It analyzes how the integration of science, technology, engineering, art, and mathematics contributes to forming children’s observation, experimentation, logical reasoning, and creative thinking skills. The article highlights the positive impact of hands-on experiments, engineering projects, and technology- and art-integrated activities on the development of scientific thinking and recommends the implementation of the STEAM approach in the educational process.

Keywords: STEAM education, scientific thinking, preschool age, creativity, experimentation, engineering, technology, mathematics, integration.

Zamonaviy bolalarning 65%i bugungi kunda mavjud bo‘lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya,ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleksta‘limvabilimlargamuhtojbo‘ladi. Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi bo‘lmaydi! Inson faoliyati barcha sohalarida dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda.

XXI asr ta’limi bolalarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammo yechish, muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi. Bunday ko‘nikmalarni samarali rivojlantirishda **STEAM-ta’lim yondashuvi** (Science – ilm-fan, Technology – texnologiya, Engineering – muhandislik, Art – san’at, Mathematics – matematika) muhim o‘rin egallaydi. Maktabgacha yosh – ilmiy tafakkurni shakllantirish uchun eng sezgir davrlardan biri bo‘lib, bolalarning kuzatuvchanligi, qiziqishi va tabiiy bilishga intilishi yuqori bo‘ladi. Shu bois STEAM metodlari ularning kognitiv rivojlanishini kuchaytiradi.

STEAM yondashuvining mazmuni. STEAM-bazaviy ta’lim quyidagilarga asoslanadi: **Fan (Science)** – atrof-muhitni kuzatish, tajribalar o'tkazish, sabab–oqibatni tushunish; **Texnologiya (Technology)** – texnika vositalari, moslamalar, qurilmalar bilan tanishish; **Muhandislik (Engineering)** – konstruktorlardan foydalanish, qurish, yaratish jarayonlari; **San’at (Art)** – ijodkorlik, dizayn, kompozitsiya orqali tasavvurni rivojlantirish; **Matematika (Math)** – miqdor, shakl, o‘lcham, ketma-ketlik va mantiqiy fikrlash asoslari. Bu sohalar bir-biriga integratsiya qilinib, bolaga kompleks fikrlash, muammolarni hal etish va ijodiy izlanish imkonini beradi. Ilmiy tafakkur – bu bolaning: kuzatish va solishtirish, savol berish va javob izlash, tajribalar orqali xulosaga kelish, sabab–oqibatni tushunish, muammoni yaratish va uni yechish kabi kognitiv jarayonlarni amalga oshira olishi demakdir. STEAM metodlari aynan shu faoliyatlarni tabiiy ravishda qo‘llab-quvvatlaydi.

STEAM asosida ilmiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy tamoyillari

1. Amaliy tajriba orqali o‘rganish. Bolalar fan asoslarini amaliyotda o‘zlashtiradilar — suvning bug‘lanishi, magnitning tortish kuchi, o‘simlikning unishi kabi tajribalar ilmiy qiziqishni kuchaytiradi.

2. Muammo va yechim topishga yo‘naltirilgan ta’lim. Masalan: “Qal’ani qanday mustahkam qilib qurish mumkin?”, “Qaysi material suvni o‘tkazmaydi?” kabi savollar orqali muhandislik fikrlashi shakllanadi.

3. Sensor tajriba va kuzatuvlar. Bolalar o‘z hissiyotlari bilan bilish – ushlab ko‘rish, solishtirish, taqqoslash orqali ilmiy xulosaga keladilar.

4. Ijodiy jarayon bilan bog‘lash. San’at elementi bolalarning tasavvuri va innovatsion fikrlashini kuchaytiradi (masalan, ranglar aralashuvini tajribada ko‘rish).

5. O‘yin orqali o‘rganish. LEGO, qurilish bloklari, interaktiv o‘yinlar – STEAM mazmunini tabiiy o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning ijodiy, mantiqiy va ilmiy tafakkurini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda xalqaro miqyosda keng tadqiq qilinmoqda. STEAM ta’lim yondashuvi bolalarda fanlararo fikrlashni shakllantirish, muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quv jarayonini amaliy tajribaga asoslashni maqsad qiladi (Yakman, 2008; Bybee, 2013). Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, STEAM ta’limi bolalarning faqat bilim olish faoliyatini emas, balki izlanish, kuzatish, tahlil qilish va ijodiy natija chiqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi (Resnick, 2017; Papert, 1993).

Ilmiy tafakkurni rivojlantiruvchi STEAM faoliyatlari

1. Oddiy ilmiy tajribalar: suvning uch holatini tajriba qilish, magnit bilan tajribalar, o‘simlik urug‘ining unishini kuzatish, yorug‘lik va soyaning o‘zgarishi. Rivojlanadigan ko‘nikmalar: kuzatish, taxmin qilish, xulosa chiqarish.

2. Muhandislik loyihalari: konstruktorlardan ko‘prik, uycha yoki mashina yasash, mustahkam minorani yaratish tajribasi, qayiq yasab suvda sinash. Rivojlanadigan ko‘nikmalar: texnik tafakkur, muammo yechish, kreativlik.

3. Texnologiya bilan tanishtirish: robototexnika (oddiy Bee-Bot, Cubetto kabi robotlar), kompyuter grafikasi va dasturlashning boshlang‘ich tushunchalari, interaktiv panel orqali tajribalar. Rivojlanadigan ko‘nikmalar: algoritmik tafakkur, raqamli savodxonlik.

4. San’at bilan integratsiya: ranglar aralashuvi tajribasi, tabiy materiallardan kollaj yaratish, 3D maketlar tayyorlash. Rivojlanadigan ko‘nikmalar: ijodkorlik, estetik tafakkur.

5. Matematika asosidagi o‘yinlar: shakllar bilan qurilish, saralash, tasniflash, sonlarni real predmetlar orqali o‘rganish, ketma-ketlik va naqshlar tuzish. Rivojlanadigan ko‘nikmalar: mantiqiy fikrlash, strukturaviy tafakkur.

STEAM o‘yinlarining ilmiy tafakkurga ta’siri Bolalarda mantiqiy fikrlash kuchayadi, Sabab–oqibatni tushunish tezlashadi, o‘z fikrini asoslash va tushuntirish qobiliyati rivojlanadi, eksperiment qilishga bo‘lgan ishtiyoq kuchayadi, o‘z-o‘ziga ishonch va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, STEAM- tabiiy fanlar, texnologiyalar, muhandislik, san’at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish uslubidir. STEAM texnalogiyasi ta’limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o‘zaro

mutanosib holda olib borishni ta’minlab beradi. Bolalar o‘zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo‘l keladi. Bu esa STEAM texnalogiyalarining bugungi kunda yosh avlod uchun juda ham katta o‘rni borligini ko‘rsatadi. STEAM texnologiyalarining bugungi kunda ommalashayotganini va samaradorligini, ta’limdagi afzalliklarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonlarida STEAM texnologiyalari qo‘llash tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. M.Y.**Turg’unova, Z.R.Eraliyeva** *“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM dan foydalanish usullari”* — Qoqon Universiteti xabarnomasi. 666-669
2. A.**Nazarova** *“Ilk qadam davlat dasturida STEAM ta’lim elementlaridan foydalanish imkoniyati”* — Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. 575-578
3. O.J.**Quramboyeva** *“STEAM texnologiyasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning xususiyatlari”* — Образование Наука И Инновационные Идеи. 35-37
4. **O.Qurbonova,** *“Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy usullari”* — Образование Наука И Инновационные Идеи 177-187

MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM LOYIHAVIY FAOLIYATI ORQALI BOLALARDA HAMKORLIK VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

NIU, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi sirtqi 3-kurs talabasi
Ravshanova Marxabo DJamshedovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim jarayonida STEAM yondashuviga asoslangan loyihaviy faoliyatning mohiyati va uning bolalarda hamkorlik hamda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. STEAM texnologiyalari bolalarning mustaqil fikrlashi, jamoada ishlashi, ijodkorlik bilan yechim topishi va muammolarni hal etish kompetensiyalarini

shakllantirishga yordam beradi. Maqolada samarali loyihaviy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, loyihaviy faoliyat, ijodkorlik, hamkorlik, innovatsion ta’lim, maktabgacha yosh, muammoli vaziyat, kompetensiya.

Аннотация. В данной статье раскрывается сущность проектной деятельности, основанной на STEAM-подходе в процессе дошкольного образования, а также её роль в развитии у детей навыков сотрудничества и творческого мышления. STEAM-технологии способствуют формированию у дошкольников самостоятельного мышления, умения работать в команде, находить творческие решения и справляться с проблемными ситуациями. В статье также приведены методические рекомендации по организации эффективной проектной деятельности.

Ключевые слова: STEAM, проектная деятельность, творчество, сотрудничество, инновационное образование, дошкольный возраст, проблемная ситуация, компетенция.

Annotation. This article examines the essence of project-based activities built on the STEAM approach in preschool education and highlights its role in developing children’s collaboration and creativity skills. STEAM technologies help preschoolers develop independent thinking, teamwork abilities, creative problem-solving, and competencies for addressing challenging situations. The article also provides methodological recommendations for organizing effective STEAM-based project activities.

Keywords: STEAM, project-based activity, creativity, collaboration, innovative education, preschool age, problem situation, competence.

Mamlakatimizda yosh avlodning o‘qimishli, bilimdon, ma’naviy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib yetishishda ta’lmi tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilmoqda. Shu bilan birga ta’lim sifatini oshirishdagi mavjud muammolarning yechimini topish, ta’lim mazmunini takomillashtirish, uning sifatini ilmiy asosida boshqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM texnologiyalari vositasida tarbiyalanuvchilarni ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish 2014 yilda Quddusda bo‘lib o‘tgan “STEAM formard” halqaro konferensiyasi bayonotida “Bolalarni STEAMga jalb qilish. Ushbu ta’lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarini bolalar bog‘chalariga kiritish kerakligi bo‘yicha qaror qabul qilingan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM yondashuvining asosiy g‘oyasi quyidagicha:

- amaliy, nazariy bilimlar kabi muhimdir:
- bolalar mashg‘ulotlar jarayonida faqat o‘z aqlini, balki qo‘llarini ham ishlatishga majbur bo‘ladilar;
- mashg‘ulotlar honasida ta’lim faoliyati jarayoni, jadal rivojlanayotgan ta’lim olamdagi o‘zgarishlarida ortda qolmoqda;
- bolalar beshta sohasi kompetensiyalari bo‘yicha ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkoniyatlar yaratiladi;
- bolalar bilimlarini mustaqil egallashga shart-sharoitlar yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishning o‘ziga xos zamonaviy «STEAM - ta’lim» (Science - tabiiy fanlar, Technology - texnologiyalar, Engineering - texnik ijodkorlik, Art - san’at va ijod, Mathematics - matematika) yondashuvi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, STEAM ta’lim texnologiyasi bugungi kunda «STEAM - ta’lim» yondashuvi sifatida tatbiq etilib, ta’lim-tarbiya jarayonidagi samaradorlikni yuqori darajaga chiqishini ko’rsatmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimiga STEAM ta’lim texnologiyasini joriy etish bugungi kun talabi ekan, texnologiya tushunchasi bilan birgalikda integratsiya terminining mazmun-mohiyatiga ham alohida to‘xtalib o‘tish juda muhimdir. Bolalar bu jarayonni o‘yin faoliyati orqali amalga oshiradilar. Bolalar o‘yinlariga rahbarlik qilishda tarbiyachi asosan bilvosita usullardan foydalanadi, o‘yinni kuzatish davomida faol va lider bolalar o‘z o‘rtoqlarini tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashlari, tortinchoq bolalarni ham o‘yinga qiziqtirish, jalb qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlashga yordam beradi. Bolalar bir-birlari bilan aloqa munosabatlari yaxshilanadi, tengdoshlarining harakatlariga o‘z munosabatlarini bildiradilar, o‘z fikr va qarashlarini himoya qiladilar. Tarbiyachi rejissyor sifatida o‘yinga mavzu bo‘yicha oldindan kelishib olishga, rollarni taqsimlashga undaydi. Bu orqali bolalarda jamoada ishlash hamkorlik ko’nikmalari shakllanadi. STEAM faoliyati bolalarni kichik guruhlarda ishlashga undaydi. Guruh bo‘lib ishlash jarayonida bolalarda:

- ✓ bir-birini tinglash,
- ✓ fikriga hurmat bilan qarash,
- ✓ rollarni bo‘lishish,
- ✓ umumiy maqsadga erishish,
- ✓ kelishuvga erishish,
- ✓ jamoa mas’uliyatini his qilish

kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi. Hamkorlikka asoslangan loyiha bolalarni jamiyatda faol subyekt sifatida kamol topishiga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida STEAM yondashuvi — bolalarning tabiiy qiziqishi, tajribaga tayangan o‘rganishi hamda ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydigan integrativ pedagogik texnologiya hisoblanadi. STEAM loyihaviy faoliyati bolalarda nafaqat ilmiy-texnik tushunchalarni shakllantiradi, balki jamoaviy ishlash, o‘z fikrini asoslash, muloqotga kirishish va kreativ yechim topish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Loyihaviy faoliyatda bolalar turli vazifalarni guruh bo‘lib bajaradilar, bu jarayonda har bir bola o‘z rolini anglaydi, mas’uliyatni his qiladi va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Tajriba o‘tkazish, qurilish modellarini yasash, texnik ijodkorlik elementlari, sodda muammolarni birgalikda hal qilish kabi mashg‘ulotlar ijodiy tafakkurni faollashtiradi.

STEAM loyihalari ijodkorlikni rivojlantiruvchi eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Chunki loyiha davomida bola:

- turli materiallardan erkin foydalanadi;
- noodatiy yechimlar topadi;
- yangi shakl va konstruksiyalar yaratadi;
- tasavvurini amaliy harakatga aylantiradi;
- muammoni yaratgan holda uni o‘zi hal qiladi

STEAM faoliyati jarayonida pedagog rahbar emas, balki yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. Bu esa bolalarning mustaqil izlanishiga, savollar berishiga, taxminlar ilgari surishiga va o‘z g‘oyalarini amalda sinab ko‘rishiga sharoit yaratadi. Loyihalar davomida bola “nima?”, “nega?”, “qanday?” kabi savollar orqali refleksiv tafakkurini rivojlantirib boradi. Bundan tashqari, STEAM loyihalari bolalarda predmetlararo aloqalarni anglashni kuchaytiradi: matematika – o‘lchash va hisoblash, texnologiya – qurish va yasash, muhandislik – muammo yechish, san’at – dizayn, estetika, ijodiy ifoda, tabiiy fanlar esa kuzatish va tajribalar asosida bilim hosil qilish imkonini beradi. Natijada bolalarda nafaqat ijodkorlik va hamkorlik, balki mantiqiy fikrlash, tashabbuskorlik, axborotni tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarga mos qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi. STEAM ta'lim dasturi L.S.Vygotskiyning "To'g'ri tashkil etilgan ta'lim - bolani rivojlanish sari yetaklaydi" ilmiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan dasturdir.

STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qund, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo‘lgan xususiyat- muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi. "STEAM fikrlash" bolalikdan boshlanadi. STEAM ta‘lim texnalogiyasi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon

qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo’yicha mashg’ulotlar va rivojlantiruvchi muhit bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo’lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do’stona munosabatda bo’lishlarini isbotlaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ijodiy faoliyatining rivojlanish jarayoni barcha yosh guruhlardagi tarbiyachilarning topshiriqlarga va ularni amalga oshirishga emotsional munosabati bilan xarakterlanadi. Bunda tarbiyachi rahbarligining umumiy ijodiy yo’nalishi, uning bolalar izlanishlariga xayrixohlik munosabati katta ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim jarayoniga STEAM yondashuvini integratsiya qilish bolalarning tabiiy bilishga chanqoqligini qo‘llab-quvvatlaydigan, ularni izlanishga undaydigan va ijodkorlikni rivojlantiradigan samarali pedagogik texnologiya ekanligini ko‘rsatadi. Loyihaviy faoliyat asosida tashkil etilgan STEAM mashg‘ulotlari bolalarning birgalikda ishlash, o‘zaro fikr almashish, rollarni taqsimlash va mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Bunday yondashuv bolalarda ijodiy tafakkur, tashabbuskorlik, muammoni yechish, konstruktorlik g‘oyalarini ilgari surish va ularni amalda sinab ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, o‘yin va tajribaga asoslangan STEAM loyihalari orqali bola matematika, texnologiya, tabiiy fanlar va san’at o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglaydi, bu esa predmetlararo integratsiya jarayonini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. X.A.Meliev “Steam texnologiyalari vositasida bolalarni ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish texnologiyalari” Ilmiy ommaviy maqolalar 13/01/2023
2. A.A.Egamnazarov “Maktabgacha ta’limda steam texnologiyalari” International scientific and practical conference strategies for improving and developing the quality of preschool education: problems, solutions and international experience, april 16-17, 2025 315-320
3. M.B.Boltayeva “Maktabgacha ta’lim sohasida STEAM texnologiyalarini keng qo’llash orqali ta’lim sifatini yanada oshirish imkoniyatlari” Ilm fan xabarnomasi ilmiy electron jurnal 116-120
4. Avliyoqulova, X. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. Hasanboeva, O., Xasanov, R. Maktabgacha ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
6. Abdullaeva, Q. Bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

NUTQ KECHIKISHINING BOLALARDA VIZUAL-IDROKIY VA MANTIQIY FIKRLASH RIVOJIGA TA’SIRI.

Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matova Hilola Ikrom qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ahmadova Fotima Adizovna
hilolanematova@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq kechikishining neyropsixologik xususiyatlari, uning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishga ta’siri hamda kompensator mexanizmlari tahlil qilingan. Nutqi kechikkan bolalarda vizual-obrazli tafakkur, sensomotor faoliyat, mantiqiy fikrlash va kreativ yondashuvning yuqoriligi haqidagi ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. Neyrolingvistik yondashuvda qo‘llaniladigan “Obraz asosida topqirlik testi” va Ravenning Progressiv Matritsalar testi misolida vizual fikrlashning ustunliklari ko‘rsatib berilgan. Maqolada 3–7 yoshli bolalar uchun mos bo‘lgan soddalashtirilgan diagnostik topshiriqlar namunasi ham taqdim etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, nutq kechikishi bolaning umumiy intellektual salohiyatini pasaytirmasligi, aksincha ayrim vizual-kognitiv funksiyalarning erta va kuchli rivojlanishiga olib kelishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar. Nutq kechikishi, neyropsixologiya, vizual-obrazli tafakkur, kreativ fikrlash, sensor kompensatsiya, obraz asosida topqirlik testi, Raven matritsasi, vizual idrok, mantiqiy fikrlash, maktabgacha yosh, kognitiv rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the neuropsychological characteristics of speech delay in preschool children, its impact on cognitive, emotional, and social development, and compensatory mechanisms. Scientific data on the superiority of visual-imaginative thinking, sensorimotor activity, logical reasoning, and creative approaches in children with delayed speech are presented. The advantages of visual thinking are demonstrated through the “Figurative Cleverness Test” used in neurolinguistic approaches and Raven’s Progressive Matrices test. The article also

provides examples of simplified diagnostic tasks suitable for children aged 3–7 years. The research results indicate that speech delay does not reduce the overall intellectual potential of a child; on the contrary, it may lead to early and strong development of certain visual-cognitive functions.

Keywords. Speech delay, neuropsychology, visual-imaginative thinking, creative thinking, sensory compensation, Figurative Cleverness Test, Raven matrices, visual perception, logical reasoning, preschool age, cognitive development

Nutq kechikishi - neyropsixologik rivojlanishdagi eng ko‘p uchraydigan buzilishlardan biri bo‘lib, dunyo bo‘yicha bolalarning 7–10% ida kuzatiladi. Nutqning kechikishi nafaqat muloqot, balki kognitiv, emotsional, ijtimoiy va o‘quv jarayonlariga ham ta’sir qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning kechikishi bugungi kunda keng tarqalgan muammo bo‘lib, u bolalarning ijtimoiy-madaniy moslashuvi, bilish faoliyati va psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda nutq kechikishining bir qator ijobiy kompensator jihatlari ham qayd etilgan — miya moslashuvchanligi, sensor kompensatsiya, kreativ fikrlashning kuchayishi kabi.

Nutq kechikishi haqida xalqimizda salbiy stereotiplar mavjud, ammo so‘nggi yillarda neuropsixologik tadqiqotlar bu jarayonning murakkab va ikki tomonlama xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Ya’niki, bola nutqining kechikishi fonida, bola boshqa qobiliyatlarini faolroq rivojlantiradi. Masalan, sensomotor qobiliyatlarning kuchliroq rivojlanishi, bunda nutq markazlari sust ishlaganda miya boshqa sensor zonalarni kuchliroq faollashtiradi. 2021-yilda 30 nafar nutqi kechikkan bolalar bilan o‘tkazilgan eksperimentda vizual e’tibor davomiyligi nutqi normal rivojlangan bolalarga nisbatan 20 % yuqori bo‘lgani qayd etilgan. Konstruktiv o‘yinlar (pazl, lego)ni bajarish tezligi esa, 15–18 % yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

Nutqi kechikkan bolalarda kreativ va vizual fikrlashning rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Zamonaviy neyrolingvistlar tadqiqotlariga ko‘ra, nutqi kechikkan bolalarda vizual-obrazli tafakkur kuchliroq ishlaydi, chunki ular dunyoni lug‘atlar orqali emas, obrazlar orqali kategoriyalashga majbur bo‘ladi. Neyrolingvistlar tomonidan “Obraz asosida topqirlik testi” o‘tkazilganda, nutqi kechikkan bolalar kreativ yechimlarni 25 % ko‘proq taklif qilgan. Obraz asosida topqirlik testi - insonning vizual obrazlardan ma’no chiqarish, mustaqil assotsiatsiya yasash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni uyg‘un qo‘llash qobiliyatlarini baholashga mo‘ljallangan psixologik, kognitiv metoddir. U neyrolingvistlar yoki kognitiv mutaxassislar tomonidan fikrlash tezligi, tafakkur moslashuvchanligi, ma’lumotni vizual shakldan mazmuniy shaklga o‘tkaza olish, kreativlik darajasi,

idrokning noan’anaviy yo‘llarini aniqlash kabi ko‘rsatkichlarni o‘lchash uchun qo‘llanadi. Vizual-obrazli tafakkuri kuchli bolalarning boshqa bolalardan eng katta ustunliklari ular tez idrok qiladilar, ularda fotografik yoki kuchli ko‘ruv xotirasi, yaxshi tasavvur va kreativlik, makon va shakllarni aniq tushunish, konstruktiv fikrlash, murakkab narsalarni tez o‘rganish, muammoni ko‘rish va hal qilish qobiliyatlari bo‘ladi. Bu bolalar ko‘pincha dizayn, arxitektura, muhandislik, informatika, san’at, ilm-fanda juda muvaffaqiyatli bo‘lishadi. Quyida 3–7 yoshdagi bolalar uchun qulay, nutqni majbur qilmaydigan va imo-ishora, tanlash, ko‘rsatish orqali bajariladigan obraz asosida topqirlik testlaridan namunalar berib o‘tamiz:

“Mos juftni top” testi

3–6 yoshli bolalar uchun bolaga 4 ta rasm beramiz:

1. (olma)
2. (mushuk)
3. (stul)
4. (daraxt)

Keyin bolaga savol beramiz: “Qaysi ikkita rasm bir-biriga yaqin? Ko‘rsat.”

To‘g‘ri variantlar:

- — (olma daraxtda o‘sadi, meva–daraxt)
- — (uyda bo‘ladi)

Baholashda tanlashning aniqligiga e’tibor beramiz.

“Keraksizini top” testi

4–7 yoshli bolaga 4 ta rasm ko‘rsatamiz:

-
-
-
-

Bolaga savol beramiz**:** “Qaysi biri boshqacha? Ko‘rsat.” (Keraksiz – , chunki uchta transport turidir.) Baholashda tasniflash qobiliyatiga e’tibor qaratamiz.

Olimlarning izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, nutqi kechikkan bolalar o‘z his-tuyg‘ularini nutq orqali ifodalay olmagani uchun tana harakati, mimika va emotsional signallardan ko‘proq foydalanadi. Empatiya darajasi (empatiya — bu boshqalar nimani his qilayotganini tushunish va shu hisni ichida “aks ettira olish” qobiliyati. Empatiyasi yuqori odamlar atrofdagi kishilarni yaxshiroq tushunadi, ijtimoiy munosabatlari mustahkam bo‘ladi) bo‘yicha ba’zan normadan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi, ota-onaga emotsional bog‘liqligi kuchli bo‘ladi.

Nutq yetishmovchiligi bo‘lgan bolalarda nutq yetishmasligi tufayli, bola topshiriqlarni “ichki nutq” bilan emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri vizual-mantiqiy jarayonlar orqali bajaradi, natijada, bolada mantiqiy fikrlash erta rivojlanadi. Ingliz psixologi John C. Raven (1938) tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgacha butun dunyoda qo‘llanilayotgan Raven matritsalari testi intellektni, ayniqsa mantiqiy-analitik fikrlash va vizual-abstrakt tafakkurni baholash uchun yaratilgan eng mashhur psixodiagnostik testlardan biridir. Raven testi — bu geometrik shakllar va naqshlardan iborat vazifalar to‘plami bo‘lib, bolaning yoki kattalarning mantiqiy fikrlashi, vizual tahlil qilish qobiliyati, qoidani topa olish, abstrakt tafakkuri, muammoni mustaqil hal qilish qobiliyati kabi intellekt ko‘rsatkichlarini o‘lchaydi. Testda so‘zlar yo‘q shu sababli, nutq darajasi past bo‘lgan bolalar ham bemalol bajara olishadi. Shu test bo‘yicha 4–6 yoshli 28 nafar nutq kechikkan bola, normadagi bolalarga nisbatan 10–12 % yuqori natija qayd etgan.

Raven testi bo‘yicha namuna:

1-Topshiriq: Shaklni to‘ldir:

▲ ● ▲

● ▲ ●

▲ ● ?

Variantlar:

A)▲

B) ●

C) ■

To‘g‘ri javob: A) ▲

Mantiqiy-analitik va vizual-abstrakt tafakkuri rivojlangan bolalar tez idrok qiluvchi, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy va konstruktiv yechim topuvchi bolalardir. Ularning ustunligi murakkab muammolarni hal qilish, vizual ma’lumotni tez tahlil qilish, abstrakt tushunchalarni anglash va ijodiy yondashuv kabi kognitiv qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ular ilm-fan, matematika, dizayn, muhandislik va texnika kabi sohalarda yuqori natijalar ko‘rsatishadi.

Tadqiqot natijalariga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, nutq kechikishi bir tomonlama buzilish emas, balki murakkab va ikki yo‘nalishli neyropsixologik jarayondir. Nutqi kechikkan bolalarda til tizimi sust ishlagani sababli, miya boshqa funksional zonalarni — ayniqsa vizual, sensomotor va obrazli tafakkur mexanizmlarini faolroq ishga soladi. Bu esa ularning konstruktiv o‘yinlarda tezroq natija ko‘rsatishi, vizual e’tiborning kuchli bo‘lishi, kreativ va noan’anaviy fikrlashning rivojlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Obraz asosida topqirlik testi hamda Raven matritsalari natijalari nutqi kechikkan bolalarda mantiqiy-analitik fikrlashning nisbatan yuqori ekanini tasdiqlaydi. Shunday qilib, nutqiy kechikish bolaning

imkoniyatlarini cheklovchi emas, balki uning boshqa kognitiv qirralarini kuchaytiruvchi kompensator tizimlar shakllanishiga sabab bo‘luvchi holat sifatida qaralishi lozim. Ta’lim va korreksion jarayonda bunday bolalar uchun vizual tayanchlar, konstruktiv o‘yinlar, obrazli topshiriqlar va multimodal metodlar qo‘llanishi yuqori samaradorlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raven, J. C. (1938). *Progressive Matrices: A Perceptual Test of Intelligence*. London: H. K. Lewis.
2. Luria, A. R. (1973). *The Working Brain: An Introduction to Neuropsychology*. New York: Basic Books.
3. Tomblin, J. B. (2011). “Developmental Language Disorders: Prevalence and Risk Factors.” *Child Development Research*, 45(2), 231–244.
4. Snowling, M., & Hulme, C. (2020). *The Science of Reading and Language Development*. Oxford University Press.
5. Goswami, U. (2015). *Cognitive Development and Learning in Young Children*. Cambridge University Press.
6. Zelazo, P. D. (2013). “Executive Functions and Early Cognitive Development.” *Annual Review of Developmental Psychology*, 1, 89–120

UMUMIY MASHG‘ULOTLAR TARKIBIDA LOGOPEDIK O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matova Hilola Ikrom qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Nazarova Dilnura Mizrob qizi
hilolanematova@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada umumiy mashg‘ulotlar tarkibida logopedik o‘yinlarni qo‘llashning zamonaviy texnologiyalari va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Bolalarda aniq, ravon va to‘g‘ri nutqning shakllanishi ularning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishidagi muhim omil ekanligi ta’kidlanadi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda logopedik o‘yinlarning roli, ularning motivatsion, emotsional, kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyati

asoslab berilgan. Shuningdek, mobil ilovalar, interaktiv doskalar, multimedia dasturlari kabi zamonaviy texnologiyalar asosida logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etishning afzalliklari batafsil bayon qilingan. Tadqiqotda logopedik o‘yinlarning har xil yosh guruhlari bo‘yicha integratsiya tamoyillari, ularni samarali qo‘llash shartlari hamda ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola logopedik o‘yinlarning ta’lim jarayonidagi samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Annotation. The article discusses modern technologies and the pedagogical significance of using logopedic games within general educational activities. It emphasizes that the formation of clear, fluent, and correct speech in children is an essential factor in their intellectual, social, and psychological development. The role of logopedic games in developing speech competence, as well as their impact on motivational, emotional, cognitive, and social skills, is substantiated. In addition, the advantages of organizing logopedic activities through modern technologies — such as mobile applications, interactive whiteboards, and multimedia programs — are thoroughly explained. The study highlights integration principles of logopedic games across different age groups, the conditions for their effective application, and the importance of innovative approaches in the educational process. The article also provides practical recommendations aimed at increasing the effectiveness of logopedic games in the learning environment.

Kalit so‘zlar. Logopedik o‘yinlar, zamonaviy texnologiyalar, maktabgacha ta’lim, nutq rivojlanishi, fonematik eshituv, multimedia vositalari, interaktiv metodlar, pedagogik innovatsiyalar, artikulyatsion mashqlar, gamifikatsiya, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar.

Keywords. Logopedic games, modern technologies, preschool education, speech development, phonematic hearing, multimedia tools, interactive methods, pedagogical innovations, articulation exercises, gamification, social-emotional skills.

Bolalarda to‘g‘ri, aniq va ravon nutqning shakllanishi ularning intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim omildir. Maktabgacha ta’limda umumiy mashg‘ulotlarga logopedik o‘yinlarni integratsiya qilish bolalarning nutq faolligini oshiradi, tovush talaffuz kamchiliklarini bartaraf etadi, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. Logopedik o‘yinlarni sog‘lom bolalarda qo‘llashning zararli tomoni yo‘q, aksincha, to‘g‘ri tashkil etilganda juda katta foyda beradi, chunki logopedik o‘yinlar pedagogik, psixologik va logopedik metodlarga asoslangan. Ammo ba’zi jihatlarga e’tibor berish lozim — agar ular noto‘g‘ri yoki me’yordan ortiq qo‘llansa, ayrim noqulayliklar yuzaga kelishi

mumkin. Xo‘sh, logopedik o‘yinlarning umumiy mashg‘ulotlardagi ahamiyati qanday?

1. Nutq rivojlanishini rag‘batlantirish. Logopedik o‘yinlar nutq buzilishi bo‘lgan bolalarning talaffuz, so‘z boyligi va grammatik tuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘yin jarayonida bola tabiiy muhitda so‘zlarni ishlatadi, yangi so‘zlar o‘rganadi va ularni mashg‘ulot davomida faol qo‘llaydi.

2. Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish. Logopedik o‘yinlar bolalarga guruhda ishlash, navbat kutish, bir-biri bilan muloqot qilish va jamoaviy faoliyatga qo‘shilish imkonini beradi. Shu orqali bola o‘zini ijtimoiy jihatdan erkinroq his qiladi va do‘stlar bilan muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

3. Emotsional qo‘llab-quvvatlash. O‘yin jarayonida bola o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi, stressni kamaytiradi va emotsional barqarorlikni oshiradi. Logopedik o‘yinlar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga, frustratsiya va xavotirni kamaytirishga yordam beradi.

4. Kognitiv rivojlanish. Logopedik o‘yinlar bolada diqqat, eslab qolish, mantiqiy fikrlash va tasavvur qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, tovushlarni aniqlash, rasm va predmetlarga mos keladigan so‘zlarni topish kabi mashqlar bolaning aqliy faoliyatini mustahkamlaydi.

5. Nutq motorikasini rivojlantirish. O‘yinlar orqali talaffuz va artikulyatsiya mashqlari o‘tkaziladi, og‘zaki motorika (til, lab, jag‘ harakatlari) rivojlantiriladi. Bu esa nutqni aniq va ravon aytishga yordam beradi.

6. Individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyati. Logopedik o‘yinlar har bir bolaning nutq darajasi va psixologik holatiga moslashtirilishi mumkin. Bu tarbiyachiga bola ehtiyojlarini inobatga olgan holda samarali mashg‘ulot tashkil etish imkonini beradi.

7. Motivatsiya va qiziqishni oshirish. O‘yin shaklida mashg‘ulotlar bolalarni rag‘batlantiradi, ular faol qatnashadi va o‘rganishga qiziqish uyg‘onadi. Interaktiv va qiziqarli o‘yinlar nutq mashqlarini zerikishsiz o‘tkazishga yordam beradi.

Hozirgi rivojlangan jamiyatda mashg‘ulotlarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish faoliyatning samaradorligini oshirmoqda. Xususan, zamonaviy texnologiyalar asosida logopedik o‘yinlarni tashkil etish bolaning nutq faolligini oshirishga yordam beradi, ya’ni, mobil ilovalar, interaktiv doskalar, multimedia dasturlari tovush, so‘z, gap tuzish, artikulyatsion mashqlarni qiziqarli va jonli ko‘rinishda taqdim etadi. Bu esa bolani tabiiy ravishda mashqlarga jalb etadi va nutq faoliyatini kuchaytiradi.

Umumiy mashg‘ulotlarga logopedik o‘yinlar mavzuga moslashtirish, yoshga mos bosqichlilik, integrativ yondashuv orqali integratsiya qilish mumkin.

Masalan: kichik guruhlarga, artikulyatsion gimnastika, taqlid o‘yinlari. O‘rta guruhlarga fonematik eshituv o‘yinlari va rasmli topishmoqlar. Katta guruhlarga esa, murakkab nutqiy konstruktsiyalarni o‘yin orqali shakllantirish mumkin. Yana, logopedik mashqlarni musiqiy mashg‘ulot, jismoniy tarbiya, tasviriy san’at, savod o‘rgatish asoslari bilan uyg‘unlashtirish munkin. Masalan, musiqa darsida tovushlar ritm asosida mustahkamlanadi yoki jismoniy tarbiya mashg‘ulotida har bir harakat ma’lum bir tovush bilan bog‘lanadi.

Logopedik o‘yinlarning samaradorligini oshiruvchi pedagogik shartlar ham mavjud:

1. **Individual yondashuv** – har bir bola nutq kamchiligi darajasiga ko‘ra mashqlar tanlanadi.
2. **Motivatsion muhit yaratish** – o‘yin jarayonini qiziqarli, jonli va interaktiv qilish.
3. **Tizimlilik va uzluksizlik** – muntazam mashg‘ulotlar katta natija beradi.
4. **Ota-ona bilan hamkorlik** – uy sharoitida davom ettiriladigan mini-o‘yinlar.
5. **Monitoring va diagnostika** – o‘yinlar orqali bola rivojlanishini baholash.

Umumiy mashg‘ulotlar jarayoniga zamonaviy texnologiyalar asosida logopedik o‘yinlarni integratsiya qilish bolalarning nutqiy salohiyatini rivojlantirishda juda yuqori samaradorlik beradi. Multimedia vositalari, interaktiv texnologiyalar, gamifikatsiya, STEAM elementlari va raqamli resurslar nafaqat o‘yin jarayonini qiziqarli qiladi, balki nutq nuqsonlarini bartaraf etishda ilmiy asoslangan natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shu sababdan pedagoglar logopedik o‘yinlarni muntazam qo‘llash, o‘quv dasturlarini innovatsion yondashuvlar bilan boyitishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Gippenreiter, Y. B. *Bolalar nutqini rivojlantirish psixologiyasi*. Moskva: AST, 2019.
2. Filicheva, T. B., Chirkina, G. V. *Logopediya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlari*. Moskva: Vlados, 2018.
3. Vygotskiy, L. S. *Psixologik rivojlanish nazariyasi*. Toshkent: Fan, 2020.
4. Umarov, M. va boshqalar. *Maktabgacha ta'lim metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2021.
5. Usmonxo‘jayev, T. *Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
6. Sadoqova, D. *Logopedik mashg‘ulotlarda integrativ yondashuv*. Pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2023.
7. Çakıroğlu, Ü. *Digital Learning Tools in Early Childhood Education*. Ankara: Pegem Akademi, 2020.

8. WHO & UNESCO. *Early Childhood Development and Communication Disorders Guidelines*. Geneva, 2021.



MAKTABGACHA YOSHDAGI GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASHDA PEDAGOGIK KORREKSIYA VA O‘YIN TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI.

Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matova Hilola Ikrom qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ashrabova Gulshoda Normurod qizi
hilolanematova@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan giperaktivlikning kelib chiqish sabablari, uning psixologik-pedagogik namoyon bo‘lish xususiyatlari va erta tashxislashning ahamiyati yoritilgan. Giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagogik korreksiya jarayonining o‘rni, ayniqsa o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy-nazariy asoslangan holda tahlil qilinadi. Harakatli, qoidali, logoritmik, konstruktiv va sensor o‘yinlarning giperaktiv bolalar rivojlanishiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri amaliy misollar orqali izohlanadi. Maqolada giperaktivlikning tug‘ma va orttirilgan sabablari, erta pedagogik qo‘llab-quvvatlashning ta’lim jarayoniga ta’siri ham yoritiladi.

Abstract. This article examines the causes of hyperactivity in preschool children, as well as its psychological and pedagogical manifestations and the importance of early diagnosis. The role of pedagogical correction in working with hyperactive children, particularly the effectiveness of using play-based technologies, is analyzed based on scientific and theoretical foundations. The positive impact of motor, rule-based, logorhythmic, constructive, and sensory games on the development of hyperactive children is explained through practical examples. The article also highlights the congenital and acquired factors of hyperactivity and the influence of early pedagogical support on the educational process.

Kalit so‘zlar. Giperaktivlik, maktabgacha yosh, pedagogik korreksiya, diqqat sustligi, impulsivlik, o‘yin texnologiyalari, sensor o‘yinlar, logoritmika,

harakatli o‘yinlar, tug‘ma omillar, orttirilgan omillar, erta tashxis, psixologik kuzatuv.

Keywords. Hyperactivity, preschool age, pedagogical correction, attention deficit, impulsivity, play technologies, sensory games, logorhythmics, motor games, congenital factors, acquired factors, early diagnosis, psychological observation.

Maktabgacha yosh inson rivojlanishida eng sezgir bosqich bo‘lib, aynan shu davrda bola xulq-atvorida diqqat sustligi, impulsivlik va ortiqcha harakatchanlik kabi belgilar kuchayib borishi mumkin. Bunday holat ko‘pincha giperaktivlik sindromi bilan bog‘liq. Ilmiy manbalarda giperaktivlikning asosan tug‘ma neyropsixologik xususiyatlar bilan bog‘liq ekani ta’kidlanadi, biroq ijtimoiy muhit, tarbiya va psixologik bosim kabi omillar uning namoyon bo‘lish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois giperaktiv bolalarni erta aniqlash va o‘z vaqtida pedagogik qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Giperaktivlik – asosan bolaning tug‘ilishidan avvalgi biologik omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Giperaktivlikning eng keng tarqalgan sabablari biologik va irsiy omillar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar ota-onadan biri giperaktivlikga ega bo‘lsa, farzandda ushbu holat rivojlanish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Homiladorlik davrida onaning stressi, chekish yoki spirtli ichimliklar iste’mol qilishi, onaning surunkali kasalliklari, homilaning yetarli kislorod olmasligi tug‘ma nevrologik o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Giperaktivlik ba’zan tug‘ma bo‘lmay, tashqi omillar natijasida ham kuchayishi yoki shakllanishi mumkin. Lekin bu tug‘ma shakliga qaraganda kam uchraydi. Orttirilgan shakliga erta yoshdagi bosh miya jarohatlari (kuchli yiqilish, boshga urilish, tug‘ruqdagi jarohatlar), oziqlanish va ekologiya (haddan tashqari shakarli oziqlar, rangsizlantiruvchi kimyoviy qo‘shimchalar, ekologik ifloslik) bu omillar to‘g‘ridan-to‘g‘ri giperaktivlikni keltirmaydi, lekin simptomlarni kuchaytiradi. Shu sababli giperaktivlikni faqat “bolaning yiqilishi” yoki “shakarni ko‘p yegani uchun” deb hisoblash ilmiy jihatdan noto‘g‘ri. Giperaktivlikning asosiy sababi – tug‘ma neyrobiologik xususiyatlardir.

Maktabgacha yoshdagi giperaktiv bolalarda diqqatni uzoq saqlay olmaslik, topshiriqlarni boshlasa ham tez chalg‘ish yoki yakunlay olmaslik, ortiqcha harakatchanlik (tinimsiz yugurish, o‘rinsiz harakatlar), impulsiv javoblar va harakatlar, o‘yin qoidalariga rioya qilishda qiyinchilik, tez-tez hissiy portlash kabi xususiyatlar kuzatiladi. Ushbu belgilar bolaning shaxsiy rivojiga, jamoaga moslashuviga va kelajakdagi ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli giperaktivlikni erta bosqichda aniqlash pedagogik faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Giperaktivlikni erta aniqlash va erta tashxis qo‘yish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni to‘g‘ri tashkil etishda muhim hisoblanadi. Xo‘sh giperaktivlikni qanday aniqlaymiz va tashxis qo‘yamiz? Psixologik tekshiruvlar (diqqatni tekshirish testlari (rasmda farq topish, “ortiqcha predmet” testi), harakatni boshqarish mashqlari, impulsivlikni aniqlovchi qisqa vazifalar), pedagogik kuzatuv (bolaning o‘yin davomidagi xulqi, jamoa faoliyatiga qo‘shilish darajasi, mashg‘ulotdagi diqqat barqarorligi, rejimga amal qilish xususiyati), suhbat va anketa (ota-onalardan bolaning uy sharoitidagi xatti-harakatlari haqida so‘rov, tarbiyachining har bir bolaga oid xulq-atvor kartochkasi) orqali aniqlashimiz mumkin. Giperaktivlikni erta tashxislash bola bilan individual yondashuvni tez yo‘lga qo‘yish, giperaktivlikning maktab davrida kuchayib ketishining oldini olish, ijtimoiy-emotsional rivojlanishni me’yorlashtirish va nevrologik mutaxassisga vaqtida murojaat qilish imkoniyatini beradi.

Giperaktiv bolalar bilan ishlashda pedagogik korreksiya jarayoni juda muhim, chunki u xulq-atvorni me’yorlashtirishda, diqqatni rivojlantirish va barqarorlashtirishga, ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga, hissiy barqarorlikni kuchaytirishga, o‘qishga tayyorgarlikni oshirishga, oila va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga, kelajakdagi xulq-atvor muammolarining oldini olishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshda o‘tkazilgan korreksiya bola shaxsi va kelajakdagi ta’limi uchun mustahkam poydevor bo‘ladi. Pedagogik korreksiya texnologiyalarini takomillashtirish bu yosh davri uchun juda muhim hisoblanadi. Giperaktiv bolalar bilan ishlashda o‘yin asosiy pedagogik vositadir. Turli xil o‘yin texnologiyalaridan foydalanish esa giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning yanada samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Xususan, harakatli o‘yinlar — energiya chiqishini me’yorlashtiradi, qoidali o‘yinlar — impulsivlikni kamaytiradi, logoritmik mashqlar — ritm orqali harakat va nutqni muvofiqlashtiradi, konstruktiv o‘yinlar — diqqatni jamlashga yordam beradi. Sensor o‘yinlar (qum, suv, mozaika, massaj to‘plari) bolaning sezgi tizimini muvozanatlashtiradi, ortiqcha qo‘zg‘aluvchanlikni pasaytiradi.

Maktabgacha yosh inson rivojlanishi uchun eng sezgir davr bo‘lib, bu bosqichda giperaktivlik belgilari yaqqol namoyon bo‘lishi mumkin. Giperaktivlikning asosiy sababi tug‘ma neyrobiologik omillar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ijtimoiy muhit va tarbiyaviy sharoitlar uning kuchayishiga ta’sir etadi. Shu bois erta tashxis qo‘yish, pedagogik kuzatuv olib borish va to‘g‘ri korreksion yondashuvni tanlash juda muhimdir. Giperaktiv bolalar bilan ishlashda o‘yin asosiy pedagogik vosita sifatida yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, harakatli, qoidali, logoritmik, konstruktiv va sensor o‘yinlar bolaning diqqatini boshqarish,

impulsivlikni kamaytirish, hissiy holatni muvozanatlash va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha yoshda olib borilgan samarali korreksiya bolaning kelgusi ta’lim jarayoniga mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkley, R. A. Attention-Deficit Hyperactivity Disorder. New York: Guilford Press, 2015.
2. Zaharova, L. N. Detskaya psixologiya i korrektsiya povedeniya. Moskva: Vlados, 2019.
3. Xolmatova, D. Bolalar psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. Umarov, R., & Yo‘ldosheva, M. Maktabgacha ta’limda korreksion ishlar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. American Psychological Association. Diagnostic Criteria for ADHD. APA, 2020.
6. Smirnova, E. O. Igra i detskoe razvitie. Moskva: Piter, 2018.

MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ BUZILISHI BO‘LGAN BOLALARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL RIVOJLANISHINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA TARBIYACHINING ROLI.

Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matova Hilola Ikrom qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Suyunova Mohichehra Isomitdin qizi
hilolanematova@icloud.com

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi nutq buzilishi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdagi tarbiyachining roli tahlil qilinadi. Nutq bolaning muloqot, o‘zini ifodalash va emotsional rivojlanishida asosiy vosita ekanligi ta’kidlanadi. Nutq buzilishi bolaning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida cheklovlar keltirib chiqaradi. Maqolada tarbiyachining ijtimoiy muhit yaratish, nutqni rag‘batlantirish, emotsional qo‘llab-quvvatlash, individual yondashuv va ota-onalar bilan hamkorlik funksiyalari bayon etilgan. Shuningdek, nutq va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan pedagogik o‘yinlar — “Qanday ovoz chiqardi?”,

“Kimga tegishli?”, “Ko‘zgu oldida emotsiya”, “Do‘stimga nima deyman?” — tavsiflangan. Maqola nutq buzilishi bo‘lgan bolalarning rivojlanishida tarbiyachining ahamiyatini ko‘rsatadi va amaliy tavsiyalar beradi.

Annotation. The article analyzes the role of educators in supporting the social-emotional development of preschool children with speech disorders. It emphasizes that speech is a primary tool for children’s communication, self-expression, and emotional development. Speech disorders create limitations in a child’s social and psychological development. The article outlines the educator’s functions, including creating a social environment, promoting speech, providing emotional support, applying an individual approach, and collaborating with parents. Additionally, pedagogical games designed to develop speech and social-emotional skills — “What sound did it make?”, “Whose is it?”, “Emotion in the mirror”, “What do I say to my friend?” — are described. The article highlights the importance of the educator in the development of children with speech disorders and provides practical recommendations.

Kalit so‘zlar. nutq buzilishi, maktabgacha yosh, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, tarbiyachi roli, pedagogik o‘yinlar, emotsional qo‘llab-quvvatlash, interaktiv o‘yinlar, vizual qo‘llanmalar.

Keywords. speech disorder, preschool age, social-emotional development, educator’s role, pedagogical games, emotional support, interactive games, visual aids

Nutq — bolaning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi, boshqalar bilan muloqot qiladi va o‘yin faoliyatida faol ishtirok etadi. Nutq buzilishi esa bu jarayonlarni qiyinlashtiradi, natijada bola ijtimoiy va emotsional jihatdan cheklanishlarga duch keladi. Shu nuqtai nazardan, tarbiyachining roli bolaning rivojlanishida markaziy ahamiyatga ega.

Nutq buzilishi turli ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin, talaffuzdagi qiyinchiliklar, so‘z boyligi yetishmovchiligi, grammatik qiyinchiliklar yoki nutq tushunish bilan bog‘liq muammolar. Ushbu buzilishlar quyidagi ijtimoiy-emotsional oqibatlarga olib keladi:

1. O‘zini ifodalash qiyinchiliklari: Bola o‘z fikrini to‘liq va aniq yetkazolmaydi, bu esa stressga, mashg‘ulotlarda faollik pasayishiga, tez ranjish, yig‘lash, baqirish, agressiya, o‘zini chetga tortish, so‘z orqali ifodalab bo‘lmagan hissiyotlar ichkarida to‘planib boradi, bu esa psixosomatik kasalliklarga olib keladi.
2. Ijtimoiy izolyatsiya: Muloqotdagi cheklanishlar sababli bola boshqa bolalar bilan kamroq muloqot qiladi, do‘st orttirish qiyinlashadi.

3. O‘zini past baholash: Nutqdagi muammolar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi.
4. Emotsional reaksiyalar: Frustratsiya, g‘azab yoki yig‘lash kabi emotsiyalar ko‘payadi.

Nutq buzulishi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida tarbiyachining roli juda muhim. Tarbiyachi nutq buzilishi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Ijtimoiy muhitni yaratish: Bolalar bir-biri bilan muloqot qilishi uchun qulay va xavfsiz muhit tashkil etish. Masalan, kichik guruhlarda o‘yinlar tashkil etish.
2. Nutqni rag‘batlantirish: So‘z boyligini kengaytirish va talaffuzni yaxshilashga yo‘naltirilgan faoliyatlar, masalan, hikoya aytish, she’r o‘qish, rol o‘yinlar.
3. Emotsional qo‘llab-quvvatlash: Bolaning his-tuyg‘ularini tinglash, tushunish va konstruktiv yo‘l bilan ifodalashga yordam berish.
4. Individual yondashuv: Har bir bolaning nutq darajasi va psixologik holatini hisobga olgan holda maxsus metodlar qo‘llash.
5. Ota-onalar bilan hamkorlik: Uy sharoitida qo‘llab-quvvatlash usullarini tushuntirish, uyda nutqni rivojlantiruvchi mashqlar berish.

Nutq buzilishi bo‘lgan bolalarning nutq va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlash uchun mazkur tavsiyalarni amalga oshirish muhimdir:

- Interaktiv o‘yinlar: Nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun dramatik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, qo‘shiq va she’rlar qo‘llash. Interaktiv o‘yinlar bolada nutq faolligini oshiradi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, emotsional holatni mustahkamlaydi, tasavvur va ijodkorlikni kuchaytiradi, eshitish va eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradi, o‘z fikrini erkinroq ifodalashni o‘rgatadi.
- Vizual qo‘llanmalar: Tasvirlar, kartochkalar, piktogrammalar orqali so‘zlarni mustahkamlash. Vizual qo‘llanmalar bolalarga so‘zlarni tezroq va osonroq o‘zlashtirish, nutqni tushunishni yaxshilash, eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi, grammatik tuzilmani o‘rganishga yordam beradi, mustaqil fikrlash va muloqotga kirishishni osonlashtiradi, e’tibor va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, emotsional holatni yengillashtirish imkoniyatlarini beradi.
- Rag‘batlantirish: Har bir kichik yutuqni ijobiy baholash va motivatsiya berish bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, motivatsiyani kuchaytiradi, muvaffaqiyat hissini beradi, qiyinchiliklarga bardoshni oshiradi, ijtimoiy xulqni yaxshilaydi, hissiy holatni yaxshilaydi.
- Gruppaviy mashg‘ulotlar: Bolaning guruhdagi ishtirokini oshirish, do‘stlar bilan muloqotini rivojlantirish o‘yinlarni birga tashkil qilish, rollarni

taqsimlash, kelishish, navbat bilan bajarish — bularning barchasi bolaning ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Nutq buzilishi bo‘lgan bolalarda eshitish, muloqot, emotsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda quyidagi pedagogik o‘yinlar samarali hisoblanadi:

“Qanday ovoz chiqardi?” o’yini

Maqsad: Eshitish differensiasiyasini rivojlantirish**,** so‘z aytishga rag‘batlantirish.

Qanday o‘ynaladi: Qo‘ng‘iroq, baraban, qog‘oz shitirlashi kabi tovushlar chiqariladi. bola tovushni topadi va taqlid qiladi: “ding-ding”, “bum-bum”.

Bu o‘yin nutq motorikasini faollashtiradi va emotsional javobni kuchaytiradi.

“Kimga tegishli?” o‘yini

Maqsad: Tipik ijtimoiy vaziyatlarni tushunish**,** muloqot va topish-ko‘nikmalar

Qanday o‘ynaladi: Stolga turli predmetlar qo‘yiladi (tarak, qoshiq, mashina, ruchka...). Tarbiyachi so‘raydi: “Bu kimga kerak? Nega?” Bola: Tarak — “soch tarash uchun”, Mashina — “yurish uchun”. Bola sodda gap bilan tushuntiradi.

“Ko‘zgu oldida emotsiya” o‘yini

Maqsad: Mimikani boshqarish**,** o‘z his-tuyg‘usini kuzatish**,** nutq va emotsiyani birlashtirish

Qanday o‘ynaladi: Bolalarga kichik ko‘zgular beriladi.

Tarbiyachi: “Xursand yuzni ko‘rsat!”, “Hayron bo‘l!”, “Qo‘rqqan yuzni qil!”.

Keyin bola so‘z bilan aytadi: “Bu — xursand”, “Xafa”.

“Do‘stimga nima deyman?” (muloqot mulozamatlari) o‘yini

Maqsad: Ijtimoiy nutq stereotiplarini shakllantirish**,** o‘zaro hurmat va emotsional aloqa

Qanday o‘ynaladi: Tarbiyachi savol beradi: Do‘stingga nima deysan, agar: u sovg‘a berdi — “Rahmat”, u yig‘lasa — “Yig‘lama”, “Yordam beraman”, u o‘ynashni xohlasa — “Keling o‘ynaymiz”. Kichik dialoglar tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsa, maktabgacha yoshdagi nutq buzilishi bo‘lgan bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida tarbiyachining roli beqiyosdir. Tarbiyachi bolaning muloqotga kirishini rag‘batlantiradi, emotsional qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, individual yondashuv va ota-onalar bilan hamkorlik bolalarning rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ахмедова, Н. (2019). *Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi va pedagogik qo‘llab-quvvatlash*. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Мирзаева, Д. (2020). *Nutq buzilishi bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodikasi*. Toshkent: Fan va Texnologiya.

3. Петров, В. (2018). *Emotsional va ijtimoiy rivojlanish pedagogikasi*. Moskva: Prosveshchenie.

4. Karimova, S. (2021). *Maktabgacha ta’limda interaktiv o‘yinlar va nutq rivojlantirish*. Toshkent: Pedagogika.

5. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Navoiy innovatsiyalar universiteti maktabgacha ta’lim yo‘nalishi o‘qituvchisi Sapayeva Gulnoza Azimboyevna

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola maktabgacha yoshdagi bolalar iqtidorini rivojlantirishning nazariy asoslarini ko‘rib chiqadi. Bolalarning ijodiy va intelektual salohiyatini aniqlash, metodikalar va o‘qitish usullari, shuningdek, o‘quv muhitining ahamiyati tushuntiriladi. Maqola, maktabgacha ta’limda rivojlantiruvchi o‘yinlar va faoliyatlarning rolini hamda tarbiyachilar uchun yo‘riqnomalarni taqdim etadi.

Kalit so`zlar: maktabgacha ta’lim, bolalar iqtidori, rivojlantirish, nazariy asoslar, o‘yinlar, ta’lim metodikasi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Сапаева Гульноза Азимбоевна,
педагог дошкольного образования
Навоийского инновационного университета

Аннотатция. В данной научной статье рассматриваются теоретические основы развития способностей детей дошкольного возраста. Обсуждаются методы и приемы выявления творческого и интеллектуального потенциала детей, а также важность образовательной среды. Статья предлагает рекомендации для воспитателей по использованию развивающих игр и деятельностей.

Ключовое слово: дошкольное образование, способности детей, развитие, теоретические основы, игры, методика обучения.

THEORETICAL BASIS OF DEVELOPING THE ABILITY OF PRESCHOOL CHILDREN

G. A. Sapayeva

Navoi Innovation University, Navoi, Uzbekistan

Annotation. This scientific article examines the theoretical foundations of developing the abilities of preschool-aged children. It discusses methods for identifying children's creative and intellectual potential, as well as the importance of the educational environment. The article provides guidelines for educators on the use of developmental games and activities.

Key words: preschool education, child abilities, development, theoretical foundations, games, teaching methods.

Ta‘lim jarayonida pedagogik faoliyatning turli jabhalarida tarbiyalanuvchilarning alohida iqtidor va qobiliyatlari namoyon bo`ladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti, xususan, katta va tayyorlov guruhlarda iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularning qobiliyat va iste‘dodlarini namoyon qilishda ta‘lim va tarbiya ishlarini samarali tashkil etish, o`quvchilarning iqtidorini rivojlantirish masalasi tobora taraqqiy etayotgan bugungi kunda muhim vazifalardan biridir. Zamonaviy ta‘lim sharoitida bugungi kun pedagoglaridan talab qilinayotgan eng muhim xususiyat va vazifalardan biri ham yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs va jahonda ilm-fanda raqobatlasha oladigan bilimli, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdan iborat. Xususan, iqtidorli bolalar va qobiliyatli yoshlarning o`z bilimlarini namoyon etishi va iste‘dodlarini rivojlantirishi uchun tarbiyachilar o`zida mas‘uliyatni his etishi, mamlakat kelajagi bo`lgan yoshlarning ta‘limiga vijdonan yondashishi zarur. Muayyan sohada iqtidorga ega shaxslarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida pedagogik, psixologik, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratish, ularning ma‘naviy-ruhiy kamoloti, aqliy-ijodiy iqtidorini oshirishning zarur me‘yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar bir qator hujjatlarda o‘z aksini topgan. Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi

taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni.

Jahon tajribasida ham iqtidorlilar masalasiga katta e‘tibor qaratiladi. Dunyoning yetakchi davlatlarida bunday tadqiqotlar, iqtidorli bolalar bilan shug`ullanuvchi tashkilotlar o`z faoliyatini yuritadi. Jumladan, Yevropa mamlakatlari va AQSH da iqtidorlilar uchun bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun hissa qo`shadi. Bunga misol sifatida xalqaro — Merit dasturini ko`rsatish mumkin. Bu dastur o`rta maktabda iqtidorli bolalarni tanlash bo`yicha yetakchi hisoblanadi. Buyuk Britaniyada — London Gifted and Talanted, — National Association for Gifted Children (NAGC) tashkilotlari aynan shu sohada faoliyat olib boradi. Bundan tashqari, PISA (O`quvchilarni xalqaro baholash), Dalton-reja (Individual o`qitish tizimi) dasturlari ilg`or ta‘lim muassasalaridagi iqtidorli o`quvchjilarni aniqlashga qaratilganligi alohida e‘tiborga molik.

Bugungi metodikalar, usullar va texnologiyalar qay darajada samarali natijalarni olib kelmoqda, qay darajada o`zini oqlamoqda va qay darajada ta‘limning rivojlanishida ahamiyatini yo`qotayotganini tahlil qilishimiz va o`rganishimiz kerak. Chunki bizda taraqqiy etayotgan ilm-fanga mos usullar, texnologiyalar. Qaysidir ma‘noda eski an‘anaviy metodika va usullarni qayta ishlashimiz, yangilarini kashf etib tatbiq etishimiz zarur. Albatta, bunga katta ehtiyoj bor. Iqtidorli tarbiyalanuvchilarni aniqlash, ularni kata va tayyorlov guruhlarda alohida e‘tiborga olgan holda, iste‘dodlarini rivojlantirish tarbiyalanuvchilarning kelgusida o`z qobiliyatlarini namoyon eta olish va ulkan natijalarga erishish imkonini yaratadi. Iqtidor kichik yoshlardan namoyon bo`la boshlaydi. Qaysidir bola turli modellar yasashga, kimdir esa ijod qilishga, yana kimdir mantiqiy hisoblashga qiziqadi. Agarda bu bolalarga maktabgacha ta’limda e‘tibor berilmasa, bu qiziqish o`zidan-o`zi yo`qoladi va maktab davrida ham bu iqtidor ko`rinmasdan qolish ehtimoli bor.

Iqtidorni aniqlash va uni rivojlantirishda bolani kichik yoshidan, maktabgacha yoshdan ko`ra bilish, qobiliyatini o`stirishga tayyorlash va uni o`zi qiziqqan sohasiga yo`naltirish muhim hisoblanadi. Ta‘limdagi mavjud muammolarni hal qilish, zamonaviy ta‘limga mos imkoniyatlarni yaratish yosh avlodning iste‘dodlarini rivojlantirishga keng yo`l ochadi. Umumiy qobiliyat egalari tez fikrlashi, biron-bir masalaning javobini tezda topishi va ijodiy yondashishi bilan farq qiladi. Maxsus iqtidor egalari esa muayyan bir sohada alohida qobiliyatga ega bo`lib, aynan shu sohada faoliyat olib borishga qiziqadilar.

Maktabgacha ta’limda iqtidorli tarbiyalanuvchilarni individual yondashuvdan foydalanish ancha samarali natijalar ko`rsatgan. Individuial ishlaganda bola iqtidorini namoyon etishda ko`proq imkoniyatga ega bo`ladi va tez rivojlanadi. Yangi texnologiyalar va usullarni ta‘lim jarayoniga jalb qilish bilan iqtidorli tarbiyalanuvchilarni salohiyatini oshirishga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – O‘zbekiston, 2014. - 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son.
3. O`zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to`g`risida”gi 595-sonli Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 999-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi “Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 132-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2020 yil 27 martdagi 54-son buyrug‘i asosida qabul qilingan “Ilm yo‘li” variativ dasturi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”.
9. 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-sonli Qarori.
10. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O`zbekiston”, 2017.
11. Mirziyoyev Sh.M. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O`zbekiston”, 2020 yil 29 dekabr.
12. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish (tayyorlov guruhi). Toshkent-2018.
13. Abdullayeva Nafisa Shavkatovna. Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish. T.: 2019 y.

14. Axmedova X., Raximova L. “Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim” dasturini tashkil etish. T.: 2012 y.

15. Boboyeva D. R. Tevarak-atrofni o‘rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirish. T.: 2001.

16. Chabrova T. Oilada 3-7 yoshli bolalarda ma’naviy-estetik sifatlarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (rasm chizish malakalarini o‘zlashtirish materiallari asosida): ped.fan.nomzodi. ... dis. avtoref. - T., 2007. - 19 b.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHIT VA UNING TURLARI

NIU, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Turobova Ziyoda Shuhrat qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Rizaqulova Xusniya Sirojiddin qizi
Tel. raqam +998972830494

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni yaratishning mazmuni, ahamiyati hamda uning turlari yoritilgan. Rivojlantiruvchi muhit bolalarning shaxsiy, ijtimoiy, intellektual va estetik rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda pedagogik va innovatsion yondashuvlarning o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, rivojlantiruvchi muhit, ta’lim muhiti, bolalar rivojlanishi, innovatsion yondashuv, o‘yin faoliyati, pedagogik texnologiya.

Abstract. This article highlights the content, significance, and types of the developmental environment in preschool educational institutions. The developmental environment serves as an important factor in ensuring the personal, social, intellectual, and aesthetic development of children. In addition, the article emphasizes the role of pedagogical and innovative approaches in organizing and creating a developmental environment.

Keywords: preschool education, developmental environment, educational environment, child development, innovative approach, play activity, pedagogical technology.

Bugungi kunimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning har tomonlama komil shaxs bo’lib

kamol topishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Fikrimizning yorqin dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi **“Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti”** to‘g‘risidagi 802-sonli qarori maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan hujjatlardan biridir. Mazkur hujjatda ta’lim jarayonini tashkil etishda **rivojlantiruvchi muhit** yaratishning zarurligi alohida ta’kidlanadi. Unda qayd etilishicha, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan, uning psixologik, jismoniy, intellektual va ijtimoiy-emotsional ehtiyojlariga mos **rivojlantiruvchi ta’lim-tarbiyaviy muhit**ni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Rivojlantiruvchi muhit deganda bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy, estetik hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi barcha tashqi omillar yig‘indisi tushuniladi. U maktabgacha ta’lim tashkiloti binosi, uning jihozlanishi, o‘yin maydonchalari, didaktik materiallar, pedagog va tengdoshlar o‘rtasidagi muloqot orqali namoyon bo‘ladi. Bolaning rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan markazlar faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi balki bugungi kunni samarali o‘tishi, o‘sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi. Buyuk olimlar Jan Piaje, Erikson, Lev Vigotskiy nazariyalari bo‘yicha bolani o‘rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga bo‘lishni tavsiya etadi. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo‘yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o‘yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar faollik markazlari deb ataladi. Bugungi kunda rivojlantiruvchi markazlar deb yuritilmoqda.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda didaktik vositalarning turlari. Rivojlantiruvchi muhitni shakllantirishda qo‘llaniladigan didaktik vositalar bir necha asosiy toifalarga bo‘linadi. Ular ta’lim jarayonini boyitish, bolalarning faol ishtirokini ta’minlash va o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Materiallar va predmetlar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda turli xil didaktik materiallardan foydalanish zarur. Ularga kartochkalar, rangli plakatlar, predmetli modelllar, konstruktiv materiallar, tabiat unsurlari va jismoniy mashg‘ulotlar uchun jihozlar kiradi. Masalan, matematik mashg‘ulotlarda son va shakllarni o‘rgatuvchi ko‘rgazmali vositalar, tabiat bilan tanishtirishda esa real predmetlar yoki maketlardan foydalanish o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

2. Didaktik o‘yinlar va interaktiv metodlar. O‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limining ajralmas qismi hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar orqali bolalar yangi bilimlarni tabiiy va qiziqarli tarzda o‘zlashtiradilar. O‘yin asosidagi

ta’lim jarayoni bola shaxsining faolligini oshiradi va o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

3. Raqamli va axborot texnologiyalari asosidagi vositalar. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar muhim o‘rin egallamoqda. Maktabgacha ta’limda interaktiv doskalar, multimedia dasturlari, kompyuter o‘yinlari va mobil ilovalar orqali bolalar bilan ishlashning samarali usullari joriy etilmoqda. Axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish tarbiyachining mehnatini yengillashtiradi, bolalarning e’tiborini jalb qiladi hamda o‘quv jarayonini zamonaviy talablar darajasida tashkil etishga yordam beradi. [3]

Rivojlantiruvchi muhit — bu bolaning shaxsiy rivojlanishida yetakchi omillardan biri bo‘lib, u bolalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Rivojlantiruvchi muhitning turlari quyidagilardan iborat:

1. *Jismoniy (moddiy) muhit* – bu o‘quv-moddiy baza, mebellar, o‘yinchoqlar, texnik vositalar, estetik dizayn va gigiyenik sharoitlarni o‘z ichiga oladi.
2. *Psixologik muhit* – bolaning o‘zini xavfsiz, erkin va qadrlangan holda his etishiga xizmat qiluvchi ijobiy psixologik atmosfera.
3. *Ijtimoiy muhit* – tarbiyachi, tengdoshlar va ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlar tizimi.
4. *Madaniy-estetik muhit* – san’at, musiqa, adabiyot orqali estetik didni shakllantirish.
5. *Axborot-kommunikativ muhit* – raqamli ta’lim vositalari, interaktiv metodlar va media resurslardan foydalanish orqali tashkil etiladigan muhit.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan **Montessori texnologiyasi, Reggio Emilia konsepsiyasi, L.S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi**ga asoslanadi. Ushbu yondashuvlarda bola faol subyekt sifatida ko‘riladi va muhit esa uning faoliyatini rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida rivojlantiruvchi muhitni samarali tashkil etish, avvalo, **pedagogik yondashuvlar** va **innovatsion texnologiyalarni** uyg‘un qo‘llashga tayanadi. Chunki muhit nafaqat tashqi sharoit, balki bolalar faoliyatini, o‘rganish motivatsiyasini va ijtimoiy tajribasini shakllantiruvchi omildir.

1.Pedagogik yondashuvlarning o‘rni. Pedagogik yondashuvlar rivojlantiruvchi muhitni loyihalashda asosiy metodologik yo‘nalishni belgilaydi. Quyidagi yondashuvlar ayniqsa muhim ahamiyatga ega:

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Bu yondashuvda bola ta’lim jarayonining markazida turadi. Muhit bolaning yosh xususiyatlari, individual qobiliyati, ehtiyoji

va qiziqishiga mos tashkil etiladi. Tarbiyachi bolaning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, uni kuzatuvchi va yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv. L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev va D.B. Elkoninlarning g‘oyalariga tayangan holda, bola rivojlanishining asosiy manbai uning faoliyatidir. Shu bois rivojlantiruvchi muhit bolani harakatga undovchi, o‘yin, tajriba, kuzatuv, ijod va muloqot orqali o‘rganishga imkon beruvchi tarzda quriladi.

Integrativ yondashuv. Ta’lim mazmuni fanlararo bog‘liqlik asosida tashkil etiladi. Muhitda bitta faoliyat turi boshqa yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashadi (masalan, tabiat burchagida san’at, nutq o‘stirish va matematika elementlari birgalikda qo‘llaniladi).

Konstruktivistik yondashuv. Bolalar bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘z tajribasi asosida “quradilar”. Shu sababli muhit ochiq, moslashuvchan, o‘zgaruvchan bo‘lishi lozim — bola unda izlanadi, tajriba o‘tkazadi, xulosa chiqaradi.

Innovatsion yondashuv. Zamonaviy maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar rivojlantiruvchi muhitni yangi bosqichga olib chiqadi. Ular o‘quv jarayonini interaktiv, texnologik va ijodiy yo‘nalishga o‘zgartiradi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT). Interaktiv doskalar, raqamli ta’lim platformalari, virtual o‘yinlar, multfilmlar va audio-vizual materiallardan foydalanish orqali bolalarda mustaqil o‘rganish va eslab qolish jarayoni kuchayadi.

Montessori texnologiyasi. Muhit bolaning mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda har bir bola o‘z sur’atida o‘rganadi. Montessori materiallari bolaning sezgi organlari, diqqat, tafakkur va ijodkorligini rivojlantiradi.

Reggio Emilia yondashuvi. Bu modelda muhit “uchinchi tarbiyachi” deb qaraladi. Muhit estetik, ochiq, moslashuvchan bo‘lib, bolalarning tabiiy qiziqishini rag‘batlantiradi. Har bir burchak o‘rganish maydoni sifatida yaratiladi.

STEAM yondashuvi **(Science, Technology, Engineering, Art, Math).** Maktabgacha ta’limda bolalar tajriba, qurilish, modellashtirish, san’at va mantiqiy o‘yinlar orqali bir vaqtning o‘zida turli ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Bunday muhit bolalarda muammoli fikrlash, kashfiyotchilik va ijodkorlikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda rivojlantiruvchi muhitni to‘g‘ri tashkil etish maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy faol, o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan shaxsni tarbiyalash aynan rivojlantiruvchi muhitni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan boshlanadi. Shu bois tarbiyachilar uchun bu jarayonni tizimli, ilmiy asosda tashkil etish muhim pedagogik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotla ro’yxati

1.O‘zbekiston Pespublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli Qarori.
2.Aliqulova M. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni yaratish/Tafakkur manzili. ISSN:2180-2160. 2022.405-411.
3. Abdusamatova.N., Asqaraliyeva.S “Maktabgacha ta'lim tizimida rivojlantiruvchi muhit tushunchasi” Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali Impact Factor: 8.2 | 2181-3035 | № 8(66)
4.Baxrillayeva M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda steam ta'lim texnologiyasidan foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali Impact Factor: 8.2 | 2181-3035 | № 8(66) ~ 126 ~ journal www.in-academy.uz. Volume 2, Issue 1, Part 2 January 2024 ISSN 2181-2020.103-106.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SAVODXONLIKKA O‘RGATISHDA TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Shopulatova Nasiba Umirovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsent v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
nasibashopulatova67@gmail.com
+998505808989

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida ta’limiy o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi hamda pedagogik texnologiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida ta’limiy o‘yinlarning fonetik, leksik, grafik va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi o‘rni, ularni tashkil etish metodlari hamda ta’lim jarayoniga integratsiya qilish texnologiyalari yoritiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalaridan kompleks foydalanish bolalarda savodxonlikka oid asosiy kompetensiyalarning shakllanishini sezilarli darajada jadallashtiradi.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, maktabgacha ta’lim, ta’limiy o‘yinlar, fonematik eshituv, pedagogik texnologiya.

ТЕХНОЛОГИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИГР В ОБУЧЕНИИ ГРАМОТЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Шопулатова Насиба Умировна

Доцент кафедры социально-гуманитарных наук Навоийского инновационного университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD

Аннотация. В данной статье анализируется эффективность, а также педагогические технологии использования развивающих игр в процессе формирования навыков грамотности у дошкольников. В ходе исследования освещается роль обучающих игр в развитии фонетических, лексических, графических и коммуникативных навыков, методы их организации и технологии интеграции в образовательный процесс. Результаты показывают, что комплексное использование игровых технологий значительно ускоряет формирование у детей основных компетенций в области грамотности. **Ключевые слова:** грамотность, дошкольное образование, развивающие игры, фонематический слух, педагогическая технология.

TECHNOLOGIES OF USING EDUCATIONAL GAMES IN TEACHING LITERACY TO PRESCHOOL CHILDREN

Shopulatova Nasiba Umirovna

Associate Professor of the Department of Social Sciences and Humanities at Navoi Innovation University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Annotation. This article analyzes the effectiveness and pedagogical technologies of using educational games in the process of developing literacy skills in preschoolers. The research highlights the role of educational games in the development of phonetic, lexical, graphic and communication skills, methods of their organization and technologies of integration into the educational process. The

results show that the integrated use of gaming technologies significantly accelerates the formation of children's basic literacy skills.

Keywords: literacy, preschool education, educational games, phonemic hearing, pedagogical technology.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o‘rgatish ularning kelgusidagi o‘qish, yozish, og‘zaki nutq va tafakkur rivojining poydevorini tashkil etadi. Ushbu yoshda bolaning bosh faoliyati o‘yin bo‘lganligi sababli, ta’lim jarayonini o‘yinga asoslash samaradorlikni oshiradi. O‘yinlar ta’limning tabiiy shakli bo‘lib, bolalarda qiziqish, ichki motivatsiya, mustaqillik, tafakkur va xotirani faollashtiradi. Shu bois, zamonaviy maktabgacha ta’limda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish texnologiyalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Savodxonlikning dastlabki bosqichlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- fonematik eshituvni shakllantirish,
- harf-tovush munosabatini o‘rganish,
- so‘z boyligini oshirish,
- gap tuzish va nutq mantiqini rivojlantirish,
- psixomotor ko‘nikmalarni qo‘llab-quvvatlash (yozuvga tayyorgarlik).

Ta’limiy o‘yinlar bu kompetensiyalarni tabiiy va qiziqarli tarzda shakllantirishga imkon beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin orqali o‘rgatilgan bolalarda o‘quv motivatsiyasi 40–60% ga yuqori bo‘ladi, fonetik va grafik belgilashda esa faol ishtirok kuzatiladi. Quyida biz maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlikni oshirishga xizmat qiladigan, tovushni farqlash, talaffuzni rivojlantirish, fonematik eshituvni mustahkamlash, harflarni tanish, shaklini yodlash, grafik malakalarni shakllantirish, so‘z boyligini kengaytirish, semantik birliklarni anglash, mantiqiy nutq, gap tuzish strukturasini shakllantirish uchun asos bo‘ladigan ta’limiy o‘yinlardan namunalar keltiramiz:

- “Tovushni top”
- “Qaysi so‘z qaysi tovushdan boshlanadi?”
- “Qo‘shni tovushlarni solishtiramiz”

- “Harfni yig‘amiz” (lego, pazl)
- “Yashiringan harfni toping”
- “Harfni yasaymiz” (qumda, plastilinda)
- “Nimani aytyapman?”
- “Rasmga qarab so‘z top”
- “So‘zlar zanjiri”
- “Gapni davom ettir”
- “Rasm asosida hikoya tuzamiz”
- “Tovushlar uyasi”

“So‘zdan so‘z yasa” o‘yini

O‘yinning maqsadi: bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish.

Tarbiyachi bir nechta so‘zni doskaga bosma harflarda yozib qo‘yadi. Bolalar ana shu so‘zdan yana yangi so‘z hosil qilishlari kerak. *Olam – olma, orzu-oz, zor-or, bodroq-qor, taroq-qora kabi.*

“Harfni joyiga qo‘y” o‘yini

O‘yinning maqsadi: bolalarni topqirlikka o‘rgatish, “a” harfi haqida o‘tilganlarni mustahkamlash.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, so‘zdagi “a” harfi qayergadir qochib ketibdi. Qani, ularni o‘z joyiga qo‘yib, so‘zlarning to‘g‘ri o‘qilishiga yordam beraylik. *B…hor, b..r..b..n, v..t..n, olm.., v..rr..k.*

“Zanjir” o‘yini

O‘yinning maqsadi: bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish.

O‘yin shartiga ko‘ra, bolalardan biri bitta so‘z aytadi, ikkinchisi esa o‘sha so‘z yakunida kelgan harf bilan boshlanadigan so‘z aytadi. Agar kimdir so‘z topa olmasa, navbat keying ishtirokchiga beriladi. *Stol – lampa – anor – rubob – baliq – qizil – lola – apelsin – nok – karam – murabbo – oq – qora – akula.*

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish:

- o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi,

- bolalarning tabiiy kognitiv faolligiga mos keladi,
- nutqiy, intellektual, ijodiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, o‘yin texnologiyalari bilan ishlovchi tarbiyachilarga quyidagi talablar qo‘yiladi: didaktik o‘yinlarni to‘g‘ri tanlash, o‘yin jarayonini boshqarish, differensial yondashuv, refleksiya va natijani baholay olish .

Ta’limiy o‘yinlardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda savodxonlikning ilk kompetensiyalarini shakllantirishning eng samarali metodlaridan biridir. O‘yinlar yordamida bolalar tovush va harflarni farqlash, so‘z tuzish, gap qurish, nutqni mantiqiy rivojlantirish, grafik malakalarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ta’limiy o‘yinlarning zamonaviy, raqamli va integratsiyalashgan turlari esa o‘quv jarayonini yanada innovatsion va samarali qiladi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari savodxonlik mashg‘ulotlarini to‘liq o‘yin texnologiyalariga asoslab borishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. — Toshkent: O‘zDJTU nashriyoti.
2. Montessori M. “Ilk rivojlanish metodikasi”.
3. G‘afforova T., Jo‘rayeva M. “Maktabgacha ta’limda nutq o‘stirish metodikasi”.
4. Erxonova N., Ro‘ziyeva Z. Tarbiyachi kitobi Savod o‘rgatish. T.: “Zamin”, 2021y.-178b.

ОСОБЕННОСТИ ВОЗРАСТА 6-7 ЛЕТ

Бозорова У.К.
Преподаватель кафедры ДОО НГУ
Акбарова Азиза студент 3 курса
НавГУ факультета ДОО

Аннотация. В этой статье представлены особенности возрастного периода детей 6-7 лет и взгляды восточных мыслителей и зарубежной педагоги и психологи на эту тему.

Ключевые слова: логического мышления, воображения, воспитания, обучения, психолог, доброжелательность, познавательный, воспитательный, детство, личности ребёнка.

Annotation: This article presents the peculiarities of the age period of children aged 6-7 years and the views of Eastern thinkers and foreign educators and psychologists on this topic.

Keywords: logical thinking, imagination, upbringing, learning, psychologist, benevolence, cognitive, educational, childhood, child's personality.

Каждый ребёнок с рождения до взрослой жизни проходит через соответствующие возрастные этапы. Этот процесс необратимый и очень важный в становлении всесторонне развитой личности.

Период 6–7 лет представляет собой особую возрастную границу, на которой завершается дошкольное детство и начинается освоение новой, социально значимой роли — роли школьника. В это время происходят существенные изменения в эмоциональной, познавательной и поведенческой сферах ребёнка. Он начинает осознавать, что необходимо соблюдать социальные нормы, правильно взаимодействовать с коллективом и быть готовым подчиняться определённому режиму, то есть принимать учебные задачи. Необходимо обеспечить ребёнка мягким и успешным переходом от игровой деятельности к школьной. Для того чтобы понимать, как это сделать правильно и без вреда психическому здоровью ребёнка мы должны знать индивидуальные возрастные качества. Именно поэтому изучение особенностей возраста 6-7 лет имеет настолько важное значение.

Возраст 6–7 лет является переходным, который объединяет черты старшего дошкольного и младшего школьного возраста. В этот период развивается способность ребёнка к произвольной регуляции поведения. Он начинает осознанно контролировать свои действия, следовать инструкциям, выполнять задания по образцу. К тому же, отмечается рост познавательной активности, появляется интерес к причинно-следственным связям и развитию логического мышления. У ребёнка формируется способность

внутреннего планирования, то есть умение представить последовательность действий ещё до их выполнения. У ребёнка в это время развиваются социальные навыки. Он учится работать вместе с другими, слушать их мнение и соблюдать правила. Всё это создаёт основу для формирования учебной деятельности, которая становится ведущей в младшем школьном возрасте.

Дошкольный период развития ребёнка имеет строго поэтапный характер. Каждый возрастной этап выполняет определённую функцию и способствует формированию эмоциональной устойчивости, когнитивных умений и социальных навыков. Ребёнок постепенно проходит путь от простых форм общения и подражания к развитию самостоятельности, инициативности и способности регулировать свои действия. Игра на протяжении всего дошкольного детства выступает основной формой активности: именно через неё ребёнок осваивает социальные роли, учится взаимодействию, развивается его воображение и способность создавать внутренние планы действий.

Осознанный интерес к знаниям начинает формироваться к 5–6 годам, однако полноценная учебная деятельность всё ещё не является ведущей. Она возникает только тогда, когда ребёнок способен слушать и слышать инструкцию, выполнять задания не только ради процесса, а ради результата. Поэтому переход к школе должен быть последовательным и мягким. Преждевременное включение ребёнка в жёсткую школьную систему без опоры на игровой опыт может привести к эмоциональному напряжению. С большой вероятностью может случится снижение мотивации к обучению и появятся трудности в адаптации. В такой ситуации соблюдение поэтапности дошкольной жизни является ключевым условием гармоничного развития личности.

Этап 6–7 лет важен тем, что именно в это время происходит смена ведущей деятельности: игра уступает место учебной деятельности. Ребёнок начинает осознавать себя не просто как участника коллектива, но и как ученика, от которого требуется самостоятельность, ответственность и способность доводить начатое до конца. Психологи отмечают, что именно этот период определяет успешность дальнейшего школьного обучения. Ребенок может столкнуться с затруднениями в адаптации или повышенной тревожностью и утомляемостью, если он приходит в школу без сформированной учебной мотивации, если у него нет умений саморегуляции и навыков социального взаимодействия.

Поэтому важность этапа 6–7 лет состоит не только в освоении знаний, но и в формировании готовности к принятию новой социальной роли.

В зарубежной педагогике и психологии возраст 6–7 лет также признаётся переломным. Как подчеркивала итальянский педагог Мария Монтессори, ребёнок в этот период формирует основы собственной личности, он стремится к самостоятельности и осмысленному действию[37]. А швейцарский психолог и философ Жан Пиаже описывал этот возраст как начало стадии конкретных операций, в котором ребёнок способен мыслить логически, опираясь на наглядные образы и собственный опыт. Лоуренс Кольберг- американский психолог, отмечал, что этот возрастной период является временем становление морального сознания. Проще говоря, он имел ввиду, что в 6-7 лет ребёнок начинает понимать правила и их значимость для совместной деятельности. Важным выводом западных мыслителей является то, что в 6–7 лет игра сохраняет своё воспитательное значение и не должна полностью исчезать. Она остаётся важным инструментом развития мышления и эмоциональной сферы дошкольников.

Не менее глубокие взгляды на воспитание и обучение детей выражали восточные мыслители. Абу Наср аль-Фараби писал, что образование должно соответствовать природным особенностям и возрастным возможностям ребёнка.[38] Он подчёркивал важность постепенного перехода от простого к сложному, от игры к осознанному обучению. Абу Али ибн Сина (Авиценна) в своих трудах указывал, что развитие ребёнка требует сочетания умственного, физического и нравственного воспитания. Он считал, что чрезмерная строгость в обучении мешает естественному росту интереса к знаниям, а игра помогает укрепить и тело, и ум. Просветитель XIX века Ахмад Дониш уделял внимание моральной стороне воспитания. Он отмечал, что уже с раннего детства важно формировать у ребёнка ответственность, уважение к старшим и стремление к истине. Для восточной педагогической традиции характерно стремление к гармонии между духовным и интеллектуальным развитием, что придаёт обучению не только познавательный, но и воспитательный смысл.

Делая выводы могу сказать, что педагоги разных эпох и культур сходятся во мнении, что возраст 6–7 лет требует особого педагогического подхода. В этот период ребёнку необходимо предоставить возможность развиваться в атмосфере доброжелательности, постепенно переходя от

[37] https://mariamontessori.com/help-me-do-it-myself/
[38] https://bulletin-orientalism.kaznu.kz/index.php/1-vostok/article/view/1436

игровой деятельности к учебной, не нарушая естественного хода его психического и эмоционального развития.

Вопрос о введении 12-летней системы обучения обсуждается в контексте необходимости облегчить переход ребёнка от детского сада к школе. Дополнительный год может обеспечить более плавную адаптацию и снизить учебную нагрузку в младших классах. Однако для того чтобы этот этап был эффективным, последняя ступень дошкольного периода, перенесённая в школу, должна сохранять развивающий и игровой характер, а не превращаться в ускоренное обучение. В противном случае цель данной реформы не будет достигнута, и ребёнок окажется в ситуации избыточного давления и эмоционального напряжения.

Таким образом, возраст 6–7 лет является ключевым этапом в становлении личности ребёнка и его подготовке к школьному обучению. Он требует грамотной, поэтапной организации воспитательно-образовательной среды, опирающейся на ведущую роль игры, развитие самостоятельности и формирование учебной мотивации. Успешность школьной адаптации во многом зависит от того, насколько гармонично пройдёт данный переход.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Монтессори М. Помоги мне сделать это самому. — М.: Карапуз, 2018. — 192 с.

2. Пиаже Ж. Психология интеллекта. — М.: Педагогика, 1994. —286 с.

3. Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 2001. — 352 с.

4. Кольберг Л. Этапы морального развития // Essays on Moral Development. — Т. 1. — San Francisco: Harper & R

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA 5-6 YOSHLI BOLALARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING REFLEKSIV USULLARI.

Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o`qituvchisi
Karshiyeva Shaxnoza Turakulovna

Annotatsiya: Tarbiyalanuvchi o‘zi uchun muhim bo‘lgan bilimlarni o‘zi mustaqil qidirib o‘zlashtirsa ta’limda muvaffaqiyatga erishadi. Bilimlarni izlab o‘zlashtirish jarayoni chegaralanmagan uzluksiz jarayondir.

Kalit so‘zlar: Refleksiya, tarbiyalanuvchi, pedagog, qobiliyat, faoliyat, imkoniyat, mashg‘ulot, ko‘nikma, individual refleksiya.

Аннотация: Воспитанник достигнет успеха в обучении, если он самостоятельно будет искать и усваивать важные для себя знания. Процесс поиска и освоения знаний не имеет границ и является непрерывным.

Ключевие слова: Рефлексия, воспитанник, педагог, способность, деятельность, возможность, занятие, навык, индивидуальная рефлексия.

Annotation: A learner will achieve success in education if they independently search for and acquire the knowledge that is important to them. The process of seeking and mastering knowledge is unlimited and continuous.

Key words: Reflection, learner, educator, ability, activity, opportunity, lesson, skill, individual reflection.

Refleksiv tushunchasi lotin tilidagi “reflexio” so‘zidan kirib kelgan bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “ortga nazar” degan ma’noni anglatadi. Kishining o‘z hatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetish, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati bilishning alohida bir shakli. Fikrlash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish. O‘zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun-qoidalarini fikrlashga yo‘naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli. O‘z ruhiy holati haqida o‘ylash, xayol surish, fikr yurgizish, uni tahlil qilishga moyillikni anglatadi.

Refleksiya nima? Kasbiy faoliyat amaliyotini o‘zgartirish va bilimlarning transformatsiyalanishiga qaratilgan intellektual motivatsiyalovchi faoliyat.
Refleksiya bu subyektning diqqatini o‘ziga va o‘z ongiga qaratish bo‘lib, bunda xususan, o‘z faolligi mahsulotlar qayta ko‘rib chiqiladi, shuningdek, ularning yangidan fikran o‘zgartirilishi amalga oshiriladi.

Individual refleksiya pedagoglarga o‘qitish amaliyotini va o‘z tushunchalarini transformatsiyalash hamda tahlil qilishga imkon beradi.

Refleksiv faoliyat – bolada o‘z tushunchalari va hatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilish asosida xulosalar shakllanish jarayoni.

Refleksiv qobiliyatlar faoliyat jarayonida yuzaga chiqadi va rivojlanadi. Shuning uchun ham refleksiyaga harakatsiz o‘rgatib bo‘lmaydi.

Tarbiyalanuvchi o‘zi uchun muhim bo‘lgan bilimlarni o‘zi mustaqil qidirib o‘zlashtirsa ta’limda muvaffaqiyatga erishadi. Bilimlarni izlab o‘zlashtirish jarayoni chegaralanmagan uzluksiz jarayondir.

Refleksiv ta’lim va tarbiya texnologiyasi muloqot asosida tashkil etiladi va diologik munosabatning turli shakllarini taklif etadi. Refleksiv ta’lim texnologiyalarida ta’lim oluvchining o‘z shaxsiy va kasbiy rivojlanishini boshqara olishi birinchi o‘ringa chiqadi. Umuman olganda har bir tabiatan refleksiyalash qobiliyatiga egadir. Lekin bu unda refleksiv qobiliyatlar mavjud degan xulosani tasdiqlamaydi (ya’ni bu unda refleksiv qobiliyatlar mavjud degani ham emas). Refleksiv qobiliyat faoliyat jarayonida yuzaga chiqadi va rivojlanadi. Shuning uchun ham refleksiyaga harakatsiz o‘rgatib bo‘lmaydi.

Refleksiv ta’lim va tarbiya texnologiyasi muloqot asosida tashkil etiladi va diologik munosabatning turli shakllarini taklif etadi. Pedagogning o‘z ichki “Men”i bilan diologi. Bunda pedagog o‘z ichki dunyosiga qo‘yidagi savollar bilan nazar soladi. Bu mashg‘ulotda men nimalarni his qildim? Nima qildim? Nimaga erishdim? Nimani qila olmadim? Maqsadga yetish uchun nima qilish zarur? Refleksiv ta’lim amalga oshirishda mashg‘ulot sifatida monitoringi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagog va usullar orqali o‘z faoliyati natijasini baholaydi.

Refleksiyaning asosiy turlari

Mashg`ulot davomidagi refleksiya

O'quv jarayoni davomida tez qarorlar qabul qilish.

Hamkorlikdagi refleksiya

Hamkasblar bilan birgalikda tahlil qilish.

Mashg’ulotdan so'ng refleksiya

O'tkazilgan mashg`ulotni tahlil qilish.

O'quv yili davomidagi refleksiya

Uzoq muddatli natijalarni baholash.

Maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan pefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari ob’ekti va sub’ekti hisoblanadigan shaxs bugun o‘quvchi, tarbiyalanuvchi ekanligini inobatga olib, bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarning yo‘nalishlarini belgilashda yuqorida keltirilgan korrorativ asoslar bilan bir qatorda, tadqiqotlap jarayonida ishlab chiqilgan tarbiyalanuvchilarni shakllantirilishi zarur bo‘lgan refleksiv ko‘nikma, refleksiv qobiliyat va shaxsiy sifatlar ko‘rsatkichlari inobatga olingan.

Tarbiyachilarda pefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishni rejalashtirishda va loyihalashtirishda, eng avvalo, mazkur jarayonlarning maqsadi, belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyati va mavjud imkoniyatlar inobatga olinishi zarur. Umumiy maqsadlarga erishishda belgilangan vazifalarning bajarilish ketma-ketligi belgilanadi hamda mazkur vazifalarni bajarishda, ya’ni o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda qo‘llaniladigan o‘qitish metodlari va asosiy yondashuvlar tanlab olinib, o‘rganiladigan mavzuning mazmun-mohiyatiga ko‘ra hamda vaziyatlarga ko‘ra muvofiqlashtiriladi.

Tarbiyalanuvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda maktab va maktabgacha ta’lim jarayonlarining natijaviyligi aniqlanib, ilg‘op pedagogik tajribalar va zamonaviy o‘qitish vositalari, eng qulay va samarali hisoblangan metodlar va yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish hamda tarbiyachilarning ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganishga moyilligi, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda belgilangan vazifalarni tahlil qilish va takomillashtirish japayonida qayta aloqa ta’minlanishi zarur.

O‘quvchilarda va tarbiyalanuvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda oldindan belgilangan vazifalarni yangilash va takomillashtirish bo‘yicha qayta aloqa nafaqat maktab va maktabgacha ta’lim jarayonlarining o‘zaro bog‘likligi va aloqadorligini ta’minlash samapadorligi bo‘yicha, balki har bir ta’lim muassasasida tashkil etiladigan o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligiga ko‘ra muntazam amalga oshirib borilishi mumkin. O‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida qayta aloqa ta’minlanishi mazkur jarayonlarni takomillashtirish vositasi sifatida vujudga keladi va u vaziyatlarga ko‘ra o‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta’minlash uchun zarur hisoblanadi.

Tarbiyalanuvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyachilar nafaqat

zaruriy axborotlar, ma’lumotlar va mahsulotlar bilan ta’minlanishi, balki ularga o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan tushunchalardan kelgusi faoliyatlarida foydalanishlari zaruriyati bo‘yicha ham ma’lumotlar berilishi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyalanuvchilarning yuqori darajadagi samarali faoliyatini ta’minlash uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirishda tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati, qiziqishlari darajasi, qobiliyatlari, shaxsiy hislatlari, shuningdek, ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o‘rganish va shular asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan qo‘shimcha vazifalarni belgilash hamda ularni amalga oshirish uchun turli tadbirlarni tashkil etish zarur.

Tarbiyalanuvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining asosiy xususiyatlaridan biri mazkur jarayon tarbiyalanuvchilarda o‘zini-o‘zi boshqarish va rivojlantirish asosida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarni shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Tarbiyalanuvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida refleksiv ta’limiy muhitni shakllantirishda shunday shart-sharoitlarni yaratish zarurki, bunda tarbiyalanuvchilarning har biri o‘z faoliyati, xatti-harakatlari natijalarini mustaqil o‘rganishi va tahlil qilishi, o‘rganish ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetishi hamda bugungi yaratilayotgan shart-sharoitlarni ob’yektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘lsin.

Mazkur modelda tarbiyalanuvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillarning ham o‘zaro ta’siri nazarda tutilgan bo‘lib, bular qo‘yidagilardan iborat:

Tarbiyalanuvchilar faolligini ta’minlash yo‘nalishida bajariladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar va turli yondashuvning muvoqlashtirishi.

Tarbiyalanuvchilar o‘zini o‘zi tahlil qilish va ob’ektiv baholash ko‘nikmalarini, tanqidiy fikrlash va refleksiv tafakkurni shakllantiruvchi ijobiy motivlarni aniqlash va motivlashtirish.

Tarbiyalanuvchilar uzluksiz ta’lim olishga ijobiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayonlar mazmunini takomillashtirish.

Tarbiyalanuvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va uning mazmunini tarbiyalanuvchilarning moyilligi va qiziqishlari darajasi, shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlarining o‘zgarishiga mos ravishda yangilash va takomillashtirish zaruriyati tarbiyalanuvchilarda refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish modelida alohida inobatga olingan.

Guruhdagi refleksiya boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarni va munosabatlarni talab qiladigan muloqotni ko‘zda tutadi. Bu munosabatlar bir-biri bilan suhbat muhokamani, o‘zaro qo‘llab quvvatlashni, birgalikdagi muhokamalar uchun sarflashga rozi bo‘lgan hamkasblarni motivatsiyalashni, shuningdek, boshqalar bilan g‘oyalar hamda imkoniyatlar h.k.

Aylana bo‘ylab refleksiya usuli

Bu refleksiya mashg‘ulot oxirida o‘tkaziladi. Tarbiyalanuvchilar aylana bo‘ylab turib oladilar va mashg‘ulot haqidagi fikrlarini aytadilar. Xususan, “Menga..... qiziqarli bo‘ldi”; menga..... qiyinchiliklar to‘g‘dirdi; men tushundimki.....; men.....o‘rgandim; meni ..... hayratlantirdi; men.....istadim; endi men.....bilib oldim.

Refleksiya va muhokama: barcha bolalar o‘z individualliklari bilan nodir sanaladilar. Har bir bolada bu individual farqlarni tushunish va tan olish bolaga yo‘naltirilgan guruhlarni yaratishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi 3-nashri
2. Turg‘unov S.T., Maksudova L.A., Umaraliyeva M.A., Tojiboyeva X.M. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. - T.: «Sano-standart», 2012. -21-b.
3. Hakimova D.M. O‘quvchilarda refleksiv ko‘nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari modelini loyihalash. «Pedagogika» ilmiy-nazariy va metodik jurnali, 2011, 3-son. -51-b.
4. O. G. Xolmatova. “5–6 yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning psixologik vazifalari”. Образование и инновационные исследования, 2024-yil, №4, 365–369.

MAKTABGACHA 5-6 YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR KOMPYUTER SAVODXONLIK FAOLIYATLARINI SHAKLLANTIRISH

Suvanova Nodirabegim Sadir qizi (Navoiy, O‘zbekiston)
Navoiy davlat universiteti,
maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-6 yoshli bolalarning elementar kompyuter savodxonligini shakllantirish masalalariga bag’ishlangan. Unda bolalarning kompyuter savodxonligi faoliyatlarida elementar bilim va ko’nikmalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari, ushbu jarayonning bolalar shaxsining intellektual, ijodiy va kognitiv rivojlanishiga ta’siri tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, metod, axborot, ta’lim-tarbiya jarayoni, pedagogika, psixologiya, bola, kompyuter, texnologiya, usul, uslub, metod, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, shaxs, individ, faoliyat.

Аннотация: Статья посвящена вопросам формирования элементарной компьютерной грамотности у детей 5–6 лет в дошкольных образовательных организациях. В ней анализируются педагогические и психологические основы формирования элементарных знаний и умений в процессе компьютерной деятельности детей, влияние этого процесса на интеллектуальное, творческое и познавательное развитие личности детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, метод, информация, учебно-воспитательный процесс, педагогика, психология, ребенок, компьютер, технология, метод, метод, метод, воспитатель, воспитанник, личность, индивид, деятельность.

Annotation: This article is devoted to the issues of forming elementary computer literacy of 5-6 year old children in preschool educational organizations. It analyzes the pedagogical and psychological foundations of developing elementary knowledge and skills in children's computer literacy activities, the impact of this process on the intellectual, creative and cognitive development of children's personalities.

Key words: Pre-school education, method, information, educational process, pedagogy, psychology, computer, technology, method, style, method, educator, pupil, person, individual, activity.

Hozirgi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni, multimedia texnologiyalarini joriy etish, ta’limni axborotlashtirishning muhim tomonlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim tog‘risiga”gi Qonunining 36-moddasida ham “Ta’lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish” mumkinligi to‘g‘risida, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida esa: maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish qonun bilan belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlari axborot kommunikatsiya vositalari bilan hozirda ta’minlanib kelinmoqda. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabr PQ-4884 sonli “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa mafaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022 yil 1 yanvarga qadar maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish vazifasi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595 sonli Qonunining 53-moddasida “Ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish” vazifalari belgilangan.

Hozirda ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari ta’lim jarayonining muhim negizi bo‘lib, yoshlarning yangi axborotlarga bo‘lgan talablarini qondirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning yuksak bilim egallashida kompyuter savodxonlik faoliyatlari orqali biz bolalarda milliy qadriyatlarni videorolik shaklida jonlantirishimiz ham mumkun. Ularning elementar kompyuter savodxonligini oshirish shakllantirishning boshlang‘ich davri ham xuddi shu yoshdan boshlanadi va rivojlanadi. Bu jarayon bolalar ongini rivojlantirishda, kompyuter texnologiyalarning muhimligini va bir mudom bolalarda katta qiziqish va talabning ortishiga sababchi bo‘layotganini ko‘rishimiz mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan texnologiyalar an’anaviy texnologiyalarga nisbatan quyidagilar bilan farqlanadi:

- bolalarning psixologik jihatlari;

- bolalarning yoshi (5-6 yosh);

- kompyuter faoliyatlar davomiyligi (15 daqiqa);

- materialning bolalarga mosligi (multimedia shaklida);

- materialning hajmi (30 daqiqaga mo‘ljallangan);

- materialninig murakkablik darajasi (bolalar uchun sodda materiallar tanlanadi).

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan multimediali kompyuter texnologiyasi variantida texnologik yondashuv quyidagicha kechadi:

Birinchidan, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining o‘rganiladigan materialni o‘zlashtirishini qulay qilish va osonlashtirish maqsadida material bir-biri bilan bog‘liq qismlarga, bo‘laklarga ajratiladi;

Ikkinchidan, ta’limdan mo‘ljallangan natija olish uchun amallar ketma-ket bajarilishi va loyihalashtirilgan ishlar oxiriga yetkazilishi ko‘zda tutiladi. Eng muhimi, ushbu texnologiyada o‘rganiladigan material multimedia asosida taqdim etiladi. Bola miyasiga bunday multimediaviy ta’sir natijasida uning o‘zlashtirishi yaxshilanib, mashg‘ulot samaradorligi oshadi.

Maktabgacha yosh davrida bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va har tomonlama rivojlantirishda multimedialardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

STEAM texnologiyasida animatsiya studiyasini yaratish uchun bugungi kunda odatiy bo‘lgan texnik vositalar kerak bo‘ladi: raqamli kamera, ovoz yozish va animatsiya dasturlari bilan ta‘minlangan kompyuter yoki noutbuk. Shu bilan birga bolalar bilan multfilmlar yaratishda ma’lum shart-sharoitlarni hisobga olish, alohida vaqt ajratish, to‘garak faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish, ota-onalar bilan ham reja asosida ishlarni tashkil etish va tarbiyachilarning media savodxonligi talab etiladi.

Kompyuter bilan tanishish va kompyuter texnologiyalarini o‘zlashtirish uchun vazifalar:

- Bolalarni axborot madaniyati dunyosi bilan tanishtirish, informatika g‘oyalarini o‘zlashtirishga tayyorlash.
- Shaxsiy kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish (Paint, Microsoft Word, PowerPoint.
- Media pleer interfeysi, kompyuter animatsiyasining asosiy tamoyillari bilan tanishish). Tadqiqotchilar va amaliyotchilar o‘yinda va faoliyatda kompyuterdan muntazam foydalanadigan bolalarda so‘nggi paytlarda bir qator ijodiy salohiyatini oshirishga e'tibor berishdi.

Kompyuter, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyat uchun zarur bo‘lgan muloqotning muhim jihatlarini o‘rgatish vositasidir. Ma'lumki, katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar motivatsiyalarining asosiy guruhlaridan biri kattalar va tengdoshlar bilan ijobiy munosabatlarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlashdir.

6-7 yoshli bolalarda tengdoshlar bilan muloqotning situatsion-ishbilarmonlik shakli mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot qiladilar, maslahatlashadilar, bir-birlariga yordam berishadi, ishbilarmon hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga harakat qilishadi, muloqotga bo‘lgan ehtiyojning asosiy mazmuni bo‘lgan maqsadga erishish uchun o‘z harakatlarini muvofiqlashtiradilar. Bolalarning birgalikdagi harakatlari ular o‘rtasidagi muloqotning rivojlanishi kompyuter savoxonlik faoliyatidagi mavzular bilan bir muncha bog‘liqdir.

Ta’limda kompyuter savodxonlik bola shaxsining:

• fikrlashini;

• estetik tarbiyasini;

• kommunikativ qobiliyatini;

• optimal qaror qabul qilish malakasini;

• kompyuter savodxonlik faoliyatini oshiradi, rivojlanishini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter savodxonlik, o‘quv-tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarini jadallashtiradi.

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M. V. Bulanova, Toporkova va boshqalar kompyuter savodxonligi sohasidagi bilimdonlikni quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

Zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik.

2. Shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish.

3. Umumiy komunikativ (o‘zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi.

4. Kompyuter savodxonlik faoliyati o‘zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo‘lishi.

5. O‘zini refleksiyalash (o‘z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo‘lishi.

6. Kompyuter savodxonlik faoliyatini bilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o‘zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o‘zlashtirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda kompyuter savodxonliklarning tashkil etishning asosiy maqsadi:

- Tarbiyachilarning axborot madaniyatini shakllantirish – ma’lumotlarni izlash, qayta ishlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Kompyuter savodxonligini shakllantirish – klaviatura, sichqoncha, sensor ekran kabi qurilmalar bilan ishlashni o‘rgatish;
- Dasturlash asoslarini tushuntirish – vizual dasturlash muhitlari orqali mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Axborot xavfsizligini o‘rgatish – asosida rinternetda xavfsiz ishlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlikning asosiy tamoyillarini tushuntirish.
- Kompyuter savodxonlik-maktabgacha 6-7 yosh bolalarga elementar kompyuter savodxonlik tushunchalarini o‘rgatish. Kompyuter haqidagi bilimlarni o‘yin orqali o‘rgatish.

Pedagogik yondashuvlar:

- **O‘yinli ta’lim** (gamification) – kompyuter texnologiyalar bolalarning qiziqishini oshirish uchun o‘yinli metodlar qo‘llaniladi. Masalan, Scratch, Blockly kabi vizual dasturlash muhitlari o‘yin shaklida o‘rgatiladi.
- **Loyiha asosida o‘qitish** – bolalarni kichik loyihalar ustida ishlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar. Masalan, oddiy animatsiyalar yaratish yoki rasm chizish dasturlaridan foydalanish.
- **Interfaol ta’lim** – faoliyat jarayonida interfaol taxta, kompyuter laboratoriyalari yoki planshetlar ishlatiladi.
- **Turli o‘yinli mashg‘ulotlardan**, ko‘z mashqlardan foydalanadilar.

Rus olimlaridan A.V. Goryachevning fikriga ko‘ra: ta’lim samaradorligini ta’minlovchi omillardan biri uzluksizlikdir. Bunday holda, uzluksizlik deganda ta’limning butun kursi davomida bir-biriga aylanadigan va har bir ketma-ket vaqt oralig‘ida bolaning doimiy, obyektiv va subyektiv rivojlanishini ta’minlaydigan izchil maqsadlarning mavjudligi tushunilishi kerak. Davomiylik deganda ta’limnimg turli bosqichlari yoki shakllari chegaralaridagi uzluksizlik tushuniladi.

Kompyuterning bolalar rivojlanishiga ijobiy ta’siri: haqidagi olimlarning fikrlari juda ziddiyatli. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter savodxonlikdan foydalangan bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va obyekt obrazi bir vaqtda idrok qilinadi. Natijada o‘zlashtirishning yuqori darajada bo‘lishi kafolatlanadi. Bundan tashqari, bolalarning xotirasi rivojlanadi, diqqati barqarorlashadi, ta’lim materialiga qiziqishlari ortadi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar S.L.Novoselova, I.Yu. Pashiliti, G.P.Petko, Xanter va M.I. Jumayevlarning fikrlariga ko‘ra ta’lim jarayonida kompyuterdan foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat kompyuter texnologiyalaridan

foydalanish imkoniyati maqsadga muvofiqligini, balki bolaning intellekti va shaxsiyatini rivojlantirishda alohida o‘rin tutganligini va bugungi kunda kompyuter vositalaridan foydalanish maktabgacha ta’lim tizimidagi ko‘plab uslubiy yangiliklarni ishonchli isbotlamoqda. Ularning fikriga qo‘shilib shuni aytmoqchimanki kompyuter bolaning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, fikrlash doirasi va intelektual salohiyatini o‘stiradi va mustaqil bilim olishiga imkoniyat yaratildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter bolalarning e’tiborini va tasavvurini rivojlantiradigan taqdimot materiallarini namoyish qilish vositasi bo‘lib, ta`limiy faoliyatlarda kompyuter birinchi navbatda bola tomonidan ixtiro qilingan tasvirni yaratish vositasi sifatida qaraladi. Kompyuter grafik dasturlari nafaqat yosh rassomni tasvirni rang bilan bo‘yashning turli xil usullarining ideal shaklidagi geometrik shakllar to‘plami bilan ta'minlabgina qolmay, balki natijada paydo bo‘lmagan harakatni bekor qilishga, rasmni tuzatishga imkon beradi. Bir marta, qat’iy talablarga javob beradigan natijaga erishish uchun kichik muallif va uning o‘zini o‘zi qadrlashini oshiradi.

Kompyuterda ko‘p vaqt o‘tkazishning bolaga bo‘lgan ta’siri:

Birinchi navbatda ko‘rish a’zolarining zoriqishi va zararlanish bilan bog‘liq jihatini aytish mumkin. Bu jarayonda kompyuterga termilib o‘tirish davomida nafaqat ko‘z mushaklari zo‘riqadi, balki ko‘z ichki tomirlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, markaziy asab tizimini buzulishi bilan bog‘liq. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, 10-12 yoshgacha bo‘lgan bolalarning kompyuterda ko‘p o‘tirishi ularning asabini buzulishiga olib keladi. Bu narsa bolaning ortiqcha charchashi, bosh og‘rishi, uyquning buzulishi, kayfiyatining tushishi, asabiylashishi yoki o‘ta passivligi, xayoli joyda bo‘lmay qolishi kabi holatlarda namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan,q o‘l, yelka va bo‘yin mushaklarining o‘zgarishiga olib keladi. Kompyuterga o‘tirgan bolaning rivojlanayotgan qo‘l, yelka va bo‘yin mushaklari bir holatda uzoq vaqt davomida turishi natijasida qo‘l mushaklarining ortiqcha holdan toyishiga, qon aylanishining buzulishiga, ayrim hollarda mushak og‘riqlariga ham olib keladi. Albatta, bugungi kunda bolani kompyuterdan chetda tutishning iloji yo‘q. Undan tashqari o‘qish, ishlash jarayoni kompyuter va internet tarmog‘i bilan bog‘liq bo‘lib qolgani uchun bola kompyuterni bilishi kerak. Amerika pediatriya uyushmasining ko‘rsatishicha, bolaga chegaralangan holda kompyuter va mobil vositalardan foydalanishga ruxsat berish lozim va shu bilan birga bolaning yoshini ham e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

Kompyuterning inson tanasiga zararli ta’sirining asosiy omillari:

1. Cheklangan holatda turish.
2. Radiatsiya.
3. Psixikaga ta’siri.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiya berishda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlar ularga elementar kompuyuter savodxonligini o‘rgatishda va kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishga hamda bolalarni har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

Kompyuter o‘yinlari bolalarni asosiy faoliyatga jalb qiladi, madaniy jihatdan tasdiqlangan bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.Bolaga beriladigan ta’lim ta’siri o‘yinning dizayniga, uning bola uchun ochiqligiga, tushunarligiga, uning rivojlanish darajasiga va qiziqishiga bog‘liq. O‘yinda u qiyinchilik darajasini, qoidalarni, muammolarni hal qilish usullarini nazorat qila oladi, bu unga oldingi avlod uchun mavjud bo‘lmagan kognitiv tuzilmalarni yaratishga imkon beradi. Demak oldimizdagi eng maqul yechim, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuter savodxonlik faoliyatini tashkil etishdir.

Har bir zamonaviy tarbiyachi faoliyat davomida axborot komunikativ texnologiyalardan foydalana olish, hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni hal etish, bilimlarni izlash, turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tanqidiy nuqtaiy nazardan tahlil qila olish va umumlashtirish kabi ko‘nikmalarni hosil qilishga qodir bo‘lishi kerak.

Tarbiyachilar kompyuter savodxonligini egallabgina qolmay undan unumli samarali foydalanib, bilimlarini doimo mustahkamlab, izlanishda davom etmog‘lari darkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun. T.: 2020.1-3-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019-yil 16-dekabr.1-3betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori, 2016- yil 29- dekabr.
4. Axborot texnologiyalari/M.Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov, A 90 M. Mamarajabov. T.: Noshir, 2009.— 368-b. I. Oripov M. B
5. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. T.Fan, 2009. -145 b.
6. Azizxodjayeva N.N Peagogik taqiqotlarda axborot tizimlari va axborotlari –T: Fan-2018

7. XalikovaU.M.(2020).Maktabgacha ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. Интернаука,13-2.
8. ,https://uz.wikipedia. org wiki
9. https://artyar.ru
10. https://kompy.info

MAKTABGACHA TA’LIM TALABALARINING KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA O‘QITUVCHI–TALABA MULOQOTI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING O‘ZGARISHI

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar
kafedrasi o’qituvchisi Turobova
Ziyoda Shuhratovna
Tel:+998-97-283-04-94

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kredit-modul tizimi joriy etilishi natijasida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari bilan o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqot jarayonining o‘zgarishi, yangi pedagogik yondashuvlarning shakllanishi hamda ta’lim sifatiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, tizimning afzalliklari, mavjud muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, pedagogik muloqot, maktabgacha ta’lim, interaktiv metodlar, talabalar faolligi, pedagogik innovatsiyalar.

Abstract:

This article discusses the changes in the process of communication between preschool students and teachers as a result of the introduction of the credit-module system, the formation of new pedagogical approaches, and the impact on the quality of education. The advantages of the system, existing problems, and areas for improvement are also analyzed.

Keywords: credit-module system, pedagogical communication, preschool education, interactive methods, student activity, pedagogical innovations.

Kirish

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida 2020-yildan boshlab kredit-modul tizimining joriy etilishi ta’lim jarayoniga tub o‘zgarishlar olib kirdi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda yangi yondashuvlar, mustaqil ta’lim ulushining ortishi va baholashning shaffof tizimi asosiy o‘rin egallamoqda. Kredit-

modul tizimining maqsadi — ta’lim jarayonini talaba markazida tashkil etish, uning mas’uliyatini oshirish va o‘qituvchi bilan samarali o‘zaro muloqotni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Kredit-modul tizimi o‘quv jarayonini modul birliklarga bo‘lish, har bir modul doirasida ma’lum kompetensiyalarni shakllantirish va nazorat qilish, talabaga mustaqil bilim olish imkoniyatini kengaytirishni nazarda tutadi. Ushbu tizimda o‘qituvchi–talaba muloqoti quyidagi yo‘nalishlarda sifat jihatdan o‘zgaradi:

1. Muloqotning demokratlashuvi

An’anaviy dars jarayonida o‘qituvchi axborot manbai sifatida yetakchi bo‘lsa, kredit-modul tizimida u ko‘proq maslahatchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Bu esa:

- talabaning o‘z fikrini erkin bayon etishiga,
- o‘qituvchiga savol berish imkoniyatlarining kengayishiga,
- o‘zaro ishonch muhitining shakllanishiga xizmat qiladi.

2. Talaba faolligining oshishi

Modul bo‘yicha joriy baholash, reyting tizimi va mustaqil ta’lim topshiriqlari talabalarning dars jarayoniga faol qo‘shilishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun amaliy topshiriqlar, pedagogik kuzatuvlar va loyihaviy ishlar ularga real kasbiy vaziyatlarda muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi.

3. Onlayn muloqot shakllarining kuchayishi

Kredit-modul tizimi elektron platformalardan foydalanishni majburiy qilgani uchun o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotning ko‘p qismi:

- LMS tizimlari,
- Telegram guruhlari,
- videodarslar,
- masofaviymaslahatlar

orqali tashkil etilmoqda. Bu esa muloqotning tezkor, qulay va hujjatlashtirilgan bo‘lishini ta’minlaydi.

Kredit-modul tizimi pedagogik jarayonda quyidagi innovatsion yondashuvlarning keng qo‘llanishiga turtki bo‘lmoqda:

1. Talaba markazidagi ta’lim

Ta’lim jarayonida talaba asosiy subyektga aylanadi. O‘qituvchi esa bilim beruvchi emas, balki:

- yo‘naltiruvchi,
- koordinator,
- fasilitator

sifatida faoliyat yuritadi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida bu yondashuv talabalarning bolalar bilan ishlashda zarur shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

2. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv

Har bir modul ma’lum kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan: muloqot kompetensiyasi, pedagogik kuzatuv ko‘nikmalari, dars jarayonini tashkil etish, bolalar psixologiyasini tushunish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish. Bu yondashuv talabaning faqat bilim emas, balki amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlanishiga xizmat qiladi.

3. Interaktiv metodlarning keng qo‘llanishi

Kredit-modul tizimi o‘qituvchini dars jarayonida interaktiv metodlardan unumli foydalanishga undaydi. Jumladan: klaster, akvarium, rol o‘yinlari, keys-stadi, “Aqliy hujum”, pedagogik vaziyatlar tahlili kabi metodlar maktabgacha ta’lim yo‘nalishining o‘ziga xos jihatlariga mos ravishda qo‘llanadi.

4. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim

Modul yakunida talaba: amaliy topshiriqlar, portfel ishlari, kuzatuv protokollari, mini-loyihalar orqali baholanadi. Bu yondashuv talabaning nazariy bilimini real amaliyot bilan bog‘laydi va uning kasbiy yetuklik darajasini oshiradi.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi bir qancha imkoniyatlar eshigini ochib kelsada, bir qatorda ayrim muammolar ham kuzatilmoqda:

1. Talabalarning mustaqil ta’limga tayyor emasligi — ayrim talabalar mustaqil izlanish olib borish va o‘z vaqtini boshqarishda qiynaladi.
2. O‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalarining turlicha darajada bo‘lishi — elektron platformalardan foydalanish hamma uchun bir xil darajada samarali emas.
3. Yuklamaning ortishi — talaba ham, o‘qituvchi ham modul bo‘yicha ko‘plab topshiriqlarni bajarish va tekshirishga majbur bo‘ladi.
4. Muloqotning individual emasligi — guruhlar soni ko‘pligi sababli o‘qituvchilar har bir talaba bilan yetarlicha individual ishlay olmaydi.

Shu sababli ham Kredit-modul tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqdik:

1. Elektron ta’lim platformalarini yanada takomillashtirish va ulardan foydalanish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun muntazam treninglar tashkil etish.
2. Modullardagi topshiriqlarni optimallashtirish, ularni amaliyot bilan yanada bog‘lash.
3. Talabalar uchun mustaqil ta’lim metodikalarini ishlab chiqish, vaqtni boshqarish bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

4. Muloqotning interfaol shakllarini kengaytirish – mentoring, tutorlik, kichik guruh mashg‘ulotlari.
5. Baholash tizimini shaffoflashtirish – reyting mezonlarini aniq belgilash, onlayn baholash imkoniyatlarini kengaytirish.

Xulosa

Kredit-modul tizimi maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘qituvchi–talaba muloqotining sifatini oshirish, pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu tizim natijasida talabalar faolligi, mustaqilligi va muloqot madaniyati sezilarli oshmoqda. Shu bilan birga, elektron ta’lim, interaktiv metodlar va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar ta’lim jarayonining zamonaviy talablar asosida tashkil etilishiga imkon bermoqda. Kelgusida tizimni takomillashtirish, ayniqsa, muloqot sifati, mustaqil ta’limning metodik qo‘llab-quvvatlanishi va o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kredit-modul tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori. — Toshkent, 2020.
3. Hasanboeva O., Yo‘ldosheva S. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Xodjieva N. Maktabgacha ta’lim metodikasi. — Toshkent, 2022.
5. Brown H. D. Teaching and Learning in Competency-Based Education. — New York, 2018.
6. Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2020

MAKTABGACHA TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH: MILLIY STRATEGIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Tog‘ayeva Nigora Sheraliyevna
Navoiy viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini muvofiqlashtirish sho‘basi metodisti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimini raqamlashtirishning global tendensiyalari, ilg‘or xalqaro tajribalar, AKTning ta’lim sifatini oshirishdagi roli hamda boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, bolalar uchun mos raqamli kontentlar yaratish, elektron monitoring tizimlari, boshqaruvning shaffof mexanizmlarini joriy etish masalalari yoritilgan. Xalqaro standartlar asosida milliy strategiyani takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Asosiy g‘oya: O‘zbekistonda MTT (Maktabgacha ta’lim tashkilotlari) tarmog‘ining kengayishi va ta’lim sifatiga bo’lgan talablarning oshishi sharoitida raqamli boshqaruvga o’tish zaruriyati.

Kalit so‘zlar:

maktabgacha ta’lim, raqamlashtirish, AKT integratsiyasi, raqamli boshqaruv, xalqaro ta’lim standartlari, raqamli kompetensiya, innovatsion pedagogika, raqamli kontent, STEAM-ta’lim, elektron platformalar, raqamli transformatsiya, pedagog malakasi, multimediali resurslar, raqamli xavfsizlik, global hamkorlik.

Kirish

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimini global miqyosda o‘zgartirib yubordi. Raqamli transformatsiya bugungi kunda nafaqat iqtisodiy yoki ijtimoiy jarayonlarning modernizatsiyasi, balki ta’limning yangi paradigmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy omildir. Maktabgacha ta’lim tizimi bu jarayonning eng muhim bo‘g‘inlaridan bo‘lib, bolalarning erta rivojlanishida raqamli savodxonlik, muloqot madaniyati, kreativ fikrlash kabi kompetensiyalarni shakllantirish tobora dolzarblashmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham maktabgacha ta’limni raqamlashtirish, sifatli ta’lim xizmatlarini yaratish va bolalar uchun zamonaviy muhitni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi.

Shundan kelib chiqib, raqamli boshqaruv tizimlarini optimallashtirish, ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim siyosati bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Maktabgacha ta’limni raqamlashtirishning global tendensiyalari

O‘zbekistonning ta’lim sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan Milliy strategiyalarda raqamlashtirish eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish orqali tashkiliy boshqaruvni soddalashtirish, ta’lim sifatini oshirish, samaradorlikni ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyatini shaffoflashtirish maqsad qilinadi.

Raqamlashtirish Milliy strategiyada quyidagi vazifalar orqali o‘z ifodasini topadi:

1.1. Yagona raqamli ta’lim ekotizimini yaratish

Maktabgacha ta’lim muassasalarini yagona elektron platformaga ulash orqali barcha jarayonlarni — qabul, monitoring, tarbiyaviy ishlar, ehtiyojlarni aniqlash va tahlil qilishni markazlashgan tarzda boshqarish ko‘zda tutiladi.

1.2. Ta’lim sifatini raqamli monitoring qilish

Elektron kuzatuv tizimlari orqali bolalarning rivojlanish dinamikasi, pedagoglar faoliyati, o‘quv jarayonining samaradorligi aniq raqamlar va tahliliy ma’lumotlar asosida baholanadi.

1.3. Raqamli boshqaruv orqali shaffoflikni ta’minlash

Ma’lumotlar bazalarining ochiqligi va elektron hujjatlashtirish ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida shaffoflikni ta’minlaydi, subyektiv baholash xavfini kamaytiradi.

1.4. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish

Milliy strategiya doirasida pedagoglarni raqamli texnologiyalar, masofaviy o‘qitish vositalari, elektron kontent yaratish bo‘yicha muntazam tayyorlash va malakasini oshirish belgilangan.

1.5. Xalqaro standartlarga mos innovatsion ta’lim muhiti yaratish

Raqamlashtirish orqali ta’lim mazmuni, metodikasi va boshqaruv tizimi xalqaro baholash mezonlariga moslashtiriladi, bu esa ta’lim sifatini global darajada ta’minlashga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish Milliy strategiyaning markaziy o‘rni bo‘lib, u ta’lim tizimini zamonaviy, ochiq, samarali va innovatsion yo‘nalishda rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, maktabgacha ta’limda raqamli boshqaruvga o‘tish — tarmoqning kengayib borayotgan sharoitida ta’lim sifatini kafolatlashning muhim vositasidir.

Raqamlashtirish bugungi ta’lim tizimida bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ta’lim jarayonining moslashtirilishi

Raqamli platformalar har bir bolaning yoshi, qobiliyati va rivojlanish dinamikasi asosida individual o‘quv yo‘nalishlarini taklif etadi.

2. AKT orqali boshqaruvni soddalashtirish

Elektron hujjatlashtirish, elektron portfoliolar, onlayn diagnostika tizimlari samaradorlikni oshiradi.

3. Ota-onalar bilan raqamli aloqani kuchaytirish

Mobil ilovalar, elektron kundaliklar va monitoring platformalari oilaning ta’lim jarayonidagi ishtirokini oshiradi.

4. Sun’iy intellektdan foydalanish

AI asosida ehtiyojlarni aniqlash, nutq va tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha adaptiv ilovalar yaratilmoqda.

2. Xalqaro ilg‘or tajribalar tahlili

Rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim tizimini raqamlashtirish izchil, ilmiy asoslangan va davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanadigan jarayon sifatida shakllangan. Ushbu tajribalar O‘zbekistonda raqamli boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

2.1. Finlandiya tajribasi

Finlandiya dunyoda eng samarali maktabgacha ta’lim tizimlaridan biri sifatida tan olingan. Mamlakatda raqamli texnologiyalar tarbiyaviy jarayonni sun’iy ravishda murakkablashtirmasdan, balki bolaning tabiiy o‘rganish jarayoni bilan uyg‘unlashgan holda joriy etiladi.

- Ta’lim dasturlariga **kodlash asoslari**, algoritmik fikrlash elementlari va oddiy raqamli muhitda ishlash ko‘nikmalari integratsiya qilingan.
- Virtual o‘yinlar va interfaol o‘quv dasturlari bolaning yosh xususiyatlariga mos ravishda tanlanadi, o‘yin orqali o‘qitish metodikasi ustuvor hisoblanadi.
- Raqamli vositalar bolalarning ijodkorligini rivojlantirish, hissiy-intellektual o‘sishini qo‘llab-quvvatlash, mustaqil fikrlashni kuchaytirishga qaratilgan.

Finlandiya modeli raqamli texnologiyalarni **bolaning tabiiy rivojlanish jarayonini buzmagan holda** joriy etishning yorqin namunasi hisoblanadi.

2.2. Estoniya tajribasi

Estoniya raqamli davlat yaratish bo‘yicha dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biridir. Ushbu yondashuv maktabgacha ta’lim tizimida ham o‘z aksini topgan.

- Barcha maktabgacha ta’lim muassasalari **yagona davlat raqamli platformasi**ga ulanib, bolalar, pedagoglar va ta’lim jarayoniga oid ma’lumotlar elektron shaklda yuritiladi.

- Har bir bola uchun **elektron rivojlanish profili** mavjud bo‘lib, unda nutq, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, mantiqiy tafakkur va jismoniy ko‘nikmalar bo‘yicha ko‘rsatkichlar muntazam qayd etiladi.
- Pedagoglar sun’iy intellektdan foydalanib, bolalarning rivojlanish xaritasini tahlil qiladi, individual reja tuzadi.
- Ota-onalar elektron platforma orqali kundalik jarayondan xabardor bo‘lib boradi.

Estoniya tajribasi raqamli boshqaruvning **institutlashtirilgan, markazlashgan va shaffof** bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi.

2.3. Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreya ta’limni texnologik innovatsiyalarga asoslangan holda tashkil etishi bilan mashhur. Maktabgacha ta’limda ham bu yondashuv izchil joriy qilingan.

- Interaktiv doskalar, planshetlar, VR-laboratoriyalar, raqamli sensor markazlar keng qo‘llaniladi.
- Har bir bola uchun **raqamli portfoliolar** shakllantiriladi, unda bolaning yutuqlari, kreativ ishlari va rivojlanish dinamikasi saqlanadi.
- Monitoring real vaqt rejimida olib borilib, pedagog va rahbariyat tezkor ravishda masalalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Raqamli muhiti bolalarda texnologik fikrlashni, ijodiy qobiliyatni, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Janubiy Koreya modeli **zamonaviy texnologiyalarni yuqori samaradorlik bilan pedagogik jarayonga integratsiya qilish** tamoyili bilan ajralib turadi.

2.4. Singapur tajribasi

Singapur maktabgacha ta’lim sifatini dunyo bo‘yicha etalon darajaga olib chiqishda raqamli boshqaruvdan samarali foydalangan davlatdir.

- “Nurturing Early Learners” (NEL) onlayn platformasi pedagoglar uchun metodik materiallar, amaliy ko‘rsatmalar, treninglar, video-darslar va nazariy resurslarni taqdim etadi.
- Ta’lim tizimida axborot almashinuvi **yagona davlat raqamli tarmog‘i** orqali amalga oshiriladi, bu esa ma’lumotlarning aniqligi, xavfsizligi va tezkorligini ta'minlaydi.
- O‘qituvchilar muntazam ravishda onlayn kurslar orqali malakasini oshiradi, innovatsion metodlarda tajriba almashadi.
- Raqamli texnologiyalar bolaning individual rivojlanishiga moslashtirilgan ta’limni tashkil etish imkonini beradi.

Singapur tajribasi **raqamli ekotizim va pedagog malakasining uyg‘unlashuvi** bilan ajralib turadi.

Maqsad — informatizatsiya emas, balki raqamli pedagogika.

Asosiy e’tibor texnika emas, balki raqamli muhitda samarali o‘qitish metodikasi va pedagogik jarayonni takomillashtirishga qaratilishi kerak.

3. Raqamli infratuzilma va boshqaruv mexanizmlarini modernizatsiya qilish

O‘zbekiston sharoitida raqamlashtirish quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab olishi zarur:

3.1. Texnik infratuzilma

- yuqori tezlikdagi internet,
- kompyuterlar, planshetlar,
- interaktiv ekranlar,
- elektron o‘quv platformalari,
- raqamli monitoring tizimlari.

3.2. Dasturiy-maqsadli boshqaruv modeli

Ta’lim muassasalarining faoliyatini boshqarishda **strategik rejalashtirish, vaziyatli boshqaruv, data-tahlil**, natijaviy ko‘rsatkichlarga asoslanish muhim.

3.3. Elektron boshqaruv tizimi

- elektron arxiv va hujjatlashtirish;
- onlayn navbat va qabul tizimi;
- raqamli portfoliolar;
- ta’lim sifatini baholashning elektron tizimi.

4. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish

Maktabgacha ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonining muvaffaqiyati, eng avvalo, pedagoglarning raqamli savodxonligi, innovatsion fikrlashi va zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatiga bog‘liq. Shu bois pedagoglar kompetensiyasini rivojlantirish milliy ta’lim strategiyasining asosiy tarkibiy qismiga aylangan.

4.1. Pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish

Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati pedagoglarning kompetensiyasiga bog‘liq.

4.2. Malaka oshirish

Pedagoglarni raqamli muhitga tayyorlash uchun tizimli trening va kurslar muhim:

- **Onlayn kurslar** — uzluksiz o‘qish imkoniyati;
- **Vebinarlar** — xalqaro tajriba va amaliy tavsiyalar;
- **Raqamli pedagogika treninglari** — interfaol metod va multimedia vositalari;
- **STEAM-ta’lim metodikasi** — ijodkorlik, tadqiqot va muammolarni hal qilish kompetensiyalari.

4.3. Kasbiy kompetensiya talablari

Pedagog:

- raqamli vositalardan samarali foydalanadi;
- yoshga mos kontent yaratadi;
- bolalarning raqamli xavfsizligini ta’minlaydi;
- ota-onalar bilan AKT orqali samarali muloqot qiladi.

4.4. Pedagog shaxsining zamonaviy modeli

Zamonaviy pedagog:

- kreativ va innovatsion fikrlovchi;
- texnologiyalarni qo‘llay oluvchi;
- uzluksiz rivojlanishga intiluvchi.

Bu model maktabgacha ta’limda raqamli ekotizimning samarali ishlashini ta’minlaydi.

5. Raqamli ta’lim kontenti: zamonaviy yo‘nalishlar va amaliy imkoniyatlar

Maktabgacha ta’limda raqamli kontent bolalarning aqliy, nutqiy, ijtimoiy-emotsional va estetik rivojlanishiga yordam beradi. Sifatli o‘quv mahsulotlari pedagog uchun qulaylik yaratib, bolalarni o‘yin orqali o‘rganishga jalb qiladi.

5.1. Multimedia resurslar

BBC Bitesize, Sesame Street, Khan Academy Kids kabi platformalar rang-barang, animatsion va interaktiv darslar orqali kreativlikni rivojlantiradi va shaxsiylashtirilgan ta’lim imkonini beradi.

5.2. Elektron kitoblar

StoryWeaver, Book Creator bolalarda o‘qishga qiziqish uyg‘otadi, nutqni rivojlantiradi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

5.3. Interfaol o‘rgatuvchi dasturlar

Toca Boca, Endless Alphabet, ScratchJr bolalarni faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi, mantiqiy fikrlash, algoritmlash va kreativ yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

5.4. Milliy kontent yaratish

O‘zbekiston sharoitida milliy kontent bolalar psixologiyasiga mos, ona tilida, milliy qadriyat va madaniyatni aks ettiruvchi bo‘lishi zarur. Animatsion darslar, interaktiv ilovalar va STEAM-faoliyatga mos mahsulotlar strategik ahamiyatga ega.

6. Xalqaro moliyaviy va metodik hamkorlikning roli

Raqamli transformatsiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishda xalqaro tashkilotlarning ko‘magi alohida ahamiyatga ega. Ular texnik infratuzilma,

metodik ko‘rsatmalar, pedagoglarni o‘qitish va raqamli boshqaruvni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamda ko‘mak ko‘rsatib kelmoqda.

Xususan:

- **UNICEF** — raqamli ta’lim platformalari, bolalar xavfsizligi bo‘yicha metodikalar, erta rivojlanish uchun o‘yinli ilovalarni ishlab chiqishda ko‘mak beradi.
- **UNESCO** — ta’limning raqamli sifat standartlari, AKT integratsiyasi bo‘yicha xalqaro metodik qo‘llanmalar yaratadi.
- **World Bank** — raqamli infratuzilma modernizatsiyasi, boshqaruv tizimlari va IT-qurilmalar uchun grant va kreditlar ajratadi.
- **Asian Development Bank (ADB)** — ta’lim muassasalarini texnik jihozlash, internet tarmog‘ini kengaytirish loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi.
- **Erasmus+** — pedagoglar almashinuvi, xalqaro o‘quv dasturlari, innovatsion metodikalarni joriy etish bo‘yicha trening va seminarlar tashkil qiladi.

Bu hamkorlik O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish, raqamli texnologiyalarni tezkor joriy etish va pedagoglar malakasini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

7. Xulosa

Maktabgacha ta’lim tizimini raqamlashtirish O‘zbekistonda ta’lim sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladigan strategik jarayondir. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish faqat texnik vositalarni joriy etish bilan cheklanmaydi, balki pedagogik yondashuvni, boshqaruv tizimini, ta’lim mazmunini va kasbiy kompetensiyalarni yangilashni talab qiladi. Finlandiya, Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar tajribasi raqamli boshqaruvning institutsional asoslarini yaratish, pedagoglarning raqamli savodxonligini kuchaytirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirishning ijobiy natijalarini yaqqol tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘i kengayib borayotgan sharoitda raqamli boshqaruvga o‘tish zaruriyatining kuchayishi milliy strategiyaning dolzarbligini ko‘rsatadi. Sifatli raqamli kontent yaratish, bolalarning yoshiga mos, milliy qadriyatlar bilan uyg‘un o‘quv resurslarini ishlab chiqish — raqamli pedagogikaning asosiy omillaridan biridir. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar (UNICEF, UNESCO, World Bank, ADB, Erasmus+) bilan hamkorlik — infratuzilma, metodik yordam, pedagoglar malakasini oshirish hamda boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi.

Raqamlashtirishning muvaffaqiyati, avvalo, pedagoglarning raqamli kompetensiyasiga, innovatsion fikrlashiga, zamonaviy AKT vositalaridan samarali

foydalanish qobiliyatiga bog‘liq. Professional rivojlanishning uzluksiz qo‘llab-quvvatlanishi raqamli transformatsiyaning asosiy drayveri bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, maktabgacha ta’limni raqamlashtirish — shaffof, samarali va sifatga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yaratish, bolalarning intellektual, kreativ va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni kelajakdagi raqamli jamiyatga tayyorlashga qaratilgan kompleks islohotdir. Bu esa milliy maktabgacha ta’lim tizimining jahon standartlariga moslashuvi va barqaror rivojlanishining muhim kafolati hisoblanadi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Navoiy viloyati Tomdi tumani Maktabgacha va maktab ta’lim bo'limiga qarashli 4-son "Aray" Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor o'rinbosari Yeshnazarova Janat Mamirovna

Tel:+998337130801

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullar to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Tanqidiy fikrlash — bu shunchaki tanqid qilish emas, balki voqea va hodisalarni chuqur o‘ylab, asosli xulosalar chiqarish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish, mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatidir. Shunday ekan, tarbiyachilarning asosiy vazifalaridan biri — bolalarda bu ko‘nikmalarni erta yoshdan boshlab rivojlantirishdir

Kalit so‘zlar: maktabga tayyorlash, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat kuzatish, tajriba metodi, munozara

Kirish. Davlatimiz tomonidan o‘sib kelayotgan yosh avlodni sog‘lom va barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish, ularni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratmoqda. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy oquv-metodik materiallar va adabiyotlar bilan ta’minlash, ta‘lim jarayoniga innovatsion g‘oya va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bolalarni maktabga tayyorlash, ta’lim-tarbiya berishda ularning yoshiga mos ravishda qiyin bo‘lmagan birlamchi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga

qaratilgan dasturlarni bo‘lishi bilan birga, ularda nutq, tafakkur va axloqiy sifatlarini rivojlantirish bilan o‘zaro uyg‘unlikda amalga oshirilishini taqozo etadi. Bugungi globallashuv davrida har bir insondan mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lish talab etiladi. Ayniqsa, bu jarayonning ilk bosqichi — maktabgacha ta’lim davrida bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha yosh bolaning tafakkuri jadal rivojlanadigan, dunyoni bilish, o‘rganish va tahlil qilishga bo‘lgan qiziqishi kuchli bo‘lgan davrdir.

Tanqidiy fikrlash — bu shunchaki tanqid qilish emas, balki voqea va hodisalarni chuqur o‘ylab, asosli xulosalar chiqarish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish, mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatidir. Shunday ekan, tarbiyachilarning asosiy vazifalaridan biri — bolalarda bu ko‘nikmalarni erta yoshdan boshlab rivojlantirishdir. Shuningdek, ayrim adabiyotlarda **tanqidiy fikrlash** – bu mashq qilish orqali rivojlantirish mumkin bo‘lgan ko‘nikmadir deb keltirilgan.

Shu bilan birga, tanqidiy fikrlash — bu axborotni shunchaki qabul qilmasdan, uni tahlil qilish, baholash, solishtirish va xulosa chiqarish jarayonidir. Bu fikrlash turi bolaning mantiqiy tafakkurini, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida o‘yinlar, tajribalar, savol-javoblar va muammoli vaziyatlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy usullari

1. **Savol-javob metodi.** Tarbiyachi bolalarga oddiy emas, balki o‘ylashga undaydigan savollar berishi lozim. Masalan: “Nega bu hodisa shunday bo‘ldi?”, “Agar boshqacha bo‘lganida nima bo‘lardi?”, “Seningcha, qaysi yo‘l to‘g‘ri?”. Bunday savollar bola tafakkurini faollashtiradi va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatadi.
2. **Muammoli vaziyat yaratish.** Tarbiyachi bolalarni muayyan muammo yoki vaziyatga duch keltirib, ularni yechim topishga undaydi. Masalan, “Qushlar qishda nima qiladi?” yoki “Agar yomg‘ir yog‘masa, o‘simliklar nima bo‘ladi?” kabi vaziyatlar orqali bolalar sabab va oqibatni izlashni o‘rganadilar.

3. **Rol o‘yinlari va dramatizatsiya.** “Do‘konda xarid qilish”, “Kasallikka chalingan qushga yordam berish” kabi rolli o‘yinlar bolalarda muloqot, muammoni hal etish, to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa tanqidiy fikrlash uchun zamin yaratadi.



4. **Kuzatish va tajriba metodi.** Bolalar atrofdagi tabiat hodisalarini kuzatish, ularni solishtirish, sabablarini topishga o‘rganish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, “Qanday qilib suv muzlaydi?”, “Issiqlik o‘simliklarga qanday ta’sir qiladi?” kabi savollar orqali bolalar sabab-oqibat aloqasini anglaydilar.



5. **Guruhda ishlash va munozara.** Guruhdagi ishlar davomida bolalar bir-birining fikrlarini tinglash, o‘z fikrini himoya qilish va murosaga kelish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu jarayon ham tanqidiy fikrlashning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘z tajribalimda shuni aytishim mumkinki, bolalarda shu yoshdanoq tanqidiy fikrlashga o‘rgatish muhimdir. Misol tariqasida, **“Yorug`lik qayerda bor?”** savoliga javob olish uchun og‘zaki yoki tarqatma materillar orqali berish mumkin.

Shuningdek, "**Nur qaysi materiallardan o‘tadi?"**

Faoliyat: Bolalarga shisha, qog‘oz, metall, plastik kabi predmetlar beriladi. Chiroq yordamida nur o‘tkazish sinovi.

Savollar: Qaysi narsa nurni o‘tkazdi? Nima uchun?

Jarayon: Maktabgacha yoshdagi bolalar yorug'lik va soyalarni o'rganish taklif etiladi. Pedagog bolalardan uyda topishlari mumkin bo'lgan turli xil yorug'lik manbalari haqida fikr so‘raydi. Aqliy hujum paytida bolalar turli xil yorug'lik manbalari, ular yorug'likning ahamiyatini va uning qanday ekanligini o‘z tushunchalari doirasida aytib beradilar.

Xulosa qilib aytganda, Tarbiyachi bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda yo‘lboshchi, rag‘batlantiruvchi va kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. U bolalarni erkin fikrlashga undaydi, ularning fikrlarini hurmat qiladi va har bir savoliga jiddiy e’tibor bilan yondashadi. Eng muhimi, tarbiyachi o‘zi ham tanqidiy fikrlovchi shaxs bo‘lishi lozim. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish — maktabgacha ta’lim tizimida eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon orqali bolalarda tafakkur, kuzatuvchanlik, mantiqiy tahlil, muammoli vaziyatni hal etish kabi hayotiy ko‘nikmalar shakllanadi. Erta yoshdan boshlab tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kelajakda mustaqil, faol, mas’uliyatli va yangilikka intiluvchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

2.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. — Toshkent, 2021.

3. Karimova R., Tursunova M. *Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.* — Toshkent: Fan, 2020.

4.Vygotskiy L.S. *Bola tafakkurining rivojlanishi.* — Moskva, 2018.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Aymkulova Baxtigul Kabilovna
Navoiy viloyati Konimex tumani
"Parvoz" 8-DMTT tarbiyachi -direktot o'rinbosari
Tel.+99893-316-60-48

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish tushunchasi va tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning asosiy vazifalari keltirib o‘tilgan. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bu — bolaning aqliy faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashga, dalilli mulohaza yuritishga va ongli qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan jarayondir. Uning asosiy vazifalari to‘liq ochib berilgan va misollar asosida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, taqqoslash, solishtirish va baholash qobiliyati, dalil va fikrni ajratish ko‘nikmasi, muammoni anglash va tahlil qilish, mustaqil fikr bildirish qobiliyati.

Kirish. Mamlakatimizda so’nggi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini isloh qilish, hozirgi zamon talablari va standartlari asosida mazkur soha tarmog’ini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish, o’sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko’tarish, o’quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini tatbiq qilish, shuningdek, ta’lim natijalarini baholashning xalqaro amaliyotini joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar qamrovining o‘sganligi didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishiga barcha sharoitlar yaratilganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bolalarni maktabga tayyorlash, tarbiyalanuvchilarning intellektual, ruhiy, estetik, jismoniy, ma’naviy rivojlanishini ta’minlashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish ehtiyoji sezilmoqda. Ayniqsa oxirgi bir yilllik kuzatishlar natijasida maktabgacha ta’limda tarbiyalanuvchilarni tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi ko‘rilmoqda.

Tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirsh — bolaning aqliy faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashga, dalilli mulohaza yuritishga va ongli qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan jarayondir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Muammoni anglash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish bolada har bir vaziyat yoki ma’lumotni tahlil qilish, uning mohiyatini anglash, sabab va natijani aniqlash ko‘nikmasi shakllantiriladi. Bu vazifa orqali bola faqat ma’lumotni yodlab olmasdan, uning mazmunini tushunish va muammoni ko‘ra olishni o‘rganadi.

Masalan:
“Nega daraxtlar kuzda barg to‘kadi?” — savol bolani sabab haqida fikrlashga undaydi.

2. Savol berish va izlanishga qiziqishni uyg‘otish mumkin. Tanqidiy fikrlashning asosi — savol qo‘ya bilish.
Bolada “Nega?”, “Qanday?”, “Agar shunday bo‘lsa-chi?” kabi savollar berish odati rivojlantiriladi. Bu orqali bola atrofdagi narsa va hodisalarni faol kuzatishni o‘rganadi. Bu vazifa izlanish faoliyatini kuchaytiradi va ijodiy fikrlash uchun zamin yaratadi.

3. Taqqoslash, solishtirish va baholash qobiliyatini shakllantirish uchun bolalarni ikki yoki undan ortiq narsa, holat yoki fikrni solishtirishga o‘rgatish tanqidiy fikrlashning muhim qismi hisoblanadi. Ular o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradilar.
Masalan: “Olma bilan nok nimasi bilan o‘xshash? Nimasi bilan farq qiladi?”

4. Dalil va fikrni ajratish ko‘nikmasini shakllantirish orqali bolalar ko‘pincha “men shunday deb o‘ylayman” va “bu shunday, chunki dalili bor” degan holatni farqlay olmaydilar. Shuning uchun ularni dalil keltirishga, fikrlarini asoslashga o‘rgatish muhim.
Masalan: “Nega sen suv sovuq deb o‘ylaysan?”, “Chunki uni ushlasam, qo‘lim muzday bo‘ladi” — bu dalildir.

5. Mustaqil fikr bildirish va qaror qabul qilishni rag‘batlantirish uchun tanqidiy fikrlash bolani o‘z fikriga ega bo‘lishga va uni himoya qilishga o‘rgatadi. Bolada “o‘z nuqtai nazarini bildirish” va “boshqalar fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish” madaniyati shakllanadi.

Masalan: “Senga qaysi qahramon yoqadi? Nega?” — degan savol orqali bola tanlovini asoslaydi.Xulosa chiqarish va umumlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish
Tanqidiy fikrlash natijasida bola ma’lumotdan ma’no chiqarish, xulosa qilish, umumiy fikr bildirishni o‘rganadi. Bu vazifa bolaning mulohaza yuritish darajasini oshiradi.

Masalan: Bir necha hodisani kuzatgandan so‘ng bola: “Qushlar issiq joyga uchib ketar ekan, chunki sovuqni yoqtirmaydi” — deb xulosa qiladi.

Turkiya va Germaniya tajribasida bolalarni tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishda Systems thinking (sistemali fikrlash) bo‘yicha 4–6 yoshli bolalar bilan olib borilgan tadqiqotda Turkiya va Germaniya maktabgacha muassasalarida bolalarning tizimlar ichidagi o‘zaro bog‘liqlikni va sabab-natija munosabatlarini tushunish darajasi tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, bolalar oddiy sabab-natija hamda birma-bir bog‘liqlikni ko‘ra oladi, lekin murakkab tizimni (masalan,

yashirin komponentlar, bir necha qadamli o‘zgarishlar) tushunishda cheklovlarga ega. Bu shuni anglatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun yuqori darajadagi murakkab muammolarni bosqichma-bosqich joriy qilish va ta’lim jarayonida tahlil-va-muhokama imkoniyatini yaratish muhimdir.

Global Indian International School (GIIS) Singapurda maktabgacha ta’limning “Future Ready Learning” poydevori orqali tanqidiy fikrlash va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Mashg‘ulotlarda STEAM (science, technology, engineering, art, mathematics) faoliyatlari, ochiq savollar (“Nega bunday bo‘ldi?”, “Agar mana shunday qilinsa-chi?”), bolalarning mustaqil tajriba o‘tkazishi, yechim taklif qilishlari rag‘batlantiriladi. Bu uslub bolalarga faqat ma’lumotni qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, o‘z yechimlarini taklif qilish, natijalarni sinab ko‘rish imkoniyatini beradi — tanqidiy fikrlashning muhim jihatlaridan biridir.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, bolalarni maktabgacha yoshdanoq tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularda fikrlash, xotira, diqqatini oshirish hamda muloqot qilish ko‘nikmalari ham shakllanib, maktab ta’limiga ijtimoiy- emmotsianal rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda pedagoglar oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева, Г. (2020). *Мактабгача таълим тизимида болаларда мустақил ва танқидий фикрлашни ривожлантириш методикаси.* Тошкент: TDPU нашриёти.
2. Раҳимова, М. (2019). *Болаларда ижодий ва танқидий фикрлашни шакллантиришда ўйин технологияларининг аҳамияти.* — “Мактабгача таълим” журнали, №4, 35–40-бетлар.
3. Ахмедова, С. (2021). *Мактабгача таълимда инновацион педагогик технологиялар.* Тошкент: “Илм-зиё” нашриёти.
4. Виготский, Л. С. (1984). *Мышление и речь.* Москва: Педагогика.
5. Давыдов, В. В. (1996). *Проблемы развивающего обучения.* Москва: Академия.
6. Пиаже, Ж. (2001). *Речь и мышление ребёнка.* Санкт-Петербург: Питер.

MAKTABGACHA TA’LIMDA XALQARO TAJRIBA VA HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Navoiy viloyati, Zarafshon shahar MMTBga qarashli
“Nihol” nomli 13-DMTT direktor o‘rinbosari
Odilova Dilorom Sunnatovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim sohasida xalqaro tajribadan foydalanish, ilg‘or davlatlar tajribasini mamlakatimiz amaliyotiga tatbiq etishning afzalliklari, shuningdek, xalqaro hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqotda Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi ilg‘or ta’lim tizimiga ega davlatlarning o‘quv-tarbiya yondashuvlari tahlil qilindi. Xulosalarda maktabgacha ta’lim sifatini oshirish uchun muhim omillar ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, xalqaro tajriba, hamkorlik, pedagogika, innovatsiyalar, integratsiya.

Abstract: This article discusses the benefits of using international experience in the field of preschool education, the application of the experience of advanced countries to the practice of our country, as well as promising areas of international cooperation. The study analyzed the educational approaches of countries with advanced education systems, such as Finland, Japan, South Korea, and Singapore. The conclusions indicate important factors for improving the quality of preschool education.

Keywords: preschool education, international experience, cooperation, pedagogy, innovations, integration.

Kirish. Globallashuv sharoitida maktabgacha ta’lim sifati har bir davlatning kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim omilga aylanmoqda. Bugun dunyoning yetakchi ta’lim tizimlariga ega bo‘lgan mamlakatlarda bolalarning erta yoshdagi rivojlanishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajriba o‘rganilishi, innovatsion yondashuvlar, integratsion hamkorliklar ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning malakasini kuchaytirish, zamonaviy metodlar va texnologiyalarni joriy etishda xalqaro hamkorlikning ahamiyati ortib bormoqda.

Asosiy qism

1. Xalqaro tajribaning o‘rni va ahamiyati

Ilg‘or davlatlarda maktabgacha ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Bolaga yo‘naltirilgan ta’lim — har bir tarbiyalanuvchining individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish. O‘yin orqali o‘qitish — o‘yin faoliyati asosiy o‘qitish vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish — bola shaxsining uyg‘un shakllanishi ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Oilaviy hamkorlik — ota-onalar ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiriladi.

Raqamli ta’lim vositalari — zamonaviy texnologiyalar yordamida rivojlantiruvchi muhit yaratish.

Bu tamoyillar maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

2. Ilg‘or xorijiy tajribalar tahlili

Finlyandiya tajribasi

Finlyandiyada maktabgacha ta’lim bola manfaatiga yo‘naltirilgan. Unda: bolalarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi.

Ta’lim jarayonida ortiqcha nazorat o‘rniga erkinlik, ishonch va ijodkorlik ustuvor hisoblanadi.

Yaponiya tajribasi

Yaponiyada maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarning mehnatsevarlik va intizom ko‘nikmalarini shakllantirishga asoslanadi. Ota -onalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi uzviy hamkorlik yuqori darajada yo‘lga qo‘yilgan.

Janubiy Koreya tajribasi

Koreyada maktabgacha ta’limni raqamlashtirish, bolalarni erta yoshdan texnologik savodxonlikka o‘rgatish, STEAM dasturlarini joriy etish eng samarali yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Singapur tajribasi

Singapurda “O‘yin orqali o‘rganish” modeli, bolalarning nutq, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interaktiv metodlar juda rivojlangan.

3. Xalqaro hamkorlikning istiqbollari

Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishda quyidagi hamkorlik yo‘nalishlari muhim o‘rin tutadi:

I. Pedagoglar malakasini oshirish dasturlari

Xorijiy ekspertlar bilan seminar-treninglar, onlayn kurslar, stajirovkalar tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda samarali hisoblanadi.

II. Qo‘shma ilmiy-amaliy loyihalar

Maktabgacha ta’lim metodikasi, bolalar psixologiyasi, rivojlanish monitoringi bo‘yicha qo‘shma tadqiqotlar o‘tkazish ta’lim sifatini yaxshilaydi.

III. Rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish

Ilg‘or davlatlar tajribasini o‘rganib, maktabgacha ta’lim muassasalarida: STEAM markazlari, rivojlantiruvchi o‘yin xonalari, psixologik rivojlanish laboratoriyalari tashkil etish mumkin.

IV. Raqamli texnologiyalarni joriy etish

Elektron platformalar, virtual mashg‘ulotlar, interaktiv o‘quv dasturlarini ishlab chiqish xalqaro hamkorlik natijasida yanada rivojlantirilishi mumkin.

V. Oila vamaktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligini kuchaytirish

Xalqaro tajriba ota-onalarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilishning samarali modellarini taklif qiladi. Bu esa bola tarbiyasida uzviylikni ta’minlaydi.

Xulosa Maktabgacha ta’limda xalqaro tajribadan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Ilg‘or davlatlarning pedagogik yondashuvlari, innovatsion metodikalar, raqamli ta’lim vositalari hamda oila bog‘cha hamkorligi modeli milliy ta’lim tizimimizni tak omillashtirish imkonini beradi. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, qo‘shma ilmiy loyihalar, pedagoglar malakasini oshirish va ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. Early Childhood Education Guidelines.
2. OECD Education Report.
3. Singapur Ta’lim vazirligi materiallari.
4. Finlyandiya Ta’lim Agentligi hisobotlari.
5. Koreya Respublikasi Maktabgacha ta’lim dasturi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hujjatlar

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY G‘URURNI SINGDIRISH OMILLARI

Rizoqulova Sabina Xayrullo qizi
Navoiy davlat universiteti
70110201 – T a’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda milliy g‘ururni shakllantirishning psixologik va pedagogik omillari yoritilgan. Milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi, oilaviy tarbiya, maktabgacha ta’lim tashkilotining roli hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning

ahamiyati tahlil qilingan. Milliy o‘yinlar, ertaklar, ramzlar va tarixiy shaxslar obrazlari orqali bolalarda Vatanga muhabbat va o‘zlikni anglashni rivojlantirishning samarali yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Tayanch so‘zlar: maktabgacha ta’lim, milliy g‘urur, milliy qadriyatlar, tarbiya, folklor, milliy o‘yinlar, Vatanga muhabbat, pedagogik texnologiyalar.

Аннотатция. В статье рассматриваются психологические и педагогические факторы формирования национальной гордости у детей дошкольного возраста. Анализируется роль национальных ценностей, устного народного творчества, семейного воспитания, дошкольных образовательных учреждений и современных педагогических технологий. Показаны эффективные методы развития любви к Родине и национального самосознания через народные игры, сказки, государственные символы и образы исторических личностей.

Ключевые слова: дошкольное образование, национальная гордость, национальные ценности, воспитание, фольклор, народные игры, любовь к Родине, педагогические технологии.

Annotation. This article examines the psychological and pedagogical factors involved in developing national pride among preschool children. It analyzes the importance of national values, folklore, family upbringing, preschool educational institutions, and the use of modern teaching technologies. The study highlights effective ways to foster patriotism and national identity through traditional games, fairy tales, national symbols, and historical figures.

Keywords: preschool education, national pride, national values, upbringing, folklore, traditional games, patriotism, pedagogical technologies.

Maktabgacha ta’lim davri bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan hisoblanadi. Bu davrda bola nafaqat atrof-muhitni idrok etadi, balki o‘z xalqiga, Vataniga, milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatlarining dastlabki ko‘rinishlari ham shakllanadi. Milliy g‘urur – shaxsning o‘z millati, Vatani, tarixi, tili va madaniyatiga bo‘lgan faxr tuyg‘usi bo‘lib, aynan maktabgacha yoshda uning psixologik poydevori qo‘yiladi. Shu bois bu yoshdagi bolalarda milliy g‘ururni shakllantirish omillarini aniqlash, ularni samarali qo‘llash maktabgacha ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridandir.

Milliy g‘urur – bu shaxsning o‘z xalqiga, tarixi, madaniyatiga, tili va urf-odatlariga nisbatan ijobiy munosabat va faxr hissi.

Ma’lumki, maktabgacha yosh (3-7 yosh) bola shaxsining asosiy poydevori qo‘yiladigan davr sanaladi. Ushbu yoshda milliy g‘ururni singdirishning ahamiyati bir nechta ilmiy dalillarda aks etadi. Masalan: maktabgacha davrda bolaning hissiy idroki kuchli bo‘lib, u eshitgan ertaklar, qo‘shiqlar, rasm va timsollar orqali o‘z milliy madaniyatini emotsional tarzda qabul qiladi.

Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, 2-7 yosh oralig‘ida bola ramziy fikrlash bosqichida bo‘ladi, bu esa milliy ramzlar (bayroq, gerb), ertak qahramonlari, o‘yinlar orqali tez ta’sirlanishini bildiradi[1].

Psixologik tadqiqotlar asosida 3-7 yoshda eng tez o‘zlashtiriladigan qadriyatlar sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Hissiy qadriyatlar: mehr-oqibat, Vatan, ota-ona, oila haqidagi tasavvurlar (bunda milliy qo‘shiqlar, ertaklar, obrazlar orqali bolada milliy g‘urur shakllanadi)[2].

2. Ramziy qadriyatlar: bayroq, gerb, milliy kiyim, milliy o‘yin timsollari (bola bu yoshda obrazlar orqali tez eslab qoladi).

3. Til va madaniy nutq elementlari: ota-onaning ona tilida mehr bilan gapirishi (bunda bolaga milliy g‘urur – milliy ertak, topishmoq, maqol va san’at orqali oson singadi).

4. Xulq-atvor qadriyatlari: salomlashish, kattaga hurmat, odob, mehnatsevarlik (bular bolada o‘yinlar va kundalik muloqot orqali shakllanadi)[3].

Milliy o‘zlikni anglash shaxsning ijtimoiylashuvi va o‘z “Men” qiyofasini shakllantirishning ajralmas qismidir.

Milliy o‘zlik shaxsga psixologik barqarorlik, jamiyatga mansublik hissini beradi[4].

Abraham Maslou nazariyasida milliy o‘zlik (o‘zini ro‘yobga chiqarish) jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi: shaxs o‘z ildizini bilgan sari o‘z imkoniyatlarini yanada to‘liq ro‘yobga chiqaradi[5]. Pedagogik yondashuvlarda milliy o‘zlik shaxsning ma’naviy barkamolligini ta’minlovchi asosiy unsurlardan biri sifatida ko‘rsatiladi[6].

Avloniy tarbiyani “hayot-mamot masalasi” deb baholagan va milliy ruhni bolaga eng erta yoshdan berish lozimligini ta’kidlagan.

Uning ishlarida milliy urf-odatlar, til, madaniyat va vatanparvarlik tarbiyasining maktabgacha yoshdagi bolaga mos usullari ko‘rsatiladi[7]

Professor G.Mavlonova tadqiqotlarida bolalarga vatanparvarlik, milliy o‘zlik, ona tiliga hurmatni shakllantirishning pedagogik asoslarini bayon qiladi[8].

G. Yo‘ldosheva milliy ertak, maqol, topishmoq, o‘yinlar orqali bolalarda milliy g‘urur, o‘zlikni anglashni shakllantirishni o‘rgangan[9].

Milliy g‘ururni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalar roli

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar

STEAM elementlari orqali milliy hunarmandchilikni o‘rgatish, interaktiv o‘yinlar o’ynash, animatsion milliy ertaklar orqali ta’lim berish.

2. Multimediali ta’lim

Multfilmlar va videodarslar orqali bolalarga milliy tarixni sodda va qiziqarli tarzda tushuntirish imkonini beradi.

3. Raqamli kitoblar va audio materiallar

Bolalar uchun mo‘ljallangan onlayn audiokitoblar, milliy qo‘shiqlar va ertaklar to‘plamlari tarbiyada kattagina samara beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda milliy g‘ururni singdirish murakkab, ammo nihoyatda mas’uliyatli jarayondir. U oilada boshlanib, maktabgacha ta’lim muassasasida shakllanadi va mustahkamlanadi. Milliy ertaklar, xalq og‘zaki ijodi, milliy o‘yinlar, ramzlar, tarixiy shaxslar, san’at va madaniyat namunalari bolalarda milliy o‘zlikni anglashning mustahkam poydevorini yaratadi. Tarbiyachi va ota-onalar hamkorligida olib boriladigan maqsadli tarbiya jarayoni yosh avlodni Vatanga sadoqatli, o‘z milliy qadriyatlari bilan faxrlanadigan shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Piaget J. The Language and Thought of the Child. Routledge, 1959.
2.O‘zbekiston Respublikasi MTM (Maktabgacha ta’lim metodikasi) bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari.
3.A. Adizova, Maktabgacha ta’lim pedagogikasi, Toshkent, 2019.
4. Tajfel H., Turner J. — Social Identity Theory, 1979.
5. Maslow A. Motivation and Personality. Harper & Row, 1954
6.Hasanboyev J., Pedagogika nazariyasi, Toshkent, 2008.
7. 7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1992
8. Mavlonova R.X., Bahronova M. Maktabgacha ta’limda ma’naviy-axloqiy tarbiya. – Toshkent
9. Yo‘ldosheva G. Bolalar folklori va tarbiya. – Tosh.

MAKTABGACHA TA’LIMDA JAMOAVIY BOSHQARUV: PEDAGOGIK LIDERLIK VA IJTIMOIY HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISH YO‘LLARI

Ostonova Kamola Islomovna
Navoiy viloyati Karmana tumani
4-DMTT direktor o‘rinbosari

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida jamoaviy boshqaruvni takomillashtirish, pedagogik liderlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish masalalari tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta’lim sohasida samarali boshqaruvning muhim omillaridan biri — bu jamoaning bir maqsad sari intilishi, o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritish va liderlik salohiyatini yuzaga chiqarishdir. Maqolada jamoaviy boshqaruvning innovatsion shakllari, menejmentning demokratik yondashuvlari hamda pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: jamoaviy boshqaruv, pedagogik liderlik, ijtimoiy hamkorlik, menejment, motivatsiya, ta’lim sifati.

Abstract

This article analyzes the issues of improving collective management in the preschool education system, developing pedagogical leadership, and strengthening social cooperation. Today, one of the key factors of effective management in the field of education is the team’s commitment to a common goal, collaborative work, and the realization of leadership potential. The article highlights innovative forms of collective management, democratic approaches in management, and ways to enhance teachers’ professional motivation.

Keywords: collective management, pedagogical leadership, social cooperation, management, motivation, quality of education.

Kirish

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv tizimini samarali yo‘lga qo‘yish bugungi kunda muhim strategik vazifalardan biridir. Chunki ta’lim sifatining asosiy omili — bu jamoaning bir butun mexanizm sifatida ishlashidir. Zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimi rahbardan faqatgina ma’muriy ishlarni yuritishni emas, balki yuqori darajadagi boshqaruv madaniyatini, pedagogik jamoani bir maqsad sari yetaklash san’atini talab qiladi. Bugun raqobatbardosh muhitda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari — bu strategik fikrlovchi, ijtimoiy-psixologik bilimlarga ega bo‘lgan, jamoa bilan faol muloqot qura oladigan, motivatsion liderlik usullarini yaxshi biladigan shaxs

bo‘lishi lozim. Shu bois, pedagogik jamoani boshqarish bu – ilmiy asoslangan, lekin ayni paytda nozik san’atga aylangan murakkab jarayondir.Jamoaviy boshqaruv deganda, tashkilot faoliyatida har bir a’zoning fikri, tashabbusi va mas’uliyati inobatga olingan, o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan boshqaruv modeli tushuniladi.Pedagogik liderlik esa — bu rahbar yoki pedagogning jamoani ruhlantira olish, ularda mas’uliyat va ishonchni uyg‘otish, o‘zgarishlarga ochiq bo‘lish madaniyatini shakllantirish qobiliyatidir. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jamoaviy boshqaruv bilan pedagogik liderlikni uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Asosiy qism

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi – bu nafaqat

pedagogika, balki jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi eng muhim masalalardan biridir. Ushbu masala, ayniqsa, respublikamizda o‘zgarayotgan ijtimoiy va siyosiy sharoitda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimizning so‘nggi yillarda ta’lim va tarbiya sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan qarorlari, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-241-sonli Qarorida maktabgacha ta’limning sifatini oshirish va bolalarning kognitiv salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni hayotga tatbiq etish zaruratini ko‘rsatmoqda[1].

Kognitiv rivojlanish bolalar ongining, xotira, diqqat va aql-idrok kabi yuqori darajadagi psixologik jarayonlarning shakllanishini ta’minlaydi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilishi, nafaqat ularning shaxsiy salohiyatini oshiradi, balki jamiyatning intellektual va ma’naviy salohiyatini ham mustahkamlaydi. Ta’lim tizimining maktabgacha bosqichida boshlanadigan inqilobiy o‘zgarishlar, kelajakda o‘quvchilarning intellektual va hissiy-ijtimoiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Kognitiv rivojlanish – bu bola tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallash, ularni qayta ishlash, xotirada saqlash, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotga tadbiq etish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi davr inson hayotidagi eng intensiv intellektual o‘sish bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq va tasavvurning asosiy tizimlari shakllanadi.

Psixologik adabiyotlarda kognitiv rivojlanishning ikki asosiy mexanizmi ko‘rsatiladi:

1. Yetilish (maturatsiya) – bolaning nerv tizimi va aqliy funksiyalarining tabiiy rivoji;
2. Ijtimoiy tajriba – kattalar bilan muloqot, o‘yin faoliyati, bilish jarayonlarining faollashuvi orqali bilim orttirish.

Maktabgacha yoshda kognitiv rivojlanishning asosiy manbalari quyidagilar sanaladi:

- sensor tajriba (sezgi orqali bilish);
- predmet-amaliy faoliyat;
- muloqot va nutq;
- o‘yin faoliyati;
- kuzatishlar, tajribalar va muammoli vaziyatlar.

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivoji bolalarda mustaqil fikrlash, sabab-oqibat aloqalarini anglash, muammoni hal etish ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shveysariyalik psixolog Jan Piaje bolalar tafakkuri rivojlanishi bosqichma-bosqich sodir bo‘lishini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, maktabgacha yosh preoperatsional bosqich (2-7 yosh)ga to‘g‘ri keladi. Ushbu bosqich quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- **Egochillik** (egotsentrizm) – bola atrofdagilar o‘zidek fikrlaydi deb o‘ylaydi;
- **Simvolik fikrlash** – tasavvur va ramziy o‘yinlar sezilarli rivojlanadi;
- **Intuitiv fikrlash** – mantiqiy asoslash hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi;
- **Animizm** – jonli va jonsiz narsalarni farqlashdagi qiyinchilik;
- **Klassifikatsiya va seriasiya qobiliyatining boshlang‘ich shakllanishi**.

Piaje ta’lim jarayonida bolaga tayyor bilim berish emas, balki uni faol kashfiyotga yo‘naltirish zarurligini uqtiradi. Bolaning atrof-muhitni mustaqil o‘rganishi kognitiv rivojlanishning bosh manbai hisoblanadi[4].

Vygotskiy bola rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ta’kidlaydi. Uning asosiy g‘oyasi – yaqin rivojlanish zonasi (YRZ) nazariyasidir. Bu nazariyaga ko‘ra:

- bola mustaqil bajara oladigan vazifalar – uning aktual rivojlanish darajasi;
- kattalar ko‘magi bilan bajaradigan vazifalar – yaqin rivojlanish zonasi[5].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng muhim rivojlanish mexanizmi – kattalar bilan muloqot va o‘yin faoliyatidir. O‘yin orqali bola rollarga kiradi, ijtimoiy munosabatlar tajribasini egallaydi, tasavvur va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Amerikalik psixolog Jerom Bruner kognitiv rivojlanish uch xil tasvir darajasida amalga oshishini ta’kidlaydi:

1. Amaliy (enaktiv) – harakatlar yordamida bilish (0-3 yosh).
2. Obrazli (ikonik) – tasvirlar orqali bilish (3-6 yosh).
3. Simvolik – belgilar va so‘zlar orqali bilish (6 yoshdan keyin).

Maktabgacha yosh aynan ikonik darajaning faol rivojlanish davridir. Bu davrda bolalar rasmlar, modellar, predmetlar va o‘yinlar yordamida real borliqni anglaydilar.

Bruner ta’lim jarayonini spiral o‘quv dasturi orqali tashkil etishni taklif qiladi: bilimlar oddiy ko‘rinishda beriladi va yosh o‘tishi bilan murakkablashib boradi[2].

Gardnerning fikricha, kognitiv rivojlanish faqat mantiqiy fikrlash bilan

cheklanmaydi. U sog‘lom ijodkorlik va taraqqiyot uchun bola bir vaqtning o‘zida bir nechta intellekt turlarini rivojlantirishi kerakligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, insonda quyidagi asosiy intellekt turlari mavjud:

- lingvistik-intellektual;
- mantiqiy-matematik;
- fazoviy;
- musiqiy;
- kinestetik;
- shaxslararo (interpersonal);
- shaxs ichki (intrapersonal);
- tabiatshunoslik intellekti[3].

Maktabgacha yosh davri ushbu intellektlarning barchasini o‘yin, tajriba, muloqot orqali rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

Bu yoshda idrokning quyidagi jihatlari tez rivojlanadi:

- predmet shakli, rangi, hajmini ajratish;
- fazoda yo‘nalishlarni bilish;
- eshituv va ko‘ruv differensiasiyasi.

Sensor tarbiya maktabgacha ta’lim jarayonida kognitiv rivojlanishning poydevori sifatida qaraladi.

Maktabgacha yoshda:

- ixtiyorsiz xotira ustunlik qiladi;
- tasviriy xotira (rasmlar, predmetlar orqali eslab qolish) kuchli rivojlanadi;
- 5-6 yoshdan boshlab ixtiyoriy xotira shakllana boshlaydi.

Xotirani rivojlantirish uchun bola faol amaliyotda, o‘yinda, hikoya va dialoglarda ishtirok etishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda quyidagilar shakllanadi:

- sabab–oqibat bog‘lanishlarini anglash;
- taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish;
- sodda mantiqiy xulosalar.

Biroq tafakkur aksariyat hollarda konkret-obrazli xarakterga ega bo‘ladi.

Maktabga tayyorlov davriga kelib mantiqiy tafakkurning boshlang‘ich ko‘rinishlari paydo bo‘ladi.

Bu davrda diqqatning:

- ixtiyorsiz turi ustun bo‘ladi;
- barqarorligi past, tez chalg‘iydi;
- 5-6 yoshda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi.

Diqqatni rivojlantirishda o‘yin va qiziqarli topshiriqlar asosiy vosita

hisoblanadi.

Nutq kognitiv rivojlanishning asosiy tarmog'i bo'lib, uning rivoji quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- lug'at boyligining kengayishi;
- grammatik tuzilmalar shakllanishi;
- muloqot ko'nikmalarining takomillashuvi;
- ichki nutqning paydo bo'lishi.

Nutq bilan tafakkur o'zaro chambarchas bog'liq: nutq rivojlangan sari tafakkur ham murakkablashadi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bola uchun yetakchi faoliyatdir. O'yin jarayonida bolalar:

- tasavvurini rivojlantiradi;
- rollar orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi;
- muammolarni hal qilishga o'rganadi;
- muloqot ko'nikmalarini oshiradi;
- sensor, motor va intellektual funksiyalarini mustahkamlaydi.

Vygotskiy o'yin bolani o'zining yaqin rivojlanish zonasidan yuqoriroq darajaga ko'taradigan yagona faoliyat turi ekanini ta'kidlagan[5].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi haqidagi nazariyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bola tafakkurining shakllanishi bir yo'nalishli jarayon emas, balki biologik yetilish, ijtimoiy muhit va faol bilish tajribalarining o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Piaje, Vygotskiy, Bruner va Gardner nazariyalari turlicha yondashuvlarni taklif qilgan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat – maktabgacha yoshni kognitiv taraqqiyotning eng sezgir va intensiv bosqichi sifatida e'tirof etilishidir. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimida kognitiv jarayonlarni maqsadli va ilmiy asoslangan tarzda qo'llab-quvvatlashning zarurligini yaqqol ko'rsatadi. Tahlil shuni isbotlaydiki, kognitiv rivojlanishning samaradorligi faqat bilim berish bilan emas, balki bola faoliyatini tashkil qilish tamoyillariga bog'liq. Ayniqsa, o'yin, tajriba, modellashtirish, sensor-amaliy faoliyat va muloqot kognitiv o'sishning asosiy drayverlari sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonlarda bola tashqi ta'sirlarni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki ulardan yangi ma'no va mazmun yaratadi – bu esa bilishning konstruktiv xarakterga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Yana bir muhim ilmiy xulosa shundan iboratki, kognitiv rivojlanishning turli nazariyalari bir-birini to'ldiradi: Piaje bolaning o'z tajribasi asosida bilish tuzilmalarini qurishini asoslagan bo'lsa, Vygotskiy ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi; Bruner bilimni tasvir darajalarida rivojlantirishni taklif etadi; Gardner

intellektning ko‘p qirrali tabiati kognitiv jarayonlarni keng doiraga yoyadi. Bularning barchasi zamonaviy maktabgacha ta’lim uchun integrativ, multidisplinar yondashuv zarurligini bildiradi.

Bugungi ta’lim tizimida kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash nafaqat psixologik jarayonlarni rivojlantirish, balki bolada mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoni hal qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda sensor tajribalar, tasviriy modellar, o‘yin-texnologiyalar va kommunikativ vaziyatlar bola tafakkurini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi kognitiv rivojlanishning ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bolalarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-madaniy va emosional rivoji uchun ham mustahkam poydevor yaratadi. Kognitiv jarayonlarning erta shakllanishi kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyatining eng asosiy prediktori sifatida namoyon bo‘lib, ushbu bosqichdagi ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishning strategik omiliga aylanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi nafaqat individual psixologik salohiyat, balki jamiyatning intellektual va madaniy rivojlanishining muhim poydevorini tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu davr bolaning idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq va tasavvur kabi yuqori psixologik jarayonlari tez va intensiv shakllanadigan eng sezgir bosqichdir. Kognitiv rivojlanish biologik yetilish, ijtimoiy muhit va faol bilish tajribalari o‘zaro ta’sirida sodir bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji bolada mustaqil fikrlash, sabab-oqibat aloqalarini anglash, muammolarni hal etish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Piaje, Vygotskiy, Bruner va Gardner nazariyalari kognitiv rivojlanishning turli jihatlarini yoritib, maktabgacha yoshni bilish va tafakkurning eng sezgir davri sifatida tasdiqlaydi. Ushbu nazariyalar pedagogik jarayonlarda o‘yin, muloqot, tajriba, modellashtirish va sensor-amaliy faoliyatning markaziy ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, ular maktabgacha ta’lim tizimida integrativ va multidisplinar yondashuvni qo‘llashning zarurligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi kognitiv rivojlanishni ilmiy asosda qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bolalarning intellektual, ijtimoiy, madaniy va emosional rivojini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu bosqichdagi samarali pedagogik yondashuvlar kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyati va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishning strategik omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-241-sonli Qarori
2. Bruner J. *Toward a Theory of Instruction*. – Harvard University Press, 1966.
3. Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. – Basic Books, 1983.
4. Piaje J. *Psixologiya intellekta*. – Moskva: Progress, 1994.
5. Vygotskiy L.S. *Muloqot va tafakkur*. – Moskva: Pedagogika, 1982.

6-7 YOSHLI BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Toshqulova Fotima Ulug'bek qizi
Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi
1-kurs magistratura talabasi,
Toshqulovafotima0324@gmail.com +998882985533

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6–7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligi jarayonida namoyon bo'ladigan pedagogik va psixologik xususiyatlar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maktabga tayyorgarlikning asosiy komponentlari — bilish jarayonlari (idrok, xotira, tafakkur, diqqat), nutq rivoji, ijtimoiy-hissiy yetuklik, motivatsion tayyorgarlik hamda jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Psixologik rivojlanish, diqqat, xotira,fikrlash, nutq, tasavvur, muloqot, shaxs rivoji, bola "Men"i, maktabga tayyorgarlik.

Аннотация: В данной статье на научной основе анализируются педагогические и психологические особенности, проявляющиеся в процессе подготовки детей в возрасте 6-7 лет к школьному образованию. Изучаются основные компоненты подготовки к школе - познавательные процессы (восприятие, память, мышление, внимание), развитие речи, социально-эмоциональная зрелость, мотивационная подготовка и показатели физического развития.


Ключевые слова: психологическое развитие, внимание, память,

мышление, речь, воображение, общение, развитие личности, «Я» ребенка, подготовка к школе.

Abstract: This article analyzes on a scientific basis the pedagogical and psychological features that appear in the process of preparing children aged 6-7 years for school education. The main components of preparation for school are studied - cognitive processes (perception, memory, thinking, attention), speech development, social and emotional maturity, motivational preparation and indicators of physical development.

Key words: psychological development, attention, memory, thinking, speech, imagination, communication, personality development, "I" of the child, preparation for school.

Majburiy bir yillik tayyorlov guruhidagi ya'ni 6-7 yoshli bolada bir qancha psixologik o'zgarishlar ro'y beradi. Bu yosh bosqichining o'ziga xos tomoni bo'lib bilishga doir fikriy, psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi (1-rasm). Bola kuzatish, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o'lcham to'la o'zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. Shuningdek, endilikda o'ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo'lishi kuzatiladi. Biroq, bu yoshdagi bolalarda bir vaqtning o'zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo'ladigan paytlarda xatolikka yo'l qo'yishlari mumkin.[43]



Diqqat. Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma'lum bir predmetlarga va ob'ektlarga yo'naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko'ra olishi mumkin.

2-rasm. 6-7 yoshli bolada psixik jarayonlarning rivojlanishi

[43] Ilm yo'li variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) 2022

Xotira. Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo'ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo'ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo'ladi. Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama rag'batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo'lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldor shakli rivojlanishiga yordam beradi. Bu yo'ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o'ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatiyligi, ko'rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan shartlanadi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga maqsadli ravishda o'rgatish mumkin.

Fikrlash. Maktabgacha yosh oxiriga kelib so'zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so'zlarni ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig'ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo'lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyligi mavjud bo'lishi ma'lumdir. Maktabgacha yoshda tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To'la holda so'zli-mantiqiy, tushunchali yoki abstrakt fikrlash o'smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bola sabab-oqibatli aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar yechimini topa olishi mumkin bo'ladi. [44]

Tasavvur. Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o'ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu faqat yaratuvchilik tasavvurlari bo'ladi, ya'ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo'ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada tasavvurni rivojlantirish uchun o'ta muhimdir.

Nutq. Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo'la boradi. So'z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko'p o'qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo'ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So'z boyligi taxminan 3 000 ta so'zgacha boyib boradi.

[44] Ilm yo'li variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) 2022

Shaxs rivojlanishi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ongida asosiy o'zgarish bo'lib "harakatlar ichki rejasi"ning paydo bo'lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko'rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. Bolaning o'z-o'zini anglashida "Men" obrazini anglashi refleksif qobiliyatini belgilaydi, ya'ni, tahlil qilishi, o'z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu jumladan, o'z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma'nan rivojlanishining asosi bo'lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo'ysundirilishi hisoblanadi. "Men qilishim kerak", "men qila olaman" motivlarining anglanishi "men xohlayman" motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi. [45]

O'z "Men"ini anglash O'z "Men"ini anglash va mana shu asosida maktabgacha yosh oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo'lishi yangi ehtiyojlarni tug'diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo'lib hisoblangan o'yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to'la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o'z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o'z o'rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya'ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – "maktab o'quvchisi o'rnini"ni egallashga intiladi, bu esa 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o'ziga xosligi bo'lib sanaladi.

6-7 yoshda bola o'zini nafaqat uning o'zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o'zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o'z o'rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo'lgan shaklda) qobil bo'ladi: o'zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi subyekt sifatida tushunish – o'zining ijtimoiy "Men"ini anglash paydo bo'ladi.

O'z-o'zini baholash bu yoshdagi bolada qoidaga ko'ra, o'zini ko'ra olish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunda bola tashqi baholashga juda bog'liq bo'ladi, chunki u o'zi haqida ob'yektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo'lmaydi, u o'zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o'z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar yaxshi, va birinchi bo'lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo'ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o'zgarib qolishiga yorqin va hissiy ravishda reaksiya ko'rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqli va yoqimsiz bolalarga ajralib qolishlari aniq namoyon bo'ladi.

[45] Ilm yo'li variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) 2022

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yosh va pedagogik psixologiya, M.G.Davletshin, Sh.Do‘stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To‘ychieva, M. Djumabaeva.
2. Ilm yo‘li variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) 2022
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi S.X.Jalilova, S.M.Aripova.

MAKTABGAChA TA’LIM TASHKILOTI XODIMLARINING JISMONIY VA PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI BOShQARISh

Ubaydullaeva Ma’rifat Amondulla qizi,
Kamilova Nigoraxon Ro‘zimaxamatovna
Toshkent shahar Bucheon Universiteti magistranti
marifatubaydullaeva2021@gmail.com

Anatatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) xodimlarida kuzatiladigan professional «kuyish» sindromi (burnout) va surunkali charchoq (chronic fatigue) fenomenlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ishda mazkur muammolarning tashkiliy-ergonomik va psixofiziologik omillari ilmiy asoslandi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, psixologik salomatlik, psixologik tashviqot, professional «kuyish» sindromi (burnout), psixologik maslaxat, psixologik mexanizm, emotsional zo‘riqish, jismoniy salomatlik.

Анатация: Данная статья посвящена анализу феноменов профессионального синдрома "ожога" (burnout) и хронической усталости (chronic fatigue), наблюдаемых у работников дошкольных образовательных организаций (ДОО). В работе научно обоснованы организационно-эргономические и психофизиологические факторы этих проблем.

Ключевые слова: дошкольное образование, психологическое здоровье, психологическая пропаганда, профессиональный синдром "огонь" (burnout), психологическое консультирование, психологический механизм, эмоциональное напряжение, физическое здоровье.

Hozirgi kunda ta’lim tizimiga berilayotgan e’tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Ayniqsa ularning tashqi ko‘rinishigina yangilanib qolmasdan, balki ularning ichki muhitida ham tub burilishlar sodir bo‘lmoqda. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya

shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabga-cha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil-10 maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu hujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tubdan isloh qilish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, malakali pedagoglar bilan ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy va psixologik sog'lom muhitni ta'minlash, jismoniy hamda psixologik xizmat sohasini yo'lga qo'yishni takomillashtirish muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT) xodimlarining faoliyati yuqori darajadagi emotsional zo‘riqish (stress) hamda professional kuyish (burnout) sindromi xavfi bilan bog‘liq. Professional «kuyish» sindromi (Burnout) – bu uzoq muddatli stress va emotsional zo‘riqish natijasida kelib chiqadigan, asosan insonlar bilan muloqotda bo‘lishni talab qiladigan kasb egalari (masalan, pedagoglar, shifokorlar, psixologlar, menejerlar) orasida kuzatiladigan jiddiy psixologik holatdir. Jismoniy va psixologik salomatlikning yomonlashuvi maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining professional samaradorligini pasaytiradi, ularning bolalarga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ta’lim-tarbiya jarayonining sifatini kamaytiradi. Shu sababli, MTM tizimida xodimlar salomatligini institutsional darajada boshqarish va mustahkamlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

- Xavf omillari identifikatsiyasi: MTM xodimlarida professional kuyish sindromi va surunkali charchoqni keltirib chiqaruvchi tashkiliy-boshqaruv va psixofiziologik omillarning tizimli tahlili amalga oshirildi.

- Diagnostika modeli: Xodimlarning salomatlik holatini (stress darajasi, jismoniy chidamlilik, emotsional barqarorlik) muntazam monitoring qilishga

qaratilgan diagnostik mezonlar va ko‘rsatkichlar tizimi taklif etildi.

- Mexanizmlar to‘plami: Xodimlarning salomatligini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi uch bosqichli mexanizmlar tizimi ishlab chiqildi:

A. Boshqaruv mexanizmi: Ish rejimini optimallashtirish, mehnat normativlarini qayta ko‘rib chiqish va ish joyida qulay sharoit yaratish.

B. Psixoprofilaktik mexanizm: Muntazam psixologik superviziya (kasbiy maslahat), stress-menedjment treninglari va emotsional dekompressiya guruhlarini tashkil etish.

S. Jismoniy salomatlik mexanizmi: MTM negizida sog‘lom turmush tarzi (ovqatlanish, jismoniy faollik) bo‘yicha korporativ dasturlarni joriy etish.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan boshqaruv va mustahkamlash mexanizmlari MTM tizimida xodimlarning normativ-psixologik holatini ta’minlashga, pedagoglarning kasbdan ketish (kadrlar qo‘nimsizligi) darajasini kamaytirishga eng asosiysi, bolalarni rivojlantirish jarayonida sifatli va mehrli munosabatni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar barcha turdagi ta’lim tashkilotlari uchun moslashtirilishi mumkin bo‘lgan universal model vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. S.Erkinova Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmat mexanizmlarini takomillashtirish. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi 91-94 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida (PQ-4312-son, 08.05.2019-y.):
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi Nizomni hamda Maktabgacha ta’lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ustavini tasdiqlash haqida”gi 929-sonli qarori.
4. Vygotskiy, L. S. Psixologiya razvitiya (Rivojlanish psixologiyasi) (MTM yoshidagi bolalar bilan ishlashning psixofiziologik asosi).
5. Safarova, D. A. MTM xodimlarining mehnat samaradorligini oshirishda motivatsiya va salomatlikni boshqarish. / Ilmiy anjuman materiallari (MTM sohasi bo‘yicha konferensiyalar).

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI INTERAKTIV O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o’qituvchisi
Shomurodova Nozima Baxriddin qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv o‘yinlarning o‘rni, ularning turlari va qo‘llash metodikasi yoritiladi. Shuningdek, tarbiyachining boshqaruvchan roli, bolalarning mustaqil tahlil, solishtirish, xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishda samarali usullar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, interaktiv o‘yinlar, mantiqiy tafakkur, maktabgacha ta’lim, muammoli vaziyat, tahlil, solishtirish.

Abstract

This article discusses the psychological and pedagogical foundations of the formation of critical thinking skills in preschool children, the role of interactive games in the development of critical thinking, their types and methods of application. It also discusses the managerial role of the educator, effective methods for developing children's ability to independently analyze, compare, and draw conclusions.

Keywords: critical thinking, interactive games, logical thinking, preschool education, problem situation, analysis, comparison.

Аннотация

В данной статье рассматриваются психологические и педагогические основы формирования навыков критического мышления у детей дошкольного возраста, роль интерактивных игр в развитии критического мышления, их виды и методы применения. Также обсуждается управленческая роль педагога, эффективные методы развития у детей способности к самостоятельному анализу, сравнению и формулированию выводов.

Ключевые слова: критическое мышление, интерактивные игры, логическое мышление, дошкольное образование, проблемная ситуация, анализ, сравнение.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilishi, savollar berishi va xulosa chiqarishi eng muhim kompetensiyalardan biri

sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta’lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Tanqidiy fikrlash — bu faktlarni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, voqealarning sabab va oqibatlarini aniqlash, turli yechimlarni baholash va eng maqbul variantni topish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko‘nikma tabiiy ravishda shakllanadi, ammo uni to‘g‘ri yo‘naltirish tarbiyachi va ota-onaning vazifasidir.

Interaktiv o‘yinlar esa tanqidiy fikrlashni shakllantirishda eng qulay, tabiiy va samarali vosita hisoblanadi. Chunki bola o‘yin jarayonida mustaqil fikr yuritadi, rollar tanlaydi, qarorlar qabul qiladi va o‘z faoliyatini baholaydi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari

Tadqiqotchilarning (J.Dyui, L.S.Vigotskiy, B.Blum) fikriga ko‘ra tanqidiy fikrlash quyidagi elementlardan tashkil topadi:

- **Tahlil qilish** — ma’lumotning asosiy qismlarini ajratish.
- **Taqqoslash** — o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash.
- **Mantiqiy bog‘liqlikni tushunish** — sabab-oqibatni aniqlash.
- **Baholash** — ma’lumotning to‘g‘riligini tekshirish.
- **Yechim topish** — muammoga eng mos javobni tanlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu jarayonlar o‘yinda, real faoliyatda va muloqotda shakllanadi.

Interaktiv o‘yinlar va ularning tanqidiy fikrlashdagi o‘rni

Interaktiv o‘yinlar — bu bolalarni faol fikrlashga, savollar berishga, yechim izlashga undaydigan o‘yinlardir. Ular quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- bolani mustaqil fikrlashga majbur qiladi;
- o‘z fikrini himoya qilishga o‘rgatadi;
- mantiqiy mushohada yuritish qobiliyatini faollashtiradi;
- muammoli vaziyatlardan chiqish strategiyalarini shakllantiradi;
- guruhda ishlash madaniyatini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi o‘yin turlari:

1. **Muammoli vaziyatli o‘yinlar**
   - “Nima bo‘lardi agar…?”,
   - “Qaysi yo‘l to‘g‘ri?”

     Bu turdagi o‘yinlar bolani sabab-oqibatni tushunishga o‘rgatadi.
2. **Mantiqiy fikrlash o‘yinlari**
   - “Ortiqcha buyumni top”,

- “Ketma-ketlikni davom ettir”.

3. **Tahlil va solishtirishga asoslangan o‘yinlar**
   - “Ikkita rasmni solishtir”,
   - “Farqni top”.
4. **Rolli o‘yinlar asosidagi tanqidiy fikrlash**
   - “Sud jarayoni”,
   - “Do‘konda xarid”

   Bolalar vazifani bajarish jarayonida qarorlar qabul qiladi.
5. **STEAM yo‘nalishidagi interaktiv o‘yinlar**
   - qurilish konstruktorlari,
   - oddiy tajribalar.

Bu o‘yinlar bola tafakkurini chuqurlashtiradi, savol berish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Metodika: tanqidiy fikrlashni interaktiv o‘yinlar orqali rivojlantirish bosqichlari

1. Tayyorlov bosqichi

- muammo qo‘yiladi;
- bolaga savol beriladi: “Nima deb o‘ylaysan?”, “Nima uchun shunday bo‘ldi?”
- bolalarda qiziqish uyg‘otiladi.

2. Asosiy faoliyat bosqichi

- bolalar o‘yinni bajaradi;
- turli variantlar ishlab chiqadi;
- qarorlar qabul qiladi;
- savollar beradi.

3. Refleksiya bosqichi

- “Nega shunday tanlading?”
- “Yana qanday yechimlar bo‘lishi mumkin?”
- “Agar xato bo‘lsa, qanday tuzatilardi?”

Bu jarayon bolalarda xulosa chiqarish, mulohaza yuritish va o‘z fikrini asoslashni shakllantiradi.

Tarbiyachining roli

Tarbiyachi tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida:

- bolaga tayyor javob bermaydi;
- yo‘naltiruvchi savollar beradi;
- har bir bolaning fikrini eshitadi;
- to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri emas, **har bir fikr qimmatli** ekani haqida

motivatsiya beradi;

- guruhda fikr almashish muhiti yaratadi.

Masalan:

"Nega shunday deb o'ylaysan?",“Boshqa fikrlar ham bo'lishi mumkinmi?", "Bu yechim eng yaxshisi ekanini qanday bilamiz?"

Interaktiv o'yinlarga misollar

1. "Agar men bo'lsam…" o'yini

Bolaga bir vaziyat beriladi:

— "Agar daraxt shoxida qushning uyasi buzilsa, sen nima qilarding?"

Bola yechim taklif qiladi, sababini tushuntiradi.

2. "Haqiqiy yoki xato?"

Rasm yoki voqea beriladi. Bolalar undagi mantiqsizliklarni topishadi.

3. "Sababni top!"

Masalan: — "Nega qor eriydi?"— "Nega qushlar uchadi?" Bolaning sabab-oqibatni tushunish qobiliyati rivojlanadi.

4. "Qaysi yo'l to'g'ri?"

Bir nechta yechim beriladi. Bola eng maqbulini tanlaydi va asoslaydi.

5. "Farqni top" o'yinining murakkab varianti

Rasmda yashirin sabablar bo'ladi (masalan, biror xavf bor). Bola nafaqat farqni, balki sababni ham tushuntiradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik

Uy sharoitida quyidagi metodlar samarali:

- birgalikda masalalar yechish;
- muammoli savollar berish: "Nimasi boshqacha bo'lishi mumkin edi?"
- kundalik hayotda tahliliy muloqot: "Senga qaysi variant yoqadi va nega?"
- ertaklarni yangi yakun bilan qayta tuzish.

Bu jarayon bolada tanqidiy fikrlashning tabiiy shaklda davom etishiga yordam beradi.

Xulosa

Maktabgacha yoshda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bolaning kelajakdagi intellektual rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Interaktiv o'yinlar bu jarayonda eng samarali vositalardan biri bo'lib, ular bolalarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, savol berishga va muammolarga noodatiy yondashishga o'rgatadi.

Tarbiyachi esa bu jarayonda yo'l ko'rsatuvchi, yo'naltiruvchi va motivatsiya beruvchi shaxs bo'lib xizmat qiladi. Interaktiv o'yinlardan to'g'ri foydalanish orqali har bir bola tanqidiy fikrlay oladigan, fikrini asoslay oladigan, tahliliy qaror qabul qiladigan shaxs sifatida shakllanadi.

TRIZ TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN FAOLIYAT ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MATEMATIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Xoliqulova Noila Nodir qizi
Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistranti
Navoiy shahar 19-DMTT tarbiyachisi
xoliqulovanoila0222@gmail.com +998938532288

Annotatsiya. Ushbu maqolada TRIZ texnologiyasining bugungi kundagi ahamiyati, uning qo‘llanilishi, maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi yoritilgan. TRIZga asoslangan o‘yin faoliyati bolalarning mantiqiy tafakkuri, ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va muammolarni noodatiy usulda yechish qobiliyatini rivojlantirishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: TRIZ texnologiyasi, maktabgacha ta’lim, guruhlash, matematik tafakkur, matematik tushuncha, modellash, guruhlash, ijodiy yondashuv.

Аннотация. В данной статье раскрывается современное значение технологии ТРИЗ, особенности её применения и вопросы развития математических навыков у детей дошкольного возраста. Отмечено, что игровая деятельность, основанная на ТРИЗ, способствует развитию логического мышления, творческих способностей, самостоятельности и умения нестандартно решать проблемные ситуации.

Ключевые слова: технология ТРИЗ, дошкольное образование, группировка, математическое мышление, математическое представление, моделирование, группировка, творческий подход.

Annotation. This article discusses the modern significance of the TRIZ technology, its application, and the development of mathematical skills in preschool-aged children. It highlights that TRIZ-based play activities promote the development of logical thinking, creativity, independence, and the ability to solve problems in unconventional ways.

Keywords: TRIZ technology, preschool education, grouping, mathematical thinking, mathematical concepts, modeling, grouping, creative approach.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning matematik tasavvurlari va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. An’anaviy o‘qitish usullariga qo‘shimcha ravishda TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) texnologiyasidan foydalanish bolalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, noodatiy yechim topish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini

shakllantirishda yuqori samaradorlik beradi. TRIZning asosiy vazifasi – bolaning tafakkurini faollashtirish, ijodiy fikrini qo‘llab-quvvatlash, oddiy matematik tushunchalarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lay olishini ta’minlashdir.

TRIZ usullari haqida tushuncha, ya’ni ixtirochilik muammosini hal qilish nazariyasi bo‘lib, unga ixtirochi olim T.S.Altshuller asos solgan. Bunda pedagog bolani faol ijodiy fikrlashga undovchi noan'anaviy ish shakllaridan foydalanadi. TRIZ texnologiyasi Maktabgacha yoshdagi bolani “Hamma narsada ijodkorlik!” shiori ostida ta’lim berish va tarbiyalash imkonini beradi. Aynan maktabgacha yosh davr o‘ziga xos davr bo‘lib, bu davr bolaning ijodiy salohiyatini ochib berish, shakllantirish va uning kelgusi hayotida ta’sir ko‘rsatuvchi, shuning har bir bola uchun bu davrni o‘tkazib yubormaslik muhimdir. TRIZning bolalar bog‘chasida qo‘llashdan maqsad - moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektizm kabi fikrlash fazilatlarini rivojlantirish, izlanish, tadqiqot va ixtirochilik faoliyatini amalga oshirish, qidiruv faoliyati, yangilikka intilish, nutq va ijodiy tasavvurni kengaytirishdan iborat. Shaxsdagi rivojlangan tafakkur qarama-qarshilik, uning shakllanishi va yechimi haqidagi tasavvurni nazarda tutadi.

TRIZ - pedagogika sohasiga1980-yillardan boshlab maktabgacha ta’lim tizimida rivojlana boshladi. TRIZning asosiy maqsadi - zamon talabiga javob bera oladigan, turlicha muammolarni hal etishga qodir, innovatsion fikrlovchi shaxsni tayyorlashdir.

TRIZ asosidagi faoliyatlar bolalarning matematik tafakkurini faollashtiribgina qolmay, balki ularning nutqi, ijodiy tasavvuri, motivatsiyasi va mustaqil fikrlash darajasini ham oshiradi. Ta’lim jarayonida muammoli vaziyat yaratish, savollar berish va bir nechta yechim ishlab chiqishga undash orqali bola matematik tushunchalarni nafaqat yodlaydi, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rganadi. TRIZ texnologiyasiga asoslangan o‘quv faoliyatlarida bolalar matematik tushunchalarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘rganadilar. “Kim ortiqcha?”, “Mo‘jizalar maydoni”, “Fantaziya uch savol”, “Aqliy hujum”, “Muammoli vaziyatni yechish”, “Model yaratish”, “Shaklni o‘zgartir va top” kabi TRIZ elementlari bolalarni mustaqil fikrlashga, mantiqiy xulosalar chiqarishga, tasniflash va taqqoslashga o‘rgatadi. Bu metodlar orqali bolalar shakl, rang, kattalik, son, ketma-ketlik, o‘lchash, guruhlash kabi asosiy matematik tushunchalarni oson, qiziqarli va ongli tarzda o‘zlashtiradilar.

TRIZ asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalarga vaziyatlar, muammolar yoki noodatiy topshiriqlar beriladi va ular bir nechta yechim variantlarini topishga undaladi. Bu jarayon matematika darslarini quruq

yodlashdan xoli qiladi, bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi va ularda mustaqil qaror qabul qilish, xatolikni tahlil qilish, alternativ yechim ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, TRIZ mashg‘ulotlari jarayonida o‘yin elementlaridan samarali foydalanilishi bolalarning motivatsiyasini oshiradi, ularni faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etadi.

TRIZ texnologiyasining maktabgacha ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

– bolalarning mantiqiy va ijodiy tafakkuri rivojlanadi;

– matematik tushunchalarni amaliy hayot bilan bog‘lay oladi;

– tasniflash, taqqoslash, guruhlash ko‘nikmalari shakllanadi;

– muammoli vaziyatlarga to‘g‘ri yondashadi;

– fikrini asoslay oladi va o‘z nuqtayi nazarini mustaqil bayon etadi;

– matematik bilimlari mustahkamlanadi va kengayadi. Shuningdek, tarbiyachi uchun TRIZ texnologiyasi matematik ta’limni qiziqarli, mazmunli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu texnologiya orqali har bir bola individual yondashuv asosida o‘z qobiliyatiga qarab rivojlanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, TRIZ texnologiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion, yuqori samarador va zamonaviy yondashuv bo‘lib, u bolalarni mustaqil fikrlaydigan, muammolarga noodatiy yondasha oladigan, ijodkor shaxs sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. TRIZ bolalarga nutq, tashabbus hamda individuallikni ko‘rsatish imkoniyatini beradi. TRIZ texnologiyasi bolalarning yoshidan qat’iy nazar, bolalarni ijodkorlik usullari va vositalari bilan ta’minlaydi. TRIZ hamkorlik pedagogikasi tamoyillari asosida ishlaydi, bolalar va pedagoglar hamkorligi muvaffaqiyatli sharoitlarni yaratilishi, o‘z kuchlari va imkoniyatlariga ishonch, dunyoni o‘rganishga qiziqishini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.M.J.Tursunova, D.B.Safarova, Bolalarning nutqni rivojlantirishda TRIZ usullaridan foydalanish. Science and Education, 4(7), (2023). 248-251.

2. Djumayev M., Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T.: “Ilm ziyo”. 2005, 4-b.

3. Rustamova G.Yo., Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarga ta’lim berishda TRIZ texnologiyasiyasidan foydalanish. Экономика и социум, №11(90) 2021. 503-506.

4. http://www.altshuller.ru/triz/

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SUBMADANIYATINI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)
1-kurs magistranti
Xudoyberdiyeva Shohista Eliboyevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar submadaniyatining mazmuni va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik hamda pedagogik omillar yoritiladi. Bolalar submadaniyati tengdoshlar bilan muloqot, oilaviy muhit va kattalar madaniyati ta’sirida shakllanadi. Maqolada submadaniyatni o‘rganishning asosiy maqsadi hamda pedagogik jarayonda uning ahamiyati qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: submadaniyat, oila, ijtimoiylashuv, aqliy, atrof-muhit, dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, kiyinish uslubi, til, xatti-harakat, madaniyat.

Annotation. This article highlights the essence of the subculture of preschool children and the psychological and pedagogical factors influencing its formation. The subculture of children develops under the impact of peer interaction, family environment, and the culture of adults. The article briefly analyzes the main purpose of studying subculture and its significance in the educational process.

Keywords: subculture, family, socialization, cognitive development, environment, worldview, value system, clothing style, language, behavior, culture.

Аннотация. В данной статье раскрываются содержание субкультуры детей дошкольного возраста и психологические и педагогические факторы, влияющие на её формирование. Детская субкультура формируется под воздействием общения со сверстниками, семейной среды и культуры взрослых. В статье кратко рассмотрены основные цели изучения субкультуры и её значение в педагогическом процессе.

Ключевые слова: субкультура, семья, социализация, умственное развитие, окружающая среда, мировоззрение, система ценностей, стиль одежды, язык, поведение, культура.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni

sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan samarali tizimni tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bolalar jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, jamiyatdagi islohotlar ularning kelajagi va barqarorligi uchun muhim rol o'ynaydi. Ularning mutanosib muhitda, oila bag'rida ulg'ayishi kelajagi uchun muhimdir. Bolalik – bu inson hayotining ilk bosqichini anglatadi. Bolalik davri insonning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishidagi eng muhim vaqt hisoblanadi. Bolalar atrof-muhitni bilishga juda qiziqadi, hamma narsani o'rganishga harakat qiladi. Ularning jismoniy va aqliy rivojlanishi tez sur'atlarda sodir bo'ladi. Bolalar o'yin o'ynash orqali ko'p narsalarni tushunib yetadi va rivojlanadi. Ular o'zlarini xavfsiz va baxtli his qilishlari uchun ota-ona va yaqinlarining mehriga muhtoj. Bolalarning tasavvuri cheksiz bo'lib, ular oddiy narsalarni ham qiziqarli shaklda tasavvur qilishadi. Ularning ulg'ayishini rag'batlantirish, qo'llab quvvatlash juda muhimdir. Bolalik – bu inson hayotining eng muhim davridir, chunki u kelajakdagi shaxsning poydevorini yaratadi. Aynan shu davrdagi bolalarga atrof-muhitning, jamiyat hamda uni o'rab turgan insonlarning ta'siri benihoya katta bo'ladi. Shu boisdan ham zamonaviy globallashuv sharoitida bolalarning ijtimoiylashuvi murakkab va ko'p qirrali jarayonga aylanmoqda. An'anaviy ijtimoiy institutlar (oila, maktab, diniy va mahalliy tashkilotlar)ga qo'shimcha ravishda yangi, noformal ta'sir doiralari paydo bo'lmoqda. Bu doiralardan biri – submadaniyatlar (subkulturalar) bo'lib, ular yoshlar orasida o'ziga xos g'oyaviy va estetik yo'nalishlarni shakllantirmoqda.

Submadaniyat – bu umumiy jamiyat madaniyatidan farq qiluvchi, ammo u bilan to'qnash kelmaydigan, unga nisbatan o'ziga xos dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, kiyinish uslubi, til va xatti-harakat qoidalariga ega bo'lgan ijtimoiy guruh madaniyatidir. Ko'pincha submadaniyatlar yoshlar orasida shakllanadi, chunki aynan yosh davri – identifikatsiya, o'zlikni anglash va mustaqil pozitsiyani shakllantirish davridir[46].

Bugungi zamonaviy globallashuv davri bolalarni ham chetlab o'tmaydi, ularda ham aynan maktabgacha yoshda o'ziga xos dunyoqarash shakllanadi kimningdir kiyinish uslubiga qiziqa boshlaydi va ijtimoiylashuv jarayonida o'ziga xos xatti harakatlarga ega bo'ladi. Bu davrda bolalarga alohida e'tibor berish ularning submadaniyatini to'g'ri yo'lda yo'naltirish lozim.

[46] https://oefen.uz/uz/documents/slaydlar/umumiy/submadaniyat-tushunchasi-va-uning-ko-rinishlari?utm_source

Submadaniyatlar ko'pincha rasmiy ijtimoiy institutlardan (oila, ta'lim maskani, mahalla) mustaqil shakllanadi. Bu holat ijtimoiylashuv jarayonida noformal yo'nalishlar kuchayishiga olib keladi. Masalan, musiqa submadaniyati orqali bolalar o'z xatti- harakatlari va nutqini tarbiyalaydi yoki bo'lmasa salbiy natija ko'rsatish orqali o'zini noto'g'ri anglaydi. Bolalarga e'tiborliroq bo'lish zarur boisi endi dunyoni o'rganayotdan bola aynan qaysidir qo'shiqdagi so'zlarni o'zlashtiradi uni bilib bilmay yod oladi yoki bo'lmasa ommaviy axborot vositalari orqali ko'p uchraydigan chet el xonandalari, aktyor aktrisalariga nisbatan qiziqishi uyg'onadi natijada unga o'xshashga uni xatti- harakatlarini takrorlashga nutqida aynan u ishlatgan so'zlarni aytishga harakat qiladi[47].

Zamonaviy subkulturalar – globallashuv hodisalaridan biri, bunda global ommaviy axborot vositalari (birinchi navbatda internet) tufayli odamlar o'z fikrlarini bir chetdan topa oladilar. Yosh subkulturasi – bolalar o'zlariga xos til, o'yin, urf-odatlar va qiziqishlar tizimiga ega bo'lib, bu ularning alohida ijtimoiy guruh sifatida qaralishiga olib keladi[48]. Shuningdek, bu olimlar bolalarni g'amxo'rlik ob'ekti deb hisoblaydi, ya'ni ular hali to'liq ijtimoiy mustaqillikka ega bo'lmagani bois kattalarning doimiy e'tibori, himoyasi va tarbiyasiga muhtoj bo'ladi. Bu yondashuv bolalikni passiv holat sifatida emas, balki ijtimoiy kontekstda faol shakllanuvchi bosqich sifatida ko'rsatadi. Madaniy yondashuvga ko'ra, bolalik inson hayotining o'ziga xos madaniy subkulturasi hisoblanadi. Bola bu subkulturani anglab, o'zlashtirib boradi. Unga ijtimoiylashuv va madaniy identifikatsiya uchun sharoit yaratish zarur. Ushbu yondashuv bolalarning madaniy merosni qabul qilishi, unga moslashuvi va yangi madaniy shakllarni yarata olishini ta'minlashga qaratilgan. Bu fikrlar E.V. Bondarevskaya, T.I.Vlasova, A.A.Grekovlarning asarlarida ilgari surilgan. Madaniy yondashuv bolalikning universal emas, balki har bir jamiyatga xos subkultural xususiyatlarini tan olishga asoslanadi. Bugungi globallashuv davrida har bir bolaning o'z madaniy ildizlari asosida tarbiyalanishi, o'z tarixiy-madaniy identitetini yo'qotmasligi juda muhim.Shu nuqtai nazardan, ushbu yondashuvni milliy qadriyatlarni bolalikdan singdirish vositasi sifatida yuqori baholayman. Shuningdek, A.A.Pilipenko va I.G.Yakovenko tomonidan ilgari surilgan "bolalik submadaniyati" tushunchasi bolalikni o'ziga xos qadriyatlar, e'tiqodlar, an'analar va urf odatlar to'plamiga ega madaniy shakl sifatida ko'rib chiqadi. Bu submadaniyat ijtimoiy hayotda bola ishtirokini belgilab beruvchi madaniy mezonlar tizimini tashkil qiladi . Shaxsiy uzatuv va

[47] https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view/92452?utm_source
[48] https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/52484?utm_source

ilmiy mulohazalarim asosida ta'kidlashim mumkinki, madaniyatshunoslik yondashuvida bolalikning «madaniyat fenomeni» sifatida talqin etilishi juda muhim va o'rinlidir.[49] Zero, har bir bola ma'lum bir madaniy muhitda voyaga yetadi va aynan shu muhit orqali o'zining qadriyatlarini, urf-odat va e'tiqodlarini shakllantiradi. Bolalik nafaqat biologik yetilish, balki insonning madaniy me'rosni qabul qilish va uni o'zlashtirish davri hamdir. Shuningdek, "bolalik submadaniyati" tushunchasi orqali bolalarning o'ziga xos fikrlash tarzi, muloqot uslubi, o'yin madaniyati va urf-odatlarining mavjudligi tan olinadi. Bu esa bolalikni jamiyatdagi mustaqil va muhim ijtimoiy-madaniy qatlam sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Har bir madaniyatda bolalikning ifodalanish shakli har xil bo'lishi, bolalar submadaniyatini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida qarashga zamin yaratadi. Shu boisdan, bolalikni faqat biologik yoki psixologik bosqich sifatida emas, balki murakkab madaniy hodisa sifatida baholash zamonaviy ilmiy yondashuvda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'p bolali oilalar o'ziga xos submadaniyatni tashkil qiladi. Bu oilaning o'ziga xos funksional-rol strategiyalarini amalga oshiradigan va qardoshlar qatlamining kengaytirilgan tizimiga ega bo'lgan maxsus ijtimoiy-psixologik tizim ekanligi tufayli mumkin bo'ladi. Ko'p bolali oilalar submadaniyati dunyoning o'ziga xos manzarasi, boshqa ijtimoiy jamoalardan farq qiladigan qadriyatlar tizimi, hayotiy munosabatlar va xulq-atvor strategiyalari bilan tavsiflanadi. Uning o'ziga xos turmush tarzi birgalikda oilaning mavjudligining psixologik asosini tashkil qiladi va maxsus madaniy komponent mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi. Ko'p bolali oilalar submadaniyatining tarkibiy qismlari - bu ota-onalarning motivatsiyasining xususiyatlari, oilaviy funksiyalarni o'ziga xos tarzda amalga oshirish, oilaviy o'zaro ta'sir va muloqot strategiyalari, psixologik iqlim hisoblanadi. Ko'p bolali oilalar submadaniyatining xususiyatlari bir qator omillar bilan belgilanadi: oilaning madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy holati, psixologik iqlim, o'zaro ta'sirning kommunikativ strategiyalari, ko'p bolali oilalar uchun psixologik motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim strategiyalari, boshqaruv, vertikal va gorizontal quyi tizimlar darajasidagi ta'sir, munosabatlarda kengaytirilgan jarayonlar[50].

Xulosa qilib ayatganda zamonaviy jamiyatdagi submadaniyat yosh bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim omilga aylanmoqda. Ular orqali

[49] https://cyberleninka.ru/article/n/subkultura-detstva-kak-model-avtonomnoy-realnosti-detstva/viewer?utm_source

[50] https://oriens.uz/uz/journal/article/kop-bolali-oilalar-submadaniyatida-otaona-va-bola-munosabatlari/?utm_sourc

bolalar o‘z “men”ini topishga harakat qilishadi, lekin bu harakat ijobiy yoki salbiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar, tarbiyachilar, psixologlar va pedagoglar bolalar submadaniy yo‘nalishlarining mohiyatini tushunib, ularni to‘g‘ri yo‘naltira olishlari zarur. Ular orqali bolalar o‘ziga xos dunyoqarashga ega bo‘ladi, ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Shu bilan birga, submadaniyatlarning salbiy ta’sirlarini ham inkor etib bo‘lmaydi. Shuning uchun ijtimoiy institutlar, ta’lim tizimi va ota-onalar bu jarayonga ongli va faol yondashib, yoshlarni sog‘lom ijtimoiy yo‘nalishlarga yo‘naltirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.UNICEF. (2023). Childhood Development: An Overview. Retrieved from

2. O.N.Sultonova “Bolalar tushunchasi hamda ularning ijtimoiy shakllanish jarayoni” International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)

Volume. 8, Issue 05, May (2025) 328-335

3. S.D.Aktimirov Sunnatullo Damir o‘g‘li, M.S.Abbasova Maftuna Subxanovna “Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiylashuviga submadaniyatning ta`siri” Yosh olimlar ilmiy – amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/yo 134-136

4. D.R.Yangiboyeva “Ko‘p bolali oilalar submadaniyatida ota-ona va bola munosabatlari” Oriental Renaissance: Innovative,educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(02), 74-8

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYALASHDA XALQARO TAJRIBANING O‘RNI.

Yusupova Saboxon Abdumutalibovna

Norin tumani 51-sonli Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bugungi kunda butun dunyo ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Chunki aynan maktabgacha davr insonning intellektual, ijtimoiy va emosional rivojlanishi uchun eng muhim bosqich sanaladi. Mazkur maqolada xalqaro tajribalar — UNESCO, OECD, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarning ilg‘or maktabgacha ta’lim modellari o‘rganiladi. Shuningdek, ularning O‘zbekiston ta’lim tizimini transformatsiyalashdagi ahamiyati, qo‘llanish imkoniyatlari va metodik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari xalqaro yondashuvlarni milliy sharoitga moslashtirish, pedagoglar kompetensiyasini rivojlantirish, innovatsion o‘quv dasturlarini yaratish hamda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, transformatsiya, xalqaro tajriba, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, pedagog kompetensiyasi, rivojlantiruvchi ta’lim, UNESCO, OECD.

Annotation: *modernization of the preschool education system is one of the priorities of the educational policy of the whole world today. Because it is the preschool period that is considered the most important stage for the intellectual, social and emotional development of a person. This article will explore international experiences — advanced preschool models from countries such as UNESCO, OECD, Finland, Japan, South Korea, Singapore. Their importance in the transformation of the educational system of Uzbekistan, the possibilities of application and methodological aspects are also analyzed. The results of the study show the need to adapt international approaches to national conditions, develop the competence of educators, create innovative training programs and implement digital technologies.*

Keywords: *preschool education, transformation, international experience, innovative methods, digital technologies, pedagogical competence, Developmental Education, UNESCO, OECD.*

Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Chunki ta’limning ushbu ilk

bosqichi bolaning keyingi barcha rivojlanish jarayonlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv davrida ilg‘or tajribalarni o‘rganish, ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish va samarali mexanizmlarni tatbiq etish o‘zining dolzarbligini yaxlit tarzda namoyon etmoqda.

Dunyo miqyosida maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida qator yirik xalqaro tashkilotlar — UNESCO, UNICEF, OECD bolalar ta’limi standartlari, sifat baholash mexanizmlari, pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqib kelmoqda. Bu esa O‘zbekiston uchun ham katta amaliy ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham maktabgacha ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi: MTTlarning soni ortdi, nodavlat sektor kengaydi, yangi o‘quv dasturlari joriy etildi, innovatsion texnologiyalar asosidagi maktabgacha ta’lim muassasalari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, global me’yoriy tajribalarni chuqur o‘rganish keyingi islohotlar samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim (MTT) bolaning hayotida eng muhim bosqich hisoblanadi: aynan 0–7 yoshda miyaning 90 % rivojlanishi ro‘y beradi, shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy ko‘nikmalar va o‘quv qobiliyatlari shakllanadi. Shu sababli dunyoning ko‘p mamlakatlari so‘nggi 30–40 yilda maktabgacha ta’limni milliy strategiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. O‘zbekiston ham 2017-yildan boshlab bu sohada tub islohotlarni boshladi va xalqaro tajribani faol o‘rganib, mahalliy sharoitga moslashtirib bormoqda.

Nima uchun xalqaro tajriba kerak?

- O‘zbekiston oldin Sovet davridagi qattiq dasturiy-instruktiv tizimdan meros bo‘lib qolgan edi: ko‘p dars, stol orqasida o‘tirish, tayyor bilimlarni yodlash. Bu zamonaviy dunyoda samarasiz ekanligi isbotlangan.

- Ilg‘or mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, eng yaxshi natija bola o‘yin orqali, faol tadqiqot qilib, o‘zi kashf etganda beradi.

- PISA, PIRLS, TIMSS kabi xalqaro baholashlarda yuqori o‘rinlarda turadigan davlatlarning barchasida kuchli maktabgacha ta’lim tizimi bor (Finlyandiya, Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya).

2. Eng ko‘p o‘rganilgan va qo‘llanilgan xalqaro tajribalar

Finlyandiya modeli

Finlyandiya dunyoda maktabgacha ta’lim sifati bo‘yicha birinchi o‘rinlarda turadi. Asosiy tamoyillari:

- 7 yoshgacha majburiy maktab yo‘q, o‘yin – asosiy faoliyat

- Bir tarbiachiga 7–8 bola (katta guruhda 3 kattalar: 1 tarbiachi + 2

yordamchi)

- Har bir bolaga individual rivojlanish rejasi
- Tabiatda ko‘p vaqt o‘tkazish (hatto qishda ham tashqarida 2–3 soat)
- O‘qituvchi universitetda 5 yil magistratura o‘qiydi va yuqori maosh oladi

O‘zbekistonda: “Ilk qadam” davlat dasturi (2021) to‘liq Finlyandiya tajribasiga asoslanib ishlab chiqilgan. 2024-yildan boshlab yangi qurilgan bog‘chalarning 70 % da “ochiq eshiklar” va tabiat burchaklari majburiy bo‘ldi.

Reggio Emilia yondashuvi (Italiya)

- Bola – “100 til”ga ega bo‘lgan faol tadqiqotchi
- Muht – uchinchi o‘qituvchi (estetik jihatdan chiroyli, rang-barang, tabiiy materiallar)
- Loyiha faoliyati: bolalar o‘zlari savol qo‘yadi, tadqiq qiladi, natijani hujjatlashtiradi
- Ota-onalar jarayonga to‘liq jalb qilinadi

O‘zbekistonda: Toshkent, Samarqand, Buxoroda 50 dan ortiq xususiy va davlat-xususiy sheriklikdagi “Reggio-inspired” bog‘chalar ochildi. 2023-yildan “Loyiha kunlari” davlat bog‘chalarida ham sinov tariqasida joriy etilmoqda.

Singapur tajribasi

- Dunyodagi eng yuqori malakali tarbiachilar (maosh o‘qituvchilar bilan teng)
- “Nurturing Early Learners” milliy dasturi – 6 ta asosiy yo‘nalish (estetika, til, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va b.)
- Har bir bog‘chaning sifatini davlat markazi qat’iy nazorat qiladi
- Oilaviy bog‘chalar va ish joyidagi bog‘chalar keng tarqalgan

O‘zbekistonda: 2023-yilda Singapurning NIEC (National Institute of Early Childhood Development) bilan hamkorlikda Toshkentda tarbiachilarni qayta tayyorlash milliy markazi ochildi. 2025-yilga qadar 25 000 tarbiachini Singapur metodikasi bo‘yicha o‘qitish rejalashtirilgan.

Janubiy Koreya va Yaponiya

- 3 yoshdan boshlab bepul va majburiy (deyarli 100 % qamrov)
- Davlat tomonidan qat’iy standartlar: xona kattaligi, o‘yin maydonchasi, xavfsizlik
- Tarbiachilar davlat xizmatchisi maqomida, yuqori maosh va pensiya

O‘zbekistonda maqsad: 2030-yilga borib 3–7 yoshdagi bolalarning 85 % ni qamrab olish (2025-yil holatiga 68–70 % atrofida). 2024-yildan 6 yoshli bolalar uchun majburiy 1 yillik tayyorgarlik guruhi joriy etildi.

OECD va UNICEF tavsiyalari

- Bir tarbiachiga 8–10 boladan ortiq bo'lmasligi kerak
- Dasturda o'yin vaqti kamida 60–70 %
- Bolalar rivojlanishini baholashda "natija" emas, "jarayon"ga e'tibor berish kerak

O'zbekistonda 2024-yilda OECD metodikasi asosida "MTT sifatini monitoring qilish milliy tizimi" ishga tushdi. Har chorakda 1000 ta bog'cha tekshiriladi.

O'zbekistonda xalqaro tajribani qanday moslashtirilyapti?

Eng muvaffaqiyatli yo'l – "eklektik model", ya'ni birorta davlat tajribasini to'liq ko'chirmasdan, eng yaxshi elementlarni jamlashtirish:

- Finlyandiyadan – o'yin va individual yondashuv
- Reggio Emiliyadan – muhit dizayni va loyiha faoliyati
- Singapurdan – tarbiachilar malakasini oshirish tizimi
- Koreyadan – qamrovni kengaytirish va standartlashtirish
- Mahalliy qadriyatlardan – oila, hurmat, milliy urf-odatlar, ma'naviyat

Natijada "Ilk qadam" dasturi dunyoda noyob hibrid modelga aylandi: u xalqaro standartlarga to'liq mos keladi, lekin o'zbek oilasining qadriyatlarini saqlaydi (masalan, katta oila, mehmondo'stlik, dindorlikka hurmat).

Erishilgan natijalar (2017–2025)

- 2017-yilda qamrov – 38 %
- 2025-yil boshiga – 70 % ga yaqin
- 11 000 dan ortiq yangi bog'cha va mini-markazlar ochildi
- 45 000 tarbiachi qayta tayyorlandi
- Xususiy sektor ulushi 3 % dan 22 % ga oshdi
- 2024-yilda ilk marta 6 yoshli bolalar uchun majburiy tayyorgarlik guruhi joriy etildi

Xalqaro tajriba O'zbekiston uchun shunchaki "xorijiy namunani ko'chirish" emas, balki o'z milliy modelini yaratishda kuchli katalizator bo'ldi. Eng muhimi – xorijiy yondashuvlarni milliy mentalitet, iqlim, iqtisodiy imkoniyatlar va ma'naviy qadriyatlar bilan muvozanatlashdirish.

Natijada O'zbekiston qisqa 8 yilda Markaziy Osiyoda eng tezkor rivojlanayotgan va sifat jihatidan yetakchi maktabgacha ta'lim tizimiga ega bo'ldi. 2030-yilga kelib mamlakatimiz MTT bo'yicha nafaqat mintaqada, balki butun dunyoda namunali davlatlardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tizimini transformatsiyalash xalqaro tajribalarni chuqur o'rganish, moslashtirish va bosqichma-bosqich joriy etishni talab etadi. Ilg'or davlatlar tajribasi o'yin orqali o'qitish, kompetensiyaviy

yondashuv, raqamli texnologiyalar va oila–bog'cha hamkorligini kuchaytirish orqali bolalar ta'limining yangi bosqichini yaratish mumkinligini ko'rsatadi.

UNESCO va OECD standartlari asosida yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish.Pedagoglar uchun xalqaro modul asosidagi malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

MTTlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha milliy platforma yaratish. Finlandiya modelidagi "stresssiz rivojlanish" tamoyillarini tatbiq etish.

Singapur tajribasi asosida STEM elementlarini maktabgacha yoshdan boshlab kiritish. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda grant dasturlari ochish.

Oila-bog'cha integratsiyasini kuchaytiradigan metodik qo'llanmalar yaratish.

ADABIYOTLAR.

1. UNESCO. Early Childhood Care and Education (ECCE) World Report. Paris: UNESCO Publishing, 2021.
2. UNESCO. Education for Sustainable Development: Early Childhood Education Guidelines. Paris, 2019.
3. OECD. Starting Strong V: Transitions from Early Childhood Education to Primary Education. Paris: OECD Publishing, 2017.
4. OECD. Education 2030 Future of Education and Skills. Paris, 2019.
5. UNICEF. Early Childhood Development Programme Framework. New York: UNICEF, 2020.
6. Espinosa, L. M. Assessment in Early Childhood Education: Best Practices. New York: Pearson, 2018.
7. Sheridan, S., Williams, P. Play-Based Learning in Early Childhood Education. London: Routledge, 2020.
8. Edwards, C., Gandini, L., Forman, G. The Reggio Emilia Approach: Advanced Reflections. New York: Teachers College Press, 2019.
9. Pasi Sahlberg. Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press, 2021.
10. Tobin, J. Preschool in Three Cultures Revisited: Japan, China, and the United States. Chicago: University of Chicago Press, 2019.
11. Singapore Ministry of Education. Nurturing Early Learners Framework. Singapore, 2020.
12. Fleer, M. Child Development and the Cultural-Historical Approach. Cambridge University Press, 2021.
13. Siraj-Blatchford, I. Quality in Early Childhood Education and Care: A Review of the International Literature. London: Wiley, 2020.

14. Berk, L. Child Development. Boston: Pearson Education, 2020.
15. Gordon, A. M., Browne, K. W. Beginnings and Beyond: Foundations in Early Childhood Education. Cengage Learning, 2019.

МОНИТОРИНГ КАЧЕСТВА РЕСУРСООБЕСПЕЧЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В ДОУ, КАК ЕДИНЫЙ УПРАВЛЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД

Методист г.Навои №15
А.Х.Рашидова

Ключевые слова: мониторинг качества, качества образовательного, педагогической системы, дошкольного образования, карта развития, формирование мониторинга, оценки результатов деятельности

Keywords: quality monitoring, quality of educational, pedagogical system, preschool education, development map, formation of monitoring, evaluation of activities

Kalit so`zlar: motoring sifati, ta'lim sifati, maktabgacha ta'lim, rivojlanish xarita, faoliyat natijalari

Аннотация: в данной статье раскрываются современные взгляды на качество мониторинга образовательных учреждений и обеспечение их образовательными ресурсами, задачи и функции мониторинга на международной арене.

Annotation: this article reveals the modern manifestations of the quality of monitoring of educational institutions and the provision of educational resources, monitoring tasks and functions in the international arena.

Annotasiya: ushbu maqolada ta'lim muassasalarining monitoring sifatini zamonaviy ko`rinishlari va ta'lim resurslari bilan ta'minlanishi, monitoring vazifasi va funksiyalarining xalqaro maydonda olib borilishi ochib berilgan.

Принятие Конституции Республики Узбекистан в новой редакции путем всенародного голосования на референдуме, проведенном 30 апреля 2023 года, послужило укреплению конституционных основ строительства Нового Узбекистана. Президентские выборы, проведенные в соответствии с Конституцией в новой редакции, еще раз продемонстрировали

политическую зрелость нашего общества, полную народную поддержку осуществляемых реформ на пути строительства Нового Узбекистана.

В Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года, совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса, внедрение современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов в сферу народного образования, укрепление материально-технической базы учреждений системы народного образования и повышение эффективности обеспечения бюджетными средствами, организация деятельности общеобразовательных учреждений требует поднятия на высокий уровень качества образования, а также своевременного решения существующих проблем, декларативный характер задач, возложенных на общеобразовательные учреждения, недостаточность организационно-правовых механизмов их реализации отрицательно сказываются на эффективности проводимых реформ, отсутствие глубокого анализа деятельности общеобразовательных учреждений со стороны органов государственной власти на местах, ограничивающихся лишь сбором статистических и других данных, препятствует выявлению фактического положения дел в регионах.

Новые приоритеты в сфере образования, растущая вариативность форм получения образования, диверсификация учебных заведений, программ, методик непосредственно влияют на качество подготовки учащихся. Охране качества подготовки учащихся служит **мониторинг**. *Мониторинг является важнейшим инструментом проверки и оценки эффективности внедряемого содержания образования, используемых методик, служит основой для обоснованных путей устранения недостатков учебного процесса в школе, является основой для принятия эффективных управленческих решений.*

Термин «мониторинг» пришел в педагогику из экологии и социологии.

Экология – мониторинг непрерывное наблюдение за состоянием окружающей среды с целью предупреждения нежелательных отклонений по важным параметрам.

Социология – отслеживание небольшие числа показателей, отражающих состояние.

Мониторинг – наблюдение, оценка и прогноз состояния окружающей среды в связи с деятельностью человека, деятельность по

наблюдению за отдельными объектами и явлениями.

В педагогике это новое перспективное направление, разрабатываемое в исследованиях **А.А. Кузнецова, М.В. Рыжакова, С.Е. Шишова, А.В. Баранникова, А.Н. Майорова** и др., посредством которого возможно способствовать повышению качества образования во всех его основных составляющих.

Виды мониторинга: дидактический – слежение за раздел сторонами учебно-воспитат. Процесса; воспитательный – слежение за раздел сторонами воспитат. Процесса; управленческий – слежение за характером взаимодействия на разных управленческих уровнях; социально-психол. Монит-г – слежение за системой коллективно-групповых, личностных отношений, за характером психологической атмосферы коллектива. (А. С. Белкин)

Мониторинг в образовании – система сбора, обработки, хранения и распределения информации об образовании или отдельных нё элементах, которые ориентированы на инфо обеспечение управлением образования, позволяет судить о её состоянии в любой момент времени и дает возможность прогнозирования рзв образования.

Свойства мониторинга в образовании: регулярность, системность, информационность, аналитичность, диагностичность, результативность.

В основу мониторинга качества образования положены три аспекта.

Общественный - определяется социально-экономическими условиями общества (уровень жизни, экономический потенциал страны*), социальный* - соответствием образовательных услуг реальному запросу заказчика (родителя), *педагогический* - может означать реализацию принципа вариативности в образовании, переход к личностно-ориентированному взаимодействию педагога с детьми.

При этом качество дошкольного образования определяется организацией педагогического процесса, при которой уровень воспитанности и развития каждого ребенка повышается в соответствии с учетом его личностных, возрастных и физических особенностей в процессе воспитания и обучения. Качество образования зависит: от качества работы воспитателя; сложившихся в педагогическом коллективе отношений условий, созданных руководителем для творческого поиска; объективной оценки результатов деятельности каждого сотрудника. Выделяется *два подхода к управлению качеством*: один - через управление педагогическим

процессом и его составляющими, другой - через личностные субъективные аспекты в системе управления (формирование коллектива и регулирование морально-психологического климата в нем). Следовательно, управление качеством образования требует особых подходов, нестандартных решений, которые в полной мере могли бы учитывать особенности воспитательно-образовательной среды, запросы и потребности родителей и других социальных партнеров ОУ.

Задача, стоящая перед образовательными учреждениями любого типа может быть сформулирована следующим образом.

Во-первых, нужно задать такие критерии, на основе которых из совокупного социального опыта можно выделить ту часть, что составит содержание образования, разработать процедуры, посредством которых это выделение окажется возможным осуществить фактически.

Во-вторых, нужно задать такие критерии и разработать такие процедуры, посредством которых можно распределить выделенное содержание в учебном пространстве и времени.

Управленческая деятельность в современном развивающемся дошкольном учреждении должна быть направлена на преодоление разрыва между существующим и необходимым качественным состоянием образовательного процесса; достигнутыми и требуемыми результатами развития детей согласно государственному стандарту образования с учетом возможностей каждого ребенка. В условиях обновления содержания образования и предъявляемых государством требований к его качеству значительно возрастает роль научного управления дошкольным образованием. Управлять научно - значит познавать и выявлять закономерности, прогрессивные тенденции в образовательном процессе и направлять (планировать, организовывать) его в соответствии с этими тенденциями с учетом объективных возможностей.

Выделяются объекты мониторинга, в частности качество: образовательного процесса; ресурсообеспечения; управления; результатов работы образовательной системы Учреждения.

Работа по проведению мониторинга качества образования в нашем Учреждении предполагает: наличие стандарта дошкольного образования, норм и требований (исходя из чего ставились цели и с чем будут сравниваться полученные результаты); выработку критериев оценки качества образовательного процесса и показателей, обеспечивающих формирование целостного представления о его состоянии с точки зрения

соответствия стандартам (нормам); сбор данных о качестве образования в ГДОО № 15 г.Навои и научно – педагогическую экспертизу; принятие и исполнение управленческого решения, и оценивание результатов принятых мер в соответствии с целями, стандартами, нормами.

На основании обобщения различных подходов можно сформулировать принципы мониторинга качества образования, определить его функции, структуру и условия организации в дошкольном учреждении.

Принципы: научности, непрерывности, прогностичности, динамичности, междисциплинарности, гуманизации, коллегиальности.

К *функциям* относим: интегративную, диагностическую, экспертную, информационную, прагматическую.

Условиями для эффективной реализации мониторинга качества образования в ГДОО № 15 г. Навои являются: компетентность и всесторнность в выделении объектов мониторинга качества, в организации деятельности всех субъектов мониторинга, унифицированность форм предоставления информации; непрерывность мониторингового процесса, регулярность и своевременность сбора и предоставления информации; оптимальность количества объектов мониторинга качества, информационных данных; обеспечение быстрой обратной связи. К методам мониторинга качества образования в учреждении относятся: карта развития ребёнка, изучение продуктов детской деятельности, игровые тестовые задания; проведение контрольно – оценочных занятий, собеседования с педагогами, родителями и детьми, анкетирование,

анализ документации, хронометраж режима и др.



В пределах границ мониторинга осуществляется выявление и оценивание проведенных педагогических действий, и тем самым идет

обеспечение обратной связи, которая осведомляет о соответствии фактических результатов деятельности педагогической системы ее конечным задачам. Мониторинг несет в себе различные качественные характеристики. Это и диагностическая система, и система слежения, и система контроля, и система наблюдения. Но при всем этом есть общая точка пересечения – идет понимание мониторинга как работа с информацией. Можно прийти к выводу, что мониторинг – это некая система, в которой компонентами выступают мероприятия (управленческие действия, диагностические процедуры), которые направлены на получение необходимой информации о динамике изменений объекта, за которым происходит наблюдение. Формирование мониторинга идет как формирование системы многоуровневой, системы повторяющихся процедур диагностических, которые проводятся с использованием методик количественных, максимально объективирующих показатели качественные выбранных объектов. В практической деятельности это система диагностических процедур, которые повторяются, например срезы уровня знаний дошкольников. Основная задача мониторинга заключается, прежде всего, в скорейшем предупреждении всевозможных нежелательных воздействий используемых педагогических технологий, стиля общения педагогов на здоровье и психоэмоциональное состояние дошкольников. Необходимая информация которую получили в ходе мониторинга, дает нам возможность корректировать образовательный процесс и развивающую среду дошкольного учреждения. Мониторинг выступает одним из главнейших средств, благодаря которому меняется само пространство информационное, следовательно, увеличивается степень повышения объективности, оперативности и доступности самой информации.

Литература

1. № 1к Указу Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № УП-5712
2. Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158
3. Пермский край, с.Мысы, ул. Школьная 11 E-mail: admin@mys-krkam.edusite.ru
4. Незамов Валерий Иванович; кандидат сельскохозяйственных наук, доцент.
5. Муниципальное казенное дошкольное образовательное учреждение

«Детский сад комбинированного вида № 22» города Аши Челябинской области «Мониторинг качества образования в ДОУ, как единый управленческий подход» С.В. Судкова старший воспитатель 1 категория



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIM0IY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Navoiy davlat universiteti
Ziyodullayeva Niginabonu Avaz qizi
Ta’limva tarbiya nazariyasi va metodikasi
mutaxasisligi -70110201
1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanish bosqichlari batafsil sharhlanib, ularning muloqotga kirishish, emotsional javob qaytarish va jamiyatga moslashish jarayonida shakllanadigan asosiy kompetensiyalari yoritiladi

Kalit so’zlar: maktabgacha yosh, ijtimoiy rivojlanish, muloqot ko’nikmasi, emotsional holat, rolli o’yin, moslashuv jarayoni, tengdoshlar bilan munosabat.

Аннотация в данной работе рассматриваются этапы социального развития детей дошкольного возраста, анализируются формирование навыков общения и адаптации в процессе взаимодействия с окружающими.

Ключевые слова дошкольный возраст, социальное развитие, коммуникативные навыки, эмоциональное состояние, ролевая игра, процесс адаптации, взаимоотношения со сверстниками.

Annotation this paper explores the stages of social development in preschool children and analyzes how communication and adaptation skills emerge through their interactions with others

Key words preschool age, social development, communication skills, emotional state, role play, adaptation process, peer interaction.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bola jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy jarayonlarning uyg‘un holda rivojlanishini boshdan kechiradi. Aynan maktabgacha yoshda bola atrofidagi kattalar, tengdoshlar, o‘yin muhiti, muloqot jarayoni orqali dastlabki ijtimoiy tajribani egallaydi hamda shaxs sifatida tarkib

topishning asosiy mexanizmlarini shakllantira boshlaydi[1]. Bolaning jamiyatga munosabati, emosional barqarorligi, muomala shakllari va xulq-atvor me’yorlariga moslashuvi aynan shu bosqichda yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u oila muhiti, tarbiyachi faoliyati, tengdoshlar bilan munosabatlar va o‘yin faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Dastlab bola oila doirasida ijtimoiylashuvning birlamchi tajribasini oladi. Kattalar tomonidan bildiriladigan mehr, hissiy qo‘llab-quvvatlash, muloqot ohangi va munosabat shakllari bolaning keyingi ijtimoiy munosabatlarida asosiy namuna bo‘lib xizmat qiladi[2].

Keyingi bosqichda bola bog‘cha jamoasiga kirar ekan, tengdoshlari bilan o‘zaro ta’sir orqali navbat kutish, bo‘lishish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish, rollarni taqsimlash kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtira boshlaydi. Ijtimoiy rivojlanish bosqichlari bolaning yosh xususiyatlariga mos tarzda asta-sekin murakkablashib boradi. Masalan, 3 yoshgacha bo‘lgan davrda bola individual ehtiyojlar asosida harakat qiladi, muloqoti asosan kattalarga yo‘naltirilgan bo‘ladi; 3-4 yoshda esa tengdoshlariga qiziqish paydo bo‘ladi, birgalikdagi o‘yinlar shakllana boshlaydi, biroq o‘z mustaqilligini yo‘qotmaslik istagi hamon kuchli bo‘ladi. 5-6 yosh oralig‘ida esa bola jamoaviy o‘yinlarga, ijtimoiy rollarni qabul qilishga, muloqot madaniyatiga tobora tayyor bo‘ladi; bu esa uning maktabga psixologik tayyorgarligining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir [3].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan pedagogik faoliyat bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Rolli o‘yinlar, jamoaviy mashg‘ulotlar, muloqotni faollashtiruvchi metodlar, adabiy o‘qishlar va mavzuli faoliyat turlari bolaning ijtimoiy tajribasini boyitadi hamda uning shaxsiy rivojlanish jarayonini optimallashtiradi [4]. Pedagogning to‘g‘ri tanlangan metodik yondashuvi, bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olishi va ijtimoiy moslashuv jarayoniga qulay sharoit yaratishi bola shaxsining ijtimoiylashuv bosqichini samarali o‘tishiga xizmat qiladi. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bola jismoniy, ruhiy, aqliy hamda ijtimoiy jarayonlarning uyg‘un tarzda rivojlanishini boshdan kechiradi. Aynan shu davrda bola atrofidagi kattalar, tengdoshlar, o‘yin muhiti va muloqot jarayoni orqali dastlabki ijtimoiy tajribani egallaydi hamda shaxs sifatida tarkib topishning asosiy mexanizmlarini shakllantira boshlaydi. Bolaning jamiyatga munosabati, emosional barqarorligi, muomala shakllari va xulq-atvor me’yorlariga moslashuvi ham aynan shu bosqichda shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u oila muhiti, tarbiyachi faoliyati,

tengdoshlar bilan munosabatlar va o‘yin faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bola avvalo oila doirasida ijtimoiylashuvning birlamchi tajribasini oladi. Kattalar tomonidan beriladigan mehr, hissiy qo‘llab-quvvatlash, muloqot ohangi va munosabat shakllari bolaning keyingi ijtimoiy munosabatlarida asosiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi bosqichda bola bog‘cha jamoasiga kirar ekan, tengdoshlari bilan o‘zaro ta’sir orqali navbat kutish, bo‘lishish, nizolarni tinch yo‘l bilan bartaraf etish, rollarni taqsimlash kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtira boradi.

Ijtimoiy rivojlanish bosqichlari bolaning yosh xususiyatlariga mos tarzda asta-sekin murakkablashadi. Masalan:

3 yoshgacha – bola individual ehtiyojlar asosida harakat qiladi, muloqot asosan kattalarga yo‘naltiriladi;

3-4 yoshda – tengdoshlariga qiziqish paydo bo‘ladi, birgalikdagi o‘yinlar shakllanadi, ammo mustaqillik ehtiyoji hanuz kuchli bo‘ladi;

5-6 yoshda – jamoaviy o‘yinlar, ijtimoiy rollar, muloqot madaniyati kuchayadi, bu esa maktabga psixologik tayyorgarlikning muhim omilidir

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan pedagogik faoliyat bolalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Rolli o‘yinlar, jamoaviy mashg‘ulotlar, muloqotni faollashtiruvchi metodlar, adabiy o‘qishlar va mavzuli faoliyat turlari bolaning ijtimoiy tajribasini boyitadi hamda uning shaxsiy rivojlanish jarayonini optimallashtiradi. Pedagogning to‘g‘ri tanlangan metodik yondashuvi, bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olishi va ijtimoiy moslashuv jarayoni uchun qulay sharoit yaratishi ijtimoiylashuvning samarali kechishiga xizmat qiladi

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish joizki maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanish jarayonini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, asosiy bosqichlarni aniqlashtirish, mavjud metodik yondashuvlar samaradorligini baholash va ushbu yo‘nalishda amaliy xulosalar ishlab chiqishga qaratilgan. Ish davomida bolalarning ijtimoiy tajribasi, muloqot jarayonlari, psixologik omillar hamda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy rivojlanishga ta’siri keng yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova V., Yusupova M. Bola psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 256 b.
2. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2019. – 340 b.
3. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika, 2017. – 312 s.
4. Aminov N. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 210 b.

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЗЎРАВОНЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Аслонова Гулноз Замоновна-НДУ магистранти,
Навоий вилоят "Оқила аёллар" ҳаракати аъзоси

Аннотация: Ушбу мақолада мактабгача таълим муассасаларида содир бўлаётган зўравонлик турлари, унинг болаларга ва тарбия жараёнларига салбий таъсири, шунингдек, мактабгача таълим муассасаларида болаларга нисбатан зўравонликни олдини олиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: бола ҳуқуқлари, Болалар омбудсмани, руҳий зўравонлик, жисмоний зўравонлик, болалар хавфсизлиги, тарбия жараёни, зўравонликни олдини олиш, ҳамкорлик, хавфсиз тарбия муҳити, жисмоний зўравонлик, психологик зўравонлик, эмоционал беэътиборлик, эксплуатация, булинг таъқиб этиш, жисмоний буллинг, оғзаки буллинг, ижтимоий (эмоционал) буллинг, кибербуллинг

Abstract: This article discusses the types of violence occurring in preschool educational institutions, its negative impact on children and educational processes, as well as issues of preventing violence against children in preschool educational institutions.

Keywords: Keywords: child rights, Children's Ombudsman, psychological violence, physical violence, child safety, upbringing process, prevention of violence, cooperation, safe upbringing environment, physical violence, psychological violence, emotional neglect, exploitation, bullying, physical bullying, verbal bullying, social (emotional) bullying, cyberbullying

Ўзбек халқи – болажон халқ. Фарзанди учун борини беришга тайёр. Ҳар бир ота-она ўз боласини кўз қорачиғидек асраб-авайлайди, унинг тарбиясига эътибор қаратади, имконияти даражасида таълим олиши, касб-ҳунар ўрганишига сармоя сарфлайди, ҳаётда ўз ўрнини топиши учун бор имкониятини ишга солади. Ҳеч ким ўғил-қизини бировга хафа қилдириб қўйишни истамайди.

Мамлакатимизда бир қанча бола ҳуқуқларига оид халқаро конвенциялар ратификация қилингани, "Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, "Ўзбекистон

Республикаси Олий Мажлисининг Бола ҳуқуқлари бўйича вакили (Болалар омбудсмани) тўғрисида"ги қонун қабул қилингани, бола ҳуқуқларига оид давлат сиёсатини амалга оширишда ижобий ишлар амалга оширилаёганининг яққол далилидир. Шунингдек, “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 4-“Бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича давлат сиёсати” моддасида боланинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш, унинг ҳаёти ва соғлиғини муҳофаза қилиш, камситилишига йўл қўймаслик, боланинг шаъни ва қадр-қимматини ҳимоя қилиш, ҳуқуқлари ва имкониятларининг тенглигини таъминлаш, болаларнинг жисмоний, интеллектуал, маънавий ва ахлоқий камол топишига кўмаклашиш каби бир қатор йўналишлари белгиланган бўлиб, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг бу борадаги ваколатлари ҳам белгилаб қўйилган.

Мактабгача таълим ташкилоти – бу нафақат болаларга бошланғич билимларни бериш, балки жамиятнинг келажак авлодини тарбиялайдиган муҳим маскандир. Маълумотларга кўра мия ривожланишининг 70–80% қисми 0–7 ёш оралиғида шаклланади. Бу даврда болада нутқ, ҳиссий интеллект, тафаккур, хотира, хулқ-атвор меъёрлари, атрофни идрок қилиш каби асосий қобилиятлар пайдо бўлади. Шунинг учун ҳам боғча болалар учун муҳитнинг хавфсизлиги ва соғломлиги долзарб масалалардан биридир. Бу масканда болаларга нисбатан шафқатсиз муносабатда бўлиш, зўравонлик ишлатиш уларнинг саломатлиги ва руҳий ҳолатига зарар етказади.

Кейинги вақтларда мактабгача таълим муассасаларида болаларга нисбатан бўлаётган нафақат жисмоний, руҳий зўравонлик, балки ғамхўрлик кўрсатмаслик (яъни, боланинг жисмоний, моддий, психологик, ижтимоий ва бошқа эҳтиёжларини қондирмаслик) каби болаларга нисбатан салбий муносабатда бўлиш ҳолатлари тез-тез учраб турибди.

Зўравонлик - болага жисмоний, психологик ёки маънавий зарар етказувчи ҳар қандай ҳаракат ёки бефарқлик ҳолатидир.

Мактабгача таълим муассасаларида энг кўп учрайдиган зўравонлик турлари:

Жисмоний зўравонлик – энг кўп учрайдиган зўравонлик турларидан биридир. Бунда болани уриш, туртки бериш, жисмоний жазо, унга овқат бермаслик ёки ухлашни ман этиш, нарсаларини тортиб олиш каби ҳаракатлар билан намоён бўлади. Жисмоний зўравонлик нафақат жабрланувчининг жисмоний жароҳат олишига сабаб бўлади, балки унинг ўзига бўлган ишончини пасайтиради ва боланинг боғчага бўлган қўрқув

ҳисссини кучайтирди. Бундай зўравонликка дуч келган бола инжиқ, йиғлоқи, қўрқоқ бўлади, бошқалардан ўзини олиб қочади, боғчага бормаслик учун турли баҳоналар излайди.

Психологик зўравонлик – бу зўравонлик кўзга ташланмайдиган, аммо болаларнинг психологиясига кучли салбий таъсир кўрсатадиган зўравонлик шаклидир. Болани масхара қилиш, ҳақоратлаш, қўрқитиш, камситиш, таҳқирлаш, тенгдошлари ва дўстлари орасидан четлатиш орқали унга салбий руҳий босим берилади. Бундай зўравонликка учраган болалар ўзларини ёлғиз, кераксиз ҳис қилишлари, дипрессияга тушишлари, ўзини четга олиб тенгдошларидан узоқлашишлари мумкин.

Эмоционал беэътиборлик — боланинг эҳтиёжига (суҳбат, меҳр, қўллаб-қувватлаш) эътибор бермаслик, атайлаб эътиборсиз қолдириш, бефарқ муносабатда бўлиш, унинг қизиқишларига диққат қилмаслик орқали намоён бўлади. Бунда ҳам бола ўзини ёлғиз ҳис қилади, ўйинларга, машғулотларга қўшилмайди ёки бошқалар эътиборини ўзига қаратиш учун атайлаб ниманидир бузади, тушириб юборади, бақиради ёки бошқа болалар билан жанжаллашади.

Эксплуатация — болани мажбурий меҳнат ёки ноқонуний фаолиятда иштирок эттириш.

Булинг (болалар ўртасида) — бир боланинг бошқасига таъқиб, таҳқир ёки жисмоний зўравонлик қила бошлаши. Муассасаларда болалар ўртасида бир-бирини таҳқирлаш, жисмоний ёки психик зўравонлик қилиш хатари мавжуд. Ўзбекистонда буллинг ҳам зўравонликнинг бир шакли деб белгиланган бўлиб, буллинг (инглизча "bullying" сўзидан) — бу болалар (ёки ўсмирлар) ўртасида бир ёки бир нечта шахс томонидан бошқа бир болага нисбатан такрорий равишда қасддан зўравонлик, таҳқирлаш ёки жазолаш хатти-ҳаракатларни амалга оширишдир.

Дарҳақиқат, охирги пайтларда мактабгача таълим ташкилотларида боғча тарбиячилари томонидан болаларнинг калтакланиши кўп бора содир бўлмоқда. Боғча тарбиячиларининг болаларга нисбатан зўравонлик кўпчиликнинг нафратини қўзғатади. Ота-она мактабгача таълим ташкилотига фарзандини калтакланишидан қўрқиб жўнатмаслиги энг ачинарли ва ташвишли ҳолат ҳисобланади.

Мактабгача таълим муассасаларида зўравонлик ҳолати бор-йўқлигини аниқлашда қуйидагиларга эътиборли бўлиш мақсадга мувофиқ:

Зўравонлик тоифаси	**Белгилар**

Жисмоний	Болада тан жароҳати, кўкариш, ёриқ, изоҳсиз жароҳатлар
Психологик	Бола қўрқувчан, сукутда, ёлғиз ўйнашга ўтиб кетган
Эмоционал	Ёшидан ортиқча ҳаяжон, йиғлоқилик, ночорлик ҳисси
Ижтимоий	Бошқа болалар билан мулоқотдан қочиш, жамиятдан узилиш

Мактабгача таълим муассасалари тарбиячилари томонидан болаларга нисбатан зўравонлик содир этилишининг олдини олиш чоралари кўп босқичли тизимни талаб қилади. Буни амалий тарзда - муассаса ва шахсий даражадаги чоралар шаклида амалга ошириш тавсия этилади:

1. Муассасада бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича ички тартиб-қоидаларни жорий этиш, болалар ва ота-оналарга ҳуқуқий маълумотлар бериб бориш;

2. Боғчаларда камера орқали кузатув тизими, ички назорат ва ҳисобот механизмлари жорий қилиш;

3. Ҳар бир боғчада "Зўравонлик ҳолатларини олдини олиш бўйича масъул шахс" тайинлаш (масалан, психолог ёки бош тарбиячи);

4. Болалар билан ишлайдиган ҳар бир шахснинг (тарбиячи, ҳамшира, ошпаз, тозаловчи ва ҳ.к.) ишга киришдан аввал психологик тест ва судланганликдан холи эканлиги текшириш;

5. Тарбиячилар малакасини ошириш, бунда малака ошириш курсларида зўравонликка қарши махсус модулларни киритиш;

6. Ҳар ойда педагоглар учун "эмоционал етишмовчилик ва стрессли ҳолатларда ишлаш" бўйича тренинглар ташкил этиш;

7. Мактабгача таълим муассаси ходимларини аттестация жараёнида болалар психологияси ва ҳимояси бўйича билимларини синовдан ўтказиш.

8. Жамоатчилик ва ота-оналар назоратини ўрнатиш, улар томонидан ҳафтасига камида бир марта машғулотлар жараёнини кузатиш;

9. "Ота-оналар кенгаши" орқали муассасадаги болаларга нисбатан муносабатни мунтазам муҳокама қилиб бориш;.

10. "Ишонч телефони" ва электрон мурожаат каналлари орқали болалар ёки ота-оналарнинг шикоятлари қабул қилиш.

Тарбиячилар учун тавсиялар:

*Психологик барқарорликка эришиш учун тарбиячи стрессни бошқариш, сабр, эмпатия бўйича мунтазам тренингларда иштирок этиши керак.

* Тарбиячи болага "мен каттаман, сен итоат қилишинг керак" деган муносабат эмас, балки "мен сени эшитаман" принципи билан ёндашиши зарур.

* Аграр ёки гиперактив болалар билан ишлашда жисмоний жазо эмас, қадамма-қадам тарбия усулини қўллаш.

***** Ўз-ўзини назорат қилиш, агар тарбиячида чарчоқ, асабийлик, ёки босим ҳолатлари бор бўлса — раҳбарият билан бу ҳақда очиқ гаплашиш (бу зўравонлик хавфини камайтиради).

Фойдаланилган адабиётлар:

1. **"Мактабгача таълим муассасасида болалар хавфсизлиги"**, Ўзбекистон Республикаси МТА Вазирлиги, методик қўлланма. – Тошкент, 2020.

2. **Орипова З., Алимова Д. – "Бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва зўравонликнинг олдини олиш"**, ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: 2021.

3. **"Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция"** (Ўзбекистон Республикаси томонидан тасдиқланган). – Тошкент, расмий нашр.

4. **"Ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда мактабгача таълим тизими вазифалари"**, МТА соҳаси бўйича илмий-амалий тавсиялар, 2019.

5. Набиева Н. – "Мактабгача таълим муассасаларида психологик зўравонликнинг олдини олишнинг муҳим омиллари" // *Педагогика фанлари журнали*, №2, 2022.

6. Каримова Н. – "Боғча ёшидаги болалар билан мулоқот маданияти ва зўравонликка йўл қўймаслик принциплари". – *Мактабгача таълим* журнали, 2021.

7. Сафарова Д. – "Болалар хавфсизлигини таъминлашда педагог ва ота-оналар ҳамкорлиги". – *Илмий-амалий конференция материаллари*, 2020.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KVILLING USULIDA

KOMPOZITSIYALAR YASASHGA O‘RGATISH

Uchquduq tumani 2-DMTT direktor

o‘rinbosari Jontemirova Umida Xolmamatovna

Tel:93.855-84-11

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun turli vositalar, metod va texnologiyalar qo‘llanadi. Shulardan biri — kvilling san’ati bo‘lib, bu usul orqali bola ranglar, shakllar, chiziqlar va harakatlar orqali o‘z ichki dunyosini ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Kvilling — bu rangli qog‘oz lentalarini aylantirish, burash, bukish va turli kompozitsiyalar hosil qilish orqali ijodiy ish yaratish san’atidir. Bu jarayon bolalarda mayda motorikani, koordinatsiyani, e’tiborni, sabr-toqatni va tasavvur kuchini rivojlantiradi. Eng muhimi, bola o‘z qo‘li bilan chiroyli narsa yaratishdan zavq oladi, mehnat natijasini qadrlashni o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: kvilling, metod, texnologiya, ijodkorlik, vositalar, mashg‘ulot, ijodiy tafakkur, estetik, san’at, ijod burchagi.

Maktabgacha yosh davri esa bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim poydevor bosqichi hisoblanadi. Shu boisdan bu davrda bolaning tabiiy ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish tarbiyachining asosiy vazifasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun turli vositalar, metod va texnologiyalar qo‘llanadi. Shulardan biri — kvilling san’ati bo‘lib, bu usul orqali bola ranglar, shakllar, chiziqlar va harakatlar orqali o‘z ichki dunyosini ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Kvilling — bu rangli qog‘oz lentalarini aylantirish, burash, bukish va turli kompozitsiyalar hosil qilish orqali ijodiy ish yaratish san’atidir. Bu jarayon bolalarda mayda motorikani, koordinatsiyani, e’tiborni, sabr-toqatni va tasavvur kuchini rivojlantiradi. Eng muhimi, bola o‘z qo‘li bilan chiroyli narsa yaratishdan zavq oladi, mehnat natijasini qadrlashni o‘rganadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida kvilling san’atiga oid mashg‘ulotlarni joriy etish o‘ta dolzarbdir. Chunki bu usul:

- bolalarda ijodkorlikni o‘stiradi,
- o‘ziga ishonchni kuchaytiradi,
- estetik zavqni shakllantiradi,
- o‘qish va yozishga tayyorlov bosqichida mayda muskullarni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, kvilling bolalarni rang, shakl va simmetriya bilan tanishtirish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish, qo‘l mehnatiga mehr uyg‘otish va sabr bilan ishlashga o‘rgatishda samarali vositadir. Bu esa bola psixikasining muvozanatli rivojlanishiga, ijobiy his-tuyg‘ularni shakllantirishga, ijodiy faoliyat orqali o‘z-o‘zini namoyon etishiga yordam beradi.

Shuningdek, kvilling texnologiyasini o‘qitish jarayonida tarbiyachi va bola o‘rtasidagi o‘zaro muloqot yanada jonlanadi. Bola o‘z ishini tarbiyachiga ko‘rsatish, fikrini eshitish va uni yanada yaxshilashga intiladi. Bu jarayon orqali bolada tanqidiy fikrlash, o‘zini baholash, boshqalarning mehnatini qadrlash ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Kvilling so`zi bizga Yevropadan kirib kelgan. Inglizcha «quill» yoki «qush patlari» so‘zidan kelib chiqqan. O‘rta asrlarda Yevropada kumush qog’ozlardan rohibalar tomonidan yaratilgan va patning uchida burilgan medallar ingichka oltin chiziqlardan yasalgan degan tushunchani anglatadi.

Oddiyligi va nafisligi tufayli zodagon ayollar ham Kvilling bilan shug’ullana boshladilar, ular bo‘sh vaqtlarini bu zamonaviy, ammo juda noyob kasb uchun sarflashlari mumkin edi. Bugungi kunda Kvilling bilan hamma shug`ullanishi mumkin.

Kvilling (qog’oz prokat, qog’oz filigri) – bu rangli qog’oz chiziqlarini burash orqali har xil shakllarga ega butun bir ijod namunasi yaratish texnikasi. Ushbu turdagi igna ishi juda oddiy va vaqt sarflashdan tashqari hech qanday xarajatlarni talab qilmaydi. Kvilling shunchaki foydali xobbi bo‘lishi mumkin yoki jiddiy va foydali ish bo‘lishi mumkin. Bola uchun Kvilling boshqa ko‘plab ijod turlari singari foydali ekanligi shubhasizdir.

Kvilling o‘ng miya yarim sharining rivojlanishi uchun juda foydali. Kvilling texnikasi ijodiy qobiliyatni, tasavvurni, go‘zallik tuyg’usini mukammal darajada rivojlantiradi va hissiy va estetik rivojlanish uchun muhim bo‘lgan didni shakllantiradi. Bu ijodkorlik orqali o‘z iste’dodini namoyon qilish usullaridan biridir, chunki har bir asar butun bir kompozitsiyani yaratishdir. Mohir qo‘llarda ingichka qog’oz chiziqlar badiiy asarlarga aylanadi.

Bundan tashqari, Kvilling nozik harakatlarni ham faol rivojlantiradi. Ma’lumki, miya yarim sharlari nozik motorli ko‘nikmalar nutq bilan bevosita bog’liqdir. Shuni aytish kerakki, qo‘llarning kichik qismlar bilan doimiy ishlashi barmoqlarni yanada egiluvchan, harakatlarni aniqroq qilishga yordam beradi.

Haqiqatan ham, Kvilling uzoq vaqt davomida bir narsaga e’tibor qaratish qiyin bo‘lgan sho`x bolalar bilan yaxshi kurashishga yordam beradi. Qog’oz chiziqlari bilan sinchkov ishlash bolaning qat’iyatliligini, diqqatini, vizual

xotirasini, xayoliy tafakkuri va nutqini rivojlantiradi.

Ijodkorlik inson tafakkurining eng yuqori bosqichidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash hali shakllanish jarayonida bo‘lganligi sababli, bu davrda tarbiyachining roli nihoyatda muhimdir.

Kvilling mashg‘ulotlari davomida bola:

ranglarni tanlaydi (estetik qaror qabul qiladi),

shakl yaratadi (ijodiy tafakkurni ishga soladi),

sabr-toqatni rivojlantiradi,

natijani baholaydi (tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi).

Pedagog bu jarayonni to‘g‘ri boshqarsa, bola o‘zining ijodiy imkoniyatlarini ochib beradi.

Kvilling — bu rangli qog‘oz tasmalari yordamida turli shakl va bezaklar yaratish san’ati bo‘lib, u bolalarda mayda motorika, koordinatsiya, diqqat va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. San’at markazida bu usulni qo‘llash orqali men bolalarni mustaqil fikrlashga, o‘z g‘oyalarini amalda ifodalashga va mehnat natijasidan zavq olishga o‘rgataman.

Markazni tashkil etishda bolalarning yoshi va qiziqishlarini inobatga olgan holda shinam, yorug‘, toza muhit yaratiladi. Qog‘ozlar, qaychi, yelim, kvilling tayoqchalari, rangli kartonlar, namunaviy kompozitsiyalar tartibli joylashtiriladi. Har bir bola o‘z joyiga ega bo‘ladi, bu esa ularda mustaqil ishlash va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Mashg‘ulot jarayonida bolalarga avvalo kvilling san’ati haqida qisqacha tushuncha beraman — bu usulda qog‘ozlar o‘rash, spiral yasash, shakl berish va kompozitsiya tuzish o‘rgatiladi. Avval sodda shakllar (dumaloq, barg, yurakcha) bilan ishlaymiz, keyinchalik murakkab kompozitsiyalar (gul, kapalak, daraxt, quyosh) yasaymiz. Har bir mashg‘ulotda bolalar o‘z g‘oyalarini mustaqil tarzda ifoda etishlari uchun sharoit yarataman.

Kvilling faoliyatini san’at markazida quyidagi bosqichlarda olib borish o‘z samarasini beradi:

1. Tanishuv bosqichi. Bolalarga kvilling materiallari, asboblari, ranglar uyg‘unligi va xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiraman.
2. Amaliy bosqich. Bolalar kvilling tayoqchalari yordamida qog‘oz tasmasini o‘rashni o‘rganadilar, turli shakllar hosil qiladilar.
3. Ijodiy bosqich. Har bir bola o‘z tasavvuriga ko‘ra rasm yoki bezak yaratadi. Masalan, “Bahor guli”, “Quyoshli kun”, “Men sevgan hayvon” kabi mavzular asosida ish olib boriladi.
4. Baholash bosqichi. Tayyor ishlar ko‘rib chiqiladi, bolalar o‘z ishlari

haqida so‘zlab beradilar. Eng chiroyli ishlar san’at burchagida ko‘rgazmaga qo‘yiladi.

Mashg‘ulot davomida men har bir bolaga individual yondashishga harakat qilaman. Kimdir qog‘ozni o‘rashda qiynalsa — yordam beraman, kimdir yangi g‘oya aytsa — uni rag‘batlantiraman. Eng muhimi, bolalar o‘zini erkin his qilishi, ijod jarayonidan quvonch olishi lozim. San’at markazida kvilling mashg‘ulotlari orqali bolalarda rangni his qilish, shakllarni uyg‘unlashtirish, detallarni joylashtirish ko‘nikmalari shakllanadi. Ular har bir kichik detaldan go‘zallik yaratish mumkinligini o‘rganadilar. Bunday faoliyat natijasida bolalar nafaqat ijodkor, balki tartibli, sabrli, e’tiborli va mehnatsevar shaxslar bo‘lib shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kvilling usulida kompozitsiyalar yasashga o‘rgatish

Faoliyat turi: Tasviriy ijod (amaliy san’at elementi)

Yosh guruhi: Tayyorlov guruhi (5–6 yosh)

Tarbiyachi: ————

Mashg‘ulot davomiyligi: 25–30 daqiqa

Mashg‘ulot ishlanmasi

Mashg‘ulot maqsadi:

Ta’limiy: Bolalarni kvilling usulida kompozitsiya yasash texnikasi bilan tanishtirish, oddiy spiral shakllarni yasashni o‘rgatish.

Tarbiyaviy: Bolalarda sabr-toqat, sinchkovlik, mehnatsevarlik, estetik did va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: Mayda qo‘l motorikasini, ijodiy fikrlashni, diqqatni va tasavvurni rivojlantirish.

Kerakli jihozlar:

Rangli kvilling qog‘ozlari (turli ranglarda), Maxsus ingichka cho‘p yoki tish cho‘pi (qog‘ozni o‘rash uchun), Yelim, Qalin oq karton (asos uchun), Qaychi, Namunaviy ish (tarbiyachi tomonidan tayyorlangan kvilling gul kompozitsiyasi), Tinchlantiruvchi fon musiqasi

Mashg‘ulotning borishi

1. Tashkiliy qism

Tarbiyachi bolalarni iliq tabassum bilan kutib oladi, ularni quvnoq she’r yoki qisqa o‘yin orqali faoliyatga tayyorlaydi.

Tarbiyachi: “Bolajonlar, bugun biz sehrli ranglar dunyosiga sayohat qilamiz. Oddiy qog‘ozlardan chiroyli gullar, yaproqlar va naqshlar yaratamiz. Qani, kim ijod qilishni yoqtiradi?”

(Bolalar javob beradilar, qiziqish uyg‘otiladi.)

2. Kirish suhbat

Tarbiyachi bolalarga kvilling san’ati haqida qisqacha ma’lumot beradi.

Tarbiyachi: “Kvilling — bu qog‘ozni o‘rash orqali go‘zal bezaklar yasash san’ati. Bu so‘z inglizcha ‘quill’ — ya’ni pat so‘zidan olingan. Ilgari odamlar tukli qalamga qog‘oz o‘rab, shunday bezaklar yaratganlar. Endi esa biz bu ishni rangli qog‘ozlar yordamida qilamiz.”

Bolalarga tayyor namunalar ko‘rsatiladi.
(Masalan, gul, quyosh, kapalak shaklidagi kvilling kompozitsiyalari.)

3. Asosiy qism – Amaliy ish

Tarbiyachi kvilling spiralini qanday yasashni bosqichma-bosqich ko‘rsatadi:

1. Rangli qog‘oz tasmasi olinadi.
2. Uni cho‘p atrofida aylantirib o‘rash kerak.
3. O‘ralgan spiralni biroz bo‘shatib, chetini yelim bilan mustahkamlash lozim.
4. Tayyor spiralni karton asosga joylashtirib, kompozitsiya shakllantiriladi.

Bolalarga topshiriq: “Bugun har biringiz o‘z gulzoringizni yaratasiz! Gullarga barg, quyosh, kapalak ham qo‘shishingiz mumkin.”

Mashg‘ulot davomida tinch, ilhomlantiruvchi musiqa fonida bolalar ishlaydilar. Tarbiyachi har bir bolaning ishini kuzatadi, maqtov orqali rag‘batlantiradi:

“Zo‘r bo‘ldi! Qara, sening gulchang oppoq bulutga o‘xshabdi!”
“Sen juda sabr bilan ishlayapsan, mana shunday mehnatkashlik har doim go‘zal natija beradi!”

4. Yakuniy qism – Ishlarni namoyish etish

Barcha bolalar ishlari bitta “Ijod burchagi”ga qo‘yiladi. Tarbiyachi har bir bolani ishini qadrlaydi.

Tarbiyachi: “Mana, bizning kichik rassomlarimiz qanday go‘zalliklar yaratishdi! Har bir gul — o‘ziga xos, har bir rang — sizlarning qalbingizdagi quvonchdan tug‘ilgan!”

Mashg‘ulot yakunida bolalar ishlaridan kichik ko‘rgazma tashkil etiladi.

Natija:

Bolalar kvilling usuli bilan tanishdilar.

Mustaqil kompozitsiya yaratishni o‘rgandilar.

Estetik did, sabr-toqat va ijodiy qobiliyatlari rivojlandi.

Kreativ tavsiya (tarbiyachilar uchun)

Mashg‘ulotni yanada qiziqarli qilish uchun “Sehrli gulzorlarga sayohat” deb nom berish va har bir bolaga “Gul bog‘boni” yorlig‘ini taqdim etish mumkin.

Shuningdek, ota-onalar bilan “Oilaviy kvilling kuni” o‘tkazish orqali bolalarning ishlarini birgalikda yaratish, oilaviy ijodiy muhitni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaeva, M. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va metodikasi.” – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2021.
2. Mamatova, S. “Bolalar ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o‘rni.” – Toshkent: TDPU, 2020.
3. Karimova, D. “San’at markazlarida bolalar bilan ijodiy ishlash texnologiyalari.” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. Jo‘raeva, N. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiyani shakllantirish.” – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
5. To‘xtayeva, L. “Bolalarda mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish usullari.” – Toshkent: 2021.
6. Qodirova, S. “Maktabgacha ta’limda innovatsion metodlar.” – Toshkent: O‘qituvchi, 2023.
7. Twining, Jane. “Paper Quilling for Beginners: Creative Paper Art for Kids.” – London: Dorling Kindersley,

JAMOAVIY O'YINLAR ORQALI BOLALARDA HAMKORLIK VA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xatirchi tuman 8-DMTT
direktor o‘rinbosari Soyibova Dilnoza Shoim qizi
tel:94.481-37-31

Annotatsiya. O‘yin orqali bola atrofdagi dunyoni, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi. Jamoaviy o‘yin jarayonida bola nafaqat o‘zining shaxsiy manfaatlarini, balki jamoaning umumiy maqsadini ham hisobga olishni o‘rganadi. Bu esa bolada empatiya, hamkorlik, bag‘rikenglik, muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat va yordam kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Shu boisdan ham maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda jamoaviy o‘yinlardan maqsadli foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Kalit so‘zlar: Jamoaviy o‘yin, empatiya, hamkorlik, bag‘rikenglik,

muloqot madaniyat, ijtimoiy moslashuv, ijodiy va mantiqiy fikrlash.

Kirish. Maktabgacha ta’lim tizimi bugungi kunda bolalarning har tomonlama kamol topishi, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Ushbu jarayonda o‘yin faoliyati eng tabiiy, samarali va bola tabiatiga mos pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, jamoaviy o‘yinlar bolaning ijtimoiylashuvi, muloqot madaniyati va hamkorlikka tayyorligi kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishda beqiyos o‘rin tutadi.

O‘yin orqali bola atrofdagi dunyoni, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi. Jamoaviy o‘yin jarayonida bola nafaqat o‘zining shaxsiy manfaatlarini, balki jamoaning umumiy maqsadini ham hisobga olishni o‘rganadi. Bu esa bolada empatiya, hamkorlik, bag‘rikenglik, muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat va yordam kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi. Shu boisdan ham maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda jamoaviy o‘yinlardan maqsadli foydalanish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlarida, shuningdek, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida bolalarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish, ularni jamoada faol bo‘lishga o‘rgatish, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash zarurligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Bu esa pedagoglardan o‘yin jarayonini shunchaki vaqt o‘tkazish emas, balki ta’lim-tarbiya vositasi sifatida to‘g‘ri tashkil etishni talab qiladi.

Bolalar o‘rtasidagi muloqot ko‘nikmasi tabiiy tarzda o‘yinda namoyon bo‘ladi. O‘yin davomida ular o‘z fikrini ifoda etadi, boshqalarni tinglaydi, vaziyatni tahlil qiladi, kelishuvga keladi va birgalikda yechim topadi. Shuning uchun jamoaviy o‘yinlar orqali muloqot va hamkorlikni rivojlantirish — bu nafaqat psixologik, balki ijtimoiy tarbiya jarayonining ham asosiy tarkibiy qismidir.

Zamonaviy ta’lim jarayonida bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, jamoa bilan ishlash, fikrini bildirish va baham ko‘rish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, turli holatlarda o‘zini to‘g‘ri tutish kabi hayotiy ko‘nikmalarni erta yoshdan shakllantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda o‘yin — eng qulay, tabiiy va samimiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, jamoaviy o‘yinlar bolalarning shaxslararo muloqotini faollashtirib, ularning nutq, hissiy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu loyiha ishida jamoaviy o‘yinlar yordamida bolalarda hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari, amaliy usullari,

jarayonda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari yoritiladi. Shuningdek, pedagogik tajribada o‘yin faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Mazkur mavzuni chuqur o‘rganish nafaqat tarbiyachilar uchun, balki ota-onalar, psixologlar va metodistlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola o‘yin jarayonida nafaqat o‘ynaydi, balki o‘rganadi, his qiladi, o‘z fikrini aytadi, boshqalarni tushunadi va jamiyat a’zosi sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, jamoaviy o‘yinlar — bu bolalar uchun hayotiy tajribani o‘zlashtirishning, hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng samarali vositasidir. Ushbu mavzu bugungi ta’lim tizimida dolzarb bo‘lib, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, bolalarni ijtimoiy jihatdan faol, muloqotga ochiq va jamoada ishlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Jamoaviy o‘yinlarning rivojlanish markazlari bilan integratsiyasi — bu ta’lim-tarbiya jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etishning samarali yo‘lidir. Har bir markazda o‘yin faoliyatining mavjudligi bolalarda:

- hamkorlik va muloqot madaniyatini,
- ijodiy va mantiqiy fikrlashni,
- tabiatga mehr, san’atga qiziqish, nutqiy faoliyat va ijtimoiy moslashuvni shakllantiradi.

Demak, jamoaviy o‘yinlar orqali bolalar nafaqat o‘ynab zavqlanadilar, balki har bir faoliyat markazida hayotiy ko‘nikmalarni amaliy tarzda o‘zlashtiradilar.

Jamoaviy o‘yinlar barcha faoliyat markazlarining samaradorligini oshiradi. Chunki har bir markazda bola faol ishtirok etish, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, fikr almashish va ijod qilish orqali rivojlanadi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarni nafaqat bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishga, balki birgalikda yashash va ishlash madaniyatiga ham o‘rgatadi.

1. Qurish-yasash va matematika markazi bilan bog‘liqligi

Jamoaviy o‘yinlar qurish-yasash faoliyati bilan bevosita bog‘liq, chunki bu markazda bolalar birgalikda qurilish loyihalarini amalga oshiradi, shakl, o‘lcham va sonlar bilan ishlaydi. Masalan, bolalar jamoa bo‘lib “shaharcha quramiz” yoki “ko‘prik yasaymiz” o‘yinlarini o‘tkazish jarayonida:

bir-biri bilan maslahatlashadi,

ishni bo‘lib oladi (kim nima qiladi),

natijada hamkorlik, sabr, fikr almashish, hisoblash va rejalashtirish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Bunday o‘yinlar orqali bola nafaqat matematik tushunchalarni (ko‘p, kam,

baland, uzun va h.k.) o‘zlashtiradi, balki jamoaviy fikrlash va birgalikda mehnat qilish madaniyatini ham o‘rganadi.

2. Sahnalashtirish va drammalashtirish markazi bilan bog‘liqligi

Bu markaz jamoaviy o‘yinlar bilan eng yaqin bog‘liq markazlardan biridir, chunki sahnalashtirish jarayoni o‘zi ham hamkorlik va muloqotga asoslangan o‘yin faoliyatidir. Masalan:

bolalar “Do‘stlik” yoki “Yordamchi qush” kabi sahnalar orqali bir-biriga yordam berishni o‘rganadi;

rollarni taqsimlash jarayonida kelishadi, navbat kutadi, fikr bildiradi;

ifodali nutq, hissiy muloqot va o‘zini jamoa oldida tutish qobiliyatlari rivojlanadi.

Bu jarayon bolalarda ijodkorlik, nutq boyligi, o‘z fikrini ochiq bildirish va boshqalarning fikriga hurmat bilan qarash sifatlarini mustahkamlaydi.

3. Fan va tabiat markazi bilan bog‘liqligi

Fan va tabiat markazida jamoaviy o‘yinlar orqali bolalarda tabiatni o‘rganish, kuzatish va ekologik madaniyatni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Masalan: “Tabiatni asraymiz”, “Kim tez topadi?”, “Barglarni yig‘amiz” kabi o‘yinlar orqali bolalar birgalikda kuzatish, tajriba o‘tkazish va xulosa chiqarishni o‘rganadi.

Guruh bo‘lib ishlash jarayonida jamoaviy mas’uliyat, navbat bilan ishlash va tabiatga ehtiyotkor munosabat shakllanadi.

Bu markazda o‘yinlar orqali bolalar ilmiy qiziqish, tabiatni sevish, birgalikda kashf etish zavqini his etadilar.

4. Til va nutq markazi bilan bog‘liqligi

Til va nutq markazida jamoaviy o‘yinlar bolalarning muloqot madaniyati va so‘z boyligini oshirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan:

“Kim gapni davom ettiradi?”, “Do‘stimni top”, “Sirli so‘z” kabi o‘yinlar bolalarni bir-biri bilan faol suhbatlashishga undaydi.

Jamoaviy hikoya tuzish, savol-javobli o‘yinlar, topishmoqlar orqali bolalar fikrni aniq ifodalash, tinglash va to‘g‘ri javob berishni o‘rganadi.

Bu markaz orqali muloqot, nutq, so‘zlashuv va tinglash madaniyati jamoaviy o‘yinlar asosida rivojlanadi.

Natijada bola jamoada o‘z fikrini ifoda eta oladigan, boshqalarning fikrini eshita biladigan, nutqiy faol va ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllanadi.

5. San’at markazi bilan bog‘liqligi

San’at markazida jamoaviy o‘yinlar orqali bolalar ijodiy ifoda, estetik did

va jamoaviy ijodkorlik ko‘nikmalarini egallaydi. Masalan: “Birgalikda surat chizamiz”, “Gulzor yaratamiz”, “Ranglar orzusi” kabi o‘yinlarda bolalar birgalikda rasm chizish, bo‘yash, loydan yasash yoki kollaj tayyorlash orqali hamkorlikni his etadi.

O‘yin davomida bolalar bir-birining ishiga hurmat bilan qarash, yordam berish va g‘oyalarni birlashtirishni o‘rganadi.

Bunday mashg‘ulotlar orqali bola nafaqat estetik zavq oladi, balki jamoa bilan ijod qilish, o‘z hissasini qo‘shish va birgalikda natijadan faxrlanish hislarini boshdan kechiradi.

1. O‘yin nomi: “Ko‘prikdan birgalikda o‘taylik”

Maqsadi: Bolalarda hamkorlik, muvofiqlashtirilgan harakat va bir-biriga tayanish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Jihozlar: Karton, yog‘och taxtacha yoki matodan yasalgan “ko‘prik”.

O‘yin borishi: Bolalar kichik jamoalarga bo‘linadi (3–4 nafardan). Har bir jamoa “ko‘prikdan” yiqilmasdan birgalikda o‘tishi kerak. O‘yin davomida ular bir-birini ushlab, yo‘l-yo‘lakay yordam berishadi.

Tarbiyachining yo‘naltiruvchi so‘zlari: – “Birgalikda qadam tashlaymiz, hech kimni ortda qoldirmaymiz.”

Muhokama: O‘yin yakunida tarbiyachi bolalardan so‘raydi: – “Bir o‘zing o‘tganingda osonmi, do‘stlaring bilanmi?” – “Do‘stlar bilan birga bo‘lishda nimalarni his qilding?”

Natija: Bolalarda o‘zaro yordam, hamkorlik va ishonch mustahkamlanadi.

2. O‘yin nomi: “Birgalikda rasm chizamiz”

Maqsadi: Jamoada ishlash, umumiy maqsad sari harakatlanish, muloqot ko‘nikmasini rivojlantirish. Jihozlar: Katta oq qog‘oz, bo‘yoqlar yoki flomasterlar.

O‘yin borishi: Bolalar 3–4 kishilik kichik jamoalarga ajratiladi. Har bir jamoa bitta umumiy rasm chizadi (masalan, “bog‘”, “do‘stlik”, “baxtli oila”). Har bir bola rasmning ma’lum qismini bajaradi.

Tarbiyachining izohi: – “Har biringiz chiroyli rasm chizing, lekin yodda tuting — bu rasm hammamizniki!”

Muhokama: Rasm tugagach, tarbiyachi so‘raydi: – “Rasmni yakka chizganda ham shunday chiroyli bo‘larmidi?” – “Kim do‘stiga yordam berdi?”

Natija: Bolalar jamoa ishining ahamiyatini anglaydilar, muloqot va

kelishuv ko'nikmalari shakllanadi.

3. O'yin nomi: "Yordamchi qo'l"

Maqsadi: Bolalarda yordam berish, g'amxo'rlik, diqqat va birdamlikni rivojlantirish. Jihozlar: Kichik o'yinchoqlar, savatchalar.

O'yin borishi: Bolalar juftliklarga ajratiladi. Bir bola "ko'zlarini yumadi", ikkinchisi unga yordam berib, o'yinchoqlarni savatchaga joylashtiradi. So'ng rollar almashadi.

Tarbiyachining yo'naltiruvchi so'zi: – "Do'stimizga yordam berish uchun nima qilish kerak? Uni qanday yo'l bilan to'g'ri boshqaramiz?"

Muhokama: – "Yordam berganingda nimalarni his qilding?" – "Do'sting yordam berganda senga yoqdimi?" Natija: Bolalarda empatiya (boshqani tushunish) va o'zaro yordam madaniyati rivojlanadi.

4. O'yin nomi: "Biz bir jamoamiz!"

Maqsadi: Bolalarda jamoaviylik, muloqot va tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirish.

Jihozlar: Rangli karton, belgilar, musiqiy fon.

O'yin borishi: Bolalar 2 jamoaga bo'linadi. Har bir jamoaga topshiriq beriladi:

1-jamoa — hayvonlar rasmini joylashtiradi;

2-jamoa — o'simliklar rasmini joylashtiradi.

Ammo topshiriqni bajarish uchun ular navbat bilan yugurib borib, jamoasining umumiy kartasiga rasm qo'shishlari kerak.

Tarbiyachining izohi: – "Biz bitta jamoa sifatida harakat qilamiz. Har kimning ishi muhim!" Muhokama: – "Jamoangiz qanday ishladi?". – "Kim boshqalarga yordam berdi?"

Natija: Jamoada hamkorlik, tezkor fikrlash, muloqot va mas'uliyat hissi kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

10. Karimova, V. M. Bola shaxsining ijtimoiylashuvi psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.

11. G'aybullayeva, S. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

12. Yo'ldosheva, M. R. Bolalar o'yin faoliyati orqali shaxs rivojlanishi. — Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021.

13. Zokirova, M. N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. — Toshkent: Istiqlol, 2019.

14. Raxmonova, G. B. Bolalarda muloqot va hamkorlikni shakllantirish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

15. Abdullayeva, D. Sh. O‘yin faoliyati orqali bolalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

16. Vygotskiy, L. S. O‘yin va bola rivojlanishi. — Moskva: Pedagogika, 1991 (rus tilidan tarjima asosida foydalanilgan).

17. Elkonin, D. B. Psixologiya igri (O‘yin psixologiyasi). — Moskva: Pedagogika, 1989.

18. Smirnova, E. O. Igra v detskom sadu (Bolalar bog‘chasida o‘yin). — Moskva: Mozaika-Sintez, 2017.

19. Jalilova, S. T. Bolalar jamoasida muloqot madaniyatini shakllantirishda o‘yinlarning ahamiyati. — “Pedagogik innovatsiyalar” jurnali, №3, 2022.

BOLALARDA JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA “SYUJETLI-ROLLI VA SAHNALASHTIRISH” MARKAZINING AHAMIYATI

Istamova Sitorabonu Isom qizi
Karmana tumani “Bilol kids” davlat xususiy sherikchilik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar uchun jamoada ishlash ko‘nikmalarining muhiligi yoritilgan. Shu bilan birgalikda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantririshda bolalarning “syujetli-rolli va sahnalashtirish” markazidagi o‘yinlarining ahamiyati haqida keltirilgan. rolli o‘yinlarning turlari uning bolalaning rivojlanish soha kompetensiyalariga ta’sir etishi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, rolli o‘yinlar, sahna, qo‘g‘irchoqlar, kasbga oid atributlar integratsion faoliyat,tarbiyachi, bola, “syujetli-rolli va sahnalashtirish markazi, teatr turlari.

Аннотация: В статье подчеркивается важность навыков командной работы для детей. Также рассматривается значение детских игр в центре «Сюжетно-ролевой и постановочной деятельности» в развитии навыков командной работы. Приводятся виды ролевых игр и их влияние на развитие компетенций детей

Ключевые слова: Дошкольное образование, ролевые игры, сцена, куклы, профессиональные качества, интегративная деятельность, воспитатель, ребенок, «сюжетно-ролевой и постановочный центр», виды театра.

Abstract: This article highlights the importance of teamwork skills for children. At the same time, the importance of children's games in the "plot-role-playing and staging" center in developing teamwork skills is presented. Types of role-playing games and their impact on children's developmental competencies are given.

Keywords: preschool education, role-playing games, stage, dolls, professional attributes, integrative activities, educator, child, "plot-role and staging center", types of theater.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida kechayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-ma’naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarish keskin rivojlanib borayotganligi - jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko‘ndalang qo‘ymoqda. Darhaqiqat, kelajak poydevori bo‘lgan, har jihatdan mas’uliyatli, ma’naviy etuk, ahloqan pok, bir so‘z bilan aytganda jamiyat taraqqiòti uchun munosib hissa qo‘sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning syujetli-rolli va sahnalashtirish markazidagi olib borgan faoliyat jarayoni, o‘zaro bir-birlari bilan muloqotda bo‘lishi va o‘yin jarayoni − bolalarning iqtidori, ob’ektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir.

Shu bilan birgalikda bolalarda ertaklarni sahnalashtirish orqali ularga milliy va axloqiy tarbiya berish nazarda tutilgan. Shu bilan birgalikda bolalaning jamoada ishlash ko‘nikmasi shakllanadi. Syujetli-rolli va sahnalashtirish markazida bollar qo‘g‘irchoq teatiri uning turlari va qo‘g‘irchoqlarni yasash borasida ham ko‘rsatmalarga ega bo‘ladilar. Yana shuni ham aytish kerakki, ertaklarni sahnalashtirish orqali bolalarda ijtimoiylashuv, jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

ADABIYOTLARNI TAHLILI VA USULLARI: Syujetli-rolli o‘yinlarni boshqarishda pedagog oldida turgan asosiy vazifalar:

- o‘yinning faoliyat sifatida rivojlanishi;

-o‘yinni bolalar jamoasi va alohida bolalarni tarbiyalash maqsadida qo‘llash.

O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning taa’kidlashlaricha, o‘yinli

faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog‘liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi. O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O‘yinning faoliyat sifatida rivojlanishi bolalar o‘yinlari tematikasini kengaytirish, ularning mazmunini chuqurlashtirish demakdir. O‘yinda bolalar ijobiy ijtimoiy tajribaga ega bo‘lishlari kerak, shuning uchun unda kattalarning mehnatga bo‘lgan mehri, do‘stlikka, o‘zaro yordamga bo‘lgan ehtiyojlari aks etishi kerak. Yaxshi o‘yin belgilari: diqqatni jamlab va maqsadga muvofiq o‘ynash qobiliyati, sheriklarning qiziqish va istaklarini inobatga olish, yuzaga kelayotgan nizolarni do‘stona yo‘l bilan hal qilish va qiyin vaziyatlarda bir-biriga yordam berish. Syujetli-rolli o‘yinlar tarbiyalanuvchilarga xos ijodiy o‘yinlarning asosiy qatlami hisoblanadi. Ular qurilish, teatr va boshqa o‘yinlarga xos elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Maktabgacha ta’lim oluvchilar uchun syujetli-rolli o‘yinlar manbai tevarak-atrofdagi narsalar, odamlar, tabiat, bolalar va kattalarning hayoti va faoliyati hisoblanadi.

NATIJALAR: Bolalarda jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda birgalikda syujetli-rolli va sahnalashtirish markazidagi o‘yinlarni ko‘rib chiqamiz.

Sentyabr			
Mavzu (rollar)	**Maqsad, vazifalari**	**O'yin jihozlari va harakatlari**	**Jamoa bilan ishlash**
1. Supermarket. Sotuvchi -haridor; G'aznachi-haridor; Haridor-haridor	1. Bolalarni o'yin mavzusini, undagi rollarni, ishtirokchilarning rollarini, bajarilishi kerak bo'lgan o'yin harakatlarini og'zaki tarzda ifodalashga o'rgating. 2. Bolalar rollarini nutqlarida ifodalashlari, roldagi munosabatlarni erkin o'rnatishlari, o'yin davomida suhbat o'tkaza olish qobiliyatlarini rivojlantirish. 3. Bolalar o'rtasidagi mehr-oqibatli do'stona munosabatlarni rivojlantirish. Qo'llash usuli: rollarni taqsimlash, o'zaro aloqa.	Non va sut mahsulotlari bo'limlari. Sut va don mahsulotlarining maketlari, kassa, pul, cheklar. Bolalardan sut va non mahsulotlarini sotadilar. Kassaga kelib pul to'laydilar, kassir esa chekni beradi.	Do'konga ekskursiya uyishtirish, o'yindagi mahsulotlar va harakatlarni aks ettirgan rasmlarni tomosha qilish.

Mavzu (rollar)	**Maqsad, vazifalari**	**O'yin jihozlari va harakatlari**	**Jamoa bilan ishlash**
2. Oila. Ona - qizi - ota; Ona - ota - bolalar; Ona - qizi - shifokor; Ona qizi; Yana bir ona qizi bilan.	1.personajlarning bir-biri ta'sirini shakllantirish. 2. Bolalarni syujet-rolli o'yinlarda har xil kundalik syujetlarni aks ettirishga o'rgatish. 3. Mavzuni aniqlash, syujet, rollarni belgilash, turli xil rollarga asoslangan dialoglarga kirishish qobiliyatini rivojlantirish. 4. Bolalar o'rtasida bir-birlariga bo'lgan do'stona munosabatlarini rivojlantirish Qo'llash usuli: bunda asosiy rol bolaga yuklanadi, rollar taqsimlanadi, o'yin davomida rollarni o'zgartirish mumkin.	Shirma, oshxona idishlari, dasturxon, fartuk, sharf. Ota ishga ketishga tayyorlanmoqda. Ona oilasiga qayg'urmoqda, ovqat tayyorlab ularni ovqatlantirmoqda. Ona qizini shifoxonaga olib bormoqda (uning tomog'i og'rimoqda).	"Mening oilam" mavzusida suhbat oilb borish, Barmoq –barmoq o'yinini birgalikda o'ynash

Mavzu	Maqsad, vazifalari	O'yin jihozlari va harakatlari	Jamoa bilan ishlash
3. Quruvchilar. Quruvchilar – haydovchi; quruvchilar – quruvchilar.	1. Quruvchilarning mehnatlarini aks ettirishga o’rgatish. 2. Uy-joy binolarini mustaqil ravishda qurishga mahsulotlarni tanlashi va ularni syujet-rolli o’yinida ishlatish qobiliyatlarini rivojlantirish. 3. Syujet-rolli o’yinda do’stona munosabatlarni rivojlantirish. Qo’llash usuli: rollarni taqsimlash, o’zaro aloqa.	Katta qurilish – g‘ishtlari, kublar, konuslar, silindrlar va mashinalar. Ishtirokchi bolalar garaj qurishadi, haydovchilar materiallar olib kelishadi. Mashinalarni garajga qo’yishdi.	“Quruvc hilar” o’yinini lego orqali o’ynash, konstruktor o’yinlari, “Uycha” ertagini sahnalashtirish .
Mavzu	**Maqsad, vazifalari**	**O'yin jihozlari va harakatlari**	**Jamoa bilan ishlash**
4.Avtobus. Haydovchi – yo'lovchi; Yo'lovchi – chiptachi; Yo’lovchi – yo'lovchi	1. O’yin muhitini yaratishda tabiiy mavjud narsalardan (363tellar, katta qurilish materiallari) yordamida o’rgatish. 2. Tarbiyachi bilan rollarni almasha olishi, yangi o’yin pozitsiyasiga muvofiq harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish. 3. Madaniy xulq-atvor va muloqot qoidalariga rioya qilish qobiliyatini tarbiyalash. Qo’llash usuli: rollarni taqsimlash, o’zaro aloqa. Rollarni taqsimlash, aloqa (asosiy rolda bola, qo’shimcha rolda tarbiyachi, o’yin davomida rollarning o’zgarishi).	Avtomobillarnin g joylashuvi, ruli, chiptalar Haydovchi mashinani boshqaradi, chiptachi chiptalarni sotadi, odamlar ish joyiga, uyiga, ziyoratga ketishadi.	Abdurah mon Akbarning “G’aroyib avtobus” kitobini o’qish, haydovchi o’yinini o’ynash

5.Kasalxona-oilaviy roliklinika-dorixona. Shifokor - bemor; Shifokor- hamshira; Hamshira - bemor; Farmatsevt - bemor.	1. O'yin muhitini tabiiy mavjud narsalar va ularning o'rnini bosuvchi vositalar orqali yarata olishga o'rgatish. 2. Tengdoshlari bilan o'zaro ro o'ynash munosabatlarni rivojlantirish (o'yin roliga asoslangan dialogni yaratish, unda bir-birlari bilan muzokara olib borish qobiliyatini rivojlantirish). 3. Bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stona munosabatlarni tarbiyalsh Qo'llash usuli: rollarni taqsimlash, o'zaro muloqat	Shifokorning ust va bosh kiyimi, fonendoskop, termometr, vitaminlar, retseptlar. Shifokor bemorni tinglab ko'radi, tiliga, tomog'iga qaraydi, retsept yozib beradi, dorixonadagi tibbiyot hodimi esa retseptlar asosida dori beradi.	Applikasiya mashg'ulotida vitaminlarga boy bo'lgan "Meva" mavzusida, tasviriy faoliyatdan "Kuz sovg'alari" mavzusida faoliyat olib borish

Oktyabr			
Mavzu (rollar)	**Maqsad, vazifalari**	**O'yin jihozlari va harakatlari**	**Jamoa bilan ishlash**
1. Supermarket. Sotuvchi-haridor; Sotuvchi-do'kon rahbari; Sotuvchi-g'aznachi; Haridor-g'aznchi.	1. roldagi bolalar xulq-atvorini shakllantirish. 2. Bolalarni o'yin mavzusi, undagi roli va boshqa bolalarning rollarini, bajariladigan o'yin harakatlarini og'zaki ko'rsata olishga o'rgatish. 3. O'yin qahramonlarini o'rnini bosadigan narsalardan foydalanish, rollardagi dialogni ruza olish, bir-birlariga o'zaro ta'sir o'tkaza olish qobiliyatlarini rivojlantirish. 4. Axloqiy xulq-atvor va muloqot qoidalariga rioya qilish qobiliyatlarini tarbiyalash. Qo'llash usuli: rollarni taqsimlash, roldagi dialoglarni faollashtirish.	Do'kon burchagi, o'yinchoq mahsulotlar, savatlar, kassa, cheklar, pullar.	Qambar otaning "Toshrolvon va ishrolvon" haqidagi kitobidan parcha o'qish, «Quvnoq do'kon» o'yinini o'ynash.

2. Paroxod. Kapitan - yo'lovchilar; Yo'lovchilar - yo'lovchilar; Kapitan - dengizchilar; Yo'lovchilar dengizchilar.	1. Bolalarni turli xil rollarga asoslangan dialoglarda qatnashishga o'rgatish, rollarning o'zgarishiga qarab dialog mazmunini mustaqil o'zgartira olishlariga erishish. 2. Tarbiyachi bilan o’zaro rollarini o'zgartira olishi, yangi o'yin pozitsiyasiga muvofiq harakat qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish (turli xil rollardagi dialoglar). 3. O'yinda axloqiy xatti-harakatlar va o’zaro muloqot qoidalariga rioya qilish qobiliyatlarini rivojlantirish. Qo’llash usuli: rollarni taqsimlash, qo'shimcha rollarga o'zgartirish kiritish (tarbiyachi-yo'lovchi, dengizchi).	Kema modeli va ruli, g'ildiraklari, durbinlar, teleskop, chiptalar. Dengiz sayohati.	Hans Kristian Andersenning “Suv parisi” ertagini o’qish
Mavzu (rollar)	**Maqsad, vazifalari**	**O'yin jihozlari va harakatlari**	**Jamoa bilan ishlash**
3.Oila. Ona- qizi; Ona - qizi bo'lgan yana bir ona; Ona- shifokor; Ota - ona - bolalar.	Maqsad: 1. Bolalarni o’zaro rol munosabatlarini o'rnatishga o'rgatish. 2. Belgilangan rollarni o'zgartira olish, amaldagi rolga muvofiq rolli dialogga kirishish, haqiqiy va xayoliy o'yin sharoitida harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish. 3. O’yin orqali bolalar o’rtasidagi do’stona munosabatlarni tarbiyalsh. Qo’llash usuli: rollarni taqsimlash, ikkinchi asosiy rolni joriy etish – shifokrga bolasi bilan kelgan ona (muloqat).	Oshxona anjomlari, choynak piyolalar, mevali o’yinchoqlar, qo'g'irchoq mebellari. Ona otasini ishga kuzatadi.	«Oila» mavzusida shajara daraxtini o’rganish, “Mening onam” mavzusida har bir bola bir so’z bilan ifodalsh o’yinini o’ynash

MUHOKAMA: Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, jamoani shakllantirishning o‘ziga xos uslubiy asoslari yo‘q. Bu ishtirokchilarni birlashtirishi va hissiy qulaylik muhitini yaratishi lozim bo‘lgan maxsus tanlangan vazifalar, mashqlar, o‘yinlar to‘plamidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarida jamoaviy munosabatlarni tashkil etishga doir ilmiy-amaliy tajribalarni o‘rganish tarbiyalanuvchilarda jamoaviy

ko'nikmalarni tarkib toptirishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozimligini ko'rsatdi:

- jamoaviy mashg'ulotlarda bolalarning yoshga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim;
- jamoaviy munosabatlarni tashkil etishda tarbiyalanuvchilar o'rtasida do'stlik, bir-biriga yordam berish, hamkorlik sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratish;
- bolalar bilan ochiq chexra va muloyimlik bilan suhbatlashish;
- kattalar (tarbiyachilar, ota-onalar) va bolalarni do'stona hamkorligini ta'minlash;
- jamoaviy munosabatlarda raqobatlashishga doir mashg'ulotlarni kamroq o'tkazish;
- diqqatini jalb qilishga qiynaladigan, tez-tez chalg'ib qoluvchi bolalar bilan xushmuomala bo'lish;
- mashg'ulotlarni tashkil etishda yetarlicha metodik va didaktik ta'minotini ta'minlash;
- o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish;
- jamoaviy mashg'ulotlardan o'zini chetga olib qochuvchi bolalar bilan alohida shug'ullanish, ularni o'zini erkin his etishi uchun yaqin insonlarini mashg'ulotlarda birga ishtirok etishini ta'minlash;
- tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatini baholamaslik;
- jamoaviy ko'nikmalarni o'zlashtirishda oila a'zolarining yordamiga suyanish;
- jamoaviy mashg'ulotlar, ularning mazmuni, turlari, o'tkazish bosqichlari, jamoaviy munosabatlarni tashkil etishning tashkiliy, didaktik, metodik va pedagogik-psixologik shart-sharoitlari haqida tarbiyachilarga muntazam bilim berish, metodik yordam ko'rsatish.

Yuqorida bayon etilgan jihatlarni hisobga olish nafaqat jamoaviy mashg'ulotlarning sifati, samaradorligi, turli-tumanligini ta'minlaydi, balki bolalarda jamoaviy ko'nikmalar va ijtimoiy fazilatlarni tarkib toptirishga ham ijobiy ta'sir etadi. Syujetli-rolli rivojlanish markazida bolalar faoliyati orqali bolalarda ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik ko'nikmasi rivojlanadi. Shu bilan birgalikda bu markazning jihozlanishi va u yerdagi atributlar bolaning bilish jarayoning rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning olgan bilim ko'nikma va malakalarining hayotga tadbiq etishning ilk boshqichlaridan biri bu markaz deyishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'limning Davlat standartining tarkibiy qismlari ilk va

maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari; maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi; maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me’yorlaridan[51] iborat bo‘lib mazkur talablar maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini belgilab beradi.

XULOSALAR: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda samaradorlikka erishishda bolalarning syujetli-rolli rivojlanish markazidagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. bolalarga jamoaviy faoliyatni o‘rgatish dastlab dastlab markaz mavzusiga mos ravishta bolalarnin fe’l-atvor xususiyatlarini inobatga olgan holda rollar taqsimlanadi. Syujetli-rolli markaz faoliyatining vazifasi har bir bolaning tajribasiga ma'lum ijtimoiy harakatlarni kiritishdir: kelishish, istaklar, qiziqishlarni muvofiqlashtirish, tartibni kuzatish, vazifani bajarishda do‘stga yordam berish. Shuningdek, sahnalashtirish jarayonida bolalar tanlagan vaziyatlarga tushib olishadi. Tarbiyachi bolalarga o‘zaro yetarlicha o‘zaro ta'sirning madaniy shakllarini namoyish etadi, o‘zaro ta'sirning konstruktiv yo‘llarini ko‘rsatadi va tushuntiradi, bolalarni nafaqat o‘z qiziqishlari va istaklarini, balki boshqa bolaning qiziqishlari va istaklarini hisobga olgan holda samarali o‘zaro ta'sirga yo‘naltiradi. Avvaliga bolalar faqat umumiy joyga kilishadi, shu bilan birga vazifalarni alohida-alohida bajarishadi. Kelgusida vazifa yanada murakkablashadi - faoliyat maydoni keng tarqalgan bo‘lib, vazifa keng tarqalgan bo‘ladi. Buning uchun bolalardan jamoaviy harakatning ma'lum usullarini o‘rganishni talab qiladi, bu ularga kattalar tomonidan ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, bolalar o‘zlari uchun muammoli vaziyatga tushib qolishadi. Bir tomondan, bola tarbiyachi nimani taklif qilishi (qiziqarli o‘yin) bilan qiziqadi, boshqa tomondan, bola ma'lum shartlarni bajarishi kerak, faqat bunda o‘yin faolligi mumkin. Shu tarzda tashkil etilgan o‘zaro ta'sirda bola yangi yo‘llarni izlashga majbur bo‘ladi, chunki eski, o‘rnatilgan xulq-atvor stereotiplari (olib qo‘yish, har doim birinchi bo‘lish, birovning kuchidan foydalanish yoki har doim kuchliroq bo‘lish, boshqa boladan shikoyat qilish, kurashish va boshqalar) yangi sharoitlarda kattalar tomonidan ilgari surilgan o‘zaro ta'sir sharoitlari tufayli qabul qilinmaydi. Bu lahza bolaning kattalarga bo‘lgan e'tiboriga hissa qo‘shadi, chunki u madaniy normalar va samarali o‘zaro ta'sir shakllarini ko‘taruvchi kattalardir. Tarbiyachi tomonidan taklif etilgan va namoyon bo‘lgan samarali o‘zaro ta'sirning madaniy shakllarini qabul qilib, bola yangi ijtimoiy tajriba oladi.

[51] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son Qarori.

Tarbiyachining rahbarligi va nazorati ostida u yangi ijtimoiy harakatlarni ishlab chiqadi va mustahkamlaydi. Bir qator mashg'ulotlar davomida turli sheriklar bilan bir xil harakat o‘ynaladi. Shunday qilib, bola turli xil sheriklar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi, buning natijasida birgalikdagi faoliyatdagi o‘z pozitsiyasini o‘zgartirish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”.

2. 1. Vygotskiy L. S. Psikhologiya razvitiya cheloveka: sb. statey [Inson taraqqiyoti psixologiyasi].

3. F.E Dmitrievna "KATTALAR – BOLA" TIZIMIDA QO‘SHMA FAOLIYATNING TOMSK TEXNOLOGIYASI

4 .“Ilm yo‘li” variativ dastur 6 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash. T.: 2022

5.K.A.Eshpo‘latov,M.M.Rizayeva “Fan va tabiat rivojlanish markazida ta’limiy faoliyat o‘quv qo‘llanma”. T.:2021.

6.Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A “O‘yin orqali ta’lim berish” Uslubiy qo‘llanmasi, T – 2020

7. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Nazarova V.A., Mikaylova U.T., Abdunazarova N. F., Zakirov A. A., Isxakova M. R., Umirzakova N. R. “Oila va mahalla bilan hamkorlik” Uslubiy qo‘llanmasi, T – 2020.

O‘YIN ORQALI RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM METODLARINI JORIY ETISH.

Boboxolova Zarifa Toshbotirovna – Karmana tumani “Bilol kids” davlat xususiy sherikchilik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori

Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning intellektual, ijtimoiy, nutqiy, jismoniy va emosional salohiyatini ochish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida bola rivojining asosi shakllanishi inobatga olinsa, bu jarayonda ta’limning shakl va uslublari, metodik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shular orasida eng samarali va tabiiy yondashuvlardan biri bu – o‘yin orqali rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini joriy etishdir.

O‘yin – bu bolalar uchun tabiiy ehtiyojdir. Bola o‘yin orqali atrof-muhitni o‘rganadi, muloqot qiladi, harakatlanadi, his-tuyg‘ularini ifodalaydi va ijod qiladi. Rivojlantiruvchi o‘yinlar esa bolada muayyan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, tafakkur, tasavvur, xotira, nutq, diqqat, motorika kabi psixologik funksiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogikada konstruktiv, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o‘yin metodlarini ta’lim jarayoniga joriy qilish orqali nafaqat bolalarning bilim olishini, balki ularning mustaqil fikrlash, ijod qilish, guruhda ishlash va hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini ham shakllantirish mumkin.

Shuningdek, milliy dastur va konsepsiyalarda ham maktabgacha ta’lim sifatini oshirishda o‘yin texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Xususan, 2030-yilgacha mo‘ljallangan Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirish strategiyasi ham innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, o‘yin asosidagi ta’lim shakllarini keng joriy etishni nazarda tutadi.

Demak, bu mavzuni o‘rganish orqali:

- bolalar rivojlanishida o‘yin metodlarining ilmiy-nazariy asoslari aniqlanadi;
- real ta’lim jarayonida uchraydigan muammolar tahlil qilinadi;
- ilg‘or tajriba va tavsiyalar ishlab chiqiladi;
- pedagoglarga amaliy ko‘mak beriladi.

Mazkur loyiha nafaqat maktabgacha ta’lim tizimi uchun dolzarb, balki ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi metodik yechimlarni taklif etish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik nuqtayi nazardan, o‘yin – bu ta’limning tabiiy shakli hisoblanadi. U orqali ta’limiy maqsadlar yengil va quvnoq tarzda, bolalarning faol ishtiroki bilan amalga oshiriladi. O‘yin metodi – didaktikaning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, quyidagi pedagogik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi:

- **Bilim berish:** O‘yin orqali bola yangi axborotlarni tezroq va qiziqarli tarzda o‘zlashtiradi. Masalan, ranglar, sonlar, shakllar, harflar o‘yinda yaxshiroq esda qoladi.
- **Ko‘nikmalarni shakllantirish:** O‘yinlar orqali nutq, mantiqiy tafakkur, kuzatuvchanlik, muvofiqlashtirish, eslab qolish, ifodali fikrlash kabi ko‘nikmalar shakllanadi.
- **Ijtimoiylashtirish:** Guruhli o‘yinlar orqali bola jamoadorlik, tengqurlari bilan muloqot qilish, navbat kutish, nizolarni hal qilish kabi ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarini egallaydi.

- **Tarbiya berish:** O‘yin orqali axloqiy, estetik, irodaviy sifatlar (mehr-shafqat, halollik, sabr-toqat, g‘alabaga intilish) tarbiyalanadi.

O‘yin turlari va ularning ta’limiy ahamiyati

Turli o‘yin turlari bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi

O‘yin turi	**Ta’limiy ahamiyati**
Didaktik o‘yinlar	Bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash
Rolli o‘yinlar	Ijtimoiy rollarni tushunish, emotsional sezgirlik
Harakatli o‘yinlar	Jismoniy rivojlanish, koordinatsiya, tezlik
Dramatik o‘yinlar	Ijodiylik, ifodali nutq, tasavvur
Qurilish-o‘yinlari	Fazoviy fikrlash, mantiqiy tartib, mehnatga bo‘lgan munosabat

O‘yin va rivojlantiruvchi ta’lim uyg‘unligi: Rivojlantiruvchi ta’limning asosiy tamoyillari – individual yondashuv, faoliyatga tayangan o‘rganish, bolaga erkinlik berish – aynan o‘yin faoliyatida mukammal amalga oshadi. O‘yin bolani faollikka undaydi, bu esa uning tashabbuskorligi va mustaqilligini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘yin vositasida bolaning nutqi, diqqat-e’tibori, eslab qolish qobiliyati, tafakkuri tabiiy va quvnoq muhitda shakllanadi.

1. Rolni o'ynash (Rolli o'yinlar)

Rolni o'ynash o'yinlari bolalarga turli ijtimoiy vazifalarni bajarish, boshqalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu o'yinlar yordamida bola turli kasblarni va rollarni o'rganadi, bu esa uning empatiya va ijtimoiy tushunishni rivojlantiradi. Masalan, "doktor va bemor" o'ynash orqali bola kasalliklar va sog'liqni saqlash masalalari haqida bilim oladi, shuningdek, o'z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o'rganadi. Rolni o'ynash bolalar o'zlarini turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday tutishni, qanday muammolarni hal qilishni va turli sharoitlarda qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishni o'rganadilar.

Misollar:

"Doktor va bemor" o'yini: Bolalar bir-biriga "doktor" va "bemor" rollarini berib, sog'liqni saqlash va tibbiyot sohasida o'zlarini qanday tutishlarini o'rganadilar. Bu o'yin yordamida bolalar inson organizmi haqida ma'lumot olishadi va empatiya ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

"Do'kon va xaridor" o'yini: Bu o'yin yordamida bolalar savdo-sotiq jarayonini o'rganadilar, xarid qilish, narxlarni belgilash va mijozlar bilan muloqot qilishni mashq qiladilar. Ular savdo va iqtisodiyotning asosiy tushunchalarini

o'zlashtiradilar.

2. Konstruktor o'yinlari

Konstruktor o'yinlari, masalan, Lego bloklari yoki boshqa qurilish o'yinlari bolalar uchun fazoviy tafakkurni, mantiqiy fikrlashni va yaratuvchanlikni rivojlantirishda muhim vositadir. Bu turdagi o'yinlar bolalarga ob'ektlar va shakllar haqida ko'proq ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi. Konstruktor o'yinlarida bolalar turli shakllarni, o'lchamlarni va naqshlarni qurish orqali ular bilan muloqot qilishni o'rganadilar. Bu metod bolalarga muammolarni hal qilishda yordam beradi, chunki ular o'yin davomida har xil to'siqlarni bartaraf etish uchun yangicha fikrlarni ishlab chiqishadi.

Lego bloklari: Lego bloklari yordamida bolalar turli shakllarni, binolarni, mashinalarni va boshqa obyektlarni qurishadi. Bu o'yin bolalarga o'z fikrlarini konkret shakllarda ifodalash, muammo yechish va kreativ yondashuvni o'rganish imkonini beradi.

"Qurilish maydoni" o'yini: Bolalar turli konstruktorlar yordamida inshootlar quradilar, bu esa ularni fazoviy tafakkurni rivojlantirishga undaydi. Ular ob'ektlar va strukturalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadilar.

3. San'at va ijodiy o'yinlar. San'at va ijodiy o'yinlar bolalarning tasavvurini kengaytirishga, ranglar, shakllar va kompozitsiya bilan ishlashga yordam beradi. Bu o'yinlar yordamida bolalar ijodiy ifodalanish, estetik did va tasavvurini rivojlantiradilar. Rasm chizish, kollaj yaratish, bo'yash va boshqa san'at shakllarini qo'llash bolalarga o'z fikrlarini vizual ravishda ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, musiqiy va raqs o'yinlari orqali bolalar ritmni, musiqani va jismoniy harakatlarni uyg'unlashtirishni o'rganadilar. Bu turdagi o'yinlar bolalarning ijodiy tafakkurini va hissiy intelektini rivojlantiradi, shu bilan birga bolalarning o'z-o'zini ifodalashga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Rasm chizish va bo'yash: Bu o'yinlar orqali bolalar ranglarni, shakllarni va kompozitsiyani o'rganadilar. Ular o'z hissiyotlarini, tasavvurlarini va fikrlarini rasm orqali ifodalashadi. Masalan, "tabiat manzarasi" yoki "hayvonlar dunyosi" mavzularida rasm chizish.

"Shakl va ranglar" o'yini: Bolalar turli rangdagi va shakldagi buyumlar bilan o'yin qilib, ularning ranglarini va shakllarini o'rganadilar. Bu o'yin bolalarning estetik didini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Ilm-fan va tabiat o'yinlari

Ilm-fan va tabiatga oid o'yinlar bolalarga atrof-muhitni o'rganish va tabiat hodisalarini tushunishda yordam beradi. Bu o'yinlar bolalar uchun tabiiy dunyo bilan bevosita aloqada bo'lish imkoniyatini yaratadi. Ekologik o'yinlar orqali

bolalar tabiatni asrash, resurslarni tejash va ekologik mas'uliyatni o'rganadilar. Ilmiy o'yinlar bolalarga o'zlarini ilmiy kashfiyotlarga yo'naltirish va yangi bilimlarni o'rganish imkoniyatini beradi. O'yinlar orqali bolalar fizika, kimyo, biologiya kabi fanlar asosida eksperimentlar o'rganadilar va kuzatish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Ekologik o'yinlar: "Tabiatni asraylik" o'yini orqali bolalar atrof-muhitni qanday himoya qilish, chiqindilarni to'g'ri ajratish, o'simlik va hayvonlar dunyosini qanday saqlash haqida o'rganadilar. Bolalar tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

"Qushlar va o'simliklar" o'yini: Bu o'yinda bolalar o'simliklar va hayvonlarning turli turlarini o'rganadilar. Masalan, "Qushni top!" o'yinida bola qushlarning turli turlarini taniydi, ularning yashash muhitlari va o'rni haqida bilimga ega bo'ladi.

"Eksperimentlar" o'yini: Kimyo yoki fizika asosida o'yinlar, masalan, suyuqliklarni aralashtirib, yangi moddalarni olish orqali bolalar ilm-fan haqida qiziqarli va interfaol tarzda ma'lumot olishadi.

5. Jismoniy va harakatli o'yinlar. Jismoniy va harakatli o'yinlar bolalarning jismoniy salomatligini yaxshilash, mushaklarni mustahkamlash va harakat ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Bunday o'yinlar bolaning tana shaklini, muvozanatini va qo'l-oyoqlarini boshqarish qobiliyatini oshiradi. Jismoniy o'yinlar bolalar uchun ko'ngilochar bo'lib, ularni faol tarzda shug'ullanishga undaydi. Bu o'yinlar shuningdek, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, chunki bola guruhda o'ynash orqali hamkorlik qilishni, raqobatni va jamoada ishlashni o'rganadi.

"Futbol" yoki "basketbol" o'yinlari: Ushbu jismoniy o'yinlar bolalarga jismoniy kuchni va harakatni muvofiqlashtirishni o'rgatadi. Ular tezlik, koordinatsiya va jamoaviy ishlashni rivojlantiradilar.

"Ko'prikdan o'tish" o'yini: Bolalar yotgan yoki turli darajadagi to'siqlardan o'tish orqali o'z muvozanatlarini rivojlantiradilar. Bu o'yin bolalarning motor ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

1. Qurish-yasash va matematika markazi

O‘yin metodlari:

- ✓ Konstruktor o‘yinlari (lego, bloklar bilan qurish)
- ✓ Shakllar va figuralar yig‘ish (geometrik o‘yinlar)
- ✓ Raqamli tangramlar, sanash va qiyoslash o‘yinlari

O‘ziga xos jihatlar: Bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi; Qo‘l harakatlarini muvofiqlashtiradi; Raqam va shakl tushunchalarini mustahkamlaydi

Amaliy misol: "Qasr quramiz" o'yini orqali bolalar sanash, navbatma-navbat ishlash, simmetriya tushunchasini o'rganadi.

2. Til va nutq markazi

O'yin metodlari:

- ✓ So'z boyligini kengaytiruvchi o'yinlar ("Ayt, top", "Nimani tariflayapman?")
- ✓ Dialogli rolli o'yinlar (do'kon, mehmonlik, kasb tanishuv)
- ✓ Hikoya tuzish va hikoya davom ettirish o'yinlari

O'ziga xos jihatlar: Og'zaki nutq va izchillikni rivojlantiradi; Dialog va muloqot madaniyatini shakllantiradi; Leksik va grammatik ko'nikmalarni mustahkamlaydi

Amaliy misol: "Kasblar shaharchasi" rolli o'yini orqali bolalar kasblarni nomlaydi, gap tuzadi, vaziyatda to'g'ri so'zlashishni o'rganadi.

3. San'at markazi

O'yin metodlari:

- ✓ Ranglar va shakllar bilan bo'yash o'yinlari
- ✓ Kollaj yaratish, mustaqil san'at asari yasash o'yinlari
- ✓ Musiqa ostida surat chizish (tasavvur va his-tuyg'uni ifodalash)

- the use of technical means without a speaker(for example, video presentation)he preparation of a Multimedia presentation is somewhat complex, using interactive elements consisting of graphics, video, animation, sound and text. The forms of presentation can be different: for a lecture in an auditorium, in the form of a stand in showrooms, in a magazine, on television or radio, etc. Presentations can be made as follows:

-when the speaker does not use auxiliary tools;
- the use of technical means without a speaker(for example, video presentation);
-in the speaker with the help of auxiliary means

Multimedia is a comprehensive approach to delivering educational materials to students using software and hardware tools.

Multimedia is now from a very fast-growing modern information technology, which includes the following traditional types of information: text, table, various decorations and original types of information: nutk, music, telekadrs, excerpts from video clips, boards, animated view information.The use of multimedia in the teaching process is considered one of the most convenient ways to increase the quality and effectiveness of teaching. Audio-vidio communication, carried out using Multimedia tools, increases the student's interest in the lesson and the desire to acquire knowledge. Multimedia tools including audiocolonque, microphone, videoproector, webcam, TV tuner, CD-ROM v.AuAudio-vidio communication, carried out using Multimedia tools, increases the student's interest in the lesson and the desire to acquire knowledge. Multimedia tools including audiocolonque, microphone, videoproector, webcam, TV tuner, CD-ROM v.h.Lar enters.

Multimedia tools allow the reader to shugull individually. The reader will be able to master the material mustakil even without the direct participation of the injector. Innovation – (English “innovation” – innovate) is an important part of system internal structure transformation, practice and theory. and pedagogical innovation is a means of enriching and developing the theoretical and practical aspect of education and upbringing by introducing changes in pedagogical activity that were previously unknown in the educational process. This means that the innovation process is the introduction of innovation and the conditions and changes that ensure the successful transition of the system to new indicators.

The methodology lies not in what technical means or books you use, but in how your education is organized.he methodology lies not in what technical means or books you use, but in how your education is organized. Today, Education uses modern technologies such as" mental attack"," thought attack"," networks "method," Sinkwein"," BBB"," fifth surplus"," 6x6x6"," controversy","Rolli O" yin", FSMU," working in small groups"," Zig-zag"," last word I say ""Venn diagram"," Bloom taxonomy".

Developing students' ability to think creatively and independently is recognized as one of the most important quality indicators of the education system.

Because in this changing market economy, only a person with the ability to think independently can independently solve his problems on his own. It is considered useful both for himself and for the family, everyone will have their own position in society. Such an ability is necessarily formed at first in the family, and later in educational institutions. When the teacher adapts these techniques to each lesson and approaches them in a new way, decorates them with News, the student learns with interest.[59]

One of the main goals of the modern educational system is to ensure the universal, moral, civil and spiritual development of the individual. It is in this process that upbringing classes take an important place. However, the process of upbringing based on traditional styles does not always correspond to the requirements of the times, especially the perceptual characteristics of the digital generation. For this reason, the integration of information and communication technologies (ICT), in particular multimedia, into educational lessons is considered not only as a pedagogical innovation, but also as a strategic direction for improving educational efficiency.

Multimedia tools are modern information resources that combine text, sound, image, animation, video and interactive elements. Through their use in parenting classes, abstract concepts (e.g. patriotism, justice, kindness, accountability) are conveyed to students on a visual, emotional, and experiential level. For example, in the formation of national values, videos reflecting the life and activities of historical figures, documentary frame materials displayed through an interactive whiteboard, or multimedia presentations prepared by readers will help to deeply master moral concepts.

In addition, ICT tools also serve as an effective tool in implementing active teaching techniques (e.g. "BBB" - *I know, I know, I know*; "Venn diagram"; "role play"; "Zig-zag", etc. In the process of working in groups, searching for information, analyzing, presenting, students develop not only knowledge, but also competencies such as communication, cooperation, critical thinking.n addition, ICT tools also serve as an effective tool in implementing active teaching techniques (e.g. "BBB" - *I know, I know, I know*; "Venn diagram"; "role play"; "Zig-zag", etc. In the process of working in groups, searching for information, analyzing, presenting, students develop not only knowledge, but also competencies such as communication, cooperation, critical thinking. This directly coincides with one of the main tasks of upbringing - the upbringing of a socially active citizen.

[59] https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/13376/9363/10115

Another advantage of integrating multimedia tools in educational classes is the possibility of providing an individual approach. Each student can familiarize himself with information at his own pace, in the direction of his interest and in accordance with his personal needs, process it and demonstrate it in a creative way. For example, on the topic" moral choice", readers are shown a video scene that reflects various life situations, then they express their thoughts through an electronic forum, a blog or a multimedia presentation. Such an approach develops a high level of cognitive skills such as creative thinking, moral assessment, and personal position formation.

Internet resources are also widely used in the upbringing process. For example, civil education, human rights, interactive courses in environmental culture, video tutorials, infographics of international organizations such as UNESCO, UNICEF give students insight into global ethical standards. At the same time, New topics such as information security, maintaining moral standards in the virtual world, protection against false information are also being included in educational classes, which, when implemented through ICT tools, gives the most effective result.

Conclusion. In conclusion, the improvement of the educational process in modern primary education is a systematic, multifactorial and scientifically based process, in which the personal will of the teacher, the external support system, the scientifically based methodology and the moral and spiritual environment should take their place. It is on this path that it is possible to form only a stable, fair, humane and competitive education system, which serves to achieve the goals in the strategic documents of the Republic of Uzbekistan "strategy for the development of the education system by 2030" and "Uzbekistan-2030".

Literature used:

1.Decree of the president of the Republic of Uzbekistan PF-5847 of October 8, 2019The concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030.

2.Decree of the president of the Republic of Uzbekistan No. 4884 of November 6, 2020 "on additional measures to further improve the educational system".

3.Decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 187 of April 6, 2017 "on approval of state educational standards of General secondary special, vocational education".

4. M. Ochilov. Teacher is the architect of the heart. Textbook: Teacher. 2004

5.N. Egamberdieva, Social Pedagogy. Textbook. Uzbek State University named after Alisher Navoi. T.: 2009.

6. Theory and history of pedagogy. R. Mavlonova and others. – Tashkent, science and technology. 2010.
7. Khasanova B. Pandnomals - a source of spirituality. -T., 1997.
8. Khasanov R., Khasanova B. The era of the Eastern Renaissance and pedagogical ideas of this period. -T.: MRDI, 2000.E-learning resources:
1. https://www.lex.uz – National database of legal documents of the Republic of Uzbekistan.
2. http://www.rtm.uz - The website of the Republican Education Center

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DO‘STLIK VA HAMKORLIK MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi professori v.b
Sattorova Sarvaroy Toxir qizi
Navoiy davlat universiteti 70110201-ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda do‘stlik va hamkor-lik tushunchalarini shakllantirishning ahamiyati hamda bu jarayonning davlat siyosati bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilinadi.Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan hujjatlar asosida ijtimoiy-psixologik tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari yoritilgan.Shuningdek, bolalarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali jamiyatda barqarorlik,bag‘rikenglik va insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlash yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar:do‘stlik, hamkorlik, maktabgacha yosh, ta‘lim siyosati, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, ma’naviy tarbiya.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ У ДОШКОЛНИКОВ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О ДРУЖБЕ И СОТРУДНИЧЕСТВЕ

Аннотация. Данной статье аналиризируется значение формиравания у детей дошкольного возраста понятий дружбы и сотрудничества, а также

их тесная взаимосвязь с государственной политикой.В исследовании раскрыты цели и задачи социально-психологического воспитательного процесса на основе документов, направленных на развитие системы дошкольного образования республики Узбекистан. Кроме того,представлены пути развития и укрепления социально-эмоциольных навыков у детей.

Ключевые слова: дружьба, сотрудничество, дошкольный возраст, образовательная политика, социально-эмоциональное развитие, духовное воспитание.

METOHODS FOR DEVELOPING THE CONCEPTS OF FRIENDSHIP AND COOPERATION IN PRESCHOOL CHILDREN

Annotation. This article analyzes the importance of developing the concepts of friendship and cooperation among preschool-age children, as well as the close connection of this process with state policy.The study highlights the goals and objectives of the socio-psychological education process based on the documents aimed at developing the preschool education system of the Republic of Uzbekistan. In addition, the article presents ways to develop and strengthen children’s social-emotional skills.

Key words: friendship, cooperation, preschool age, education policy, social-emotional development, moral education.

Bugungi globallashuv davrida jamiyatning barqaror rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, hurmat va do‘stlik munosabatlariga bevosita bog‘liqdir.Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu fazilatlarni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayoninig eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarning shaxs sifatida shakllanishida birlamchi ijtimoiy muhit bo‘lib, u yerda bola jamoadagi o‘z o‘rnini anglaydi, hamkorlikni o‘rganadi va ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib boradi.

Maktabgacha ta’lim tizimi O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi 2019- yil 16-dekabrdagi 595-sonli **‘‘Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonun** [60]shuningdek, Prezidentning **‘‘Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida’’gi farmoni,** bolalarda ijtimoiy-emotsional, axloqiy va kommunikativ kompitensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi.

Mazkur siyosiy hujjatlar asosida bolalarda do‘stlik, o‘zaro yordam, bag‘rikenglik, hurmat va hamjihatlik fazilatlarini rivojlantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bunda tarbiyaviy ishlarning mazmuni milliy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari hamda fuqarolik ma’sulyatini shakllantirish g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan.

Davlat siyosatining ushbu yo’nalishdagi asosiy maqsadi – yosh avlodni jamiyatning faol, ma’sulyatli va hamkorlikka tayyor a’zolari sifatida tarbiyalashdir. Shu maqsadda, maktabgacha ta’lim muassalarida “Do‘stlik haftaliklari”, “Birgalikda ijod” liyihalari, “Hamkorlik o‘yinlari” kabi pedagogic dasturlar amalga oshirilmoqda. Ular bolalarda bir-birini tinglash, yordam berish, umumiy natijaga intilish kabi ijtimoiy-emotsional fazilatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda do‘stlik va hamkorlik tushunchalarini shakllantirish – bu davlat siyosati, pedagogik jarayon va ma’naviy tarbiyaning yagona tizimidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning asarlari, nutqlari va qabul qilgan qarorlarida ilgari surilgan insonparvarlik g‘oyalari bu jarayonning asosiy tamoyillarini belgilab beradi.Do‘stlik va hamkorlikni erta yoshdan o‘rgangan bola kelgusida ijtimoiy faol, ma’suliyatli, jamoada ishlay oladigan, vatanparvar inson sifatida voyaga yetadi. Shu bois, har bir tarbiyachi va ota-ona o‘z faoliyatida bu qadriyatlarni chuqur anglab, ularni hayotga tadbiq etishi zarur. Bu borada Prezident tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan “ Oila va maktab hamkorligi” tizimi, “Mehrli qo‘llar” loyihasi, “Barkamol avlod” dasturlari do‘stlik va ijtimoiy faollikka erta yoshdan boshlab rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Uhbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda do‘stlik va hamkorlik tushunchalarini shakllantirish jarayonini chuqur tahlil qilish, mazkur jarayonning psixologik, pedagogic va ijtimoiy asoslarini aniqlash hamda samarali ta’limiy texnalogiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini yoritib berishdan iborat. Bolalarda do‘stlik va hamkorlik sifatlarini rivojlantirish orqali ularda bir-birini tinglay olish, o‘z fikrini madaniyatli ifoda etish, tengdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘yinchoqlarni bo‘lishish, jamoaviy o‘yinlarda faol ishtirok etish, muammoli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar shakllantiriladi.Shu bilan birga, mazkur sifatlar bolalarning kelgusidagi maktab ta’limiga tayyorgarligini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini, ijtimoiy moslashuvini va jamoada o‘z o‘rnini topa bilish qobiliyatini mustahkamlaydi.Maqolaning yana bir muhim jihati pedagoglar, tarbiyachilar va ota-onalar uchun bolalar o‘rtasida ijobiy muloqot, do‘stona muhit va hamkorlik ruhini shakllantirishda qo‘llaniladigan metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Mazkur yondashuvlar yordamida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har bir bolaga o‘z qobilyatlarini namoyon qilish, boshqalar bilan hamjihatlikda faoliyat yuritish va sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi

.Maktabgacha yoshdagi bolalarda do‘stlik va hamkorlik tushunchalarini shakllantirishning ahamiyati, avvalo, ularning ijtimoiy rivojlanishida mustahkam poydevor yaratishi bilan izohlanadi. Bu jarayon bolalarning shaxs sifatida kamol topishiga, boshqalar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatishiga va jamoada o‘z o‘rnini topishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, do‘stlik va hamkorlik bolalarning **ijtimoiy-emotsional barqarorligini** kuchaytiradi. Mehribonlik, hurmat, o‘zaro yordam kabi sifatlarning shakllanishi ularni ijobiy munosabatlar tizimiga olib kiradi, stress va nizoli vaziyatlarni yengilroq yengishga yordam beradi. Ikkinchidan, mazkur tushunchalarning rivojlanishi bolalarning **muloqat madaniyatini** boyitadi. Fikr almashish, tinglay olish, mulohaza yuritish va muammoni muloqot orqali hal qilish kabi ko‘nikmalar keying ta’lim bosqichlarida ham muhim o‘rin tutadi. Uchinchidan, do‘stona va hamkorlikka asoslangan ijtimoiy muhit bolalarda **ijtimoiy moslashuv** jarayonini osonlashtiradi. Bunday muhitda bolalar o‘zini xavfsiz his qiladi, o‘yin va mashg‘ulotlarda faolroq qatnashadi, guruhda o‘zini erkin tutadi. To‘rtinchidan, tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan mazkur jarayonga e’tiborning kuchayishi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida **sog‘lom psixologik muhit**ning shakllanishiga xizmat qiladi, bu esa nafaqat alohida bola, balki butun guruhning ijtimoiy faoliyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, do‘stlik va hamkorlikning erta yoshda shakllanishi bolalarning keyinchalik jamiyatga kirib borishi, jamoada ishlashi, mas’uliyatni his qilishi va o‘zaro hurmat tamoyillariga amal qilishi uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada olib boriladigan tadqiqot va pedagogik faoliyay natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilishi kutiladi. Xususan, bolalar o‘zaro yordam, mehribonlik, hurmat, sabr-toqat va hamjihatlik kabi ijtimoiy fazilatlar mustahkamlanadi. Ular tengdoshlar bilan muloqot qilishda madaniyatli yondashuvni qo‘llay boshlaydi, bir-birini tinglash, fikr almashish, o‘z nuqtayi nazarini tinch va asosli tarzda ifodalash, nizoli vaziyatlarni bahsga bormasdan hal qilish kabi ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay oladi. Shuningdek, bolalarning jamoaviy faoliyatga bo‘lgan qiqishi ortib, ular guruhli o‘yin va mashg‘ulotlarda faol mas’ulyatli va tashabbuskor ishtirok etishi ta’minlanadi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar samaradorligi oshib, guruhda sog‘lom psixologik muhit

shakllanadi, bu esabolalarning o‘zini erkin, xavfsiz va jamoaning teng huquqli a’zosi sifatida his qilishi sifatida his qilishiga yordam beradi. Tadqiqot natijalarining amaliy qo‘llanilishi ota-onalar ishtirokini ham kuchaytirib, bolalarning maktab ta’limiga ijtimoiy va psixologik jihatdan tayyorgarligini mustahkamlaydi hamda pedagogik jarayonning umumiy sifatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarda do‘stlik va hamkorlik tushunchalarini shakllantirish ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, muloqot madaniyati va jamoaviy faoliyatga tayyorgarligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot orqali tasdiqlandi. Bolalarda do‘stlik va hamkorlik sifatlari shakllanganda ular bir-birini tinglash, fikr almashish, o‘z nuqtayi nazarini hurmat bilan ifoda etish, muammoli vaziyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi.

Shuningdek, pedagoglar va ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, o‘yin va mashg‘ulotlar orqali bolalarda ijobiy ijtimoiy muhit yaratish, guruh ichida ishonch va hamjihatlikni mustahkamlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish, ularni maktab ta’limiga tayyorlash va pedagogik jarayon sifatida oshirishda amaliy tavsiyalar sifatida foydalanish mumkunligini ko‘rsatadi.Natijada, do‘stlik va hamkorlik erta yoshda shakllantirish nafaqat bolalarning shaxs sifatida rivojlanishiga, balki ularning kelajakdagi ijtimoiy muvaqqiyatiga ham poydevor yaratadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2019-yil 16-dekabrdagi **595-sonli** ‘‘ Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida’’ gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni
2. Hujjat-PF-98 son Farmon (2024-yil 2-iyul) ‘‘Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida ’’
3. O‘zbekiston Respublikasi ‘‘ Ta’lim to‘g‘risida’’ gi Qonun.
4. Jo‘rayeva, K. (yil). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanishning asosiy bosqichlari. Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali.
5. Abdulatipova, M, Q. (yil). Maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantirish. Obrazovanie, nauka I innovatsionnye idei v mire.
6. Tuychiyeva, Z. B. (yil). Maktabgacha yoshdagi bolalarda

ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirish metodlari. Ilmiy maqola.

7. Vaxabova, O. T., & Tursunaliyeva, S. (yil). Lev Vygotskiy va uning psixologik maktabi. Ilmiy maqola.

O'QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISHDA LOYIHALASHTIRILGAN TA'LIMNING O'RNI

Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi, 2-bosqich tayanch doktorant
Email: abdusalomovamaftuna34@mail.com, Tel 913398891

Botirova Dilafruz Ochilboyevna
Navoiy shahar 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi. email: botirovadilafruz43@mail.com, Tel 907324396

Annotatsiya: Mazkur tezisda loyihalashtirilgan ta'limning o'quvchilarning bilish (kognitiv) faolligini oshirishdagi o'rni tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: loyihalashtirilgan ta'lim, kognitiv faollik, bilish jarayoni, mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat, interfaol metod, pedagogik texnologiya.

Аннотация: В данном тезисе проанализирована роль проектного обучения в повышении познавательной (когнитивной) активности учащихся..

Ключевые слова: проектное обучение, когнитивная активность, познавательный процесс, самостоятельное мышление, творческая деятельность, интерактивные методы, педагогическая технология.

Abstract: This thesis analyzes the role of project-based learning in enhancing students' cognitive activity.

Keywords: project-based learning, cognitive activity, learning process, independent thinking, creative activity, interactive methods, pedagogical technology.

Bugungi kun ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri - o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, mustaqil fikrlash, izlanish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-noyabrdagi "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida "gi PQ-4537-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq

ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi "Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4963-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-36-sonli qarorlari bilan ta’lim sohasida ilmiy-amaliy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy metodikalar va ilg‘or pedagogik yondashuvlarni joriy etish vazifalari belgilangan.

Ushbu direktiv hujjatlarda o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishda innovatsion o‘qitish usullari, integratsiyalashgan yondashuvlar, amaliy-tajriba asosidagi ta’lim metodlarini tatbiq etish vazifalari belgilangan. Bu esa nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning kasbiy yo‘nalishini ongli tanlashiga zamin yaratadi. Shuning uchun zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri – o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish va nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish hisoblanadi. O‘quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtiradigan, ularni mustaqil fikrlashga, kuzatishga, tahlil qilishga undaydigan laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlari, faol va interfaol usullar hamda muammoli ta’lim va loyihalashtirish texnologiyalari an’anaviy ta’lim usullari bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

O‘qitish usulining didaktik maqsadga muvofiq holda tanlanishi ularning bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Loyihalashtirilgan ta’lim to‘g‘ri pedagogik yondashuv bilan integratsiyalashganda o‘quvchi bilimlarni egallash bilan chegaralanib qolmasdan, uni izohlab, mustaqil fikr yurituvchi va o‘zlashtirgan bilimlarini turli vaziyatlarda amaliy qo‘llay oladigan faol subyektga aylantiradi.

Loyihalashtirilgan ta’lim usuli o‘quvchilarga aniq bir maqsad va vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan faoliyatni taqdim etadi. Ushbu usul o‘quvchilarni mustaqil izlanish, tahlil qilish, muammolarni hal qilish va ijodiy yechimlar ishlab chiqishga jalb qiladi.

Х.Э.Абдулшехидова loyiha faoliyatini o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishdagi ahamiyati uning motivatsion, kognitiv, ijodiy va emotsional-xulqiy komponentlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi bilan bog‘liq ekanligini ilmiy asoslab bergan. Tadqiqotchi loyiha faoliyatining tuzilmasini o‘zaro bog‘liq bo‘lgan asosiy

komponentlarini quyidagicha ko'rsatgan:

1) motivatsion – bilishga bo'lgan qiziqish va ijobiy munosabat;
2) kognitiv – bilim va ko'nikmalarning shakllanganligi;
3) operatsional-ijodiy – mustaqillik va ijodiy faoliyatga tayyorlik;
4) emotsional-xulq-atvor – o'zini-o'zi tashkil qilish va tahlil qilishga bo'lgan munosabat hamda ijobiy hissiy kechinmalarni namoyon bo'lishi [5].

Loyiha usulini ta'limda qo'llashda aniq bir vazifani yechish va turli usullarni qo'llash bilan bir qatorda fan, texnika va texnologiya sohalarining bilim va ko'nikmalarini integratsiyalash talab etiladi. Shu sababli, agar o'quv jarayonida ijodiy yoki tadqiqot ishlarini hal qilish, tadqiqot-izlanishli usullarni qo'llash yoki turli sohalardan integratsiyalangan bilimlarni ishlatish talab etilsa, loyiha usulidan foydalanish zarur, deb hisoblaydi M.M.Raximov [8].

Mazkur usulni qo'llash jarayonida, deb yozadi Л.И.Говоркова, o'quvchilarda bilish faoliyati va ijodiy ko'nikmalar rivojlanadi, tanqidiy fikrlash qobiliyati shakllanadi, o'z bilimlarini mustaqil ravishda konstruktivatsiya qilish va ma'lumotlar maydonida yo'nalish olish qobiliyatlari rivojlanadi [6]. Bu esa pedagogik hamkorlik muhitining mukammalligini oshiradi.

O'quvchilarning bilish motivatsiyasini oshirish, faol ishtirokini ta'minlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda H.Soatova tomonidan taklif etilgan debat, izlanish, evristik suhbat, kichik guruhlarda ishlash kabi faol ta'lim usullari muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Zamonaviy texnologiyalar va faol o'qitish metodlari o'quvchilarni dars jarayonining faol subyektlariga aylantirib, bilimlarni chuqur o'zlashtirish hamda individual ta'limiy trayektoriyani shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [9].

В.В.Гузеев pedagogik jarayonning integral modelini elementi sifatida, asosiy urg'uni bilish natijalarini bayon qilishdan ularni qo'lga kiritish jarayoniga (ya'ni jarayonli texnologiyalarga) ko'chirishni quyidagi texnologiyalar vositasida amalga oshirishni tavsiya qilgan:

– tadqiqot shaklida – muammoni qo'yish, gipotezalarni ilgari surish va sinovdan o'tkazish, g'oyalarni yaratish va h.k., shu jumladan loyiha faoliyati;
– kommunikativ-dialogik, munozarali shaklda – nuqtai nazarlarni aniqlash va taqqoslash, pozitsiyalarni aniqlash, dalillar tanlash va qo'llash;
– o'yin, modellashtirish shaklida – predmet-mazmun doirasida, ya'ni imitatsion-o'yin, ijtimoiy-psixologik rolli o'yinlar [7].

Loyihalashtirilgan ta'lim orqali o'quvchilar bilimni chuqur o'zlashtirib, mustaqil tahlil, mantiqiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi orqali, o'quvchi o'z ta'lim faoliyatining mas'ul subyekti sifatida

tarbiyalanadi. Natijada ta’lim jarayonining mazmuni yangilanadi, o‘quvchilarda o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki motivatsiya shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-noyabrdagi PQ-4537-sonli “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida ”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-sonli "Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-36-sonli Qarori.

5. Абдулшехидова Х.Э. Проектная деятельность как средство формирования познавательной активности младших школьников. 13.00.01-Общая педагогика, история педагогики и образования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Махачкала, 2018. -24 с.

6. Говоркова Л.И. Профессионально-ориентированный подход в процессе обучения физике как средство активизации учебно-познавательной деятельности будущих учителей биологии. Диссертация кандидата педагогических наук. Ур. гос. пед. ун-т.- Курган, 2008.- 171 с.

7. Гузеев В.В. Познавательная самостоятельность учащихся и развитие образовательной технологии. Москва, 2004.

8. Рахимов М.М. Дидактические основы активизации учебно-познавательной деятельности учащихся // Балтийский гуманитарный журнал, 2017. Т. 6. № 4(21). –С. 378-382.

9. Soatova H. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish / Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations. 02 (2022) – Б. 480-484. Journal home page: https://inscience.uz/index.php/socinov/index

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Muhabbat Alimova,
Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi 20-maktabning boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash orqali samarali yo‘l-yo‘riqlar, usullarni to‘g‘ri tanlab ko‘rsatish va amalda samarali qo‘llash orqali o‘quvcilarning bilim sifatini muntazam oshirishi zarurligi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость систематического повышения качества знаний учащихся за счет эффективного руководства, правильного выбора методов и эффективного применения педагогических технологий на практике.

Annotatsiya: This article reflects on the need to systematically improve the quality of knowledge of learners through effective guidance, correct selection of methods and effective application of pedagogical technologies in practice.

Kalit so‘zlar: Pedagohgik taraqqiyot, milliy pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik diagnostika, kibernetik pedagogika.

Ключевые слова: педагогический прогресс, национальная педагогика, педагогическая технология, педагогическая диагностика, кибернетическая педагогика.

Keywords: pedagogical development, national pedagogy, pedagogical technology, pedagogical diagnostics, cybernetic pedagogy.

Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy boylik hisoblanadi. Ular har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi.

Har kuni talaygina yangilik, yangi texnologiyalar ta’limga kirib kelmoqda. Yangi texnologiyalar o‘z tushunchalari, ‘‘tili’’ bilan kirib kelib, fan-texnika taraqqiyotining darajasini asta-sekin yuksaltirmoqda. Mamlakatimiz pedagogik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas, albatta.

Boshlang‘ich sinflarda beriladigan ta’lim o‘quvchilarning har tomonlama kamol topishida, yozma va og‘zaki savodxonlikni shakllantirishda, nutq o‘stirishda ta’limning asosiy poydevori hisoblanadi. Hozirgi rivojlangan davrda ta’lim jarayoning samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik

texnalogiyalardan va interfaol metodlardan foydalanish keng tarqalmoqda.

Hozirgi pedagogikamizni daraxt deb tasavvur qilsak, u ikki hayotbaxsh irmoqdan suv ichadi. Biri – ming yilliklar davomida shakllanib, gavhar zarralaridan hosil bo'lgan milliy tarbiya tajribasi bo'lsa, ikkinchisi — jahonning ilg'or, sinalgan pedagogik innovatsiya yutuqlaridir.

''Yangi pedagogik texnologiya'', ''pedagogik diagnostika'', ''kibernetik pedagogika'', ''test reyting'' kabi tushunchalarning tub mohiyatini o'zlashtirmasdan, ulardan o'quv-tarbiya jarayonlarida foydalanmasdan turib, biz jahon pedagogik integratsiyasida o'zimizning munosib mavqeyimizga erishmog'imiz mushkul bo'ladi.

Interfaol mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot, bu jarayon hamkorlikda kechadi. Interfaol metodlarning qo'llanishi majburiy matematika darsi jarayonini beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, barcha o'quvchilarni bir oz bo'lsa-da, o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs-munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtirok etishga undaydi. Interfaol metodlarning mohiyati o'qitish jarayonida o'quvchi faolligini oshirish, o'quvchini pedagogik faoliyatning markaziy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Maqsadi – demokratik jamiyatning faol fuqarolarini tarbiya qilish. Bunday metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchini o'z fikrini shakllantirishga, ifodalashishga, maqbul yo'lni tanlash va buning uchun ma'suliyat his etishga o'rgatadi.

Ayniqsa, darslik va o'quv qo'llanmalarida, terminologiyada qat'iylik, bir qiymatlilikka erishish kerak. Buning sababi shuki:

- Birinchidan, darslik va o'quv qo'llanmalarda fan erishgan yakuniy natijalar yaxlit holda aks etadi, bu esa bizga uning amaliyotga ta'sirining xarakterini tashxis qilishimizga imkon beradi;

- Ikkinchidan, darslik va o'quv qo'llanmalar olimlar tomonidan yaratiladi. Darsliklar tili ularni o'qiydigan kitobxonlar savodiga bevosita ta'sir etad;

- Uchunchidan, darslik va o'quv qo'llanmalardagi terminologik kamchiliklar ilmiy-tadqiqot ishlarini boshqa tadqiqotchilar tushunishlarini qiyinlashtiradi.

O'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish darajalari har xil, xohish-istaklari turlicha, ular passiv eshituvchi, quloq soluvchi, bu ularning o'quv jarayonidagi mas'uliyatini, javobgarlik hissini susaytiradi. Demak ular mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishdan yiroqda.

Buning uchun biz o'quvchiga "sen buni bilishing kerak" degan majburlovchi da'vatdan "menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotda qo'llashga

qodirman” degan ichki ishonch va intilishni uyg‘otishga o‘tishimiz kerak.

Bundan xulosa pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash orqali o‘qituvchining haqiqiy o‘qituvchilik faoliyatiga o‘tishi, ya’ni u bolani o‘qitishi emas, o‘quvchilarning bilimlarni o‘rganish, o‘zlashtirish bo‘yicha qiyin mehnatiga rahbarlik qilish, ularga qulay, oson, maqsadga tez yetadigan va samarali yo‘l-yo‘riqlar, usullarni to‘g‘ri tanlab ko‘rsatish va amalda samarali qo‘llash orqali o‘z pedagogik mahoratini, o‘quvchilarning bilim sifatini muntazam oshirib borishga erishishdan iborat.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchi faolligini, aqliy salohiyatini, tez va ongli fikrlash qobiliyatini o‘stirishga ham xizmat qiladi. U asosida olib borilgan har bir mashg‘ulot jo‘shqin va qiziqarli o‘tgani holda o‘quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Shunga ko‘ra, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim muvaffaqiyatini ta’minlovchi vuhim omillardan ekanligini e’tirof etamiz va dars jarayonida qo‘llanilganda yuqori natija beruvchi bir necha usullarni havola etamiz.

“YAPROQLAR RAQSI”

O‘quvchilar 4 yoki 6 guruhga bolinadilar, o‘rtadagi stolda qog‘ozdan yasalgan rangli, xilma-xil katta-kichiklikdagi yaproq shakllari joy olgan bo‘ladi.Guruhdagi o‘quvchilarning har biri yaproqlardan bittadan tanlab oladilar va yaproqlar ortiga istalgan so‘zni yozishadi. O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan savatchaga yaproqlarni tashlaydilar. Yaproqlar turli rangda, shakli har xil bo‘lganligi uchun ajoyib manzarani hosil qiladi. Bu o‘quvchilar ko‘zini g‘oyat quvontiradi. Shuningdek, yozishdan charchagan ko‘zlarga dam beradi. O‘quvchilarning estetik didini ham oshiradi. Ularda tabiatga nisbatan mehr ortadi. O‘quvchilar yana 6tadan yaproq oladilar. Guruhlar o‘rtasida nechta yaproq yig‘ilgan bo‘lsa, shuncha gap yoki shu so‘zlardan bog‘lanishli matn tuzish lozim bo‘ladi. Bu og‘zaki nutqni o‘stirishga, uni ravon, boy bo‘lishiga xizmat qiladi. Guruhlarning topshiriqni qay darajada bajara olishi tekshiriladi.bunda o‘zaro topqirlik, hamjihatlik nihoyatda qo‘l keladi. Nechta o‘quvchi topshiriqni bajara olmaganligiga qarab guruhlarga baho beriladi .

“PIRAMIDA”

Bunda chizilgan piramidaning shakli zarur bo‘ladi. Uni multimedia yoki kompyuterda ko‘rsatilsa ham maqsadga muvofiqdir. Piramida shakli o‘quvchi uchun “ilm mamlakati” rolini o‘taydi. O‘quvchilar bir necha guruhga bo‘linadilar. Piramida “ilm mamlakati” deb ko‘rsatiladi. Guruhlarga topshiriq beriladi. Topshiriqlarni to‘g‘ri bajargan guruh yoki o‘quvchi piramidaning

pog'onalaridan bosqichma-bosqich yuqorilaydi.Eng yuqori pog'onani zabt etgan guruh yoki o'quvchi unga o'z bayrog'ini o'rnatadi va g'olib bo'ladi.

Kompyuterda ishlanganda ham g'olib chiqqan o'quvchi yoki guruh "Guruh sardori " yoki "Dars sardori " etib tayinlanadi.

Ushbu usulda AKT dan keng foydaliniladi. O'quvchilar topshiriqni kompyuterda bemalol bajara oladilar. O'quvchilar yoki guruhlar o'rtasida samaradorlikka intilish keskin oshadi. Shu bilan birga bolalarda o'zaro hurmat, ma'suliyat, halollik, e'tibor va tirishqoqlik xususiyatlarini tarbiyalashga ham harakat qilinadi.

ПЕДАГОГИК ОҒИШГАН ЎҚУВЧИЛАРНИ КОРРЕКЦИЯЛАШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ

Азимжонова Рушана Рашид қизи, *Фанлар академияси Навоий бўлими, стажёр-тадқиқотчи*
рушанаазимжонова0@гмаил.сом

Аннотация: *Ушбу мақолада мактаб ўқувчилари хулқида учрайдиган педагогик оғиш жараёнларини коррекция қилишнинг самарали усуллари ёритилган.*

Калит сўзи: *ўсмир, педагогик, оғиш, диагностика, коррекция, метод.*

Аннотация: *В данной статье раскрыты эффективные методы коррекции педагогических отклонений в поведении школьников.*

Ключевые слова: *подросток, педагогика, отклонение, диагностика, коррекция, метод.*

Annotation: *This article describes effective methods for correcting pedagogical deviations in the behavior of school students.*

Keywords: *adolescent, pedagogy, deviation, diagnostics, correction, method.*

Кириш. Замонавий жамиятда ўсмирлар хулқ-атворидаги оғишув (девиант) ҳолатлар муаммоси психология ва педагогика фанининг долзарб йўналишларидан биридир. Чунки ўсмирлик даври инсон ҳаётидаги энг мураккаб, қарама-қаршиликларга бой босқич бўлиб, бу даврда шахснинг характери, иродаси, ахлоқий қарашлари ва ижтимоий фаоллиги шаклланади. Бундай ҳолатлар ўқувчининг индивидуал психологик хусусиятлари — темперамент, эмосионал беқарорлик, иродавий сустлик ёки ўзини назорат қила олмаслик натижасида ҳам юзага келади. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш Концепциясида мактабгача таълимда фанларни

ривожлантирувчи муҳитнинг инновацион технологиялари ва модулларини ишлаб чиқиш,мактабгача ва умумий бошланғич таълим изчиллигининг мазмун ва процессуал компонентларини оптималлаштириш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш зарурлиги келтириб ўтилган [1].

2020 йил 22-декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида"ги 802-сонли қарорлари бўйича бир қатор вазифаларни амалга ошириш соҳа мутахассисларнинг педагогик маҳорати ва креатив қобилиятларига нисбатан талабларнинг ортиб бораётганлигини кўрсатади. Мазкур вазифаларни амалга ошириш ҳамда амалиётга жорий этиш мақсадида соҳа мутахассислари олдига катта маъсулият юклайди [2].

Адабиётлар таҳлили ва методлар. Ёш авлодга тарбия бериш – тарбиявий мақсадга йўналтирилган таъсир кўрсатиш, ижтимоий ҳаётда муносабатларга киришиш меъёрлари ва унга риоя этиш талаблари бўйича зарур бўлган шарт-шароит яратишни назарда тутади. Мактаб ўқувчилари билан олиб бориладиган педагогик фаолият самараси, кўп жиҳатдан, ўқувчи шахсига қаратилган – мақсадга йўнилтирилган тарбиявий таъсирга боғлиқ. Бу жараённинг жадал суръатлар билан бориши эса тарбиячи-педагогнинг ўқувчининг характерологик ва ижтимоий-зарур сифатларини шаклланганлик ҳолати ҳамда хулқидаги оғишнинг келиб чиқиш сабаблари ва унга таъсир қилувчи омилларга оид маълумотларга эга бўлишига боғлиқ бўлади.Ҳозирги вақтда ўсмирларнинг девиант хатти-ҳаракатларини профилактика ва коррекциялашда турли методлар қўлланилмоқда. Чунки ўқувчи кўрқоқ, ёлғизликка мойил, ўз қобиғига ўралиб олган ва синфдошлари билан ижтимоий муносабатларда пассив бўлиши – педагогик меъёрдан оғишнинг бир қутби бўлса, унинг қарама-қарши қутуби – жудаям шўх, гиперфаол, тажовузкор, ўқитувчи ва синфдошлари билан низоларга борадиган ўқувчилар ҳисобланади [3].

Г.Т.Ядгарова ва О.У.Авлаев мактабда олиб бориладиган коррекциялаш ва профилактика ишларини режалаштириш ва ташкил этишни, энг аввало, болалар хулқдаги оғишларни, уларнинг таълим мотивациясини ва ахлоқ-одоб маънавиятини аниқлашдан бошлашни таклиф қилганлар [4].

Тайлоқов Н.И. тарбияси оғир ўқувчилар билан ишлашда қуйидаги методлардан фойдаланишни таклиф қилади: - дарсда ва таълим жараёнида ахлоқий тарбиянинг самарали таъсиридан фойдаланиш; - аҳил, иноқ уюштирилган интизомли жамоа орқали ахлоқий тарбия бериш; - самарали

натижаларни кафолатлайдиган тарбиявий тадбирларни ташкил этиш; - ижобий эмоционал муҳит яратиш орқали таъсир кўрсатиш [5].

Д.Ш.Баратова ўсмирларга психологик хизмат кўрсатиш масалаларини ўрганиб, янгича услубий ёндашувлар – ўсмир хулқ-атворининг психологик хусусиятлари, улардаги инқирозли ҳолатлар ва ҳиссиётли кечинмалар ҳақида, хулқ бузилишлар типологияси, психологик таснифларининг эксперимантал маълумотлар асосидаги таҳлили ва шу таҳлиллар асосида психологик хизмат кўрсатиш усулларини таклиф қилган [6].

Натижалар: И.Протасова умумтаълим муассасаси шароитида ўсмирлар ўртасида ҳуқуқбузарликни олдини олишнинг ижтимоий-педагогик жиҳатларини коррекциялашда тавсия қилган методларни тўрт гуруҳга ажратиш мумкин:

1. Характернинг салбий хусусиятларини бартараф этишга қаратилган методлар: "Портлаш", "Характерни реконструкция қилиш".

2. Ўз-ўзини англаш ва мотивацион соҳани қайта қуриш методлари: ўз камчилик ва афзалликларини объектив қайта кўриб чиқиш; ўз-ўзини англашни қайта йўналтириш; ишонтириш; салбий хатти-ҳаракатларни башорат қилиш ва уларни намоён бўлишининг олдини олиш.

3. Ҳаётий тажрибани қайта қуришга қаратилган методлар: қайта ўрганиш; чекловлар; одатий турмуш тарзини тартибга солиш; диққат марказини ўзгартириш.

4. Салбий хулқ-атворнинг олдини олиш ва ижобий хулқ-атворни рағбатлантириш методлари: жазолаш ва рағбатлантириш; мусобақаларда иштирок этиш; ҳаётда ижобий истиқболга эга бўлиш [7].

Муҳокама. Мактабда коррекциялаш ва профилактика тадбирлари мақсадга йўналтирилган бўлиши учун энг аввало диагностика ўтказилади. Диагностика методлари воситасида тарбияси қийин гуруҳга мансуб бўлган ўқувчилар аниқланиб, улар хулқ-атворининг психологик хусусиятлари, хулқ-атворидаги ўзгаришларнинг ёшга боғлиқлиги, оғишларнинг типологияси, психик ҳолатларнинг хулқ-атворга таъсири, объектив ва субъектив омиллар аниқланиб, маълумотлар таҳлил қилинади.

Коррекция самарадорлигини оширишнинг муҳим шартлардан бири – ўқувчида тарбиявий мобилликни шакллантириш бўлиб, коррекцион таъсир объекти муаммони келтириб чиқарувчи ҳақиқий сабабларни билиши ва уларни бартараф этишга эҳтиёжнинг шаклланганлиги билан ифодаланади. Бунинг учун ҳавола қилинадиган маълумотлар статистик фактлар билан тасдиқланган бўлиши ва ўқувчиларнинг ёш жиҳатларини хисобга олиб

тақдим этилиши керак

"Ўқувчини таълим жараёнинг субъекти сифатида шакллантиришни педагогик қўллаб-қувватлаш" деганда ўқитувчининг ўқув жараёнидаги коммуникатив-диалогик фаолияти ва субъективлиги билан бир қаторда, таълим объекти – ўқувчиларнинг иродавий ва ўқув фаолиятларини ташкил қилиши, уларни ўқитиши ва қиймат-семантик муносабатларни ривожлантиришга қаратилган муайян педагогик фаолиятининг тизими тушунилади. Педагогик қўллаб-қувватлаш ўқув машғулотининг турли босқичларида ўқувчининг таълим субъекти сифатидаги позициясини шакллантиришда, ушбу позициянинг намоён бўлиши учун шароит яратишда ҳамда қийинчиликларга дуч келадиган болаларга индивидуал қобилиятларини ривожлантиришда ёрдам беришда ўз аксини топади [8].

Хулоса. Ўқувчилар хулқидаги оғишларни коррекциялаш методларини танлашда оғиш тури ҳамда ўқувчиларнинг индивидуал ва ёш хусусиятлари ҳамда методнинг таъсир қилиш механизмларини ҳисобга олиниши мақсадга мувофиқ бўлади. Салбий педагогик оғишларни коррекциялашда қўлланиладиган методлар ўқувчиларининг салбий ривожланишини кечиктириш ва секинлаштиришга ёрдам бериб, уларни ижодий ва шахсий фазилатларини ривожланишига ҳисса қўшадиган ҳамда ижтимоий муносабатлар ва ҳис-туйғуларининг салбий йўналишини тузатиш имконини бериши керак. Ўқувчилар хулқидаги ижобий педагогик оғишларни коррекциялаш методлари ўсмирларнинг мавжуд потенциалини қўллаб-қувватлаш, ривожлантириш ва рўёбга чиқаришга, шунингдек, бошқалар томонидан нотўғри талқин қилиниши ёки рад этилиши сабабли юзага келадиган муаммоларнинг олдини олишга қаратилиши зарур.

Адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПҚ-4312-сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги "Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сон Фармони.

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.–Тошкент: "Ўзбекистан", 2017. – Б.163

4. Ядгарова Г.Т., Авлаев О.У. Тарбияси қийин, қалтис гуруҳга мансуб болалар билан ишлаш (Услубий қўлланма). -Тошкент: 2007.

5. Тайлоқов Н.И. ва бошқ. Жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка мойил

ўқувчиларни аниқлаш ва уларни тарбиялаш. 1-китоб, Тошкент, ЎзПФИТИ: “Камалак” нашриёти, 2017. – Б. 46.

6. Баратова Д.Ш. Ўсмирларга психологик хизмат кўрсатиш услуби: ўқув услубий қўлланма / Маъсул мухаррир: Г.Қ.Тўлагонова. –Бухоро: “Наврўз”, 2015. – 145 б.

7. Протасова И. Деятельность социального педагога по профилактике делинквентного поведения у подростков в условиях обўеобразовательного учреждения // Социальная педагогика, 2008, № 3. –С.70-79.

8. Гулямов Д.Р., Акрамова Г.Р., Азимжонова Р.Р. К вопросу педагогического отклонения в поведении учашихся: сушностъ, фактори и причини возникновения // Ж., Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2023 йил №4–С. 155-162.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN O‘ZGARISHLAR HAMDA TA’LIM TIZIMINING MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI

Bo‘riyev Ibrohim Salohiddin o‘g‘li
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
ibrohimburiyev94@gmail.com
+998944862222

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining turmush farovonligi va ijtimoiy sohalar rivoji o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, xususan ta’lim, fan va madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi roli tahlil qilinadi. Sovet davrida ta’lim va ilm-fanga ko‘rsatilgan mafkuraviy bosimning oqibatlari hamda oliy ta’lim tizimidagi sifat muammolari ko‘rsatib o‘tiladi. Mustaqillik arafasida O‘zbekiston ta’limi va ilmiy salohiyatini yangilash zaruriyati asoslanadi. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi yillarda ta’lim va ilm-fan tizimining modernizatsiyasi, innovatsion yo‘nalishlarning rivojlanishi va Fanlar akademiyasi faoliyatida erishilgan yutuqlar umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ta’lim va ilm-fanning yangi bosqichga ko‘tarilgani hamda milliy pedagogikaning xalqaro tajribaga integratsiyalashuvini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik, ta’lim va ilm-fan modernizatsiyasi, oliy ta’lim, kadrlar tayyorlash, innovatsion rivojlanish, fan–ta’lim integratsiyasi, ilmiy salohiyat, milliy pedagogika, akademik hamkorlik.

Abstract: This article examines the relationship between the population’s welfare and the development of social sectors, with a particular focus on the role

of education, science, and culture in societal progress. It analyzes the impact of Soviet ideological pressure on the development of education and science, as well as the quality issues that persisted in higher education despite quantitative growth. The study highlights the need to modernize Uzbekistan’s educational and scientific potential on the eve of independence. Furthermore, it summarizes the reforms undertaken after independence, including the modernization of education and science, the development of innovative directions, and the strengthening of the Academy of Sciences. The findings demonstrate that Uzbekistan has entered a new stage of advancement in education and science, accompanied by the integration of national pedagogy into international experience.

Keywords: Socio-economic welfare, education and science modernization, higher education, workforce training, innovative development, science–education integration, scientific potential, national pedagogy, academic collaboration.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь уровня благосостояния населения с развитием социальных сфер, особенно роли образования, науки и культуры в общественном прогрессе. Анализируется влияние идеологического давления советского периода на развитие системы образования и науки, а также качественные проблемы высшего образования, сохранявшиеся несмотря на его количественный рост. Отмечается

Ключевые слова: Социально-экономическое благополучие, модернизация образования и науки, высшее образование, подготовка кадров, инновационное развитие, интеграция науки и образования, научный потенциал, национальная педагогика, академическое сотрудничество.

Aholi farovonligi darajasi mamlakatning faqat iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan emas, balki ijtimoiy sohalarning qay darajada taraqqiy etgani bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Aynan ijtimoiy soha davlatning insonparvarlik siyosatini eng yorqin ifodalaydigan maydondir. Bu sohaning rivojlanish darajasi jamiyatdagi siyosiy muhit, ruhiy barqarorlik va aholining umumiy kayfiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy infratuzilmalar rivoji esa hududlar iqtisodiy salohiyatining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Sovet davrida hukmron bo‘lgan totalitar boshqaruv butun jamiyatga o‘z mafkuraviy bosimini o‘tkazib bordi. Bu bosim ayniqsa ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida kuchli sezildi. Xalqning bilimga, fan yutuqlariga va milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishlari siyosiy manfaatlar yo‘lida yo‘naltirildi. Yangi ziyoli qatlamni shakllantirish, mavjud ziyolilarni esa yo‘q qilish jarayonlari aynan shu mafkuraviy siyosatning bir bo‘lagi edi. Savodxonlikning oshirilishi texnik

taraqqiyot va ilmiy muassasalar tashkil etilishi bilan birga borar edi, biroq ularga mafkuraviy nazorat qat’iy o‘rnatilgan edi.

Savodsizlik tugatilganidan so‘ng, 1941-yilga kelib maktablar soni 5500 dan oshdi, o‘quvchilar soni esa 1 milliondan ortdi. Sovetlarning “madaniy inqilob” siyosati jamiyatning barcha sohalariga kirib bordi. Maktablarda siyosiy tarbiya kuchaytirildi. Ikkinchi jahon urushi natijasida ko‘plab malakali kadrlar halok bo‘lganligi sababli, urushdan keyingi yillarda oliy ta’limni rivojlantirish dolzarb vazifaga aylandi. 1950–1953-yillarda o‘n olti mingdan ziyod mutaxassis tayyorlandi. 1959-yilda 31 ta oliy o‘quv yurtida 88 ming talaba ta’lim olgan bo‘lsa, 1985-yilga kelib oliy ta’lim muassasalari soni 42 taga yetdi va 285 mingdan ortiq talaba tahsil oldi. Biroq miqdoriy o‘sishga qaramay, mutaxassislar sifati bo‘yicha ko‘plab kamchiliklar mavjud edi. Shunga qaramay, fanning ayrim yo‘nalishlarida dunyoga tanilgan olimlar yetishib chiqdi. Ammo buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimi innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etishga to‘sqinlik qilar edi.

O‘zbekistondagi oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida ham mafkuraviy qoliplar kuchli bo‘lgan, fan va xalqaro ilmiy hamkorliklar nazorat ostida olib borilgan. Shunga qaramay, respublikada malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha muayyan tajriba va salohiyat shakllangan edi. Mustaqillik arafasida O‘zbekiston ta’lim tizimi aynan shu mavjud tajribani boyitish orqali jahon ta’lim makonida o‘z o‘rnini topishi zarur bo‘ldi. Yillar davomida mafkuraviy bosim ostida qolgan ta’lim, fan va madaniyatni yangilash, ularni yangi tamoyillar asosida rivojlantirish mustaqillik davrining eng asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Mustaqillikka yaqin yillarda O‘zbekiston rahbariyati ta’lim va fan sohasini tubdan isloh qilish zaruriyatini aniq anglab yetgan edi. I. Karimov 1988-yil 20-noyabrda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasidagi uchrashuvda respublikada ilm-fanning rolini yangi bosqichga ko‘tarish lozimligini ta’kidlab, olimlarga buyruqbozlikni to‘xtatish, ijodiy izlanishlar uchun erkin sharoit yaratish zarurligini aytgan edi. U yoshlar orasidan iste’dodlarni ilmga jalb qilish, ta’lim tizimida tubdan yangilanishlarni amalga oshirishni muhim vazifa sifatida belgilagan.

Mustaqillik yillarida aynan ta’lim tizimi eng ko‘p islohot qilingan, natija bergan sohalardan biri bo‘ldi. Ilm-fan rivojiga alohida e’tibor qaratildi. Zamonaviy fan yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi, tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi ilm-fan taraqqiyotining markaziga aylandi, oliy ta’lim muassasalarida ham ilmiy-tadqiqot faoliyati kuchaytirildi. Fan, ta’lim va ishlab

chiqarish integratsiyasi mamlakatda innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylandi.

1992-yilda Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi ilmiy salohiyatni oshirishda muhim qadam bo‘ldi. 2002-yildagi Prezident farmoni esa ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish jarayonini jadallashtirdi. 350 dan ortiq ilmiy muassasalar faoliyat yuritib, minglab olimlar ilm-fan rivojiga o‘z hissasini qo‘sha boshladi.

Mustaqillik yillarida xalq ta’limi tizimi ham jadal rivojlandi. Milliy pedagogika jahon tajribasi bilan uyg‘unlashdi, yangi pedagogik yondashuvlar shakllandi. Yillar davomida tashqi dunyodan yiroq holda rivojlangan pedagogika endilikda xalqaro ta’lim amaliyotlari bilan integratsiyalashish imkoniga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlarning asosiy e’tibori oliy ta’lim sohasiga qaratilgan. Davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi” oliy ta’limni tizimli modernizatsiya qilish, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish yo‘nalishlarini belgilaydi. Modernizatsiya jarayoni ta’limning eng yaxshi an’analarini saqlagan holda jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga javob bera oladigan tizim yaratishga xizmat qiladi.

Ushbu islohotlar doirasida ta’limning barcha sohalarida quyidagi ustuvor vazifalar hal etilmoqda: har bir shaxsning teng huquqli ta’lim olishini ta’minlash, uzluksiz ta’lim tizimida sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, yangi ta’lim resurslarini jalb qilish va samarali foydalanish mexanizmlarini shakllantirish, shuningdek, ta’lim xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta’lim muassasalari faol ishtirok etishi ta’minlanmoqda.

Texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonida muhim omil sifatida tan olingan bo‘lib, XX asrning 50-yillaridan boshlab ta’lim jarayonini individualizatsiyalash, auditoriya faoliyatini kengaytirish va axborot resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratdi. 2015 yilda qabul qilingan farmonlar oliy ta’lim muassasalari pedagog va rahbar kadrlarini muntazam qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, 2011–2016 yillarda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan dasturlar tizimli monitoring bilan nazorat qilindi. Bu chora-tadbirlar

muassasalarni zamonaviy o‘quv va ilmiy laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchi mehnatini rag‘batlantirish orqali oliy ma’lumotga ega mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar mamlakat kelajagini mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Ular talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhini singdirish, tanqidiy tafakkur va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy laboratoriya va sport inshootlari bilan jihozlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa oliy ta’lim sifatini tubdan oshirish va mamlakatda malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O`zbekiston taraqqiyotining poydyevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1998.
2. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Barkamol avlod
3. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent, O`zbyekiston, 1992.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevningning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. // “Xalq so‘zi”, 8 fevral 2017
5.Ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar va yangiliklar tahlili. Toshkent, 2015.
6.O'zbekiston Respublikasining Mustaqillikka erishish tarixi. Toshkent, 1991.

OLIY TA’LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Samarqand davlat pedagogika insituti
Boshlang’ich va maktabgacha ta’lim
kafedrasi o’qituvchisi
Roziqova Gulchexra Xazratqulovna
gulchehraroziqova1989@g.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar o‘rtasida gender tengligini ta’minlashga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar, ularning afzalliklari hamda amaliyotga joriy etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Gender adolatini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy oliy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘riladi.

Аннотация: В статье анализируются педагогические подходы, направленные на обеспечение гендерного равенства среди преподавателей высших учебных заведений, их преимущества и механизмы реализации. Интеграция гендерной справедливости в образовательный процесс рассматривается как один из приоритетов современного высшего образования.

Abstract: This article analyzes pedagogical approaches aimed at ensuring gender equality among teachers in higher education institutions, their advantages, and mechanisms for their implementation. Integrating gender justice into the educational process is considered one of the priorities of modern higher education.

Kalit so’zlar: gender tengligi, oliy ta’lim muassasasi, pedagogik yondashuvlar, gender sezgirlik, inklyuziv ta’lim, kompetensiya, gender madaniyati, interfaol metodlar, kasbiy rivojlanish, gender stereotiplar, pedagog malakasi.

Keywords: gender equality, higher education institution, pedagogical approaches, gender sensitivity, inclusive education, competence, gender culture, interactive methods, professional development, gender stereotypes, pedagogical competence.

Ключевые слова: гендерное равенство, высшее учебное заведение, педагогические подходы, гендерная чувствительность, инклюзивное

образование, компетентность, гендерная культура, интерактивные методы, профессиональное развитие, гендерные стереотипы, педагогическая компетентность.

Bugungi globallashuv va raqobat muhiti oliy ta’lim tizimida inson kapitalini rivojlantirishda gender tengligi masalasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Pedagoglar faoliyatida gender adolatning qaror topishi ta’lim jarayonining demokratlashuvi, samaradorligi va inklyuzivligini oshiradi. Shuningdek, gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish orqali ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhit va pedagogik madaniyat shakllanadi. Oliy ta’lim muassasalarida gender tengligini rivojlantirish birinchi navbatda pedagoglar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va gender stereotiplarni kamaytirishni taqozo etadi. Pedagoglarda gender sezgirlikni kuchaytirish, ularda gender madaniyatini shakllantirish va talabalarga gender etikasi borasida namunaviy yondashuv ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim muassasalarida gender tengligini rivojlantirish bir qator omillar bilan bog‘liq:

1. Pedagoglarning malaka va imkoniyatlariga teng sharoit yaratish
2. Ayol va erkak pedagoglarning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash
3. Jamoada gender stereotiplarni kamaytirish
4. Talabalarda gender madaniyatini shakllantirishga pedagoglar misol bo‘lishi

Gender tengligini ta’minlashda birinchi pedagogik yondashuv — bu gender sezgir pedagogik yondashuvdir. U o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida gender farqlarini hisobga olgan holda adolatli munosabatni shakllantirishini, o‘quv materiallarining gender neytral tarzda berilishini va o‘quvchilarga teng munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv jamoada gender stereotiplarning kamayishiga, o‘quv jarayonida inklyuziv muhit shakllanishiga yordam beradi.

Ikkinchi muhim yondashuv — kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo‘lib, bu pedagoglarda gender madaniyatiga oid kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Gender kommunikatsiyasi, gender etikasi, gender konfliktlarni boshqarish kabi kompetensiyalar pedagoglarning o‘zaro munosabatlarida adolat tamoyillarini kuchaytiradi.

Uchinchi yondashuv sifatida interfaol pedagogik texnologiyalarga tayanilgan yondashuv alohida o‘rin tutadi. Klaster, debat, munozara, rolli o‘yinlar va case-study kabi metodlardan foydalanish pedagoglarning gender bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayon pedagoglarga genderga

oid muammolarni tahlil qilish, ularga yechim topish va real vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

Inklyuziv pedagogik yondashuv ham gender tengligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv har bir pedagog uchun teng sharoit yaratish, ayol pedagoglarning rahbarlik lavozimlariga tayyorlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlash, oilaviy va kasbiy vazifalarni muvozanatlashtirishga yordam beruvchi muhit yaratishni o‘z ichiga oladi.

Pedagoglarning gender tengligini rivojlantirishda kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan yondashuv ham muhim hisoblanadi. Bu doimiy malaka oshirish kurslarida gender bo‘yicha maxsus modullarni joriy etish, mentorlik tizimini rivojlantirish, genderga oid ichki hujjatlar va ko‘rsatmalar ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Gender tengligini takomillashtirishda oliy ta’lim muassasalari tomonidan gender auditi o‘tkazish, ichki gender siyosatini ishlab chiqish, trening va seminarlar tashkil etish muhim bosqichlar hisoblanadi. Gender talablarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, pedagoglarning gender madaniyatini kuchaytirish va talabalarda gender madaniyatini shakllantirish orqali ta’lim muhitida haqiqiy gender tengligi qaror topadi.

Foydalangan adabiyotlar;

1.Tojiboyeva X.M. Gender madaniyatning zamonaviy shakllarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – Buxoro davlat universiteti, 2022

2.Tojiboyeva X.M. Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari:

3.Йўлдошев Ж., Усмонов С.А. Педагогик технология асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2004.

4.Abdullajonov M.A. Pedagogika universitetlarida dars berish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy fazilatlarini shakllantirish: dissertatsiya avtoreferati. Pedagogika fanlari nomzodi - T.: 1991

5.Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Maqolalar to‘plami – Toshkent, 2007.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY QOBILIYATLARINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI

Djurayeva Perdegul Saidovna –
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim
metodikalari kafedrasi dotsenti
+99894 379 75 75

Dars berish - oddiy mahorat emas, bu yangilik topa oladigan san’atdir.
Jusipbek Aymautov

Annotatsiya: Nutq – bu insonnning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo‘lib hisoblanishi, odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi ekanini, inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nutq vositasida idrok etishi, nutqni o‘stirishda kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limiy zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirish omillarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etishi haqida munozaviy fikrlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, hodisa, ijtimoiy mehnat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, idrok etish, og‘zaki hikoya, matn, model, metod, tafakkur, bilish.

ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ РЕЧЕВОЙ УМСТВЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: Представлены дискуссионные точки зрения о том, что речь является одной из высших, сложнейших духовных задач человека, что она представляет собой специфическую функцию человека, возникшую как средство обмена идеями между людьми в процессе общественного труда, что человек воспринимает предметы и явления внешнего мира с помощью органов чувств и посредством речи, что важно изучать факторы повышения эффективности уроков с детьми младшего школьного возраста за счет использования современных педагогических технологий в развитии речи.

Ключевые слова: речь, феномен, социальная работа, современные педагогические технологии, восприятие, устное повествование, текст, модель, метод, мышление, знание.

PRACTICE OF USING MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENTS' SPEAKING SKILLS IN PRIMARY EDUCATION

Annotation: Disputed views are presented on the fact that speech is one of

the highest, most complex, spiritual tasks of a person, that it is a specific function of a person that arose as a means of exchanging ideas between people in the process of social labor, that a person perceives objects and phenomena in the external world with the help of sensory organs and through speech, and that it is important to study the factors of increasing the effectiveness of lessons in primary school children through the use of modern pedagogical technologies in developing speech.

Key words: speech, phenomenon, social work, modern pedagogical technologies, perception, oral narrative, text, model, method, thinking, knowledge.

Kirish

Dars berish - oddiy mahorat emas, bu yangilik topa oladigan san'atdir.
JusipbekAymautov

Nutq deganda so'zlash jarayoni va uning natijasi tushuniladi. Nutq – bu insonnning eng oliy, murakkab, ruhiy vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamning ijtimoiy mehnat jarayonida kishilar o'rtasida o'zaro fikr almashinuv vositasi sifatida vujudga kelgan spetsifik funksiyasi. Inson tashqi olamdagi predmetlar va hodisalarni sezgi organlari yordamida va nutq vositasida idrok etadi. So'z signalizatsiyasi, ya'ni nutq tufayli odam borliqni umuman, fikran idrok etishi mumkin. Nutq organlari, odam organizmining nutq tovushlari hosil bo'lishida qatnashadigan turli qismlari. Faol nutq organlariga til, lab, yumshoq tanglay, passiv nutq organlariga esa tishlar, qattiq tanglay, burun bo'shlig'i kiradi.

Nutqning tashqi va ichki, og'zaki va yozma turlari bor. Tashqi nutq asosan aloqa bog'lash maqsadlariga xizmat qiladi, shuning uchun u tinglovchilarga tushunarli qilib tuziladi. So'zlanmaydigan va yozmaydigan ichki nutq, ya'ni o'zi uchun bo'lgan nutq ong? O'zini bilish, tafakkur jarayonlarida g'oyat muhim ro'l o'ynaydi. Yozma nutq (xat yozish va o'qish) funksional jihatdan ichki nutq (yozilajak narsani ichida pichirlash, tovush chiqarmasdan o'qish) bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'limki, so'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki boshqichi hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So'zlashuv tili esa o'qilgan matnlarni og'zaki hikoya qilishda namoyon bo'ladi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalga oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etishi kerak.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga ma'naviy kamolot ona tili orqali mujassamlashadi. Ona tili, shu jumladan, o'qish nutq o'stirish ta'lim – tarbiya jarayonidagi eng muhim vositalardandir. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini me'yorlashda, ularning mutanosibligini ta'minlashda, milliy tilning tabiati va o'ziga xos xususiyatini belgilashda, ifoda va talaffuz qonuniyatlarini aks ettirishda ohangdorlik, ya'ni qiroat bilan o'qishning amaliy ahamiyatini o'stirish, adabiy til me'yori va mezonlariga rioya qilish, o'qish, o'qish metodlarini takomillashhtirish yo'llarini izlash va eng qulaylarini amaliyotga tatbiq qilish zarur. Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko'p qirrali hodisadir.

Adabiy til taraqqiyoti barqarorligini ta’minlashda bolalarning yoshlikdan nutqiy qobiliyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim.

Til qonunlarning ta’limga tatbiqi, munosabati bilan bolalarni o‘qishga o‘rgatishdagi usullarni to‘g‘ri qo‘llashi (ko‘rgazmalilik, tarqatib berilgan topshiriqli qog‘ozlar bilan ishlash yo‘llarini bilish) usullari takomillashtiriladi. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarining o‘ziga xos taraqqiy etishini hisobga olish, ayniqsa, ularning ruhiy, fiziologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarga yetarli ahamiyat qilish lozim. Ularga nisbatan e’tiborni kuchaytirish, mehrli va hamisha shirinsuxan bo‘lish zarur. Bola shaxsi pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan juda nozik his-tuyg‘ularga boy bo‘lib, o‘qituvchi ana shu tuyg‘ularni ilg‘ashi. Bola ruhiyatini ko‘rsatishi, ta’lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasiga alohida e’tibor berishi zarur.

O‘qituvchining turli fanlarni o‘qitishdan maqsadi o‘quvchilarning nutq madaniyatini, nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi nutqi o‘quvchilar uchun namunadir. O‘quvchilarning nutqi ravon, tushunarli bo‘lishi uchun eng avvalo uning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga e’tibor berih zarur. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishiga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab qilmaydi. Shuning uchun bu nutq o‘z – o‘ziga qaratilgan sanaladi, uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishiga ega. Yozma nutqning og‘zaki nutqdan yana bir farqi shuki, yozma nutqni ko‘ramiz va o‘qiymiz. Yozma nutqning muvaffaqiyatli chiqishi uchun yig‘ilgan materialni sistemalashtirish, reja tuzish, ishning homaki nusxasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab takomillashtirish va oqqa ko‘chirish zarur.

Taqdiqot natijalari

To‘g‘ri va ifodali gapirish har bir o‘qimishli kishi uchun hayotiy zaruriyat bo‘lib qolgan hozirgi davrda o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatini oshirish muammosi o‘quv-tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biri deb qaralmog‘i kerak. Shuning uchun ham olimlar K.B. Barxin, B.I. Sokolov M.A. Ribnikova va boshqalarning metodik asarlarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘zaro muvofiq holda oshirish masalalariga alohida e’tibor berilgan. Olimlar tomonidan maktabda o‘qitish jarayonida ro‘y berayotgan quyidagi kamchiliklar tanqid qilinadi:

1. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi og‘zaki nutqning hayotiy ahamiyatini hali ham yetarli tushunmayaptilar. Shuning uchun ular maktab maxsus og‘zaki nutqiy qobiliyatlarni oshirish mashqlari o‘tkazishga muhtoj emas, deb hisoblab xato qilmoqdalar. Bunday o‘qituvchilar, o‘quvchi mukammal, bexato yozishni

o'rganib borsa, ularning nutqi o'z-o'zidan o'sib boradi, deb hisoblab amalda og'zaki va yozma nutqning aloqadorligini unutib qo'yadilar.

2. O'quvchilarning nutqi mazmun juhatdan nihoyatda kambag'al va qator kamchiliklarga ega. Chunki yuqori sinflarda o'qituvchi nutq masalasiga e'tibor bermaydi.

Shuning uchun o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqiy qobiliyat va tafakkurni o'stirish, nutq madaniyatini shakllantirish uchun o'qituvchilarga quyidagi tavsiyalardan foydalanish joiz deb hisoblayman:

1. Har bir o'qituvchi o'quvchi nutqiy qobiliyatini o'stirishga mo'jallangan xilma – xil metodik shakl va usullarni foydalanishi.

2. O'quvchilar uchun og'zaki nutqiy qobiliyatlarni o'stirishga mo'jallangan mashqlar tizimini tashkil qilish.

3. O'quvchilar og'zaki nutqni o'stirishga mo'jallangan mashqlar tizimida monologik va dialogik nutq ko'nikmasini hosil qilish.

Endilikda nutq odobi, nutqiy mahorat, notiqlik, notiqlik mahorati maktablar hayotidan keng o'rin olmog'i lozim. Ayniqsa, o'qituvchining nutqida ifodalilik yetarli bo'lsa, albatta, bunday nutq bolalar nutqiga ham ta'sir etadi. Muloqot madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, kishilar o'rtasidagi tinchlik va osoyishtalikning eng muhim tamal toshi ekanligi avvaldan ma'lum. Zero, barcha ma'naviy axloqiy fazilatlarning poydevori, tushunchalari, ko'nikmalri bolalikdan tarkib toptirilsagina, bu poydevor barqaror bo'ladi. Ma'naviy axloqiy fazilatlar tarkibida nutq, muloqot, munosabat madaniyati alohida o'rin tutadi. O'quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda pedagogikaning roli kattadir. Bu o'qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o'quvchilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi.

Munozaralar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq qobiliyatni shakllantirih metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq rivojining tarbiyasi shaxsiy xususiyatlarini o'rganish va o'quvchilar nutqining ravonligini rivojlantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqning o'sishini mustaqil tahlil qilish, o'zaro har tomonlama tavsifnomalar, o'qituvchining kuzatishlari asosida amalga oshadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida nutq muomalasi haqida, "Men boshqa kishilar bilan muomalada qandayman?" mavzusida suhbat o'tkazish.

2. Nutqiy muomaladagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilingan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muomala uslubidagi

salbiy holatlarni yengish.

3. Nutqda pedagog uchun muomalaning hissiy juhatdan qulay bo‘lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlari bilan taqqoslash.

4. Nutqiy muomalada o‘z individual uslubiy pedagogik muomalaning tarkibiy qismlarini egallash sohasidagi ishlar.

O‘quvchilar nutqiy qobiliyatining oshirilishida o‘qituvchi muomalasining juhatlari muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘rinda, bir nechta bosqichlar ajratib ko‘rsatiladi.

Birinchi bosqich – bu o‘quvchini tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardor qilishdir.

Ikkinchi bosqich – nutqiy muomala ob’ektining ya’ni o‘quvchining diqqatini o‘ziga jalb qilishdir.

Uchinchi bosqich – nutqiy muomalani tashkil etish, yangi materialni bayon qilish yo‘nalishida o‘qituvchi o‘quvchilarni bo‘lajak muomalaga, yangi mterialni tushuntirib berishga tayyorlaydi.

To‘rtinchi bosqich - nutqiy muomalaning o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi bo‘lib, uning obrazi “ko‘rish” tizimi bilan birga borish lozim.

Tajribalardan ma’lumki, o‘qituvchining nutqi o‘quvchilarni o‘ziga ergashtirib, ularda ham yoqimli nutq qobiliyatini tarbiyalaydi.

Bolalar nutqiy qobiliyatini rivojlantirishda xalq og‘zaki ijodining ahamiyati katta. Shuning uchun “O‘qish kitobi”da “Ertaklar-yaxshilikka yetaklar” bo‘limi berilgan. Unga kiritilgan ertaklar bolalarni odob – axloqqa o‘rgatishi, ma’naviy juhatdan rivojlanishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Ertaklardagi dehqon va boy obrazlari o‘quvchilar ongida yaxshi va yomondan nafratlanish, undan yiroqlashish kerakligi haqida tasavvur hosl qilai. Maqtanchoqlik, adolatchilik, ochko‘zlik juda yomon odat ekanligi, saxiylik, do‘stga mehribon bo‘lish, rostgo‘ylik insonning ma’naviy yuksalishga yordam berishi uqtiriladi. Bolalarda ikkita jadval tuzishga tayyorlanishlari aytiladi. Birga yaxshilikka doir so‘zlar, ikkinchisiga esa uning aksi bo‘lgan so‘zlar yozish ta’kidlanadi. O‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, birinchi guruhdagi bolalar *mehribon, saxiy, shirinso‘z, yoqimli, go‘zal, chiroyli, mehnatkash, e’tiborli, kamtar, aqlli, bilag‘on* kabi so‘zlar topsalar, ikkinchi guruh bolalar *yomon, xunuk, qo‘pol, yolg‘onchi, ayyor, to‘polonchi, tartibsiz, xasis, qizg‘anchiq* kabi so‘zlarni aytadilar.

Nutq qobiliyatlarini oshirish ishlarini iqtisodiy tarbiya bilan bog‘lab olib borish foydalidir. Bunda *oila, uy-ro‘zg‘or, inoqlik, hamjihatlik, hamkorlik, tejamkorlik, foyda, zarar, dastyorlik, hurmat* kabi so‘zlardan foydalaniladi.

O‘quvchilar nutqiy qobiliyatni oshirish ishlari ularning lug‘atini boyitish bilan bog‘liqdir. Bolalarning so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, u shunchalik ravon gapiradigan bo‘ladi. Ma’limki, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan individual holda nutqiy muloqotda bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqdagi kamchiliklarini tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Qo‘pol tanbeh, noto‘g‘ri tanqid o‘quvchilar o‘rtasidagi yaxshi muomalani buzishi, o‘quvchini o‘rinsiz ranjitishi mumkin, shuning uchun ham o‘qituvchi, nutqiy muomala qilishda pedagogik odob talablariga rioya qilishi, o‘quvchilarning insoniy qadr-qimmati, obro‘sini saqlashga intilish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy qobiliyatlarni oshirishda yod oldirish, so‘zlarning ma’nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo‘lgan o‘yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko‘zlangan maqsad, yuqori natijalarni qo‘lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki o‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatida asosiy o‘rinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, o‘yin dunyoni va o‘zlikni anglashda, bog‘lanishli nutqni o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Darslarda o‘quvchilar zo‘r qiziqish bilan ishtirok etadigan bir nechta o‘yinlardan namunalar keltiramiz.

”***Hikoya”*** – o‘qituvchi xattaxtaga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg‘ir, kitob kabi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Bunda ularning lug‘at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to‘g‘ri tuzish, tovushlarni to‘g‘ri tallaffuz qilish, ijodiy va mustaqil fiklash qobiliyati shakllanadi. O‘qituvchi faol ishtirokchilarni vaqti - vaqti bilan rag‘batlantirib borishi o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini orttiradi va bundan - da faol bo‘lishiga undaydi. Mazkur o‘yinlar darsdan tashqari mashg‘ulotlarda va to‘garaklarda ham bemalol foydalanish mumkin.

Tinglovchilarni zamon talabiga binoan dars jarayonida asosan bilishga, fikrlashga, qo‘llashga, mulohaza qilishga chorlash muhim.

FRAYER MODELI

Ismi _____ Sana _____

Nomlanishi:

Yo‘nalishlar:

TA’RIF	**XUSUSIYATLARI**
Jadidchilik (arabcha)جديد - yangi, yangi yo‘l - الجديد وصول) - XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Volgabo‘yi, Qrim va O‘rta Osiyodagi musulmonlarning madaniy islohotchi, siyosiy va ijtimoiy harakati edi.	1903-1904-yillarda Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg, Qrim shaharlarida ikkinchi marta sayohat qilgan va shu safarda Ismoil Gaspraliy bilan uchrashgan. Bu tanishuv uning jamiyatni qayta qurish rejasiga tuzatishlar kiritadi va nihoyat uni shu yo‘lga boshlaydi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning 1903-1904-yillardagi "Kitobul-atfol" (Bolalar uchun kitob), "Amalyoti islom" (Islom shartlarining bajarilishi), "Tarixi islom" (Islom tarixi), "Muxtasiri jug'rofiya Rossiya" (Rossiyaning qisqacha geografiyasi) va keyingi yillarda Abdulla Avloniyning "Muallimi avval" ("Birinchi muallim") va "«Muallimi Soniy» (Ikkinchi muallim) va boshqa kitoblari nashr etilgan.
"Yosh turklar" harakati vakillarining izidan borib, yosh turklar g'oyalarini keng yoyish va targ'ib qilish maqsadida "Samarqand" gazetasi va "Oyna" jurnalini nashr ettiradi, U "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Xurshid" gazetalarida keskin siyosiy-ijtimoiy masalalarni ko'targan maqolalar chop etib, Turkistondagi vaziyatni qiyoslash, tahlil qilish imkoniga ega bo'ldi. M.Behbudiyning siyosiy qarashlari «Oyna» jurnalining 15-sonida chop etilgan «Sayohat xotiralari»da bayon etilgan.
1911-yilda Turkistonda yangi uslubdagi maktablar soni 63 taga yetdi, ularda 4106 o'quvchi ta'lim oldi. Ulardan 5 ta maktab Jetisu viloyatida faoliyat yuritgan. Bu maktablarning asosiy afzalligi shundaki, ular to'liq Yevropa maktabi bo'lmasa-da, doska, parta, globus kabi zamonaviy jihozlarga ega edi. Asosiysi, eski maktablarga qaraganda, bolalarni 40 kun ichida savodli bo'lishga imkon beradigan o'qitish usuli edi. Ularning oddiy savodxonlikdan foydalanish imkoniyati yaratilgani yangi maktablarni aholi orasida keng ommalashtirdi.

MISOLLAR

1899-yilda 25 yoshida haj safarida bo'lib, Rossiya shaharlari, Qrim, Eron, Turkiya, Misrda bo'lib, bu mamlakatlardagi xalqlarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan yaqindan tanishdi. Bu holat unga Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni yaqindan kuzatish, "Yosh turklar" harakati g'oyalari bilan bevosita tanishish imkonini berdi. 1914-yilda ikkinchi marta haj safariga bordi, bu safar Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlarda sakkiz oy bo'ldi. Uning bu safargi ziyorati ma'rifiy va siyosiy qarashlarining shakllanishi jihatidan juda samarali bo'ldi.
Muvaqqat hukumatni va uning qonunlarini ayovsiz tanqid qildi. Ma'rifatparvarlik jamiyati va davlatidan qat'iy nazar, maqsadlari mushtarakligi bilan ajralib turadi, chunki uning ko'pgina g'oyalari umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Va u alohida mintaqalar va davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga qarab mazmunan farqlanadi. Shu nuqtai nazardan shuni ta'kidlash mumkinki, Turkiston o'lkasidagi ma'rifatchilikning asosiy xususiyati xalqning o'rta asrlar zulmatida qolishiga, chor hukumatining shovinistik zulmiga sabab bo'lgan eskirgan ta'lim tizimiga qarshilik ko'rsatish tizimi sifatida vujudga kelganligi edi.
Bu ikki omil bevosita Turkistonda ma'rifatparvarlikning siyosiy harakatga aylanishiga xizmat qildi.
Turkiston jadidchilarini birlashtirishda "O'rta Osiyo jadidchilarining otasi" sifatida tanilgan Mahmutqo'ja Behbudiyning (1875–1919) xizmatlari katta bo'ldi. Mahmutxo'ja Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va rahbari edi. U Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, deb hisoblanadi. Behbudiy tashabbusi bilan otasi sharafiga "Behbudiya kutubxonasi" deb nomlangan kutubxona tashkil etilgan.

NOTO'G'RI MISOL/SINONIM-ANTONIM/ILLYUSTRATSIYALAR

Syllabus

3.8. TANLOV MODULI


1-mavzu: Boshlang‘ich ta‟limda inkluyuziv ta’lim yondashuvlari


Maqsad: Fanlarni o‘qitishda 4K modeli: kollaboratsiya, kommunikativlik , kreativlik, kritik fikrlash jarayonlarini to‘g‘ri qo‘llay olish, o‘yin va interfaol metodlar asosida tatbiq eta olish strategyalarini shakllantirish.

Kirish	Inklyuziv ta’limni tashkil etishda zamonaviy strategiyalar. Tinglovchilarni guruhlarga tajribasi va maholartiga mos holda tabaqalashtirish.			
Asosiy qism	***1-bosqich***	***2-bosqich***	***3-bosqich***	***4-bosqich***
	“Besh barmoq” usuli Badiiy matn tahlili Qahramon-lar Zamon va makon Muammo Voqea-hodisa Yechim	**“Besh barmoq” usuli** Axborot matni tahlili Mavzu Bosh g‘oya 1-ma’lumot 2-ma’lumot 3-ma’lumot Yechim	**“Hayoliy go‘zallik” strategiyasi** Tarqatmali materiallar ustida ishlash Har bir tinglovchi uchun alohida so‘z, gap tuzish, ifodalsh, jamoa bo‘lib matn yaratish, matnga sarlavga berish.	4K modeli asosida xulosaviy fikr-mulohazalarini taqdim etish
Xulosa **Blum taksonomiyasi** asosida: tafakkurning rivojlanishini bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlash-tirish, baholash darajalarida mulohaza yuritish	Guruh a’zolari alohida yakka tartibda mushohada bildiradi.	Guruh ishi jamoaviy tarzda mushohada bildiradi.	4 ta guruh bitta sarlavha negizida umumiy mushohada yuritishi lozim	Fanlarni o‘qitishda 4K modeli ahamiyati (inklyuziv ta’lim misolida)

Baholash mezoni	***Assesment metodi***	***Assesment metodi***	***Keys-stadi metodi***	**“Esse usuli”** da uyga vazifa berish. Mavzuga oid esse yozish va keyingi o‘quv yiliga tayyor mulohazalarini taqdim etishga o‘z oldiga maqsad qo‘yish.

1- bosqich “Besh barmoq” usuli
Badiiy matn tahlili


Kuz ziynati
2-hafta 5-dars
So‘zlarning ma’nosini bilasizmi?
1) g‘arq pishgan; 2) dakki bermoq; 3) ma’noli qaramoq.
O‘qiymiz – o‘rganamiz
MEHR ULASHGAN BOG‘
Kuz kunlarining birida 4-B sinf rahbari darsdan so‘ng o‘quvchilarga qarata dedi:
— Ertaga shanba — dam olish kuni. Bilasizlar, maktabimizning hovlisida katta bog‘ bor. U yerda kuz ne’matlari: olma, nok, xurmo, yong‘oq rosa pishib hosilga kirgan. Biz maktab rahbariyati bilan kelishib mevalarni mahallamizdagi qariyalar, boquvchisini yo‘qotganlar, bemorlarga ulashishga qaror qildik. Bu haqda ota-onalar majlisida ham aytildi. Ertaga ertalab hasharga kelinglar.
Bolalar xursand bo‘lgancha bir ovozdan “boramiz” deyishdi. Lekin Dilshod uf tortdi. U ertaga maza qilib uxlamoqchi va televizor tomosha qilmoqchi edi-da. Ertasiga maktab bog‘i o‘quvchilar bilan to‘ldi. Chindan ham mevalar g‘arq pishgan ekan. O‘qituvchilar bolalarga mevalardan ulashdi, bolalar tatib ko‘rishdi. Meva-chevalar bir zumda terib bo‘lindi, savatchalarga joylandi. So‘ng ro‘yxat bo‘yicha xonadonlarga tarqatishga kirishildi. Bu paytda Dilshod endigina uyqudan uyg‘ongan edi. Onasi uni nonushtaga chaqirar ekan, so‘radi:
— Bugun maktab bog‘ida hashar bor edi, uxlab qolibsan-ku, o‘g‘lim?
— Esimdan chiqib qolibdi, oyi, — aldadi Dilshod.
— Tezroq nonushta qilib borgin. Sinfdoshlaringga yordam ber.
— Xo‘p, — istar-istamay javob berdi Dilshod. Nonushta qilib bo‘lib televizorni yoqqan edi
Ona tili va o‘qish savodxonligi 4
Kamalak jilosi senda mujassam
15


2-hafta 5-dars
Kuz ziynati
hamki, darvoza qo‘ng‘irog‘i chalindi. Dilshod kim kelganini bilmoqchi bo‘lib, deraza pardasini chetga surib qaradi. Onasining ovozi eshitildi: “Kelinglar, qani, kiraqolinglar”. Ichkariga kirgan ustozi va sinfdoshlarini ko‘rib Dilshod qo‘rqib ketdi. Hasharga bormagani uchun dakki bergani kelishibdi deb o‘yladi. Ammo ustozi Dilshod haqida so‘ramadi.
— Rahim ota anchadan beri betob ekan. Ularga maktabimiz bog‘idan mevalar keltirdik, — dedi sinf rahbari. Onasi ularni ergashtirgancha bobosining xonasiga olib kirdi. Ichkaridan bobosining “barakalla, azamatlar” degani eshitildi. Birozdan so‘ng mehmonlar ketishdi. Dilshod asta xonasidan chiqdi. Onasi unga ma’noli qarab bosh chayqab qo‘ydi. Dilshod onasi va bobosi yonida dangasaligidan uyaldi. Birpas o‘ylab turdi-da, keyin bir qarorga keldi, shekilli, shoshgancha sinfdoshlari ortidan yugurdi. Ularga yetib oldi-da, o‘rtog‘ining qo‘lidagi savatchani olayotib ustoziga qaradi. Ustozi mehr bilan qarab turardi.
Bolalar keyingi xonadon sari yo‘l olishdi. Dilshod qat’iy qadamlar bilan oldinda borardi.
Nodira Ibrohimova
Mana, endi ayting-chi...
1. Sinf rahbari dam olish kunida bolalarni nega maktab bog‘iga chaqirdi?
2. Ustozlar maktab bog‘idagi mevalarni kimlarga ulashishga qaror qilishgan ekan?
3. Dilshod nega uyaldi?
4. Ustozi Dilshodga mehr bilan qaramaganida, voqea qanday tus olar edi?
5. Jamoaviy ish va hasharlarning qanday foydali taraflari bor?
Buni uddalaysiz!
“Mehr ulashgan bog‘” hikoyasidagi voqeadan so‘ng Dilshodda qanday o‘zgarishlar kuzatilishi mumkinligi haqidagi taxminlaringizni yozib keling.
16
Kamalak jilosi senda mujassam

2 - bosqich “Besh barmoq” usuli
Axborot matni tahlili
Alohida ehtiyojli bolalar orasidan ham iqtidorlilarini kashf etish mumkin

“Inklyuziv ta’lim – bu nogironlikka ega bo‘lgan, psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga sog‘lom (normativ) tengdoshlari bilan umumta’lim muassasalarida birgalikda ta’lim-tarbiya berishdir“. Umumta’lim muassasalari amaliyotiga jadal kirib kelayotgan inklyuziv ta’lim unga ko‘plab murakkab masalalar va yangi vazifalar qo‘yadi. Inklyuziv ta’limga qo‘yiladigan talablar: Imkoniyatlarning tengligi; To‘siqlarsiz muhit; Tizimlilik; Resurs o‘qituvchi mavjudligi; To‘g‘ri tashxis qo‘yish; Jamiyatning xabardorligi. INKLYUZIV TA’LIMNING ME’YORIY-HUQUQIY BAZASI - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni

ta’lim tashkilotlarida umumta’lim o‘quv dasturi va individual (yakka) dastur bo‘yicha o‘qitilishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar

Yuqorida keltirilgan ta’limiy o‘yinlar o‘quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o‘stirishga yo‘naltitirilgan har bir mashg‘ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. O‘quvchilarda nutqiy munosabatga kirishish malakasini hosil qilishda o‘qituvchining roli kattadir. Bu o‘qituvchining erkin va aniq – ravshan nutqi, o‘quvhilar nutqi va tafakkurini rivojlantirishning birinchi darajali muhim shartlaridan hisoblanadi. O‘qituvchi o‘z nutqining bolalarga qanday ta’sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo‘lganini hisobga olishi kerak. Agar bolalar darsga e’tiborsiz o‘tirsalar, demak, o‘qituvchi nutqining ta’siri kuchi sust. O‘qituvchining mahorati shundaki, u o‘zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta’lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh.,Sariyev Sh Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2009.

2. G. Boymurodova va boshqalar.1-sinf “O‘qish kitobi” metodik qo‘llanma Toshkent. “Sharq” NMAK 2014-y.

3. G. Boymurodova va boshqalar. 2-sinf “O‘qish kitobi” metodik qo‘llanma Toshkent. “Sharq” NMAK 2015-y.

4. G. Boymurodova va boshqalar. 3-sinf “O‘qish kitobi” metodik qo‘llanma Toshkent. “Sharq” NMAK 2016-y.

5. G. Boymurodova va boshqalar. 4-sinf “O‘qish kitobi” metodik qo‘llanma Toshkent. “Sharq” NMAK 2017-y.

6. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqini o‘stirish” https://uz.denemetr.com/docs/321/index-22468-3.html

7. Ro‘ziyeva N. O‘qish darslarida o‘quvchilarni nutqini o‘stirish usullari va unga qo‘yiladigan talablar.

https://cyberleninka.ru/article/n/o-qish-darslarida-o-quvchilarni-nutqini-o-stirish-usullari-va-unga-qo-yiladigan-talablar

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

G.T.Xaliqova –Navoiy viloyat PMM Raqamli rivojlantirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot jamiyatida talabalarning raqamli ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi tahlil qilinadi. Maqolada raqamli kompetentlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik modeli va uning amaliy qo'llanilishi natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli ko'nikmalar, raqamli kompetentlik, pedagogika, ta'lim psixologiyasi, axborot texnologiyalari, metodika.

KIRISH. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda va hayotimizning turli sohalariga, jumladan, ta'limga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli pedagogika zamonaviy ta'limda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, bu esa professional ta'lim muassasalaridagi o'qituvchilardan o'qitishda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni va ta'limda raqamli vositalar va resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Zamonaviy pedagog nafaqat an'anaviy bilimlar, balki murakkab raqamli muhitda samarali ishlash, ma'lumotlarni izlash, baholash, tahlil qilish va yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur."Raqamli kompetentlik" tushunchasi bugungi kunda nafaqat kompyuter savodxonligi, balki tangidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, media savodxonligi va masofaviy hamkorlik qilish kabi keng qamrovli ko'nikmalar majmuasidir.

ASOSIY QISM. 1. Raqamli kompetentlikning tarkibiy qismlari va ahamiyati

Raqamli ko'nikmalar nafaqat dasturlardan foydalanish, balki ma'lumotni tan olish, uni qayta ishlash qobiliyatidir. Xalqaro tadqiqotlar (masalan, UNESCOning "Raqamli Ta'lim" bo'yicha hisobotlari) ta'kidlashicha, raqamli kompetentlik to'rt asosiy komponentdan iborat:

1.Ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasi - ma'lumotlarni qidirish, baholash va saqlash

2.Kommunikatsiya va hamkorlik - raqamli vositalar orqali muloqot qilish

3.Raqamli kontent yaratish - turli formatdagi kontentni ishlab chiqarish

4.Xavfsizlik - shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axloqiy qoidalarga rioya etish

2. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish omillari

O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir **qiladi:**

1. Texnologik savodxonlik darajasi

O'qituvchilarning raqamli pedagogikadagi kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri ularning texnologik savodxonlik darajasidir. O'qituvchilar zamonaviy raqamli vositalarni yaxshi bilishlari, ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalana olishlari va tez o'zgarib borayotgan texnologik muhitga moslasha olishlari kerak. Texnologik savodxonlikni oshirish uchun o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha seminarlar va mahorat darslarini tashkil etish, shuningdek, video darsliklarni ishlab chiqish texnologik kompetensiyani oshirishga olib keladi.

2. Ta'lim resurslarining mavjudligi

Yuqori sifatli ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhimdir. Onlayn kurslar, pedagogik platformalar, vebinarlar va boshqa o'quv vositalari o'qituvchilar uchun mustaqil o'rganish va raqamli pedagogikada o'z kompetensiyalarini oshirish uchun mavjud bo'lishi kerak. O'qituvchilar o'z fanlariga tegishli dasturlash tillarini puxta bilishlari kerak. O'z fanlariga tegishli dasturlash tillarini o'rganish o'qituvchilarga raqamli kompetentsiyalarini oshirish imkonini beradi.

3. Professional qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish

O'qituvchilarning professional va raqamli savodxonligini samarali rivojlantirish uchun rahbariyat va hamkasblarning ko'magi juda muhimdir. Professional ta'lim muassasalar o'qituvchilarga tajriba almashish, treninglar va seminarlar tashkil etish va raqamli pedagogikada o'zini takomillashtirish uchun motivatsion rag'batlantirish imkoniyatlarini yaratishi kerak. O'qituvchilarni raqamli savodxonligini oshirishda qo'llab-quvvatlash ularning professional va ilmiy faoliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

4. Tashkiliy sharoitlar

Kasbiy ta'lim muassasalarida raqamli pedagogikani muvaffaqiyatli joriy etish uchun ma'lum tashkiliy shartlar zarur. Bu juda muhim.

3. Raqamli ta'limning psixologik jihatlari

Raqamli muhit pedagoglarning kognitiv va motivatsion jarayonlariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, interfaol darsliklar, o'yinlashtirilgan platformalar va virtual laboratoriyalar o'quv jarayonini qiziqarli va shaxsiylashtirilgan qiladi, bu esa ichki motivatsiyani oshiradi. Masalan, "Kahoot!" yoki "Quizlet" kabi dasturlar raqobat va o'yin elementlarini kiritish orqali materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, doimiy ko'p vazifalilik va diqqatni jamlash qiyinligi,

shuningdek, ma'lumotlarning haddan tashqari ko'pligi kognitiv yuklamani oshirishi va chuqur o'ylash qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchining vazifasi - nafaqat raqamli vositalarni joriy qilish, balki talabalarga diqqatni boshqarish, vaqtni rejalashtirish va ma'lumotlarni filtrlash ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat.

4. Raqamli ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik modeli

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi pedagogik model keltirish mumkin.

A - Amaliyotga yo'naltirilganlik: Har qanday raqamli ko'nikma aniq, amaliy loyiha doirasida o'rgatilishi kerak. Masalan, tarix darsida talabalar guruh bo'lib virtual muzey yaratishlari mumkin. Bu jarayonda ular ma'lumot izlash, tanlash, hammualliflikda ishlash va kontent yaratish ko'nikmalarini egallaydilar.

R - Refleksiya: Har bir raqamli topshiriqdan so'ng, talabalar o'z ishi va jarayoni haqida refleksiya yozishlari kerak. "Nima yaxshi bajarildi?", "Qanday qiyinchiliklar yuz berdi?", "Keyingi safar nimalarni o'zgartirgan bo'lardim?" kabi savollar orqali ular nafaqat texnologik, balki metakognitiv (o'z fikrlashi haqida fikrlash) ko'nikmalarni rivojantiradilar.

F - Fikrlash: O'qituvchi tomonidan doimiy ravishda tangidiy fikrlashni rag'batlantiruvchi savollar berilishi lozim. "Ushbu veb-saytga nima uchun ishonchingiz komil?", "Sizning yaratgan kontentingiz qaysi auditoriyaga qaratilgan?". Bu talabalarni ma'lumotlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tangidchi va yaratuvchiga aylantiradi.

XULOSA.O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tizimli yondashuv, barcha darajalar o'rtasidagi hamkorlik va doimiy professional rivojlanishga e'tibor zarur.Zamonaviy ta'limda raqamli ko'nikmalarni shakllantirish - bu alohida fan emas, balki barcha fanlar va pedagogik faoliyatning ajralmas qismidir. Muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun texnologiyani inson (talaba) psixologiyasi va pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Usbbu modelda u nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki tangidiy fikrlash, refleksiya va mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli dunyoda muvaffaqiyatli bo'lish uchun talaba nafaqat "qanday qilishni", balki "nima uchun" va "qanday qilib yaxshiroq qilish mumkin"ligini bilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.UNESCO. (2021). Digital Education for All: A Global Framework. Paris: UNESCO Publishing.

2.European Commission. (2020). Digital Competence Framework for Educators. Brussels: EU Publications.

3.Шаходжаев M. A. Self-education and methods of its organization in the technical branches of education //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 6. – С. 426-432.

4. M.A. Shakhodjaev, N.Khamdamov “Modern teaching methods using didaktig aids (on the example of practical and laboratory classes” ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10, Issue 10, October 2020. P.1229-32.

5. M.A. Shakhodjaev M.A. Involvement of students in research work. Tashkent State Pedagogical University. Scientific Information. Scientific-theoretical Journal № 3. 2020.P.112-115.

6.To'rayev, B. X. (2022). Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMODAL TA’LIM MUHITINI YARATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Shomurodova NozimaBaxriddin qizi-Navoiy innovatsialar unversititi
Ijtimoiy -gumanetar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Istamova Shahnoza Nasrullo qizi-Navoiy innovatsiyalar unversiteti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-kurs 1-guruh talabasi
raxmatovanozima278@gmail.com tel:.99888 796.12.08

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimodal ta’lim muhiti yaratishning pedagogik,psixologik va texnologik jihatlari yoritiladi. Multimodal ta’limning mazmuni, uni bolalar idroki, nutqi,tafakkuri, kreativ fikrlashi va ijtimoiy faolligiga ta’siri asoslab beriladi. Raqamli resurslar, vizual materiallar,audial manbalar va kinestetik faoliyatning integratsiyasi orqali samarali ta’lim muhiti yaratish yo‘llariko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: multimodal ta’lim, sensor rivojlanish, vizual idrok, STEAM, interaktiv muhit, bolalar rivojlanishi, pedagogik yondashuv.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi"[1.8-b.] -deb ta'kidlangan. Shundan kelib chiqqan holda XXI asr ko'nikmalarini xususan: maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari egallagan ko'nikmalarini kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarda qay tarzda qo'llay olishi, tanqidiy fikrlash, kreativlik, samarali muloqotni tashkil etish, hamkorlikda ishlay olish, tarbiyalanuvchilarda qiziquvchanlikni, tashabbuskorlikni, maqsad sari intilish hissini, moslashuvchanlik, liderlik kabi xususiyatlarni maktabgacha ta'lim mazmuniga singdirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

MTT tarbiyachisining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni samarali tashkil etishi uchun kerakli bo'lgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini egallash va ularni amalda samarali qo'llay olinishiga erishish juda zarur hisoblanadi. Tarbiyachining kasbiy layoqatliligini rivojlantirib borishi o'z ustida ishlash orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallanishi emas, kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha integratsion bilimlar va amaliy faoliyatlarining o'zlashtirilishi muhim hisoblanadi.[4.59-b.] Shu bilan birgalikda, kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis o'z ustida ishlash orqali bilimlarini rivojlantirib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtirib oladi va faoliyatida tadbiq etib keladi, davr talablarini anglaydi, yangi ma'lumotlarni o'zashtiradi va ularni amalda adaptiv yo'nalishlarda faoliyatiga tadbiq etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri bu uning diskursiv kompetentligidir. Zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan, diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo'lib, matnga qo'shimcha ravishda matnni tushunish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o'z ichiga oladi. "Diskurs" atamasi lingvistika sohasida ham juda ko'p qo'llaniladigan atamalardan biriga aylangan [5.92-b.]. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952 yilda nashr etilgan "Diskurs tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. "Diskurs" atamasining to'liq ko'lami so'nggi yigirma yil ichida tilshunoslikda ommalashib bordi [3.102]. Tilshunos olim A.Pardayev talqinicha, diskurs bu so'zlovchi va tinglovchining o'zaro fikr almashish, bir-biriga ta'sir ko'rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o'zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni hisoblanadi.[3.89-b.]

Diskursiv kompetensiya pedagogning kommunikativ (muloqot) faoliyati xususiyatlari, bo'lajak kasb ta'limi pedagoglari bilan o'zaro ta'siri o'ziga xosligini tavsiflaydi. Urg'u didaktik (tarbiyaviy va ta'limiy) maqsadlarga erishishga qaratilgan pedagogik faoliyat samaradorligi bilan kommunikatsiya aloqasiga beriladi. Diskursiv kompetensiya yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullarni o'z ichiga oladi.[2.104-b.] Ularga boshqaning tutgan o'rnini muloqotda tushuna olish, uning shaxsiga qiziqish bildirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi shaxsi rivojlanishi, xulq-atvori jihatlari bo'yicha ichki holatini tushuntirib bera olishi va o'qiy olish, noverbal muloqot vositalarini (mimika, imo-ishoralar) egallash, maktabgacha ta'lim

tashkiloti pedagogi nuqtai nazariga tura olish va boshqa odam bilan ishonch muhitiga yo‘naltirish, ritorika usullarini egallash, baholovchi, ayniqsa, intizomlashtiruvchi tashkil qilinadigan ta’sirlarni ishlatish, o‘qitish jarayonida demokratik uslubning ustunligi, pedagogik vaziyatning ayrim jihatlariga yumor bilan qaray olish kiradi. "Diksiya" so'zi asosan nutq va tilga taalluqli bo'lib, u so'zlarning talaffuzi, qay darajada aniq aytish va ovoz o'sishiga oid bo'ladi. Diksiyalash, ya'ni so'z va iboralarni aniq va tushunarli tarzda ifodalash, kommunikatsiya jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Diksiya quydagi asosiy jihatlarga bo‘linadi:

a. Talaffuz: Diksiyaning eng muhim qismi – so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish. Bu, kishi o'z fikrlarini yoki hissiyotlarini aniq ifodalay olishiga yordam beradi.

b. Ovoz balandligi: Ovoz balandligi, ya'ni so'zlarni qanchalik kuchli yoki qulay ovozda aytish, tinglovchilarga xabarni yaxshiroq idrok etish imkonini beradi.

c. Toni: Ovoz tonining o'zgarishi, xayrixohlik, qiziqish yoki boshqa hissiyotlarni etkazishda yordam beradi.

d. Tempo: Diksiyada nutqning tezligi ham muhim. Juda tez yoki juda sekin gapirish, o'z fikrini tushunish uchun muammo keltirib chiqarishi mumkin.

e. Yuzaki ifoda: Diksiyaning bir qismi nutq jarayonida muloqotda yuz ifodalarini tahlil qilish va balansni ta'minlashdir.

Diksiyaning rivojlanishi sahna san'ati, jurnalistika, maktabgacha ta`lim tashkiloti pedagog-tabiyachilari uchun xam juda muhim xisoblanadi. O'z diksiyasini rivojlantirish uchun ko'p mashq qilish, ovozli o'qish, talaffuzni yaxshilash va boshqa kommunikatsiya texnikalarini o'rganish tavsiya etiladi. Maktabgacha ta’lim tarbiyachilarining diskurs kompetensiyasi aslida aniq bilimlar tizimi va ko’nikmalar yig’indisidir. Bu bilimlar va ko’nikmalar kommunikativ maqsadga erishish uchun muhim omillar hisoblanib, yuqorida keltirilganidek leksik, sintaktik, grammatik qoidalar bilan bir qatorda uslubiy, janrli, madaniy, ijtimoiy, psixologik, hissiy, muvofiqlik va uyg’unlik jihatlarini o’z ichiga oladi. Shu o’rinda ta’kidlab o’tish joizki, diskurs, nutq akti va aloqa tushunchalari bir biridan tubdan farq qiladi [3.101-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020- yil 23- sentabr.

O‘RQ-637-son. https://lex.uz/docs/-5013007

2. Edited by J. Schriewer (Comparative estudies series; Volume 10). Discourse Formation in Comparative Education Frankfurt am Main; Berlin; New York; Oxford: Lang, 2000.

3. Mirjalilova S., To‘laganova R. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. –T., 2008.

4. Djamilova N.N. «Maktabgacha metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi» –T.: TDPU, 2017.

5. Sodiqova Sh. A. «Maktabgacha pedagogika». –T.: Fan va texnologiya, 2017

6. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik) – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.

TA’LIM JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISHDA NEYROPEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti,
p.f.f.d (PhD) S.R.Mansurova
Tel.93.311-81-27
e-mail.mansurovasurayo@49gmail.com

Annotatsiya. Ta’lim jarayonini individuallashtirish — bu har bir tarbiyalanuvchiining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish jarayonidir.

Boshqacha qilib aytganda, individuallashtirilgan ta’limda har bir tarbiyalanuvchiga o‘ziga xos yo‘l, usul va sur’atda bilim olish imkoniyati yaratiladi. Bu uchun avvalo tarbiyalanuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini pedagog bilishi va shu orqali ta’lim faoliyatini olib borish zarur. Mana shu o‘ziga xos xususiyatlarni neyropedagogik diagnostika metodlari orqali aniqlash mumkin.

Kalit so‘zlar: ta’limni individualashtirish, o‘ziga xos xususiyatlar, diagnostka, neyropedagogika, metod, afzal ko‘radigan reperezentativ tizim, xotira, diqqat, tafakkur.

Kirish. Neyropedagogika sohasidagi ilmiy izlanshlarda turli psixotiplar xulq-atvori, ta'lim-tarbiya faoliyatida o'quv vazifalarni bajarishda "afzal" hisoblagan yo'llarni tanlashlaridagi farqlar tadqiq etilgan. Xususan, neyropedagogika sohasidagi bir qator ilmiy tadqiqotlarda – bolalarning bilimlarni (chet tilini o'rganish misolida) o'zlashtirishining ulardagi yetakchi yarimsharlar funksiyasi bilan o'zaro bog'liqligi,[61] ta'lim berishda bolalarning yosh va rivojlanganlik jihatlarini hisobga olish,[62] o'quv ma'lumotlarini ularning tafakkur strategiyalariga muvofiq tarzda havola qilish[63] masalalari yoritilgan.

Ta'lim jarayonini individuallashtirish uchun tarbiyachi bolalardagi o'ziga hosliklarni bilishi kerak. Chunki bolalarni deyarli har kuni ko'rish va muloqot qilishning o'zi ularni yaxshi bilish va tushunish uchun yetarli emas.[64]

Ta'lim jarayonini individuallashtirish — bu har bir tarbiyalanuvchiining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish jarayonidir.

Individuallashtirishning asosiy yo'nalishlari:

1. **Mazmunni individuallashtirish** — har bir o'quvchiga mos bilim darajasi va mavzularni tanlash.
2. **Usulni individuallashtirish** — o'quvchining o'rganish uslubi (vizual, audial, kinestetik va h.k.)ni hisobga olish.
3. **Sur'atni individuallashtirish** — har bir o'quvchiga mos o'qish tezligini belgilash.
4. **Nazorat va baholashni individuallashtirish** — natijalarni shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan baholash.

Ta'lim jarayonini individuallashtirish — bu "hamma uchun bir xil" ta'lim modelidan voz kechib, har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini yaratish demakdir.

Boshqacha qilib aytganda, individuallashtirilgan ta'limda har bir tarbiyalanuvchiga o'ziga xos yo'l, usul va sur'atda bilim olish imkoniyati yaratiladi.

Individual o'ziga hosliklariga bolaning jinsi, bosh miyasining dominant

---

[61] Тункун Я.А. Основы нейропедагогики: история, теория и практика / Ж.: Киберленинка, 73-2, -С.206. (ftp://194.226.213.129/text/tunkun_33_73_2_203_208.pdf)

[62] Gulyamov J.R., Nurboyev Q.M., Khuzhakulov N.T. Teaching Children Of Preschool Age In Neurodidactic Conditions / Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt / Egyptology 17(6). ISSN 1567-214x / PJAEE, 17 (6) (2020) / P.14485- 14494

[63] Гулямов Д.Р., Каланходжаева К.Б. К вопросу учета особенностей межполушарной функциональной асимметрии мозга обучаемых в учебном процессе / Евразийский Союз Ученых. #11 (56), 2018 / https://euroasia-science.ru/wp-content/uploads/ -С. 38-43

[64] Мавлонова Р., Тўраева О., Холиқбердиев К. Педагогика / Дарслик. –Тошкент: Ўқитувчи, 2001. 173-174 бетлар.

yarimshari, laterallik profilining tipi va afzal ko'radigan reprezentativ tizimi kabilar kirib, ular bolalarning idrok qilish mexanizmlarini belgilaydi. Shuning uchun tarbiyachilar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta guruh bolalarini maktabga tayyorlash va ular bilan o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkillashtirishlari uchun ularning individual xususiyatlarini hisobga olishlari uchun neyropedagogik diagnostika metodlarini bilishlari va mazkur metodlarni amalda qo'llay olishlari kerak bo'ladi.

Umuman olganda, har qanday murakkab tizimning ishlashini o'rganish "diagnostika" ("tashxis") deb nomlanadi[65]. Diagnostika so'zi (yunon. «dia» - shaffof va «gnozis» - bilim) – o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonga oid kutilayotgan ma'lumotni oldindan olishning umumiy yo'llari, ma'nosini beradi[66].

Hodisa, voqea va jarayonlarning mohiyatini tushunish uchun dastlab ularni keltirib chiqargan sabablarni aniqlab diagnoz (tashxis) qo'yiladi. Olingan natijalarga asoslanib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarning oldini olish, ijobiy jihatlarni shakllantirish va rivojlantirish choralari belgilanadi. Bunda diagnostika natijalarining obyektivligi masalasi muhim sanaladi. Chunki noto'g'ri diagnostika mutaxassisning barcha harakatlarini bekor ketishiga sabab bo'lish bilan birga, mavjud muammoni bartaraf etish imkoniyatini yo'qqa chiqarib, boshqa, yanada og'irroq muammolarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin[67].

Neyropedagogik diagnostika — bu o'quvchining miya faoliyati, hissiy holati, diqqat, xotira, tafakkur va boshqa kognitiv (aqliy) jarayonlarini o'rganish orqali uning o'quv imkoniyatlarini aniqlash tizimidir.Bu jarayon ta'limni individuallashtirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Neyropedagogik diagnostikaning ta'limni individuallashtirishdagi ahamiyati bolalarning neyropsixologik xususiyatlarini aniqlaydi. Neyropedagogik tashxis orqali tarbiyalanuchilarning:

- diqqat turi va davomiyligi,
- xotira hajmi,
- tafakkur uslubi (logik, obrazli, ijodiy),
- emotsional barqarorligi kabi xususiyatlari aniqlanadi. Bu ma'lumotlar asosida o'quv dasturi va usullar bolalarga moslashtiriladi.
- Neyropedagogik diagnostika yordamida:
- disleksiya (o'qishdagi qiyinchiliklar),

[65] Ингенкамп К. Педагогическая диагностика / перевод с немецкого.- М., 1991, 7-бет.
[66] Подласый И.П. Педагогика: в 3-х кн., кн.3: Теория и технология воспитания: учеб.для студ.вузов. – Москва: ВЛАДОС, 2007. 66-67-стр.
[67] Щукина Г.И. Педагогические проблемы формирования познавательных интересов учащихся. – М., Педагогика, 1988. 84-бет.

- diskalkuliya (hisoblashdagi qiyinchiliklar),
- diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik (DEHB) kabi holatlar erta aniqlanadi.

Bu esa har bir o'quvchiga shaxsiy ta'lim strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.Diagnostika natijalariga ko'ra: kimga ko'proq vizual materiallar, kimga audiomateriallar, kimga amaliyotga asoslangan o'quv usuli kerakligini aniqlash mumkin. Bu orqali bolalar o'ziga mos yo'l bilan samarali o'qiydi. Neyropedagogik usullar orqali o'quvchining stress darajasi, motivatsiyasi va qiziqishi kuzatiladi. Shu asosda o'quv muhiti (masalan, dam olish intervallari, multimedia vositalari, ijobiy rag'bat) to'g'ri tashkil qilinadi.

Diagnostika natijalari nafaqat bolalar uchun, balki pedagog va ota-onalar uchun ham bolalarni qo'llab-quvvatlashning individual strategiyasini ishlab chiqishda yo'l-yo'riq bo'ladi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumukinki, neyropedagogik diagnostika — ta'lim jarayonini individuallashtirishning ilmiy-amaliy asosidir.U orqali har bir bolaning miya faoliyati, tafakkur va asosiy rivojlanish xususiyatlarini bilib, ta'lim jarayonini insonning neyropsixologik ehtiyojlariga moslashtirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Child Neuropsychology in Practice: Perspectives from Educational Psychologists (Emilia Misheva, 2020) — болалардаги нейропсихология ва таълим психологияси ўртасидаги боғланишлар, таълим мутахассислари учун амалий йўриқнома. link.springer.com

2. Diagnosing Learning Disorders: A Neuropsychological Framework (2nd ed.) (Bruce Pennington, 2009) — ўқишдаги бузилишларни нейропсихологик нуқтаи назардан диагностика қилиш бўйича фундаментал асар. OUP Academic

3. Neuro-Education: A Translation from Theory to Practice (Ed. Ellyn Lucas Arwood & Christopher Merideth, Neuro-Education Press, 2017) — нейроилм ва педагогика бирлашмасидан келиб чиқиб таълим амалиётини қандай енгиллаштириш мумкинлиги ҳақида. Neuro-Education Press

4. Neuro-Systemic Applications in Learning (Ed. G.N. Madhuranatha Dixit et al., Springer, 2024) — билим олишнинг нейро-системик механизмлари ва уларни педагогик жараёнда қўллаш имкониятлари. link.springer.com

5. Тункун Я.А. Основы нейропедагогики: история, теория и практика /Ж.: Киберленинка, 73-2, - С.206.(ftp://194.226.213.129/text/tunkun_33_73_2_203_208.pdf)

6. Gulyamov J.R., Nurboyev Q.M., Khuzhakulov N.T. Teaching Children Of Preschool Age In Neurodidactic Conditions / Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt / Egyptology 17(6). ISSN 1567-214x / PJAEE, 17 (6) (2020) / P.14485-

14494

7. Гулямов Д.Р., Каланходжаева К.Б. К вопросу учета особенностей межполушарной функциональной асимметрии мозга обучаемых в учебном процессе / Евразийский Союз Ученых. #11 (56), 2018 / https://euroasia-science.ru/wp-content/uploads/ -С. 38-43

8. Мавлонова Р., Тўраева О., Холиқбердиев К. Педагогика / Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. 173-174 бетлар.

9. Гулямов Д.Р., Каланходжаева К.Б. К вопросу учета особенностей межполушарной функциональной асимметрии мозга обучаемых в учебном процессе / Евразийский Союз Ученых. #11 (56), 2018 / https://euroasia-science.ru/wp-content/uploads/ -С. 38-43

10. Мавлонова Р., Тўраева О., Холиқбердиев К. Педагогика / Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. 173-174 бетлар.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Navoiy Shahar 22-son DMTT direktor o‘rinbosari

Xidirova Nilufar Nematovna

Annotatsiya. Maqolada ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari, innovatsion yondashuvlarning ahamiyati hamda davlat va jamiyat hamkorligi asosida maktabgacha ta’lim sifatini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion metodlarni joriy etishning ustuvor jihatlari va istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, innovatsiya, maktabgacha ta’lim, ta’lim sifati, davlat-jamiyat hamkorligi, raqamli pedagogika, islohotlar.

Abstract. This article examines the main directions of modernizing the education system, the relevance of innovative approaches, and the improvement of preschool education quality through state–society collaboration. The study also analyzes the key aspects, practical significance, and future prospects of implementing innovative methods in the preschool education system.

Keywords: modernization, innovation, preschool education, quality of education, state–society partnership, digital pedagogy, reforms.

Аннотация. В статье рассматриваются основные направления модернизации системы образования, актуальность инновационных подходов, а также вопросы повышения качества дошкольного образования

на основе сотрудничества государства и общества. Кроме того, проанализированы приоритетные аспекты, практическое значение и перспективы внедрения инновационных методов в систему дошкольного образования.

Ключевые слова: модернизация, инновация, дошкольное образование, качество образования, государственно-общественное партнёрство, цифровая педагогика, реформы.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, **maktabgacha ta’lim** bosqichida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali kelajak avlodni barkamol, kreativ va ijtimoiy mas’ul shaxslar sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan bir qator qaror va dasturlar qabul qilindi. Jumladan, **“Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” (PQ–4312, 2019-yil 8-may)** hamda **“Ta’lim tizimini transformatsiya qilish strategiyasi–2030”** hujjatlarida ta’lim sifati, innovatsion metodlar, davlat–jamiyat hamkorligi va xalqaro integratsiya asosiy ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni bugungi kunda milliy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020) [1], “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun (2019)[2] hamda “Yangi O‘zbekiston — yangi ta’lim” konsepsiyasi doirasida innovatsion ta’lim modeliga o‘tish, davlat va jamiyat hamkorligini kuchaytirish, ta’lim sifatini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirish belgilangan. Maktabgacha ta’lim tizimi esa bu jarayonning boshlang‘ich, ammo eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, unda innovatsion yondashuvlar va hamkorlik mexanizmlari bolalarning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi **PQ–4312-sonli** “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qarorida maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari belgilangan. Bu hujjat bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zamonaviy sharoit yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta’lim muassasalari bilan jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi. [3]

Modernizatsiya — bu mavjud ta’lim tizimini zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy talablar, axborot texnologiyalari va global tendensiyalar asosida yangilash jarayonidir. UNESCO, OECD va UNICEF hisobotlarida maktabgacha ta’limda modernizatsiyaning asosiy yo‘nalishlari sifatida innovatsion metodika, raqamli

kompetensiya, inklyuziv yondashuv va hamkorlik modeli ajratilgan.

Maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish istiqbollari, kelgusida quyidagi yo‘nalishlar ustuvor bo‘ladi:

- pedagogik innovatsion markazlar faoliyatini kengaytirish;

- ta’limda sun’iy intellekt elementlarini joriy etish;

- pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish;

-kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro akkreditatsiya standartlariga moslashtirish;

- oilaviy va inklyuziv ta’lim modelini rivojlantirish;

- “Yashil ta’lim” (Green Education) tamoyillarini maktabgacha bosqichga integratsiyalash.

Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar — bu o‘qitish va tarbiyalash jarayonida yangi texnologiyalar, metodlar va o‘quv muhitlarini tatbiq etishdir. Asosiy yo‘nalishlar:

❖ **STEAM-ta’lim elementlari** — 5–7 yoshli bolalarda mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi;

❖ **Raqamli ta’lim muhiti** — interaktiv platformalar, multimediali darslar orqali bolalarning e’tiborini faollashtiradi;

❖ **Loyiha asosidagi o‘qitish** — bolalarda jamoaviy fikrlash, mustaqillikni oshiradi;

❖ **Integratsiyalashgan mashg‘ulotlar** — fanlararo bog‘liqlik orqali bilimlarni yaxlit shakllantiradi;

❖ **Innovatsion pedagogik texnologiyalar** (klaster, muammoli o‘qitish, kvest-metodlar) — bolalarda faol o‘rganish motivatsiyasini kuchaytiradi.[5]

Maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish innovatsion yondashuvlar va davlat-jamiyat hamkorligisiz to‘liq samara bermaydi. Shu bois raqamli ta’lim muhiti yaratish, tarbiyachilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish, mahalla, ota-ona va davlat idoralari o‘rtasida uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xalqaro tajribalarni adaptatsiya qilish zarur. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun zamonaviy, sifatli va inklyuziv ta’lim muhiti shakllanadi. Maktabgacha ta’limda davlat-jamiyat hamkorligi quyidagi yo‘nalishlarda modernizatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi:

Xususiy sektorni jalb etish — nodavlat MTTlar tarmog‘ini kengaytirish orqali raqobat va sifatni oshirish;

Ota-onalar ishtiroki — oilaviy ta’lim va MTT o‘rtasidagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlash;

Fuqarolik jamiyati institutlari — NNTlar, mahalla qo‘mitalari, fondlar

orqali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

Xalqaro hamkorlik — UNICEF, UNESCO, JICA kabi tashkilotlar bilan qo‘shma loyihalar. Bu yo‘nalishlar maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, bolalarni maktabga tayyorlash va tarbiyachilar malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayoni — bu davlat, jamiyat va ta’lim subyektlarining uzviy hamkorligi orqali amalga oshadigan kompleks tizimdir. Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar bolalarning ijodiy fikrlashini, ijtimoiy-emotsional rivojini va kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Davlat–jamiyat hamkorligi esa bu jarayonning barqarorligini ta’minlaydi. Shu bois, kelgusida maktabgacha ta’limda **“ta’lim–ilm–amaliyot–jamiyat”** zanjirini mustahkamlash eng muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1.O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son qonuni
2.O‘zbekiston Respublikasining 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-son qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4312-sonli qarori “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil.
4.Karimova N., Qodirova M. (2021). *Maktabgacha ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash metodikasi*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5.Musurmonova O. (2022). “Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi.” *Pedagogika va psixologiya jurnali*, №2.

TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI

Shoimova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi magistri
shoimovanilufar68@gmail.com
+998902331984

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarixiy obidalar bilan tanishtirishning mazmuni, maqsadi, asosiy pedagogik tamoyillari, amaliy jarayonlari hamda o‘qituvchining faoliyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy obidalar, madaniy meros, pedagogik tamoyillar, ko‘rgazmalilik, ilmiylik tamoyili, tizimlilik, izchillik.

Аннотация: В данной статье будут освещены содержание, цель, основные педагогические принципы, практические процессы ознакомления с историческими памятниками, а также деятельность педагога.

Ключевые слова: исторические памятники, культурное наследие, педагогические принципы, наглядность, принцип научности, системность, последовательность.

Abstract: This article will cover the content, purpose, basic pedagogical principles, practical processes of familiarization with historical monuments, as well as the activities of the teacher.

Key words: historical monuments, cultural heritage, pedagogical principles, visibility, scientific principle, consistency, consistency.

Tarixiy obidalar xalqning, madaniyati, urf-odatlari, san’ati va ma’naviy merosini o‘zida mujassam etgan noyob manbalardir. Ular yosh avlodga tarixni jonli, ko‘rgazmali va chuqur his qilish imkonini beradi. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimida tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayoni bolalarning dunyoqarashi, estetik didi, vatanparvarlik tuyg‘ulari va ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonning ilmiy-uslubiy asoslari, pedagogik tamoyillari, metodik yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular puxta tashkil etilgandagina samaradorlikka erishiladi.

Har bir xalqning tarixida o‘chmas iz qoldirgan me’moriy inshootlar, qadimiy yodgorliklar, moddiy va nomoddiy meros yodgorliklari avloddan-avlodga o‘tib keladi. O‘zbekiston hududida joylashgan Ichan-Qal’a, Registon majmuasi, Shohi-Zinda, Poykent, Afrosiyob, Ulug‘bek rasadxonasi kabi obidalar xalqning beqiyos intellektual va ma’naviy salohiyatidan dalolat beradi.

Ta’lim jarayonida tarixiy obidalar bolalarda milliy g‘urur va vatanparvarlikni kuchaytiradi, o‘quvchilarning tarixga qiziqishini oshiradi, keng dunyoqarashni shakllantiradi, me’morchilik, san’at, xalq ijodi, qadriyatlar haqida tasavvur beradi hamda mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tarixiy obidalar haqida sodda tasavvur beriladi: ularning ko‘rinishi, rangi, shakli, vazifasi, tarixiy hikoyalar. Katta yosh o‘quvchilarga esa mazmunli, tarixiy, ilmiy ma’lumotlar bilan boyitilgan darslar tashkil etiladi.

Tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayoni bir qator pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Ularning har biri ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini belgilaydi. Quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Ilmiylik tamoyili: Mazmun ilmiy asoslangan, tarixiy manbalarga tayangan

holda berilishi zarur. Bunda pedagog: tarixiy faktlarning haqqoniyligini tekshirishi, noto'g'ri ma'lumot bermasligi, ilmiy tushunchalarni yoshga mos shaklda bayon qilishi kerak.

- Ko'rgazmalilik tamoyili: Tarixiy obidalarni rasmlar, videolar, xaritalar, maketlar yoki sayohatlar orqali ko'rsatish bolalarda aniq tasavvur hosil qiladi. Ko'rgazmalilik tamoyili - predmetlarga qiziqishlarini oshiradi, tarixiy obidalar haqida real tasavvur beradi, obrazli fikrlashni rivojlantiradi.
- Tizimlilik va izchillik tamoyili: Bilimlar ketma-ket va bosqichma-bosqich berilishi lozim. Avval sodda tasavvurlar, keyin tarixiy ma'lumotlar, eng so'nggida chuqur tahlil talab qiladigan mavzular o'tiladi. Bu tamoyil bilimlarni mustahkam egallashga yordam beradi.
- Tarbiyaviy yo'naltirilganlik tamoyili: Tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida bolalarga milliy qadriyatlarga hurmat, o'tmishda yashagan allomalarga mehr, vatanparvarlik, ma'naviy poklik singari fazilatlar singdirilishi lozim.
- Faollik va mustaqillik tamoyili: Bolalar, savol berish, kuzatish, tahlil qilish, mustaqil izlanish jarayoniga jalb etilishi kerak. Bu ularning mustaqil fikrlashiga yordam beradi.
- Yoshlarga moslik tamoyili: Tarixiy ma'lumotlar o'quvchilar yoshiga mos berilishi shart. Masalan:
  - ✓ bog'cha yoshida – ertaklar, hikoyalar, soddalashtirilgan ma'lumotlar;
  - ✓ maktab yoshida – tarixiy faktlar, davrlar, me'moriy uslublar;
  - ✓ o'smirlikda – mustaqil referatlar, ilmiy izlanishlar.
- Hayot bilan bog'lash tamoyili: Tarixiy obidalarni hozirgi hayot bilan bog'lash orqali o'quvchining hayotiy tajribasi, zamonaviy bunyodkorlik va milliy identiteti (o'zligi) shakllanib boradi.

1) Ekskursiya va amaliy sayohatlar

Eng samarali metodlardan biri — tarixiy obidalarga borib, bevosita tanishish. Bu jarayonda bolalar: obidaning tashqi ko'rinishi, bezaklari, me'moriy uslubi, rivoyat va tarixiy voqealar bilan yaqindan tanishadilar.

2) Ko'rgazmali metod

Rasmlar, suratlar, videoroliklar, 3D modellardan foydalanish orqali obida haqidagi tasavvurni boyitish mumkin.

3) Hikoya va rivoyatlar usuli

Tarixiy shaxslar, shahzodalar, me'morlar, ustalar haqidagi qiziqarli voqealar bolalarda katta taassurot qoldiradi.

4) Interfaol metodlar: "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "T-graf", "Savol-javob", "Topib ayt" kabi metodlar ta'limni qiziqarli va esda qolishi uchun xizmat

qiladi.

5) O'quv loyihalari

Obidalar bo'yicha mini-loyihalar yaratish: maket yasash, "virtual sayohat"lar tayyorlash. Ushbu turdagi ishlar bolalarning ijodkorligini rivojlantiradi.

Pedagog ilmiy ma'lumotlarni to'g'ri tanlashi, yoshga mos tarzda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishi, ko'rgazmali vositalarni tayyorlashi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni o'rgatishi (sayohatlar vaqtida), bolalarda savol berish va izlanish ko'nikmalarini shakllantira olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogning mahorati butun jarayon samaradorligini belgilaydi.

Vatanparvarlikni shakllantiradi. O'z yurtining obidalari bilan tanishgan bola o'zligini anglaydi, milliy g'urur tuyg'usi paydo bo'ladi va ajdodlar merosiga hurmat bilan qaraydi.

Estetik tarbiyani rivojlantiradi. Me'morchilik san'ati, naqshlar, bezaklar, rang-baranglik bolalarning estetik didini rivojlantiradi.

Ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Mehnatsevarlik, sabr-toqat, intellektual merosga hurmat, bunyodkorlik ruhini anglash kabi fazilatlar rivojlanadi.

Tarixiy tafakkurni shakllantiradi. Bola vaqt, davrlar, shaxslar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadi.

Tarixiy obidalar bilan tanishtirish ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, u o'quvchilarning ma'naviy, ma'rifiy, estetik va intellektual rivojida beqiyos o'rin tutadi. Mazkur jarayon ilmiy asoslar, pedagogik tamoyillar va zamonaviy metodlar asosida tashkil etilganda o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, milliy merosga hurmat kuchayadi va tarixiy ong shakllanadi. Shu bois har bir pedagog tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonini puxta rejalashtirishi, qiziqarli hamda ta'sirli darslar tashkil qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "Milliy madaniy merosni asrash va rivojlantirish to'g'risida"gi PQ–2789-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2001.

3. Zunnunov A.R. Milliy qadriyatlar va tarbiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

5. Yo'ldoshev J., Xodjayev A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tarixiy-madaniy meros obyektlaridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2014.

7. Qodirov R. O‘zbekiston me’morchiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2015.

8. Asqarov A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Universitet, 2016.

9. UNESCO. World Heritage in Uzbekistan. Paris, 2019.

10. Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy–axloqiy tarbiyalash bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2020.

11. Rasulova D., Usmonova Z. Madaniy meros yodgorliklari va ularni o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.

12. Normurodova G. Tarixiy obidalar bilan tanishtirishda interfaol metodlar. – “Ta’lim jarayoni” jurnali, 2022, №3.

KARYERANI RE’JALASHTIRISHDA IJTIMOIY OMILLARNING TA’SIRI

Raxmatova Sevara Abdulloyevna
[1]O‘zbekiston Respublikasi Navoiy davlat universiteti, o‘qituvchi.
Email: abdulloyevnasevara@gmail.com. tel: (998) 95 1718987

Annotatsiya. Kasbga yo'naltirish - bu pedagogika va psixologiya doirasidan tashqarida kasb tanlashga yordam berishga qaratilgan tadbirlar majmui. O‘quvchilar uchun kasbga yo'naltirish ularning individual ehtiyojlari va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilgan karyeralarni tashkil qilish bo'yicha tizimli ishlarni, shuningdek, oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga o'z sohalarida ish topishda yordam berishni o'z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: bandlik, mehnat, kasb, kasbga yo‘naltirish, o‘quvchi-yoshlar, karera, rejalashtirish.

Аннотация. Профориентация – это комплекс мероприятий, направленных на помощь учащимся в выборе профессии, выходящий за рамки педагогики и психологии. Профориентация учащихся включает в себя систематическую работу по организации профессиональной деятельности с учётом их индивидуальных потребностей и потребностей рынка труда, а также помощь выпускникам учреждений высшего и среднего профессионального образования в поиске работы по специальности.

Ключевые слова: занятость, труд, профессия, профориентация,

учащиеся, карьера, планирование.

Abstract. Career guidance is a set of activities aimed at assisting students in choosing a career outside the scope of pedagogy and psychology. Career guidance for students includes systematic work on organizing careers tailored to their individual needs and the needs of the labor market, as well as helping graduates of higher and vocational education institutions find work in their field.

Keywords: employment, work, profession, career guidance, students, career, planning.

Kirish. Aholi bandligini muayyan darajada barqaror ushlab turish har qanday mamlakat oldida turgan murakkab va muhim vazifalaridan biridir. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan barcha mamlakatlarda bandlik sohasiga ta’sir ko‘rsatish choralarni qo‘llash asosida bandlikni tartibga solish siyosati amalga oshirilmoqda.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyulda “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856-son qarori, 2020-yilning 28-aprelida esa respublikamizda aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida “Aholi bandligi to‘g‘risida“gi Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan hamda 2020-yilning 7-avgustida Senat tomonidan ma’qullangan.

Ushbu Qonunda belgilangan strategik vazifalar ijrosini ta’minlash, ya’ni mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag‘al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimi joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PK-4804-sonli qarori asosida “Ishga marhamat – monomarkazlari” Davlat dasturi tashkil etilgan.

Yuqorida keltirilgan direktiv xujjatlar mamlakatimizda mehnat bozori bilan maktablarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid faoliyatni o‘zaro uyg‘unlikda rivojlantirish – bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

Materiallar va usullar. Aholi bandligini ta’minlash masalasi pedagogika

va psixologiya fan sohalari bilan bir qatorda, iqtisod va sotsiologiya uchun ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Kasb tanlash muammosi har bir shaxs oldida turgan muhim vazifa bo‘lib, ushbu qadam insonning keyingi hayotini belgilab berishi mumkin. Biroq o‘quvchi-yoshlarning barchasi ham birinchi urinishda to‘g‘ri tanlov qila olmaydi. Shu sababli, umumiy o‘rta ta'lim maktablarida o‘quvchilar karerasini rejalashtirishini ilmiy asosda tashkil etish mehnat bozorining malakali kadrlarga bo‘lga ehtiyojini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda muhim omil sanaladi.

Aholini mehnat bilan ta’minlashda davlatning ustuvor vazifalaridan biri – aholining, xususan o‘rta umumta’lim muassasalarini bitirgan yoshlarning bandligini doimiy ravishda ta’minlash va uning tarmoqlar tarkibini takomillashtirishdan iborat. Chunki mehnat va bandlik bozoridagi hozirgi holat yoshlarning o‘zini-o‘zi kasbiy belgilashlari uchun eng noqulay sharoitlarni yuzaga keltirayotgan bo‘lib, ko‘p hollarda ularga taklif qilinadigan mehnat faoliyati qiziqishlari, qobiliyatlari yoki mutaxassisliklariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Yoshlik - bu insonning butun hayoti yo‘lidagi asosiy bosqichlardan biri bo‘lib, ularning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga hayotiy strategiyalari ta’sir qiladi. Hayot strategiyasini "ijtimoiy yo‘nalishlar (muayyan ijtimoiy guruhlarga qo‘shilish orqali kerakli ijtimoiy mavqega erishishga qaratilgan ma’noda), madaniy yo‘nalishlar (ma’lum madaniy qarashlarni qabul qilish) va shaxsiy yo‘nalishlar (hayotiy manfaat va ehtiyojlarni ifodalash nuqtayi nazaridan)" deb ta’riflanishi mumkin. Binobarin, xayot strategiyasi insonning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy istiqbolini belgilaydi” [Социальная работа ..., 1998: 87]

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o‘sish sur’atlarining band bo‘lgan aholi sonining o‘sish sur’atlaridan ancha yuqoriligi jamiyatning demografik rivojlanish xususiyatlaridan biri bo‘lib, [Axmedova M., 2013] bunda demografik jarayonlar – globalizatsiya, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, makro-iqtisodiy inqirozlar va iqtisodiy pasayishlar bilan bir qatorda – aholining mehnatda bandlik darajasiga ta’sir ko‘rsatadigan omil hisoblanadi [Tolametova Z.A., 2019: 28]

Xorijiy davlatlarda «kasbga yo‘naltirish» («professional orientation») atamasi mavjud emas. Xalqaro amaliyotda bu atama o‘rnida «karyerani rejalashtirish» va «karyerani rivojlantirish» (career planning, vocational guidance, career development) tushunchalari qo‘llaniladi.

Xorijiy tadqiqotchilar (S.Vuds, F.Patterson, B.Vill va A.Kozvar hamda K.Shnitslyayn, D.Li, J.Vays va K.Vorner) karyerani rejalashtirish muammolarini

tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida karyera boshqaruvining mohiyati va vazifalariga nisbatan psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratganlar [Both feet …, 2015].

B.Avils, L.Rassel-Chepin va S.Raybek esa maktablarda o'quvchilar karyerasi boshqarish va kasbiy maslahat berish tizimining shakllanish tarixini tadqiq etgan bo'lib, karyera bo'yicha maslahat berishning shaxsni kasbiy va intellektual rivojlanishidagi axamiyatini ilmiy asoslab bergan [Aviles B.D. et al.].

O'rta maktab o'quvchilarining kasb tanlash muammosi bo'yicha juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ular " kasbiy o'zini o'zi belgilash" tushunchasiga turlicha ta'rif beradilar.

Kasbiy o'zini o'zi belgilashning yana bir muhim omili – kasbiy faoliyatning intellektualizatsiya darajasidir. "Agar shaxsning intellektual va kasbiy salohiyatini qo'llash darajasi intellektual va kasbiy faoliyat darajasiga to'g'ri kelsa, shaxsning rivojlanishi uning qobiliyatiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Bu insonning turli ta'lim bosqichlariga (boshlang'ich, o'rta, oliy kasbiy) bir xil darajada taalluqlidir" [Шалавина Т.И., 2004: 98-120]

Bunda ikkita vazifa bajarilishi talab etiladi: birinchisi – ma'lumotlar bazasini yaratish, ikkinchisi – motivatsion asosni yaratish bo'lib, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish bilan bir qatorda kasbiy qiziqishlarining shakllanishi samaradorligini oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, kasblar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratishda nazariy fanlar katta imkoniyatlarga ega. Buning uchun ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar fan yoki ishlab chiqarishning qaysi soxalarida qo'llanilishi mumkinligi, kasb egalari uchun bu bilimlardan tashqari qanday malaka va ko'nikmalar zarur ekanligi xaqida tegishli ma'lumotlar havola etiladi. Ta'lim jarayonida muammoli, tadqiqot-izlanishli o'qitish, mustaqil ta'lim xamda amaliy mashg'ulotlarnig imkoniyatlaridan foydalanish esa o'quvchilarni kasbga yo'naltirish samaradorligini yanada oshirib [Зеер Э.Ф. и др., 2005: 159], kelajakdagi kareralarini rejalashtirishda muhim axamiyatga ega bo'ladi.

N.Litoiu mehnat bozori va ta'lim tizimi o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishda karyera boshqaruvining ahamiyatini tahlil qilib, karyerani rejalashtirish masalasida kasbiy maslahat tizimi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini mehnat bozori hamda iqtisodiyot ehtiyojlari bilan o'zaro yaqinlashtirish imkonini beradi, deb xulosa qilgan [Litoiu N., 2015].

N.S.Pryajnikov karyera boshqaruvi yo'nalishiga asos qo'ygan bo'lib, u kasbga yo'naltirish metodologiyasini hamda kasbiy yo'naltirishni faollashtirish sohasidagi yondashuvlarni ishlab chiqqan [Пряжников Н. С., 2008]

N.Gelliot va L.Grexam maktab o‘quvchilarining shaxsiy karyera trayektoriyasini loyihalashi, ularni mavjud resurs va imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishlari uchun tanlov fanlari va kurslarni ongli ravishda tanlashlalriga yo‘naltiraishini ilmiy asoslaganlar [Galliott N. et al., 2015: 179-199]

K.Shnitslyayn, D.Li, J.Vays va K.Vorner harbiy sohada karyera boshqaruvini erta boshlash masalalari, xususan, harbiy xizmatchilarning akademik tayyorgarlikdan so‘ng xizmat vazifalariga o‘tish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni ilmiy tadqiq etganlar [Both..., 2015].

NATIJA VA MUHOKAMA. Karyera rejasi — bu uzluksiz ta’lim va karyera o‘sishi uchun yo‘l xaritasi bo‘lib, uni o‘quvchining «bugungi» holatidan istalgan «ertangi» manziliga yo‘naltirib, rivojlanish yo‘lida harakatlanishga yordam beradigan shaxsiy andoza sifatida qabul qilish mumkin.

“Karyera” tushunchasini shaxsning kasbiy faoliyat orqali o‘zi o‘zini belgilashi va e’tirof etilishini amalga oshirishi jarayoni deb tavsiflash mumkin [Raxmatova S.A., 2025]. Shaxsning kasbiy faoliyat orqali o‘zi o‘zini anglash jarayoni ishga joylashishdan emas, balki kasbiy faoliyat sohasini aniqlab unda yuqori martabalarga erishish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda lavozim pog‘onalarida martabaning o‘sish yo‘llarini rejalashtirishdan boshlanadi.

Karyerani baholash – bu shaxsning qiziqishlari, qadriyatlari va ko‘nikmalarini aniqlashga yordam beradigan turli usullardan iborat. Karyera bo‘yicha maslahat markazlari, biznes-trenerlar, ishga joylashtirish agentliklari ushbu baholashni o‘tkazib, shaxsga mos keladigan karyerani aniqlashga yordam beradi.

Karyerani rejalashtirish kasbiy maslaxatchi bilan va uning yordamida amalga oshirilishi kasbiy o‘zi-o‘zini anglashning yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi [Raxmatova S.A., Gulyamov Dj.R. 2025].

A.T.Kuzyashev [2020] , Ye.D.Dadiko [2020] , Ye.A.Mogilyovkin [2017] , G.G.Zaysev va G.V.Cherkasskaya [Управление ..., 2018] kabi bir qator tadqiqotchilar o‘quvchining shaxsiy karyera rejasini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik-psixologik shartlarasosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar.

Buning uchun o‘quvchining shaxsiy karyerasi axborot va motivatsion asoslarda rejalashtirilishi kerak. Ushbu shartning bajarilishi yaqin kelajakda o‘quvchining shaxsiy kasbiy o‘sishi boshlanishini ta’minlaydi [Гулямов Д.Р., 2014: 14-18]

XULOSA. Aholini ish bilan bandligi ta’minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlarning unumli va qulay imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari bilan

birga, respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quvchi-yoshlarini kasbga yo‘naltirish qaratilgan majmuaviy tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim, deb xisoblaymiz.

Mehnat va bandlik bozoridagi hozirgi holat yoshlarning o‘zini-o‘zi kasbiy belgilashlari uchun eng noqulay sharoitlarni yuzaga keltirayotgan bo‘lib, ko‘p hollarda ularga taklif qilinadigan mehnat faoliyati har doim xam ularning qiziqishlari, qobiliyatlari yoki mutaxassisliklariga to‘g‘ri kelavermaydi.

Shaxsiy karyera rejasi shaxsni katta qadamlar bilan maqsad sari olib boradigan yo‘llarni ongli ravishda tanlashiga hamda rejalashtirilgan natijaga erishish imkonini bermaydigan samarasiz yo‘llardan voz kechishiga yordam berishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Aviles B. D., Russell-Chapin L., Rybak C. J. Role of counselors in multidisciplinary interactions in special education. interdisciplinary connections to special education: important aspects to consider // Interdisciplinary Connections to Special Education: Important Aspects to Consider (Advances in Special Education). 2015. Vol. 30A. Pp. 59–79.

2. Both feet in: Maintaining an academic focus during the transition from residency to a first military assignment / W. Schnitzlein [et al.] // Academic Psychiatry. 2015. Vol. 39, no. 4. Pp. 372–375. DOI: 10.1007/ s40596-015-0369-y

3. Galliott N., Graham L. J. School based experiences as contributors to career decision-making: findings from a cross-sectional survey of high-school students // Australian Educational Researcher. 2015. Vol. 42, no. 2 SI. Pp. 179–199. DOI: 10.1007/s13384-015-0175-2

4. Litoiu N. Career counseling – the solution for bridging the gap between education and labour market // Journal of Educational Sciences & Psychology. 2015. Vol. 5, no. 1. Pp. 66–77.

5. Raxmatova S.A Maktab o’quvchilarini kasbga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari // Kasb-hunar ta’limi: Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal, 2025-yil, 8-son. -B. 244-249.

6. Raxmatova S.A., Gulyamov Dj.R. Kasbiy maslahat – maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishning samarali vositasi sifatida // Maktabgacha va maktab ta’limi: J. 2025-yil, sentyabr, 9-son. -B. 980-985.

7. Tolametova Z.A. Demografik jarayonlar va aholining samarali mehnatda bandligini ta'minlash Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi 2019, 7(127). -B.25-35.

8. Гулямов Д.Р. Пантин Р. Система профессиональной ориентации

учащихся в современных условиях // Ж. “Педагогика”, -Т., 2014. № 3, -С.14-18

9. Дадыко Е.Д., Кузяшев А.Н. К вопросу об индивидуальном карьерном плане и вариантах его выполнения // Ж.: Экономика и бизнес: экономика и практика. межд...научн. журн, № 4-2 (62), апрель 2020. С. 61-64.

10. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Садовникова Н.О. Основы профориентологии. – М.: Высш. Шк., 2005. - 159 с.

11. Кузяшев А.Т. и др. К вопросу о методах разработки карьерного плана // Ж.: “Эпоха науки”, № 22. 2020. – С.250-254.

12. Могилёвкин Е.А. Карьерный рост: диагностика, технологии, тренинг: монография. – СПб.: Речь, 2017. – 336 с.

13. Пряжников Н.С. Профессиональное самоопределение: теория и практика. М.: Академия, 2008. 320 с.

14. Социальная работа: Методология, теория, технологии: Учебное пособие: в 2ч. Ч.2. / И.Н.Иванова, В.Т.Кривошеев, Д.В.Петров и др. Саратов: Изд-во Поволж. межрегион. учеб. центра, 1998.

15. Шалавина Т.И. Социология молодёжи в контексте социальной работы. Саратов, СГТУ, 2004. С. 98-120.

PEDAGOGIK MAHORATDA NUTQNING AHAMIYATI

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani
8-umumta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi
N.R.Mansurov
Тел:99.946-47-81

Annotatsiya: Pedagogik mahoratda nutq juda katta ahamiyatga ega. Chunki o‘qituvchi nutq orqali o‘quvchilarni darsga jalb qiladi, darsning samaradorligini oshiradi, o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida nutq ustida muntazam ishlashi, uni boyitib borishi, zamonaviy nutq madaniyati talablariga mos rivojlantirishi zarur.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, texnologiya, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, nutq haqida fikrlar.

Pedagogika (yun. paidagogika) — tarbiya, ta’lim hamda ma’lumot

berishning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rgatuvchi fanlar majmuasi bo‘lib, muhim o‘rinni egallaydi. Pedagogika fani sifatida bola tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘rganadi. Tarbiya jarayonini har tomonlama tashkil etish, ta’limni samarali yo‘lga qo‘yish, shuningdek, o‘quvchilarni shakllantirish pedagogika nazariyasining asosini tashkil qiladi.

Pedagogika fanining rivojlanishida bir qator mutafakkirlar, olimlar, ma’rifatparvarlar muhim o‘rin tutgan. Ular o‘z qarashlari bilan tarbiya, ta’limning mohiyati, inson kamoloti masalalariga oid fikrlarni ilgari surishgan. Tarbiyaning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchining nutqi, uning fikrni ifoda etish qobiliyati, o‘quvchilar bilan muloqot jarayonini to‘g‘ri tashkil qila olishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchi har bir darsni puxta tayyorlab kelishi, o‘quvchining yosh xususiyatini, qiziqishlarini hisobga olishi muhim hisoblanadi.

Pedagogik mahoratning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri — o‘qituvchining nutq madaniyatidir. Dars jarayonida o‘qituvchining nutqi toza, ravon, tushunarli bo‘lishi, talaffuzi aniq bo‘lishi lozim. O‘quvchilarni mavzuga jalb qiluvchi nutq esa darsning samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi nutqining boy bo‘lishi uchun u doimo o‘z ustida ishlashi, ko‘proq o‘qishi, nutq madaniyati bo‘yicha qo‘llanmalar bilan tanishib borishi kerak. Pedagogik mahoratda nutq alohida o‘rin egallaydi. Nutq inson tafakkurining o‘ziga xos ifoda vositasidir. O‘qituvchining nutqi pedagogik mahoratning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchining nutqi uning bilim saviyasi, tafakkuri, fikrni bayon qilish mahorati, dunyoqarashi va kasbiy malakasini namoyon etadi. Shu sababli o‘qituvchi nutqida aniqlik, mantiqiylik, ravonlik, izchillik bo‘lishi talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va boshqa hujjatlarda barkamol avlod tarbiyasida o‘qituvchining nutq madaniyati, nutqning ta’sirchanligi, o‘quvchi bilan muloqotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Sharq mutafakkirlari ham nutq madaniyati, so‘zning qudrati, fikrning ifodalanishiga juda katta ahamiyat berishgan. Ularning ta’kidlashicha, nutq insonning aqlli yoki aqlsizligini, bilimli yoki bilimsizligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Nutqning ta’sirchanligi — o‘qituvchining muvaffaqiyatli faoliyatining muhim sharti. So‘zning kuchi, uning mazmuni, uning o‘quvchiga ta’sir etish darajasi katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli nutq o‘qituvchi uchun nafaqat aloqa vositasi, balki tarbiyaviy ta’sirning eng muhim vositasidir. Avvalo

mavzuning mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, pedagogik mahorat bugungi kunda har bir o'qituvchidan talab qilinadi. O'qituvchi bir soatlik dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini darsga jalb qila olishi, mavzuni sodda, tushunarli ifodalay olishi, o'quvchilarga mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni singdira olishi pedagogik mahoratning asosiy mezonidir. O'qituvchi darsni aniq, ravon nutq bilan tashkil qilishi uchun uning nutqi boy bo'lishi, so'zlarni o'rinli tanlay olishi, fikrlarini izchil bayon eta olishi muhimdir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanganda samaradorlikning yanada yuqori bo'lishiga erishadi.

Pedagogika tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, pedagogika atamasining ildizi (paidagogos, to'g'orastakoneu), "bola yetaklovchi" ma'nolarini bildiruvchi iboradan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, qadimgi Yunonistonda uy xo'jaligining bolalarini sayr qildirgan, o'qitib boradigan kishilarni "pedagog" deb atashgan. Keyinchalik esa maxsus o'qituvchilar kasb sifatida pedagog deb atalgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi nutqi darsning samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. So'zning kuchi, uning ta'sirchanligi, aniqligi va ohangi o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi yoki aksincha, pasaytirishi mumkin. Shu bois o'qituvchi nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Markaziy Osiyo va Sharq mutafakkirlari so'z va nutqning inson hayotidagi o'rnini, uning ahamiyatini doimo yuksak baholaganlar. Ularning fikricha, nutqning kuchi — insonning aqlan yetukligi, tafakkurining boyligi, bilim darajasi bilan belgilanadi. So'zning yengil yoki og'irligi, ta'siri va qadr-qimmati insonning ma'naviy olami bilan bog'liqdir. Mutafakkirlar: "So'z tug'diradi, so'z yo'q qiladi; so'z insonni ulug'laydi, so'z insonni yiqitadi" degan fikrlarni ilgari surganlar. Bu qarashlar o'qituvchi uchun ham juda muhimdir. Chunki o'qituvchining nutqi o'quvchini ruhlantirishi, fikrlashga undashi, bilimga chanqoqligini oshirishi yoki aksincha — uni to'xtatib qo'yishi mumkin.

Shunday ekan, o'qituvchining nutqi quyidagi asosiy talablarga mos bo'lishi shart:

- talaffuzi aniq va ravon bo'lishi;
- mantiqiy bo'lishi va fikr izchilligi saqlanishi;
- o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishi;

- nutqda ortiqcha so‘zlar, keraksiz takrorlar bo‘lmasligi;
- mazmun boyligi va ta’sirchanlik saqlanishi.

Demak, o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida nutq ustida muntazam ishlashi, uni boyitib borishi, zamonaviy nutq madaniyati talablariga mos rivojlantirishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahoratning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri — bu o‘qituvchining nutqidir. Nutq orqali o‘qituvchi bilim beradi, o‘quvchini tarbiyalaydi, uni motivatsiya qiladi, dars jarayonini boshqaradi.

- Shu sababli har bir o‘qituvchi:
- o‘z nutqini boyitib borishi,
- har bir dars oldidan nutqiy tayyorgarlik ko‘rishi,
- o‘z ifoda uslubini takomillashtirishi,
- ta’sirchan so‘zlash san’atini o‘rganishi lozim.

Pedagog o‘z nutqini qanchalik ravon, lo‘nda, ta’sirchan, tushunarli qilib bera olsa, dars samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi. O‘qituvchi so‘zi — tarbiyaning kuchli vositasidir.Shuning uchun nutq madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchi har doim muvaffaqiyatga erishadi, o‘quvchilarning hurmatiga sazovor bo‘ladi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Qudratova E’zoza Bahodir qizi
Navoiy davlat universiteti 70110201-ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi mutaxasisligi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish jarayonining pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilingan. Iqtisodiy fikrlashning erta rivojlanishi bolaning kelajakdagi ta’limi va hayotiy kompetensiyalariga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan samarali metodlar, oila

va bog‘cha hamkorligi, o‘yin texnologiyalari va individual yondashuvlarning o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy tushunchalar, psixologik rivojlanish, pedagogik yondashuv, o‘yin texnologiyalari, iqtisodiy fikrlash.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и психологические основы процесса формирования экономических понятий у детей дошкольного возраста. Освещено научно обоснованное влияние раннего развития экономического мышления на дальнейшее обучение ребёнка и формирование жизненных компетенций. Также раскрыта роль эффективных методов экономического воспитания, сотрудничества семьи и детского сада, игровых технологий и индивидуального подхода.

Ключевые слова: дошкольное образование, экономическое воспитание, экономические понятия, психологическое развитие, педагогический подход, игровые технологии, экономическое мышление.

Annotation: This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of the process of forming economic concepts in preschool children. It highlights the scientifically grounded impact of early economic thinking on a child's future education and the development of essential life competencies. The article also explores the role of effective methods of economic education, cooperation between the family and preschool institutions, the use of play-based technologies, and the importance of an individual approach.

Keywords: preschool education, economic education, economic concepts, psychological development, pedagogical approach, play-based technologies, economic thinking.

«Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va bolalarimizning kelajagi faqat ta’lim va muallimga bog‘liq», - degan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev[68]. Ushbu fikr maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirishning naqadar dolzarb vazifa ekanini ko‘rsatadi. Zero, maktabgacha yosh inson tafakkurining eng jadal rivojlanadigan bosqichi bo‘lib, bu davrda iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy bilimlar uchun zarur psixologik poydevor yaratiladi[69].

Maktabgacha yoshdagi bolaga iqtisodiy dunyoni oddiy, amaliy va hayotga yaqin misollar orqali tushuntirish lozim. Shuning uchun pedagoglar zimmasiga iqtisodiy tarbiyani bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va rivojlanish bosqichlariga mos holda tashkil qilish vazifasi yuklanadi.

[68] Mirziyoyev Sh. “Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va bolalarimizning kelajagi faqat ta’lim va muallimga bog‘liq”. Tashkent, 2022.
[69] Karimova N. Maktabgacha ta’limda iqtisodiy tarbiya. T.: Pedagogika, 2020.

Maktabgacha yosh bolaning atrof-muhitni faol idrok etish davridir. Iqtisodiy tushunchalarning ilk shakllari — **mehnat**, **bo‘lishish**, **tejamlilik**, **tanlov**, **mas’uliyat**, **buyumning qiymati** kabi tasavvurlar aynan shu yoshda paydo bo‘la boshlaydi.

Iqtisodiy tafakkurning erta shakllanishi bolaga resurslardan oqilona foydalanish ko‘nikmasini berishga, ehtiyoj va xohishlarni ajrata olishga, tanlov asosida qaror qabul qilishga, moliyaviy intizomning boshlang‘ich shakllarini o‘rganishga va mehnatga hurmat hamda javobgarlik hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon bolani keyingi maktab ta’limiga tayyorlaydi va kundalik hayotda ongli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar abstrakt kategoriyalarni qabul qila olmaydi, shuning uchun iqtisodiy tushunchalar real hayotiy misollar, o‘yinlar, kuzatishlar va muloqot orqali berilishi lozim. Masalan, do‘konga birga borib narxlarni solishtirish, o‘yinchoqlarni qimmat–arzonligi bo‘yicha saralash, uy ishlarida kichik mas’uliyatlar berish yoki «sotuvchi–xaridor» o‘yinlarini o‘tkazish orqali bola iqtisodiy tushunchalarni osonroq o‘zlashtiradi. Shu bilan birga, o‘yin — bolaga eng tabiiy o‘rganish shakli bo‘lgani uchun iqtisodiy tarbiyadagi eng samarali metodlardan biridir. Eng qulay o‘yinlar sifatida «Do‘kon» va «Bozor», «Bank» va «Jamg‘arma qutisi», shuningdek, «Nimani tanlaysan?» kabi tanlovli o‘yinlar yoki qurilish-konstruktor o‘yinlari, natija va mehnat bog‘liqligini tushuntirish uchun ishlatilishi mumkin. Amaliy mashg‘ulotlar esa iqtisodiy tushunchalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi, masalan, mini-loyihalar orqali ko‘chat yetishtirib uning narxini belgilash, kichik guruh jamg‘armasini yaratish, kichik byudjetni rejalashtirish va mazmunli topshiriqlar yordamida mehnat jarayonini ko‘rsatish. Shu bilan birga, iqtisodiy tarbiyada oila hal qiluvchi o‘ringa ega, chunki ota-onalar pulni to‘g‘ri sarflashni o‘rgatsa, xarid jarayoniga bolani jalb etsa va tejash odatini namoyish qilsa, bu tarbiya yanada mustahkamlanadi, va bog‘cha esa ushbu jarayonni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

Bolaning psixologik rivojlanishi ham iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda muhimdir. Masalan, 3–7 yoshdagi bola sabab–oqibatni tushunishi, solishtirishni bilishi, oddiy tahlil qilishi va kattalar xulqini takrorlashi orqali iqtisodiy turkumdagi tushunchalarni o‘rganadi. Shu bilan birga, agar iqtisodiy bilim qiziqarli, emotsional jihatdan yoqimli va rag‘batlantiruvchi bo‘lsa, u oson o‘zlashtiriladi, va maqtov, natijani ko‘rish hamda tengdoshlar bilan hamkorlik bu jarayonni mustahkamlaydi. Bola muloqot davomida bo‘lishish, navbat kutish, almashish va baholash kabi iqtisodiy-ijtimoiy ko‘nikmalarni

o‘rganadi, shu bilan birga, har bir bolaning rivojlanish sur’ati turlicha bo‘lgani sababli faol bolalarga rolli o‘yinlar, tinch bolalarga kuzatish va tahlil, ijtimoiy faol bolalarga esa guruhiy mashg‘ulotlar yanada mos keladi. Shu bilan birga, iqtisodiy tarbiyada samarali metodlar sifatida ko‘rgazmali ta’lim, muammo–vaziyat usuli, rolli o‘yinlar, amaliy mini-loyihalar, kuzatish va suhbat, shuningdek, jamg‘arma qilish va rejalashtirish qo‘llaniladi.

Mening tadqiqotim davomida maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tafakkur erta yoshda shakllanishi bolaning resurslardan oqilona foydalanish, tanlov asosida qaror qabul qilish, moliyaviy intizom va mehnatga hurmat kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, real hayotiy misollar, o‘yinlar, mini-loyihalar va amaliy mashg‘ulotlar orqali bolaga iqtisodiy tushunchalarni tushuntirish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish, pedagogik va psixologik jihatlarni hisobga olgan holda, bolaning kelajakdagi ta’limi va ijtimoiy hayotga tayyorgarligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlari va mavzuga oid chiqishlari.
2. Karimova N. Maktabgacha ta’limda iqtisodiy tarbiya. T.: Pedagogika, 2020.
3. Tursunov B. Psixologik rivojlanish va bolalarda iqtisodiy tafakkur. Samarqand, 2019.
4. Akhmedov S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy bilimlar bilan tanishtirish metodlari. Toshkent, 2021.
5. G‘aniyeva D. O‘yin texnologiyalari orqali iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish. T.: Ilm-fan, 2020.
6. G‘oziev E.G. *Bola psixologiyasi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
7. To‘laganova N. *Maktabgacha ta’lim metodikasi*. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
8. Abdullaeva Q. *Maktabgacha yoshdagi bolalar rivoji*. — Toshkent, 2019.
9. Xalqaro maktabgacha ta’lim standartlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar (UNESCO, UNICEF).

ТАЬЛИМ ЖАРАЕНИДА РЕФЛЕКСИВ МУХИТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОСИ

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Навоий бўлими, таянч докторант
Эшпўлатова Азиза Алишеровна

Kirish ma'lumotlari/dolzarbligi. *Мазкур тезис олий таълим муассасалари талабаларига таьлим бериш жараенида рефлексив мухитни ривожлантириш муаммосини ўрганишга бағишланган.*

Usullar. *Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-metodologik adabiyotlar, ilmiy dissertatsiyalar va maqolalarning nazariy tahlili.*

Natija ва мухокама. *Талабаларга таьлим бериш жараенида рефлексивликни ривожлантириш фақат аудитория дарслари жараёнида эмас, балки мустақил иш жараёнида ҳам амалга оширилиши лозим. Шу мақсадда талабаларга турли топшириқлар, тафаккурий хариталар, кундаликлар ва эсселардан фойдаланиш таклиф этилади.*

Xulosalar. *Рефлексия – ўзини ўзи тартибга солувчи тизим сифатида инсоннинг психологик ташкил этилишидаги кўп даражали акс алоқа, когнитив ва шахсий фазилатлар тузилмаси шаклланишига таъсир қилувчи кучли механизм хисобланади.*

Kalit so'zlar: *касбий фаолият, рефлексивлик, ривожланиш, педагогик ривожланиш, талабалардаги рефлексивлик, рефлексив кўникмалар,*

Кириш маълумотлари / долзарблиги. Айни дамда талабаларга таьлим бериш жараенида рефлексив муҳитни яратиш олий таълим муассасаларидан алоҳида курслар ва фанларни анъанавий ўқитиш шаклларидан модулли тизимга ўтишни талаб қилади. Унда ҳар бир модуль касбий стандарт талабларига мос муайян касбий ҳаракатлар мажмуасини шакллантиришга қаратилган мураккаб амалий-йўналтирилган бирлик ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги Фармонида[70] касбий фаолиятни шакллантиришга йўналтирилган таълим муҳитини шакллантиришнинг педагогик тизимини такомиллаштириш муҳим устувор вазифалардан этиб белгиланганлиги ҳамда замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар

[70] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони // https://lex.uz/docs/3107036

тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси[71] тасдиқланганлиги ёркин мисол бўла олади.

Материаллар ва усуллар. Психологияга оид илмий ва илмий-услубий адабиётларда рефлексия когнитив, генетик, шахсиятли ва коммуникатив жиҳатларда ўрганилган. Хусусан, замонавий психологик луғатда рефлексиянинг ўзини ўзи назорат қилиш ва бошқариш жараёни билан боғлиқлиги таъкидланган. Кундалик ҳаётда касбий рефлексия инсонга қандайдир воқеа ёки ҳодисани бошидан ўтказиш, уни "ички дунёси" орқали ўтказиб бериш имконини беради, - деб таъриф берилган [Словарь ..., 2017].

Педагогикада рефлексив мухитни шакллантириш ва ривожлантириш рефлексив кўникмалар, қобилиятлар ва шахсий сифатларни ривожлантиришни талаб қилади. Рефлексив кўникма ва қобилиятлар даражасининг ортиши педагогнинг фақатгина касбий фаолиятга тайёр бўлиши эмас, балки ўз фаолияти натижаларини баҳолай олишига ҳам хизмат қилади. Педагог тайёргарлиги жараёнида қуйидаги турдаги рефлексив кўникмалар шакллантирилади:

—умумий касбий рефлексив кўникмалар — кенг қўлланиладиган, таълим жараёнининг барча босқичларида зарур бўлган таҳлил, баҳолаш, фикр юритиш, ўзига савол бериш ва ўқув фаолиятини тузишга оид кўникмалар;

—махсус касбий рефлексив кўникмалар — педагогик фаолиятнинг аниқ соҳаларидаги муаммоларни англаш ва таҳлил қилиш, уларга хос бўлган ҳолатларни қайта кўриб чиқиш ва ечим топиш қобилиятини қамраб олади.

Бу кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш натижасида педагог мустақил фикр юритувчи, танқидий таҳлил қила оладиган ва ўз фаолиятига масъулият билан ёндашадиган касбий мутахассис сифатида етишиб чиқади [Борисова Л.Н., 2015].

[71] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сонли Фармони / https://lex.uz/docs/4545887

Ҳар қандай шахснинг шахсий ва касбий ривожланиши рефлексив жараён билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, ривожланиш нафақат касбий нуқтаи-назардан, балки жисмоний ва интеллектуал жиҳатдан ҳам таъминланади.

Педагогик жараёнда ташкил этиладиган рефлексив таълимий муҳит ўқувчи-талабаларда танқидий ва таҳлилий фикрлаш кўникмаларини шакллантириш ва ривожлантиришга ижодий таъсир кўрсатувчи муҳит сифатида хизмат қилади. Чунки рефлексив ёндашув жараёнида ўқувчи-талабалар ўрганилаётган мазуларнинг мазмун-моҳияти ҳамда ўтмишдаги ва бугунги кундаги аҳамиятини мустақил равишда таҳлил қилиш ва объектив баҳолаш асосида хулоса чиқаради [Дмитриева Т.В., 2009].

Бунда талабанинг таьлим олиш жараенида рефлексив хатти-ҳаракатига муайян касбий билим ва кўникмаларнинг мавжудлиги эмас, балки касбий фаолияти ва ўзини рефлексия қилиш зарурлигини тушуниш ва англаш ҳамда рефлексия қилаётган субъект нуқтаи назаридан атроф-муҳитни чуқур ҳис этиш унинг хатти-ҳаракатларини белгилайди.

Педагогик жараёнларда ташкил этиладиган рефлексив таълимий муҳит ўқувчи-талабаларда: – мавжуд воқеликни қабул қилишда очиқ ва кенг мушоҳадали, сезгир ва муаммоларга нисбатан муросасиз бўлиш; – ҳар томонлама ўйлаб кўриш асосида таҳлил қилиш ва объектив баҳолаш; – янги тушунчаларни ўрганишда уларнинг аҳамиятини инобатга олиш, мазкуртушунчаларга бўлган муносабатларнинг ижобий ва салбий томонларини таҳлил қилиш,таққослаш; –тушунчаларнинг мазмун-моҳияти ва бугунги кундаги аҳамиятини англаш; - барча қарашлар, урф-одатлар, анъана, қадрият ва маданиятни яхлит ва ўзаробоғлиқлигини тушуниш; – ўз дунёқарашини кенгайтиришга ёрдам берувчи воқеа ва воситаларни ўрганиш,билмаганларини ўзлаштириш; – нотўғри тасаввурлар, хато ва қийинчиликларни енгиб ўтишга, шунингдек, янгича дунёқарашни шаклланишига имкониятлар яратади [Бехоева А.А, 2005]

Натижалар. Мавзуга оид илмий тадқиқотлар таҳлили шуни кўрсатдики, рефлексив мухит – бу қайсидир маьнода касбий муаммони фикран таҳлил қилиш жараёни бўлиб, мавжуд муаммонинг моҳиятини шахсий идрок қилиш ва ечимини топишнинг янги истиқболлари аниқлаш имконини беради.

"Касбий рефлексив муҳит" кенг ижтимоий контекстида рефлексив актларни юзага келтирувчи омиллар мажмуасини ифода этувчи психологик тушунча ҳисобланади. Унинг муҳим жиҳати шундаки, субъект нафақат рефлексия ташувчиси, балки тасодифий ва объектив таъсирларга

учрайдиган объект ҳам бўлиб қолади.

Рефлексия талаба томонидан ўзи-ўзини англаш жараёни бўлиб, бўлажак мутахассиснинг касбий кредоси, ўз-ўзини баҳолаш, ўз касбий профилини аниқлаш ҳамда уни мутахассиснинг намунавий эталони билан қиёслаш қобилиятини ривожлантиради [Биктагирова Г.Ф., 2009].

Қуйидаги ҳолатлар таълим жараенида талабаларда рефлексивлик ривожланишида аҳамиятли ҳисобланади:

1) ҳар қандай педагогик рефлексия шубҳаларни (инсоннинг ўзига, ўз позициясига, имкониятларига нисбатан шубҳаланиши) назарда тутади. бу шубҳалар пессимистик (пассивлик, фаолсизлик, муваффақиятга ишончсизлик) ёки аксинча, оптимистик (фаол ҳаракатга ундовчи, ўзи устидан ғалаба қозонишга, вазиятларни енгишга, ўзини намоён қилиш усулларини излаш ва амалга ошириш) натижаларга олиб келиши мумкин;

2) рефлексия касбий сифатларнинг мавжудлиги аниқлаш билан бирга уларнинг ривожланиши, бойиши ва мустаҳкамланишини рағбатлантиради;

3) рефлексив жараёнлар спонтан (ўз-ўзидан) содир бўлиши, махсус ташкил этилиши ва бошқарилиши мумкин [Девятова И.Е., 2017].

Хулоса. Касбий рефлексивликни ривожлантириш масаласи – самарадорлик шарти сифатида намоён бўлади. Таълим жараёни шу даражада динамик ва ўзгарувчанки, бўлажак касбий фаолиятнинг барча сир-асрорларини бир марта ва абадий ўзлаштириб бўлмайди. Бугун муваффақиятли қўлланилган усул, эртага самарасиз, ҳатто зарарли бўлиши мумкин. Шу боис, малакали касбий фаолият табиатан ижодий жараён бўлиб, мутахассис ўз ишини узлуксиз таҳлил қиладиган, рефлексияга мойил бўлиши керак.

Рефлексив таълим муҳити талабага ўз ҳис-туйғуларини, ҳолатларини ва хатти-ҳаракатларини таҳлил қилиш ва уларни тўғрилаш имконини беради. Биз биладиган нарсаларимиз ва ҳис-туйғуларимиздан иборатмиз, лекин билиш ва ҳис қилиш фақатгина бошқалар ва моддий олам билан ўзаро таъсиримиз жараёнида мавжуд бўлади ва юзага чиқади; билиш ва ҳис қилиш эса ўз навбатида бу ўзаро таъсирларни шакллантиришда иштирок этади [Халботаева Д.У., 2022].

Бошқача қилиб айтганда, шахс ўзи-ўзини маданий ривожлантириши натижасида ўқув-билув ҳаракатларини такомиллаштиради. Бундай кўникмаларни талабалар пухта ўзлаштииришлари уларга келажакда ўз касбий ривожланишлари билан боғлиқ муиаммоларни ҳал қилишларида самарали ёрдам беради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони // https://lex.uz/docs/3107036

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сонли Фармони / https://lex.uz/docs/4545887

3. Бехоева А.А. Развитие профессионально-педагогической рефлексии у студентов университета - будущих учителей. Автореф. дисс… кан… пед… наук. –Владикавказ, 2005. -22 с.

4. Биктагирова Г. Ф. О необходимости развития педагогической рефлексии будущего педагога- психолога // Вестник ТГГПУ. 2009. № 2-3 (17-18). С. 32-37.

5. Борисова Л.Н. Роль и механизм рефлексии в психолого-педагогической деятельности // Психолог. 2015. № 2. С. 118-145. https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=14666

6. Девятова И.Е. Технологии развития педагогической рефлексии // Научно-теоретический журнал: Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. Выпуск 4 (33) 2017. –С. 41-49.

7. Дмитриева Т.В. Развитие рефлексии у студентов как педагогическая задача / Вестник Тюменского государственного университета. 2009. № 5. –С. 33-42.

8. Словарь практического психолога [Электронный ресурс] / С. Ю. Головин. – Режим доступа: http://vocabulary.ru/dictionary (дата обращения: 01.12.2017).

9. Халботаева Д.У. Рефлексив ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларда маданий дунёқарашни шакллантириш ижтимоий педагогик зарурият сифатида // Таълим ва инновацион тадқиқотлар (20 Девятова И.Е. Технологии развития педагогической рефлексии // Научно-теоретический журнал: Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. Выпуск 4 (33) 2017. –С. 41-49.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QISH DARSLARIDA SHAKLLANADIGAN ASOSIY KOMPETENSIYALAR

Sultonova Sabohatxon Yusupovna
Buxoro xalqaro universiteti,
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi fakulteti 1-kurs magistranti.
Email: readmiai76@gmail.com.tel: (998) 94 2275557

Annotatsiya. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslari o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi va ma’naviy rivojida markaziy o‘rin egallaydi. Kompetentlik yondashuvi asosida mazkur darslar nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang’ich ta’lim, mehnat, o’qish,fikr, kasbga yo‘naltirish, o‘quvchi-yoshlar, kompetensiya, rejalashtirish.

Аннотация. В начальном образовании уроки чтения играют центральную роль в развитии мышления, речи и духовного развития учащихся. Основанные на компетентностном подходе, эти уроки направлены не только на передачу знаний, но и на развитие у учащихся жизненных навыков.

Ключевые слова: начальное образование, работа, учеба, мышление, профориентация, учащаяся молодежь, компетентность, планирование.

Abstract. In primary education, reading lessons play a central role in the thinking, speech, and spiritual development of students. Based on a competency-based approach, these lessons focus not only on imparting knowledge, but also on developing life skills in students.

Keywords: primary education, work, study, thought, career guidance, students-youth, competence, planning.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qish darslari o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, ma’naviy dunyosi va dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur darslar orqali bolalar nafaqat badiiy yoki axboriy matnlarni o‘qishga, balki ularni tushunishga, tahlil qilishga va hayotiy xulosalar chiqarishga o‘rganadilar. Bugungi kunda ta’lim tizimida kompetentlik yondashuvining joriy etilishi o‘quvchilarning faqat bilim olishini emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini, mustaqil fikrlashini va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etmoqda.

O‘qish darslarining kompetentlik asosida tashkil etilishi boshlang‘ich sinf

o‘quvchilarida axborot bilan ishlash, muloqotga kirisha olish, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni anglash, ijodiy yondashuv kabi zarur tayanch kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchi nafaqat obraz va voqealarni tushunadi, balki hayotiy vaziyatlarga mos xulosa chiqaradi, o‘z fikrini asoslab bayon qiladi, atrofdagi hodisalarga mustaqil munosabat bildirishni o‘rganadi.

Shu boisdan ham o‘qish darslarining kompetentlikka yo‘naltirilgan mazmunini o‘rganish, ular orqali shakllanadigan asosiy kompetensiyalarni aniqlash va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yoritish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi**.**

Materiallar va usullar. O‘qish darslarining kompetentlik yondashuvidagi o‘rni bu boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslari o‘quvchilarni nafaqat nutqiy, balki aqliy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan integrativ fan hisoblanadi. Kompetentlik yondashuvi dars jarayonida o‘quvchini faollikka, mustaqil fikrlashga, matn mazmunini tahlil qila olishga undaydi. O‘qish darslari orqali shakllanadigan ko‘nikmalar keyingi o‘quv bosqichlarida bilimlarni o‘zlashtirishning poydevorini tashkil qiladi.

Kompetentlik yondashuvi o‘quvchiga tayyor bilim berish emas, balki uni mustaqil o‘rganishga, tahlil qilishga va amalda qo‘llashga o‘rgatishni talab etadi. Shuning uchun o‘qish darslari turli metodlar, interaktiv texnologiyalar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar vositasida tashkil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim - o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umum-madaniy ko'nikmalarni shakllantiradi.

O‘qish darslarida shakllanadigan asosiy kompetensiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi o‘quvchilarning matnni o‘qish, tahlil qilish, g‘oya va mazmunini anglash jarayonida rivojlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi matndan asosiy fikrni ajratish, qahramonlarga munosabat bildirish, voqealar ketma-ketligini aniqlash orqali mustaqil fikrlay boshlaydi.

Ushbu kompetensiya quyidagi ko‘nikmalar orqali namoyon bo‘ladi:

- matndagi asosiy g‘oyani topish;
- fakt va xulosani farqlash;
- qahramon xatti-harakatlarining sabablarini aniqlash;
- yangi so‘zlarning ma’nosini kontekstdan tushunish;
- matnni boshqa manbalar bilan taqqoslash.

Mazkur kompetensiya bola tafakkurining rivoji va keyingi fanlarni o‘zlashtirishiga bevosita asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Kommunikativ kompetensiya

O‘qish darslari o‘quvchilarda og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga katta hissa qo‘shadi. Matn mazmunini qayta hikoya qilish, savollarga javob berish, munozaralarda qatnashish, kichik jamoalarda ishlash orqali o‘quvchi kommunikativ faol bo‘la boradi.

Kommunikativ kompetensiya quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- ravon, ifodali va to‘g‘ri o‘qish;
- matn ustida suhbatlashish;
- o‘z fikrini aniq bayon qilish;
- savol berish va savollarga javob qaytarish;

jamoa bilan ishlash madaniyati.

Mazkur kompetensiyaning shakllanishi bola nutqi, muloqot madaniyati va ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Ijtimoiy-faol fuqarolik kompetensiyasi

O‘qish darslarida beriladigan badiiy asarlar, ertaklar, hikoyalar va axloqiy mazmundagi matnlar o‘quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi. Qahramon xatti-harakatlarini baholash orqali bola yaxshilik va yomonlikni ajrata boshlaydi, mehr-shafqat, boshqalarga yordam, Vatanga sadoqat kabi fazilatlarni anglab boradi.

Mazkur kompetensiya quyidagi ko‘nikmalar bilan aniqlanadi:

- ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni tushunish;
- boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- o‘z xatti-harakatini baholay olish;
- mas’uliyatli qarorlar qabul qilish.

4. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi

O‘qish darslari mustaqil o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish orqali o‘quvchini o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘rganishga yo‘naltiradi. O‘quvchi kitob bilan ishlash, izlanish, qo‘shimcha manbalar topish, xulosa chiqarish kabi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘la boshlaydi.

Ushbu kompetensiya quyidagi faoliyatlarda namoyon bo‘ladi:

- mustaqil kitob o‘qishga qiziqish;
- matn asosida ijodiy fikrlash;
- shaxsiy fikrni asoslash;
- tahlil qilish va xulosa chiqarish.

5. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash kompetensiyasi

O‘qish darslari o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, an’analar, odob-axloq me’yorlarini singdirishda asosiy vosita hisoblanadi. Badiiy asarlar orqali bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mehribonlik, halollik kabi fazilatlar shakllanadi. Turli xalqlar hayoti va madaniyatiga doir matnlar esa o‘quvchilarda bag‘rikenglik va hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslari o‘quvchilarni nafaqat nutqiy, balki aqliy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan integrativ fan hisoblanadi. Kompetentlik yondashuvi dars jarayonida o‘quvchini faollikka, mustaqil fikrlashga, matn mazmunini tahlil qila olishga undaydi. O‘qish darslari orqali shakllanadigan ko‘nikmalar keyingi o‘quv bosqichlarida bilimlarni o‘zlashtirishning poydevorini tashkil qiladi.

Kompetentlik yondashuvi o‘quvchiga tayyor bilim berish emas, balki uni mustaqil o‘rganishga, tahlil qilishga va amalda qo‘llashga o‘rgatishni talab etadi. Shuning uchun o‘qish darslari turli metodlar, interaktiv texnologiyalar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar vositasida tashkil etiladi. Kompetentlikni rivojlantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- muammoli vaziyatlar yaratish;
- savol-javob texnikalari;
- insert, klaster, Venn diagramma kabi grafik organayzerlar;
- rolli o‘yinlar va sahnalashtirish;
- guruhli va juftlikdagi ishlar;

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umumta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetentsiyalar belgilandi.

XULOSA. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslari o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, ma’naviy-axloqiy dunyosi va ijtimoiy faolligining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Kompetentlik yondashuvi asosida tashkil etilgan o‘qish darslari o‘quvchilarga nafaqat matn mazmunini anglash, balki axborotni qayta ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini asoslab bayon qilish kabi hayotiy zarur ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi.

Mazkur fanda shakllanadigan asosiy kompetensiyalar — axborot bilan ishlash, kommunikativ, ijtimoiy-faol fuqarolik, o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash kompetensiyalari — o‘quvchilarning intellektual, axloqiy va shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetensiyalar o‘quvchini mustaqil izlanishga, ijodiy yondashishga, fikrini asoslashga va jamoada ishlashga yo‘naltiradi.

Shuningdek, o‘qish darslarida qo‘llaniladigan muammoli vaziyatlar, interaktiv metodlar va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarni faollashtirib, o‘rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi. Natijada o‘quvchi nafaqat matn bilan ishlashni, balki hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri xulosa chiqarishni ham o‘rganadi.

Umuman olganda, o‘qish darslarida kompetentlikni rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kelajak ta’lim bosqichlari uchun puxta tayyorgarlik ko‘rishiga, keng dunyoqarashga va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu bois bu jarayonni takomillashtirish va samarali metodlar bilan boyitish bugungi ta’limning dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4310-son qarori. “Umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim DTS. – Toshkent, 2020.
3. Hasanboeva O., Matnazarova X. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Yo‘ldoshev J., Hasanov B. Kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2017.
5. G‘ulomov A., Qodirov E. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. Tolipova J. O‘qish va nutq o‘stirish metodikasi. – Toshkent, 2021.
7. Zunnunov A., To‘rayeva O. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish darslari metodikasi. – Toshkent: Fan, 2015.
8. Shodmonqulova D. Nutq o‘stirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2020.
9. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 1984.
10. Zimnyaya I. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Logos, 2006.
11. M. Skiba. Competency-Based Education: Theory and Practice. – London: Routledge, 2019.
12. Anderson L., Krathwohl D. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Addison Wesley, 2001.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Navoiy innovatsiya universitet “Boshlang'ich ta'lim" yo'nalisi 3 kurs talabasi
Suyarqulova Muxlisa Xolmo‘min qizi
suyarqulovamuxlisa6@gmail.com
Ilmiy rahbar: PhD Shopulatova Nasiba Umirovna

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish muammolarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning imlo va punktuatsiya xatolari, fikrlarni mantiqan bog‘lay olmasligi, so‘z boyligining cheklanganligi va yozishga motivatsiyaning pastligini ko‘rsatdi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish va yozma nutqni rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, yozma nutq, o‘quvchilar, pedagogik muammolar, yozma ko‘nikmalar

Аннотация: Данная статья посвящена изучению проблем развития письменной речи учащихся начальной школы. Результаты исследования показали, что учащиеся сталкиваются с ошибками в правописании и пунктуации, трудностями в логической связи мыслей, ограниченным словарным запасом и низкой мотивацией к письму. В статье предложены педагогические рекомендации по преодолению этих проблем и развитию письменной речи.

Ключевые слова: начальное образование, письменная речь, учащиеся, педагогические проблемы, письменные навыки

Abstract: This article focuses on the problems of developing written expression skills in primary school students. The study results revealed that students face difficulties such as spelling and punctuation errors, inability to logically connect ideas, limited vocabulary, and low motivation for writing. The article provides pedagogical recommendations to address these issues and enhance students’ written communication skills.

Keywords: primary education, written expression, students, pedagogical problems, writing skills

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Yozma nutq nafaqat bolalarning fikrlarini aniq ifodalash qobiliyatini shakllantiradi, balki ularning mantiqiy fikrlash, ijodiy va

kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlantiradi[72][1;45]. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilari yozma nutqni o'rganishda turli qiyinchiliklarga duch keladi, xususan, imlo qoidalarini to'g'ri qo'llash, fikrlarni mantiqan bog'lash va mavzuga mos ravishda ifodalash masalalari dolzarbdir[73][2;45-52].

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yozma nutqni rivojlantirish jarayonida individual yondashuv, interaktiv metodlar va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish asosiy omillardan biri hisoblanadi[74][3;23]. Shu bois, boshlang'ich ta'limda yozma nutqni rivojlantirish muammolari nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda yozma nutqni rivojlantirish bilan bog'liq asosiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va samarali pedagogik yechimlarni taklif etishga qaratilgan.

Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqidagi muammolarni aniqlashga qaratilgan. Ishtirokchilar 1–4-sinflar, jami 60 nafar o'quvchi bo'ldi. Ma'lumotlar yozma topshiriqlar, pedagogik kuzatuv va so'rovnoma yordamida yig'ildi. Yozma matnlar imlo, jumla tuzilishi va fikrlarning mantiqiy bog'lanishi bo'yicha tahlil qilindi. Shu bilan birga, kuzatuv va so'rovnoma orqali o'quvchilarning qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqida bir qator muammolar mavjud. Erdoğan ta'kidlaganidek, to'rtinchi sinf o'quvchilarining yozma ifoda ko'nikmalari past darajada bo'lib, ular fikrlarini yozma shaklda aniq ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladi[75][4;5-6]. Shu bilan birga, Gülli va Kuşdemir o'quvchilarning yozishga bo'lgan o'z-o'ziga ishonchi past bo'lishi va yozma ifodadagi kamchiliklar orasida sezilarli bog'liqlik mavjudligini qayd etishadi[76][5;15]. Tadqiqot davomida kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning 50% jumlalarni mantiqan bog'lay olmaydi, 40% so'z boyligi yetarli emas va 30% yozishga motivatsiyasi past.

[72] Kuznetsova, L. (2018). Development of written speech in primary school children. Moscow: Pedagogical Press. 45-p.
[73] Petrova, N. (2020). Challenges of teaching written expression to young learners. Journal of Elementary Education, 12(3), 45–52.
[74] Ivanov, A. (2019). Innovative methods for improving written communication in primary grades. Educational Research, 8(2), 23.
[75] Erdoğan, Ö. (2022). Determination of Writing Expression Skills of Primary School 4th Grade Students and Teachers' Activities During Writing Process. 5-6 p. Journal of Education and Practice. iiste.org
[76] Gülli, G., & Kuşdemir, Y. (2021). Analysis of Written Expression Skills and Writing Self-Efficacy Beliefs of Primary School Students. Volume 9 (1): 15. lectitopublishing.nl

Bundan tashqari, Frontiers yozishni murakkab jarayon sifatida tavsiflaydi, u o'quvchilardan fikrlarni aniq va to'g'ri shakllantirishni talab qiladi[77][6;2], bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun alohida qiyinchilik tug'diradi. Shu bilan birga, kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar, individual yondashuv va rag'batlantirish orqali o'quvchilarning yozma nutqdagi kamchiliklarini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham boshlang'ich ta'limda yozma nutqni rivojlantirish jarayonida o'quvchi shaxsining faolligini oshirish, ijodiy fikrlashni rag'batlantirish hamda differensial yondashuvdan foydalanish muhimligini ta'kidlaydilar. Xususan, M. Qodirova yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchining psixologik tayyorgarligi va motivatsion omillar asosiy rol o'ynashini qayd etadi [78][7;56], S. Jo'rayev esa interfaol metodlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va yozma nutqdagi xatoliklarni kamaytirishda samarali vosita bo'lishini ko'rsatadi [79][8;45-49]. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqi rivojlanishida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, imlo va punktuatsiya xatolari ko'p uchraydi, o'quvchilarning jumlalarni mantiqan bog'lash qobiliyati past va so'z boyligi cheklangan. Shu bilan birga, ularning yozishga bo'lgan motivatsiyasi ham yetarli emasligi aniqlangan. Bu topilmalar boshlang'ich ta'lim jarayonida yozma nutqni rivojlantirishning murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini tasdiqlaydi.

Birinchidan, imlo va punktuatsiya xatolarining ko'pligi o'quvchilarning grammatika qoidalarini yetarlicha o'zlashtirmagani va yozma matnni shakllantirishda mustahkam ko'nikmalarga ega emasligini ko'rsatadi. Shu bois, pedagoglar darslarda imlo va punktuatsiya qoidalarini o'rgatishda interaktiv mashqlar va vizual yordamlardan kengroq foydalanishlari lozim. Masalan, o'quvchilarga imlo xatolari bilan matnlarni tahrirlash yoki guruhda matnlarni tuzish kabi faoliyatlar berish samarali bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, fikrlarni mantiqan bog'lashdagi qiyinchiliklar o'quvchilarning mantiqiy va strukturaviy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zaruratini ko'rsatadi. Bu qobiliyat yozma nutqning asosini tashkil etadi. Shu bois, o'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarga fikrlarni qadam-baqadam yozma shaklga keltirish, "bosqichma-bosqich reja tuzish" kabi metodlarni o'rgatishi tavsiya etiladi.

---

[77] Frontiers (2025). Developing primary school students' language skills from a critical thinking perspective: a methodological system.2-p. Frontiers in Education. frontiersin.org

[78] Qodirova, M. (2019). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda psixologik omillar.* – Toshkent: TDPU nashriyoti. 56-b.

[79] Jo'rayev, S. (2021). *Yozma nutqni rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.* – "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, №4, 45–49-betlar.

Uchinchidan, so‘z boyligi cheklanganligi va yozishga motivatsiyaning pastligi o‘quvchilarning ijodiy va kommunikativ rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Bu muammoni hal qilish uchun o‘quvchilarga turli mavzularda ijodiy yozma vazifalar berish, o‘qish orqali yangi so‘zlarni o‘rganish va guruh ishlarida bir-birining ishini baholash kabi rag‘batlantiruvchi usullarni qo‘llash muhimdir. Shu tarzda, yozma nutqni rivojlantirish nafaqat til ko‘nikmalarini oshiradi, balki o‘quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozma nutqdagi qiyinchiliklarini bartaraf etish uchun individual yondashuv, interaktiv metodlar va motivatsiyani oshirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik jarayonni bu tamoyillar asosida tashkil etish o‘quvchilarning yozma nutqini sezilarli darajada rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, turli pedagogik muammolarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning asosiy qiyinchiliklari – imlo va punktuatsiya xatolari, fikrlarni mantiqan bog‘lay olmaslik, so‘z boyligining cheklanganligi va yozishga motivatsiyaning pastligi hisoblanadi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun pedagoglar interaktiv metodlar, individual yondashuv, yozma vazifalarni qiziqarli qilish va o‘quvchilarni rag‘batlantirish kabi strategiyalardan foydalangan holda o‘quvchilarning yozma ko‘nikmalarini samarali rivojlantira oladilar. Shu bilan birga, yozma nutqni rivojlantirish nafaqat til ko‘nikmalarini, balki o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Natijada, boshlang‘ich sinf pedagogikasi yozma nutqni rivojlantirish bo‘yicha tizimli va metodik yondashuvni talab qiladi, bu esa o‘quvchilarning umumiy ta’lim sifatini oshirishga va ularning shaxsiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev, S. (2021). *Yozma nutqni rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati.* – “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, №4
2. Erdoğan, Ö. (2022). Determination of Writing Expression Skills of Primary School 4th Grade Students and Teachers' Activities During Writing Process. Journal of Education and Practice. iiste.org
3. Frontiers (2025). Developing primary school students’ language skills from a critical thinking perspective: a methodological system. Frontiers in Education. frontiersin.org
4. Gülli, G., & Kuşdemir, Y. (2021). Analysis of Written Expression Skills and Writing Self-Efficacy Beliefs of Primary School Students. Volume 9 (1).

lectitopublishing.nl
5. Ivanov, A. (2019). Innovative methods for improving written communication in primary grades. Educational Research, 8(2).
6. Kuznetsova, L. (2018). Development of written speech in primary school children. Moscow: Pedagogical Press.
7. Petrova, N. (2020). Challenges of teaching written expression to young learners. Journal of Elementary Education, 12(3).
8. Qodirova, M. (2019). *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqini rivojlantirishda psixologik omillar*. – Toshkent: TDPU nashriyoti.

AUTIZM SPEKTR BUZILISHLARI VA ULARNI ERTA ANIQLASHNING AHAMIYATI.

Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matova Hilola Ikrom qizi
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi
Ahmadova Zuhra Adizovna
hilolanematova@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqola autizm spektr buzilishlari (ASB) va ularni erta aniqlashning ahamiyatiga bag‘ishlangan. Maqolada ASBning asosiy belgilari, tarqalish sur’ati, psixologik va ijtimoiy oqibatlari, shuningdek, erta tashxis va reabilitatsiyaning bolaning rivojlanishiga ta’siri muhokama qilinadi. Ta’kidlanganidek, ASBning erta aniqlanishi bolaning ijtimoiy, nutqiy va kognitiv rivojlanish imkoniyatlarini oshiradi, ota-onalar va jamiyatga qo‘shimcha psixologik va iqtisodiy yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Autizm spektr buzilishlari, erta tashxis, neyro-rivojlanish, ijtimoiy muloqot, reabilitatsiya, nutq rivoji, psixologik yordam.

Abstract. This article is dedicated to autism spectrum disorders (ASD) and the importance of their early detection. It discusses the main signs of ASD, its prevalence, psychological and social consequences, as well as the impact of early diagnosis and rehabilitation on child development. It is emphasized that early identification of ASD enhances the child’s social, speech, and cognitive development, providing additional psychological and economic support for both parents and society.

Keywords. Autism spectrum disorders, early diagnosis, neurodevelopment, social interaction, rehabilitation, speech development,

psychological support

Autizm spektr buzilishlari (ASB) — bolaning ijtimoiy muloqot, nutqiy rivojlanish va xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi neyro-rivojlanish holati bo'lib, u "spektrlilik" xususiyatiga ega, har bir bolada o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, ba'zi bolalarda alomatlar yengil, boshqalarida esa ancha yaqqol bo'lishi mumkin. Uning ilk belgilari odatda 12–36 oylar oralig'ida namoyon bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST, 2023) ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha har 100 nafar boladan 1–2 nafari ASB bilan tug'iladi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, erta aniqlash va erta aralashuv bolaning keyingi intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

ASBning asosiy belgilari odatda quyidagilar bilan bog'liq:

- Ijtimoiy muloqotdagi qiyinchiliklar (ko'zga tik qarashning kamligi, ismi bilan chaqirilganda javob bermaslik, o'yinlarga qiziqmaslik)
- Nutq va til rivojlanishida kechikish
- Takroriy xatti-harakatlar (bir xil harakatlarni qayta-qayta qilish, predmetlarga o'ta qiziqish)
- Sensor sezgirlikning yuqoriligi yoki pastligi (tovush, yorug'lik, hidga haddan tashqari sezgirlik yoki aksincha befarqlik)

Autizm spektr buzilishlari (ASB) bugungi kunda butun dunyoda eng tez kengayib borayotgan neyro-rivojlanish buzilishlari qatoriga kiradi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra: AQSh, Kanada, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda tarqalish 1:36 darajagacha oshgan, so'nggi 20 yil ichida ASB tashxisining tarqalishi 3–4 barobar ko'paygan. Xo'sh bugungi kunda nima sababdan ASB global ahamiyat kasb etmoqda: birinchidan, ijtimoiy ahamiyati, autizmli bolalar jamiyatga moslashishda qo'shimcha qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lishi sababli ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy xizmatlar kabi sohalarda alohida strategiyalar ishlab chiqishni talab qiladi. Ikkinchidan, iqtisodiy ahamiyati rivojlangan davlatlarda autizmli bolalarning ta'limi, terapiyasi va oilaviy qo'llab-quvvatlash uchun sarflanadigan xarajatlar juda katta. Masalan: ASB bo'lgan bir bola uchun yillik xarajat AQShda 60–80 ming dollarni tashkil etadi, jamiyat uchun umumiy iqtisodiy yuk yiliga milliardlab dollarni tashkil qiladi. Uchunchidan, inson huquqlari nuqtayi nazaridan ahamiyati BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi"ga ko'ra, autizmli bolalarga inklyuziv ta'lim, sog'liqni saqlash, diskriminatsiyadan himoya huquqi berilgan. To'rtinchidan, ilmiy ahamiyati ASB bo'yicha genetika, neyrobiologiya, psixologiya va nevrodiversitet tadqiqotlari hozirda eng faol yo'nalishlardan biridir. Dunyo bo'yicha 1000 dan ortiq ilmiy

markazlar autizmni o'rganadi va tadqiqotlarini amalga oshiradi. Beshinchidan, sog'liqni saqlash va erta tashxis nuqtai nazaridan ahamiyati shundaki, ASBni erta aniqlash va mos korreksion yondashuvlarni qo'llash bolaning rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi, oilaga psixologik yordam beradi va jamiyatga integratsiyalashuv jarayonini yengillashtiradi. Shu sababli, ASB global darajada nafaqat tibbiyot va ta'lim, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarda ham strategik muhim masala sifatida qaraladi.

ASBning psixologik jihatlari haqida ilmiy izlanishlar Kanner (1943), Frith (2003), Baron-Kohen (2017) kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Oxirgi yillarda nevropsixologiya, neyrobiologiya va pedagogika sohalarining integratsiyasi ushbu buzilishlarni aniqlash va korreksiya qilishda yangi metodlarning paydo bo'lishiga olib keldi. ASBning kelib chiqishi ko'p omilli bo'lib, genetik, nevrobiologik va atrof-muhit omillari bilan bog'liq. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, genetik omillar ASB rivojlanishining 70–80% holatlarida muhim rol o'ynaydi. Miya tuzilmasida erta bolalik davrida sodir bo'ladigan neyron aloqalarning sekinlashuvi yoki tartibsiz shakllanishi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Rivojlanish psixologiyasi bo'yicha mutaxassislar ta'kidlashicha, ijtimoiy o'zaro ta'sirning pasayishi bolaning umumiy rivojlanish sur'atlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Qator ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, erta aniqlash bolaning keyingi intellektual o'sishi, nutq rivoji va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, psixologlar uchun erta belgilarni kuzatish, ota-onalarni xabardor qilish va o'z vaqtida mutaxassisga yo'naltirish juda katta ahamiyatga ega.

Autizm spektr buzilishlari hayot davomida davom etishi mumkin, ammo erta tashxis qo'yilishi bolaning rivojlanishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Erta reabilitatsiya samaradorligi yuqori, 3 yoshgacha bo'lgan davrda bolaning miyasi juda plastiklikka ega. Shu bois nutq, ijtimoiy ko'nikmalar, o'zini boshqarish, o'yin ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan terapiyalar juda yaxshi natija beradi.

2. Bolaning mustaqil hayotga moslashuvi oshadi**,** erta bilan qo'llab-quvvatlangan bolalar maktabga tayyor bo'ladi, o'qish jarayoniga osonroq moslashadi, mustaqil fikrlash va o'zini boshqarish ko'nikmalarini tezroq rivojlantiradi.

3. Ota-onalar uchun psixologik yengillik**,** erta tashxis noto'g'ri mulohaza va ortiqcha xavotirning oldini oladi, oilaga zarur bo'lgan yo'l-yo'riq va ta'lim beradi, bolani to'g'ri yo'nalishda rivojlantirish imkonini yaratadi.

4. Davolash emas, rivojlantirish muhim**,** autizm “kasallik” emas, balki rivojlanishdagi o‘ziga xoslikdir. Erta aniqlash bolaga individual rivojlanish yo‘lini tanlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, autizm spektr buzilishlarini erta aniqlash bolaning ijtimoiy, nutqiy va kognitiv rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Erta tashxis va reabilitatsiya 3 yoshgacha bolaning miyasi plastiklikka ega bo‘lgan davrda eng samarali hisoblanadi. Bu nafaqat bolaga, balki ota-onaga psixologik yengillik va yo‘l-yo‘riq beradi, jamiyat uchun esa iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradi. ASB kasallik sifatida emas, rivojlanishdagi o‘ziga xoslik sifatida qaralishi lozim va individual rivojlanish yo‘lini tanlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kanner, L. (1943). *Autistic disturbances of affective contact*. Nervous Child, 2, 217–250.
2. Frith, U. (2003). *Autism: Explaining the Enigma*. Oxford: Blackwell.
3. Baron-Cohen, S. (2017). *The Pattern Seekers: How Autism Drives Human Invention*. London: Penguin.
4. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST). (2023). *Autism spectrum disorders global report*.
5. Mo’minova.L.R. (2015). ,,Autizm sindromi, uning sabablar, turlari va bartaraf etish metodikalari”. Toshkent: Spectrum Media group, 7-9, 11.

❁❁❁❁❁

KREATIV FIKRLASH TUSHUNCHASI VA UNING BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI O’RNI

Aynazarova Ruxsora Mirzohit qizi.
Navoiy davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
+99897-795-98-85 aynazarovaruxsora@gmail.com

ANNOTATSIYA. mazkur maqolada kreativ fikrlashning mohiyati, uning psixologik hamda pedagogik asoslari bilan birga maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: kreativ fikrlash, bolalar rivojlanishi, ijodkorlik, mustaqil tafakkur, pedagogik jarayon, maktabgacha ta’lim

АННОТАЦИЯ. в статье рассматривается сущность творческого мышления, его психолого-педагогические основы, а также его значение в развитии детей дошкольного возраста

Ключевые слова: творческое мышление, развитие ребёнка, креативность, самостоятельность мышления, педагогический процесс, дошкольное образование.

ANNOTATION this article discusses the essence of creative thinking, its psychological and pedagogical foundations, as well as its importance in the development of preschool children.

Keywords: creative thinking, child development, creativity, independent thinking, pedagogical process, preschool education

Bugungi globallashuv davrida insondan nafaqat mavjud bilimlarni egallash, balki ularni yangicha yondashuv asosida qo’llay olish, muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyati talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, kreativ fikrlash zamonaviy shaxs rivojlanishining eng muhim tarkibiy jihatlaridan biri sifatida qaraladi. “Kreativlik” atamasi inglizcha creativity so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “yaratuvchanlik”, “ijodkorlik”, “yangilik yaratish qobiliyati” ma‘nolarini anglatadi. Guilford 1950-yilda **amerika psixologik assotsiatsiyasi** yig’ilishida so’zlagan nutqida “kreativlik” masalasiga alohida e‘tibor qaratgan. U o’z chiqishida ijodiy fikrlashni inson intellektidan mustaqil, alohida psixologik jarayon sifatida o’rganish lozimligini ta‘kidlab, bu yo’nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratgan. Olim o’zining tafakkur modelida kreativlikni inson tafakkurining mustaqil turi sifatida baholab, uni divergent tafakkur bilan bog’lagan. Divergent fikrlash insonning bir muammoni yechish uchun bir nechta yo’lni topishga, g’oyalarni turlicha shaklda ifodalashga intilishini bildiradi.

Malumki psixologik nuqtayi nazardan kreativ fikrlash inson tafakkurining yuqori darajasini ifodalaydi, chunki bunda shaxs analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi aqliy amallarni mustaqil ravishda amalga oshiradi. Kreativ fikrlovchi shaxs mavjud ma’lumotlarga tayanib, yangi natija yarata oladi, bu esa tafakkurning ijodiy va amaliy jihatlarini uyg’unlashtiradi.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun kreativ fikrlashni shakllantirish ayniqsa muhim, chunki bu davr bola tafakkuri, tasavvuri va bilish faoliyatining eng faol rivojlanish bosqichi hisoblanadi. L.S.Vygotskiy ta‘kidlaganidek, bola tafakkuri harakat, o’yin va muloqot jarayonida rivojlanadi.[2] O’yin faoliyatida bola turli ijtimoiy rollarni sinab ko’radi, muammoli vaziyatlarga yechim topadi, tasavvuri

orqali yangi voqelikni yaratadi. Shu bois o’yin faoliyati kreativ tafakkur shakllanishining tabiiy mexanizmlaridan biri sanaladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayoni bolalarda mustaqil fikr yuritish, tashabbuskorlik, erkin qaror qabul qilish, shuningdek, atrof-muhitga yangicha nazar bilan qarash kabi sifatlarni shakllantiradi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablari”da ham bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish ta‘lim jarayonining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu esa pedagoglardan an‘anaviy yondashuvdan ko’ra interfaol, muammoli, loyiha asosidagi mashg’ulotlarni tashkil etishni talab qiladi.

Kreativ fikrlashning tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

1. Muammoni aniqlash va tushunish qobiliyati – bolaning vaziyatni to’liq idrok etib, muammoning mohiyatini anglay olishi.
2. G’oyalarni ilgari surish – bola turli variantlarni taklif etadi, tasavvurini kengaytiradi.
3. Yechimlarni sinovdan o’tkazish – bolaning tajriba, o’yin yoki amaliy faoliyat orqali fikrini tekshirib ko’rishi.
4. Natijani baholash – bola o’z g’oyasining afzallik va kamchiliklarini aniqlay oladi.

Mazkur bosqichlarning barchasi bolalarning kognitiv jarayonlarini faollashtiradi, xususan, diqqat, xotira, kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. Kreativlikning shakllanishida ijtimoiy muhit va pedagogik qo’llab-quvvatlashning o’rni alohida ahamiyatga ega. T.Amabile va Ya.A. Ponomaryovlarning fikricha, kreativlik jarayoni bolaning ichki motivatsiyasi bilan bevosita bog’liq.[3] Ya‘ni bola o’z fikrini erkin bildira oladigan, tanqid qilinmaydigan, har bir g’oya qadrlanadigan muhitda ijodiy faoliyatga ko’proq moyillik bildiradi. Shu sababli tarbiyachi va ota-onalarning qo’llab-quvvatlovchi munosabati, bolaning qiziqishini inobatga olgan holda mashg’ulotlarni tashkil etishi muhimdir.[4]

Zamonaviy ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi samarali natija bermoqda. Bu integratsion yondashuv bola tafakkurini turli fanlar orqali kompleks tarzda rivojlantiradi. Masalan, tabiat hodisalarini o’rganish, muhandislik elementlarini qo’llash, san’at faoliyati bilan birlashtirish orqali bola o’z fikrini nafaqat so’z orqali, balki amaliy faoliyatda ham ifodalay oladi. Shu yo’l bilan bola ilmiy bilim, tafakkur va estetik didni uyg’un holda o’zlashtiradi.

Bundan tashqari, kreativ fikrlashning rivojlanishi bola shaxsining ijtimoiy-emotsional o’sishiga ham ta’sir qiladi. Bola o’z fikrining qadrlanishini his qilganda, o’ziga ishonch ortadi, tashabbus ko’rsatishga intiladi, boshqalar bilan hamkorlikda faol bo’ladi. Bunday jarayonlarda bola “men ham eplay olaman” degan ichki motivatsiyani his etadi, bu esa uning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kreativ fikrlash – bu bolalar tafakkurining sifat jihatidan yangi bosqichi bo’lib, u shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida kreativ fikrlashni shakllantirishga qaratilgan pedagogik sharoitlar — o’yin, loyiha, tajriba, STEAM faoliyati, muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo’naltirilgan mashg’ulotlar — tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi bo’lishi lozim. Bunday yondashuv natijasida bola nafaqat bilim oluvchi, balki yangilik yaratuvchi, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida kamol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. J. P. Guilford, (1950). *Creativity*. **American Psychologist, 5(9),** 444–454.
2. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
3. Amabile, T. M. Creativity in Context. Boulder, CO: Westview Press, 1996.
4. Ponomaryov, Ya. A. Psixologiya tvorchestva. Moskva, 1999.

SINGAPUR TAJRIBASI ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING LIDERLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Xafizova Sayyora Baxtiyarovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani
1-DMTT director o‘rinbosari

Annotatsiya. Ushbu maqolada Singapur tajribasi asosida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining liderlik mahoratini rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Maqolada rahbarlarning liderlik mahoratini oshirishda qo‘llanilgan ilg‘or usullar, tamoyillar va ularning milliy ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlari

yoritilgan.. Maqola maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik menejmentning samarali usullari, innovatsion yondashuvlar va rahbarlarning professional kompetensiyalarini oshirish mexanizmlariga e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, liderlik, pedagogik menejment, Singapur tajribasi, innovatsion yondashuv, rahbarlar malakasi.

Abstract.This article analyzes the directions for developing the leadership skills of preschool education organization leaders based on the experience of Singapore. The article highlights advanced methods and principles applied to enhance leaders’ leadership skills, as well as the possibilities of their implementation in the national education system. It also focuses on effective methods of pedagogical management in preschool education, innovative approaches, and mechanisms for improving leaders’ professional competencies.

Keywords: preschool education, leadership, pedagogical management, Singapore experience, innovative approach, leaders’ competence.

Kirish. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimida sifatni oshirish va samarali boshqaruvni ta’minlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz farmonlari va qarorlari doirasida pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, rahbarlarning strategik fikrlash qobiliyati va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish dolzarbdir. Singapurning maktabgacha ta’lim sohasidagi tajribasi rahbarlar malakasini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha samarali model sifatida e’tiborga loyiqdir.Mazkur yo‘nalishda Singapurning nufuzli **“Marshall Cavendish Education”** jamoasi tomonidan tashkil etilgan **onlayn o‘quv kurslari (Zoom platformasida)** O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda muhim tajriba bo‘ldi.

1. Singapur tajribasining o‘ziga xos jihatlari

Singapur ta’lim tizimida liderlik — bu **o‘zgarishlarni boshqarish san’ati**

sifatida talqin qilinadi. “Marshall Cavendish” jamoasi rahbarlarni quyidagi tamoyillar asosida o‘qitadi:

- **Reflektiv liderlik** — o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan to‘g‘ri xulosa chiqarish;
- **Kollektiv boshqaruv** — jamoaviy fikr asosida qaror qabul qilish;
- **Innovatsion yondashuv** — yangi g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishdan qo‘rqmaslik;
- **Emosional intellekt** — rahbarning hissiy barqarorligi va ijobiy muloqot qobiliyatini shakllantirish. Ushbu tamoyillar asosida o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlarida O‘zbekistonlik DMTT direktorlariga interfaol treninglar, keyslar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish mashqlari va “case study” usuli qo‘llanildi.

2. DMTT direktorlarining liderlik mahoratini oshirish usullari

Rahbarning yetakchilik salohiyatini rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- **Mentorlik va “peer-learning” (tajriba almashish)** — tajribali direktorlarning yangi tayinlangan rahbarlarga amaliy ko‘mak berishi;
- **Kreativ muhit yaratish** — jamoa ichida ochiqlik, tashabbus va yangilikni rag‘batlantirish;
- **Strategik fikrlashni shakllantirish** — uzoq muddatli rejalashtirish va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv;
- **Raqamli menejment vositalaridan foydalanish** — onlayn platformalar orqali monitoring, baholash va tahlilni avtomatlashtirish.

Bu yo‘nalishlar Singapur modelida muvaffaqiyatli qo‘llanilib, O‘zbekiston sharoitida ham samarali natija berishi mumkin.

3. Liderlik rivojlanishining asosiy tamoyillari

1. **Hamkorlik tamoyili** — rahbar, tarbiyachi va ota-onalar o‘rtasidagi ishonchli hamkorlik;
2. **Motivatsiya tamoyili** — jamoa a’zolarini rag‘batlantirish va o‘zini o‘zi rivojlantirishga undash;

3. **Innovatsion yangilanish tamoyili** — zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish;
4. **Natijaga yo‘naltirilganlik tamoyili** — har bir faoliyatni o‘lchab, tahlil qilib, samaradorlikni oshirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik menejmentning samarali faoliyati jamoaning bir maqsad sari intilishi va bolalarning kompleks rivojlanishini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jarayonda rahbar, tarbiyachi va ota-onalar o‘rtasidagi ishonchli hamkorlik tamoyili markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, u ochiq muloqot va o‘zaro hurmat asosida amalga oshiriladi. Hamkorlik faqatgina axborot almashish yoki maslahatlashuvdan iborat emas, balki tarbiyalanuvchining rivojlanishida barcha tomonlarning faol ishtirokini ta’minlaydigan tizimli jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Ota-onalar bilan doimiy va samarali muloqot, maslahatlar va maslahatlashuvlar bolalarning individual rivojlanishiga oid qarorlarni qabul qilishda rahbar va tarbiyachilarga asos bo‘ladi. Shu bilan birga, jamoa ichida ishonch va hamjihatlik muhiti yaratish orqali tarbiyachilar va ota-onalarning bir-biriga nisbatan ijobiy munosabatlari shakllanadi va mustahkamlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida motivatsiya tamoyili jamoaning samarali faoliyatini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Tarbiyachilarni o‘z ishining ahamiyatini anglashga, professional bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirishga undash, ularni faoliyatga rag‘batlantirish orqali nafaqat pedagogik jarayonning sifati yaxshilanadi, balki jamoa a’zolarining shaxsiy rivojlanishiga ham imkoniyat yaratiladi. Ichki motivatsiya bolalarning rivojlanishidagi ijobiy natijalarni ko‘rishdan, tashqi motivatsiya esa sertifikatlar, mukofotlar va e’tirof etish tizimlari orqali ta’minlanadi. Bu tamoyil tarbiyachilarning kasbiy o‘sishini rag‘batlantiradi va ularning ishga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi.

Zamonaviy pedagogik menejmentning yana bir muhim tamoyili — innovatsion yangilanishdir. Bu tamoyil maktabgacha ta’lim jarayoniga interaktiv darslar, digital texnologiyalar va innovatsion o‘yinlar kiritish orqali ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutadi. Rahbar va tarbiyachilar yangi pedagogik va boshqaruv metodlarini muntazam o‘rganib, amaliyotga tatbiq etishi, bolalar va xodimlar uchun qulay va texnologik jihatdan rivojlangan muhit yaratishi lozim. Shu tarzda, innovatsion yangilanish bolalarning qiziqish va motivatsiyasini uyg‘otadi, tarbiyachilarning ish samaradorligini oshiradi va ta’lim jarayonini zamonaviy talablar darajasida olib borishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, natijaga yo‘naltirilganlik tamoyili pedagogik menejmentning samaradorligini

ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Har bir faoliyat oldindan belgilangan maqsadga yo‘naltiriladi, uning natijasi monitoring qilinadi va tahlil qilinadi. Bu jarayon asosida kelgusi faoliyat strategiyalari ishlab chiqiladi va takomillashtiriladi. Natijaga yo‘naltirilgan yondashuv jamoaning har bir a’zosini faoliyat samaradorligini oshirishga undaydi va ta’lim jarayonida uzluksizlikni ta’minlaydi.Shu tarzda, hamkorlik, motivatsiya, innovatsion yangilanish va natijaga yo‘naltirilganlik tamoyillari birlashtirilgan holda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik menejmentning samarali tizimini shakllantiradi. Bu tamoyillar jamoaning kasbiy o‘sishini rag‘batlantiradi, rahbar va tarbiyachilar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlaydi hamda bolalarning individual va kompleks rivojlanishi uchun qulay va samarali ta’lim muhitini yaratadi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda har bir faoliyatning natijasini o‘lchash va tahlil qilish tizimi doimiy takomillashtirishga imkon beradi, bu esa maktabgacha ta’lim sifatini barqaror ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’limda muvaffaqiyat — bu liderlik madaniyati va o‘zgarishga tayyorlik darajasiga bog‘liq. “Marshall Cavendish” jamoasining o‘quvlari O‘zbekiston maktabgacha ta’lim rahbarlarida strategik fikrlash, jamoaviy boshqaruv va innovatsion qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamladi.Kelgusida bunday xalqaro hamkorlikni tizimli yo‘lga qo‘yish — ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishning muhim garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Marshall Cavendish Education (Singapore) — Leadership in Early Childhood Education dasturi materiallari.
3. Maktabgacha ta’lim vazirligi ma’lumotlari, 2025-yil.
4. Raximova D., Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. -T.: Akademiya, 2006.
5. Qoraboyeva, Z. T. (2023). Maktabgacha ta’lim menejmenti. Toshkent: O‘quv qo‘llanma
6. Xodjayev S. – Ta’lim muassasalarida boshqaruv psixologiyasi. Toshkent, 2021
7. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.

BOLALARDA ICHKI “MENI”NI OSHIRISH VA RUHLANTIRISH YO‘LLARI

Bafoyeva Shahnoza Toyirovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

13-DMTT tarbiyachisi

Tel:+998943509288

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda “ichki men” — ya’ni shaxsning o‘zini anglash, o‘ziga ishonch va ichki motivatsiya tizimini shakllantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Bolaning ruhiy barqarorligi, ijobiy o‘z-o‘zini baholashi va maqsadga intilish xulqi pedagogik ta’sirlar yordamida qanday rivojlanishi ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Tadqiqotda Vygotskiy, Erikson kabi psixologlarning nazariy qarashlari bilan bir qatorda, zamonaviy ta’lim texnologiyalariga tayangan holda ruhlantiruvchi metodlar, rag‘batlantirishning to‘g‘ri shakllari, o‘yin orqali motivatsiyani oshirish yo‘llari ham ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, pedagog va ota-onalarning bola shaxsi rivojiga psixologik ta’siri ham amaliy misollar asosida tahlil etilgan. Maqola bolalarda ichki kuch, o‘ziga ishonch va mustaqil fikrlashni shakllantirishning samarali yo‘llarini amaliy tavsiyalar ko‘rinishida taqdim etadi.

Аннотация:В данной статье анализируются процессы формирования «внутреннего Я» у детей дошкольного и школьного возраста — то есть осознание собственной личности, развитие уверенности в себе и становление системы внутренней мотивации. На основе научных подходов рассматривается, каким образом психическая устойчивость ребёнка, позитивная самооценка и стремление к достижению целей развиваются под воздействием педагогических методов. В исследовании использованы теоретические взгляды Л. Выготского, Э. Эриксона, а также современные образовательные технологии. Особое внимание уделено мотивирующим методам, правильным формам поощрения и способам повышения мотивации через игру. Психологическое влияние педагога и родителей на развитие личности ребёнка проанализировано на основе практических примеров. Статья содержит практические рекомендации по формированию у детей внутренней силы, уверенности в себе и самостоятельного мышления.

Annotation: This article examines the formation of the “inner self” in preschool and school-aged children — that is, the development of self-awareness, self-confidence, and internal motivation. Based on scientific approaches, the study discusses how children’s psychological stability, positive self-esteem, and goal-oriented behavior develop under pedagogical influence. The theoretical perspectives of Vygotsky and Erikson, along with modern educational technologies, are used to explore motivating methods, effective forms of encouragement, and play-based strategies to enhance motivation. The psychological impact of teachers and parents on children's personality development is analyzed through practical examples. The article provides practical recommendations for strengthening children’s inner resilience, confidence, and independent thinking.

Kalit so‘zlar:bolalarda ichki men, o‘zini anglash, o‘ziga ishonch, ichki motivatsiya, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, pedagogik yondashuv, psixologik rivojlanish, rag‘batlantirish, emotsional barqarorlik, shaxs taraqqiyoti, maktabgacha ta’lim, ijobiy tarbiya.

Kirish: Bugungi kunda ta’lim jarayonida bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, xususan, ichki “men”ining shakllanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki bola o‘zini anglay olishi, o‘ziga ishonch hosil qilishi va ichki motivatsiyaga ega bo‘lishi uning keyingi psixologik hamda intellektual taraqqiyoti uchun poydevor vazifasini bajaradi. Psixologlarning ta’kidlashicha, bola shaxsi faqat tashqi ta’sirlar orqali emas, balki ichki ehtiyojlar, qiziqishlar va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch orqali rivojlanadi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida bolani ruhlantirish, qo‘llab-quvvatlash, uning fikrlarini qadrlash va mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.Ichki “men”ning rivojlanishi bolaning emotsional barqarorligi, nutq madaniyati, muloqotga kirishish qobiliyati hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. Ushbu jarayonni to‘g‘ri boshqarish esa pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning hamkorlikdagi sa’y-harakatlarini talab etadi. Mazkur maqolada bolalarda ichki menni shakllantirishning psixologik asoslari, ruhlantirish metodlari hamda amaliy yondashuvlar ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

Ichki “men”ni shakllantirishning psixologik asoslari:

Bolalarda ichki “men”ning shakllanishi inson shaxsining erta rivojlanish bosqichlariga xos bo‘lgan murakkab psixologik jarayonlardan biridir. Ushbu jarayon bolaning o‘zini anglash darajasi, ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati,

emotsional tajribalari hamda ta’lim jarayonida olgan psixologik qo‘llab-quvvatlashi orqali shakllanadi. Psixologik adabiyotlarda “ichki men” tushunchasi shaxsning o‘ziga nisbatan munosabati, o‘z qadr-qimmati va shaxsiy imkoniyatlari haqidagi tasavvurlari bilan bog‘liq tushuncha sifatida talqin etiladi.

Shaxsning o‘zini anglash — bu bolaning o‘zidagi ehtiyoj, qiziqish, xulq-atvor va his-tuyg‘ularni idrok etish qobiliyatidir. Yevropalik pedagog K. Rodjers ta’kidlaganidek, o‘zini anglay olgan bola o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqaradi va atrof-muhitga faol tarzda moslasha oladi. Maktabgacha yosh davrida bola o‘zini boshqa insonlardan ajratib ko‘rishni o‘rganadi, bu esa ichki “men”ning shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi.Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, shaxsning ichki rivoji tashqi muhitda shakllangan ijtimoiy tajribani bolaning ichki nutqi va tafakkuri orqali qayta anglash natijasida yuzaga keladi. Eriksonning psixososial rivojlanish konsepsiyasida esa bolalik davri “ishonch va mustaqillik” bosqichi sifatida baholanadi. Bu bosqichda ularga berilgan qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va mustaqil harakat qilish imkoniyatlari bolaning ichki ishonchini mustahkamlaydi.Bolada ichki menning shakllanishi emotsional barqarorlik bilan bevosita bog‘liq. Bola o‘z his-tuyg‘ularini tanib, boshqarishni o‘rgangan sayin unda o‘ziga nisbatan hurmat va ishonch shakllanadi. Tarbiyachi va ota-onaning mehribon, sabrli va ijobiy munosabati bola emotsional muvozanatining asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.Bolaning oiladagi munosabatlar tizimi, bog‘cha va maktabdagi o‘qituvchi–bola hamkorligi ham ichki men shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi, hurmatga asoslangan ijtimoiy muhitda o‘sgan bola ijobiy o‘z-o‘zini baholaydi, muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqmaydi va yangi tajribalarni sinab ko‘rishga tayyor bo‘ladi.

Bolalarda ruhlantirishning pedagogik va amaliy usullari:

Bolalarni ruhlantirish — bu ularning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, o‘z kuchiga ishonch hosil qilishiga yordam berish va shaxsiy rivojlanish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Ruhlantirish pedagogikaning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, u bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini, emotsional barqarorligini va o‘zini qadrlash darajasini sezilarli darajada oshiradi. Quyida ruhlantirishning eng samarali usullari ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Rag‘batlantirish — bolaning ijobiy xulqini qo‘llab-quvvatlashning eng muhim usullaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola faqat moddiy rag‘bat orqali emas, balki maqtov, hurmat va e’tibor orqali ham kuchli motivatsiya hosil qiladi. Pedagoglar tomonidan qo‘llaniladigan quyidagi shakllar

eng samarali sanaladi:

- Og‘zaki maqtov — qisqa, aniq va samimiy bo‘lishi kerak;
- Ijtimoiy rag‘bat — guruh oldida ijobiy baholash, kichik mas’uliyat vazifasini topshirish;
- Simvolik mukofotlar — yulduzchalar, diplomchalar, stikerlar.

Bu rag‘batlar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va o‘quv jarayonida faol bo‘lishiga turtki beradi.

O‘yin — maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun eng kuchli psixologik vosita. O‘yin jarayonida bola:

- o‘zini erkin his qiladi,
- hissiyotlarini ifoda etadi,
- o‘zini namoyon qilishga harakat qiladi,
- muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqmaydi.

Pedagog o‘yin jarayonida bolaga kichik g‘alabalar yaratib berishi, uning tashabbusini qadrlashi va hamkorlikka chorlovchi rollar berishi ruhiy yuqorilanishni ta’minlaydi. Pozitiv pedagogika — bola shaxsini tan olish, uning kuchli tomonlariga tayanish va imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. Ushbu tamoyillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Bolani ayblashdan ko‘ra tushuntirishga ustuvorlik berish
- His-tuyg‘ularini e’tirof etish
- Muvaffaqiyatini kichik bo‘lsa ham qadrlash
- Ketma-ket kichik vazifalar orqali ijobiy tajriba berish

Bu usullar bolaning ichki menini qo‘llab-quvvatlaydi va unda o‘ziga nisbatan ijobiy qarash shakllantiradi.

Har bir bolaning ruhiy rivoji undagi emotsional barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning ishonchli, yumshoq, mehribon munosabati quyidagilarga xizmat qiladi:

- Bola o‘z fikrini erkin aytishga o‘rganadi
- Xato qilishdan qo‘rqmaydi
- O‘z hissiyotlarini tan oladi va boshqaradi
- O‘zini qadrlash hissi kuchayadi

Pedagogning “men seni tushunaman”, “sen buni uddalaysan”, “harakat qilganingning o‘zi ijobiy natija” kabi iboralari bolani ruhlantirishning kuchli vositasidir

Ruhlantirishda quyidagi amaliy mashg‘ulotlar yaxshi samara beradi:

- “Mening kuchli tomonlarim” kartochkalari
- Rol o‘yinlari orqali o‘zini sinash

- Rasmlar yordamida his–tuyg‘ularni ifodalash
- Guruh bilan hamkorlik mashqlari

Ushbu mashqlar bolalarda o‘zini anglash, o‘z fikriga ega bo‘lish, mustaqil qaror qabul qilish va ichki kuchni his etish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Ichki “men”ni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar:

Bolalarda ichki “men”ni shakllantirish nafaqat nazariy bilimlarga, balki kundalik pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan aniq amaliy usullarga ham tayanadi. Quyida pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun samarali, qo‘llashga qulay bo‘lgan tavsiyalar jamlanadi.

Pedagogning bolaga bo‘lgan munosabati, muloqot uslubi va dars jarayonidagi psixologik muhit ichki “men”ning shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi.

1)Ijobiy muloqot muhiti yaratish:

- Har bir bolaga ismi bilan murojaat qilish.
- Dars davomida bolalarning fikrini qadrlash.
- Kichik muvaffaqiyatlarni ham tan olish va maqtash.

2) Mustaqil fikrlashga undovchi topshiriqlar:

- “Nima uchun shunday deb o‘ylaysan?” savolini berish.
- Tanlov imkoniyatini berish (rang tanlash, rol tanlash va h.k.).
- Muloqotga asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish.

3) Muvaffaqiyatsizlikni ijobiy qabul qilishni o‘rgatish:

- “Xato — bu o‘rganishning bir qismi” tamoyilini tushuntirish.
- Xatoni jazolash o‘rniga yechim topishni birga muhokama qilish.
- Ijobiy fikrlash va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini singdirish.

Ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar:.

1) Bolaning fikrini qadrlash:

- Uning tanlovlarini e’tiborsiz qoldirmaslik.
- Savollariga imkon qadar chuqur va tushunarli javob berish.

2) Emotsional qo‘llab-quvvatlash:

- Bolaning his-tuyg‘ularini inkor etmaslik.
- “Seni tushunaman”, “Hozir qiynalayapsan, lekin buni uddalaysan” kabi iboralar ishlatish.

Psixologik mashqlar va o‘yinlar:

Bolaning ichki kuchini rivojlantirishda qisqa, oson va muntazam bajariladigan mashqlar juda samarali hisoblanadi.

1) "Mening kuchli tomonlarim" mashqi:

Har bir bola o'zining eng yaxshi sifatlarini tasvirlaydi yoki rasm orqali ifodalaydi. Guruh oldida bu sifatlar o'qilib, qadrlanadi.

2) "O'zimni taniman" o'yini

Bolaga turli holatlar tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi va u o'z reaksiyasini aytadi:

— "Bu holatda o'zingni qanday his qilarding?" Bu mashq bola o'z hislarini idrok qilishga yordam beradi.

Ta'lim muassasasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodikalar:

- Portfolio usuli — bola yutuqlarini jamlash orqali o'z-o'ziga bahosini oshiradi.
- Loyiha asosida ta'lim — mustaqil qaror qabul qilishni kuchaytiradi.
- Integratsiyalashgan darslar — o'yin, muloqot va ijod birgalikda qo'llanadi.
- Refleksiya daqiqalari — dars yakunida bola o'z hislarini aytishi, bu esa o'zini anglashni rivojlantiradi.

Xulosa: Bolalarda ichki "men"ning shakllanishi — bu ularning ruhiy barqarorligi, o'z-o'zini anglash darajasi, mustaqil fikrlashi va kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan murakkab psixologik jarayondir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola o'ziga bo'lgan ishonchni asosan erta yoshdanoq, birinchi navbatda oilaviy muhit, keyinchalik esa ta'lim muassasasidagi pedagogik yondashuvlar orqali hosil qiladi. Shuning uchun ichki menni rivojlantirish pedagoglar, psixologlar va ota-onalarning hamkorlikdagi izchil sa'y-harakatlarini talab etadi.Maqolada bayon etilgan nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar bolalarda ichki motivatsiyani kuchaytirish, emotsional barqarorlikni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijobiy o'z-o'zini baholash darajasini oshirishga qaratilgan. Rag'batlantirishning to'g'ri shakllari, o'yin metodlari, pozitiv pedagogika tamoyillari va muloqotga asoslangan yondashuvlar bola shaxsini qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.Shu bois mazkur mavzu bo'yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlar, amaliy mashg'ulotlar va pedagogik innovatsiyalar ta'lim tizimi rivojida muhim o'rin tutadi. Ichki menni mustahkamlagan bola kelajakda nafaqat muvaffaqiyatli ta'lim oladi, balki hayotning turli sohalarida ham faol, mas'uliyatli va mustaqil shaxs bo'lib shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher*

Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.

2. Erikson, E. H. *Childhood and Society.* New York: W. W. Norton & Company, 1993.

3. Davletshin, M. G. *Bolalar psixologiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 2015.

4. Jalolov, J. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018.

5. G‘oziev, E. *Umumiy psixologiya.* Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

6. Nurmuhamedova, D. *Maktabgacha ta’limda psixologik yondashuvlar*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.

7. OECD. *Early Childhood Education and Care: Learning and Well-being.* Paris: OECD Publishing, 2018.

❁❁❁❁❁

O‘ZBEK MENTALITETIDA TINGLASH MADANIYATINING O‘RNI

Navoiy davlat universiteti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi
Homiyatova Mavluda Amon qizi

Annotatsiya: O‘zbek xalqining milliy mentalitetiga Yoshi ulug‘larni tinglash, o‘zidan kichiklarni esa izzat qilib sabr bilan eshitish zarur ekanligini ta’lim va tarbiya jarayonida singdirilib kelinmoqda. O‘zbek xalqining aksariyat qismi musulmon bo‘lganligi sababli bu dinni muqaddas kitobi “Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif” da insonlar bir – birini tinglashi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В процессе обучения и воспитания в национальный менталитет узбекского народа прививается мысль о необходимости слушать старших и терпеливо слушать младших. Поскольку большая часть узбекского народа является мусульманами, священные книги этой религии “Коран” и “Хадис Шариф” содержат информацию о том, как люди слушают друг друга.

Annotation: The national mentality of the Uzbek people is instilled in the educational and educational process that it is necessary to listen to the elderly, and hear the little ones in self-esteem patiently. As the majority of the Uzbek people are Muslims, the Bible of this religion, the “Koran Karim” and the “Hadisi Sharif”, provide information that humans listen to each other.

Kalit so‘z: Tinglash, o‘zbek mentaliteti, tinglashning islom dinidagi o‘rni.

Ключевые слова: Слушание, узбекский менталитет, роль слушания в исламе.

Keyword: Listening, Uzbek mentality, the role of listening in Islam.

O'zbek xalqining tinglash madaniyati avloddan – avlodga o'tib kelgan donolik va odob – axloq qoidalariga asoslanadi. O'zbek milliy qadriyatida azaldan kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish singdirilib kelgan. Suhbat jarayonida ham katta yoshdagi, hurmatli kishilar oldida, nafaqat ma'lumot almashish, balki ma'naviy yaqinlik, maslahat olish va hikmatli so'zlarni eshitish vositasi hisoblanadi. "Gap – kumush, sukut – oltin" degan maqol shu donolikni ifodalaydi. Aslida insonga ikki quloq va bitta og'iz berilgan.ning ma'nosi inson gaproq gapirib, ko'proq tinglashi zarur ekanligi aytilgan. Katta yoshdagilarga Hurmat o'zbek oilasi va mahallasida katta yoshdagilarning so'zi boshqalar uchun dastur hisoblanadi. Ularning gapini diqqat va hurmat bilan tinglash har bir yosh avlodning burchidir. Bu yerda tinglovchi faqat gapni emas, balki kishining hayotiy tajribasini, ma'naviyatini va duo niyatini qabul qiladi.

O'zbek mentalitetida tinglash faqat ma'lumot olish emas, balki murakkab ijtimoiy psixologik jarayondir. Tinglash – Hurmat Ko'rsatish: O'zbek jamiyatida kishining gapini bo'lib qoldirmaslik, unga to'liq e'tibor berish – bu unga hurmat ko'rsatishning eng kuchli ifodalaridan biridir. Agar kishi sizga hikoya qilayotgan bo'lsa, siz uning so'zlariga ishonchsizlik yoki zerikish bilan qaramasligingiz kerak.

O'zbek tinglovchisi nutqning mazmuni bilan birga, uning ohangiga, hissiyotiga, imo-ishoralariga juda sezgir bo'lishi zarur. Tinglash jarayonida ko'z aloqasi, bosh irg'ishlari ("ha", "hmm" deyishlar) orqali "Men sizni anglayapman, sizni tushunaman" degan signal beriladi. Bu hamdardlikni ham namoyon qiladi. O'zbek madaniyatida to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilik yoki rad etishdan qochiladi. Shuning uchun tinglovchi ko'pincha nutqning "qirralarini", taxminlarni va imo-ishoralarni tushunishga harakat qiladi. Gapiruvchining asosiy maqsadi so'zlarining ostida yashirilgan bo'lishi mumkin. O'zining katta singlisi, akasi, ota-onasi yoki ustoziga murojaat qilgan o'zbek yigiti yoki qizi ularning har bir so'zini diqqat bilan tinglaydi, chunki u ulardan nafaqat maslahat, balki hayotiy "saboq" olishni maqsad qilgan.Zamonaviy dunyoning tezligi, texnologiyalar va globalizatsiya an'anaviy tinglash madaniyatiga o'z o'rsatmoqda. Ijtimoiy Tarmoqlar Ta'siri: Ko'pchilik yoshlar doimiy ravishda qisqa va tezkor kontentga o'rgangan holda, uzoq va diqqat talab etgan suhbatlarda qiyinchilik chekmoqda. Diqqatni jamlash qobiliyati pasayib ketish xavfi mavjud. Ba'zi hollarda yoshlar va kattalar o'rtasida "tinglash tafovuti" paydo bo'lmoqda. Yosh avlod ko'proq

erkin muhokama qilishga intiladi, kattalar esa an’anaviy hurmat va tinglashni kutishadi. Shu bilan birga, internet va yangi texnologiyalar dunyoning boshqa xalqlarining madaniyati, donoligi va bilimlari bilan tanishish, ularni tinglash va o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. O‘zbek mentalitetida tinglash madaniyati – bu nafaqat odob-axloq qoidasi, balki milliy o‘zligimiz, donoligimiz va insoniyatimizning muhim qismidir. U bizga bobolarimizdan qolgan qimmatli merosdir. Chuqur tinglash odami dono, vazmin va halol qilaradi. Bu oilaviy, do‘stona va ishdagi munosabatlarni mustahkamlaydi, ishonch va hurmat muhitini yaratadi. Bu an’anani saqlab qolish va rivojlantirish – har birimizning shaxsiy mas’uliyatimizdir. Buning uchun: Oiladan boshlash kerak: Bolalarga kattalarning gapini tinglash, ular bilan suhbatda adabli bo‘lish odatini tarbiyalash.

· O‘zimizdan boshlash kerak: Birov gapirganda telefonimizni qo‘yib, unga ko‘z qarata bilan, e'tibor bilan quloq solish.

· Suhbat madoriyati: Nutqning mohiyatini tushunishga, shoshilinch xulosa chiqarmaslikka harakat qilish. O‘zbek xalqi, o‘zining dono, hikmatli so‘zlari orqali o‘z farzandlarini tarbiyalab, barkamol avlod qilib yetishtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbek millatining aksariyati musulmon diniga kiruvchi insonlar hisoblanadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislarida ham suhbatda o‘z navbatini kutish, birovning gapini bo‘lib qoldirmaslik, diqqat bilan tinglash kabi fazilarlar ulug‘lanadi. Musulmon ummatining muqaddas kitobi hisoblanmish “Qur’oni Karim”da ham ko‘p suralarning oyatlarida Alloh insonni eshitishga buyurgan:

“**Qof” surasida: Albatta bunda qalb egasi bo‘lgan, yoki o‘zi hozir bo‘lgan holda sidqidildan quloq tutgan kishi uchun eslatma, ibratlar bordir.**

Tinglash bu ibodatning eng ulug‘laridan, yuksaklaridan biri hisoblanadi. Allohning uyiga kelib Allohning va Payg‘ambar (s.a.v)ning so‘zini tinglashlik.

Va eshitdik, va itoat etdik Parvardigor gunohlarimizni mag‘firat qilishingni so‘raymiz. Va faqat o‘zingga qaytajakmiz.

Tafsiri: inson eshitib, tinglagandan keyin, tinglaganini tafakkur qilganidan keyin iymon keltiradi.

Bas ey Muhammad (s.a.v) mening bandalarimga so‘zga quloq tutib, uning eng go‘zaliga ergashadigan zotlarga xushxabar bering ana o‘shalar Allohga hidoyat qilgan zotlardir, va ana o‘shalargina aql egalaridirlar.

Bu tinglash haqida kelgan xabar oyatlari. Endi eshitish, tinglash haqida kelgan buyruq oyatlar ham bor.

Qo‘linglardan kelganicha Allohdan taqvo qilinglar tinglanglar va itoat qilinglar.

Qo‘lingdan kelganicha taqvo qil tingla va itoatda bo‘l deyilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek mentalitetida tinglash – bu faol, hurmatli va hamdardlik bilan sug‘orilgan san’atdir. Bu nafaqat quloq, balki yurak va aql bilan tinglashdir. Zamonaviy sharoitda biz bu qadriyatlarni yo‘qotmaslik, balki ularni yangi sharoitga moslashtirish va kelajak avlodga yetkazishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. “Qur’oni Karim” kitobi.
2. Imom al Buxoriyning “Hadisi Sharif” kitobi
3. Баимова, О.А. Формирование коммуникативной компетенции обучающихся на уроках иностранного языка. Выпускная квалификационная работа. Екатеринбург, 2018. С. 9.
4. Гильманова, С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. Челябинск, 2019. С. 147.
5. Пыркова, Т.А. Формирование лингвистической компетенции студентов неязыкового вуза средствами театрализации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Екатеринбург, 2018. С. 166.
6. Olloqova O‘.M. Kommunikativ kompetensiya – o‘quvchining muloqot madaniyatini rivojlantirish omili. Maqola. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 yil № 8), 184-b.

KARYERANI RE’JALASHTIRISHDA IJTIMOIY OMILLARNING TA’SIRI

Raxmatova Sevara Abdulloyevna
[1]O‘zbekiston Respublikasi
Navoiy davlat universiteti, o‘qituvchi.
Email: abdulloyevnasevara@gmail.com.
tel: (998) 95 1718987

Annotatsiya. Kasbga yo'naltirish - bu pedagogika va psixologiya doirasidan tashqarida kasb tanlashga yordam berishga qaratilgan tadbirlar majmui. O‘quvchilar uchun kasbga yo'naltirish ularning individual ehtiyojlari va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilgan karyeralarni tashkil qilish bo'yicha tizimli ishlarni, shuningdek, oliy va kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga o'z sohalarida ish topishda yordam berishni o'z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: bandlik, mehnat, kasb, kasbga yo‘naltirish, o‘quvchi-

yoshlar, karera, rejalashtirish.

Аннотация.Профориентация – это комплекс мероприятий, направленных на помощь учащимся в выборе профессии, выходящий за рамки педагогики и психологии. Профориентация учащихся включает в себя систематическую работу по организации профессиональной деятельности с учётом их индивидуальных потребностей и потребностей рынка труда, а также помощь выпускникам учреждений высшего и среднего профессионального образования в поиске работы по специальности.

Ключевые слова: занятость, труд, профессия, профориентация, учащиеся, карьера, планирование.

Abstract. Career guidance is a set of activities aimed at assisting students in choosing a career outside the scope of pedagogy and psychology. Career guidance for students includes systematic work on organizing careers tailored to their individual needs and the needs of the labor market, as well as helping graduates of higher and vocational education institutions find work in their field.

Keywords: employment, work, profession, career guidance, students, career, planning.

Kirish. Aholi bandligini muayyan darajada barqaror ushlab turish har qanday mamlakat oldida turgan murakkab va muhim vazifalaridan biridir. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan barcha mamlakatlarda bandlik sohasiga ta’sir ko‘rsatish choralarni qo‘llash asosida bandlikni tartibga solish siyosati amalga oshirilmoqda.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyulda “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856-son qarori, 2020-yilning 28-aprelida esa respublikamizda aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida “Aholi bandligi to‘g‘risida“gi Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan hamda 2020-yilning 7-avgustida Senat tomonidan ma’qullangan.

Ushbu Qonunda belgilangan strategik vazifalar ijrosini ta’minlash, ya’ni mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik faolligini oshirish, kambag‘al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish, shu asosda ularni doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimi joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb

qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PK-4804-sonli qarori asosida “Ishga marhamat – monomarkazlari” Davlat dasturi tashkil etilgan.

Yuqorida keltirilgan direktiv xujjatlar mamlakatimizda mehnat bozori bilan maktablarda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga oid faoliyatni o‘zaro uyg‘unlikda rivojlantirish – bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

Materiallar va usullar. Aholi bandligini ta’minlash masalasi pedagogika va psixologiya fan sohalari bilan bir qatorda, iqtisod va sotsiologiya uchun ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Kasb tanlash muammosi har bir shaxs oldida turgan muhim vazifa bo‘lib, ushbu qadam insonning keyingi hayotini belgilab berishi mumkin. Biroq o‘quvchi-yoshlarning barchasi ham birinchi urinishda to‘g‘ri tanlov qila olmaydi. Shu sababli, umumiy o‘rta ta'lim maktablarida o‘quvchilar karerasini rejalashtirishini ilmiy asosda tashkil etish mehnat bozorining malakali kadrlarga bo‘lga ehtiyojini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda muhim omil sanaladi.

Aholini mehnat bilan ta’minlashda davlatning ustuvor vazifalaridan biri – aholining, xususan o‘rta umumta’lim muassasalarini bitirgan yoshlarning bandligini doimiy ravishda ta’minlash va uning tarmoqlar tarkibini takomillashtirishdan iborat. Chunki mehnat va bandlik bozoridagi hozirgi holat yoshlarning o‘zini-o‘zi kasbiy belgilashlari uchun eng noqulay sharoitlarni yuzaga keltirayotgan bo‘lib, ko‘p hollarda ularga taklif qilinadigan mehnat faoliyati qiziqishlari, qobiliyatlari yoki mutaxassisliklariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Yoshlik - bu insonning butun hayoti yo‘lidagi asosiy bosqichlardan biri bo‘lib, ularning kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga hayotiy strategiyalari ta’sir qiladi. Hayot strategiyasini "ijtimoiy yo‘nalishlar (muayyan ijtimoiy guruhlarga qo‘shilish orqali kerakli ijtimoiy mavqega erishishga qaratilgan ma’noda), madaniy yo‘nalishlar (ma’lum madaniy qarashlarni qabul qilish) va shaxsiy yo‘nalishlar (hayotiy manfaat va ehtiyojlarni ifodalash nuqtayi nazaridan)" deb ta’riflanishi mumkin. Binobarin, xayot strategiyasi insonning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy istiqbolini belgilaydi” [Социальная работа ..., 1998: 87]

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o‘sish sur’atlarining band bo‘lgan aholi sonining o‘sish sur’atlaridan ancha yuqoriligi jamiyatning demografik rivojlanish xususiyatlaridan biri bo‘lib, [Axmedova M., 2013] bunda demografik

jarayonlar – globalizatsiya, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, makro-iqtisodiy inqirozlar va iqtisodiy pasayishlar bilan bir qatorda – aholining mehnatda bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi [Tolametova Z.A., 2019: 28]

Xorijiy davlatlarda «kasbga yo'naltirish» («professional orientation») atamasi mavjud emas. Xalqaro amaliyotda bu atama o'rnida «karyerani rejalashtirish» va «karyerani rivojlantirish» (career planning, vocational guidance, career development) tushunchalari qo'llaniladi.

Xorijiy tadqiqotchilar (S.Vuds, F.Patterson, B.Vill va A.Kozvar hamda K.Shnitslyayn, D.Li, J.Vays va K.Vorner) karyerani rejalashtirish muammolarini tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida karyera boshqaruvining mohiyati va vazifalariga nisbatan psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratganlar [Both feet …, 2015].

B.Avils, L.Rassel-Chepin va S.Raybek esa maktablarda o'quvchilar karyerasi boshqarish va kasbiy maslahat berish tizimining shakllanish tarixini tadqiq etgan bo'lib, karyera bo'yicha maslahat berishning shaxsni kasbiy va intellektual rivojlanishidagi axamiyatini ilmiy asoslab bergan [Aviles B.D. et al.].

O'rta maktab o'quvchilarining kasb tanlash muammosi bo'yicha juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ular " kasbiy o'zini o'zi belgilash" tushunchasiga turlicha ta'rif beradilar.

Kasbiy o'zini o'zi belgilashning yana bir muhim omili – kasbiy faoliyatning intellektualizatsiya darajasidir. "Agar shaxsning intellektual va kasbiy salohiyatini qo'llash darajasi intellektual va kasbiy faoliyat darajasiga to'g'ri kelsa, shaxsning rivojlanishi uning qobiliyatiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Bu insonning turli ta'lim bosqichlariga (boshlang'ich, o'rta, oliy kasbiy) bir xil darajada taalluqlidir" [Шалавина Т.И., 2004: 98-120]

Bunda ikkita vazifa bajarilishi talab etiladi: birinchisi – ma'lumotlar bazasini yaratish, ikkinchisi – motivatsion asosni yaratish bo'lib, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish bilan bir qatorda kasbiy qiziqishlarining shakllanishi samaradorligini oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, kasblar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratishda nazariy fanlar katta imkoniyatlarga ega. Buning uchun ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar fan yoki ishlab chiqarishning qaysi soxalarida qo'llanilishi mumkinligi, kasb egalari uchun bu bilimlardan tashqari qanday malaka va ko'nikmalar zarur ekanligi xaqida tegishli ma'lumotlar havola etiladi. Ta'lim jarayonida muammoli, tadqiqot-izlanishli o'qitish, mustaqil ta'lim xamda amaliy mashg'ulotlarnig imkoniyatlaridan foydalanish esa o'quvchilarni kasbga yo'naltirish samaradorligini yanada oshirib [Зеер Э.Ф. и др., 2005: 159], kelajakdagi kareralarini rejalashtirishda muhim axamiyatga ega bo'ladi.

N.Litoiu mehnat bozori va ta’lim tizimi o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishda karyera boshqaruvining ahamiyatini tahlil qilib, karyerani rejalashtirish masalasida kasbiy maslahat tizimi ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalarini mehnat bozori hamda iqtisodiyot ehtiyojlari bilan o‘zaro yaqinlashtirish imkonini beradi, deb xulosa qilgan [Litoiu N., 2015].

N.S.Pryajnikov karyera boshqaruvi yo‘nalishiga asos qo‘ygan bo‘lib, u kasbga yo‘naltirish metodologiyasini hamda kasbiy yo‘naltirishni faollashtirish sohasidagi yondashuvlarni ishlab chiqqan [Пряжников Н. С., 2008]

N.Gelliot va L.Grexam maktab o‘quvchilarining shaxsiy karyera trayektoriyasini loyihalashi, ularni mavjud resurs va imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishlari uchun tanlov fanlari va kurslarni ongli ravishda tanlashlalriga yo‘naltiraishini ilmiy asoslaganlar [Galliott N. et al., 2015: 179-199]

K.Shnitslyayn, D.Li, J.Vays va K.Vorner harbiy sohada karyera boshqaruvini erta boshlash masalalari, xususan, harbiy xizmatchilarning akademik tayyorgarlikdan so‘ng xizmat vazifalariga o‘tish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni ilmiy tadqiq etganlar [Both..., 2015].

NATIJA VA MUHOKAMA. Karyera rejasi — bu uzluksiz ta’lim va karyera o‘sishi uchun yo‘l xaritasi bo‘lib, uni o‘quvchining «bugungi» holatidan istalgan «ertangi» manziliga yo‘naltirib, rivojlanish yo‘lida harakatlanishga yordam beradigan shaxsiy andoza sifatida qabul qilish mumkin.

“Karyera” tushunchasini shaxsning kasbiy faoliyat orqali o‘zi o‘zini belgilashi va e’tirof etilishini amalga oshirishi jarayoni deb tavsiflash mumkin [Raxmatova S.A., 2025]. Shaxsning kasbiy faoliyat orqali o‘zi o‘zini anglash jarayoni ishga joylashishdan emas, balki kasbiy faoliyat sohasini aniqlab unda yuqori martabalarga erishish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda lavozim pog‘onalarida martabaning o‘sish yo‘llarini rejalashtirishdan boshlanadi.

Karyerani baholash – bu shaxsning qiziqishlari, qadriyatlari va ko‘nikmalarini aniqlashga yordam beradigan turli usullardan iborat. Karyera bo‘yicha maslahat markazlari, biznes-trenerlar, ishga joylashtirish agentliklari ushbu baholashni o‘tkazib, shaxsga mos keladigan karyerani aniqlashga yordam beradi.

Karyerani rejalashtirish kasbiy maslaxatchi bilan va uning yordamida amalga oshirilishi kasbiy o‘zi-o‘zini anglashning yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi [Raxmatova S.A., Gulyamov Dj.R. 2025].

A.T.Kuzyashev [2020] , Ye.D.Dadiko [2020] , Ye.A.Mogilyovkin [2017] , G.G.Zaysev va G.V.Cherkasskaya [Управление ..., 2018] kabi bir qator

tadqiqotchilar o'quvchining shaxsiy karyera rejasini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik-psixologik shartlarasosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar.

Buning uchun o'quvchining shaxsiy karyerasi axborot va motivatsion asoslarda rejalashtirilishi kerak. Ushbu shartning bajarilishi yaqin kelajakda o'quvchining shaxsiy kasbiy o'sishi boshlanishini ta'minlaydi [Гулямов Д.Р., 2014: 14-18]

XULOSA. Aholini ish bilan bandligi ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlarning unumli va qulay imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari bilan birga, respublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchi-yoshlarini kasbga yo'naltirish qaratilgan majmuaviy tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim, deb xisoblaymiz.

Mehnat va bandlik bozoridagi hozirgi holat yoshlarning o'zini-o'zi kasbiy belgilashlari uchun eng noqulay sharoitlarni yuzaga keltirayotgan bo'lib, ko'p hollarda ularga taklif qilinadigan mehnat faoliyati har doim xam ularning qiziqishlari, qobiliyatlari yoki mutaxassisliklariga to'g'ri kelavermaydi.

Shaxsiy karyera rejasi shaxsni katta qadamlar bilan maqsad sari olib boradigan yo'llarni ongli ravishda tanlashiga hamda rejalashtirilgan natijaga erishish imkonini bermaydigan samarasiz yo'llardan voz kechishiga yordam berishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Aviles B. D., Russell-Chapin L., Rybak C. J. Role of counselors in multidisciplinary interactions in special education. interdisciplinary connections to special education: important aspects to consider // Interdisciplinary Connections to Special Education: Important Aspects to Consider (Advances in Special Education). 2015. Vol. 30A. Pp. 59–79.
2. Both feet in: Maintaining an academic focus during the transition from residency to a first military assignment / W. Schnitzlein [et al.] // Academic Psychiatry. 2015. Vol. 39, no. 4. Pp. 372–375. DOI: 10.1007/ s40596-015-0369-y
3. Galliott N., Graham L. J. School based experiences as contributors to career decision-making: findings from a cross-sectional survey of high-school students // Australian Educational Researcher. 2015. Vol. 42, no. 2 SI. Pp. 179–199. DOI: 10.1007/s13384-015-0175-2
4. Litoiu N. Career counseling – the solution for bridging the gap between education and labour market // Journal of Educational Sciences & Psychology. 2015. Vol. 5, no. 1. Pp. 66–77.
5. Raxmatova S.A Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari // Kasb-hunar ta'limi: Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal, 2025-yil, 8-son. -B. 244-249.

6. Raxmatova S.A., Gulyamov Dj.R. Kasbiy maslahat – maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishning samarali vositasi sifatida // Maktabgacha va maktab ta’limi: J. 2025-yil, sentyabr, 9-son. -B. 980-985.

7. Tolametova Z.A. Demografik jarayonlar va aholining samarali mehnatda bandligini ta'minlash Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi 2019, 7(127). -B.25-35.

8. Гулямов Д.Р. Пантин Р. Система профессиональной ориентации учащихся в современных условиях // Ж. “Педагогика”, -Т., 2014. № 3, -С.14-18

9. Дадыко Е.Д., Кузяшев А.Н. К вопросу об индивидуальном карьерном плане и вариантах его выполнения // Ж.: Экономика и бизнес: экономика и практика. межд...научн. журн, № 4-2 (62), апрель 2020. С. 61-64.

10. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Садовникова Н.О. Основы профориентологии. – М.: Высш. Шк., 2005. - 159 с.

11. Кузяшев А.Т. и др. К вопросу о методах разработки карьерного плана // Ж.: “Эпоха науки”, № 22. 2020. – С.250-254.

12. Могилёвкин Е.А. Карьерный рост: диагностика, технологии, тренинг: монография. – СПб.: Речь, 2017. – 336 с.

13. Пряжников Н.С. Профессиональное самоопределение: теория и практика. М.: Академия, 2008. 320 с.

14. Социальная работа: Методология, теория, технологии: Учебное пособие: в 2ч. Ч.2. / И.Н.Иванова, В.Т.Кривошеев, Д.В.Петров и др. Саратов: Изд-во Поволж. межрегион. учеб. центра, 1998.

15. Шалавина Т.И. Социология молодёжи в контексте социальной работы. Саратов, СГТУ, 2004. С. 98-120.

IJTIMOIY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHIYATI

Bozorova Gulruh Shavkat qizi
Navoiy davlat universiteti
70110201-Ta’lim va tarbiya nazariyasiva metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxasisiligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy intellekt tushunchasi, uning nazariy asoslari (E. Torndayk, J. Gilford, G. Gardner) va bolalarda shakllanish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, turli ilmiy yondashuvlar orqali intellektning murakkabligi va ijtimoiy intellektning shaxs shakllanishida alohida

o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy intellekt, shaxs taraqqiyoti, emotsional intellekt, pedagogik yondashuv, empatiya, muloqot ko'nikmalari.

Аннотация: В статье понятие социального интеллекта, его теоретические основы (Е. Торндайк, Дж. Гилфорд, Г. Гарднера) и проанализированы механизмы формирования у детей. Также посредством различных научных подходов была продемонстрирована сложность интеллекта и особая роль социального интеллекта в формировании личности.

Ключевые слова: социальный интеллект, развитие личности, эмоциональный интеллект, педагогический подход, эмпатия, коммуникативные навыки.

Abstract: The article describes the concept of social intelligence and its theoretical foundations. Thorndike, J. Gilford, G. Gardner) and analyzed the mechanisms of formation in children. Also, through various scientific approaches, the complexity of intelligence and the special role of social intelligence in personality formation have been demonstrated.

Keywords: social intelligence, personality development, emotional intelligence, pedagogical approach, empathy, communication skills.

Bugungi kunda yoshlarimizni ijtimoiy jihatdan intellekti yuqori bo'lishini davr talabi hisoblanadi. Ilmiy manballarga nazar tashladigan bo`lsak, ijtimoiy intellekt tushunchasi birinchi bor amerikalik psixolog Edvard Torndayk tomonidan 1920-yilda ilmiy adabiyotga kiritilgan[80]. U ijtimoiy intellektni "insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish va ular bilan oqilona, samarali munosabat o'rnata olish qobiliyati" sifatida ta'riflaydi. Torndaykning fikricha, aqliy intellekt (IQ) qanchalik yuqori bo'lmasin, insonning jamoadagi munosabatlarni boshqara olishi alohida qobiliyat sifatida shakllanadi. Aynan shu g'oya keyinchalik shaxsning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini alohida o'rganish zarurligini asoslab berdi.

Keyinchalik 1960-1970-yillarda ijtimoiy intellekt nazariy jihatdan boyitildi. Jumladan, J. Gilford (J. Guilford) ijtimoiy intellektni insonning fikrlash faoliyatida mustaqil omil sifatida ko'rib, uning modeliga ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy tafakkur, hissiy signallarni tahlil qilish kabi tarkibiy qismlarni kiritdi[81]. Unga ko'ra, ijtimoiy intellekt – bu insonlarning xulqi va hissiy holatlarini aniqlash, ularga mos ravishda muloqot qila olish qobiliyati bo'lib, u bolalikdan

[80] Thorndike, E. L. (1920). Intelligence and its uses. Harper's Magazine.

[81] Guilford, J. P. (1967). The Nature of Human Intelligence. New York: McGraw-Hill.

boshlab faol shakllanadi. Keyinchalik G. Gardnerning "Ko'p qirrali intellekt" nazariyasi ham ushbu tushunchaga katta hissa qo'shib, ijtimoiy va shaxslararo intellektni insonning muhim kognitiv kompetensiyalaridan biri sifatida belgilab berdi[82].

Ijtimoiy intellekt – bu insonga boshqalar bilan muvaffaqiyatli munosabatda bo'lishga yordam beradigan bilim, ko'nikma va qobiliyatdir. O'zimiz va boshqalarning xatti-harakatlarini tushunish, vaziyatga qarab harakat qilish qobiliyati shular jumlasidandir.

G. Sanjarbekova ta'kidicha, "Ijtimoiy intellektda intuitsiya va shaxsiy sifatlar asosiy rolni o'ynaydi. Aslida, ijtimoiy intellekt insonning odamlarni va kundalik vaziyatlarni qanchalik tushunishining ko'rsatkichi hisoblanadi. Odatiy hayotda bunday ko'nikmalarni xushmuomalalik va sog'lom fikrlash"- deb ataydi[83].

Ijtimoiy intellektda intuitsiya va shaxsiy sifatlar asosiy rolni o'ynaydi. Aslida, ijtimoiy intellekt insonning odamlarni va kundalik vaziyatlarni qanchalik tushunishining ko'rsatkichi hisoblanadi. Odatiy hayotda bunday ko'nikmalarni xushmuomalalik va sog'lom fikrlash deb atashadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ijtimoiy intellekt yuqori aqliy daraja bilan o'lchanmaydi. M.Sh.Mustafiyevaning maqolasida Intellektning tarkib topishi va shakllanishi bo'yicha muayyan yondashuvlar mavjud bo'lib, ular bir qator ilmiy manbalarda o'z aksini topgan. Jumladan, intellektga fenomenologik yondashuv: intellekt ong mazmunining asosiy shakli sifatida qaralsa, (V.Keller; K. Dunker; M. Vertgey-mer; Dj.Kempion va boshqalar) intellektga genetik yondashuvda esa intellekt insonning tashqi olam bilan o'zaro ta'sirlashuvining tabiiy sharoitidagi o'rab turgan muhittalablariga qiyin moslashuvi oqibati sifatida talqin etiladi (U.R. CHarlzvort; J.Piaje). Ayni paytda, intellektga sotsio-madaniy yondashuv tarafdorlari intellektinsonning ijtimoiylashuvi, shuningdek, madaniyatning maqsadli ta'siri natijasidegan g'oyani ilgari sursa, (Dj. Brunner; L. Levi-Bryul; A.R. Luriya LS Vigotskiy va boshqalar.) intellektga jarayonli-faoliyatli yondashuvda, intellektinson faoliyatining asosiy shakli sifatida bayon qilingan (S.L. Rubinshteyn; A.V.Brushlinskiy; L.A. Venger; K.A. Abul-xanova-Slavskaya va boshqalar.).

Intellektga ta'limiy yondashuv vakillari esa, intellekt maqsadga yo'naltirilganta'limning mahsuli deb e'tirof etsalar, (A. Staats; K. Fisher; R. Feyershteyn vaboshqalar.) intellektga axborot yondashuvi namoyondalari,

[82] Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.

[83]https://xabardor.uz/uz/post/ijtimoiy-intellekt-nima-va-nega-uni-rivojlantirish-kerak.

intellektgaaxborotlarni qayta ishlashning elementar jarayonlari majmui sifatida qaraydilar(G. Ayzenk; E. Xant; R. Shternberg va boshqalar.). Intellektning funksional-darajaviy yondashuvida, intellekt har xil darajadagi bilish jarayonlarining tizimisifatida ko‘rsatilsa, (B.G.Ananev; E.I. Stepanova; B.M.Velichkovskiy va boshqalar)intellektning regulyasion yondashuvi: intellekt psixik faollikni o‘zini o‘zi regulya-siya qilish omilidir deya ta’kidlaydi L.L. Terstoun va boshqalar[84].

Umuman olganda, ijtimoiy intellekt -bu odamning boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilish, ularning hissiyotlari, niyatlari va xatti-harakatlarini to‘g‘ri anglash hamda ijtimoiy vaziyatlarda mos ravishda harakat qila olish qobiliyatidir.

Buni esa ilk yosh bosqichidan bolab shakllantirish muhimdir. Ijtimoiy intellektni shakllantirish – shaxsining kelajakdagi muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, muloqot madaniyati, empatiyasi va jamiyatga moslashuvchanligini ta’minlaydigan asosiy pedagogik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill.
2. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.
3. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill
4. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. Basic Books.
5. Thorndike, E. L. (1920). *Intelligence and its uses*. Harper’s Magazine.
6. Thorndike, E. L. (1920). *Intelligence and its uses*. Harper’s M.
7. https://xabardor.uz/uz/post/ijtimoiy-intellekt-nima-va-nega-uni-rivojlantirish-kerak.
8. https://xabardor.uz/uz/post/ijtimoiy-intellekt-nima-va-nega-uni-rivojlantirish-kerak.
9. https://inlibrary.uz/index.php/mmms/article/view/52724.



[84] https://inlibrary.uz/index.php/mmms/article/view/52724.

“BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH YO‘LLARI”

Hamdamova Nafisa Xayritdinovna Navoiyviloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari va ularni mazmun mohiyati, interfaol va kreativ metodlardan namunalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, interfaol ta’lim

Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi.
Shavkat Mirziyoyev

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazari bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek ta’lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilishda interfaol metodlar muhim sanaladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan ona tili fanining o‘qitilish mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi.Negaki, ularning zamirida savodxonlik, axloqiy -ta’limiy tarbiya asoslari turadi.Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim darslarida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishga alohida e’tibor berish lozim. Bugungi kunning o‘qituvchisiga har tomonlama yetuk avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdek mas’uliyatli vazifa yuklangan. Ta’lim mazmunini ko‘tarishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish , ta’limga zamonaviy pedtexnologi yalarini tadbiq etgan holda o‘quvchilarda o‘z faniga qiziqish uyg‘otishlari kerak bo‘ladi.

Interfaol metod-ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida foydalanish mumkin bo‘lgan interfaol kreativ metodlar xususida to‘xtalamiz.

”Quvnoq kema” metodi




Kema-kema suzaqol,
Orol tomon yetaqol.

O‘qituvchi tarqatmalarga yozilgan savollarni o‘quvchilarga tarqatadi. Ular navbat bilan savollarga javob beradilar. Savollar o‘tgan mavzu yuzasidan beriladi.

“Sirli sandiq” metodi.Bu metoddan kelishiklar mavzusini o‘tish jarayonida qo‘llanilsa samarali natija beradi

Bu metodda har bir o‘quvchi oldidagi qo‘shimchalar yozilgan ichidan faqat kelishik qo‘shimchalari , shu kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llangan so‘zlar yozil gan tilla tanga shaklidagi tarqatmalarni tanlab oladi. Tilla tangalarni belgilngan sandiqqa joylab olgan guruh g‘olib bo‘ladi.

Bu metod jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning tezligi va aniqligini kuza tadi. Har bir mashqdan keyin kichik xulosa qilinib, bolalar natijalarni baholashga jalb etiladi. Bu orqali o‘quvchi faqat o‘rganmaydi, balki o‘z bilimini tahlil qilishni ham o‘rganadi. Kelishiklar tushunchasini shakllantirishga doir mashqlar bolalar ning hozir javobligini, kuzatuvchanligini va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.



KREATIV METOD:


1. **“Asal kabi boldir bilimlarimiz”**– bu egallangan bilimlarni takrorlash uchun xizmat qiladigan metod bo‘lib,


o'quvchilar shu vaqtgacha o'tilgan mavzu larni yana bir karra yodlariga olishadi hamda, ularga misollar keltrishib o'z fikrlarini asoslaydilar. Metodning asosiy g'oyasi - bilim cho'qqisiga faqat asalari kabi mehnat qilib erishish ekanligini his ettirish.



"RANGO-RANG OLAM"

Ushbu metod so'zlarni ma'no mazmuniga ko'ra ajrata olishni o'rgatadi. O'quvchilar turli so'zlarning ma'nosiga ko'ra so'roqlarga javob berishni o'rganadi. Bu so'zlarga qachon qayerda duch kelishi mumkinligini bemalol asoslab aytib bera olishadi Bu jarayon bolalarda lug'at boyligini oshiradi fikrlash doirasini kengay tiradi.





"Ha yoki yo'q metodi"

"**Ha yoki yo`q metodi**" – bu **o'tilgan va yangi mavzu** elementlariga, qoidalariga asoslangan ijodiy metod bo'lib, o'quvchilar berilgan ma'lumotni avval tahlil qilib keyin tezkorlik bilan "Ha" yoki "yo'q" degan mulohazalarini isbotlov chi so'zlar orqali fikrlarini bayon etishadi.



Ma'lumki, 3-4-sinflarda ona tili o'quv dasturiga ko'ra " So'z turkumlari " bo'limini o'rganiladi. Bu bo'lim materiallarini o'rganishda " Aqliy hujum " meto didan foydalanish o'quvchilarning keng va har tomonlama erkin fikr yuritish ko' nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. " Aqliy hujum " metodida quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

1. O'quvchilarni o'rtaga tashlangan muammo doirasida fikr yuritishga undash, ularning mantiqiy fikrlarini bildirishga erishish.
2. Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlarni rag'batlantirib borish.
3. Har bir o'quvchining javobini doskaga yozib borish.
4. Aytilgan fikrlarga shu jarayonda tushuntirish berilmaydi.
5. Aytilgan fikrlarni muhokama qilishga va tanqid qilishga yo'l qo'yilmaydi.
6. Takliflar tugaguncha doskaga yozib borilaveradi. "Aqliy hujum " uchun tanlan gan muammo butun sinf jamoasiga yakka tartibda bajarishga yoki juftliklarga ajratilib bajarishga, kichik guruhlar o'rtasida bajarishga mo'ljallanadi. "Aqliy hujum"da har qanday savol o'rtaga tashlanavermaydi, u o'quvchilarni fikrlashga undaydigan, masalaga turlicha yondashishni taqozo etadigan, keng fikr yuritish mumkin bo'lgan savollar bo'lishi kerak.

Xulosa

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida interfaol va kreativ metodlardan foyda lanish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikma larine shakllantirish hamda dars jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahami yat kasb etadi.Shuningdek, interfaol metodlar o'quvchilarda Grammatik bilimlarni puxta o'zlashtirish,matn ustida ishlash malakasini rivojlantirish va o'z fikrini og'za ki hamda yozma tarzda ifodalash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4- sinf uchun Ona tili darsligi II qism. “Novda” nashriyoti.Toshkent -2023.

2.“Ona tili o‘qitish metodikasi” - K.Qosimova ... - Toshkent.”Bayoz” nashriyoti 2022.

3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: *Nihol nashriyoti*, 2013. – 178 b.

❁❁❁❁❁

O‘ZBEK TILIDA DIALEKTAL VARIANTLAR VA ULARNING ADABIY TILGA TA’SIRI: SOTSIOLINGVISTIK YONDASHUV

Mansurova Shaxnoza Yunusovna
Osiyo Xalqaro universiteti 1-kurs magistri
Tel:97.9214846

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda o‘zbek tilining asosiy dialekt guruhlari (karluk, qipchoq, og‘uz va aralash) qisqacha tasniflanadi hamda ularning zamonaviy adabiy til leksikasi, fonetikasi va sintaksisiga ko‘rsatayotgan ta’siri sotsiolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Migratsiya, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat ta’sirida dialektal elementlarning adabiy tilga kirib borishi, kod almashinuvi, til prestiji va mahalliy identifikatsiya masalalari misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, dialekt, sheva, adabiy til, sotsiolingvistika, kod almashinuvi, leksik ta’sir, fonetik o‘zgarish, til prestiji, identifikatsiya, migratsiya.

Abstract: This research briefly classifies the main dialect groups of the Uzbek language (Karluk, Kipchak, Oghuz and hybrid dialects) and analyzes their influence on the lexicon, phonetics and syntax of the modern literary language from a sociolinguistic perspective. The penetration of dialectal elements into literary Uzbek under the influence of migration, social networks and mass culture, code-switching, language prestige and local identity issues are illustrated with examples.

Keywords: Uzbek language, dialect, vernacular, literary language, sociolinguistics, code-switching, lexical influence, phonetic change, language prestige, identity, migration.

O'zbek tili turkiy tillar oilasining karluk guruhiga mansub bo'lib, asrlar davomida geografik, ijtimoiy va tarixiy omillar ta'sirida boy dialektal xilma-xillikka ega bo'lgan. Zamonaviy adabiy til asosan Toshkent-Farg'ona dialektlariga asoslansa-da, respublika aholisining katta qismi turli mahalliy shevalarda so'zlashadi.

Sotsiolingvistika dialektlarni faqat "noto'g'ri" yoki "past" nutq deb emas, balki ijtimoiy identifikatsiya, madaniy meros va kommunikativ strategiyaning muhim vositasi deb hisoblaydi. Ushbu ishda o'zbek tilidagi dialektal variantlarning adabiy tilga ta'siri zamonaviy sotsiolingvistik yondashuv asosida o'rganiladi.

1. O'ZBEK TILINING DIALEKTAL TASNIFI

O'zbek tilshunosligida dialektlar quyidagi asosiy guruhlarga bo'linadi (Sh. Resulov, B. Mengliyev):

- Karluk guruhli dialektlar (Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro) – adabiy tilning asosi
- Qipchoq guruhli shevalar (Xorazm, Qoraqalpog'iston janubi, Surxondaryo shimoli)
- Og'uz ta'siridagi shevalar (Xiva, Chimboy, Qoraqalpog'istonning og'uz hududlari)
- Aralash (gibrid) shevalar (Surxondaryo va Qashqadaryoning janubiy tumanlari)

Misollar: Xorazm shevasida: jo'ja → yo'ja, ko'z → göz, Og'uz ta'sirida: men → menem, sen → senen, Surxondaryo janubida: keldim → keldim-yä

2. DIALEKTAL ELEMENTLAR ADABIY TILGA KIRIB BORISHI

Leksik ta'sir So'nggi 30–40 yilda dialektal so'zlar keng ommalashdi:

1. choyxona → choykana (xorazmcha)
2. yong'oq → joz (surxondaryocha)
3. qatiq → qurt, ayron (qipchoq guruhida)

Yoshlar nutqida: "gap yo'q", "tushundingmi", "o'zi nima" kabi aralash iboralar keng tarqalgan.

Fonetik va morfo-sintaktik o'zgarishlar:

1. "o" tovushining "ö" ga yaqinlashishi: bola → böla (Toshkent yoshlari)
2. Fe'l kelishigida "-p" qo'shimchasi: kelib → kelip
3. Hikoya shaklida "-di-ya": keldi → keldi-ya (surxondaryocha)

Sotsiolingvistik omillar:

1. Prestij: Toshkent dialekti "madaniyatli", xorazm va surxondaryo shevalari "qishloqcha" deb qabul qilinadi.

2. Kod almashinuvi: “Bugun choykanada o‘tirdim-u, gap yo‘q, zo‘r joy ekan”.
3. Identifikatsiya: mahalliy sheva “bizniki” va “begona”ni ajratish vositasi bo‘lib qolmoqda.

XULOSA: O‘zbek tilidagi dialektal variantlar zamonaviy adabiy tilning rivojlanishida faol ishtirok etib, uning leksik fondini boyitmoqda, fonetik va sintaktik tuzilishiga yangi elementlar olib kirmoqda hamda tilning tabiiy evolyutsiyasini ta’minlamoqda. Migratsiya, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida dialektal so‘zlar, iboralar va talaffuz xususiyatlari kundan-kunga umummilliy nutqda kengroq qo‘llanilib bormoqda.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan bu jarayon nafaqat tilning o‘zgarishi, balki ijtimoiy guruhlarning identifikatsiyasi, prestij darajasi va kod almashinuvi kabi murakkab ijtimoiy-pskixologik hodisalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Dialektlar “noto‘g‘ri” yoki “past” nutq emas, balki xalqning jonli madaniy merosi va tilning eng muhim ichki rivojlanish manbai sifatida qadrlanishi lozim.

Shunday ekan, dialektal variantlarni sun’iy ravishda yo‘q qilish yoki qat’iy cheklash o‘rniga, ularning adabiy til bilan uyg‘un, o‘lchovli hamkorligini ta’minlash bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi va til siyosatining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Dialektlarni saqlanib qolgan joyda til ham tirik va rivojlanuvchan bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Resulov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1984.
2.Mengliyev B. O‘zbek tilining dialektal sistemi. – T.: Fan, 2005.
3.Saydazimova U. Zamonaviy o‘zbek adabiy tilida dialektizmlar. – Samarqand, 2018.
4.Nurmonov A. Til va ijtimoiy muhit. – T.: 2010.
5.Abdullaev F. Sotsiolingvistika. – T.: Universitet, 2020.

MAKTABGACHA TA’LIMDA O‘YIN VA INTERAKTIV METODLARNI SUN’IY INTELLEKT BILAN UYG‘UNLASHTIRISH

Hamroyeva Anora Faxreddenovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim jarayonida o‘yin va interaktiv metodlarni sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. Maqolada SI ning shaxsiy ta’lim imkoniyatlari, moslashtirilgan o‘yin dasturlari, bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri, shuningdek, ushbu texnologiyalarni qo‘llashdagi afzallik va muammolar tahlil qilinadi. Kelajakda SI asosidagi o‘yinli ta’limning maktabgacha ta’lim tizimida kengayishi va uning bolalar rivojlanishidagi muhim roli ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, sun’iy intellekt, o‘yinli ta’lim, interaktiv metodlar, shaxsiy ta’lim, moslashtirilgan o‘rganish, kognitiv rivojlanish, raqamli ta’lim texnologiyalari, bolalar psixologiyasi, ta’lim innovatsiyalari

Kirish.

Maktabgacha yosh (3–7 yosh) bolaning shaxs sifatida shakllanishining eng muhim davri hisoblanadi. Aynan shu yillarda miya eng faol rivojlanadi, til, fikrlash, ijtimoiy ko‘nikmalar va emotsional intellektning poydevori qo‘yiladi. Bolalar dunyoni birinchi navbatda o‘yin orqali o‘rganadilar: o‘yin ularga xavfsiz muhitda tajriba o‘tkazish, xato qilish va yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu sababli, zamonaviy maktabgacha ta’limning asosiy printsipi “o‘yin orqali o‘qitish” (play-based learning) bo‘lib qolmoqda.

So‘nggi o‘n yillikda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim sohasiga chuqur kirib bordi. Agar avval raqamli vositalar faqat oddiy multimedia kontent bilan cheklansa, bugungi kunda SI bolaning individual xususiyatlarini (o‘rganish tezligi, qiziqishlari, qiyinchilik darajasi) real vaqt rejimida tahlil qilib, har bir bola uchun shaxsiy ta’lim traektoriyasini yaratish imkonini bermoqda. SI asosidagi interaktiv o‘yinlar, nutqni tushunadigan virtual yordamchilar, moslashuvchan o‘quv platformalari bolalarga o‘rganishni yanada qiziqarli, samarali va eng muhimi, har biri uchun “o‘ziga xos” qilib bermoqda.

Ushbu maqola maktabgacha ta’limda an’anaviy o‘yin va interaktiv metodlarni sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashtirishning imkoniyatlari, amaliy misollari, afzalliklari hamda e’tiborga olish zarur bo‘lgan muammolarini yoritishga bag‘ishlanadi. Maqola o‘qituvchilar, metodistlar, ota-onalar va ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilar uchun foydali ma’lumot va tavsiyalar berishni maqsad qilgan.

Maktabgacha ta’lim – bolalarning rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, bu davrda o‘yin va interaktiv metodlar asosiy rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bu sohada inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda, bolalarning ta’lim jarayonini yanada shaxsiy va qiziqarli qilishga yordam bermoqda. SI o‘yinlari va interaktiv dasturlari orqali bolalar o‘rganishni o‘yin sifatida qabul qiladilar, bu esa ularning kognitiv qobiliyatlarini oshiradi.

SI ning afzalliklari maktabgacha ta’limda

Sun’iy intellekt bolalarning o‘rganish uslublarini tahlil qilib, shaxsiy darslar taklif qilishi mumkin. Masalan, interaktiv o‘yinlar orqali bolalar matematika, til yoki ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganadilar, SI esa ularning xatolarini tuzatib, mos darajada qiyinlik darajasini oshiradi. Bu metodlar bolalarning diqqatini jamlash, xotira va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, SI bolalarga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, interaktiv testlar va simulyatsiyalar bolalarda qiziqish va izlanish ruhini uyg‘otadi.

Amaliy misollar va qo‘llanilishi

Hozirgi kunda ko‘plab SI asosidagi ilovalar mavjud, masalan, bolalarga til o‘rgatuvchi interaktiv o‘yinlar yoki matematik muammolarni hal qiluvchi dasturlar. Bu ilovalar bolalarning rivojlanishini kuzatib, ota-onalar va o‘qituvchilarga hisobot beradi, shuningdek, ta’lim jarayonini optimallashtiradi.

Yana bir misol – SI bolalarga ta’lim berish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish. Bu dasturlar bolalarning yoshiga mos keladigan o‘yinlar orqali SI haqida ham o‘rgatishi mumkin.

Qo‘yiladigan muammolar va kelajak istiqbollari

Albatta, SI ni maktabgacha ta’limda qo‘llashda ba’zi muammolar mavjud, masalan, ma’lumotlar maxfiyligi va texnologiyaga tengsizlik. Shunga qaramay, SI ta’limni o‘zgartirishda katta salohiyatga ega va kelajakda yanada keng qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yin va interaktiv metodlarni SI bilan uyg‘unlashtirish maktabgacha ta’limni yanada samarali va qiziqarli qiladi, bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga asos soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. (2022). **“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan tahriri)**. Toshkent: MMTV nashriyoti.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2022). **O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish**

konsepsiyasi. Toshkent.
3. Abdullayeva Sh. A., Xo‘jayeva N. M. (2024). **Maktabgacha ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlari**. Ilmiy-pedagogik jurnal “Maktabgacha ta’lim”, № 1, 34–41-betlar.
4. To‘rayeva D. B. (2023). **Raqamli ta’lim texnologiyalari va o‘yin orqali o‘qitishning integratsiyasi**. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
5. UNICEF O‘zbekiston. (2024). **Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun raqamli ta’lim vositalarini joriy etish bo‘yicha loyiha hisoboti**. Toshkent.
6. Karimov A., Sattorov B. (2023). **Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalari: maktabgacha ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi**. “Yosh olim” ilmiy jurnali, 5-son, 112–118-betlar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. (2024). **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’limni raqamlashtirish loyihalari**. Toshkent.

3-SHO‘BA: XALQARO TAJRIBA VA HAMKORLIK ISTIQBOLLARI, TA’LIMDA RAQAMLI MUHIT VA MEDIA TA’LIM.

TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONIDA XALQARO INTEGRATSIYALASHGAN INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Doniyorova Shoxista Shodiyarovna
Samarqand davlat pedagogik instituti o‘qituvchisi
Tel:+998915196001
Email:indefenit@gmail.ru

Annotatsiya: Maqolada ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida xalqaro integratsiyalashgan innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Global ta’lim muhitida raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun oliy ta’lim muassasalarida raqamli transformatsiya, interfaol metodlar, talabalar mobil’ligi va xalqaro ta’lim platformalaridan foydalanishning afzalliklari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Innovatsion pedagogika, ta’limni modernizatsiya qilish, xalqaro integratsiya, raqamli transformatsiya, akademik mobil’lik.

Abstract: The article analyzes the importance of internationally integrated innovative pedagogical approaches in the process of modernization of the education system. It highlights the advantages of digital transformation, interactive teaching methods, student mobility, and the use of international educational platforms in higher education institutions to ensure competitiveness in the global educational environment.

Keywords: Innovative pedagogy; educational modernization; international integration; digital transformation; academic mobility.

Аннотация: В статье анализируется значение международно-интегрированных инновационных педагогических подходов в процессе модернизации системы образования. Рассматриваются преимущества цифровой трансформации, интерактивных методов обучения, студенческой мобильности.

Ключевые слова: Инновационная педагогика, модернизация образования, международная интеграция, цифровая трансформация,

академическая мобильность.

Kirish. XXI asr ta’lim tizimi jadal global o‘zgarishlar, texnologik inqiloblar va xalqaro raqobatning keskinlashuvi bilan tavsiflanadi. Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta’lim nafaqat bilim beruvchi tuzilma, balki innovatsion g‘oyalar generatori, malakali kadrlar bozorining bosh yetkazib beruvchisiga aylanmoqda. Shu bois oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifatini oshirish, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash maqsadida o‘quv jarayonini xalqaro standartlar asosida tashkil etishi zarur [1]. Mazkur jarayon ta’lim tizimining ichki jarayonlarigacha chuqur kirib borib, ilg‘or texnologiyalar, kompetensiyaga yo‘naltirish, akademik erkinlik va innovatsion boshqaruvni talab etmoqda.

Asosiy qism. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida xalqaro integratsiyalashgan innovatsion pedagogik yondashuvlar. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning markaziy yo‘nalishlaridan biri bu ta’limni global maydonga olib chiqish va talabalarni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishdir. Xalqaro integratsiya talab etayotgan ushbu o‘zgarishlar oliy ta’limda yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni zarur qiladi [1]. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimi quyidagi transformatsion o‘zgarishlarga tayanmoqda:

1. Raqamli transformatsiya va ta’lim texnologiyalari. O‘qitish jarayoni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida qayta talqin qilinmoqda. Masofaviy ta’lim, LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom), sun’iy intellekt, VR/AR texnologiyalari o‘quv jarayonining sifatini oshiradi va talaba faolligini kuchaytiradi [2].

Raqamli ta’limning ustunliklari:

-o‘qish vaqt va makonga bog‘lanmaydi;

-ta’lim resurslariga cheklanmas kirish;

-individual ta’lim trayektoriyasi;

-o‘qituvchi va talaba hamkorligi kuchayishi.

2. Xalqaro ta’lim platformalari va ochiq ta’lim resurslari.

Coursera, edX, FutureLearn kabi global platformalar orqali talabalar dunyoning yetakchi universitetlaridan bilim olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu o‘qitish sifati va mazmunining xalqaro standartlarga moslashuvini ta’minlaydi

[3].

3. Akademik mobil’likni kuchaytirish.

Talabalar almashinuvi dasturlari (Erasmus+, Mevlana, DAAD, Fulbright) xalqaro ta’lim bozoriga chiqishning asosiy yo‘lidir. Mobil’lik:

-madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantiradi;

-fan va metodika bo‘yicha qiyosiy tajribalarni boyitadi;

-til kompetensiyasini kuchaytiradi. [4]

O‘zbekiston oliy ta’limida so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalish bo‘yicha jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ikki diplomli dasturlar soni ortmoqda, xalqaro reytinglar bilan ishlash boshlangan, qabul kvotalarida xorijiy talabalar ulushi yildan yilga oshib bormoqda.

4. SMART-CAMPUS modeli va sun’iy intellekt asosida boshqaruv. Raqamli boshqaruv, elektron dekanat, barqaror IoT infratuzilmasi ta’lim jarayonini shaffof va samarali qiladi. Smart-campus:

-ta’lim indikatorlarini real vaqt monitoringi

-talabalar ehtiyojiga mos xizmatlar (onlayn kutubxona, elektron arxiv)

-xavfsiz, ekologik va interaktiv ta’lim muhiti yaratadi

5. STEAM va kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv. Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika integratsiyasi orqali:

-kreativ fikrlash kuchayadi;

-muammo yechish ko‘nikmalari rivojlanadi;

-amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim kuchayadi [5]

6. Talaba markazlashgan ta’lim va shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘llari. Blooms Taxonomy, konstruktivizm, CLIL kabi metodlar asosida talaba bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchiga aylanadi. Raqamli transformatsiya va interfaol pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan holda tashkil etish, nazariya va amaliyotning uyg‘unligini ta’minlash imkonini bermoqda. Talabalar dunyo miqyosida ta’lim olish, o‘z salohiyatini namoyon etish va mehnat bozoriga mos kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega

bo‘lib bormoqda. Xalqaro ta’lim platformalari va mobil’lik dasturlari talabalarning akademik erkinligi, madaniyatlararo muloqot darajasi, ilmiy-tadqiqotga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi asosida rivojlanayotgan kompetensiyalar esa jamiyatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi. Ta’lim tizimi modernizatsiyasining muvaffaqiyatli kechishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

-xalqaro standartlar bilan moslashtirilgan o‘quv dasturlari;

-innovatsion ta’lim infratuzilmasi (Smart-campus, sun’iy intellekt, IoT);

-iqtisodiyot ehtiyojlariga mos kompetensiyalarni rivojlantirish;

-o‘qituvchilarning raqamli va metodik salohiyatini oshirish;

-global reytinglar va akkreditatsiya talablariga yo‘naltirilgan boshqaruv.

Xulosa qilib aytganda xalqaro integratsiyaga asoslangan innovatsion pedagogik yondashuvlar ta’lim tizimini transformatsiya qilishning asosiy drayveri bo‘lib, raqobatbardosh, kreativ, intellektual va ijtimoiy mas’uliyatli kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, xalqaro maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlash hamda barqaror kelajakni ta’minlashning asosiy kafolatlaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Doniyorova. Sh. Innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali talabalarning xalqaro-lashuv shart-sharoitlarini takomillashtirish. Scopus ilmiy jurnali uchun maqola loyihasi. Samarqand: 2025. 25–38-b.
2. Abdullaeva B. Oliy ta’lim tizimida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari. Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2022. 156 b.
3. Karimova R. Talabalarning global mehnat bozoriga integratsiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2023. 210 b.
4. Dewey J. Democracy and Education. New York: Macmillan, 1916. 382 p.
5. Knight J. Internationalization of Higher Education: New Directions. International Higher Education, 2020, No. 102, pp. 4–10.
6. Altbach P.G., Knight J. The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities. Journal of Studies in International Education, 2007, 11(3–4), pp. 290–305.
7. De Wit H. Internationalization in Higher Education: A Review. Higher Education Policy, 2019, 32(2), pp. 143–159.

XORIJIY OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Xolmirzayev Nuriddin Abdullayevich,
Profi university Navoy filiali o‘qituvchisi
kholmirzayev1977@mail.ru
+99897 7971125

Annotatsiya. Maqolada xorijiy oliy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishdagi asosiy muammolar ilmiy tahlil qilinadi. Bu kompetentlikning pedagogik faoliyatda ahamiyati, shakllantirishdagi qiyinchiliklar va samarali pedagogik strategiyalar tadqiq etiladi. Maqola ham xorijiy, ham o‘zbek tadqiqotlari asosida yozilgan bo‘lib, amaliy tavsiyalar va misollar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-madaniy kompetentlik, xorijiy oliy ta’lim, pedagogik tayyorgarlik, interkulturali muloqot, madaniy integratsiya.

Abstract. The article scientifically analyzes the main problems in the formation of socio-cultural competence in future teachers studying in foreign higher education institutions. The importance of this competence in pedagogical activity, difficulties in its formation, and effective pedagogical strategies are studied. The article is based on both foreign and Uzbek research and is enriched with practical recommendations and examples.

Keywords: socio-cultural competence, foreign higher education, pedagogical training, intercultural dialogue, cultural integration.

Global sivilizatsiya taraqqiyoti bilan birga ta’lim tizimi ham tubdan o‘zgarib, madaniyatlararo o‘zaro ta’sir va xalqaro akademik hamkorlik necha baravar kuchaydi. Raqamli kommunikatsiyalar, migratsiya oqimlari, transmilliy ta’lim dasturlarining ko‘payishi natijasida oliy ta’lim muassasalari endi turli millat, din, qarash va ijtimoiy tajribaga ega bo‘lgan talabalar bilan to‘liq integratsion maydonga aylandi. Bunday sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy pedagogik tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning asosiy mohiyati shundaki, o‘qituvchi nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yuqori malakaga, balki madaniyatlararo

muloqot, tolerantlik, empatiya, ijtimoiy moslashuvchanlik, global dunyoqarash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Chunki hozirgi davrda o‘qituvchining faoliyati faqat auditoriya ichidagi jarayon bilan chegaralanmaydi — u global muhit, raqamli platformalar, xalqaro loyihalar, ko‘p millatli ta’lim jamoalari bilan chambarchas bog‘langan.

Shu bois xorijiy oliy ta’lim muassasalarida mazkur kompetentlikni shakllantirishning mavjud tizimi, uning davomiy jarayondagi kamchiliklari va imkoniyatlari, shuningdek, global tajribaning mahalliy ta’lim uchun ahamiyati ilmiy tahlil etilishi zarur.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik ko‘p komponentli fenomen bo‘lib, turli ilmiy maktablar uni o‘z nuqtai nazaridan talqin qiladi. Umumiy mazmun shundan iboratki, ushbu kompetentlik shaxsning madaniy tafovutlarni tushunish, turli ijtimoiy guruhlar bilan konstruktiv muloqot qilish, global ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish qobiliyatidir.

Mazkur kompetentlikning strukturasi uch asosiy yo‘nalishdan iborat:

– madaniy bilimlarning mavjudligi;

– madaniyatlararo munosabatga ijobiy emotsional tayyorgarlik ;

– real kommunikativ vaziyatda moslashuvchan, tolerant va samarali xulq-atvor ko‘nikmalari.

Bo‘lajak o‘qituvchi bu kompetentlik yordamida o‘quvchilar orasida madaniy-insoniy qadriyatlarni targ‘ib etadi, konfliktlarni bartaraf etadi, shaxsiy namuna orqali o‘quvchilarning global fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi. Shuning uchun chet el pedagogik ta’lim tizimlarida bu kompetentlik yadro kompetensiya sifatida qaraladi.

Jahon tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli davlatlarda mazkur kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha samarali amaliyotlar mavjud bo‘lsa-da, ularning barchasi umumiy tamoyillarga tayanadi: ochiqlik, madaniyatlararo dialog, tajribaviy o‘rganish, kommunikativ faoliyatning ustuvorligi.

Yevropa davlatlarida ijtimoiy-madaniy kompetentlik ko‘proq xalqaro dasturlar, CLIL kabi fan va til integratsiyasi, ko‘p madaniyatli guruhlarning qo‘shma loyihalarini tashkil etish orqali rivojlantiriladi. Talabalar o‘zaro o‘rganish, muhokama va refleksiya jarayonlarida turli madaniyat vakillarining fikri bilan tanishadi.

AQSH va Kanadada multikultural pedagogika konsepsiyasi asosida irqiy tenglik, diskriminatsiya, madaniy identitet masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Talabalar real jamoalarda amaliy darslar o‘taydi, mahalliy etnik guruhlar bilan ishlash orqali amaliy tajriba orttiradi.

Sharq davlatlarida, xususan Janubiy Koreya va Yaponiyada, internatsionallashuv milliy ta’lim siyosatining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bunda milliy qadriyatlarni saqlagan holda global kompetentlikni rivojlantirishga e'tibor kuchli. O‘qituvchilar xalqaro almashinuv dasturlarida faol ishtirok etadi, xorijiy tajribani amaliyot bilan bog‘laydi.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-madaniy kompetentlik faqat alohida fan orqali emas, balki ta’lim muhitining umumiy falsafasi orqali shakllanadi.

Xorijiy oliy ta’lim muassasalaridagi tajriba ko‘plab imkoniyatlar bilan birga qator tizimli muammolarni ham namoyon qiladi. Mazkur muammolarni tahlil qilish ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun muhimdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishda bir qator muammolar uchraydi:

- Pedagogik dasturlar yetarli emasligi – ko‘p universitetlarda o‘quv dasturlari faqat fan bilimiga e’tibor beradi va madaniyatlararo ko‘nikmalar yetarli o‘qitilmaydi.
- Chet tilini yetarlicha bilmaslik – seminar va loyihalarda o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaslik, muloqotni qiyinlashtiradi. Masalan, ingliz tilini yaxshi bilmagan talaba guruh muhokamalarida passiv bo‘ldi.
- Madaniyatlararo nizolarni boshqarish qobiliyatining pastligi – turli guruhlar bilan ishlashda kelib chiqadigan kelishmovchiliklar talabalarni chalg‘itadi va o‘quv jarayonini sekinlashtiradi.
- Amaliy mashg‘ulotlar yetishmasligi – virtual platformalar va interfaol mashg‘ulotlar yetarli bo‘lmaganda talabalar real hayotdagi tajribaga ega bo‘la olmaydi.

Pedagogik muammolar - eng avvalo o‘quv jarayonining integratsiyalanmaganligi bilan bog‘liq. Ko‘plab oliygohlarda madaniyatlararo kompetensiyaga bag‘ishlangan kurslar mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘pincha nazariy mazmundan nariga o‘ta olmaydi. Talabalar real kommunikativ tajribaga ega bo‘lmasdan turib, kompetensiyani chuqur egallashlari qiyin. Shuningdek, o‘qituvchilarning o‘zida ham bu yo‘nalishda kasbiy tayyorgarlik yetarli bo‘lmasligi jarayonga salbiy ta’sir qiladi.

Psixologik omillar ham muhim o‘rin tutadi. Talabalar orasida etnotsentrik qarashlar, stereotiplar, notanish madaniy muhitga nisbatan xavotir, moslashuv qiyinchiliklari keng tarqalgan. Bu esa madaniyatlararo muloqotning tabiiy jarayonga aylanishiga to‘sqinlik qiladi. Ba’zi talabalar uchun chet madaniyatni qabul qilish jarayoni stress va psixologik qarshilik bilan kechadi.

Tashkiliy muammolar sifatida xalqaro almashinuv dasturlarining cheklanganligi, moliyaviy resurslar yetishmasligi, viza-protseduralarning murakkabligi, universitetlar o‘rtasidagi hamkorlikning sustligi kabi omillar qayd etiladi. Bundan tashqari, ko‘p oliygohlarda interaktiv laboratoriyalar, madaniyatlararo markazlar, ko‘p tilli ta’lim zonalari hali to‘liq shakllanmagan.

Madaniy omillar esa har bir mamlakatning mentaliteti, qadriyati va an’analariga bog‘liq. Ba’zi madaniy tizimlarda o‘z madaniyatini ustun qo‘yish holatlari mavjud bo‘lib, bu global kompetentlik shakllanishini cheklashi mumkin. Raqamli kommunikatsiya madaniyatlari farqlari ham madaniyatlararo muloqotda tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida samarali natijaga erishish uchun tizimli, integratsiyalashgan va ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Bunday yondashuvning birinchi elementi o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqishdir. Ta’lim fanlari o‘rtasida integratsiya kuchaytirilishi, nazariya real kommunikativ vaziyatlar bilan bog‘lanishi zarur. Case-study, debat, trening, rol o‘yinlari, madaniy vaziyatlar simulyatsiyasi kabi usullar keng qo‘llanishi lozim.

O‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. Maxsus treninglar, xalqaro seminarlarda ishtirok, onlayn kurslar o‘qituvchilarning madaniyatlararo kompetentlikni o‘rgatish bo‘yicha metodik mahoratini rivojlantiradi.

Talabalar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish ham jarayonning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Moslashuv treninglari, mentorlik dasturlari, psixologik maslahat xizmati madaniyatlararo tajriba jarayonini yengil kechishiga yordam beradi.

Shuningdek, xalqaro almashinuv dasturlari, qo‘shma ta’lim loyihalari, virtual almashinuv platformalari kengaytirilishi zarur. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar boshqa mamlakat yoshlari bilan bevosita muloqot va qo‘shma loyiha faoliyatiga jalb etilishi mumkin.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishish uchun ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari uzviy ishlashi talab etiladi. Mahalliy ta’lim mazmunini global jarayonlarga moslashtirish, talabalarda bag‘rikeng va ochiq dunyoqarashni tarbiyalash, turli madaniyatlar bilan muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirish o‘qituvchining kelajak kasbiy muvaffaqiyati uchun asos yaratadi.

Mamlakat oliy ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga madaniyatlararo

kommunikatsiya, global pedagogika, tolerantlik psixologiyasi kabi fanlarni kiritishi, xalqaro loyihalar, almashinuv dasturlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida seminarlar tashkil etishi zarur. Buning natijasida yangi avlod o‘qituvchilari nafaqat mahalliy muhitda, balki global ta’lim maydonida ham kompetent mutaxassis sifatida faoliyat yurita oladi.

Xorijiy oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni murakkab, ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladigan pedagogik hodisadir. Global ta’limning kengayib borayotgan sharoitida pedagogning ushbu kompetentlikka ega bo‘lishi nafaqat kasbiy ehtiyoj, balki ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan xorijiy tajribalar samarali bo‘lsa-da, ularning amaliyotga tadbiqida bir qator kamchiliklar mavjud. Bu muammolarni bartaraf etish integratsiyalashgan o‘quv dasturlari, tajribaviy o‘qitish texnologiyalari, psixologik qo‘llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlik va raqamli muloqotni to‘g‘ri tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Natijada, ijtimoiy-madaniy kompetentlikka ega bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchi zamon talablari darajasida faoliyat yuritadi, o‘quvchilarni global madaniy makonda samarali hayotga tayyorlaydi hamda jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Баҳромов, Ш. Олий таълимда педагогик малака ва компетентлик. Тошкент: Фан, 2018.
2. Мирзаев, А. Турли маданиятлар орасида самарали мулоқот. Тошкент: Университет нашриёти, 2020.
3. Каримов, Ю. Педагогик қобилиятларни ривожлантиришда интерактив методлар. Тошкент: Техника ва таълим, 2019.
4. Қаюмов, Т. Инновацион педагогик технологиялар ва халқаро тажриба. Тошкент: Таҳсил, 2021.
5. Хофстеде, Г. Измерение культур: модель Хофстеде. Москва: Инфра-М, 2011.
6. Деардорф, Д.К. Оценка межкультурной компетентности. Журнал международного образования, 2006.
7. Спенсер-Оутей, Х., Франклин, П. Межкультурное взаимодействие: подходы и практика. Москва: Палгрейв Макмиллан, 2009.

8. Байрам, М. Обучение и оценка межкультурной коммуникативной компетентности. Мультилэнгвел Мэттерс, 1997.
9. Беннетт, М. Дж. Основные понятия межкультурной коммуникации. Intercultural Press, 2013.
10. Фантини, А.Е. Оценка межкультурной компетентности. Online Readings in Psychology and Culture, 2009.

OLIY TA’LIMDA RAQAMLI XALQAROLASHUV: GLOBAL TAJRIBALAR, VIRTUAL AKADEMIK MOBILLIK VA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.

Doniyorova Shoxista Shodiyarovna
Samarqand davlat pedagogik instituti o‘qituvchisi
Tel:+998915196001
Email: indefenit@gmail.ru

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim tizimida raqamli xalqaro-lashuvning dolzarbligi, virtual akademik mobillik shakllari va global ta’lim muhitiga integratsiya jarayonida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya sharoitida xalqaro hamkorlikning kengayishi va talabalarning global raqobatbardoshligini oshirish omillari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli xalqaro-lashuv, virtual akademik mobillik, raqamli kompetensiyalar, global ta’lim muhiti, xalqaro hamkorlik, innovatsion ta’lim texnologiyalari.

Аннотация: В статье анализируется актуальность цифровой интернационализации в системе высшего образования, формы виртуальной академической мобильности и стратегии развития цифровых компетенций в процессе интеграции в глобальное образовательное пространство. Освещены расширение международного сотрудничества в условиях цифровой трансформации и факторы повышения глобальной конкурентоспособности студентов.

Ключевые слова: цифровая интернационализация, виртуальная академическая мобильность, цифровые компетенции, глобальная образовательная среда, международное сотрудничество, инновационные

образовательные технологии.

Annotation: The article analyzes the relevance of digital internationalization in higher education, the forms of virtual academic mobility, and strategies for developing digital competencies in the process of integration into the global educational environment. The expansion of international cooperation under the conditions of digital transformation and the factors that enhance students’ global competitiveness are highlighted.

Keywords: digital internationalization, virtual academic mobility, digital competencies, global educational environment, international cooperation, innovative educational technologies.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi nafaqat milliy rivojlanish strategiyalarining, balki global raqobatning ham markazida turibdi. XXI asr ta’lim tizimi jadal global o‘zgarishlar va raqobat muhitiga duch kelmoqda. Shu bois oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini xalqaro standartlar asosida tashkil etishi zarur [2]. Ta’limning raqamlashtirilishi xalqaro hamkorlikni kuchaytirib, ta’lim resurslariga teng imkoniyatlar yaratmoqda[4]. Ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi, onlayn o‘qitishning kengayishi va xalqaro hamkorlikning yangi shakllari ta’lim sifatini oshirishda asosiy omilga aylanmoqda. Shu jihatdan raqamli xalqaro-lashuv tushunchasi oliy ta’lim rivojining yetakchi paradigmasiga aylanmoqda.

Oliy ta’limda raqamli xalqarolashuv oliy ta’lim tizimini global bilim maydoniga ulanadigan raqamli platformalar, virtual hamkorlik va onlayn almashinuv dasturlari orqali kengaytirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda:

-ta’lim resurslarining chegarasiz almashinuvi;

-talabalar mobility’sining vaqt va hududdan mustaqillashuvi;

- sifat baholashning xalqaro standartlarga integratsiyasi kuzatiladi.

Raqamli xalqaro-lashuv oliy ta’lim tizimini global bilim maydoniga ulanadigan raqamli platformalar, virtual hamkorlik va onlayn o‘quv almashinuv dasturlari orqali kengaytiradi [3]. Bu jarayon nafaqat xalqaro aloqalarni mustahkamlaydi, balki talabalarning global kompetensiyalarini rivojlantiradi [10]. Virtual akademik mobillik: imkoniyatlar va ustuvor yo‘nalishlari va an’anaviy akademik mobillik ko‘plab moliyaviy, vizaviy va logistika muammolariga duch keladi. Virtual mobillik iqtisodiy va geografik cheklovlarni minimallashtiruvchi

eng samarali mexanizmdir [7]. COIL modeli talabalarning turli davlatlardan bo‘lgan tengdoshlari bilan masofadan turib hamkorlikda o‘qishini ta’minlaydi [6]. Bu esa akademik mobillikning yanada demokratlashuviga olib keladi [5].Virtual mobillik esa:

-hybrid hamkorlik dasturlari

-onlayn qo‘shma kurslar va kredit transfer tizimi

-xalqaro o‘qituvchilar mahorat darslari orqali mobil ta’limning yangi mexanizmlarini yaratadi. Masalan, ko‘plab davlatlarda COIL (Collaborative Online International Learning) modeli keng qo‘llanmoqda.

Raqamli kompetensiyalar zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishning hal qiluvchi omilidir[5]. O‘quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, mustaqil o‘qish madaniyatini shakllantiradi va ijodiy salohiyatni oshiradi[9]. Raqamli kompetensiyalarning talabalardagi ahamiyati shundagi raqamli kompetensiya talabaning:

-global mehnat bozorida moslashuvchanligi;

-innovatsion faoliyatga tayyorligi;

-mustaqil o‘rganish madaniyati kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu esa xalqaro standartlarga mos barkamol mutaxassis tayyorlashda poydevor rolini o‘ynaydi.

Global tajriba: xalqaro platformalar va hamkorlik dasturlari bugungi kunda quyidagi tashabbuslar ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda:

-Erasmus+ Virtual Exchange;

-Mevlana va DAAD masofaviy almashinuv loyihalari;

-Coursera, edX, FutureLearn’dagi qo‘shma sertifikat dasturlari.

Ular orqali talabalar dunyoning istalgan universiteti bilan chegaralarsiz ilmiy aloqaga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli xalqaro-lashuv istiqbollari.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda:

-xalqaro qo‘shma dasturlar soni oshmoqda;

-masofaviy ta’lim turi qonunchilikda mustahkamlandi;

-raqamli infratuzilma bosqichma bosqich modernizatsiya qilinmoqda.

Kelgusida esa virtual mobillikni kengaytirish orqali hududlararo ta’lim tengligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda raqamli xalqaro-lashuv oliy ta’lim tizimini global ilmiy hamjamiyatga ulaydigan eng ta’sirchan mexanizmlardan biridir. Virtual akademik mobillik talaba imkoniyatlarini keskin kengaytiradi, raqamli kompetensiyalar esa raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omiliga aylanadi. Shu bois O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro hamkorlikning raqamli formatlarini kuchaytirishi va zamonaviy texnologiyalar asosida integratsiyani jadallashtirishi talab etiladi.

Adabiyotlar;

1. Doniyorova Sh. (2024). Oliy ta’limda raqamli xalqaro-lashuvning pedagogik shart-sharoitlari. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti. [1]
2. Knight, J. (2020). Internationalization Remodeled: Definition, Approaches, and Rationales. Journal of Studies in International Education, 24(1), 3–33. [2]
3. European Commission. (2023). Erasmus+ Virtual Exchange Impact Report. Brussels: EC Publications.[3]
4. UNESCO. (2022). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO Publishing. [4]
5. OECD. (2023). Higher Education Digitalisation Strategies: Global Practices and Trends. Paris: OECD Publishing. [5]
6. Dooly, M., & O’Dowd, R. (2018). In this Together: Teachers’ Experiences with Collaborative Online International Learning (COIL). Innovation in Language Learning and Teaching, 12(2), 120–136.
7. Qodirova, N. (2023). O‘zbekiston oliy ta’limida raqamli transformatsiya jarayonlari. Ta’lim innovatsiyalari jurnali, 6(2), 88–

NAVOIY VILOYATIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATI-YOSHLAR SOHASIDA

Toshpo‘latov Ilhom Tolib o‘g‘li
Navoiy innovatsiyalar universiteti,
tarix yo‘nalishi I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasiga a’zo yoshlar sohasida Navoiy viloyatida faoliyat olib nodavlat notijorat tashkilotlarini amalga oshirayotgan davlat ijtimoiy buyurtmasi hamda davlat grantlari va boshqa samarali ishlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar haqida haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Nodavlat notijorat tashkiloti **(**NNT), Navoiy viloyat “To‘maris” ayollar va yoshlar markazi jamoat birlashmasi, Navoiy viloyati “Fidoiy yoshlar” teleklubi uyushma, Navoiy viloyat “Tashabbuskor yoshlar markazi” jamoat birlashmasi jamiyat, uchinchi sektor, jamoatchilik nazorati, davlat subsidiyasi, davlat granti, davlat ijtimoiy buyurtmasi.

O‘zbekistonda e’tibor qilinayotgan sohalardan biri noddavlat notijorat tashkilotlaridir, ular turli yo‘nalishlarda, turli hududlarda samarali faoliyat olib borishadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) Navoiy viloyatida 2025-yil yakuniga ko‘ra NNTlar umumiy soni 506 ta. Yoshlar sohasidagi NNT lar soni 55 ta, bo‘lib ular tomonidan yoshlarni kasb-hunarga, tadbirkorlikga, sportva boshqa sohalarda diqqatga sazovor ishlar qilin 2025-yilga qadar amalga oshirildi.

Navoiy viloyat “To‘maris” ayollar va yoshlar markazi 2018-yil 8-sentabrda Konimex tumanida ish faoliyatini boshlagan. NNT tomonidan inson huquqlarini ta’minlash, gender tengligi, tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘rgatish, kasb-hunarga o‘qitish sohalarida Navoiy, Zarafshon shaharlari, Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlarida mahalliy va xorijiy grantlar jalb qilindi. Mahalliy davlat grantlaridan Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini va qo‘llab-quvvatlash jamoat fondidan 3 ta grant loyiha moliyalashtirilgan. Xorijiy ARGO (Qozog‘iston), USAID (AQSH), Inson huquqlari bo‘yicha Xelsinki fondi hamda boshqa tashkilotlardan jami 2025-yilga qadar 9 ta xorijiy grant mablag‘lari jalb qilindi. Viloyatimizda 400 dan ortiq yoshlar seminar treninglarva kurslarda qatnashib kasbga o‘rgatildi. 8 ta volontyorlar o‘zlari alohida tashkilot (NNT)

rahbari darajasiga yetishtirildi.

Navoiy viloyati “Fidoiy yoshlar” teleklubi 2019-yil 26-iyun kuni Navoiy shaharida ish faoliyatini boshlagan. 2021-yil noyabr oyida davlat ijtimoiy buyurtmasi nomi “Yangi O‘zbekiston yoshlari-yorqin kelajak poydevori” loyihasi umumiy qiymati 998 mln so‘m miqdorida jalb etilib Navoiy viloyat Yoshlar markazida media studia foydalinishga topshirildi.

Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini va qo‘llab-quvvatlash jamoat fondidan 4 ta davlat grant loyihasi moliyalashtirilgan. 2025-yilga qadar “Kelajak yoshlari” teleloyihasi doirasida 160 dan ortiq ko‘rsatuv umumiy 28 ming daqiqa davomida viloyat televidenyasiga efirga uzatilishiga erishildi. Media studiada tarbiyalangan yosh operator, jurnalistlar, bloggerlar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi, ulardan 5 nafari viloyat tashkilotlari matbuot kotibi, 1 nafari “Zulfiya” nomidagi davlat mukofoti sohibi, 1 nafari AQSH da talaba bo‘lishga erishdi. Teleklub turli yirik korxona va tashkilotlar, ta’lim muassasalari, mahalliy hokimliklar bilan samarali loyihalar amalga oshirib kelmoqda.

Navoiy viloyat “Tashabbuskor yoshlar markazi” jamoat birlashmasi 2022-yil 7-martda Navoiy shaharda ish faoliyatini boshlagan. Tashkilot yoshlar uchun turli tashbbuslarni ilgari suradi, jumladan Xalq deputalari navoiy voloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi moliyalashtirgan davlat grantlari doirasida 2022-yil 27-dekabr “Kitob-axborot asrida ham o‘z qadrini yo‘qotmaydi” loyihhasi doirasida Karmana tuman “Allon” MFY binosida kutubxona foydalanishga topshirildi. 2023-yil 29-avgust Navoiy shahar “Ziyokor” MFY binosida kutubxona foydalanishga topshirilgan. NNT tomonidan yoshlarni kitobxonlikga jalb qilish bo‘yicha bir qator tashabbuslar ilgari surilmoqda.

2024-yil 11-iyul Karmana tuman 20-maktab futbol stadioni rekonstruksiya qilinib, tungi yoritish jihozlari o‘rnatilgan holda maktabning 400 dan ortiq o‘g‘il-qizlari uchun sport maydoni yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XII bob. 69-75-moddalari “Fuqarolik jamiyati institutlari” to‘g‘risida. Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyatining faoliyati

qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalari, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki, cheklab qo'yish faqt sud qarori asosidagina amalga oshiriladi.[85]

NNT faoliyatining huquqiy asoslarini "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" (2023-yil), "O'zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalari to'g'risida"gi (1991 -yil), "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari,va faoliyatining kafolatlari tog'risida"gi (1992-yil), "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi (1999-yil), "Jamoat fondlari to'risidagi" (2003-yil), Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Nodavlat notijjorat tashkilotlari ayrim joylarda "uchinchi sektor" tushunchasida ham uchraydi ya'ni birinchi sektor davlat tashkilotlari, ikkinchi sektor tijorat tashkilotlari sifatida ko'rish mumkin.

Jamoatchilik nazorati-davlat hokimyati va boshqaruvi organlari hamda nodavlat tashkilotlari faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish fuqarolik jamiyatining boshqa tuzulmalari, shuningdek davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzulgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat.

Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" Qonunga muvofiq bir qator shakllarda amalga oshiriladi, davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar yuborish, davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoring, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarning hisobotlari va axborotlarini eshitish.[86]

O'zbekiston Respublikasining "Nadavlat notijorat tashkilotlari faoliyating kafolatlari to'g'rida"gi Qonun 11-moddasida nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini subsidiya, grantlar, va ijtimoiy grantlar shaklida qo'llab-quvvatlashi mumkinligi takidlangan.

Davlat subsidiyasi- O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan davlat maqsadli jamg 'armalari mablag 'laridan nodavlat notijorat tashkilotlarini

[85] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 69-70-moddalari. "O'zbekiston" Toshkent-2023.
[86] "Nodavlat notijorat tashkilotlar boshqaruvi" yo'nalishi bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlari rahbar kadrlari uchun o'quv amaliy qo'llanma 65-67-betlar. "Akademiya" Toshkent-2025.

qo ‘llab quvvatlash uchun beriladigan va maxsus loyihalar bilan bog ‘liq bo ‘lmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko‘mak.

Davlat granti- nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiya foydali maqsadlarga erishishga qaratulgan loyihalarni amalga oshirish uchun beriladigan pul mablag‘lari va moddiy resurslaridir.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi- sotsial va boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti o‘rtasida shartnoma tuzish orqali ishlarni bajarish yoki tadbirlar o ‘tkazishga qaratilgan davlat topshirig‘idan iborat.

Davlat tomonidan beriladigan subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtma berish tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyatining boshqa institularini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi 2025 yil ngo.gov.uz elektron platformasini ishga tushirishi nodavlat notijorat tashkilotlari uchun katta imkoniyat berildi, ortiqcha ovoragarchilik va qog‘ozbozliklardan voz kechildi. Hududlarda o‘rganilgan manzilli muammolar electron tarzda e’lon qilinadi va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z loyihalari bilan tavlovda qatnashib g‘olib bo‘lish imkoniyati va shaffofligi ta’minlandi.

Ta‘kidlash joiz, 2024 yil 26 avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 124-sonli Prezident farmoniga muvofiq, har yili dekabr oyining birinchi haftasida “Fuqarolik jamiyati haftaligi” o‘tkazilishi belgilandi. Bunday berilgan imkoniyatlar nodavlat notijorat tashkilotlarini samarali ish faoliyatini tashkil qilishi, o‘zaro tajriba almashish imkoniyatini beradi.

2025-yil 21-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni bilan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga daxldor 10 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Respublikamiz bo‘ylab viloyatlar markazlarida “Do‘stlik va nodavlat notijorat tashkilotlar uyi” foydalanishga nodavlat tashkilotlarga bepul topshirildi.

Xulosa qilib aytganda yurtimizda nadavlat notijorat tashkilotlari samarali faoliyati turli sohalar ko‘zga tashlanmoqda, bu esa mamlakatimizda demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyati qurish, so‘z erkinligi, ochiqlik, oshkoralik tamoyillariha to‘liq mos keladi.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA GLOBAL INNOVATSIYALAR VA MILLIY TA’LIM STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGINI TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

Muallif: Iskandarova Munisa Bahodir qizi
Navoiy viloyati Navbahor tuman 10-DMTT direktor o’rinbosari
Ilmiy unvoni: Magistr
Email: monikabahodirovnagmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari, global innovatsion yondashuvlar, xalqaro ta’lim standartlari va milliy ta’lim strategiyalarining o‘zaro uyg‘unlashuvi chuqur ilmiy tahlil qilindi.Tadqiqot davomida muammo mohiyati, uning shakllanish omillari va zamonaviy sharoitda tutgan o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada turli ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan bildirilgan fikrlar tahliliy ravishda solishtirilgan, mavjud kamchiliklar va rivojlanish istiqbollari haqida xulosalar chiqarilgan. Tadqiqot natijalari mavzuning amaliy ahamiyatini oshiruvchi taklif va tavsiyalar bilan boyitilgan bo‘lib, ular sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar hamda tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin. Mazkur ishning yangiligi shundaki, unda mavzuga yangicha yondashuv qo‘llanilib, masalaning nazariy va amaliy jihatlari bir butun holda ko‘rib chiqilgan. Global ta’lim tizimlarida qo‘llanilayotgan innovatsiyalar — raqamli ta’lim muhitining shakllanishi, STEAM yondashuvining maktabgacha bosqichga tatbiqi, kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligi va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar asosida O‘zbekiston modeli bilan solishtirildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun zamonaviy ta’lim muhitini yaratishda resurs ta’minoti, pedagoglarning malakasi, metodik qo‘llanmalar sifati, hududlar bo‘yicha teng imkoniyatlarning ta’minlanishi kabi omillar ilmiy asosda baholandi. Shuningdek, ta’lim jarayonining raqamlashtirilishi, bolalar rivojlanishini monitoring qilish tizimi, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish kabi yo‘nalishlar dolzarb masalalar sifatida yoritildi. Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha ta’lim tizimini global standartlarga mos ravishda takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, innovatsiya, STEAM, raqamlashtirish, raqamli kompetensiya, inkluziv ta’lim, metodika, monitoring, ta’lim strategiyasi.

ABSTRACT

This expanded article provides a comprehensive analysis of the modernization processes in the preschool education system of Uzbekistan, focusing on the integration of global innovative approaches with national educational strategies. International innovations such as digital learning environments, STEAM-based early childhood education, competence-based models, and inclusive learning practices are compared with developments taking place in Uzbekistan. The study evaluates factors influencing the formation of a modern educational environment for preschool children, including resource availability, teacher qualifications, methodological support, and equality of access across regions. The digitalization of education, improvement of monitoring systems, and strengthening cooperation with parents are identified as critical directions. Based on research findings, practical recommendations for harmonizing global innovations with the national education agenda are presented.

Keywords: preschool education, innovation, STEAM, digitalization, inclusion, competence, methodology, assessment, educational strategy.

KIRISH

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri — bolalarni erta yoshdan boshlab intellektual, ijodiy va ijtimoiy kompetensiyalarga ega shaxs sifatida shakllantirishdir. Maktabgacha ta’lim ushbu jarayonning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib, bola rivojlanishining barcha sohalarini qamrab oladi. Yevropa Ittifoqi, Osiyo va Amerika davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar maktabgacha ta’lim maktabdagi muvaffaqiyatning asosiy omili ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli O‘zbekistonda ham maktabgacha ta’lim sifatini oshirish maqsadida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat dasturi asosida maktabgacha ta’lim qamrovi kengaytirildi, xususiy bog‘chalar tarmog‘i rivojlantirildi, ta’lim dasturlari modernizatsiya qilindi va raqamli ta’lim vositalari joriy etila boshlandi. Biroq global ta’limdagi o‘zgarishlarning tezligi milliy ta’lim tizimidan ham moslashuvchanlikni talab qiladi. Shu bois global innovatsiyalar va milliy strategiyalar uyg‘unligini ta’minlash bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xalqaro adabiyotlarda maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish bo‘yicha bir qator ilmiy yo‘nalishlar mavjud. Jumladan, J. Dewey, M.

Montessori, L. Vygotskiy kabi pedagoglarning asarlarida erta rivojlantirishning psixologik asoslari bayon qilingan. So‘nggi tadqiqotlarda esa STEAM, kompetensiyaviy yondashuv, digitallashuv, muhit pedagogikasi va inklyuziv ta’lim asosiy ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Finlandiya va Estoniya tajribasida maktabgacha yoshdan boshlab raqamli ta’lim muhitini shakllantirish bo‘yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan. O‘zbekiston bo‘yicha mavjud adabiyotlar esa milliy dasturlarni takomillashtirish, malaka oshirish tizimini rivojlantirish va metodik ta’minotni optimallashtirishga qaratilgan. Mazkur tadqiqotda taqqoslama tahlil, metodologik tahlil, kontent tahlili, statistik ma’lumotlarni qayta ishlash kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar — UNESCO, UNICEF, OECD hisobotlariga asoslangan tahlil ham amalga oshirildi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida quyidagi natijalarga erishildi:
1. Global innovatsiyalarni joriy etishda eng katta to‘siqlardan biri — texnik infratuzilmaning har doim ham yetarli bo‘lmasligidir. Raqamli o‘quv materiallari soni oshirilgan bo‘lsa-da, ularning hududlar bo‘yicha taqsimoti teng emas.
2. Pedagoglarning malaka darajasi bir xil emas: ayrim hududlarda raqamli kompetensiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslariga ehtiyoj yuqori.
3. “Ilk qadam” dasturining amaliyotga tatbiqi davom etmoqda, ammo metodik qo‘llanmalar muntazam yangilanmayapti.
4. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha rivojlanish mavjud, biroq psixologik-pedagogik xizmatlar yetarli emas.
5. Ta’lim jarayonini monitoring qilish tizimi to‘liq raqamlashtirilmaganligi sababli samarali tahlil mexanizmlari mavjud emas.
6. Ota-onalar bilan hamkorlik an’anaviy usullardan raqamli platformalarga ko‘chib bormoqda, bu esa jarayon effektivligini oshirmoqda.

MUHOKAMA

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilishda tizimli yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega. Finlandiya modelida bola rivojlanishi uchun tabiiy rivojlanish muhiti yaratiladi, Singapur modelida esa yuqori texnologiyalar bilan boyitilgan interaktiv ta’lim muhitiga e’tibor qaratiladi. O‘zbekistonda ushbu ikki yondashuv o‘rtasidagi muvozanatni topish bo‘yicha izlanishlar amalga oshirilmoqda. Biroq metodik qo‘llanmalar, texnik resurslar va pedagog malakasidagi tafovutlar jarayonni sekinlashtirmoqda. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish global standartlar bilan raqobatbardosh ta’lim modelini yaratish imkonini beradi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlilga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:
— Maktabgacha ta’lim tizimini global innovatsiyalar bilan uyg‘unlashtirish uzluksiz jarayon bo‘lib, kompleks yondashuvni talab qiladi.
— Pedagoglarning raqamli va metodik kompetensiyasini oshirish tizimni modernizatsiya qilishning eng muhim sharti hisoblanadi.
— Raqamli monitoring tizimini yaratish ta’lim samaradorligini oshiradi.
— Inklyuziv ta’limni joriy etishda psixologik-pedagogik xizmatlarni kengaytirish zarur.
— Global tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda O‘zbekiston o‘zining innovatsion maktabgacha ta’lim modelini yaratishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. UNESCO. Early Childhood Education Report, 2022.
2. OECD. Starting Strong VI: Early Childhood Education Review, 2020.
3. UNICEF. Digital Learning for Early Childhood Development, 2021.
4. Buranov S.M. China’s geopolitical role and influence in solving the modern Afghan problem. Beijing, 2020.
5. Rahmatjonova K. Hindiy va o'zbek tillaridagi kelishik shakllari. Ilm sarchashmalari, 2019.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING MAKTABGACHA TA’LIMDAGI O‘RNI

Hamroyeva Oydin Normurod qizi
Navoiy innovatsiya unversiteti
Maktabgacha ta’lim tarbiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar tushunchasining nazariy mazmuni va ularning maktabgacha ta’lim jarayonidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga raqamli texnologiyalarning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va ijodiy ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli vositalar bilan ishlashdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot sifatida ilmiy adabiyotlar tahlili, komparativ yondashuv va pedagogik diagnostika metodlaridan f-oydalanilgan.

Kalit so‘zlar. raqamli texnologiyalar, maktabgacha ta’lim, raqamli muhit, raqamli kompetensiya, AKT, bolalar rivojlanishi.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan bo‘lib, ularning maktabgacha ta’lim tizimidagi roli tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida raqamlashtirish jarayonlarini

chuqurlashtirish, bolalar bog‘chalarining texnik imkoniyatlarini yaxshilash, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini oshirish bo‘yicha qabul qilingan davlat dasturlari ushbu yo‘nalishning dolzarbligini yana-da oshirmoqda.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish, raqamli texnologiyalarni o‘quv-tarbiya jarayonlariga joriy etishning yangi modellarini ishlab chiqish, aralash ta’lim sharoitida o‘qitishning samarali texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga kata ahamiyat qaratilmoqda [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini ko‘rgazmali, qiziqarli va interaktiv shaklda tashkil etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, noto‘g‘ri yoki me’yordan ortiqcha foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun raqamli texnologiyalarning mazmunini, ularning pedagogik imkoniyatlarini va maktabgacha ta’lim jarayonidagi o‘rnini ilmiy asosda o‘rganish muhim hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar va ularning ta’limdagi o‘rni bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu jarayonning turli jihatlarini yoritadi. UNESCO tomonidan ta’kidlanganidek, raqamli vositalar ta’limda tenglik, moslashuvchanlik va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mamlakatimiz olimlaridan U.M.Xaliqova[2], Z.Nurtayeva [3]lar AKTning maktabgacha ta’limdagi o‘rnini o‘rganib, uning samaradorligi ko‘proq pedagogik yondashuvning to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Xorijiy olimlardan L.Plowman[4] va J.McPake[4] raqamli qurilmalar bolalarning o‘yin orqali o‘rganish qobiliyatini kuchaytirishini ilmiy tajribalar asosida isbotlagan. M.M.Neumann[5] tadqiqotida esa raqamli o‘quv vositalari bolalarning savod o‘rganish jarayonini tezlashtirishi qayd etilgan.

Raqamli texnologiyalar tushunchasi keng ma’noda axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish va tasvirlashga xizmat qiluvchi elektron qurilmalar, dasturiy mahsulotlar, multimedia resurslari, AR/VR imkoniyatlari, mobil ilovalar va interaktiv ta’lim vositalari majmuini anglatadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida ushbu texnologiyalar nafaqat o‘qitish vositasi, balki ta’limni tashkil etishning yangi modeli sifatida qaralmoqda [6]. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologik jihatdan vizual, eshituv va kinestetik idrok orqali tezroq o‘rganadilar. Shu bois raqamli texnologiyalarning rang-barang tasvirlar, animatsiyalar, tovushlar, interaktiv buyruqlar orqali ta’sir ko‘rsatishi ularning qiziqishini, motivatsiyasini va bilim o‘zlashtirish jarayonini sezilarli ravishda kuchaytiradi.

Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta’lim jarayonida bir qator muhim pedagogik vazifalarni bajaradi. Avvalo, ular bolalarda bilish jarayonini

faollashtiradi. Interaktiv o‘yinlar, virtual tasvirlar, multimediali topshiriqlar orqali bola kuzatish, solishtirish, tahlil qilish, ketma-ketlikni aniqlash kabi kognitiv ko‘nikmalarni egallaydi. Raqamli vositalar yordamida murakkab jarayonlar sodda va ko‘rgazmali tarzda tushuntiriladi, bu esa o‘quv faoliyatining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar o‘yin faoliyatini boyitadi. Maktabgacha ta’limning asosiy shakli o‘yin bo‘lgani bois, raqamli o‘yinlar bolalarda tasavvur, ijodkorlik, nutqiy rivojlanish, ijtimoiy muloqot va rol bajarish ko‘nikmalarini takomillashtiradi. Interaktiv doskadan foydalanish orqali bolalar jamoaviy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etadi, ekran ustida predmetlarni harakatlantirib, mustaqil natijaga erishadi.

Maktabgacha yosh davrida raqamli savodxonlikni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli savodxonlik texnologiyadan maqsadli va xavfsiz foydalanish, raqamli axborotni qabul qilish, tanqidiy tahlil etish, vizual materiallar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning yoshiga mos, rivojlantiruvchi mobil ilovalar, masalan, harflarni o‘rgatuvchi, ranglarni farqlovchi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi dasturlar keng qo‘llanila boshladi. Planshetlar va sensor qurilmalar yordamida bola individual sur’atda o‘rganadi, mashqlarni qayta bajaradi va faol ishtirok etadi. AR va VR texnologiyalarining joriy qilinishi esa bolalarga real hayotda ko‘rishi qiyin bo‘lgan obyektlar bilan virtual ravishda tanishish imkoniyatini beradi. Masalan, hayvonlar dunyosi, kosmos, tabiatdagi jarayonlarni 3D shaklida kuzatish ularning tasavvurlarini kengaytiradi, qiziqishni yanada kuchaytiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari juda ko‘p. Birinchidan, ular o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi. Ikkinchidan, o‘qituvchi uchun monitoring, nazorat va diagnostika imkoniyatlari kengayadi. Uchinchidan, mashg‘ulotlar individual yondashuv asosida tashkil etilishi osonlashadi. Bolalarning mustaqil ishlashi, ijodiy yondashuvi va bilishga bo‘lgan motivatsiyasi kuchayadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar inkluziv ta’limni tashkil etishda ham muhim vosita hisoblanadi. Eshitishida yoki ko‘rishida muammolar mavjud bolalar uchun maxsus moslashtirilgan ilovalar, ovozli ko‘rsatmalar, yiriklashtirilgan tasvirlar samarali natija beradi [6].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar maktabgacha ta’lim jarayonida muhim pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lib, bolalarning rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Interaktiv vositalar, multimedia materiallar va AR/VR texnologiyalari bolalarda kognitiv, ijodiy, nutqiy va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash esa pedagogning raqamli

kompetensiyasiga, texnik ta’minotga va to‘g‘ri tanlangan kontentga bog‘liqdir. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tizimida raqamli pedagogika bo‘yicha metodik qo‘llanmalar yaratish, tarbiyachilar malakasini oshirish va bolalar uchun xavfsiz raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son.

2. Umida Mirovna Xalikova. Raqamli texnologiyalar asosida maktabgacha va boshlang’ich ta’limning integratsiyasini ta’minlash // Scientific progress. 2021. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-texnologiyalar-asosida-maktabgacha-va-boshlang-ich-ta-limning-integratsiyasini-ta-minlash (дата обращения: 30.11.2025).

3. Z.Nurtayeva. Ta’limda raqamli texnologiyaning o‘rni // Том 3 № 5 (2025): «Maktabgacha va maktab ta’limi» jurnali

4. M. M. Neumann (2018). Using tablets and apps to enhance emergent literacy skills in early childhood.

5. L. Plowman & J. McPake (2013). Seven myths about young children and technology.

6. P.E.Nuraliyeva. Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishd raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Navoiy- 2023, 128 bet.

7. R. Chen (2021). Augmented reality in early childhood education: Enhancing learning through immersive experiences.

OILADAGI STRESLI MUHIT VA UNING BOLA RUHIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI.

Hudoynazarova Elyora
Samarqand davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 101 -gurux talabasi.

Anotatsiya: Ushbu tadqiqotda ota-ona stressining maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojiga ta’siri o‘rganilgan. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar

shuni ko‘rsatadiki, ota-onaning ruhiy holati va stress darajasi bevosita bolalarning emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari, ota-onaning doimiy stress holati bolalarda tashvish, uyatchanlik va xulq-atvor muammolarini yuzaga keltirishini, shuningdek, diqqatni jamlash va muloqot qobiliyatini susaytirishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ota-onaning ijobiy psixologik qo‘llab-quvvatlashi, stressni boshqarish ko‘nikmalari va mehr-muhabbat ko‘rsatishi bolalarning psixik barqarorligini oshiradi. Tadqiqot metodikasi sifatida so‘rovnomalar, kuzatuvlar va psixologik testlar qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-ona bilan ishlash strategiyalarini rivojlantirish, oilaviy psixologik yordam va bolalarning sog‘lom psixik rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu ish ota-ona stressi va bolalarning psixik rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga hamda oilaviy va pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Ota-ona, stress, maktabgacha yosh, bola, psixik rivojlanish, emotsional rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, ruhiy holat, tashvish, uyatchanlik, xulq-atvor, diqqat, muloqot, mehr, oilaviy muhit, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ota-onalik, pedagogik strategiya, ta’lim muassasasi, psixologik test, motivatsiya, psixoterapiya, ruhiy moslashuv, muhit ta’siri, emotsional ko‘nikma, o‘zini boshqarish, ijtimoiy muloqot, pedagogik kuzatuv, bolalar ehtiyoji, pedagogik yordam.

Kirish. Maktabgacha yosh — bolaning ruhiy va psixik rivojlanishi eng faol shakllanadigan davrdir. Bu bosqichda bola atrofdagi muhitni diqqat bilan kuzatadi, kattalarning hissiyotlarini sezadi va ularni o‘z xatti-harakatlariga aks ettiradi. Ayniqsa, ota-onaning ruhiy holati va stress darajasi bolaning emotsional barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi.Zamonaviy oilalarda iqtisodiy qiyinchiliklar, ish bosimi, vaqt yetishmasligi va boshqa tashvishlar ota-onalarda ortiqcha stressga sabab bo‘ladi. Natijada bola ichki dunyosida turli o‘zgarishlar, xavotir va tartibsizliklarni his qilishi mumkin. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarda ota-ona stressining psixik rivojga ta’siri masalasi dolzarb va chuqur o‘rganilishi lozim.

1. Stressli muhit va bolaning sezgirligi

Bolalar kattalar kayfiyatini bevosita his qiladilar, hatto ular tushunmasa ham. Ota-ona doimiy asabiy, xavotirli bo‘lsa, bola quyidagi belgilarni ko‘rsatishi mumkin,tez yig‘lash va bezovtalik,ovqatlanish va uyquning buzilishi,yolg‘iz qolishga qo‘rqish ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tor va noqulay his qilish.Bunday muhitda bola o‘zini xavfsiz his qilmaydi. Chunki uning eng asosiy tayanchi ota-onadir. Agar ota-ona notinch bo‘lsa, bola ham ichki barqarorlikni yo‘qotadi, bu

esa uning keyingi ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Misol: agar ota doim stressda bo‘lsa va bolani tez-tez tanbeh qilsa, bola mustaqil qaror qabul qilishdan qo‘rqadi, uy vazifalarini bajarishda yoki o‘yinlarda ham o‘zini ishonchsiz his qiladi.

2. Stress ota-onaning muloqot uslubiga ta’siri

Ota-onaning ruhiy holati ularning bolaga bo‘lgan muloqotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakllantiradi. Stress ostida ota-ona ko‘pincha:sabrsiz va tez jahllanadigan bo‘ladi,bolaning so‘rovlariga e’tibor bermaydi,ortiqcha qoidalar va taqiqlar o‘rnatadi,qisqa va keskin ohangda gaplashadi.Bunday muhitda bola o‘zini tushunilmagan va qadrsiz his qiladi. Natijada ichki dunyosida ishonchsizlik, tortinchoqlik yoki aksincha, agressivlik paydo bo‘lishi mumkin.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki 3–5 yoshdagi bolalar ota-onaning kayfiyati bilan bevosita bog‘lanadi. Masalan: agar ona yoki ota ishda qiynalsa, uyda bolaning har bir kichik xatti-harakatini haddan tashqari nazorat qilishadi. Bola esa bu nazoratni tanqid sifatida qabul qiladi va ichki stress hosil bo‘ladi.

3. Bolaning ichki aybdorlik hissi

Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pincha “menga bog‘liq” degan ichki fikrga ega bo‘ladilar. Ota-ona asabiylashsa, bola o‘zini aybdor his qilishi mumkin.Men noto‘g‘ri qildimmi?Men sabab bo‘ldimmi? Mendan ranjidimi?Bu ichki aybdorlik bola ruhiyatida ortiqcha mas’uliyat, qo‘rquv va noaniqlikni shakllantiradi. U o‘zini himoyasiz, ba’zan yolg‘iz his qiladi, bu esa ijtimoiy ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Shu nuqtai nazardan, ota-onaning stressini kamaytirish, oilaviy muhitni barqaror qilish bolada ruhiy barqarorlikni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

4. O‘yin va ijtimoiy xulqqa ta’sir

O‘yin — maktabgacha yoshdagi bolaning eng tabiiy va samarali faoliyatidir. Stressli oilalarda bolalarda quyidagi o‘zgarishlar kuzatiladi,yolg‘iz o‘ynashni afzal ko‘rish,o‘yinlarda konfliktli syujetlar,tajovuzkor yoki qo‘rquvli rollarni tanlash,qoidalarni buzishga moyillik.Bu belgilar bola ichki dunyosidagi zo‘riqish va tashvishning o‘yin orqali chiqish shaklidir. Agar ota-onaning stressi uzoq davom etsa, bu holatlar mustahkamlanadi va bola keyingi maktab hayotida ham o‘zini tartibsiz va ishonchsiz his qilishi mumkin.

5. Ijobiy ota-ona muhitining roli

Ota-ona ruhiy jihatdan barqaror bo‘lsa, bola quyidagi jihatlarni rivojlantiradi:o‘zini ishonchli his qilish,his-tuyg‘ularini erkin ifoda etish,mas’uliyatni o‘z ustiga olish,ijtimoiy muhitga moslashuvchanlik,stressni boshqarish ko‘nikmasi.

Shunday qilib ota-onaning ruhiy holati bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy poydevordir. Tinch va barqaror muhit bolaning kelajakdagi psixik barqarorligiga, ijtimoiy muvaffaqiyatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi.

6. Tavsiyalar. Bola ruhiy rivojini qo‘llab-quvvatlash uchun ota-onalar quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:O‘z stressini boshqarish, qisqa meditatsiya, sport, dam olish.Bolaga doimiy e’tibor, kichik yutuqlarni maqtash, hissiyotlarini tinglash

Ijobiy muloqot, tinch va iliq ohangda gaplashish.O‘yin orqali stressni chiqarish, bolaga ijtimoiy va kreatif o‘yinlar berish.Ota-ona o‘rtasida kelishuv, oilaviy nizolarni bolalardan yashirish.Bu oddiy qoidalar bola psixikasini himoya qiladi va uning ichki tartibini shakllantirishga yordam beradi.:

Xulosa. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, ota-onaning stress holati maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Ota-onaning doimiy stress holati bolalarda tashvish, uyatchanlik, diqqatni jamlash qiyinchiliklari va xulq-atvor muammolarini yuzaga keltiradi. Shuningdek, bunday stress bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalari, muloqot qobiliyati va emotsional barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ota-onaning ruhiy salomatligi va oilaviy muhitdagi muvozanat bolalarning psixik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda kuzatuv, so‘rovnoma va psixologik testlardan foydalangan holda bolalarning psixik rivojlanish darajasi aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ota-onaning ijobiy psixologik qo‘llab-quvvatlashi, mehr-muhabbat ko‘rsatishi va stressni boshqarish ko‘nikmalari bolalarning ruhiy barqarorligini oshiradi, shuningdek, ularning ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, pedagogik strategiyalar va oilaviy maslahatlar bolalarning sog‘lom psixik rivojlanishini ta’minlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ota-ona stressi va bolalarning psixik rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-ona bilan ishlash strategiyalarini takomillashtirish, oilaviy psixologik yordamni rivojlantirish va bolalarning sog‘lom rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Shuning uchun ota-ona va pedagoglarning ruhiy salomatligini saqlash va stressni kamaytirishga yo‘naltirilgan ishlar bolalarning psixik barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Бобоев, Ш. (2019). *Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va oilaviy muhit*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
2. Axmedova, L. (2020). *Ota-ona stressining bolalarga ta'siri*. Psixologiya va pedagogika jurnal, 3(12), 45–52.
3. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and crisis*. New York: W.Norton & Company.
4. Berk, L. E. (2018). *Development through the lifespan*. Boston: Pearson.
5. Bronfenbrenner, U. (1979). *The ecology of human dev.: Experiments by nature and design*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Samadova, D. (2021). *Oilaviy stress va bolalarning psixik rivojlanishi*. Psixologik tadqiqotlar jurnali, 7(1), 22–30.
7. Piaget, J. (1972). *The psychology of the child*. New York: Basic Books.
8. Shodmonov, A. (2018). *Ota-onaning ruhiy holati va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri*. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQIDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH.

Ilmiy rahbar: Mansurova Maftuna Komilovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi.
Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi.
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti.
Maktabgacha ta'lim 2-kurs 1-guruh talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik bilimlarni shakllantirish, tarbiyachilar tomonidan amaliy, og'zaki, o'yinlarga asoslangan, vizual va didakdik o'yinlar bilan matematikani bolada oson shakllantirish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yinlar,amaliy metodlar, vizual, predmatlar, tarbiyachi mahorati, amaliy o'yinlarning afzalligi.

Abstract: This article discusses the formation of mathematical knowledge in preschool children, and the methods by which educators can easily form mathematics in children through practical, verbal, game-based, visual, and didactic games.

Keywords: Didactic games, practical methods, visual, subjects, educator skills, advantages of practical games.

Hozirgi davrda matematika fani juda kata ahamiyatga ega. Matematika hamma aniq fanlarga asos.Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi-deydi SHavkat Miromonovich Mirziyoyev. Matematik darslarini boshqotirmalar,topishmoqlar yechish, stol o'yinlarini o'ynash orqali to'ldirish mumkin. Shaxmat juda foydali, chunki u mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi va bir necha qadam oldinda fikrlashni o'rgatadi.Bo'lmachalar va qo'l jumboqlari nozik vosita mahoratini va fazoviy fikrlashni rivojlantiradi.

Rivojlanishning turli bosqichlarida bolalar uchun darslarga yondashuvlar har xil bo'ladi va erta bolalikda darslar qisqa va faol bo'lishi mumkin. Matematikani kitoblar, boshqotirmalar, qo'shiqlar,qofiyalar,qo'g'irchoq teatrlari va o'yinlar kabi turli kontekstlarda o'rgatish mumkin.

Maktabgacha tayyorlov guruhi.

7 yoshga qadar bola son, buyumlarning shakli va kattaligi haqida nisbatan ko'proq bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi, fazoda 2va 3 o'lchovli va vaqt bo'yicha mo'ljal ola bilishi kerak. Tarbiyachi bolalarda matematik bilmlarga ustuvor qiziqish, ulardan foydalanish malakasi va ularni mustaqil egallashga intilishning tarbiyalashga harakat qilishi kerak.Shu yoshda bolalarda mustaqil fikrlashni, fazoviy tasavvurni rivojlantirish, ayniqsa, muhim.

Maktabgacha tayyorlov guruhi uchun elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish dasturi bolalarning oldingi bosqichlarda olgan bilimlarini sistemalashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur guruhda haftasiga 2tadan mashg'ulot o'tkaziladi. Matematikadan har qanday mashg'ulotni tuzishda bolalar tarbiyachining stoli yonida ishlashlari bilan bir qatorda o'z o'rinlarida tarqatma materiallar bilan mustaqil ishlari ham nazarda tutilishi zarur.

Maktabga tayyorlov ya'ni 6-7 yosh guruhi, raqamli va sonlarning hayotdagi ahamiyatini tushunadi,geometric figuralar va shakllarni biladi. 20gacha bo'lgan sonlar doirasida ba'zi matematik amallarni bajara oladi.10gacha qo'shish va ayirishga doir sodda matematik masalalarni son va belgilardan foydalanib yechadi.Son tartibi haqida tushunchaga ega bo'ladi. Guruhlarning teng va tengsizligini tahlil qiladi. Predmetlar hajmi, balandligi, qalinligi bo'yicha ketma – ket taxlaydi.Shartli belgi yordamida suyuq sochiluvchan va qattiq jismlarni o'lchaydi va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bolalar nutqida matematik tushunchalarni rivojlantirish ularning tegishli lug'atdan foydalangan holda matematik tushunchalarni tasniflash, taqqoslash va tahlil qilish qobilyatini maqsadli ravishda rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bunga umulashtiruvchi so'zlar

ko'p,oz, shunchalik ko'p kabi asosiy va tartib sonlar, shuningdek, shakl, o'lcham va fazo-zamon munosabatlarini tasniflovchi so'zlardan o'z ichiga olgan o'yinlar va shu bilan birga tarbiyachi bolalar bilan suhbatlar va didaktik o'yinlarni ham amalga oshirib turishlari shart. Bola har tomonlama rivojlanishi uchun matematika oid bo'lgan mantiqiy savollar va topishmoqlardan foydalanish samarali demakdir.

Bolalarda matematik bilimlarni rivojlantirishning asosiy usullari:

- Tushunchalarni vizual tushuntirish uchun ob'ektlar, namoyishlar va atrofdagi dunyodan foydalanish bolaga juda foydali bo'ladi.
- Tarbiyachi bolalarga og'zaki nutq orqali o'z bilimlarini hikoyalar, suhbatlar, topishmoqlar bilan yetkazib bersa maqsadga muvofiq bo'ladi.
- Har bitta mashg'ulot o'yinlarga asoslangan bo'lishi kerak. Bolalarga dars davomida ham, bo'sh vaqtlarida ham matematik tushunchalarni o'yin tarzida o'rganish imkonini beruvchi o'quv o'yinlari tarbiyachilar tomonidan tashkil etilgan bo'lsa, bola har qanday mashg'ulotga qiziqish bilan yondashadi.
- Bolalar bilimi mustahkamlash uchun masalalar yechish, predmetlar bilan amallarni bajarish, chizish, modellashtirish va qurish juda katta samarali foyda beadi.
- Didaktik o'yinlar bolada miqdor,o'lcham,shakl, va vaqt haqida g'oylarni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblandi. Tarbiyachi tomonidan tashkil qilingan o'yinlarda bolalar savollarga javob beradigan, muammolarni hal qiladigan savollarga tezkorlik bilan javob berish qobilyatini oshiradi.
- Bolalar uchun ijodiy faoliyat juda qiziq masalan rasm chizish, modellashtirish, raqamlar va shakllar haqidagi umumiy fikrlarini jamlashda yordam beradi.

Bolaga matematikani o'rgatishning muhim jihatlari.

Birinchi navbatda tarbiyachilar oddiy o'yinlardan boshlab keyin murakkabroq vazifalarga o'tishi lozim. Bunda yosh metodologiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi, har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Matematik tafakkurni har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun ishning turli usullari va shakllarini birlashtirish.Bolalarning matematikaga qiziqishini saqlab qolish uchun o'yin usullaridan foydalanish lozim. Tarbiyachi o'z mahoratidan kelib chiqib bolalarga matematikaning haqiqiy dunyo bilan qanday bog'liqligini tushunishga yordam berish uchun haqiqiy dunyo misollaridan foydalanish. Matematika fikrlash, tahlil qilish, sabab-oqibat

munosabatlarini toppish va xulosa chiqarish qobilyatini rivojlantirishga yordam beradi. Matematikani o’rganish sizning fikringizni aniq shakllantirishga va aniq atamalrdan foydalanishga yordam beradi. Matematikani o’rganish bolada bu tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi-hayot va martaba uchun zarur bo’lgan qimmatli ko’nikmalar. Shuning uchun ham matematika maktab o’quv dasturining ajralmas qismi bo’lib qolishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytamizki maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish-ularning nutq,tafakkur va ijodiy fikrlashini rivojlantirishning ajralmas qismidir. O’yin, amaliy mashg’ulot, ko’rgazmali va nutqiy usullardan kompleks foydalanish bolada matematik tafakkur va to’g’ri so’zlash madaniyatini rivojlantirishda samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.

2. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi: o‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021

3. N.Rahimova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish metodikasi.-Toshkent,2019.

4. X.To’xtasinova. Bolalar nutqini o’stirish nazaryasi va metidikasi.-Toshkent,2021.

5. M.Zokirova. Didaktik o’yinlar orqali matematika o’rgatish.-Samarqand.2022.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHGA KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Navoiy innovatsiyalar universiteta Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Raxmonova Dilnavoz Muxitdinovna
Tel: +998 90 731 15 35.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot bo‘lajak tarbiyachilarning bolalar nutqini o‘stirishga doir kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan. Unda maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachining nutqiy rivojlantirish faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar mazmuni yoritiladi. Tadqiqotda zamonaviy

pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar hamda nutqni rivojlantirish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachilarni amaliy faoliyatga tayyorlash jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari tarbiyachilarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak tarbiyachi, bolalar nutqi, nutqni rivojlantirish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, maktabgacha ta’lim, pedagogik kompetensiya, interfaol metodlar.

Kirish: Zamonaviy maktabgacha ta'limda bolalar nutqini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Nutq nafaqat muloqot vositasi, balki bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va maktabgacha ta'lim konsepsiyasida bolalar nutqini o‘stirishga alohida e'tibor qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bo‘lajak tarbiyachilarning bolalar nutqini rivojlantirishga tayyorgarligi ko‘pincha nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda, amaliy ko‘nikmalar va zamonaviy metodlarni qo‘llashda yetishmovchiliklar mavjud. Shu sababli, pedagogika bilim yurtlari va oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak tarbiyachilarning nutq tarbiyasi yo‘nalishidagi kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb masaladir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga, xususan, bolalar nutqini rivojlantirishga doir kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Nutq tarbiyasi bolaning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim o‘rin tutganligi sababli, bo‘lajak tarbiyachilar ushbu yo‘nalishda yetarli nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va metodik mahoratga ega bo‘lishi zarur.

Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak tarbiyachilarning nutq tarbiyasi yo‘nalishidagi kasbiy-pedagogik tayyorgarligi pedagogika, bolalar psixologiyasi, nutq rivoji metodikasi, til madaniyati kabi fanlar orqali shakllantiriladi. Mazkur fanlarning o‘zaro integratsiyasi talabalarda bolalar nutqining yosh xususiyatlarini, nutq rivojlanish bosqichlarini va nutqiy kamchiliklarni aniqlash hamda bartaraf etish usullarini chuqur o‘zlashtirishga imkon beradi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirishda amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik amaliyot, trening va master-

klasslarning o‘rni beqiyosdir. Xususan, nutqni rivojlantirishga qaratilgan ochiq mashg‘ulotlar o‘tkazish, didaktik o‘yinlar va nutqiy mashqlar ishlab chiqish, bolalar bilan muloqot jarayonini tahlil qilish orqali talabalarda real pedagogik vaziyatlarda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Bunday faoliyat talabalarning kasbiy mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish bo‘lajak tarbiyachilarning nutq tarbiyasi yo‘nalishidagi tayyorgarligini yanada samarali qiladi. Rol o‘ynash, keys-stadi, muammoli vaziyatlarni hal etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayoni faollashtiriladi va talabalarning kasbiy kompetensiyasi oshiriladi. Raqamli ta’lim resurslari, multimedia vositalari va elektron platformalar nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarini zamon talablariga mos tashkil etishga yordam beradi. Bo‘lajak tarbiyachilar bolalar bilan ishlash vaqtida,

- Bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini o‘rganish;
- Takomillashtirishning samarali usullarini taklif etish;
- Individual yondashuvlarni amalga oshirish juda ham muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, D.B. Elkonin kabi olimlarning ishlarida chuqur yoritilgan. Nutq rivojlanishi leksik boylik, grammatik tuzilish, fonetik to‘g‘ri talaffuz, bog‘liq nutq va muloqot ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. 3–7 yoshdagi bolalarda nutq faol rivojlanadi, bu davrda tarbiyachining ta'siri juda katta.

Nutqni o‘stirishda quyidagi yo‘nalishlar muhim:

- Leksik ish (so‘z boyligini oshirish);
- Grammatik qurilishni shakllantirish;
- Bog‘liq nutqni rivojlantirish (hikoya qilish, tasvirlash);
- Fonematik eshitish va talaffuzni to‘g‘rilash.

Tarbiyachi nutq namunasi bo‘lishi, bolalar bilan faol muloqot qilishi, o‘yin va mashg‘ulotlarda nutqni rag‘batlantirishi kerak.

Bo’lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida muammolar va takomillashrish yo‘llari

Hozirgi kunda pedagogika oliy o‘quv yurtlarida “Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi” fanining o‘quv dasturi mavjud bo‘lsa-da, amaliy mashg‘ulotlar yetarli emas. Talabalar ko‘pincha nazariy bilimlarga ega bo‘lishadi, lekin real guruhda bolalar bilan ishlashda qiyinchiliklar sezishadi. Masalan, individual yondashuv, nutq nuqsonlarini aniqlash va tuzatish ko‘nikmalari yetishmaydi.

Takomillashtirish yo'llari:

- O'quv jarayonida amaliy mashg'ulotlar sonini ko'paytirish (bolalar bog'chasida uzoq muddatli amaliyot);
- Interfaol metodlardan foydalanish: case-study, rol o'yinlari, video tahlil;
- Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish (interfaol doska, nutq rivojlantiruvchi dasturlar);
- Talabalar bilan nutq madaniyati bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkazish (tarbiyachining o'z nutqi namunasi bo'lishi kerak);
- Logopedik bilimlarni chuqurlashtirish – nutq nuqsonlarini erta aniqlash va tuzatish usullari.

3.Amaliy tavsiyalar

Bo'lajak tarbiyachilar tayyorgarligini takomillashtirish uchun quyidagi modelni taklif etish mumkin:

- 1-kurs: Nazariy asoslar va tarbiyachining nutq madaniyati;
- 2-kurs: Nutq rivojlantirishning yosh xususiyatlari va metodlari;
- 3-kurs: Amaliy mashg'ulotlar – bolalar bog'chasida nutq mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazish;
- Bitiruv malakaviy amaliyoti: Nutq rivojlantirish bo'yicha loyiha ishlab chiqish va amalda qo'llash.

Masalan, talabalar nutq rivojlantirishga oid "Ertak aytib berish", "Tasviriy hikoya qilish", "Didaktik o'yinlar" kabi mashg'ulotlar konspektini tuzib, real guruhda sinab ko'rishlari kerak.

Xulosa: Bo'lajak tarbiyachilarning bolalar nutqini o'stirishga kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning muhim shartidir. Nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan boyitish, zamonaviy va interfaol metodlarni joriy etish orqali tarbiyachilar bolalar nutqini samarali rivojlantirishga to'laqonli tayyor bo'lishadi. Bu esa bolalarning maktabga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga va umuman shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent, 2018.
2. To'xtaxo'jayeva M. va b. Maktabgacha pedagogika. Toshkent, 2022.
3. Xoshimova D. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim konsepsiyasi (2030 yilgacha).

STEAM YONDASHUVLARI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KREATIV KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari misolida)

Navoiy innovatsiyalar universiteta Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna
Tel:+998 50 776 83 10

Annotatsiya.Mazkur tadqiqot STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish metodikasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlari jarayonida bolalarning ijodiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarga yechim topish, tajriba o‘tkazish va kuzatuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. STEAM yondashuvining integrativ xususiyati asosida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash, bolalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash masalalari asoslab beriladi. Shuningdek, tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim amaliyotida kreativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: STEAM yondashuvi, maktabgacha ta’lim, kreativ ko‘nikmalar, tabiat bilan tanishtirish, integrativ ta’lim, ijodiy fikrlash, innovatsion metodlar.

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimida STEAM (Science — Fan, Technology Texnologiya, Engineering — Muhandislik, Arts — San'at, Mathematics — Matematika) yondashuvi bolalarning kreativ (ijodiy) tafakkurini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va innovatsion ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM yondashuvi integrativ ta'lim usuli sifatida kreativlikni shakllantirishda samarali vositadir. Ushbu yondashuv bolalarni tabiat hodisalari bilan tanishtirish orqali real hayotiy muammolarni hal qilishga o'rgatadi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jumladan STEAM elementlarini qo'llash bolalarning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bolalarning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini oshirib, ekologik ongni shakllantirish bilan birga

kreativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun qulay maydon yaratadi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bolalarning kreativ, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, STEAM yondashuvlarini maktabgacha ta’lim amaliyotiga joriy etish borasida o‘zbek olimlari tomonidan qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilgan.

O‘zbek pedagog olimlari tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida kuzatuvchanlik, tafakkur, tajriba o‘tkazish va ijodiy faollikni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Xususan, maktabgacha ta’lim metodikasi bo‘yicha tadqiqotlarda tabiatni o‘rganish mashg‘ulotlari bolalarda nafaqat ekologik madaniyatni, balki ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishi ta’kidlanadi. Bu g‘oyalar STEAM yondashuvining asosiy maqsadlari bilan uyg‘un hisoblanadi.

Ayrim tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ rivojlanishida integrativ ta’lim muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. O‘zbek olimlari ta’lim jarayonida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash, ya’ni tabiat, matematika, tasviriy faoliyat va konstruktiv o‘yinlarni o‘zaro bog‘lash orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini asoslab berganlar. Bu yondashuv STEAM ta’limining “integratsiya” tamoyiliga to‘liq mos keladi.

Shuningdek, respublika olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bolalarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirishda tajriba va loyiha faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida oddiy tajribalar o‘tkazish, tabiiy materiallar bilan ishlash, modellashtirish va ijodiy topshiriqlar berish orqali bolalarning fantaziyasi va izlanuvchanligi rivojlantirilishi ta’kidlanadi. Bu esa STEAM yondashuvidagi “Engineering” va “Art” komponentlarining maktabgacha ta’limga moslashtirilgan shakli hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek olimlarining ishlarida STEAM atamasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilmagan holatlar ham uchraydi, ammo ular ilgari surgan g‘oyalar, metodlar va tavsiyalar mazmunan STEAM yondashuviga mos keladi. YA’ni, fanlararo integratsiya, amaliy faoliyat, tajriba, ijodiy topshiriqlar va bola faolligini ta’minlashga qaratilgan yondashuvlar STEAM ta’limining nazariy asoslarini tashkil etadi.

Vazifalar:

- STEAM yondashuvining nazariy asoslarini o'rganish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish xususiyatlarini tahlil qilish;

- Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida STEAM elementlarini qo'llash metodikasini taklif etish;
- Amaliy misollar orqali metodikaning samaradorligini ko'rsatish.

STEAM YONDASHUVINING NAZARIY ASOSLARI

STEAM ta'limi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiya qilgan yondashuv bo'lib, bolalarni loyiha asosidagi faoliyat orqali real muammolarni hal qilishga o'rgatadi. Maktabgacha yoshda STEAM bolalarning tabiiy qiziquvchanligini rag'batlantirib, ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kreativlik — yangi g'oyalar yaratish va muqobil yechimlar topish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshda u o'yin, kuzatish va eksperimentlar orqali shakllanadi. STEAM yondashuvi kreativlikni rag'batlantiradi, chunki ochiq yakunli vazifalarni taklif etadi.

Tabiat bilan tanishtirishda STEAM elementlari quyidagicha qo'llaniladi:

- Science: Tabiat hodisalarini kuzatish va eksperiment o'tkazish;
- Engineering: Tabiat materiallaridan modellar qurish;
- Arts: Ijodiy ifoda (rasm, kollaj, hunarmandchilik);
- Mathematics: O'lchash, saralash, hisoblash.

TABIAT BILAN TANISHTIRI MASHG’ULOTLARIDA STEAM METODIKASI

Metodika quyidagi tamoyillarga asoslanadi: integrativlik, faollik, o'yin va loyiha asosida o'rganish, individual va guruhli ish.

Mashg'ulot bosqichlari:

1. Motivatsiya: Tabiat hodisasini kuzatish va savollar berish.
2. Tadqiqot: Eksperiment o'tkazish.
3. Muhandislik: Qurish yoki modellashtirish.
4. San'at: Ijodiy ifoda.
5. Refleksiya: Natijalarni muhokama qilish.

Amaliy misollar:

- Mavzu: Barglar va ranglar Bolalar tabiatda barglarni yig'adi, rang va shakl bo'yicha saralaydi (Mathematics), barglarni suvga solib rang o'zgarishini kuzatadi (Science), barglardan kollaj yoki mandala yasaydi (Arts). Bu ijodiy dizayn yaratishga undaydi.
- Mavzu: Suv aylanishi Yomg'ir va bug'lanishni muhokama qilish (Science), suvni isitib bug'lanishni ko'rsatish, tabiat materiallaridan oddiy filtr yasash (Engineering), suv aylanishi rasmini chizish (Arts). Bolalar ekologik

muammolarga ijodiy yechim topadi.

- Mavzu: Hayvonlar uyi Tabiatda hayvonlar yashash joyini o'rganish (Science), tayoq va barglardan uy qurish (Engineering), hayvonlar uchun ijodiy asar yaratish (Arts).

Ushbu mashg'ulotlar bolalarda ijodiy yechimlar sonini oshiradi, hamkorlikni rivojlantiradi va tabiatga qiziqishni kuchaytiradi.

Xulosa: STEAM yondashuvi asosida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarning kreativ ko'nikmalarini samarali shakllantiradi. Ushbu metodika bolalarni innovatsion fikrlashga o'rgatib, kelajakda muvaffaqiyatli shaxslar bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Tarbiyachilarga tavsiya etiladi: mashg'ulotlarni ochiq yakunli qilib, bolalarning mustaqil ijodini rag'batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmutazimova Yu. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. Toshkent, 2023.
2. Quchqorova N.M. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish. Toshkent, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim konsepsiyasi (2030 yilgacha).

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA TA’LIMIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRUVCHI ME’ZONLARI

NavDU, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti
Ermatova Gulnoz Pirimovna

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogik faoliyatda ta’limiy qadriyatlar, ularning turlari, ta’limiy qadritalarning olimlarimiz tomonidan o‘rganilganligi va maktabgacha ta’lim yo‘nalish talabalarini ta’limiy qadriyatlar asosida rivojlantirish omillari haqida ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me’yorlar, ijtimoiy-siyosiy, intellektual, axloqiy, kasbiy-pedagogik faoliyatga doir, maqsadli, vositali, munosabatli, sifat qadriyatlari va bilishga oid qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье представлена информация об образовательных ценностях в педагогической деятельности, их типах, изучении образовательных ценностей нашими учеными, а также о факторах развития дошкольников на основе образовательных ценностей.

Ключевые слова: нормы, регулирующие педагогическую деятельность, социально-политические, интеллектуальные, моральные,

профессионально-педагогическая деятельность, целевые, инструментальные, реляционные, качественные ценности, ценности, связанные со знаниями.

Abstract: This article presents information on educational values in teaching, their types, the study of educational values by our scholars, and the factors in preschool children's development based on educational values.

Keywords: norms regulating teaching, socio-political, intellectual, moral, professional-pedagogical activity, target-based, instrumental, relational, qualitative values, knowledge-based values.

Mamlakatimizda barcha sohalarda rivojlanishlarning yangi bosqichiga ko‘tarilmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimlari oldiga jamiyat tomonidan bir qancha talablarni qo‘ymoqda. Zamon talabiga javob bera oladigan pedagog kadrlarni pedagogik qadriyatlar asosida tayyorlash zamon talablardan biri hisoblanadi.

Ilmiy manaalarda pedagogik qadriyatlar turlicha yondoshuvlar asosida ta’riflangan. Pedagog olimlarimizdan V.A.Slastyonin pedagogik faoliyatga doir qadriyatlarning interiorizatsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatiga tarnal toshini qo‘yishi ekanligi bilan baholagan. O‘qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorlikda, ma’naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo‘nalishlari tizimini hosil qiladi.

Pedagog olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihati alohida ko‘rsatib berilgan:

- pedagogik faoliyatda moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatga ega, ijtimoiy va kasbiy faoliyatda yo‘l ko‘rsatuvchi o‘ziga xos jihatlar;
- pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me’yorlar, ta’lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasida vosita va bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib keluvchi bilish faoliyat tizimi.

Yana bir olimimiz Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni 4 ta turga bo‘lgan:

1. Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta’limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat’iy nazar, barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, ta’lim oluvchilarni va ota-onalarning ta’lim muassasasini tanlash erkinligi.

2. Intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va

faollik, ta’lim oluvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go‘zalligi.

3. Axloqiy qadriyatlar: ta’lim oluvchilarning burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning subyekti bo‘lish huquqi, bilimlarni egallashdagi axloqiy rag‘batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnatni va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish.

4. Kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o‘qituvchi-tarbiyachilarda tanlagan kasbiga mas’uliyat bilan yondashuvni, pedagogik mahorat, o‘z ustida ishlashi, izlanishli, tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati, kommunikativ qobiliyatini bilan bog‘liqligi deya izohlagan.

V.A.Slastyonin esa, kasbiy yo‘nalganlik tizimiga asoslangan holda, pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1. Maqsadli qadriyatlar: bu bo‘lajak pedagoglarda shaxsiy «Men» va kasbiy «Men» yig‘indisidagi shaxsiy kontseptsiya hisoblanadi.

Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo‘llarini qidirar ekan, o‘zini va o‘zgalarni rivojlantirish yo‘lidagi o‘z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Binobarin, maqsadli qadriyatlar davlatning ta’lim siyoatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar subyektlashgan holda pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta’limi asosini tashkil etadi. Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli qadriyatlarni o‘zida aks ettiradi: o‘qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatliligi, jamiyat olididagi yuksak mas’uliyat, o‘zini namoyon qilish, bolalarga mehr va boshqalar. Bunday qadriyatlar ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi shaxsining, talabalar jamoasi va pedagogikjamoaning rivojlanishi bilan bog‘liq pedagogik faoliyatda o‘z ifodasini topadi.

2. Vositali qadriyatlar: pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi. Vositali qadriyatlar maqsadli qadriyatlarga erishishda vosita bo‘lib xizmat qiladi (mehnat natijalarining jamiyatda tan olinishi, shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini pedagogik faoliyat tavsifiga muvofiqligi, kasbiy o‘sish va b.).

3. Munosabatli qadriyatlar: pedagogik jarayon ishtirokchilarining

munosabati va kasbiy-pedagogik faoliyatga munosabati.

4. Sifat qadriyatlari: shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatlari.

5. Bilishga oid qadriyatlar. tarbiyachilik kasbining bilishga doir nazariy qadriyatlari, ta’lim oluvchilarning o‘qituvchilik kasbiga doir qadriyatlarni e’tirof etishi va qabul qilishi bilan bog‘liq. N.M.Egamberdiyeva esa, talabalami shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nuqtai nazaridan pedagogik qadriyatlarni ikkita katta guruhga tasnif etishni taklif etadi: ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar.

Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo‘luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta’lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g‘oyalar, tushunchalar, me‘yorlar, qoidalar, an’analar majmuidir.

Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar ijtimoiy-psixologik ta’lim sifatida yuzaga chiqib, ularda o‘qituvchi shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlari aks etadi. Bu xususiyatlar majmui uning qadriyatlar Yo‘nalishi tizimini tashkil etadi. Qadriyatlar yo‘nalishi sifatidagi aksiologik «Men» nafaqat kognitiv(bilishga doir) tarkibiy qismlari, balki insonning ichki yo‘nalganligida muhim o‘rin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlami ham o‘z ichiga oladi. Unda ham ijtimoiy-pedagogik, ham pedagogik qadriyatlaming individual-shaxsiy tizimiga asos bo‘lib xizmat qiluvchi kasbiy-jamoaviy qadriyatlar o‘rin olgan. Shuningdek, o‘z navbatida pedagogik qadriyatlarni bunday xilma-xilligi ularni umumiy tarzda ta’limiy va tarbiyaviy qadriyatlarga ajratishga imkon beradi.

Ta’limiy qadriyatlar shaxs tomonidan individual qimmatining to‘g‘ri baholanishi, tan olinishi, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi, shuningdek, o‘ziga xoslikning saqlanib qolishini ta’minlovchi sharoitlarni yaratadi. Umuman aytganda, tabiiy imkoniyatlarini ochib berish, hayotiy vazifalarini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish lozim bo‘ladi.

Shunday qilib, bo‘lajak tarbiyachilarning qadriyatlar asosida erkin rivojlanishini ta’minlash davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari, darslik, o‘quv metodik adabiyotlar mazmuni, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalar mohiyatida o‘z ifodasini topadi. Ta’lim jarayonida

talabalarni, eng avvalo, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, uning
rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish asosida mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish va ijtimoiylashtirish bilan birga olib boorish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaldibekova A., Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 80 b.

2. Mardonov Sh.Q. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: Fan, 2006. – 232 b.

3. Mardonov Sh. Pedagogik ta'lim tizimida ta'limiy qadriyatlardan foydalanish. // Xalq ta'limi. – T., 2005. - №6. – B.24-28.

4. Mahkamova M.Y. Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss.Avtoref. – T., 2002. – 21 b.

5. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2000. – 305 b.

6. Raximov B.X. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. – T., 2004. – 160 b.

7. Уринова Н.М. Социально-педагогические особенности подготовки будущих учителей к воспитательной работе в процессе профессиональной подготовки: Дис. … канд. пед. наук. – Ташкент, 2005. – 172 с.

8. Шиянов Е.Н. Аксиологические основания процесса воспитания// Педагогика.- М., 2007.- № 10. – С.33-37.

9. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2010. – 332 b.

10. Gulnoz Ermatova Zamonaviy ta'lim–talabalar ijtimoiy intellektini shakllantirsh omilidir, 2025/12/2.

11.G. Ermatova Bo 'lg 'usi tarbiyachilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish zamon talabi.Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali 2025/3 (4)

12.Ermatova Gulnoz PirimovnaThe Problem of Social Intelligence and its Interp. in Scien. Sources2023/7/11. Журнал BioGecko, Том-12/4.631-636-ctr.

13.E.G. PirimovnaPsychological factors for the formation of social intelligence in teachers of preschool educational organization.International Scientific and Current Research Conferences, 16-19.

MUNDARIJA

KIRISH SO'ZI . U.R.Mardanov_____4

1. N.Abdullayeva. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI_____6
2. D.X.Safarov, Z.H.Davlatova. ZAMONAVIY GADJETLARNING O'QUVCHILARNING HISSIY-IRODAVIY SOHASIGA TA'SIRINI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI_____9
3. G.Parpiyeva. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH VA TA'LIM-TARBIYA BERISH_____16
4. K. Astanakulov, K. Turayeva. TECHNOLOGY FOR COMBINING CORRECTIVE EDUCATION AND SOCIAL ADAPTATION IN AUXILIARY SCHOOL LESSONS_____20
5. M.Rizayeva. DASTLABKI YILLARDA MATEMATIKA -SINGAPUR TAJRIBASI ASOSIDA KOGNITIV RIVOJLANTIRISH_____24
6. S.Rahmonberdiyev. ZAMONAVIY SHAROITLARDA USLUBIY XIZMATNING O'RNI VA UNING FAOLIYATINI TAHLIL QILISH_____31
7. Z.Ataboyev. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING MOHIYATI VA MAZMUNI_____36
8. A.Usmonov. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH TAMOYILLARI_____40
9. S.Sanayeva, Z.Toshqulova. TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA 6-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI_____44
10. Sh.Xaydarova. INKLYUZIV TA'LIM – BARCHA UCHUN TENG VA MUNOSIB TA'LIM TAMOYILI DOIRASIDA _____49
11. A.Sharafutdinova, A.Amanova. MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNING MAYDA QO'L MATORIKALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI_____53
12. S.Sanayeva, M.Ziyodullayeva. FAOLIYATLI YONDASHUV VA UNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI_____57
***13.* Sh.Xaydarova, D.Raxmonova**. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA O'ZBEK MILLIY TARBIYASINING OILADA TUTGAN O'RNI_____63
14. Sh.Xaydarova, M.Qarshiyeva. MAKTABGACHA YOSHIDAGI

BOLALARDA MADANIY GIGIYENA QOIDALARINI TAKOMILLASHTIRISH_____67
15. Sh.Xaydarova, R. Turdiyeva. KOUCHING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI_____71
16. **D.Djurayeva.** BOLALARNING JAMOAVIY FAOLIYATINING XUSUSIYATLARINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATDAN ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI_____74
17. Sh.Xaydarova, N.Ostanaqulova. MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING KOMPYUTER SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA O`YINLARDAN FOYDALANISH_____76
18. Sh.Ismatova. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETILGAN IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING SHAKL VA METODLARI_____81
19. Sh.Xaydarova, M.Hayitmurodova. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA GURUH TARBIYALANUVCHILARI, TARBIYACHILAR VA OTA-ONALAR O'RTASIDAGI NIZOLI HOLATLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH OMILLARI_____87
20. G.Ermatova, N.Bobojonova. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TOMONIDAN OTA-ONA MAS'ULIYATINI OSHIRISH VA ULARNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLAR BILAN TA'MINLASH_____89
21. S. Mansurova, Z. Toshqulova. MAKTAB HAMDA MAJBURIY BIR YILLIK TAYYORLOV GURUHI HAMKORLIGIDA 6–7 YOSHLI BOLALARNI MAKTABGA MOSLASHUVINI TARBIYAVIY TADBIRLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI_____96
22. N.Adizova. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA XALQARO TAJRIBA VA HAMKORLIK ISTIQBOLLARI_____99
23. N.Nabiyeva, G. Ibragimova, G. Normurodova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BAHO MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH_____103
24. S.Abdullayeva. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANALARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI_____108
25. F.Rajabova. BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA O'YINLARNING O'RNI_____113
26. Sh.Kamolova. 5–6 YOSHLI BOLALARDA SOG'LOM OVQATLANISH HAQIDAGI BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH_____118
27. M.Kubayeva. MULTIFILIMLARNI MAKTABGACHA YOSHDAGI

BOLALAR RIVOJLANISHIGA SALBIY VA IJOBIY TA’SIRI_____125
28. N.Odilovna. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARIDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAVSIYALAR BERISH___129
29. D.Karomatova. BOLALAR ADABIYOTINING JAMIYATDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI_____ 135
30. M.Kaxarova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ILMIY KUZATUVCHANLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI_____ 140
31. S.Komilova. 5-6 YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI _____144
32. G.Kudratova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHDAGI O‘ZGARISHLAR_____149
33. F.Qo‘chqarova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA TARBIYACHINING ROLI_ 153
34. S.Sanayeva, Sh.Shamuratova. RAQAMLI AUTIZMGA UCHRAGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI IJTIMOIYLASHTIRISHNING ZARURATI_____158
35. M.Marufova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISH SOHASI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI_____163
36. N.Meyliyeva, Sh.Ilxomova. NUTQ – AQLNING KO‘ZGUSI: MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR TAFAKKURINI TIL ORQALI RIVOJLANTIRISH_____ 167
37. H.Mizayeva. INKLYUZIV TA’LIMNI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI_____ 175
38. N. Shomurodova, M.Kamolova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI_____ 180
39. S.Izzatilloyeva, S.Murodullayeva. STEAM-TA’LIM YONDASHUVI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ILMIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH_____184
40. S.Negmatova, M.Ravshanova. MAKTABGACHA TA’LIMDA STEAM LOYIHAVIY FAOLIYATI ORQALI BOLALARDA HAMKORLIK VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH_____187
41. H.Ne’matova, F.Ahmadova. NUTQ KECHIKISHINING BOLALARDA VIZUAL-IDROKIY VA MANTIQIY FIKRLASH RIVOJIGA TA’SIRI____ 192
42. H.Ne’matova, D. Nazarova. UMUMIY MASHG‘ULOTLAR

TARKIBIDA LOGOPEDIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI_____196
43. H.Ne'matova, G.Ashrabova. MAKTABGACHA YOSHDAGI GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASHDA PEDAGOGIK KORREKSIYA VA O'YIN TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI_____200
44. H.Ne'matova, M.Suyunova. MAKTABGACHA YOSHDA NUTQ BUZILISHI BO'LGAN BOLALARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL RIVOJLANISHINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA TARBIYACHINING ROLI_____203
45. G.Sapayeva. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI_____ 207
46. Z.Turobova, X.Rizaqulova. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHIT VA UNING TURLARI_____211
47. N.Shopulatova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI_____ 215
48. У.Бозорова. ОСОБЕННОСТИ ВОЗРАСТА 6-7 ЛЕТ_____220
49. Sh.Karshiyeva. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA 5-6 YOSHLI BOLALARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING REFLEKSIV USULLARI_____ 224
50. N.Suvonova. MAKTABGACHA 5-6 YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR KOMPYUTER SAVODXONLIK FAOLIYATLARINI SHAKLLANTIRISH_____229
51. Z.Turobova. MAKTABGACHA TA'LIM TALABALARINING KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA O'QITUVCHI–TALABA MULOQOTI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING O'ZGARISHI_____236
52. N.Tog'ayeva. MAKTABGACHA TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH: MILLIY STRATEGIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI OPTIMALLASHTIRISH_____240
53. J.Yeshnazarova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI_____247
54. B.Aymkulova. MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH_____251
55. D.Odilova. MAKTABGACHA TA'LIMDA XALQARO TAJRIBA VA HAMKORLIK ISTIQBOLLARI_____254
56. S.Rizoqulova. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY

G'URURNI SINGDIRISH OMILLARI_____256
57. K.Ostonova. MAKTABGACHA TA'LIMDA JAMOAVIY BOSHQARUV:PEDAGOGIK LIDERLIK VA IJTIMOIY HAMKORLIKNI KUCHAYTIRISH YO'LLARI_____ 260
58. N.Qambarova. MAKTABGACHA TA'LIMDA TA'LIM DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR_____264
59. J.Yeshnazarova. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI SAVODGA O'RGATISHDA 4K METODIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI_____ 270
***60.* S. Razzaqova**. MAKTABGACHA TA'LIMDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI O'YINLAR VA VIRTUAL MUHITLARDAN FOYDALANISH_____274
61. Z.Turobova, Sh.Bahodirova. MAKTABGACHA TA'LIMDA AXLOQIY TARBIYA JARAYONINING IJTIMOIY–FALSAFIY TAHLILI_____280
62. G.Soipova. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYALASHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNING AHAMIYATI_____283
63. N.Sotivoldiyeva. MAKTABGACHA TA'LIMDA SINGAPUR TAJRIBASIGA ASOSLANGAN INTERAKTIV O'YIN USULLARINING SAMARADORLIGI_____289
64. G.Sultonova. MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH _____ 295
65. G.Teshayeva. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI_____301
66. Sh.Toshpo'latova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KOGNITIV RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI_____304
67. F.Toshqulova. 6-7 YOSHLI BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI_____310
68. M.Ubaydullaeva. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI XODIMLARINING JISMONIY VA PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI BOSHQARISH _____314
69. N.Shomurodova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI INTERAKTIV O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH METODIKASI_____317
70. N.Xoliqulova. TRIZ TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN FAOLIYAT ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING

MATEMATIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH_____321
71. Sh.Xudoyberdiyeva. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SUBMADANIYATINI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI_____324
72. S.Yusupova. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYALASHDA XALQARO TAJRIBANING O‘RNI_____329
73. А.Рашидова. МОНИТОРИНГ КАЧЕСТВА РЕСУРСООБЕСПЕЧЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В ДОУ, КАК ЕДИНЫЙ УПРАВЛЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД_____334
74. N.Ziyodullayeva. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIM0IY RIVOJLANISH BOSQICHLARI_____340
75. Г.Аслонова. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЗЎРАВОНЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШ МАСАЛАЛАРИ_____343
76. U.Jontemirova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KVILLING USULIDA KOMPOZITSIYALAR YASASHGA O‘RGATISH_____348
77. D.Soyibova . JAMOAVIY O'YINLAR ORQALI BOLALARDA HAMKORLIK VA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH BOLALARDA JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI_____ 353
78. S.Istamova. SHAKLLANTIRISHDA “SYUJETLI-ROLLI VA SAHNALASHTIRISH” MARKAZINING AHAMIYATI _____ 359
79. Z.Boboxolova. O‘YIN ORQALI RIVOJLANTIRUVCHI TA’LIM METODLARINI JORIY ETISH_____368
80. G.Qulmurodova. NEUROTA’LIM TEXNOLOGIYALARI: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MIYANING IJODIY NEYROTARMOQLARINI FAOLLASHTIRISH VA NEYROGIMNASTIKA IMKONIYATLARI_____375
81. K.M.Astanakulov, Sh.Ikramova. SUPPORTING THE SOCIAL, EMOTIONAL, AND INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF STUDENTS_____381
82. S. Sanayeva,D.Omontoshova.BAG’RIKENGLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHIYATI VA PEDAGOGIK-PISIXOLOGIK ASOSLARI___ 388
83. K.M.Astanakulov, M.Abrarova. INTEGRATION OF MULTIMEDIA AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL LESSONS_____391
84. S.Sanayeva, S.Sattorova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DO‘STLIK VA HAMKORLIK MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI_____ 398

85. M.Abdusalomova. D.Botirova. O‘QUVCHILARNING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISHDA LOYIHALASHTIRILGAN TA’LIMNING O‘RNI_____403
86. M. Alimova. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI_ 407
87. Р.Азимжонова. ПЕДАГОГИК ОҒИШГАН ЎҚУВЧИЛАРНИ КОРРЕКЦИЯЛАШНИНГ САМАРАЛИ УСУЛЛАРИ_____ 410
88. I.Bo‘riyev. MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN O‘ZGARISHLAR HAMDA TA’LIM TIZIMINING MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI_____414
89. G.Roziqova. OLIY TA’LIM MUASSASASI PEDAGOGLARINING GENDER TENGLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR_____419
90. P.Djurayeva. BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY QOBILIYATLARINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI_____ 422
91. G.Xaliqova. ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI_____432
92. N.Shomurodova. Sh. Istamova. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMODAL TA’LIM MUHITINI YARATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI_____ 436
93. Z.Boltayeva.GENDER PEDAGOGY AND GENDER EQUALITY ISSUES IN EDUCATION_____440
94. M.Mansurova. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MAKTABGA TAYYORLOV GURUH BOLALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK_____ 450
95. Z.Mansurova. ZAMONAVIY PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI O‘QUV JARAYONI SAMARADORLIGIGA TA’SIRI_____ 453
96. U.Suvankulov. MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH _____455
97. S.R.Mansurova. TA’LIM JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISHDA NEYROPEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI_____459

98. N.Xidirova. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR _____463
99. N.Shoimova. TARIXIY OBIDALAR BILAN TANISHTIRISHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI_____466
100. S.Raxmatova. KARYERANI RE'JALASHTIRISHDA IJTIMOIY OMILLARNING TA'SIRI_____470
101. N.Mansurov.PEDAGOGIK MAHORATDA NUTQNING AHAMIYATI_____ 476
102. E.Qudratova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IQTISODIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI_____479
103. А.Эшпўлатова.ТАЬЛИМ ЖАРАЕНИДА РЕФЛЕКСИВ МУХИТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОСИ_____483
104. S.Sultonova. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARIDA SHAKLLANADIGAN ASOSIY KOMPETENSIYALAR _____488
105. M.Suyarqulova. N.Shomurodova. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI_____493
106. H.Ne'matova, Z.Ahmadova. AUTIZM SPEKTR BUZILISHLARI VA ULARNI ERTA ANIQLASHNING AHAMIYATI_____497
107. R.Aynazarova. KREATIV FIKRLASH TUSHUNCHASI VA UNING.BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI O'RNI_____500
108. S.Xafizova. SINGAPUR TAJRIBASI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING LIDERLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI_____503
109. SH.Bafoyeva. BOLALARDA ICHKI "MENI"NI OSHIRISH VA RUHLANTIRISH YO'LLARI_____508
110. M.Homiyatova. O'ZBEK MENTALITETIDA TINGLASH MADANIYATINING O'RNI_____514
111. S.Raxmatova.KARYERANI RE'JALASHTIRISHDA IJTIMOIY OMILLARNING TA'SIRI_____517
112. G.Bozorova. IJTIMOIY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN- MOHIYATI_____523
113. N.Hamdamova. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH YO'LLARI_____526
114. Sh.Mansurova. O'ZBEK TILIDA DIALEKTAL VARIANTLAR VA ULARNING ADABIY TILGA TA'SIRI: SOTSIOLINGVISTIK

YONDASHUV_____531
115. A.Hamroyeva. MAKTABGACHA TA’LIMDA O‘YIN VA INTERAKTIV METODLARNI SUN’IY INTELLEKT BILAN UYG’UNLASHTIRISH_____534
116. Sh.Doniyorova.TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONIDA XALQARO INTEGRATSIYALASHGAN INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR_____ 537
117. N.Xolmirzayev. XORIJIY OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI_____ 541
118. Sh.Doniyorova..OLIY TA’LIMDA RAQAMLI XALQAROLASHUV: GLOBAL TAJRIBALAR, VIRTUAL AKADEMIK MOBILLIK VA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI_____ 546
119. I.Toshpo‘latov. NAVOIY VILOYATIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATI-YOSHLAR SOHASIDA _____ 550
120. M.Iskandarova. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA GLOBAL INNOVATSIYALAR VA MILLIY TA’LIM STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGINI TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI_____554
121. O.Hamroyeva. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING MAKTABGACHA TA’LIMDAGI O‘RNI_____ 557
122. E.Hudoynazarova. OILADAGI STRESLI MUHIT VA UNING BOLA RUHIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI_____560
123. M.Mansurova, S.Farhodova. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQIDA MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH_____564
124. D.Raxmonova. BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHGA KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH_____ 567
125. S.Negmatova. STEAM YONDASHUVLARI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR KREATIV KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari misolida)_____571
126. G.Ermatova. BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA TA’LIMIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRUVCHI ME’ZONLARI_____574

“MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA GLOBAL INNOVATSIYALAR VA MILLIY TA’LIM STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGINI TA’MINLASHNING DOLZARB MASALALARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2025-yil, 5-dekabr.

Texnik muharrir Z.U.Toshqulova

Maqolalar mazmuni va ma‘lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul. Konferensiya materiallari to‘plami Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 29-dekabr, 7-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.